

TURKIY ADABIYOT  
DURDONALARI

O'ZBEK  
ZAMONAVIY NASRI  
ANTOLOGIYASI

33

O'ZBEK ZAMONAVIY  
NASRI ANTOLOGIYASI

33

TURKIY ADABIYOT  
DURDONALARI

O'ZBEK  
ZAMONAVIY NASRI  
ANTOLOGIYASI



# O'ZBEK ZAMONAVIY NASRI ANTOLOGIYASI



"O'ZBEKISTON"  
TOSHKENT — 2022

Handwritten signature and date: 19/04/2022

**Tahrir hay'ati:**

Xayriddin Sulton — hay'at raisi,

Ibrohim G'afurov, Sirojiddin Sayyid, Asadjon Xodjayev,

Behzod Yo'ldoshev, Minhojiddin Mirzo, Muhammad Ali,

Ahmadjon Meliboyev, Kengesboy Karimov, Isajon Sulton

**Ishchi guruh:**

Ikrom Bo'riboev, G'ofur Eshmurodov, G'ayrat Bozorov,

G'ayrat Majid, Rustam Musurmon, Risolat Haydarova, Umid Hayitov

**To'plovchi va nashrga tayyorlovchi****Ma'ruf Toshpo'latov**

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2019-yil 15-oktabr kuni Ozarbayjon poytaxti Boku shahrida bo'lib o'tgan Turkiy davlatlar hamkorlik kengashining yettinchi sammitida tashkilotga a'zo davlatlar adabiyotining eng sara namunalaridan iborat "Turkiy adabiyot durdonalari" deb nomlangan 100 jildlik kitoblar turkumini har bir mamlakatning ona tilida nashr etish g'oyasini ilgari surgan edi.

Ushbu ezgu tashabbus asosida birinchi bo'lib O'zbekistonda mana shu muhtasham adabiy majmua yaratildi.

Mazkur keng ko'lami, zalvorli badiiy silsilaga umumturkiy adabiyotning eng yetuk namunalari, O'zbekiston, Turkiya, Qozog'iston, Qirg'iziston, Ozarbayjon, Turkmaniston va Vengriya davlatlarining atoqli shoir, adib va mutafakkirlarining asarlari kiritildi.

Turkiy tili davlatlar orasida ilk bor ro'yobga chiqarilgan ushbu yirik loyiha ona yurtimizda madaniyat va san'atga ko'rsatilayotgan ulkan g'amxo'rlikning, xalqimizning qardosh xalqlar va ularning so'z san'atiga nisbatan yuksak hurmat-ehtiromining ramzidir.

## O'ZBEK HIKOYALARI MANZARALARI

Aslida hikoyat va rivoyatlar tarkibida vujudga kelgan o'zbek hikoyachiligi XIX asrning so'nggi yillarida janr sifatida paydo bo'lib, XX asrning boshlarida shakllandi hamda o'ziga xos taraqqiyot jarayonini boshidan kechirdi. Darhaqiqat, janrning paydo bo'lishi o'n to'qqizinchi asrning so'nggi yillari bilan bog'lansada, hikoyat va rivoyatlarning paydo bo'lishi insoniyat paydo bo'lishi bilan bog'liq hodisadir.

Albatta, har bir davrda ijod maydoniga qadam qo'ygan adib o'z hikoyalarida adabiyot, uning ijtimoiy-falsafiy vazifasi, maqsad va mohiyati haqidagi nuqtayi nazarini o'zi yashab turgan davriga ko'ra rang-barang shakllar orqali ifoda etadi. XX asrning dastlabki yillari o'zbek hikoyachiligi uchun shakllanish davri bo'lgan bo'lsa, asrning 20-30-yillar hikoyachiligida yangicha qahramon, yangicha talqinlarni sotsialistik realizm metodi asosida tasvirlashga qaratildi.

Shunday qilib XX asrning boshlarida Abdulla Qodiriyning "Uloqda", "Juvonboz", Cho'ponning "Qurboni jaholat", "Do'xtir Muhammadiyor" kabi kichik asarlari yangi janrning paydo bo'lishiga asos bo'ldi. Mazkur hikoyalar uchun ko'proq ijtimoiy muammolar talqini, nisbatan badiiy zaiflik, bayonchilik usuli xos bo'lsa-da, shunga qaramasdan, mualliflar dunyoqarashi, mazmunining milliyligi va tabiiyligi ularda milliy o'ziga xos xususiyatlarning namoyon bo'lishini ta'min etdi.

Ushbu antologiyada o'zbek hikoyachiligining shakllanish davridan so'ng o'tgan asrning 30-40-yillaridan boshlab asrimizning bugungi kunlariga qadar yaratilgan sara hikoyalar tanlab olingan. Tanlangan hikoyalar turli mavzu va yo'nalishlarda, turli uslubda qalam tebratuvchi ijodkorlar asarlaridir. Antologiyaga kiritilgan hikoyalarga tadriijiy asosda tartib berilgan.

Ma'lumki, istiqloqligacha bo'lgan davr adabiyotida xususan, hikoyachilikda ham, milliy-madaniy qadriyatlarimiz, o'zbekona ruh bilan birgalikda sovet mafkurasi yetakchilik qilardi. Shunday bo'lsa-da, adiblarimiz asarlariga milliy o'zlik, ozodlik haqidagi g'oyalarni noziklik bilan singdirganlar. Ushbu to'plamga tanlab olingan hikoyalar ana shu xususiyatlari bilan ham xarakterlidir. To'plamda jamlangan hikoyalarni shartli ravishda quyidagicha tasnif etish mumkin.

1. An'anaviy-realistik asarlar.
  2. Tarixiy asarlar.
  3. Yangi davr, yangi ruhni aks ettirgan asarlar.
- Kitob XX asrning 40-50-yillarida samarali ijod qilgan Saïda Zunnunovning "Shu uyning bekasi" hikoyasi bilan boshlanadi. Unda asr boshlaridagi o'zbek xalqining soddagina hayoti, mehr-oqibat, odamiylik, o'zbekning milliy qadriyatlari haqida hikoya qilinadi. Muallif o'z qarashlarini hikoya qahramonlari Umrinisa va Oysha ayalar misolida o'quvchiga yetkazib beradi. Hikoyadagi "Yigitlardan biri olovkurakda o't olib keldi. Umriniso buvi rahmat aytib, uni tanchaga soldi-da, o'choq boshiga ketdi. Osh damlab turganida bitta kosada chuchvara ko'tarib Oyshabuvi chiqdi. Umriniso buvi mehmonni tanchaga o'tqazib, oldiga das-turxon yozdi" kabi jumalalarida hikoyadagi sof milliy xarakter va an'analar realistik uslubda chizib berilgan.

Nosir Fozilovning "Robinzonlar" hikoyasi ham an'anaviy realistik hikoyalardan biridir. Hikoya qahramonlari Seyit, Matniyoz va Olloniyozi o'smir yigitlar, ular hali hayotning achchiq-chuchugi, qiyinchiliklarini ko'rmagan. Ammo mustaqil yashashga, mehnat qilishga harakat qilishadi. Bu harakatlarini baliq ovi misolida atrofida qilargalarga ko'rsatmoqchi bo'lishadi. Yuzaki qaraganda yozuvchi hikoyada uch o'smirning kattalardan ruxsatsiz qish kunlarining birida baliq oviga borishi, ehtiyotsizlik natijasida muz parchasining yorilib ketishi, uning qanday oqibatlariga olib kelishini tasvirlagandek. Aslida adibning maqsadi shu uch o'smir harakatlari orqali do'stlik degan tuyg'uning mohiyatini anglatgandek, nazarimizda. Seyit va Olloniyozi ham muz parchasiga o'tirib qirg'oqdan uzoqqa suzib ketishi, bu holatdan ularni qutqa-

rilish uchun Matniyozi qilingan harakatlari orqali inson irodasi, boshga kulfat kelganda do'stlik sinovi, oqibat kabi tuyg'ularni shu uch o'smir qiyofasida tasvirlaydi.

O'zining fantastik asarlari bilan dunyoga tanilgan, asarlari 40 dan ortiq tillarga tarjima bo'lgan Xudoyberdi To'xtaboyevni ko'pchilik bolalar yozuvchisi sifatida taniydi. Adibning "Sariq devni minib" asari kirib bormagan xonadon bo'lmasa kerak. Bu gal uning "Muhabbat qo'shig'i" hikoyasi kitobxonlarimiz hukmi-ga havola etilmoqda. "... muhabbat ko'p ulug' narsa. U odam bolasiga qanot va ma'naviy kuch baxsh etadi. Mo'jizalar yaratishga, tog' burgutlaridek yuksak parvozlar qilishga undaydi", deya ta'rif beradi muallif. Go'yo eski bir tuyg'uning har bir yurakda yangilanishiga ishora qiladi adib. Hikoya Sherali va Gulasal munosabatlari orqali asl muhabbatning kuchi, uning makon va zamon, urf-odat va an'analar qo'ygan to'siqlardan mardonavor yengib o'tishi haqida. Milliy an'analar asosida yaratilgan bu hikoya adib ijodining yana bir qirrasini namoyon qiladi.

Farhod Musajonovni ko'pchilik kinosunos sifatida yaxshi taniydi. Ammo adib o'zining bir qator hikoyalari bilan o'zbek nas-ri rivojiga munosib ulush qo'shgan. To'plamdan joy olgan "Ibrat" hikoyasi milliy hikoyachiligimiz an'analari asosida yaratilgan-dek ko'rinsa-da, hikoya ko'proq hajviy xarakterga ega. Yozuvchi Nasihatxo'ja obrazi orqali jamiyatdagi o'z aybini ko'rmasdan doim o'zgalardan kir qidiradigan, birovlarning omadsizligi-yu baxtsizligini yuziga solib rohatlanadiganda, aslida o'zi nasihatga muhtoj kimsalar obrazini yaratadi.

O'lmas Umarbekovning to'plamdan o'rin olgan "Charos" hikoyasi adibning bolalik xotiralari asosiga qurilgan. Xalqimizning "Ot o'rmini toy bosar" maqoli hikoyaning mazmuniga singdirilgan go'yo. Mehr-oqibat, odamiylikning qishloq va shahardagi farqlari, yillar o'tgan sari inson bolaligini qo'rsab yashashi holatlari ushbu hikoyada o'z aksini topgan.

Uchqun Nazarovning "Yangi choyxona" hikoyasi ham yuqoridagi hikoyalardan kabi sof realistik uslubda yaratilgan asardir. Choyxona timsolida o'zbekona an'analar ko'rsatilgan bo'lsa,

Qahhor aka obrazi orqali o'zbekona milliy xarakter chizib berilgan.

Ushbu kitobda jamlangan hikoyalar turli yillarda yaratilgan bo'lishi bilan birga, ulardagi mavzu mohiyat ham turlichadir. O'tgan asrning 80-90-yillarigacha yaratilgan hikoyalarda an'anaviy realistik tasvir va uslublar yetakchilik qilgan bo'lsa, mustaqillikka erishganimizdan keyin yaratilgan asarlarda an'anaviylik bilan birga yangicha tamoyillar adabiyotimizda aks eta boshladi. Mustaqillik davri adabiyotining ilk pallalari tarixiy qadriyatlarini va shaxslarni tiklash davri o'laroq adabiyotshunosligimizda bo'y ko'rsata boshladi. Millat o'zining kimligini, ajdodlari kimligini bilishi lozim edi. Shu tariqa, juda tez orada ulug' ajdodlar haqida dostonlar, she'rlar va nasriy asarlar paydo bo'la boshladi. Amir Temur va temuriyodalar davrini, boburiylar davrini aks ettirgan bir qator nasriy asarlar yaratildi. Chorizim is-tilosini haqidagi badiiy asarlar paydo bo'ldi. Har bir ijodkor ajdodlar va tarix qarshisidagi o'z burchini bajarishga burchli deb his etib, shu burchini ado etishga urindi, ulug' ajdodlar yodi birin-ketin millatga qaytarib berildi. Ana shunday asarlardan biri "Jaloliddin Manguberdi" hamda "Sulton Jaloliddin" romanlari bilan yaxshi tanish bo'lgan adibimiz Erkin Samandar qalamiga mansub "G'ayb qushlari" hikoyasidir. Hikoyada mo'g'ullar bosqini davrida "Yo Vatan, yo sharofatli o'lim" deya xitob aylangan Najmiddin Kubro qismati hajman kichik, mazmunan keng tarzda bayon qilingan. Shayx Najmiddin Kubroning mardligi, yurtga fidoyiligi, mo'g'ul bosqinchilariga qarshi jangi, Vatanga muhabbat tuyg'usi go'zal tasvirlangan. Hikoyani o'qigan kitobxon beixtiyor o'zini o'sha jang maydonida ishtirok etayotgandek his qiladi. Ayniqsa, Vatan bayrog'i muhofazasi tasvirlari har qanday kitobxon qalbida vatanparvarlik tuyg'usini yanada yuksaltiradi.

O'zbek adabiyotida hajviy asarlari bilan tanilgan iste'dodli adib Ne'mat Aminovning "Ayri" hikoyasi ham ushbu to'plamdan o'rin olgan. Garchand Ne'mat Aminov adabiyotimizda hajviy yozuvchi sifatida e'tirof etilsa-da, ushbu hikoya realistik uslubda yozilgan, adib xotiralari aks ettirilgan.

Sa'dulla Siyoyevning "Ota makon", Omon Muxtorning "Shayton arava", Soyim Ishoqning "Zulmatdan zulmatgacha", Ne'mat Arslonning "Amal'gama", Hojiakbar Shayxovning "Sirli nur", Tohir Malikning "Ajab dunyo", Asad Dilmurodning "Xilvat", Mamatqul Hazratqulovning "Cho'li Iroq" kabi hikoyalari o'rin olganki, ularning har birida yozuvchilarimizning maqsad va g'oyalari o'z uslublariga xos tarzda milliy hikoyachiligimizning an'anaviy, falsafiy, fantastik yo'sinlarda aks ettirilgan.

O'tgan asrning 70-yillari so'ngi va 80-yillari boshlarida adabiyotimiz maydoniga bir guruh iste'dodli yoshlar kirib keldi. Mana shunday odimlar sifatida Murod Muhammad Do'st, Erkin A'zam, Ahmad A'zam, Xurshid Do'stmuhammad, Normurod Norqobilov, Olim Otaxon, Nurulloh Muhammad Raufxon, Xayriddin Sulton kabi adiblarimiz adabiyotimizda yangi to'lqin bo'lib, yangi yo'nalishlarni olib kirdi. Bu davr o'zbek hikoyachiligini o'zining rang-barangligi, qamrov ko'laminig kengligi, shakl va mazmundagi yangi jihatlari bilan adabiyotda o'z o'rini egalladi. Realist yozuvchilar ham aytib o'tilgan uslublarga murojaat qilib ko'rdilar va muvaffaqiyatli asarlar yaratdilar. Erkin A'zam "Kimlarga eshik ochasan?" hikoyasini, "Chapaklar va chalpaklar mamlakati" qissasini e'lon qiladi. Xayriddin Sultonning "Ko'ngil ozodadur" qissasida hamda "Onamning yurti", "G'ulomgardish" hikoyalari yangi tadqiqat bo'y ko'rsatgan edi. Nurulloh Muhammad Raufxonning "Chilla", "Etakdagi kulba" hikoyalari tom ma'nodagi metaforik-majoziy asarlardir. To'plamga ana shunday hikoyalardan o'z vaqtida yuksak bahosini olib, bugungi kun uchun ham dolzarbligini saqlagan Murod Muhammad Do'stning "Bir toychoqning xuni", Ahmad A'zamning "Oyning gardishi", Erkin A'zamning "Anoyining jaydari olmasi", Xurshid Do'stmuhammadning "Shabada", Normurod Norqobilovning "Xesh", Olim Otaxonning "To'rtinchi qavatdagi sarg'ish deraza", Nurulloh Muhammad Raufxonning "Etakdagi kulba", Xayriddin Sultonning "Onamning yurti", Jamila Ergashevaning "Dard" hikoyalari o'rin olgan.

Hikoya janrining badiiy takomiliga xos belgilardan biri shundan iboratki, yozuvchilarimiz o'z ijodiy erkinliklari tufayli noan'anaviy ko'rinishdagi, yangi tipdagi qahramonlarni, o'ziga xos milliy xarakterlarni adabiyotga olib kira boshladilar. Bu holat mustaqillik davri nasrida ko'proq aks eta boshladi. Sotsialistik realizm metodidan chekingan ijodkorlar endilikda yangiliklarga yuz bura boshlashdi. Sovet propandasi vaqtida progressiv adabiyot sifatida taqdim etilgan Argentina, Ispaniya, Yaponiya va Turkiya adabiyoti endi ilg'or adabiyot sifatida ko'rilmogda edi. Xorxe Luis Borxes, Xulio Kortasar, Ryunoske Akutagava, Yasunari Kavabata, Kobo Abe asarlari rus tilidan tarjima qilingan bo'lsa, turk tilidan o'nlab badiiy, falsafiy va ilmiy asarlar to'g'ridan to'g'ri o'girila boshlandi. Qardoshlik rishtalari matnoshi ruhiyatida ham sezilib turgani bois, adabiyot ixlosmandalari bu asarlarni chanoqlik bilan o'qidi.

Shuningdek, Yevropa klassikasiga va falsafasiga ham e'tibor kuchaydi. Kyerkegordan Sartrgacha, Kafkadan Joygacha bo'lgan ijodkor faylasuflar asarlarini o'qish, ulardan ta'sirlanish ziyolilar o'rtasida urf bo'ldi. Endi keng ko'lamlil nasr gurkirab maydonga chiqqa boshladi.

90-yillar nasrida ifoda va tasvir imkoniyatlari birmuncha kengaydi, badiiy xarakter yaratishning hukmron mafkuraviylikdan Xoli yangicha shakllari, yangicha usullari, insonni o'rganish, uning ruhiyatini tahlil qilishning yangi badiiy mezonlari yuzaga keldi. Bunday izlanishlar, ayniqsa, o'zining qiyofasini jiddiy ravishda shakllantirishga ulgurgan adiblar ijodida yorqinroq namoyon bo'la boshladi. Yangicha tasvir, teran falsafiy-badiiy talqin, yangicha qahramon xarakteri, yangicha ifoda etish usullari, shu ma'noda, ko'proq Nazar Eshonqul, Shoyim Bo'tayev, Abduqayum Yo'ldosh, Zulfiya Qurolboy qizi, Risolat Haydarova, Isajon Sulton, Ulug'bek Hamdam singari adiblar ijodida yaqqolroq namoyon bo'ldi. Bu yangilanish ba'zan ayrim ayrim tajribalar tarzida ko'rinsa, Nazar Eshonqul, Abduqayum Yo'ldosh, Isajon Sulton, Ulug'bek Hamdamlar ijodida an'analarimizning g'aribona shartiilik bilan uyg'unlashgani kuzatiladi. Ular adabiyotga

an'anaviy uslubdan farqli, noan'anaviy shakliy-tasviriy uslubda o'zbek hikoyachiligiga yangi ramziy ishoralarda yaratilgan, falsafiy mushohadalar bilan to'yingan, ruhiyatlar olami badiiy talqin etilgan qahramonlar obrazlarini olib kirdilar.

Milliy mahdudlik zamonida adabiyot milliy ruhni saqlab qolgan, kelajak avlodlarga shu milliy ruhni yetkazib berish e'tiqodiga sodiq adiblar an'anaviy usullarda asar yaratishda davom etdilar. U usullar Sobir O'nar, Luqmon Bo'rixon, Abdunabi Hamro, Bahodir Qobil, Nabi Jaloliddin, Akbar Mirzolar kabi ko'p sonli ijodkorlar qishloqlardagi, siyosatlardan xoli oddiy kishilar hayotini qalamga olgan bo'lsalar, ayrim ijodkorlarimiz milliy an'analarimizni didaktik yo'sinlarda aks ettirishda davom etdilar. To'plamdan o'rin olgan Qo'chqor Norqobilning "Oqibat daraxti", G'afur Shermuhammadning "Arslon yili", Uyg'un Ro'ziyevning "Oq yomg'irlar" hikoyalari ana shunday asarlar sirasiga kiritishimiz mumkin.

O'zbek hikoyachiligining bugungi avlod adiblari ham o'ziga xos ijod yo'lidan bormogda. Ular asarlarini kuzatib shuni aytish mumkinki, ularda g'arbga xos modern yo'nalishdagi oqimlarga ba'zan ko'r-ko'rona ergashish, ulardan ta'sirlanish, taqlid qilish degan xavotirlarimiz biroz chekingandek ko'rinadi. Ularning asarlariga sinchiklab nazar solinsa, o'zlariga ustoz deb bilgan katta avlod adiblarimiz uslubida ko'p uchraydigan g'aribona ifoda, ramziy tasvirlardan ko'ra hikoyachiligimizning dastlabki uslubi realistlik uslubda qalam tebratayotganlari sezildi.

To'plamdan nasrimizning umidli vakillaridan biri Nurilla Chorining "Tashvishi yo'q odamlar" hikoyasi ham o'rin olgan. Uning hikoyalardagi o'ziga xoslik milliy koloritni xalqona usulda tasvirlashda, qahramonlar xarakterini chizishdagi so'z qo'llashida yorqin aks etadi. "Tashvishi yo'q odamlar" qahramonlari chol-lar ruhiyatini tasvirlarkan, ular fonida ijodkor o'zi ko'rgan voqealikning fojiviy manzarasini chizadi. "Tashvishi yo'q odamlar" hikoyasidagi Boziron chavandoz obrazi orqali o'quvchi umrining oxirida farzandining oqibatsizligidan dog'da qolgan ota qismatining guvohi bo'ladi.

Sanab o'tilgan asarlarda badiiy san'at darajasi turlicha bo'lsa-da, deyarli barcha hikoyalarning asosiy xususiyati milliylikni o'zida xos uslubda aks etishi bilan xarakterlidir.

Albatta, bir kitobga bir asrdan ortiq vaqt mobaynida yaratilgan hikoyalarning barchasini qamrab olishning imkoni yo'q.

XX asrning boshlarida shakllangan o'zbek hikoyachiligi bugunga qadar o'z taraqqiyoti davomida turli ijodiy yo'larni bosib o'tdi. G'oyaviy mazmun, badiiy mahorat, uslub rang-barangligi jihatidan rivojlanib, jahonning ilg'or adabiyotlari safidan o'rin olmoqda. Adabiyotimizda yangi nomlar, yangi badiiy tajribalar, ijod erkinligi tufayli iste'dodlarning badiiy imkoniyatlarini yanada kengaymoqda. Yozuvchilarimiz o'z asarlarida millatga xos xususiyatlarni umuminsoniy qadriyatlar bilan uyg'unlashtirib yangi asarlar yaratishda davom etmoqdalar.

**Gulnoz Sattorova,**

*filologiya fanlari nomzodi*

## SAIDA ZUNNUNOVA

(1926–1977)

*Andijon shahrida tug'ilgan. Andijon o'qituvchilar institutini (1943) va O'rita Osiyo davlat universiteti (hozirgi O'zbekiston Milliy universiteti)ni (1952) tamomlagan. "Qizingiz yozdi" nomli ilk she'rilar to'plami 1948 yilda nashr etilgan. Turli yillarda "Gullar vodiysi" (1954), "Qizlarjon" (1962), "Bir yil o'ylari" (1967), "Nilufar" (1972) she'riy to'plamlari, "Sodiq va Anor" (1947), "Xayrixon" (1949), "Surat bilan suhbat" (1966) dostonlari e'ton qilingan. "Gulbahor" (1956), "Povest va hikoyalar" (1957), "Gulxan" (1959), "Do'stlik" (1960), "Qanot" (1961), "Olov" (1962), "Ko'chalar charog'on" (1965), "Bo'yaringdan o'rgilay" (1972) singari nasriy kitoblari chop etilgan.*

## SHU UYNING BEKASI

Bahor boshlanyapti. Oppoq uvada bulutlarni shamol haydaydi. Osmonning ko'ngillarga yorug'lik to'ldiradigan shaffof rangi ko'rinadi. Quyoshning issig'i nam tuproqdan, ivigan bo'g'otlardan hovur ko'taradi. Daraxtlarning badaniga ham yashillik yugurib qolgan. Qishdan zerikkan odamlar hovli tozalashga shoshiladilar. Bu fasl yoshlarning ko'ngliga muhabbat olib kelsa, keksalarning dilidagi xotiralarni tiriltiradi, g'ayratlarini qo'zg'ab, ruhlarini yengil-latganday bo'ladi. Umriniso buvi derazalarni lang ochib yubordi. Doim berk turaverganidan xax, nam hidi to'lgan uyiga oftob nuri aralash iliq havo kirdi. Elektr plita ustiga suv to'ldirilgan choynakni qo'yib, hovliga chiqdi. Bultur ikki-uch jo'yak pomidor bilan rayhon, jambil ekilgan yerda qolgan uncha-muncha pollar ustiga shama to'kilibdi. Dorda erkaklarning ko'yilagi bilan yonma-yon sochiq osig'liq. Kir tog'orasi ham hovlining o'rtasida mag'zavasi bilan qolaveribdi. Umriniso buvi uni kir o'raga to'kib, tog'ora orqala-

rini yaxshilab yuvdi-da, bir chetga devorga suyab to' nkarib qo'ydi. Nima qilsa ham o'g'il bolalar-da. Yana ham bechora bolalar ovqat pishirishadi, idish-tovoq, kir yuvishadi. Dazmol bosganlari-chi! Umriniso buvi uyida ijarada turgan talaba yigitlar haqida shunday o'ylardi. Goh jahli chiqib, goh mehri tovlanib yurib, har kelgan-da hovlidagi ivirsiqlarni yig'ishtirib, yigitlarga o'z qo'li bilan osh damlab yedirib ketardi. Hozir ham hovlining selgigan joylarini, eshik oldilarini supurdi. Choy shamalarini ham tozalab, yerning bir chetini o'yib ko'mib qo'ydi. Arqondagi kirlarni qoqib, silkib bosh-qatdan yoydi. O'choqboshini tozaladi. Pechka quvuri chiqib turgan derazadan yigitlarning uyiga qaradi. Stol ustida kitoblar qalashib yotibdi. Non, choynak, piyola ham shu yerda. Karavot chetiga shim, ko'ylaklar osig'liq. Choynak qopqog'i shiqirladi. Umriniso buvi qo'lini yuvib uyiga kirdi. Choynak jo'mragidan povullab op-poq hovur ko'tarilardi. Eskiغان bufetning tepadagi oynali ko'zidan kichkina choynak oldi. Uning qopqog'ini ochib, negadir yoruqqa tutib qaradi-da, qaynoq suv bilan chayib tashladi. Choy damladi, ikkita patirdan bittasining yarmini ushatib, oq qand bilan piyolani tancha ustidagi mis barkashga qo'ydi-da, asta o'tirdi. Piyolaga choy quyayotganida tashqaridan:

- O'rtoq, darvozangiz ochilib qopti, kelganga o'xshaysiz, - degan ovozni eshitib, o'rindan turdi. Jigarrang jemper kiyib, kichkina qora jun ro'molini dahanidan bog'lab olgan novcha, qotma bir ayol kira solib, u bilan quchoqlashib ko'rishdi.

Umriniso buvi kulib, taxmondan yangi ko'rpacha olib yozdi:

- Qani, o'tiring. Eson-omon yuribsizlarmi? Qizlar, kelinlar tinchmi?

- Rahmat. O'zingizdan so'rasak?

- Shukur.

Umriniso buvi shisha bankadan idishga murabbo quyib, mehmon oldiga qo'ydi. Keyin choy uzatdi. Nonning qolgan yarim bo'lagini ham ushatib qo'ydi.

- Ushatmang, bo'ladi.

- Nega endi. Qani, Oyshabuvi, oling.

- Haftada bir ko'rinib yuraverasizmi? Bolalaringiz ham behrahmi deyman?

- Yo'g'e.

- Qariganingizda tinch qo'yishin-da endi. Unisi tortib, bunisi sudrasa, bu nima degan gap? Yana hammasi o'qimishli, tushungan bolalar-a!

- Onazor shu ekan-da. O'zimming ko'nglim tinchimaydi. Oling, quruq ichmang. Murabbodan oling. O'zim behidan pishirganman. Ming shukur, shular borki, tashvishlari bor.

- Sal insof ham kerak. Qaysi kuni Zuhrangizga telefon qilsam, Shakarxonnikida, deb aytdi.

- Ha, Shakarxonning sal tobi yo'q, - Umriniso buvi asta xo'rsinib qo'ydi.

- Tirik jon shu-da. Goh og'riysan, goh tuzalasan. Nafaqaga chiqibmanki, yuragim qisiladi. Zerikib ketaman. Bo'ldi endi, ketmang. Mehmonga olib boraman. Kechqurun gaplashib, gurunglashib o'tir ramiz.

Umriniso buvi yumshoqqina kulib qo'ydi.

- Bola-chaqa deymiz-ku, o'nta bola bitta ota-onani boqolmaydi. Shularga sarf qilgan umringizning yarmini hukumatga ishlab qo'yganingizda, bemimmatgina nafaqa puli olib yotar edingiz.

Umriniso buvi gap yoqmadi. Labini yalab, yuzini sal chetga o'girdi-da, bir narsa qidirganday nazar bilan:

- Gap puldami? Omon bo'lishsin, - dedi. Shunday dedi-yu, lekin yuragining bir cheti g'ash bo'lib qoldi. Shuncha qilgan mehnatlari nahotki ko'zga ko'rinmasa?! Mana, bolalari ishlayapti. Ular yomon odam bo'lishmadi. Ularning hammasida yillar davomidagi mehri-mehmati, o'tgan umri, yo'qotilgan husni bor. To'g'ri, hukumat ishini qilmagan. Lekin hukumatga yaxshi-yaxshi farzandlarni tarbiyalab berdi. Bu o'ringa o'tmasmikan-a? Yetti bolani tarbiyalash oson bo'ptimi? Agar shularning biron-tasi noqobil chiqqanda, hukumatga, odamlarga qancha tashvish ortardi.

Umrinisoning o'ylanib qolganini ko'rgan Oyshabibi uni afsuslanayapti, degan xayolga borib, ovutgan bo'ldi:

- Hay, nima bo'lsa, bo'lib o'tdi. Endi omon bo'lishsin. Biri rahm qilmasa, biri qilar. Bugun ketmassiz?

- Buguncha shu yerdaman.



- Kechqurun chiqing bo'Imasa. Keliminga chuchvara bu-yurdim.

- O'zingiz chiqing, osh damlayman.

- Bir o'zingiz uchun urinib nima qilasiz?

- Bola bechoralar ham toliqib kelishadi.

Oyshabuvi o'rimdan turar ekan, boshini sarak-sarak qilib kuldi:  
- G'alatisiz-da, o'rtoq. O'zingiz-chi! O'zingiz charchamay-sizmi?! Mayli, qayerda bo'lsangiz ham omon bo'ling. Kechqurun ko'risharmiz.

Umriniso buvi uni darvozagacha kuzatib qo'ydi. Qaytishda ustiga pechkaning katta cho'yan qopqog'i yopilgan o'rani ochib, sabzi oldi.

Tog'orachaga solib vodoprovod jo'mragi tagida ularni obdon yuv-di. Uch tomonidan ozroq oq soqol chiqara boshlagan sap-sariq sabzi-lar hali ancha tarang edi. Uyga kirib ularni archdi. Keyin ko'kishroq matodan ikki qavat qilib tikilgan to'rtburchak kichkina dasturxon-chani yozib, ustiga taxta qo'yib to'g'ray boshladi. Oyshabuvining beg'araz gapirganini bilsa ham, xayoli parishonroq bo'lib qolgan edi. U turmushidan, o'tgan umridan rozi edi. Lekin ana shu roziligini tushuntirib berolmas edi. Har zamonda pichoq taxtaga taq-taq tegib ovoz chiqarar, uning xayoli goh bo'linib, goh ulanardi.

Uni yoshgina erga berishdi. Endigina kimningdir xayoli ko'ngli-ga ilashgandi-yu, lekin uning o'zi qayerdaligini bilmasdi. Undan so'rab ham o'tirishmadi. Eri Otajon oilada o'rtancha o'g'il bo'lib, rahmdil, kamgap, ammo mehnatkash yigit edi. Qaynotasi tabiblikka qiziqar, har xil giyohlarning xosiyatlarini yaxshi bilar, o'z yaqinlari-ga bemaol dori-darmon berar va buyuraverardi. Bu havas Otajonga ham yuqan edi. Otajon o'n sakkiz yoshida yangi maktab ostonasi-ga qadam qo'ydi. U juda zehnlil, tirishqoq edi. O'qishga shunchalik qattiq bel bog'ladiki, ikki yildayoq to'rtinchi sinfga o'tdi. Qaynotasi ro'zg'or tashvishlarini boshqa o'g'illarga yuklab, Otajonga mum-kin qadar imkoniyat yaratib berar, lekin undan umidi ham katta edi. Ayniqsa, Otajon texnikumga o'tganida chol yayrab ketdi. O'g'lining mulla, o'qimishli odam bo'lishini juda ham orzu qilar edi. Xullas, Otajon yigirma olti yoshida feldsher bo'ldi. O'sha paytlarda "Otajon doktor bo'lib kelibdi", "Otajon falon dori buyuribdi", degan gaplarni

Umriniso ichki bir g'urur bilan tinglar edi. Fotima-Zuhralar birinchi marta maktabga qadam qo'yganlarida Umrinixon savodsizlar kursi-ga o'qishga qatnay boshladi. Kechqurun bo'lsa, oilada kitobxonlik boshlanardi. Keyin bolalar ko'payib ketdi. Umriniso gazeta-jurnal-larni yaxshi o'qiydigan bo'lib oldi-yu, u yog'iga davom ettirilmasdi. Bolalarning kir-chiri, ovqatiga qarash, erining parvarishini buzmas-lik uchun Umriniso o'qish haqida so'z ochmay qo'ya qoldi. Ro'zg'or yumushi bilan kechgacha na oyog'i va na qo'li tinardi. Kechasi bilan yana qo'sh beshik tebratib chiqar, ba'zan juda holdan toygan kezlari-da Otajonni uyg'otmoqchi bo'lsa ham yana ayar, uyg'otishga ko'ngli bo'lmardi. Shu ahvolda tong ottirar, kunduzi ham bir piyola choyni xotirjam icholmas, to'yib uxlashga zor-zor bo'lib ketardi ba'zida. Lekin bolalarining bitta kulgisi, bitta shirin qilig'i uning barcha char-choqlarini quvib, yana kuch kiritib yuborardi.

Umriniso buvi xayol bilan bo'lib, talaba yigitlarning kirib kel-ganini ham sezmay qoldi. Kampirning har kelishi ularni behad quvontirar, uning mehri-ga, iliq so'zlariga o'rganib qolishgan edi. Ular bir-biriga gal bermay so'rasha ketishdi.

- Yaxshi yuribsizmi, xolajon?

- Endi bir-ikki kun turasizmi yoki yana ketib qolasizmi?

Umriniso buvi ham ularga o'rganib qolgan, ko'ngli ochiq, sod-da bu qishloq yigitlari uning kelinlik davrini, Otajonning yoshligini eslatardi.

- Qalay, ota-onanglar sog'-salomatmi? Xat-xabar kelib turib-dimi?

- Ha, sizga ham salom aytishadi doim.

- Xavotir oldirmay, o'zlaring ham tez-tez yozib turinglar, bola-larim.

U har kelganida buni uqtirishni unutmadi. Yigitlar saranjom bo'lib, ochilib qolgan hovliga qarab, bir-birlarini turtishib, lablarini tishlashib qo'yishdi. Ular har doim shunaqa. Ko'zlariga hamma narsa o'rin-o'rinda ko'rinar, qachon kampir kelib yig'ishtirganda-gina, nima qilish kerakligini tushunib qolishardi.

- Hozir pechka yoqamiz. Sandalingizga o't bo'ladi, xola. Bo'Imasa, kechqurun sovuq yeb qolasiz.

Umriniso buvi o'tgan payshanbadan qolgan go'shtni yaxshilab tuzlab ketgan edi.

Havo sovuq bo'lgani uchun mayizday turibdi. Kampir uni ivitib qo'yib, o'zi o'choqqa olov yoqishga tutindi.

Yigitlardan biri go'sht-yog' olib chiqdi.

- Xolajon, ola qoling endi.

- Axir uyda hamma narsa bor, bolam. Keyin o'zinglar ishlatsizlar.

Umriniso buvi qaysi bolasinikida bo'lsa ham payshanba kuni, albatta uyiga keladi. Sabzi-piyozni qovurib, chiroq yoqib qo'ya-di. Shu bilan ko'ngliga yorug'lik to'lib, yengil tortganday bo'ladi. Shu tufayli yigitlarning narsasini hech qachon olmasdi. Ular ham buni bilishar, lekin har gal xijolat bo'lishganidanmi, albatta, aytib ko'rishardi.

Umriniso buvi bu gal ham shunday qildi. Nimalarnidir shivirlab, yuziga fотиha tortdi-yu, xayol surganicha, o'tirib qoldi. Qaynonasi qiz tug'magandi. Hamma kelinlariga ham mehribon edi, lekin Umrinisoni yana ham yaqinroq ko'rardi o'ziga. Choli vafot qilgan-dan keyin ko'proq shular bilan bo'lib qolgandi. Bir kuni kechqurun nimagadir uzoq vaqt xayol surib qoldi. Umriniso kunduzi yuvgan kirlarining yirtig'ini yamab o'tirardi. Qaynonasiga dam-badam qara-b, tobi qochdimi, deb qo'rqib ketdi.

- Biron yeringiz og'rimayaptimi?

- Qariganingdan keyin og'rimagan kuning ham bo'lmay qolar ekan. - U shunday deb bir xo'rsinib qo'ydi. Keyin yana asta gap boshladi:

- Bundan keyingi umrga ishonch yo'q, bolam.

- Unday demang.

- Qizim o'rimga qizimsiz. Bir narsani so'rasam maylimi?

- Mayli, nima edi u?

- Qur'on o'qishni bilasizmi?

Umriniso qizarib javob berdi:

- Ha, uncha-muncha bilaman.

- Men bor ekanman, otangizni yo'qlab yuraman. Mendan keyin unutib yubormanglar, bolam.

O'shanda Umrinisoning yuragi g'alati bo'lib ketgan, ko'ziga yosh kelib, qaynonasining ko'nglini ko'tarishga gap topolmay javdirab qolgan edi.

Yigitlardan biri olov kurakda o't olib keldi. Umriniso buvi rahmat aytib, uni tanchaga soldi-da, o'choq boshiga ketdi. Osh damlab turganida bitta kosada chuchvara ko'tarib Oyshabuvi chiqdi. Umriniso buvi mehmonni tanchaga o'tqazib, oldiga dasturxon yozdi. Bitta kichik, bitta kattaroq lagan ko'tarib o'choq boshiga ketdi. Kattasiga yigitlarga, kichigiga o'zlariga osh suzib qaytib keldi. Mehmonning qo'lga suv quyib, sochiq tutdi. Keyin ustida choynak turgan elektr plitani tokka qo'yib, kelib o'tirdi:

- Qani, oling, o'rtoq, sovimasin.

Kun botib, havo salqin bo'lib qolsa ham badanga qattiq tegmas, xush yoqadigan sovuq edi. Shuning uchun deraza ham, eshik ham ochiq edi. Ular gurninglashib o'tirishib, ozroqdan osh yegan bo'lishdi.

- Tancha odamni juda dangasa qiladi-da, o'rtoq. Mana, turgim kelmay, o'tirdim qoldim.

- O'rin solib beray, shu yerda yotib qola qoling.

- Shamollab qolaman, qo'ying. O'zingiz biznikiga chiqib yoting.

- Yo'g'-e, uyimni sog'inib keldim.

- Cholimni eslab keldim, deya qoling.

- Ha, ishqilib endi, - dedi Umriniso buvi kulib.

Yigitlardan biri qog'oz paketda ozroq mayiz bilan turshak olib kelib o'rtaga qo'ydi.

- Choy bilan ichinglar, xola. Uydan posilka kelgan edi.

- Rahmat, o'g'lim. Qani, o'tiring biz bilan.

- Dars qilayotgan edik.

Oysha buvi o'tirgan yerida birdan bo'y cho'zib, devor tomonga qaradi. Devorning orqasi ularning hovlisi edi. Devorga ayvondagi chiroqning xira yorug'i tushib turar, allakimning boshi ko'rinib uni imlaganday bo'lgan edi.

- Buvi!

Oysha buvi deraza oldiga bordi.

Oz.M.K.O.M.I. MF  
M.B.O.  
№V. № 57/3 (8a)

- Ha, nima deysan?

- Dadam keldi!

Bola shunday dedi-yu, tap etib o'zini yerga tashladi.

- Esi pastni qarang. Ikki qadam yo'lga erinib, uzumning so'risiga chiqqan bu tentak. O'g'lim komandirovkada edi, kelibdi. Qani, yuring, bitta o'zingiz nima qilasiz bu yetda?

Umriniso buvi muloyimgina kuldi.

- Mayli, chiqa qoling. Ertalab ko'risharmiz.

- Ertalab yana yo'lga tusharsiz deyman?

Umriniso buvi, shundoq, deganday jilmayib turardi. Oyshabuvi xayrlashib chiqib ketdi.

Umriniso buvi yolg'iz emasdi. Ancha-muncha kunlarning guvohi bo'lgan bu uy uning nazarida tirikdek edi. Ha, tirikdek u bilan so'zlashardi. Ustunlari ba'zida qisirlab, eshityapsanmi, men ham qariyapman, men ham holdan ketyapman. Mening bag'ringa ham inson nafasi, iliqlik kerak, deyayotganday bo'lardi. Qandoq qilsin? Ertaga Shakarxon kasalxonadan keladi. Bormasdan tura oladimi? Qaysi barmog'ini tishlasa ham, joni og'riydi. Boshqa nima iloji bor. Ertalab uning uyiga yana qulf tushdi.

## NOSIR FOZILOV

(1929-2018)

*Qozog'istonning Chimkent viloyatiga qarashli Turkiston tumani* tug'ilgan. O'rta Osiyo davlat universiteti (hozirgi O'zbekiston Milliy universiteti)ni tugatgan. "Irmoq" (1959), "Oqim" (1962), "Qush qanoti bilan" (1965), "Qorxat" (1968), "Ko'klam qis-salari" (1970), "Diydor" (1979), "Bolaligim - poshsholigim" (1989), "Shum bolaning nabiralari" (1995), "Munavvar lahzalar" (1997), "Eslasang, ko'ngling yorishur" (2004) kabi kitoblari chop etilgan. "O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan san'at arbobi" unvoniga, O'zbekiston davlat mukofotiga ikki karra sazovor bo'lgan. "Tinchlik va ma'naviy hamjihatlik uchun" xalqaro mukofoti (Qozog'iston) sovrindori.

## ROBINZONLAR

Qish ayni avjiga chiqqan mahal edi.

Men maktabdan keldim-da, tez-tez ovqatlandim, ustimga bu yil dadam tiktirib bergan barra teri po'stin bilan tulki tumoqni, oyo-g'imga sal kattaroq bo'lsa ham, akam ovga kiyadigan yo'g'on, uzun qo'njli etikni kiydim. Dahlizda turgan bambuk sopli qarmog'imni, tokchadan dadamning katta qalamtaroshini oldim-da, Seyitlarnikiga qarab yugurdim... Borsam, u ham issiq kiyinib bo'libdi-yu, biroq qovog'ini osiltirib, bermalol o'tiribdi. Yonida Matniyoz ham bor.

Matniyozni ko'rdim-u, jon-ponim chiqib ketdi: qiziq, bizlar nima qilmoqchi bo'lsak, u nuqul qarshi chiqadi. O'zini kattalardek tutib: "O'ylab ko'rish kerak", - deydi.

- Qani, ketdik bo'Imasa, - dedim men Seyitga.

- Shu qattiq bo'ronda-ya! - dedi Matniyoz gapga suqilib, - axir o'ylab ko'rish kerak...

- Bizlar o'ylab ko'rganmiz, - dedim.

Seyit yalt etib qaradi-yu, sekin o'rnidan turdi.  
U qarmog'ini, muz o'yadigan lomni ko'tarib oldi. Uchalimiz  
uydan chiqdik. Matniyoz indamay uyi tomon burildi.

To Amu bo'yiga yetib, muz ustiga chiqqunimizcha Seyit lom-  
mim demadi. Daryo ustidagi muzga tushib, taxminan o'rtaga qarab  
yigirma-o'ttiz metrcha yurib to'xtadi. Men qo'lqopimni kiyib, lom  
bilan muz o'ya boshladim. Sezib turibman: Seyit teskari qarab ni-  
madir qilyapti... Men tomonga qarab-qarab tirjayib qo'yadi. Uni  
yengidan ushlab o'zimga qaratdim.

- Bu nima?

- Ko'rib turibsan-ku! - dedi u kulib.

Uning aqliga hayron qoldim: qarmog'ining uchiga kichki-  
na batareya lampochkasini bog'lab, mum bilan silliqlab, suv kir-  
maydigan qilibdi. Qarmoq ipi o'miga oq rangli elektr sim tortib  
tayoqchaga bog'labdi. Tayoq uchidan oxirigacha o'sha simni tortib  
kelib, batareyaga ulabdi.

- Bu nima?

- Gazeta o'qimaysan, o'rtoq, - dedi-da, qo'lidagi qarmoqni  
bir chetga qo'ydi, shoshilmasdan qo'llarini og'ziga tutib isitgan  
bo'ldi, keyin cho'ntagidan teri qo'lqopini chiqarib bafurja kiydi-da,  
qo'limdagi lomga yopishdi. Jahlim chiqib ketdi.

- Bermayman, avval aytasan, keyin beraman, - deb lomni silkilab  
tortib oldim-u, muzga bir urdim, lom qoq beligacha muzga kirib  
ketdi, tortib olgan edim, burullab suv chiqqa boshladi. Ikkovlashib  
haligi joyni kengaytirdik.

Seyit qarmog'ini suvga tashladi, innaykeyin dastaga bog'lan-  
gan batareya simlarini bir-biriga uladi-da, chaqqon yotib o'yil-  
gan joydan suvga qaradi. Men ham mukkamdan tushib qaradim.  
Qarasam... suv ichidagi haligi lampochka mittilab yonib turibdi...  
Endi tushundim... Baliq yorug'likka intilaman deb...

- Voy kalla-yey, - deb Seyitning boshiga bir turtgan edim, xud-  
di shartlashib qo'yganday po'kak suvga sho'shib ketdi, ikkalamiz  
ham o'rnimizdan uchib turib, qarmoq dastasiga yopishdik.

Mana, hademay, birinchi chavoqbaliq dumi bilan muz ustini  
shapatilay boshladi. Sal o'tmay ikkinchi, uchinchi, to'rtinchi...  
o'ninchi chavoqbaliq, suyenbaliqlar ham muz ustiga chiqdi.

Qancha vaqt o'tganini bilmayman. Qayerdadir qars etib muz  
yorildi. Bir silkinib tushganday bo'ldik. Atrofga alanglab qaradik,  
daryo o'rtasi hali qotmagan, sal narida girdob bo'lib oqayotgan suv  
ko'rinish turardi.

Bir mahal shamol qulog'imizga qandaydir bir chinqirgan to-  
vushni olib keldi. Birinchisiga unchalik ahamiyat bermagan edik,  
ikkinchisi boyagidan qattiqroq, ayanchliroq eshitildi, boshimizni  
ko'tarib atrofga qaradik.

Nazarimda, qirg'oq uzoqlashib ketgandek, narigi betda birov  
qalpog'ini qo'lga olib, silkilab qichqiryapti...

- Matniyoz-ku, - dedi Seyit tirjayib, - alam qilyapti shekilli-a?  
Mening tilim gapga kelmay qotib qolgan edi. Seyit meni ko'rib  
shoshib qoldi.

- Nima bo'ldi senga, Olloniyozi?!

- Oqib ketyapmiz, - dedim men yig'lamsirab.

- A?!

Seyit ham, men ham o'z turgan joyimizda qotib qoldik. Ko'p  
o'tmay qirg'oqdagi haligi odam ko'zdan g'oyib bo'ldi. Rostaka-  
miga qo'rqa odam yig'lay olmas ekan. Ikkalamizning ko'zimizda  
ham nam yo'q. Ketib boryapmiz. Ba'zan to'lqin muz parchamiz  
ustiga sapchib, do'q urganday bo'lardi, o'yilgan joydan chilp-chilp  
qilib suv chiqib, yana qayta tushadi. Avvaliga bilinmagan edi, biz  
turgan muz parchasi o'rtaga surilib, tez oqqan sari ko'proq chayqa-  
la boshladi. Boyadan beri bizlar bir-birimizni aybdor qilmoqchi  
bo'lganday, yaqinlashmay, ikkalamiz ikki joyda qaqqayib turgan-  
dik, muz chayqalib bizlarni yaqinlashtirib qo'ydi. Bir-birimizni  
mahkam ushlashib, ko'zlarimizni javdiratib atrofdan madad qidi-  
rardik. Ammo na u qirg'oqdagi, na bu qirg'oqdagi tilsiz qamishzor,  
to'qayzordan biror sado eshitilmasdi.

Mana, kechga borib, shamol tindi. Biroq qor uchqunlay bosh-  
ladi. Bora-bora ko'nikib qoldik, bir-birimizni mahkam quchoqlab,  
ko'chma muzning o'rtasiga o'tirdik. Seyitni bilmayman, mening  
yuragimda qo'rquv. U-bu desam, Seyit: "Menmi, senmi baliq oviga  
boshlagan", - deb ta'na qiladiganday nazarimda. Qayoqdanam shu  
ishni boshlay qoldim? Asta Seyitga qaradim, uyam, ko'zida yosh-u,  
tirjayadi tag'in. Kulib yubordim.

- Endi nima qilamiz? - desam, u:

- Ziganshin, Poplavskiylar nima qilgan edi, - dedim tirjayib.  
- Qoraqalpoqdan chiqqan Ziganshin, - dedim uni sekin quchoq-  
lab. Shundan keyin gapimiz uzilib qoldi. Atrofimizni qorong'ilik  
o'ray boshladi. Muz "qayig'imiz" boyagidan sal tinchroq oqsa  
ham, qorong'ilik atrofimizga o'zining ko'lankasini tashlay bosh-  
ladi. Shunisi tuzuk bo'ldiki, qor taqqa to'xtadi. Nazarimda kun  
soviy boshlaganday. "Uf" desang og'zingdan oppoq bug' chiqadi.  
Quloqchin, tumoqlarimizning bog'ichlari qirovdan oppoq. Atrof  
zimiston. Daryoning shaldirab oqishi ko'rqinchli, qayerdadir muz  
muzga urilib qarsillaydi...

"Mabodo bizning tagimizdagi muz parchalansa-chi? Unda nima  
bo'ladi?!" Shu qo'rqinchli xayol bilan Seyitga qaradim. U ham jim.  
Xayol surib o'tiribdi.

Mana shunday ahvolda kelayotganimizda "qayig'imiz"ning  
tumshug'i bir narsaga kelib qattiq urildi. Bizlar o'tirgan joyimizdan  
bir metrcha joyga sirg'anib borib to'xtadik. Bunday qarasam,  
qirg'oqqa o'xshaydi; yer, qamish... sevinib ketdim.

- Seyit, tur, - dedim men uni turtib, - qirg'oqqa keldik, muz  
surilib ketmasdan tushib olaylik...

- Qanaqa yer?! - dedi u o'rniidan turib.

- Bo'li, tez, muz oqib ketyapti, - dedim shoshilib. - Qarmoqlarni,  
baliqlarni ol.

Bizlar baliqlarni, qarmoqlarni tez-tez qirg'oqqa otib, sakrab  
chiqib olgan ham edikki, muz parchasi asta-sekin bizdan uzoqlasha  
boshladi. Qiziq, muz bizdan uzoqlashyaptimi, qirg'oq uzoqlash-  
yaptimi, bilib bo'lmas edi.

Nima bo'lsa ham bo'ldi, bir amallab yerga chiqib oldik. Xo'sh,  
endi nima qilish kerak? O'ylay boshladik. Hammadan ham shunisi  
yaxshi bo'ldiki, bu yer uncha sovuq emasdi, atrofdan iliqroq sha-  
mol esardi. Bizlar qamish oralab sal olg'a yurgandik, oldimizdan  
suv chiqib qoldi, chapga biroz yurgandik, yana suv chiqdi, keyin  
o'ngga yurdik, yana atrofimizning hammasi suv... Kichik bir orol-  
ga chiqib qolibmiz. Endi nima qildik?!

Asta yurib orolning o'rtasiga keldik. O'tirib o'ylay boshladik.  
Bunday mahalda boshga tuzukroq fikr kelarmidi? Seyit, negadir,

o'rniidan turib, qamishlarning uch-uchidagi popuklarini sindira  
boshladi.

- Nima qilyapsan?

- Ishing bo'lmasin, - dedi u salmoq bilan, - qalamtaroshing  
bormi? Ozroq qamish o'r, yoqamiz...

Juda quvonib ketdim. Demak, Seyitda gugurt bor ekan. Tezda  
bir-ikki bog' qamish o'rib keldim. Seyit boyagi popuklarni bir bog'  
qamish tagiga qo'yib, gugurt chaqdi.

Avvaliga biroz tutab, keyin yondi. Boyagidan sal isiy boshladik.  
Biroq qamish lovullab yonib, tez o'chib qolaverar ekan. Orolchani  
aylanib, uch-to'rtta yovvoyi jiyda shox-shabbasini qirqib keldim.  
Seyit ularni olovga bir-bir tashlab, xayolchan o'tirarkan:

- Ha, mana endi Robinzon ham bo'ldik, - dedi xo'rsinib.  
Men indamadim.

- Yer qimirlayaptimi? - dedi bir mahal Seyit.

- Nima deb aljivapsan o'zing!

- Ana, ana, qaragin.

Rost, orolcha sal chayqalganday bo'ldi.

- Tag'in bu ko'chma orol bo'lmasin, - dedi Seyit vahima qilib.

- Qo'y-e, ko'chma orol Amuda nima qiladi? - dedim men unga  
tasalli berib; - dadam uni Orol dengizida bo'ladi, deganlar-ku...

- Hozir Orol dengizida yurgan bo'lsak-chi?

- Nima! - yuragim shuv etib ketdi. - Rost, atrofimiz hammasi  
suv...

Ilgarilari Orol dengizida ko'chma orolcha borligini keksa  
baliqchilardan, o'qituvchilardan eshitardik. Mana endi o'zimiz  
ko'chma orol ustida yuribmiz.

- To'xta-to'xta... Eshityapsanmi? Samolyot...

Rost, samolyot. Men o'mimdan uchib turib, osmonga qaradim.  
Samolyot! Ikkalamiz kuchimiz boricha baqirdik. U pastlab kelib,  
o'ng tomonimizdan o'tib ketdi. Eh, attang!..

U sal o'tmay chap tomonimizdan yana ko'rindi. Men katta, bir  
uchi yonayotgan shoxni baland ko'tarib, u yoqdan bu yoqqa sil-  
kidim. Yana u parvo qilmay o'tib ketdi. O'tib ketdi-yu, yana orqa  
tomonimizdan pastlab uchib o'tdi. Bu gal ham ovozimiz boricha  
qiyqirib, yonayotgan shoxni baland ko'tarib silkidik.

- Ana, ana ko'riпти, ur-re... ko'riпти. Signal beryapti, - dedi Seyit quvonib, - ko'ryapsanmi Olloniyoz, signal beryapti...

Samolyot ko'k, qizil chirog'ini bir o'chirib, bir yondirib, asta-sekin qorong'i tun bag'riga sho'ng'ib ketdi.

- Ko'rganda nima, bu yerga qo'na olarmidi, - dedim men haf-salam pir bo'lib.

- Rost, - deb xo'rsindi Seyit.

Samolyot qaytib kelmadi. Bizlar uni kuta-kuta yana olov atrofiga jim cho'kkaladik. Har kuni bu mahalda men allaqachon ovqatlanib bo'lib, darslarimni tayyorlayotgan bo'lardim. Oyim bugun qanday ovqat qilgan ekan-a? Qornim ochgani endi bilina boshladi... Miyamga bir fikr kelib qoldi:

- Seyit, baliq pishirmaymizmi?

Qorni ochib turgan ekanmi, boyagi tutgan baliqlarni topib kelgani o'rindan uchib turdi-yu, nimagadir tikilib, qotib qoldi.

- Chiroq, chiroq ko'rinyapti, Olloniyoz, - dedi u quvonib. Men ham o'mimdan uchib turdim. Qarasam, bir chiroq kelyapti. Ko'zimga u xuddi quyosh oqib kelayotganday ko'rindi. Suv ustida nur o'ynardi. Ana, qandaydir gudok...

- Kater... - dedim men asta. Keyin ikkalamiz rosa baqira boshladik. U tinmay gudok chalib, borgan sari yaqinlashar, bizlar hamon baqirardik. Uning o'tkir yog'dusi kichik orolchani butunlay yoritib kelardi. Sal o'tmay ko'zimiz qamashib, katerga qaray olmay qoldik... Ana, tarillagan tanish tovush, yozda daryoda yuradigan kichkina kater... U sal o'tmay orolchaga tumshug'ini taqadi. Ana, ustidan bir-ikki kishi tushdi. Birortasi ham tanish emasday...

- Seyit, Olloniyoz! - deb qichqirdi kimdir, kater ichidan. Ovozidan darrov tanidim: Matniyoz...

- Qani, qahramonlar katerga chiqinglar, - dedi bir yo'g'on ovozli kishi. Men, rosa boplab urishsa kerak, deb o'ylovdim. Xayriyat, negadir indamadi. Avval, Seyit, keyin men katerga chiqdik. Haligi odamlar ham chiqishdi. Men, Matniyoz, Seyit qator o'tirishdik.

- Rosa qichqirsam ham qaramadinglar, - dedi Matniyoz, - men ham qarmog'imni olib chiqib, shunday qirg'oqqa kelsam, oqib ketayotgan ekansizlar... Qichqirdim-qichqirdim, eshitmadinglar, keyin ovulga qarab yugurdim.

- Qani, ketdik, - dedi haligi ovozi yo'g'on kishi. Qorong'ida basharasi ko'rinmasdi. Faqat ustiga kiyib olgan dengizchilar formasi bilan mo'ylovigina zo'rg'a ko'rinardi. Kater asta orqaga buri-ilib, bir silkindi-yu, suvni yorib suzib ketdi.

- Sizlarning bu joyda ekanligingizni samolyotdan bilishdi, - dedi Matniyoz shivirlab, - qancha odam ovora bo'ldi... O'ylab ko'rish kerak edi...

Seyit uning bu so'ziga indamadi. Men asta Matniyozning bo'ynidan quchoqlab oldim. U qarshilik ko'rsatmadi.

Kater tarillaganicha butun dahshat va qo'rqinchmi orqafa qoldrib, olg'a intilardi...

miz atrofida uchi yurishadi. Ha, birodar, biz ana shunday go'zal makonda yashaymiz.

Bir kun direktorimiz markazdan telefon qoqib, "Senga mol doktori yubordim, yaxshilab kutib ol", - deb qoldilar. Doktor yigirma ikki-yigirma uch yoshlardagi barvasta, ikki beti qip-qizil mag'izday bir yigit ekan. Sheralini bir hafta obdon mehmon qildik. Sherali ham o'tirishlarni gullatib yuboradigan, xushchaqchaq, tog'liklarga o'xshab askiyachi ekan. Nayni shunaqangi ezib chalarakanki, yurakbag'ring suv bo'lib oqay deydi. Yigitning ana shu fazilati bizga juda ma'qul tushib qoldi. Bilasan-ku, biz cho'ponlar nay ovozi ni joni-dilimizdan ortiq ko'ramiz.

- Cho'pon bolasimisiz? - deb so'rayman yigitdan.

- Yo'q, og'a, yoshligimda cho'ponlar orasida ko'p bo'lganman, - deydi yigit zavqlanib, - nay chalishni o'shalardan o'rgan-ganman.

Ishga ham juda astoydil kirishdi. Sovxozning jamiki tuyoqlarini hech kimga ishonmay o'zi ro'yxatga oldi. Biz hech tushunmaydigan g'alati dorilar bilan qo'ylarni bir boshqa, mollarni bir boshqa emlab chiqdi. Shaharda bolalar doktorining hurmati qanchalik zo'r bo'lsa, biz cho'ponlar orasida mol doktorining hurmati ham shunaqangi zo'r bo'ladi. Axir, mollarimizni jon-u dilimizdan ham ortiq ko'ramiz-da.

Sheralini astoydil sevib qoldik. U kechqurunlari charchog'ini tarqatish uchun sevimli nayini chalib, to'planganlarni xushnud qilardi. Biz asta-sekin uning so'lim kuylariga juda o'rganib qoldik. Agarda biz undan biron kuy chalib berishni iltimos qilsak:

- Qanaqasidan bo'lsin? - deb so'rardi kulimsirab.

- Quvnog'idan bo'lsin! - derdi yoshlar.

- "Cho'li iroq" ni bir eshitaylik! - derdi keksalar.

U har qanday kuyni ham maromiga yetkazib, juda o'xshatib chalardi. Yigit ijro etgan kuylarda oshiqqlarning nolasi ham, onalarning allasi ham, maysalarning shitirlashi ham eshitilib turganday bo'lardi. Uning kuylari qalbimizning eng nozik torlarini chertib yuborardi. Bir xillar uzoq yig'lagan odamdek chuqur xo'rsinib qo'yishar, boshqalari esa xuddi sehrlangandek qotib qolishardi. Bahor kunla-

## XUDOYBERDI TO'XTABOYEV

(1932-2021)

Farg'ona viloyati O'zbekiston tumani Katta Tagob qishlog'ida tug'ilgan. Toshkent davlat universiteti (hozirgi O'zbekiston Milliy universiteti)ni tamomlagan. Uning "Shoqaloq", "Sehri qalpoqcha", "Sariq devni minib", "Sariq devning o'limi", "Besh bolali yigitcha", "Qasoskorning oltin boshi", "Yillar va yo'llar", "Sehrgarlar jangi yoki shirin qovunlar mamlakatida", "Mungli ko'zlar", "Sir ochildi", "Omonboy va Davronboy sarguzashti", "Jannati odamlar", "So'qmoqlar" kabi kitoblari chop etilgan. U o'zbek bolalar adabiyotini jahon miqyosiga olib chiqqan ijodkorlardan biri. Asarlari ellikdan ortiq tillarga tarjima qilingan. O'zbek adabiyoti rivojiga qo'shgan hissasi uchun "O'zbekiston xalq yozuvchisi" (1992) unvoniga sazovor bo'lgan.

## MUHABBAT QO'SHIG'I

Birodar, sen muhabbat nima ekanligini bilasanmi, qalbing ishq otashida lovullab yonganmi, biron qiz oromingni olib, tunlarni bedor o'tkazganmisan? Sho'x daryolarni cho'llarga oqizmoqchi bo'lib, azim tog'larni qo'porib tashlamoqchi bo'lganingni eslay olasanmi? Ha, birodar, muhabbat ko'p ulug'narsa. U odam bolasi-ga qanot va ma'naviy kuch baxsh etadi. Mo'jizalar yaratishga, tog'burgutlaridek yuksak parvozlar qilishga undaydi.

Men, birodar, bir muhabbat qissasini so'zlab bermoqchiman. Bu voqea bizning yurtda, osmon bilan o'pishgan tog'lar orasiga joylashgan kichkinagina qishloqchada bo'lib o'tgan. Qishlog'imizning go'zalligini batafsil ta'rifi berish qiyin. Qoyalarga tirmashib o'sgan yashil archalar hovlimizga soya tashlab turadi, yil bo'yi tomlarda anvoyi gullar ochilib yotadi, sayroqi qushlar dasturxonini-

rining birida, oqshom payti edi, maysazorda biz odatdagidek, uning kuylarini tinglab o'tirgan edik. Sherali katta tosh ustiga o'tirib olib, sayhon tomondan mis barkashdek qizarib chiqayotgan oyga tikilgan gancha nay chalardi. U kuy orqali atrofmizni o'rab olgan va biz hech qachon qadriga yetmagan go'zallik haqida so'zlardi. Ko'z o'ngimizda goh shiddatli tog' shalolalari paydo bo'lar, goh shafaqdek qip-qizil shalolalar yastanib ketar, goh bu kuy daryo to'liqlariga aylanib, asov toychadek quturib, qirg'oqlarga urilardi. Bu kuyda tog' gullarining nozik nafosati ham, sevishgan qalblarning qaynoq harorati ham borgan o'xshardi. Bir mahal boshimni ko'tarib qarasam, G'ulom cho'ponning qizi Gulasal yigitga tikilganicha qotib qolibdi, uning shahlo ko'zlari bir nav yoshlangan edi. Yigit nay chalmas edi, yo'q, u nay orqali endigina o'n sakkiz bahorni ko'rgan ana shu qizga muhabbat izhor qilar edi. Ikkovlari ham hamma narsani unutgandek, bir-biridan boshqa hech kimni ko'rishmasdi, "Bular sevishib qolgan", degan dahshatli fikr boshimga keldi va qo'rqib ketdim. Axir, bu qizchaning unashib qo'ygan yigiti Ortiqali ham xuddi shu yerda o'tirgan edi.

Oy tikkaga kelguncha o'ynab-kuldik, tarqalayotganimizda Ortiqali Sheraliga yaqinlashib:

- To'xtang, gap bor! - dedi.  
- Xo'p, eshitaman, - dedi Sherali.  
- Menga ham bir kuy chalib bersalar.  
- Qanaqasidan eshitmoqchisiz?  
- Baxt o'g'risi haqida... - Ortiqali shu paytda juda g'alati bo'lib ketdi.

Mushtlari qisilgan, ko'zlari g'azab va alamdan chaqnar, allaqanday ichki dard vujudini larzaga solgan edi. Sherali ham sekin o'rnidan turdi-da, xotirjam bir kayfiyatda:

- Bunaqangi kuy yo'q, - deb qo'ydi.  
- Bor, chalasan!  
- Chalmayman.  
- Chalasan! Bo'Imasa boshingni yoraman.  
Sherali bir odim oldinga tashlab:  
- Qani, bir ko'raylik-chi, - dedi istehzo bilan.

Yo'q, Ortiqali urolmadi. Qo'lidagi qamchini boshi uzra ko'tarib, asta orqaga chekindi.

- Qadamingni bilib bos, - dedi u entikib, - tag'in yosh joningga jabr qilib qo'ymagin...

Ortiqali sakrab otiga mindi-da, ustma-ust qamchi bosdi.

Gulasal bilan Sherali bir-birlarini sevib qolganlari haqidagi taxminim to'g'ri bo'lib chiqdi. Oradan uch-to'rt kun o'tgach, kechqurun qo'radan xashak janjalini tinchitib qaytayotgan edim. Xarsanglar orasidan g'ovur-g'uvur tovushi eshitilib qoldi. Sekin borib qarasam, ikkovlari yuzma-yuz o'tirib olib so'zlashyapti:

- Gulasal, muhabbatimni qabul et, yo'q dema! - allaqanday o'ziga yarashmaydigan ovoz bilan derdi Sherali.

- Sadaqani boshimga uramanmi? - dedi qiz.

- Nega endi sadaqa bo'lsin? Sevib qoldim, vassalom.

- Sher og'a, siz doktorsiz, men cho'pon qiziman, cho'ponman. Sizning tengingiz emasman...

- Unday dema. Itasang, men ham qo'y haydayman, cho'pon bo'laman, tayoq sudrab yoningda yuraman...

- Meni unashib qo'yishgan! - sakrab o'rnidan turib ketdi Gulasal. Besh-o'n odim yurgach, orqasiga qaytib, yugurib keldi-da, boshini Sheralining ko'ksiga qo'yib, piqirib yig'lab yubordi.

- Nega yig'laysan, yig'lama! - yupatmoqchi bo'ldi yigit. Qiz boshini ko'tarib, biroz chekindi-da, nozik qo'llari bilan olovdek yonib turgan yuzini berkitib: "Kerakmas, kerakmas!" deb qichqirib yig'lagancha soy tomonga tushib ketdi...

- To'xta, Gulasal! Shu ahvolda yubormayman seni, to'xta deyman, - qichqirdi Sherali. Gulasal xarsangtoshlardan biriga o'tirib hayqirib oqayotgan soyga o'ychan tikilgancha uzoq jim qoldi. Toshqin soy suvlari toshdan toshga urilib go'yo ikki qalb quvonchlarini ifodalamoqchi bo'lgandek chapaklar chalib, to'liqlar otar, mavjlanar, qayoqqadir oshiqar edi.

- Sher aka, - dedi nihoyat Gulasal biroz o'ziga kelgach. - Bir narsa so'rasam maylimi?

- So'ra, Gulasal.

- Ketmoqchi emishsiz, rostmi?



- Ketmoqchi emasman, Gulasal, o'qishga bormoqchiman.
- Demak, ketib qolar ekansiz-da?
- Yo'q, aspiranturaning sirtqi bo'limida o'qimoqchiman, Gulasal.

Sherali olis-olislardagi qorli tog' cho'qqilariga ko'z tashlab sekin gapirardi:

- Bu yerdagi mehribon, oqko'ngil do'stlarimni, ta'rifi hech ado qilib bo'lmaydigan bu go'zal adirlar-u anvoyi gullarni, ponyonsiz lolazorlarni tashlab hech qayoqqa borolmayman. Yo'q, men bu o'lkaga qalbim bilan bog'langanman, bir umrga qolib ketaman. Ancha mahalgacha yana ikkovlari jim bo'lib, soyning shovqiniga quloq solayotgandek gap-so'zsiz o'tirdilar.

- O'ninchini bitirayotganimda, - gap boshladi Gulasal xuddi o'ziga-o'zi devayotgandek past ovoz bilan, - men ham katta shaharlarga borib o'qisam, deb orzu qilardim... Orzularim faqat bir xayol ekan...

- Hozir ham kech emas-ku, Gulasal?

- Yo'q, endi hammasi tamom. Mening boshimni bog'lab qo'yishgan, qafasga solingan qushman, ucho olmayman...

Qiz go'yo yonida hech kim yo'qdek ohista o'rmdan turdi-da, soy bo'ylab sekin-asta yurib keta boshladi.

Sherali o'ylaganicha uzoq o'tirib qoldi. Men battarroq qo'rqib ketdim. Nega desang, birodar, ikkovlari uchrashganlari haqida ovoza tarqalgudek bo'lsa, yaxshilik bilan tugamasligiga ko'zim yetar edi. Men shu yurtning bir ulug'i sifatida har qanday bo'lsa ham yuz berishi mumkin bo'lgan falokatning oldini olmoqchi bo'ldim. Sherni "Kelinbosdi" dovonidagi qo'zilarni ko'rib kelishga taklif etdim. Maysazor oralab ot ustida xuddi arazlab qolgandek jimgina borardik.

- Uni sevib qoldingmi? - deb so'radim sekingina.

Sherali ancha mahalgacha indamay, otning dupuriga quloq solgandek jim ketdi. Nihoyat, boshini ilkis ko'tarib:

- Shunday! - dedi o'ychan holda.

- Yaxshi bo'lmabdi.

- Bilaman, og'a.

- Nimani bilasan?

- Unashib qo'ygan yigiti borligini, buning uchun meni sog' qo'ymasliklarini - hammasini bilaman. Lekin, og'a, bu ish mening ixtiyorimdan tashqari bo'ldi.

- Xo'sh, endi nima qilmoqchisan?

- Uylanaman... Boshqa iloj yo'q.

- Ortiqali-chi? El-yurt-chi, urf-odatimiz-chi?

- Men hech narsani bilmayman... - Sherali otiga jahl bilan qanchi bosib mendan ilgarilab ketdi.

Shundan so'ng uning fe'l-atvori juda g'alati bo'lib qoldi. Kun bo'yi otarda, qo'ylarning yonida bo'ladi. Bo'sh qoldi deguncha maysazor orasiga kirib ketadi-da, o'sha yerda biron toshning ustiga o'tirib yurakni ezib yuboradigan kuylar chaladi. Endi u qo'y-qo'zilarni ham, dag'al tabiatli cho'ponlarni ham astoydil sevib qolganiga o'xshaydi. Goho qishloqda haftalab ko'rinmas, zarur bo'lganda uni otardan topardik. O'sha yili rejalarimiz har jihatdan oshib-toshib ketdi.

Cho'ponlarimiz boshqa ovulning cho'ponlari bilan uchrashib qolsalar, "Ishning ko'zini bilib ishlash kerak-da!" deb keriladigan bo'lib qolishdi. Lekin, birodar, bugunmi, ertami bir falokat yuz berishini sezib turardik, Sheralining qiz bilan yashirin uchrashganlari Qrtiqalining qulog'iga borib yetgan, mish-mishlar ko'payib ketgan edi.

Qish yaqinlashib, uzoq-yaqindagi otarlar qishloq yaqiniga qayta boshladi. Dadasi qo'y haydab ketgan Gulasal ham qaytib keldi. Qishlog'imiz yana gavjum bo'lib qoldi. Sheralining yoz bo'yi huvullab yotgan uyida yana o'sha mungli nay sadolari eshitilib qoldi. Endi u o'tgan yildagiga o'xshab, duch kelgan kuyni chalib keta vermas edi. U, birodar, faqat tog'liklar orasida mashhur bo'lgan, ishq-muhabbatni izhor qiluvchi kuylariga chalaradi. Lekin bu yil uning kulbasiga hech kim kelmas edi. Birovning qallig'iga ko'z olaytirib, urf-odatimizni haqorat qilgani uchun deyarli hammamiz undan yuz o'g'irgan edik.

Yigit yakkalanib qolgan edi.

Gulasal bilan maktab binosida gaplashib o'tirganlarini kimdir ko'rib qolibdi. Bu Ortqiqalilarning xonadonini qattiq tahqirlagan bo'lsa kerak, hammalari g'azabga kelib, musht tugib qolishdi. Biz

qo'rqib kutayotgan fojia shu kechasidan qolmay yuz berishi muqarrar bo'lib qoldi.

Qosh qorayganda hovlimga Gulasal entikib kirib keldi. Sochlari to'zg'igan, qorda yalangoyoq yugurib kelganidan butun vujudi ko'karib ketgan.

- Nima gap? O'zingni bossang-chi, qizim! - dedim unga peshvoz chiqib.

- Uni o'ldirib qo'yishadi.

- Kimni?

- Sher akamni.

- Kim o'ldirar ekan? - dedim apil-tapil kiyinib.

- Ortiqali akam, ukasi, otasi uchovlari unikiga o'tib ketishdi, Habib og'a, tezroq boring. Axir, Sher akamda hecham ayb yo'q, hecham. Uning kimligini siz juda yaxshi bilasiz-ku!

- Yig'lama, Sherali ham bo'sh keladigan yigitlardan emas, arslondek kuchi bor, - dedim Gulasalning ko'nglini ko'tarib va o'sha zahotiyoq so'qmoq yo'l bilan Sheralining uyiga yetib bordim. Juda vaqtida kelibman. Sheralini allaqachon o'rtaga olib kaltaklagani shaylanib turishgan ekan.

- Nega to'plandilaring?! - shunday bir vajohat bilan qichqirdimki, nazarimda, uchovlari ham sakrab tushgandek bo'ldi.

Urishib-so'kib hammalarini tashqariga chiqarib yubordim. Sherali bilan ancha mahal gap-so'zsiz o'tirdik.

- Nima qilib qo'yding? - deb so'radim.

- Hech narsa qilganim yo'q, - dedi Sherali boshini yerdan ko'tarmay.

- Sen hozir jo'nab ketishing kerak.

- Ketmayman... - dedi Sherali negadir mushtlarini qisib.

- Ketasan!

- Ketolmayman, Habib og'a, sevganim uchun meni kaltaklamoqchi bo'lsalar, boshimni tutib beraman.

Men Sheralini shu yaqin kun ichida jo'nab ketishga, mehnat ta'tilini shaharda, ota-onasining yonida o'tkazib qaytishga ko'ndirdim. Tun bexatar o'tsin uchun uni o'z uyimga olib ketdim. O'sha kuni kechasi bilan qor yog'ib chiqdi. Shu yoqqancha bir haftacha tinmay, bo'ralab urib berdi. Hamma narsa oppoq qor ostida qolib ketdi.

Qo'ylarimizni etakroqqa olib ketishimiz kerak edi. O'sha yerda pana joylar ham, g'aram-g'aram xashaklarimiz ham bor edi. Qordan so'ng, shamol turib hammayoqni muzlatib berdi. Qo'ylarimiz och-nahor qoldi. Xashak keltirishning hech iloji yo'q edi. Baxtsizlik boshlanganining o'n birinchi kumida vertolyotda xashak keltirishdi-yu, lekin bu yangi tuqan sovliqlarga ham yetmadi.

Biz cho'ponlar to'planib maslahat ustiga maslahat qilardik. Boshimiz qotib qolgan edi.

- Mashinaga yo'l ochish kerak, - deb qoldi bir kekxa cho'pon, - ha, shunday, bundan o'zga choramiz yo'q.

Juda yaxshi taklif. Lekin o'sha mashinani bu yerga birinchi bo'lib kim haydab keladi? Biz sovxoz markaziga telefon qilib, o'z fikrimizni aytgan edik, shofyorlar soddadil cho'ponlar ustidan rosa kulishibdi. Biz dahshatga tushib qoldik. Axir, o'zing o'ylab ko'r, birodar, to'rt ming qo'y-a?

Biz yana to'plandik. Bu gal bola-yu chaqalarimizdan tortib, er-xotin - hammamiz to'plandik. Hatto yakkalanib, kamsuqum bo'lib qolgan Sherali ham kelgan edi. Nima qilish kerak, hammamiz ana shu haqda o'ylardik.

- Mashinani men boshlab kelaman! - deb qoldi shu payt Sherali o'midan turib.

- Qanday qilib? - Hammamizning boshimizga shu fikr keldi.

Ko'pchilik, bu yigit haligacha qishloqdan chiqib ketmagani uchun, mushтини tugib o'tirgan edi.

- Bu pahlavon mashinani orqalab kelmoqchi, - deb piching qildi Ortiqali.

Ko'pchiligimiz mashinaning bu yerga eson-omon kelishiga ishonmasak-da, yigitga oq yo'l tilab qoldik. Hazil-hazil bilan uni yo'lga otlantirib yubordig-u, lekin o'zimiz qo'rqib ketdik. Yonidagi shofyor bilan jarga qulab ketishi hech gap emas edi. Hammamiz sovxozdan telefon qilinishini kutib, tuni bilan mijja qoqmay chiqdik. Nihoyat, ertasiga, "Mashina xashak olib yo'lga chiqdi", degan xushxabar keldi. O'sha paytda biz qanchalik xursand bo'lganimizni sen tasavvur qila olmasang kerak. Yoshlar do'ppilarini osmonga otishdi, keksalar bir-birlarini quchib tabriklashdi. Ha, birodar, qo'ylarimiz omon qolishiga najot topilgandek edi.

Biz mashinaga birinchi bo'lib yo'l ochgan jasur shofyorni urushdan g'olib qaytgan qahramonni kutgandek zo'r tantana bilan kutib olishga qator qildik. Qo'ylarimizdan eng semizlarini tanlab so'ydik, yaxshi kunlarga atab asaldan tayyorlab qo'ygan xushbo'y sharoblarimiz bor edi, ana o'shalardan keltirib qo'ydik. Ha, birodar, biz tog'liklar, qahramonlik nima ekanligini yaxshi tushunamiz va qahramonni boshimizga ko'tarish qo'limizdan keladi.

Kechga tomon mashina ovozi eshitilib, hammamiz o'sha tomonga qarab yugurdik. G'ildiraklarga qo'pol zanjirilar bog'langan katta yuk mashinasini o'zimizning Sheralimiz haydab kelmoqda edi. Ha, bir necha kun avval biz qishloqdan quvib chiqarmoqchi bo'lgan Sherali! Xaloskorimiz, albatta, o'sha bo'lib chiqishini hech o'ylamagandik. Shuning uchun avvaliga juda shoshib qoldik. Keyin o'zimizni qo'lga olib, mashinaning to'xtashini kutmayoq kabinaga yopirilib, Sheralini chiqarib, osmonlarga otdik, yuz-ko'zlaridan o'pib tabrikladik. Xuddi shu paytda Gulasal kutilmagan bir ish qildi. Hammamizning ko'z o'ngimizda olomonni yorib o'tib, Sheraliga yaqinlashdi-da, bo'yniga osilib, sovuqdan ko'karib ketgan yuzlaridan o'pib oldi. Hech kim ajablanmadi. Ha, biz Sherali uchun bir emas, o'nta qizimizni ham berishga tayyor edik. Yurtimizning otaxonlari "Ikkovlari qo'sha qarishsin", deb duoyi fотиha qilishdi. Ana, ko'rdingmi, birodar, muhabbat kishini qanchalik himmatli qilib qo'yar ekan. Ha, muhabbat ko'p ulug' narsa, sevmagan, sevilmagan bo'lsang, birodar, sen uni hech qachon tushunmaysan. Ularning keyingi hayoti haqida so'ramoqchi bo'lganingni sezib turibman. Hozir dunyoda ikkovlaridan ko'ra baxtliroq odam bo'lmas kerak. Ikki farzandlik bo'lishdi. Qizlarining otini Muhabbat, o'g'illarining otini Baxtiyor qo'yishgan. Sheralining qo'lidan hamon navyi tushmaydi, sevgan, sevishtiganlar haqida cho'ponlarimizning baxti, baxtiyorligi haqida kuylagani-kuylagan.

## FARHOD MUSAJONOV

(1933-2013)

*Toshkent shahrida tavallud topgan. Toshkent Davlat universitetini (hozirgi O'zbekiston Milliy universiteti) tugatgan. Ilk "Daradagi qishloqda" hikoyasi 1956-yilda e'lon qilingan. O'ltizdan ortiq nasriy kitoblari chop etilgan. "Oftobni quvalab", "Bir qulum buloq suvi" qissalari, "Hamlet" (1984), "Bog'ko'cha (1987) to'plamlari shular jumlasidandir. "Jazirama oftob ostidagi uy", "Birovning boshi", "Minoralar ostidagi sirk", "Ko'zlarim yo'lingda", "Huvaydo", "Askiya", "Qiziqchi", "So'nmas ziyo" kabi filmlar ssenariy muallifi. "O'zbekiston xalq yozuvchisi" unvoniga sazovor bo'lgan (2011).*

### IBRAT

Kun ayni qiyomiga yetgan, havo yonmoqda.

Bozordan qaytayotgan er-xotin o'z ko'chalariga yetganlarida dam olish uchun qo'shni hovlilardan biri oldidagi yog'och kursiga cho'kdilar.

- Bositxon baraka topsin, eshigining ortini gulzor qilib qo'ydi, bizning kabi toliqqanlar o'tirib nafas rostlaydi, - dedi er. Ayol bosh iring'ab ma'qulladi, ro'molchasi bilan peshona terini artdi.

Er o'rta bo'y, echki soqol, ko'zi kulrang-ko'kimtir, tetik odam edi. Ayol teskarisi - nimjon, ko'rinishi odmi, ko'zlari ma'yus boqardi.

Erning asl ismini mahallada kamdan kam odam biladi. Uni Nasihatxo'ja deb chaqirishadi. Bu laqabni u bekorga olmagan: o'zini barchadan dono hisoblab, hammaga aql o'rgatadi - nonvoy-ga non yopishni, chevarga kiyim tikishni, ustaga imorat qurishni, amaldorga ishni tashkil qilishni.

Barchaga aql bo'lardi-yu, ammo o'zi hech kimning gapiga quloq tutmas, birorta odamning fikrini eshitishga toqati yo'q edi. Sababi

yana o'sha - o'zini hammadan bilimdon sanardi. Mahalla ahli undan bezillab qolgan, negaki, uchratgan odaming yoqasidan bo'g'ib to'xtatadi-da, ezmalanib nasihatni boshlaydi. Hozir ham ichi yonib, tili qichishib o'tirgandi, baxtiga, ko'cha etagida Matqovul ko'rinib qoldi-yu, yog'li o'ljani ko'rgan ovchidek quvonib ketdi.

- Hoy bola, mundoq kel, - dedi buyruq ohangida.

Matqovul omadi chopmagan, noshudroq kimsa edi, to'xtab salom berdi, so'ng "nima deysiz" degandek savolchan boqdi Nasihatxo'jaga.

- Senlarning dastingdan o'ladigan bo'lsak o'lib bo'ldik-ku, - achchiq ta'nadan boshladi so'zni Nasihatxo'ja.

Tomdan tarasha tushgandek bu xurujdan Matqovul dong qotib qoldi.

- Qachon bizlarni tinch qo'yasanlar? - Nasihatxo'ja endi do'qqako'chdi.

Matqovul arang o'ziga keldi.

- Nima qilib tinchingizni buzibmiz?

- Iya, manavining gapini?! - Nasihatxo'ja shox tashlab o'shqirdi, - hech narsa bilmagandek nima qilib tinchingizni buzibmiz deydi-ya? Er-xotin Xudoning bergan kuni ko'chani boshlaringga ko'tarib qirilishasan. Qo'ni-qo'shnilarga na kunduzi tinchlik bor, na kechasi, jonga tegdi senlarning janjallaring!

Matqovul gunohkorona bosh egdi.

- Nima qilay, shunaqa noshukur bandaga yo'liqqanman.

- Aybni xotinga to'nkama, qars ikki qo'ldan chiqadi.

- Siz uni bilmaysiz, g'alvani doim o'sha boshlaydi. Qachon boshqa erkaklarga o'xshab ro'zg'or tebratishni eplaysiz, bolalar och-yalang'och, deb quloq-miyamni yegani yegan. Maoshimni bir tiyimigacha qoldirmay qo'lga olib kelib beraman, uch kunda ado qilib, yana diydiosini boshlaydi, - Matqovul o'ksib hasrat qildi.

- Gap maoshda emas, yaxshi topib gapiradi, yomon qopib, deyдилar. Sen murosani bilmaysan, qo'rssan. Xotin zoti shirin gapning gadosi. Do'q urmay, Xudo xohlasa ishimiz yurishib ketadi, deya yotig'i bilan tushuntirsang, tushunadi, - nasihatni boshladi Nasihatxo'ja.

Tushunmaydi, g'irt nodon u, - e'tiroz bildirdi Matqovul, - necha marta aytganman, sabr qil, Xudo xohlasa boyib ketamiz, deb, Koshki gapga quloq tutsa, - Matqovul xo'rliги kelib noliddi, - og'zimni ochishim bilan "uylangan kuningizdan beri, mana yigirma yil bo'lyapti, shu gapni qaytarasiz, boyish o'rniга kundankunga battar bo'lyapmiz", deb itdek qopib beradi. Shundan keyin meniki ham tutadi, chidolmay so'kaman, ta'sir qilmasa, gohida uraman.

- Ana endi siring oshkor bo'ldi! Zo'ravonsan, zolimsan! - naf-rat bilan hayqirdi Nasihatxo'ja. - Hoy bola, xotinni ursang, bir kun seni xudo uradi. Shuni bir bilib qo'y.

- Nima, unda xotindan qo'rqib yashash kerakmi? Popugini pasaytirib qo'ymasam, boshimda yong'oq chaqadi.

- Seni men aqli-hushli odam desam, g'irt so'tak ekansan-ku, - kuyinib davom etdi Nasihatxo'ja, - xotindan qo'rqmayman, degan erkaklar johil bo'ladi. Ayol kishi go'dakdek behimoya. Bekorga zai-fa deyshmaydi. Rosmana erkak ayolning hurmatini joyiga qo'yadi, izzat-nafsini qadrlaydi. Mana biz opog'oying bilan birga yashab kelayotganimizga o'ttiz yildan oshdi. Shu davr ichida uni bir marta ham chertmaganman, chertish u yoqda tursin, hatto ovozimni balandlatmaganman. Ha, kaftimda olib yuraman. Ishonmasang mana, o'zining yuz-ko'zi, so'ra o'zidan, - Nasihatxo'ja xotinigа yuzlandi. - Ayt, seni hech xafa qilganmanmi?

Opog'oyi yoqinqiramay "yo'q" degandek bosh chayqadi.

- Uyda janjal chiqishiga avvalo oila boshi - er aybdor, - hukm chiqarayotgandek sovuq ovozda davom etdi Nasihatxo'ja.

Matqovul cho'zilib ketgan nasihatlardan zerika boshlagandi, gapga chek qo'yishning payiga tushdi.

- Bilaman, er jaraq-jaraq pul topib kelsa, yaxshi, men bir qorovulman, topish-tutishim haligidek. Shundoq ekan, ming shirin gapiray, baribir yoqmayman xotinga.

- Yanglishasan, - Nasihatxo'ja qizishib kuchandi, - jaraq-jaraq pul topib kelganing taqdirda ham xotiningni odam o'rniда ko'rmay xor qilar ekansan, oilangda inoqlik ham, halovat ham bo'lmaydi. To'g'ri, ayol zoti borki, yaxshi yeb, yaxshi kiyingisi keladi, yangi chiqqan kiyim-bosh, har xil taqinchoqlarga o'ch bo'ladi. Mana,

opog'oying ham haligacha uni olib bering, buni olib bering, deb xarxasha qiladi. Ra'yiga qarab "xo'p, pul tushsa olib beraman" deyman. "Yo'q" degan sovuq gapdan nasiya bo'lsa ham shirin so'z ma'kul. Shunda g'alva chiqmaydi. Er-u xotin san-manga bordimi, tamom, uydan baraka ko'tariladi.

Matqovul Nasihatxo'jadan qay yo'sinda qutulishni bilmay, xit bo'ldi. Qo'lini ko'ksiga qo'yib yolvordii.

- Uzi, taqsir, men nonga ketayotgandim...

Nasihatxo'ja o'ljasini osonlikcha qo'ldan chiqarmaydigan g'addor ovchilardan edi.

- Ba'zi erkaklar bo'ladi, ikkiyuzlamachi, - Matqovulning uzriga mutlaqo e'tibor bermay davom etdi u. - Ular xotinga faqat o'rinda shirin gapiradi, boshqa payt qo'rslik, dag'allik qilib zulm o'tkazadi. O'shanaqalar sadqayi erkak ketsin!... Men opog'oyingni rosmana hurmat qilaman. Ba'zi noinsonlarga o'xshab, butun og'irlikni xotinning yelkasiga ortib qo'ymayman. Qozon-tovoqqa, supur-sidirga ham qarashib ketaveraman, uy yumushi erkakning ishi emas, deb qaqqayib o'tirmayman.

Matqovul og'iz ochgani xezlangan edi, Nasihatxo'ja yana imkon bermadi.

- Yana bir toifa quruq savlat dimog'dorlar bor, xotin sudrab yurishdan nomus qiladilar. Men hech qayoqqa yolg'iz bormayman. To'y-hasham deysanmi, ziyofatmi, tug'ilgan kunmi, konsert-u tomoshalargami, hammasiga opog'oying bilan birga boramiz. Chunki jufti halolimning nafaqat kiyimi-yu ovqatini bo'ynimga olganman, balki...

Endi Matqovul Nasihatxo'janing so'zini bo'ldi.

- Taqsir, do'kon yopilib qolmasin, uyga quruq qaytsam, xotin ikki yamlab bir yutadi, - rosmana yolvordii Matqovul.

- Borasan, tushlikkacha hali bor! - jerkib berdi Nasihatxo'ja. - Shoshilmasdan gapni eshit, jindak mag'zini chaq. Nega jon achitib gapiryapman senga? Mendan ibrat olgin, demoqchiman. Bizlardan ibrat olsang, kam bo'lmaysan, oilang bilan tinch-totuv, huzur-halovatda yashaysan, janjal nimaligini bilmaysan...

- Xo'p, taqsir, ibrat olamiz! - dedi sabr kosasi to'lgan Matqovul, so'ng, "xafa bo'lsa bo'lar", deb juftakni rostlab qoldi.

- Gapni uqdingmi, xotinni hurmat qil, asl erkak bo'lsang! - Matqovulning ortidan qichqirdi Nasihatxo'ja gapi chala qolganidan achchiqlanib. - Tavba, bularga yaxshi bo'lg'in, deb nasihat qilsang, eshitish malol keladi!

Nasihatxo'ja sal hovuridan tushib, xotiniga yuzlandi.

- Ancha damingni olvoldingmi, onasi?! Endi turaqol. Men birrovga Bositxonga uchrab ketaman, sunnat qilmoqchi ekan, bi-lay-chi, qancha guruch damlamoqchi, qancha odam aytmoqchi. Ha, mahalladan bemaslahat ish tutmasin. Sen boraver, onasi, bu yog'i ozgina qoldi, bir hafsala qilsang, yetib olasan.

Ayol bir emas, ikkita zil-zambil xaltani arang ko'tarib o'rindan turdi, oyoqlari chalishib, inqillab-sinqillab yo'lga tushdi.

- Hoy, ehtiyot bo'l, tag'in yiqilib o't-bo'tingni mayib qilib o'tirma, - so'nggi nasihatni berdi Nasihatxo'ja va Bositxonnikiga kirib ketdi.

## O'LMAS UMARBEKOV

(1934–1994)

Toshkent shahrida tug'ilgan. O'rta Osiyo universiteti (hozirgi O'zbekiston Milliy universiteti)ni tugatgan. Ilk kitobi – "Hikoyalar" (1958). "Xatingni kutaman", "Yurak so'zlari" (1960), "Boboyong'oq" (1961), "Yulduzlar", "Menga ishonmaysanmi?" (1962), "Hayot abadiy" (1964), "Charos" (1966), "Ko'prik" (1968), "Bolgar qo'shiqlari", "Oltin yaproqlar" (1972), "Qiyomat qarz" (1976, shu hikoya asosida sahna asari ham bor), "Yer yonganda" (1993) kabi hikoya to'plamlari nashr etilgan. "Odam bo'lish qiyin" (1970), "Fotima va Zuhra" (1994) romanlari, "Sevgilim – sevgilim" (1963), "Kimning tashvishi yo'q" (1965), "Urush farzandi" (1972), "Yoz yomg'iri" (1973), "Oq qaldirg'och" (1974) singari qissalar muallifi. O'zbekiston Davlat mukofoti sovrindori (1980). "O'zbekiston xalq yozuvchisi" unvoniga sazovor bo'lgan (1992)

## CHAROS

Erta tong edi. Endigina ko'tarilgan oftobning iliq nurlari derazalarga tushib, uylarni yorita boshlagandi. Ishga vaqtliroq boshlash, to'g'rirog'i, oltin kuz havosidan to'yib nafas olish ishtiyoqida uydan chiqdim. Biroz etni junjitadigan shabada esardim. Kechasi yomg'ir yog'ib o'tibdi, shekilli, asfalt yo'lka nam.

Muyulishdan o'tib, katta ko'chaga chiqqanimda, ko'k darvoza oldida turgan bir bolaga ko'zim tushib qoldi. Oyog'ida, dadasiniki bo'lsa kerak: katta kalish. Bir tomonga qiyshayib ko'zlariga tushib turgan qalpoq ham o'zining emasdi. Yaqinroq bordim. Bola ko'zlarini ko'chaga tikkanicha, ishtaha bilan qars-qurs qilib allanarsa yerdan. Havasim kelib ketdi.

– Nima yeyapsan, oshna? – dedim yoniga yaqinlashib.

– Uzum, – dedi bola qalpoq ostidan ko'zlarini menga tikib. Keyin qo'ynidan bir nima oldi. Bu – yetilib turgan katta bir bosh qora charos edi. – Oling.

U shunday dedi-da, og'zini katta ochib iljaydi. Sovuqdanmi yo uzumning rangidanmi, lablari ko'm-ko'k ko'karib ketgandi. – Oling, – dedi bola yana.

Lekin o'zi javobimni kutmasdan bir g'ujum uzumni og'ziga tashladi-yu, bir-ikki karsillatib chaynab, yutib yubordi. Tamshanib qo'ydim. Yo'lga tushdim. Ammo yo'lning yarmiga yetganimda bolaning qo'lidagi charosdan, shunaqa yetilgan timqora charosdan biram yegim kelib ketdi! Qani endi bir boshi bo'lsa-yu, xuddi shu boladek kars-kurs suvini sachratib yesang?!

\* \* \*

Bolaligimda ko'pincha shunday qilardik. Bizning qishloq bog' qishloq edi. Kattabog' deb bekorga atashmagan. Qishloqning orqa tomonida, es-es bilaman, katta uzumzor bor edi. Atrofi pastak paxsa devor bilan o'ralgan bu uzumzorning yuz xil rangdagi uzumlari hammaning havasini keltirar, o'tgan ham, ketgan ham suq bilan qaramay iloji yo'q edi. Biz, bolalar uchun esa uzumzor sirli bir dunyo edi. Hammamizning uyimizda husaynimi, buvakimi yo boshqa xil uzum istalgancha bo'lsa ham, shu bog'dagi uzumlardan ko'zimizni uzolmasdik. Hammanikida uzumdan ko'p barg bo'lsa, bu bog'ning ishkamlarida barg deyarli yo'q edi. Po'sti shilingan oppoq tol poyalari oq, qizil, sariq, qora marjonlar go'yo g'uj-g'uj qilib osib qo'yilgandek edi.

Bir kuni o'qishdan qaytayotib, bolalardan besh-oltita sho'xrog'imiz bir joyga yig'ildik-da, o'g'irlik qilishga qaror qildik. Ikki kishi soqchilik qiladigan, qolganlarimiz boqqa tushadigan bo'ldik.

Kitob-daftarlarni kichik bolalardan berib yuborib, poylay boshladik. Ko'chada hech kim qolmadi. Hamma yoq jim-jit. Sekin devorga yaqinlashdik-da, bitta-bitta boqqa tushdik. Uzum! Og'zimiz ochilib qoldi. Bir chekkadan uzib ketaverdik. Bir qo'l bilan yulib qo'ynimizga solamiz, bir qo'l bilan og'zimizga. Birpasda qo'yni-

miz to'lib ketdi. Kimdir cho'ntaklariga, do'ppisiga ham solib oldi. Endi ketamiz deb turgandik, uzoqdan:

- Ho'-ho'-ho'y! Kim bor? - degan ovozni eshitib qoldik-ku!

Sheriklarim tapira-tupuriga olib qochib qolishdi. Men bo'lsam uzumni ko'p yeb qo'yganimdanmi yo qattiq qo'rqib ketganimdanmi, qimirlolmay qoldim. Nima qilishimni bilmay ko'zimni chirt yumdim-da, joyimda turaverdim. Qancha turdim, bilmayman. Ko'zimni ochsam, ro'paramda qizil etik, oq yaktak kiyib, ustidan ko'k qiyiqni bog'lab olgan baland bo'yli bir chol jilmayib turibdi. Qalitrab ketdim.

- Qo'rqma, qo'rqma, bolam, - dedi u mayin tovush bilan. - Uzum kerak ekan, aytmaysanmi, o'zim uzib berardim.

Bunday muomalani men sira kutmagandim, yig'lab yubordim. Ko'zimdan oqqan yoshni artish uchun qo'limni ko'targandim, ko'ylagim ishtonbog'imdan chiqib ketib, qo'yimdagim uzum yer bilan bitta bo'ldi. Lekin chol e'tibor bermadi. Ko'rgan bo'lsa ham, o'zini ko'rmaganlikka solib meni yupata boshladi.

- Yig'lama, nega yig'laysan, tentak? - dedi u boshimni silab. - Bir bosh olibsanlar, ikki bosh olibsanlar, nima bo'пти? Kamayib qoladimi? Qara, bu uzumlarni! Qancha, axir. Hammaga yetadi. Qani, bu yoqqa yur!

Chol qo'limdan ushlab yetaklab ketdi. Bog'ning o'rtasidagi ishkonga kirdim. Ishkom to'la yong'oqdek-yong'oqdek keladigan qora charos edi.

- Tuzukmi? - dedi chol menga qarab va kulib qo'ydi. Ko'kragiga tushib turgan qalin oppoq soqoli silkinib ketdi. - Tuzuk bo'lsa, shundan uzib beraman.

U qiyig'iga osib qo'rgan pichog'ini qinidan sug'urib, uzum uza boshladi. Birpasda yaktagining ikkala bari to'lib ketdi.

- Mana, bolam, ol. O'rtoqlaringgayam olib bor.

Men apil-tapil uzumni qo'yimga solib, ko'chaga yugurdim. Rahmat aytish ham esimdan chiqibdi. Eshik tagiga yetganimda orqamga bir qarab qo'ydim. Chol menga tikilganicha jilmayib turardi.

Shu-shu, deyarli har kuni boqqa charos yegani kirib turadigan bo'lib qoldim. Biroq bu uzoqqa bormadi. Shaharga ko'chib ketdik.

\* \* \*

Mana, shundan beri qancha yil o'tib ketdi. Hozir qishloq qalay ekan? O'sha mashhur uzumzor-chi? Bormikan hali ham? Bog'bon chol-chi? Bu xayollar menga tinchlik bermay qoldi.

Oradan ikki-uch kun o'tmay, Kattaboqqa qarab yo'l oldim. Eski qishloq o'z o'rvida edi. Ammo-lekin o'zgarib ketibdi. Chiroyli uylar, yangi ko'chalar tushibdi. Anhor yoqalab, qishloqning orqa tomoniga o'tdim-u, sevinib ketdim. Uzumzor, o'sha qadim uzumzor, avvalgiday yashnab turardi. Devor ham o'sha devor, faqat tekis qilib suvab qo'yilibdi. Tagida uch-to'rtta bola yong'oq o'ynab o'tiribdi. Boqqa qaradim. Yuz xil rangdagi uzumlar oppoq tol poyalarga atayin terib qo'yilgandek g'uj-g'uj edi.

- Oshna, - dedim bolalardan bittasini chaqirib. - Menga qara, bu uzumchi ota shu yerdamikanlar hozir, bilmaysanmi?

Bola g'alati nazar bilan qaradi-da, do'q aralash so'radi:

- Siz kimlari bo'lasiz?

- Hech kimlari. O'zim, shunday, ko'ray deb keldim.

- Uzumchi buvam yo'qlar. Bultur o'lganlar.

Seskanib ketdim. Butun vujudimni titroq bosdi. Menga hayron bo'lib tikilib qolgan bolalarga e'tibor bermay, sekin orqamga qayta boshladim. Lekin yurolmadim, to'xtab qoldim. Qancha turdim, bilmayman, bir mahal orqamdan:

- Qani, hoy, bolalar-ov! - degan ovoz eshitildi.

Shartta uzumzor tomonga o'girildim. Devorning orqasida oppoq yaktagining etagiga to'latib uzum solib olgan bir yigit jilmayib turardi. Men to'zimni o'nglab olgumicha bolalar etakni bo'shatishdi, yigit uzumzor ichida g'oyib bo'ldi.

- Kim bu? - so'radim haligi boladan boqqa ishora qilib.

- Uzumchi buvamning o'g'illari.

Yuragim o'ynab ketdi. Bog' tomonga yugurdim. Devorga yetganimda chaqirmoqchi bo'lib og'iz juftladim-u, lekin darrov aynidim. Oyog'iga qizil etik, yaktak ustidan ko'k qiyiq bog'lab olgan baland bo'yli yigit ishkamlar orasidan bitta-bitta qadam tashlab borardi. Unga tikilarkanman, yoshligimning shirin xotirasi - uzumchi boboni ko'rgandek bo'lib ketdim.

## UCHQUN NAZAROV

(1934–2016)

*Toshkent shahrida tugʻilgan. Toshkent teatr va rassomlik instituti (hozirgi Oʻzbekiston Davlat sanʼat va madaniyat instituti) ni tugatgan. Dastlab "Odamlar" (1961) hikoyasi bilan kitobxonlarga tanilgan. Soʻng uning "Gʻurur" (1965), "Jurʼat" (1977), "Sadoqat" (1965) nomli hikoya va qissalaridan iborat toʻplamlari chop etilgan. "Chayon yili" romani muallifi. "Surayyo", "Qiz va yigit", "Shiddat", "Alangali sohil", "Qoʻqon voqeasi" kabi badiiy filmlar ssenariy muallifi. Oʻzbekiston davlat mukofoti (1977) sovrindori.*

## YANGI CHOYXONA

Qahhor aka bu choyxonaga qirq yil qatnadi, qish-yoz, is-siq-sovuq demadi, bu yerga kelish uning uchun allaqanday burchga aylandi. Avvallari peshinlikni choyxonada oʻtkazardi, nafaqaga chiqqach, ertadan kechgacha shu joyni obod qildi, bir ulfati ketse, ikkinchisi keladi. Hammalarining oʻtiradigan joylari bor. Yetti kishi galma-gal osh qilishadi. Birov oʻtin yorsa, birov guruch teradi, yana birov sabzi toʻgʻraydi. Qahhor akaning ishi oʻchoqqa unnash, qoʻli shirin-da. Toʻy-azaga, hasharga birga borishadi, mahalla maslahati bularsiz oʻtmaydi. Har ishdan tashabbuskor Qahhor aka.

Choyxonaga xuddi xizmatga qatnagandek chiqadi. Uydagilari Qahhor akani qidirishmaydi, chunki xoʻroz qichqirmay turib, choyxonaga joʻnavorgan, kechasi uyga qaytganida esa hamma uyquda boʻladi. Qidirganlar akani choyxonadan topishadi.

Nevaralari koʻp, nomlarini adashiradi. Sarvi xola: "Qosimjon maktabga boribdi", desa, Qahhor aka nevarasini tanimay: "Kim u?" degan. Sarvi xola qizi Saltanat bilan sovrchilikka borishini aytgani-

da, Qahhor aka koʻzini pirdiragan – nevaralari hali yosh-ku. Bilsa, Murod yigirmaga kiripti, texnikumni bitirib, ishlayotgan emish.

Qahhor aka qaysi kuni bir ayoldan "qoʻlbola" asal sotib olib, oʻsha atrofda oʻynab yurgan bolaning qoʻliga berib, uyining raqamini aytdi.

– Bilaman, – dedi bola Qahhor akaning qoʻlidan asal solingan shisha bankani ola turib. Qahhor aka ajablanib bolaga tikildi.

– Toyirmisan? – dedi Qahhor aka nevaralaridan birini eslagan boʻlib.

– Yoʻq, Sardorman, – dedi bola.

Eski choyxona yoʻlga tushib qoldi. Buzib tashlashdi. Hozir u yerdan asfalt yoʻl oʻtgan. Qahhor aka eshagini yoʻqotgan kishidek, atrofga alanglab, eski choyxonani qoʻmsaydi, termosda choy olib borib, yoʻl chetidagi chinor ostida choy ichadi, baʼzan eski qadrdonlaridan biri unga hamroh boʻladi. Bunday paytlari yangi choyxonani qurilishidan gap ochiladi. Avvalgisi shinamgina, buning ustiga ma-chitga yaqin edi.

– Yangi choyxona qurilmas emish, – dedi bir kuni Yusuf aka.

Bu gap Qahhor akaga qattiq botdi, u kursichasi bilan termosini koʻtarib, uyiga qaytdi. Charchadimi, hafsalasi pir boʻldimi, xonasiga kirib yotdi, uch kun oʻrman tura olmadi. Oʻziga kelgach, yana choyxonaga tomon yoʻrgʻaladi. Ulfatlari har xil oʻyga borishlari mumkin. Davrada besh kishi qolishgan, ikkitasi bir yilda dunyodan oʻtishdi. Keyingisi Qahhorvoy boʻlsa kerak, deb oʻylashuvdi, xayriyat, termosini koʻtarib kelib qoldi. Sheriklari xursand boʻlib ketishdi.

– Koʻrgani bormoqchi boʻlib turuvdik, – dedi ulfatlaridan biri, – xayriyat, oʻz oyogʻing bilan kelding. Bardammisan?

– Choyxona qurilmagunicha oʻladigan anoyi yoʻq, – dedi Qahhor aka. – Turlaring, mahalla raisiga boramiz – joy ajratsin, hashar qilamiz, choyxonamiz...

Chollarning shashtini koʻrgan mahalla raisi ehtiyotlandi.

– Nafaqa pulimizni sarflaymiz, bitta-yarimta savob talab ham topilib qolar, – dedi Qahhor aka. – Samovar, choynak-piyola, sholchalar choyxonachilikda, oʻzini qoʻyamiz.



- Juda soz, - dedi mahalla raisi, - biz ham qarab turmasmiz, bir tomonini ko'taramiz, g'iybatxona bo'lmasa, bas.

- Odam bor joyda g'iybat ham bo'ladi-da, - dedi Qahhor aka.

Bir oyga yetar-yetmas yangi choyxona ko'zga ko'rinib qoldi. Qahhor aka sheriklari bilan qurilishdan nari ketmas, hasharchilarga ovqat pishirar, choy tashir, ba'zan chala choyxonada tunab qolar, erta sahardan biror yumushga unnar, kun o'tganini bilmas edi.

Ikki hafta burun choyxona tomiga tunuka qoqildi. O'sha kuni tongda Qahhor aka bandalikni bajo keltirdi. Janoza yangi choyxonada o'qildi.

## ERKIN SAMANDAR

1935-yilda Xorazm viloyatining Xonqa tumanida tug'ilgan. Xorazm pedagogika institutini tugatgan. Birinchi she'riy kitobi - "Amu jilolari" (1966). "Osmon to'la nur", "Dunyoning yoshligi" (1970), "Vafo degan gavhar" (1975), "Sevgi fasllari" (1973), "Mening yigit vaqtim" (1979), "Qabul soatlari" (1980), "Sohildagi bolalar" (1982) kabi o'ndan ortiq she'riy majmualari chop etilgan. "Osmorning tosh tulpori", "Oltin sandiq", "Erk sadolari", "Ishqiy maktublar" kabi dostonlar, "Pahtavon Mahmud Piryorvaliy" (1995), "Suyanch" (1996), "Ming otilar diyori" (2003) singari qissa va badiialar, "Daryosini yo'qotgan qirg'oq" (1988), "Tangri qudug'i" (1994) kabi romanlar muallifi.

## G'AYB QUSHLARI

Shayxning karomatlari Jo'ji qulog'iga chalingan, hali Gurganiga yurish boshlamasidan oldinoq uning sehrilaridan xabar topgan edi. Daryoni ters oqizarmish, devlarni jilovlay olarmish, o'zganing qo'lidagi yopiq kitobni betma-bet o'qirmish qabilidagi gaplarni avom tarqatgan deb, birda ishonsa, birda ishonmas, ammo buyuk Hoqonning man-man degan shomonlari shayxning ilmiga tan berishlarini ko'rib, dilidagi gumon o'tmini ishonch egallay boshlagan edi.

Gurganij qamali boshlanib, uning darvozalariga yaqin yo'lash mushkulligini va qal'a devori ustida har gal shayx paydo bo'lganida cherik beixtiyor orqaga serpilishini o'z ko'zlari bilan ko'rgach, bu ishonch diliga tag'inda mahkamroq o'rmasdi.

Qamal roppa-rosa yetti oy davom etdi. Chigirtkadek besanoq qo'shin yordamga kelgachgina qal'a darvozasi yemirilib, jang shahar ichkarisiga - mahalla-maydonlarga ko'chdi. Har bitta mahallaning olinishi bitta qat'ani egallasdan ham mushkulroq kechganini ko'rganida Jo'ji tag'in shayxning karomati haqida o'ylarini bildirdi. Karomat deganda u inson botinidagi haybatning zohiriga

ko'chib, odamlarni mutassir etishini tushunar, xorazmiliklarning yengilmasligini esa ana shu haybat ularning joy-joniga singdirilganida, deb bilardi. Go'yo har bir gurganjlikning yuragiga shayx haybati jo bo'lganday, shu haybat uni arslonga aylantirganday edi. Qani endi Jo'jining qo'lida ham shunday bir shayx bo'lsa-yu, u har bir mo'g'ulning qalbiga arslon haybati va jur'atini joylab bersa...

Gurganj deyarlik taslim etilib, qo'shin Najmiddin Kubro xonaqosiga yaqinlashib borayotgan hozirgi asnoda bu orzu Jo'ji qalbini tag'in egallab oldi. Vaqt borida shayxga odam yuborib, agar u roz bo'lsa, boshini omon saqlab qolishni niyat etdi.

Ammo Jo'jining niyati uning ukasi Chig'atoyga yoqmadi.

– Shayx bizga aslo el bo'lmas, – dedi u tundlik bilan. – Oning boshin kesmoq lozim.

– Boshdan boshning farqi bordur, – dedi Jo'ji qizishib, – shayxning boshi ertan bizga asqatar.

Chig'atoy baribir o'z aytganida turib oldi.

Bundan bir oycha muqaddam ham aka-ukaning orasida gap qochgan, Jo'ji qancha avramasin, Chig'atoy so'zidan qaytmagan edi. Unda bahsga Chig'atoyning jahdi, to'g'onni buzib, Gurganjni suvga bostirish vasvasasi sabab bo'lgan edi.

– Faqat shul yo'l bilangina bu qaysar qal'ani taslim aylamoq va jazolamoq mumkin, – Chig'atoyning oxirgi uzil-kesil so'zi shu bo'ldi.

– Yo'q, – dedi Jo'ji. – Gurganjni aslo suvga bostirmagayman, menga xaroba emas, balki boy va suluv qal'a darkor.

Jo'jining bunday deyishi besabab emas edi, yurish oldidan Chingizxon unga Gurganjni taslim et, u seniki bo'lur, degan edi. Jo'ji o'sha kundan boshlab dovrug'i yetti iqlimga ketgan davlatli va savlatli qal'aga egalik qilishni orzu etardi, axir. Chig'atoy bo'lsa...

Aka-uka o'rtasidagi bahsni oxir-oqibat Chingizxon o'zi hal qildi. – Gurganjni Jo'ji ham emas, Chig'atoy ham emas, balki kenja o'g'lim taslim etur, – dedi u va shahzoda O'qtoyni xos qo'shin bilan shahar ustiga yo'lladi.

Natija Jo'ji o'ylaganidek bo'lib chiqdi, qal'ani ostin-ustun qilmay qo'lga kiritishmoqda, buni otasining aqli va O'qtoyning udaburonligidan deb bilardi u.

Hozirgi bahsni ham O'qtoy to'g'ri yechadi, degan umidda uning ko'zlariga boqdi Jo'ji.

O'qtoy amr etdi.

– Shayxga odam yuboring, ul zot oyoq ostida qolib ketmasun, qayga istar, onga ketsun.

Jo'jining yuzi yorishdi. Zimdan Chig'atoyga ko'z tashladi. Uning yalpoq burni tag'inda ichga botganday edi. Bu paytda hazrat shayx Najmiddin Kubro ochiq ayvonda yolg'iz o'ltirgancha og'ir o'yga tolmish edi. Savash ketayotgan guzar va maydonlardan qasir-qusur tovushlar, otlarning bezovta kishnashlari, na'ra va fig'on, alam va armonga, vahshat va nafratga to'la nolalar eshitilib turardi. Bu qonli nidolar shayxning dil yaralarini timash barobarida so'nggi mudhish voqealarni eslatib, xayolini uzoqlarga olib ketar edi. Shu asno shayx uzoq o'ltirdi. Mahzun xayollar qa'rida daf'atan boshdan oyoq oppoq kiyingan, oq soqoli ko'ksini qoplagan nuroniy siymo tag'in yuz ko'rsatdi. Xuddi bundan olti oycha muqaddam bo'lganidek hozir ham uning muloqot istayotgani mungli yuz-ko'zlaridan ochiq-ravshan ko'rinib turardi.

O'shanda, birinchi muloqot paytida u (Xo'jayi Xizir) saltanat tanazzuliga ishorat aylagan, bunga sabab tarzida mamlakatda sodir etilgan sahv-gunohlarni, buzuqliklarni shayxning ko'zlariga bir-bir ko'rsatib bergan edi. Ahli musulmonning bir-birini qirishlari, saroydagi fisq-u fasod, urug'-aymoqlar o'rtasidagi qon to'kishlar, Chingizxonning hiyla-nayranglaridan esi og'ayozgan Xorazmshohning ketma-ket sahv-xatolari oqibatida toj-u taxtda ro'y bergan parokandalik xuddi ko'zgudagidek aniq-tiniq ko'ringan, saltanatdan omad ketganiga ishorat etilgan edi-da.

Mo'g'ullar qal'aga bostirib kirgan, yosh-u keksani bir yoqdan qoniga belayotgan hozirgi asnoda Xo'jayi Xizir tag'in paydo bo'lib, shayxga dedikim, muridlaringga shahardan chiqib ketmoqlikka izn bergan eding, ammoki, ketganlardan qolganlar ko'p bo'ldi, endi alar shahidlik liboslarin kiygaylar.

Ko'p iztirob bulutlari orasida keza-keza muroqaba holatidan chiqib olgan shayx kabir beixtiyor osmonga ko'z tashladi. Shundoq ediki, muroqabadan so'ng shayxning ilk nazariga tushganlar tengsiz kuch-qudrat kasb etmay qolmas, ilojisizga iloj, ishonchsizga

ishonch enmog'iga shubha bo'lmasdi. Bu gal shayxning nazari sa'vaga tushdi.

Sa'vani bir qarchig'ay shiddat bilan quvib borar, ora daqiqa sayin qisqarib, qochayotganing madori quriyotgani va quvayotganing jahdiga jahd ko'shilyotgani shayxga ayon bo'lib turar edi. Shayx holdan toygan sa'vaga nazar solganlari asno manzara o'zgardi, avvalinda ikkita qush o'rtasidagi oraliq ochilib, sa'va o'z raqibidan uzoqlasha boshladi, so'ngra shaxd bilan orqasiga o'girildi-da, daf'atan qarchig'ay ustiga bostirib kelaverdi. Uning zabtiga dosh berolmagan qarchig'ay orqasiga qayrilib qocha boshladi. Sa'va uni bir zumda quvib yetdi-da, zarb bilan qanotiga chang soldi. Ko'p o'tmay qarchig'ayning qanotlari qayrildi. Sa'va uning kekirdagiga og'iz solib, bo'ynidan omburday qisgancha pastga o'qday otildi va ko'z ochib-yumguncha ayvon tepasiga kelib jonidan judo bo'lgan qarchig'ayni shayxning oyoqlari ostiga tashladi. Erkin-erkin silkinib oldi-da, yana yuqorilab keta boshladi.

Ayvon oldidagi hovuz bo'yida bu holatni shayxning bir qism muridlari kuzatib o'tirgan edi, yaxshilikka yo'yib, murshidga ta'zim bajo etgani ayvonga kirishmoqchi bo'lib turganlarida mo'g'ul elchisi kelayotganidan xabar topishdi. Shayxni bundan ogoh etdilar. Sal fursatdan so'ng shayx va elchi bir-biriga ro'baro' bo'lishdi.

Najmiddin Kubro o'z holati va kiyimlarini o'zgartirishga ulguragan, go'yo dorilomon zamon-u shayx hozir jome' masjidiga borib va'z aytadiganday vazmin va purviqor qiyofada o'ltirar, oriqdan kelgan, qotma, echkisoqol elchi esa bundan taajjubga tushganini bilintirmaslikka urinsa-da, ijirg'anganini yashirolmay tajang holda shayxdan uch qadamcha narida tik turar, orqasida o'z qorovullari taroq tishlaridek bir tekis tizilishgan edi. Sassiqlik ter hidi shayxning dimog'iga urilar ekan, ko'ngli ayniy boshlaganini yashirib, xo'sh, nima demoqchisan, deganday unga ko'z qirini tashladi.

– Buyuk shahzoda istayurki, shayx oyoq ostida qolmasun, – gap boshladi bo'g'iq ovozza elchi, – dedikim, shayx aytsun, neki ixtiyor aylar, bajo etilur.

Taajjub, yog'iy qal'a ahlini molday so'ysa-yu uning shayxiga "marhamat" ko'rsatishga jur'at aylasa, xalq boshqa-yu shayx boshqa, deb o'ylarmi, bu nokastlar?!

Shayxning yuzida istehzo paydo bo'ldi. Lekin savolga yarasha javobi deganday bosiqlik bilan elchiga yuzlandi.

– Men bir o'zum emasman, sheriklarim bordur.

"Marhamat"ni shayx bajonidil qabul qiladi, deb o'ylagan shekilli, elchi o'ylanib qoldi va boshi qotib xo'jayinlari oldiga jo'nadi.

Muridlar ustozga savol nazari bilan boqdilar. Ularning ko'nglidan nimalar kechayotganini hazrat ko'rib-anglab turardi. Muridlarning ko'nglida savol hozirgina aytilgan "sheriklarim bordur", degan so'zdan tug'ilganini, buni turlicha anglash, elchining taklifiga qo'yilgan shart deb ham, ayni paytda raddiya deb ham tushunish mumkin edi.

Ularni arosatga solguvchi boshqa bir jihat yo'q emasdi. Bundan bir oycha muqaddam, Gurganjni ortiq himoyalashning mushkulligi ayon bo'lib qolgach, shayx turli qal'a va kentlardan kelib o'z huzurida muqim makon tutgan muridlarga shaharni tark etishga izn bergan, ular esa uchqur otni hozirlab, ustozni olib ketish ta'dorigini ko'rishgan, piri murshid bu taklifni qat'iy rad aylagan edi. Ustozning bir so'zligini bilsalar-da, elchiga berilgan javobdan muridlar biroz taajjubga tushgan edilar. Ularning ko'nglini aniq ko'rib turgan shayx na bir so'z der, na botinidagini zohiriga chiqarag'edi.

Sukut to elchi ikkinchi bor kelgunigacha davom etdi. Muridlar uning qaytib kelishi haqida o'ylab ko'rmaganlari yuz-ko'zlaridagi taajjubdan sezilib turardi. Murshidi a'zam bo'lsa elchining takror kelishi, nima de'yishini oldindan bilgani sabab so'zla, deganday unga sinchkov nazar tashladi. Elchi dedi:

– Shahzoda ma'lum etadurlarkim, yuz kishingizni olib istagan tomonga ravona bo'lgaysiz.

Shayx yuzida tag'in faqat muridlargagina ayon bo'lgan istehzo ko'rindi. Ular bildilarki, hazrat taklifni rad aylagay. Ammo ular o'ylaganday bo'lib chiqmadi. Murshid yana elchini gangitib qo'ydi.

– Yuz kishi dersiz. Odamlarim ondin ko'pdur.

Elchi tag'in orqasiga qaytib ketishga majbur bo'ldi. Oradan ko'p o'tmay qaytib keldi-da:

– Xo'p, ming kishini yoningizga oling, – dedi go'yo katta iltifot ko'rsatganday kerilib.

Ersa shayx dedi:

- Yo'q, men yurtimni, xalqimni tashlab hech qayon ketmasmen. Yaxshi-yomon kunida birga bo'lgan xalqim ila bir tomchi qonim qolguncha birga bo'lurmen! Shu vatanda tug'ilibmiz, shu vatanda o'lurmiz!

Bu gapdan, tabiiyki, elchi g'azabga mindi va xonaqohdan o'qday otilib chiqib ketdi.

Muridlar hazratning niyatini endi aniq bildilar va bir kuni asqatar deb tog'dan keltirib qo'yilgan toshlarni, yarog'larni qo'lga olib berdilar.

Hazrat bu paytda yetmish besh yoshda edi, lekin yigitlarday o'rmondan dast turib, kamami belga mahkam bog'ladi.

- Azizlarim, - dedi muridlariga, qarindosh-urug'lari, yor-birodarlarga qat'iyat bilan, - ayonki, yog'iy so'zun qabul aylab, vatandin chiqib ketar bo'lsak, jonimiz omon qolgay va begona ellarda bo'lsa-da, o'zumizga yarasha martaba topgay erdik. Ammo vatansiz martaba martaba, yurtsiz hayot hayot bo'lgaymi?! Magaram o'z elimizda qolur esak, yog'iyga xizmat yelkamizga tushmay qolmaygay. Bizim yelkamiz tog'ni ko'tarur, ammo bu isnodni ko'tara bilmas. O'z yurtningda o'zga tobe bo'lub yashagandin o'lgan yaxshidur!

Muridlar-u xesh-u aqrabolar javob berdilar:

- Ul hayotdin o'lim afzaldur, hivz-ul vatan, min al-iymon! Vatanni muhofaza aylamoqlik iymon belgisidir, degan yuqoridagi ahd-u paymon hazrat o'zi asos solgan Kubraviya tariqatining asl mag'zi edi, barchasi unga sodiq qoldi, ko'plar savash maydonida shahid ketdilar, qolganlar, mana, o'limni bo'yinlariga olib, jangga kirmoqlikka izn kutib turmoqdalar.

Ularning shiddatlarini ko'rib shayxning ko'nglidan bir fikr kechdi. Qani Xorazmshohda, oning atrofida gildalarda ham shunday iymon, e'tiqod bo'lsaydi, a'yonlar bir-birlarining tagiga suv quyish o'rniga yog'iy ildizlarin quritmoqlikka jahd aylasalar, Jaloliddin Manguberdiga imdod qilsalar erdi, vatan bundoq kunpayakun, xalq bundoq xor-u zabun bo'lmas, bil'aks, yog'iyga sichqonning ini ming tanga bo'lg'ay erdi!

Jaloliddinni o'yalar ekan, shayxning ko'ngliga ishonch to'liqini indil: Inshoollloh, Jaloliddin Manguberdil yog'iyning dodini bergay, jasur avlodlar vatanni dag'i ozod va obod aylagaylar!

Shu o'y bilan hazrat o'z diliga tugib qo'ygan niyatini amalga oshirishga kirishdi. Ichkari kirib sarosimada o'tirgan ayollar holidan xabar oldi, mo'tirab turgan bolalarning boshlarini siladi. Vodarig', hademay bu farishtalarning-da boshlarida yong'oq chaqurlar, qay birlarini qatl aylab, qay birlarining qo'l-oyoqlariga qullik zanjirlarini bog'lamoq bo'lurlar. Ammo yog'iy anglamaski, alarning qariyalaridin tortib norasidasigacha bosh egib yashamoqlikdin tik turib o'lmoqlikni afzal bilurlar!

Valitarosh o'z diydasida halqalangan yoshni jigarpolaridan yashirdi, ayollarning qurlari bunga yetmadi, ular ko'zlaridan duduv yosh to'kib, hazrat etagini so'nggi bor peshonalariga surtdilar. Ko'rdilarki, uning qo'yinlari va hamyonlarida ham toshlar bo'rtib turadur.

... Shayxning uzil-kesil javobidan keyin O'qtov va Chig'atoylar shayx endi o'zidan ko'rsin, deb otga minaverishdi. Jo'ji ham noiloj uzangiga oyoq qo'ydi.

Shayx xonaqohga qamalib oldi, qopqalarni buzamiz, deb o'ylashgan edi. Biroq o'zlar tomon qilich yalang'ochlab kelayotgan bir qism otliqlarni ko'rib, bu shayx va uning odamlari ekanligini sezishdi.

Ora tobora qisqarib, qirq-ellik chog'li otliq yuzlagan qo'shin domiga tushayotgan asnoda yana bir mo'jiza Jo'ji qalbini larzaga soldi. Osmoni falakda lak-lak qushlar paydo bo'lib, maydon uzra uvvos solgancha tinmay charx ura boshladi. Mo'g'ullar shuncha jang qilib bunday holga duch kelishmagani sabab hayratlanib ko'kka o'q uza boshladilar. Lekin o'qlar qushlarga yetib bormas, ora-chira borganlari ham nishonga tegmas edi.

Ikki tomon bir-biriga yaqinlashib qoldi. Qilichbozlikka chog'langan mo'g'ullar daf'atan tosh bo'roniga duch keldilar. Toshning bunday zarb bilan ottilishini umrida ko'rmagan mo'g'ullar sarosimaga tushib birin-ketin otdan qulay boshladi.

Chiyillagan qushlar qo'shin ustiga tobora yaqinlashib kelar, to'p-to'p otliqlarga chang solmoqchi bo'lar, qanotlaridan chiqqan

tovushlar o'q va qilich saslariga, otlarning hayqirig'iga qo'shilib, dahshatli sadoga aylanar edi.

Jo'jining ko'zi o'ng qanotda shiddat bilan qilich sermayotgan yoshi ulug' suvoriyga tushib qoldi, viqoridan bildiki, shayx o'sha. O'sha! U go'yoki zabardast yigitga mengzab na'ra tortar, o'ng qo'lida qilich o'ynasa, so'l qo'li bilan qo'ynidan tosh olib tinmay raqibiga otar, qilichi mo'ljalga, toshi nishonga tegmay qolmas edi. Jo'jining ko'nglida birdan bu shayx jodu bilan qo'shinning ko'zini bog'lab qo'ygan degan xayol keldi. Keldi-yu hayrati nafratga, qiziqishi g'azabga aylandi. Xos cherigini uning ustiga tashladi.

Kamon o'qining zahmi va qilich zarbidan oxiri shayx quladi, qulayotib mo'g'ul tug'chisi qo'lidagi bayroqqa chang soldi, uning bir parchasini yirtib - uzib oldi.

So'nggi nafasda ko'kka nazar tashlagan shayxi kabir o'z boshi uzra charx urayotgan sonsiz-sanoqsiz qushlarni ko'rdi, ularning orasida hali o'z nazari tushgan qushni, qarchig'ayni qiyratgan sa'vani ilg'ab oldi, go'yo o'sha bitta sa'va yuztaga, mingtaga aylangan, ularga lochinlar-u burgutlar qo'shilib, dunyodagi jami qushlarga sado berayotganday, bari qanot sohiblarini o'z saflariga chorlayotganday edi. Shayxning ko'zlarida so'nggi bor umid uch-qunlari yiltiradi.

Mo'g'ul shahzodalar Najmiddin Kubro jasadi ustida paydo bo'ldilar. Uning panjasidagi tug' parchasini olishga buyruq berdilar. Jallodlar qancha urinmasinlar, uni ola bilmadilar. Shayx bar-moqlarini kesgachgina uzuq-yuluq nimalarni yig'ishtirib ololdilar. Bu endi bayroq emas edi...

Qushlar yuqorilab keta boshladi. Gala-gala, aylanib-aylanib ucha boshladi. So'ngra galalar birlashib, ko'k yuzini qoplab oldi. Kutilmaganda yomg'ir quya boshladi. Bu haqiqatan ham yomg'irni yoki ko'qda charx urayotgan qushlarning ko'z yoshlarini yoxud oq qushlar timsolida manguerdilar ko'ksidan otilgan qasos yog'inlarimi, mo'g'ullar farqiga bormadi.

## NE'MAT AMINOV

(1937-2005)

*Buxoro viloyatining Romitan tumanida tug'ilgan. Buxoro pedagogika institutini tugatgan. Birinchi nasriy to'plami - "Ikki pullik obro'" 1966-yilda nashr etilgan. So'ng "Qirq uchinchi pochcha" (1970), "Labiho'vuz xandarlari" (1973), "Chinorlar qo'shig'i" (1984), "Yelkasiz polvon" (1986), "O'g'ri mushukcha" (1987), "Qahqaha" (1987), "Yallama-yorim" (1988), "Cholbolaning ertaklari" (1990) kabi hajviy to'plamlari e'lon qilingan. O'zbek adabiyotiga qo'shgan hissasi uchun "O'zbekiston xalq yozuvchisi" unovniga sazovor bo'lgan (1992).*

## AYRI

Hovlimizning orqasidagi tomorqa yerda bir tup o'rik ko'chati bo'lardi. Uni danakdan ko'kartirganman. Ko'chat shamoldanmi, o'stidagi tuproqning bo'shligidanmi ancha qiyshayib o'sdi. Uchinchi yili gulga kirdi. Otam toldan yo'g'onligi o'g'ir dastadek keladigan bir ayri chopib olib, ko'chatni to'g'rilab, unga tirab, bog'lab-chir-mab qo'ydilar. Endi ko'chat har qanday shamolga ham dosh berib, qomatini tik tutgancha mag'rur turardi. Otam ayrining uchini yerga ko'mayotganlarida:

- Bu qachongacha turadi, ota? - deb so'radim.

- Zaldoluchang katta bo'lib, daraxtga aylansa, ayrining ham hojati bo'lmay qoladi, - dedilar, - hozir bequvvat-da, tepasi jon olgach, unga ayri nimaga kerak.

- Ha.

- Bu yil zaldoluchang dovuchcha qiladi, sarg'ayib pishgach, birinchi hosilidan Xalil bobongga obo'rib berasan.

- Nega, ota?

- Chunki Xalil bobong qishlog'imizdagi eng qari, tabarruk odam, niyat qilib obo'rib bersang, duo qiladilar. O'zing ham, zaldoluchang ham uzoq umr ko'rasizlar.

Xalil bobo asli Tolibning bobosi. Tolib men bilan jo'ra. Uning otasi Hamid tog'a otam bilan baravar, ikkalalarining ham yillari maymun ekan. Lekin otamning gapi qo'rchi Hamid tog'a bilan emas, u kishining otasi - Xalil bobo bilan chiqadi. Ertalabdan kechgacha otamning do'konlarida o'tiradi. Men dam bosaman, Xalil bobo choy quyib beradi. Otam temimi olovga qo'ygan paytlarida Xalil bobo bir piyola choy quyib menga uzatadi, men olib otamga tutqazaman. Xalil bobo otamni "Usta Karim" deb chaqiradi. Uning yeikalari keng, ko'ksi qavariq, oppoq soqli ko'kraginging tuklari bilan qo'shilib ketgan, ko'zlari qizg'ish, nuqul tish qayrab, g'alati ovoz chiqarib turadi. Gohida otam meni ularmikiga yuborib: "Bor, Xalil bobongga ayt, tezda eshaklarini minib chiqsinlar", derdilar. Men borib aytardim. U kishi: "Nimaga, qayerga borarkanmiz", deb so'rab ham o'tirmasdan, birpasda piyozi chakmonini kiyib, simobi sallasini boshiga qo'ndirib chiqardi. Ostida masiqqan ko'k hangi. Xalil bobo atayin eshagiga xala bosib dikonglatadi. Men zavqlanib kulaman. Otam, bu chol hali bizlardan baquvvat, deydilar. Ular bozorga, to'y-ma'ralarga birga borishar, ertasi do'konxonada o'sha to'y yoki safar taassurotlaridan uzoq suhbatlashib o'tirishardi. Xalil bobo namoz-niyozni bilmas, eskichadan ham, yangichadan ham savodi yo'q edi. Bir kuni otam u kishi bilan qandaydir bir ulfatchilikka boradi. Ulfatlarning ko'pchiligi Xalil boboni tanimas ekan. Otam mezbonlarga Xalil boboni ko'rsatib, "Bu kishi katta mullo, madrasani xatm qilganlar", deydi. Bu maqtovlardan erib ketgan Xalil bobo qizarib to'rga chiqib o'tiradi. Ob-oshdan keyin otam yonidagi yigitlardan biriga "Eskicha bir jangnomami, devonmi topib kelsangiz; mullo bobo bir xonish qilsalar", deya shipshiydi. Haligi yigit chiqib ketadi va hayal o'tmay qizil duxoba jildga o'rog'lik kitob keltirib:

- Mana, "Devonayi shoh Mashrab", - deya o'pib ikki marta manglayiga tekizgach, Xalil boboga tutqazadi. - Qani, mullo bobo, bir eshitaylik.

Xalil bobo otamga o'qrayib qaraydi-da, noiloj kitobni olib, tish qayragancha varaqlay boshlaydi.

- O'qirdim-u ko'zoynagim uyda qolgan, - deydi u sir bermay.

Haligi yigit yana chiqib ketadi. Bir poyiga qora ip boylangan ko'zoynak topib keladi.

- Mana ko'zoynak.

Xalil bobo otamga yana bir o'qrayib qaraydi-da, barmog'ining uchi bilan ko'zoynakni ilib olib, teskari tomonini ko'ziga qo'ndiradi. Lekin hadeganda ko'zoynak qulog'iga ilinavermaydi.

- Bu kichik ekan, - deydi qizarib, - yana oynagi ham ko'zimga tushmayapti.

Shunda kulgidan arang tiyilib turgan otam uning joniga ora kiradi.

- Kechirasizlar, - deydi u mezbonlarga, - mulla bobo yanagi kelganlarida ko'zoynaklarini olib keladilar. O'shanda eshitasizlar. Hozir ovozlari ham andak shamollagan.

- To'g'ri, to'g'ri, - deydi Xalil bobo tish qayrab turib atayin yo'talarkan, - tomoq chatoq... tomoq chatoq.

Shu voqeani otam hamqishloqlarga tez-tez aytib berardi. "Tomoq chatoq, tomoq chatoq", deganda hamma kular, ularga qo'shilib Xalil bobo ham kular va bosh chayqab turib: "E, kasaling qursin, usta Karim", deb qo'yardi.

Hovli orqasidagi o'rikchamning dovuchchalari sarg'ayib pishsa, dastlabki hosilini ana shu Xalil boboga oborib beraman. U kishi duo qiladilar, o'zim ham, daraxtim ham uzoq umr ko'ramiz. Shuning uchun har ertalab uyqudan tura solib, ayvon tomondagi to'siqdan orqaga o'taman-da, o'rikchamga qarayman, uning atrofidan aylanib, ayri ushlab, ohista silkiib qo'yaman.

Bir kuni erta azonda uyg'onib, qo'l-betimni ham yuvmasdan tomorqaga o'tdim. Qarasam, o'rikchaga tirab qo'yilgan ayri yo'q. Ko'chat mevasining mo'lligidan bir tomonga egilib qolibdi. Molhol qashlanib tushirib yuborgan bo'lsa kerak, deb o'ylab, atrofni ko'zdan kechirdim. Yo'q. Ayriyning uchi ko'milgan yerdagi chuqurcha atrofida ikki ketmoncha tuproq do'mpayib turardi. Darhol izimga qaytdim. Otam ishga otlanayotgan ekanlar. Aytдим, birgalashib orqaga o'tdik. Otam daraxtchaga qarab o'yga toldilar. Men ham xafa bo'lib ketdim. Qancha turganimiz esimda yo'q, keyin do'kon-ga yo'l oldik.

Otamning bosqonchisi Shirinboy tog'am allaqachon o'choqni o't oldirib turgan edi. Otam peshbandini beliga bog'larkan:  
- Qumg'onni os, - dedilar Shirinboy tog'amga, - hali zamon Xalil bobo kelib qoladilar.

Men dam bosa boshladim. O'txonada toshko'mir avval sarg'ish, so'ng zangor alanga bilan gurullab yondi.

Choshgohda Xalil bobo kelib odatdagidek so'riga chiqib, oyoqlarini osiltirib o'tirdi. Bu gal u Qobil qo'rboshining qo'lga olinishi, uning Sho'rchi bozorida osig'liq turgan kallasi haqida qiziqarli hikoya qilardi.

- Xudoning qudrati bilan, - dedi u nihoyat, - kalla ham shishib ketarkan, bir haftacha vag'-vag' chibin talab yotdi...

- Ko'rganda yuragingiz achishib ketgandir?

- Labbay?! - dedi o'zini eshitmaganga solib Xalil bobo.

- Axir, o'zlari ham qo'rboshiga sarboz bo'lganlar-ku? - dedi otam piyolani menga uzatib.

- Sarboz bo'lib nima qilibman, - dedi Xalil bobo og'ir olib, - xuni nohaq qilmagan bo'lsam, birovning molini o'g'irlamagan bo'lsam, ha, endi majbur bo'lib uch-to'rt kun ot minganmiz-da...

- Assalomu alaykum!

Eshikda ko'ringan yaktakli, ko'ksi ochiq, cho'qqi soqol kishining salomi bilan Xalil boboning hikoyasi bo'linib qoldi. Otam omburdagi temir hali sovib, qoraymagan bo'lsa-da, uni tezda o'txonaga tiqib, keluvchi kishi bilan ko'rishdi.

- Keling, Elmurod bobo! Qalay, bola-chaqalar omonmi, Tangriberdining o'g'li dastyor bo'lib qolgandir?

- Ha, shukur, - dedi Elmurod bobo terlarini artib, - qo'ltig'imga kirib qoldi, uka. Qismat shu ekan-da, jo'ra, otasidan xayriyatam shugina timoq qolgan ekan, bo'lmasa adoyi-tamom bo'lar-dim. He, uyi kuysin bu urushni, ko'plarni xonavayron qilib ketdi-da...

Xalil bobo unga bir piyola choy tutdi.

- E, baraka toping, - dedi u piyolani olib ho'plarkan, - bay-bay, alomat choy bo'libdi-da. O'ziyam olma po'stlog'idanmi, deyman. Yo'q, dedingizmi? Ha, tuzuk-tuzuk. Bizlar bir haftadan beri olma po'stlog'idan choy damlab ichamiz. Bu choydan hech farqi yo'q.

Darvoqye, usta Karim, tayyor taqangiz bormi, uka? Bir eshakning kalishini yangilamoqchi edim, - dedi piyolani quritib Xalil boboga uzatarkan, - jonivorming tuyoqlari sinib, oqsab qoldi-ya.

Otam bolg'a ura-ura gapira boshladi.

- Taqa bor-u... mix yo'q... sal kutsangiz... besh-o'n mix... yasab olsak, - dedi u bolg'a urishdan to'xtab, - buyog'i yarim soatlik ish.

Elmurod bobo rozi bo'lib so'riga chiqib o'tirdi. Shirinboy tog'am mollarga o't tashlagani chiqdi. Men yaqindagi hovuzdan qumg'onni to'ldirib keldim. Eshikdan kiraversam Xalil bobo chiqib ketayotgan ekan. U kishi "Gashti peshin kelarman", dedi. Otam qo'limdagi qumg'onni olib, o'txona ichidagi changakka ildi. Elmurod bobo dam bosib turardi, men bolg'a urib otamga ko'maklashardim. O'n oltita mix yasadik. Taqa va mixlarni temir qutiga solib tashqari chiqdik. Elmurod boboning eshagi hovuzning quyirog'idagi tolga boylangan edi. Yaqin bordik. Eshakning to'qimi yerga tushib yotardi. Elmurod bobo eshagi yoniga borib:

- E, qiziq-ku, - dedi baqa bo'lib, - buning ayili qani?

Hammamiz hayron qoldik.

- Ayili bor edimi? - deb so'radi otam.

- Qiziq ekansiz-a, usta, - dedi Elmurod bobo mitti ko'zlarini o'ynatib, - qaysi emari eshakka to'qimni ayilsiz bosadi? Mana, to'qimi shu yerda-ku. Anovi jiyanchangiz olgandir.

Otamning buyrug'i bilan tezda Shirin tog'amni chaqirib keldim.

- Ayil qani?

- Qaysi ayil? - dedi Shirinboy tog'am otamning vajohatidan qo'rqib, - ko'rganim yo'q.

Otam uni qistoqqa oldi. Shirinboy tog'am titrab-qaqshab, men olganim yo'q, derdi. Otamning do'q-dag'dag'asidan men ham quruq qolmadim. Ikkalamiz ham yig'lab, ko'zimizga yosh oldik. Nihoyat, otamning bizlarga rahmi kelib, Elmurod bobo bilan kelishmoqchi bo'ldi.

- Endi Elmurod tog'a, bo'lmagan ish bo'libdi. Keling, eshagingizni taqalab beray, ayilingiz topilsa oborib beramiz.

- O', usta Karim, - dedi Elmurod bobo qo'lini paxsa qilib, - eshakni taqalang-u, mendan pulini oling. Mayli, boshqalardan ikki-uch so'm ziyod ham oling, lekin ayilimni topib bering.

Otam Shirinboy tog'amga buyurdi.

- Bor, oxuridan yangi olingan ayilni olib chiq!

Shirinboy tog'am og'ilxonadan yaqinda olingan yap-yangi ayilni olib chiqib, otamga berdi.

- Ana bu ayilni oling, - dedi otam, - kecha Aziz arqonchidan buyurtma qilib olganman. Bog'lab boring, topilsa, o'z ayilingizni olasiz, bo'lmasa shu sizniki.

- E, yo'q, usta Karim, - dedi Elmurod bobo norozi bo'lib, - menga o'z ayilimni topib bering.

Otamning jahli chiqdi.

- Bor, - dedi menga buyurib, - ayvonning ostidan sigirni yechib chiq!

Men zing'illab ketdim. Hayal o'tmay yangi buzoqlagan olagovmishni yetaklab chiqdim. Otam sigirning ipini Elmurod boboga tutqazib:

- Iloyo baraka toping, Elmurod tog'a, - dedi yalinchoq ovozdada, - ana shu sigirni olib boring, yaqinda tuqqan. Sog'ib, ichib yuring. Ayilingiz topilsa, borib sigirni olib kelaman, agar topilmasa...

- Menga sigir emas, - dedi Elmurod bobo, - ayil kerak, o'z ayilim kerak...

- Axir...

- O'g'rilar, - g'udrandi Elmurod bobo. Otamning ori qo'zib, titrab ketdi.

- Kim o'g'ri? - dedi qichqirib. - Kim?

Elmurod bobo ham cho'qqi soqolini oldinga chiqarib kekiirdagiga zo'r berdi.

- Shu qishloqning odamlaridan boshqa hech kim o'g'irlamagan, axir ayilni Qoqishtuvon yoki Qumqishlovdan kelib o'g'irlab ketmaydi-ku? Noinsoflar, kazzob to'qimdo'zlar!..

Otamning rangi bo'zday oqarib, mo'ylovlari tikkeygandek bo'ldi.

- Menga qara, Elmurod yengmash, - dedi jahl bilan uning o'ng yoqasidan tutib, - ko'p qonimni qaynatma. Aytdim-ku, bir ayilingga ana bu yangi ayilni, ana bu arg'amchilarni, ana bu sigirni, e, bor anovi hovli-joyini ol! Agar, voh desam, har nima. Yoki ana bu

pichoqni, - dedi otam yonida osilgan yarmi jezli qindan dandon sopli pichoqni chiqarib uning qo'lga tutqazarkan, - ko'kraginga ur, lekin o'g'ri dema, xumsa. Oh! - dedi otam qop-qora mo'ylovlarini yamlab, - afsuski, yoshing katta-da, bo'lmasa...

- Ayilimni top!

Otam uning yelkasidan ohista itarib yubordi.

- He, ayiling bilan, seni o'sha... - otam qattiq so'kindi. - Bor, menga ayil topshirganing yo'q. Kinga bergan bo'lsang, o'shandan ol! Melisaga borasanmi, prokurorga aytasanmi, sudga borasanmi, u yog'i sening ishing.

Elmurod bobo eshagi bo'ynidagi arqonni yechib olib, ayil o'rniida to'qimni mustahkamlab, jahl bilan ikki sakrashda eshagiga minib oldi.

- Yo'q, - dedi u chinqirib, - men sen o'g'rilar ustidan rayjroko'mga arz qilaman, ko'rsatib qo'yaman sizlarga frontovik oilasini xo'rflashni... o'g'rilar, qaroqchilar...

Otam astag'furillo, astag'furillo deya pichirlay boshladi. Shirinboy tog'am yangi ayil va arg'amchilarni olib, sigirni yetaklab og'ilxona tomon ketdi. Birozdan keyin otam hushyor tortgandek bo'ldi, tuproqqa qorishib yotgan dandon sopli pichog'ini yerdan ko'tardi-da, jahl bilan tolning tanasiga urdi. Tig' daraxtga bir bo'g'imcha kirib, uning atrofidan tizillab suv chiqdi...

Shu voqeadan o'n besh-yigirma kunlar chamasi o'tdi. Elmurod boboning ayilini izlamagan yerimiz qolmadi. Qani endi topilsa. Harqalay, uning o'zi ham qorasini ko'rsatmay ketdi. Bir kuni otam ishdan qaytib, yuvinib o'tirardi. Quyosh allaqachon hovli devorlari ortiga pana bo'lgan. Men supadagi katda kitob o'qib yotar, otamning tezroq yuvinishini kutib, u kishi tomon dam-badam ko'z tashlab qo'yardim. Chunki bugun otamga "Kuntug'mish" ning davomini o'qishim kerak. Xuddi shu asnoda darvoza tomondan "Usta Karim!" degan ovoz eshitildi. Otam, qara-chi, dedilar. Men hali katdan tushmasimdan, o'sha ovoz yana takrorlandi: "Usta Karim!". Darvozxonaga chiqdim. Hayratdan dovdirab qoldim. Qo'lida xalcho'p bilan Elmurod bobo turardi.

- Otang qani?

- Uyda.



- Chop, chaqir!
- Hafsalasiz izimga qaytdim. Otam yuvini bo'lgan edilar.
- Kim?
- Elmurod bobo!
- A! - Otamning rangi qum-quyt o'chdi. - Nima deydi?
- Bilmasam, otangni chaqir, dedi.

Otam shoshilib, oyog'iga kalishini ilib darvozaxonaga yo'l oldi. Izidan men ham.

Otam Elmurod boboga ro'para bo'lishi bilan u:

- Assalomu alaykum, ustajon, - dedi orada hech gap o'tmagan dek, - ayil topildi, jo'ra. Qani, yuring tez.

Otam bir so'z ham demasdan unga ergashdi. Odatdagidek, izlaridan men ham lo'killadim. Katta yo'l ustidan choyxona oldida bir guruh odam to'planib, o'zaro shovqin solib turishardi. Otamning qorasi ko'rinishi bilan ular jimib qolishdi. Yaqin bordik. Odamlar qurshovida o't ortmoqlangan bir eshak turardi. Elmurod bobo unga yaqinlashib:

- Ana, mening ayilim, - dedi o't aralash ola-bula ayilni tutib, - o'g'irlangan ayil ana shu.

Otam jahl bilan odamlarga bir-bir qarab chiqdi. Uning o'tkir nigohi bir chekkada pisib, yerga qarab turgan Xalil boboga kelib taqaldi. Xalil boboning o'siq qoshlari qizg'ish ko'zlarini batamom bekitgan, bo'yni egilib, oppoq qalin soqoli to'lqinlanib turardi. Negadir u tish qayramas edi. Bir payt otam lovullab junbushga kelgandek bo'ldi. Shiddat bilan eshak ustidan o'tni ag'dardi. O't bilan eshak ham cho'zilib, shu onni o'zida potirlab o'rniidan turib ketdi. Otam o'tni toptab, silkitib undan ola ayilni ajratib oldi-da, Elmurod boboga qarab irg'itdi.

- Ol, ayilign, - dedi xirillab, - yo'qol ko'zimdan! O'n besh kundan beri butun oilam, ikkala farzandim qon yutadi. Qani, yo'qol! - dedi u tishlarini g'ijirlatib. - Yo'qol!

Elmurod bobo pildirab qochib qoldi.

Sukunat cho'kdi. Otam bir-bir bosib Xalil boboga ro'para bo'ldi. U choyxona ayvoni ostonasida bir holatda o'tirardi.

- Qani, turing, mullo bobo, - dedi otam achchiq kesatib. Xalil bobo hadiksirab o'rniidan turdi. - Ochilov, - dedi otam hosilotga. -

To'ravoy, - dedi brigada boshlig'iga. - Qani, yuringlar, qishloqni nomuslarga o'ldirgan anovi beimon cholning hovlisiga boramiz. Boshqalarga javob.

Otam, Ochilov va To'ra amaki kallasi ko'ksiga solingan Xalil boboning izidan uning hovlisiga yo'l oldilar. To'ra amaki menga, sen qayt, degan edi, otam: "Qo'y, kelaversin!" dedi. Xalil boboning darvozasidan kirib, yonboshdagi sayisxonaga o'tdik. Eshiklar ochib tashlandi. Otam sayisxona shiftiga, ustun va devorlarga urilgan mix va qoziqlardan ancha narsalarni olib supaga chiqarib tashlay boshladi. Men sanab turdim. Bu narsalar orasida 6 chilim, 3 ko'za, 11 mis oftoba, 12 arg'amchi, 9 ayil, 22 kashkord, 19 o'roq, oxurlardan topilgan 4 egar, 13 to'qim, kuyaga yem bo'lgan 2 xurjun, 2-3 uzluq-yuluq yugan, son-hisobsiz bel va ketmon, xullas, keyingi 10-20 yil ichida o'z qishlog'imiz va qo'shni qishloqlardan nimaiki yo'qolgan bo'lsa, hammasi shu yerdan chiqdi. Sayisxona devoriga beshita omoch va ikkita bo'yinturuq ham suyab qo'yilgan edi. Bir payt otam sayisxonadan yana bir yog'ochni olib chiqib supaga irg'itdi: bu mening egri o'sgan o'rikchamga tirab qo'yilgan o'sha ayri edi...

Xalil boboning hayotdan ko'z yumganiga, mana, o'n yildan oshdi.

Aytmoqchi, ayrisi o'g'irlangan o'sha o'rik ko'chati hozir chorak tanobcha yerga shox otib, tarvaqaylab ketgan, yigitning quchog'iga sig'maydigan tanasi yerda yonbosh yotibdi. O'rik pishig'ida yo'lim yana ona qishloqqa tushdi. To'qson yoshli otam o'rik soyasidagi so'rida qo'shqavat ko'rpacha ustida... o'tirardilar. Do'st-yorlar bilan uning atrofida davra qurdik. Otam o'tirgan joyidan bemalol qo'l cho'zib, zardolu terib dasturxonga qo'yarkanlar:

- Har yomonning bir yaxshi tomoni bo'larkan, - dedilar qir-qiqir kulib. - Esingdami, o'shanda rahmatli Xalil boboning ayrisi o'g'irlangani yaxshi bo'lgan ekan. Aks holda bu daraxt tik o'sardi, men bechora unga chiqa olmasdan ovora bo'lib yurardim.

Davradagilardan faqat mengina jilmayib qo'ydim. Chunki boshqalar bu voqeadan xabarsiz edilar.

## SA'DULLA SIYOYEV

(1939–2021)

Qozog'istonning Turkiston tumanidagi Qarnoq qishlog'ida tug'ilgan. Toshkent davlat universitetini (hozirgi O'zbekiston Milliy universiteti) tugatgan. Birinchi hikoyalar to'plami — "Qasam ichmagan yigit" 1970-yilda chop etilgan. Turli yillarda "Sadag'ang ketay" (1972), "To'ylar muborak" (1975), "Oy borib, omon kelting" (1976), "Yorug'lik" (1986), "Beparvo bo'ymoqchiman" (1990), "Yolg'onchining rost gapi" (2010), "Avaz" (1987) singari nasriy kitoblari chop etilgan. "Ahmad Yassaviy" roman-dilogiyasi muallifi. "Fidokorona mehnatlari uchun" ordeni bilan taqdirlangan (2019).

## OTA MAKON

Bo'zsuv desa, yunusbodliklarning chehrasiga tabassum yuguradi. Negaki, bu yashil anhor bahordan to qora kuzgacha shaharlarga rohat-farog'at ato etadigan go'zal maskan. Osmon lov-lov yonib turgan yoz chillasida-ku, Bo'zsuv bo'ylari chinakam jannatga aylanadi. Yosh-u qari birdek sersoya daraxtlar tagida cho'zilib hordiq chiqaradi, anhorning niliy tiniq suvi badanlarni erkalab, umringizga umr qo'shadi.

Bo'zsuv atrofidagi yerlar ilgari jamoa xo'jaliklariga qarashli edi. Zamon o'zgarib bu mavze shaharga qo'shilib ketdi. Xuddi shuni kuttib turgandek, shahar kattalari Bo'zsuv sohilini tomorqa qilib sota boshladi. Shahar biqimidagi bunaqa oromijon go'shani kim oladi, avvalo cho'ntagida ortiqcha mullajirangi bor oladi. Bo'zsuvning serhosil, xushmanzara maydonlari shahar sarmoyadorlari qo'lida xomtalash bo'la boshladi.

Toshkentning olmos kamari deb atalmish ana shu Bo'zsuv bo'yi-da ellik yoshlarni qoralagan Eshqobil degan bir yigit ham yashardi.

Uning otasidan qolgan o'n ikki sotixcha yeri bor edi. Buning ustiga Eshqobilning bir xotini, asrandi o'g'li, to'rt qo'yi, olti tovug'i, bitta eshak aravasi ham bo'lib, shular bilan tirik edi. Ilgari kol-xozda ketmonchi edi, kolxoz tugab ketgach, eshak aravasini yeldirib, ro'zg'orini tebratib yuraverdi. Yozda qo'ylariga cho'p-xashak g'amlaydi, anhor labidagi qamishlarni o'radi, ko'cha-kuyda yotgan shishalarni terib topshiradi. Ariq bo'yidagi qurigan dov-daraxtlarni kesib, qishlik o'tin qiladi. Jilla qurisa, Yunusobod bozoridan birov-larning yukini tashib berib, besh-o'n tanga ishlaydi. Ishqilib, qora qozon bir mahal qaynab, xotin poshshoning jag'i ochilmay tursa bas.

Ana shunday dorilomon zamonda deng, mahallasiga ko'z tegdi. Besh-olti kishi hovlisini sotib, ko'chadigan bo'lib qolibdi. Qirq yillik qadrdonlari nega to'satdan tarki vatan qildi ekan, deb o'ylandi Eshqobil va qo'shnilaridan gap olib ko'rdi.

— E, qayda yuribsan, dunyobexabar? — dedi ular, — mahallamizga to'rt boshli ajdaho bostirib kelyapti ekan. Pulning sassig'iga chidamay kekirib yotgan korchalonlar biz tomonlarga ko'z olaytirib qolibdi. Besh-olti hovlini baravariga sotib olarmish ular. Savdolashib o'tirmay, og'zingdan chiqqanini berarmish. Ana, Ashir cho'tir bobosidan qolgan chaldevorini ellik mingga sotibdi!

— Ellik mingga-ya? — ishonmadi Eshqobil, — chaldevorni ellik mingga olib nima qilar ekan u boyvachcha?

— Traktor solib, uy-puyi bilan tekislab tashlar ekan.

— Keyin turp ekar ekanmi?

— E, ko'sa tegirmonchining anqov o'g'li! Besh-olti hovlini tekislab, o'miga uch qavatli shohona qasr solar emish. Uqdingmi, o'qimagan?

Eshqobil boshini qashlab turib qoldi.

Ertasiga tag'in aravasini haydab jo'nadi. Bug'doy o'rini avjida edi, qo'yiga besh-o'n qop somon topish ilinjida Qoplonbek tarafga qarab ketdi. Oqshom qaytdi. Qarasa, uning atrofiga ham yog'och qoziqlar qoqilibdi. Bir tarafi yuz qadamcha keladi, bir tomoni suvga tutash, yonboshi shundoqqina Eshqobilning molxonasiga taqalgan edi.

Uch-to'rt kundan keyin Eshqobilning yon-verini tramvay va-goniday uzun mashinalar, traktorlar bosib ketdi. Birovi yer kovlay-dy, vagon-mashina qum, shag'al tashiydi. Tumshug'i mirzaterak-

ka yetadigan kranlar lapanglatib, quyma tomlarni taxlaydi degan. Butun mahalla ko'chib chiqdi. Ayniqsa bolalarga xudo berdi. Ular uzunchiq, tor xandaqlarda chopib, berkinmashoch o'ynaydi, mashinalarning dumiga osilib katta yo'lgacha borib kelishadi. Eshqobil esa tirikchiligi bilan ovora. Aravasini g'ildiratib sabar ketadi, kech qaytadi. Bir kosa yov' on oshini ichadi-yu, to'shakka kiradi.

Bu orada yon-veridagi qo'shnilaridan yana besh-oltitasi ko'ch-ko'ronini ortib, qaygadir ko'chib ketdi. Eshqobilning atrofi tobora siyraklashib borardi. "Millionerlar bir kuni mening uyimga ham chang solsa-ya? — deya xavotirga tushadi ba'zan, — yo'q, o'lsam ham bu yerdan ketmayman. Otam nasihat qilgan, yer sotgan er bo'lmaydi, deganlar. Shu hovlida tug'ildim, xudo xohlasa, o'ligim ham shu yerdan chiqadi".

Eshqobil goho shunaqa xayol surib qo'yardi. Yangi qo'shnisi-ning vahimali imorati esa, asta-sekin poydevordan ko'tarilib borardi. Bir kuni Eshqobil eshagining mo'yinchasini yamab o'tirgan edi, salom berib eshikdan bir yigit kirdi. Eshqobil unga stol qo'ydi. Duo qildi. Yigit qo'l qovushtirib hol-ahvol so'radi. U o'tizlarga borgan, chiroyli kiyingan, sochlari ham bir tekis, chuvak yuzlikkina, istarasi issiq yigit ekan. U jilmayib tilga kirdi:

— Men yangi qo'shmingiz bo'laman, amaki, — dedi tavoze bilan, — ismim Asliddin. Og'aynilar, ke, Bo'zsuv bo'yiga chiqaylik, degandi, ko'nglim ketib, shu yerdan ozgina yer oldim. Xudo xohlasa, siz bilan yon qo'shni — jon qo'shni bo'lamiz, degan umiddaman, amaki.

— Baxay, baxay, — deya bosh silkidi Eshqobil.

Asliddin bir nafas sukut saqlab, xuddi uzr aytayotgandek dedi: — Ko'nglingizga kelmasin-u, amaki, mabodo hovlini sotmoqchi bo'lsangiz, begona qilmang. O'zim olaman. Men savdolashmayman. Aytgan pulingizni beraman, maylimi, amaki?

— Mayli, — deb bosh irg'adi Eshqobil, — lekin uy-joyni sotish niyatim yo'q. Otamiz o'tgan yer, o'zim ham shu yerda tug'ilib o'sdim, bor-yo'g'i uchgina jonmiz, shu hovliga sig'ib turibmiz, uka.

— Xafa bo'lmaysiz, amaki, aytdim-qo'ydim-da. Mabodo bir kuni ko'chadigan bo'lsangiz, bexabar qolmaylik, dedim-da, ama-

kljon. Axir gilam sotsang, qo'shningga sot, bir chetida o'tirasan, degan gap bor.

Bu bolaning odobi, burnini ko'tarmay muloyimlik bilan gapirgani Eshqobilning ko'ngliga o'tirishdi.

Asliddin bir piyolagina choy ichdi, kattagina xalta ko'tarib kirgan ekan, qo'yarda-qo'yamay tashlab chiqib ketdi.

Asliddinning gapini oshxonaga kirib-chiqib yurib, xotini Madina ham eshitib qolgan ekan, yo'rg'alab erining yoniga keldi.

— Xo'p, demadingizmi, xo'jayin? Ana, Jobir qassob sotdi hovlisini. Bir qop pul beribdi. Dendroparkdan qo'shqavatli uy solayotgan emish. Shu otam zamonidan qolgan eski choponni boshingizga urasizmi? Sotsangiz, biz ham shaharlik bo'lardik, o'g'lingizni institutlarda o'qitardingiz, eskiroq bo'lsayam bitta mashina minardingiz...

— Valdirama, tovuqmiya, — dedi Eshqobil, — bunaqalarning tili boshqa, dili boshqa bo'ladi. Shohona uylik bo'laman, deb bir kuni mana shu g'arib hovlidan ham ayrilib qolishing hech gap emas. Otamdan qolgan uy, hech kim meni bu uydan haydab chiqarolmaydi. Mashina deysan, ana — ikki g'ildirakli mashina, benzin yemaydi, motori buzilmaydi, bir bog'lam xashak bilan Hirotaga olib borib keladi. Shu kuningga shukur qilib, tinchgina o'tir.

Xotin aftini burib jo'nadi. Eshqobil tag'in o'z tashvishlari bilan andarmon bo'lib ketdi. Bu orada Asliddinning imorati tobora osmonga qarab o'r lab borardi. Bir-ikki oy ichida to'rt burchagi to'rt qubbali haybatli imoratning mahobatli soyasi yonidagi uylarni to'sib qo'ydi. Navro'z bayramiga borib esa, qasrning birinchi qavatini yopildi.

Imoratning birinchi qavatini yopildi-yu quruvchi yigitlarning joni kirib qoldi. Endi ular ovqatlarini ham tomida yeydi, yotoqlari ham tomboshi. Kechasi allavaqtgacha varanglatib radio qo'yishadi, chet elning aji-buji ohanglarini yetti mahallaga taratib, birovni uxlatmaydi. Ayniqsa, Eshqobilga qiyin bo'ldi. Asliddinning uyi hozircha bir qavat bo'lgani bilan balandligi yetti-sakkiz metrcha kelar, Eshqobilning ota makoni uning qarshisida xuddi kichkinagina qaznoqdek aftodahol edi. Asliddinning tomidan tuf degan tupuk ham to'g'ri kelib Eshqobilning hovlisiga tushaverardi. Eshqobil g'alati

ahvolda qoldi. Hovlida o'tirib na choy ichib bo'ladi, na ovqatlanib. Hatto xotinga sal tovushingni ko'tarib gapirsang ham, tepada turgan yigitlar dashnom beradi: "Hay, hay, Qobil aka, yangamizni xafa qilmang!" Hojatga kirib chiqsang, "Qo'lingizni yuvmaysizmi, amaki", deb kulishadi. Oldi - yoz, degandek, hovlida, chorpoysa so'rida yotganga ne yetsin! Ammo haligi tom boshidagi shumtakalar dastidan Eshqobil o'z hovlisida emin-erkin yotolmay qoldi. Xotini so'riga joy solib bersa, tomdagilar "Iye, amaki, bir o'zingiz yotgani qo'rmaysizmi?" deya uchiriq qiladi. Ne qilsin, endi u kasofatlarni deb yozning issig'ida uyda uxlasinmi?

Eshqobil bir kuni alamini ichiga yutib, mahalla oqsoqolining oldiga bordi. Dardini to'kib soldi.

- Hovliga sig'may qoldik, Turg'unboy aka, - dedi yozg'irib, - kecha-yu kunduz tepangdan biroq qarab tursa, xuddi... yalang'och yurgan odamday uyalar ekansan.

- Jazo kerak senga! - dedi oqsoqol jerkib, - ho'v o'shanda sotib ketganingda, bu xo'rliklar yo'q edi.

- Nega o'zingiz sotmay, menga sot, deysiz?

- Avvalo, mening tepanga kelib, bir boyvachcha uy solayotgani yo'q. Soldirmayman ham. Hozircha qo'lim uzun. Qolaversa, men mahalla oqsoqoliman, xalq saylab qo'yibdi.

- Unda men nima qilay, mahalla ulug'isiz, bir yo'l ko'rsating, aka.

- Yaqinda Asliddinni ko'ruvdim. Shaharda. "Haliyam bo'lsa, Eshqobil akadan o'tining. Yerini menga bersin", deydi. Xohlasa qishloqdan, xohlasa shahardan chiroyli imorat solib beray, tagiga mashina mindiray, dedi. Qaysarlik qilmay, xo'p de, Esh. Oqposhsho zamonidan qolgan bu uyni boshingga urasanmi? Bir odam ma, deb turganda, qo'shqo'llab olmaysanmi, nodon?

- Men sizdan jo'yali gap eshitgani chiquvdim, - dedi o'ksinib Qulluq sizga.

- Hali pushaymon bo'lasan, bola, - dedi oqsoqol, - unda kech bo'ladi.

- Ko'ramiz. Agar Xudoning borligi rost bo'lsa, bizga o'xshagan bandalarini yig'latib qo'ymas.

Yozning adog'iga borib, ikkinchi qavat ham bitdi. Uchinchi qavat ochiq ayvon shaklida bo'lar emish. Bir safar quruvchi yigitlar Eshqobilni sudragudek qilib, tepaga olib chiqishdi. Uchinchi qavatdan butun qishloq, hatto Oqtapa-yu Otchopar tomonlar kaftdagidek ko'rinar ekan. Uzunasiga qirq, ko'ndalangiga yigirma qadam keladigan ochiq ayvonda hammom, ikkita hovuz, tennisxona, arg'imchoq uchadigan maydoncha qurilar emish. Eshqobil tepadan turib, hovlisiga nazar soldi. Pastakkina oshxonasi, necha yil suvoq ko'rmagan kichkina uychalari, tovuq katalagi, somonxonasi, shotisi osmonga ko'tarilib yotgan aravachasi... bari ko'ziga suyumli, aziz ko'rinib ketdi. Yuragi hapqirdi, ko'zlarini yosh bosdi: "Mozorning lahadek bo'lsa-da, har kimni o'z vatanidan ayirmasin Xudoyim", dedi ichida, yaratganga tavallo qilib, yerga tushdi. Hovlisiga kirib, nuragan devorlarni siypalab, ko'ziga surtdi, yig'ladi.

Yana aravasini yeldirib, nasibasini terib yeb yuraverdi. Yoz o'tib borardi. Bir kuni Eshqobil kimningdir qo'yini Sho'robozorga eltib berdi-yu, iziga qaytdi. Adashmasa, yakshanba edi, chog'i. Yo'q, chorshanba ekan, chunki Sho'roda molbozor chorshanbada qiziydi. Xullas, eshagini nuqib, suv yoqalab mahallasiga burildi. Qarasa - bazm avjida. Anhor labida bir tup azamat qayrag'och bor edi. Ana shu qayrog'och tagiga olovday qip-qizil gilamlar yozilgan, shoyi ko'rpachalar to'shalgan. Par yostiqlarda besh-olti ori-q-semiz, olako'z, quralayko'z yigitlar yonboshlab yotishibdi. Ikki yugurdak yigit dam-badam dasturxonga lagan-lagan taom tashiydi. Atrofni ko'kish tutun, kabobning dimoqni qitqilovchi isi tutib ketgan. Qayrag'ochning pastki shoxida magnitofon osig'liq, undan odamni o'yantiradigan qo'shiq taraladi:

*Arg'umoq ostingdadur, tog'larni kez, cho'llarni kez,*

*Nogahon bu arg'umoq ostingda bo'lg'ay, bo'lmag'ay...*

Eshqobil sal chetroqda oshpazlarga gap uqtirayotgan Asliddinni ko'rdi. U teskari o'girilib turar edi, shuning uchun Eshqobil salomlasholmadi. Aravasini sekin g'ildiratib, uyiga kirib ketdi. Hademay bazmoxona tarafdin Eshqobilnikiga nasiba keldi: o'ntacha kabob, ikki patir, bir laganda yaxna go'sht, meva-cheva. O'sha kuni As-

liddin imoratining uchala tomi yopilganini jo'ralariga yuvib berayotgan edi.

Hademay yolg'iz qayrag'och tagidan mastona qiyqiriqlar yangradi. Eshqobilning uyi ishratxonaga yaqin bo'lgani uchun dasturxon atrofidagi gap-so'zlarni u bemalol eshitib o'tirardi. Ayniqsa, mehmonlar orasidan tovushi hezalaknamo bir yigit ko'p vaysadi:

- Ho'v, Asixo'ja, - dedi u, - anavi qabristonning qorovulxonasiga o'xshagan xaroba nima?

- Uy, - dedi Asliddin, - Eshqobil aka degan kishiniki.

- Qachongacha u qora so'galday mana bu shohqasrning tumshug'ida turadi? Ko'chmadimi?

- Ko'nmadi, - dedi yana osuda Asliddin, - o'zim iltimos qilding, oraga odam solib ko'rdim. Ota mulkim, sotmayman, o'zim yashayman, deydi.

Mehmon bola xoxolab kuldi:

- Voy, betamiz-ey! Nima, shu bitta yalangoyoq aravakashni ko'chirgani puling yetmayaptimi, kuchingmi? Berib turishim mumkin, og'ayni.

- Pulim yetadi, kuch ham bor. Lekin... bir bechorani chirqirating, tug'ilib o'sgan yeridan judo qilish insofdan bo'larmikan, deb o'ylab qoldim. Qaldirg'ochning uyasi buzilsa, necha kun chirqillab yuradi, bu ham sendek odam bolasi.

- Obbo-o! Ja, deyman iymonli, insofli bo'lib ketibsanmi keyingi paytda? Qaysi zamonda yashayotganingni bilasanmi o'zi? O'rikzorga bir borib kel-chi, sen aytgan insofning kilosi necha pul ekan, bilasan...

- Ke, qo'y, Hoshimxon, boshimni qotirma. O'zi rozi bo'lmasa, bitta kesagiga ham tegmayman, har qalay musulmon farzandimiz...

Hoshimxon kabob chaynab turib, ishshaydi:

- Xohlasang, bir kechada ko'chirib berishim mumkin. Jazosi bir chelak benzin-da. A, labbay?

- Og'zingdagini yel olsin! Xayolingga ham keltirma! Agar bir gap bo'lsa, kechirmayman. Meni bilasan, a?

- Hazil, og'ayni, hazil! Sening bunchalik kambag'alparvar bo'lib ketganingdan bexabar ekanman.

- Bo'pti, ko'p aljiramay, ovqatga qaranglar. Kun og'di, turish kerak.

Asliddinning gapidan keyin musiqa ham pasaydi, qiy-chuvlar bosilay dedi. Biror soatdan keyin bazmoxona bo'shab, qayrag'och osti huvulladi. "Hormang, aka!" deb Asliddin ham eshikdan bosh suqmadi, Eshqobil ham mehmonlar tarqamaguncha hovlidan jil-madi. Qorong'i tushgachgina, qayrag'och ostini supurib-sidirdi, bir qopga yaqin shisha yig'ib oldi.

Kech kuzga borib, Asliddinning koshonasi tamom bitdi. U olisdan ko'zga chalinar, rangpar to'rt minorasi, kunguralari, oppoq marmardan kiygan libosi bilan o'zga imoratlardan ajralib turardi. Kechalari qasrning to'rt tarafini o'nlab chiroqlar yoritir, imorat go'yo qanot chiqarib osmonga uchib ketayotgan kemani eslatardi.

Qishning o'rtalari edi. Eshqobil aravasini haydab, Sariog'och qirlariga qarab ketdi. Bug'doyzorlarda bir-ikki siqim ang'iz qolgan bo'lsa, sidirib olmoqchi edi. Ma'rayverib, qo'ylarning og'zi yopilmayapti. Aravasining chuqurchasi to'lar-to'lmas xazon to'pladi. Hayt, deb uyiga jo'nadi. Ungacha kun kech bo'ldi. Sariog'och ham yaqin yer emas, uyiga yetguncha qorong'u tushdi. Ko'chasiga burildi. Qarasa, osmonda alanga ko'rindi. Yuragi shuv etdi. Asliddinning tomida yotib yuradigan bolalar sho'xroq edi, bitta-yarimtasi... Eshqobil eshagini niqtadi. Hovlisiga yetdi. Ne ko'z bilan ko'rsinki, Asliddinning uyi yonardi! Atrof to'la odam, qiy-chuv... Hademay, vahimali chinqirib, uch-to'rtta qizil mashina yetib keldi. O't o'chiruvchilar rezinka ichaklarini sudragancha tomga yopishdi. To'rt tomondan suv favvoradek otildi. Hademay o't o'chirildi. Eshqobil eshak aravasini hovliga kiritishni ham unutib, angrayib turaverdi.

Olovning qizil tili so'nib, atrofni achchiq tutun qoplay boshlagach, o't o'chiruvchilarning boshlig'i - semiz kapitan mahalla oqsoqolini yoniga chaqirdi.

- Ana endi akt tuzamiz. Mahalla faoli sifatida siz ham qo'l qo'yishingiz kerak.

Oqsoqol cho'chib, ortiga tisarildi:

- Men nima deb qo'l qo'yaman? Qorovul bo'lmasam. Bironing'alamisning ishidir-da bu.

Shu payt kapitanning qo'lidagi telefon jiringladi.  
 - Allo, bu men, Asliddinman. O'tni o'chirdinglarmi?  
 Boshliq yalqoqlandi:  
 - Ha, xo'jayin, o'chirdik. Uygacha ancha moddiy zarar yetibdi. Akt yozayapmiz, Asliddinxo'ja aka...  
 - Akt-pakt qilib o'tirmanglar. Olov o'chirilgan bo'lsa, qaytib ketaveringlar.  
 - Xo'p bo'ladi, xo'jayin, xo'p, xo'p...  
 O't o'chiruvchilar jo'nab ketdilar.  
 Asliddin hovlisiga qaytib qadam bosmadi. Yongan uyning yoniga ham birov yo'lamadi. Qirmizi marmar qoplangan devorlar qoraqurumga botib, chala yongan yo'g'on to'sinlar tutab, tomlar qoraqurumga yotganicha qolaverdi. Eshqobil esa, hamon eski aravasini yeldirib, ro'zg'orini tebratib yuribdi. Har safar Asliddinning xonavayron koshonasi yonidan o'tayotganda kuydirgan kalladay bo'lib turgan baland gumbazlarga mung'ayib boqadi-yu, sekin uf tortib qo'yadi.

## OMON MUXTOR

(1941-2013)

Buxoro shahrida tug'ilgan. Toshkent davlat universiteti (hozirgi O'zbekiston Milliy universiteti)ni tugatgan. "Chorlar quyoshli yo'llar" (1966), "Ohang" (1974), "Yog'du" (1979), "Marvarid" (1985), "Shiddat" (1990) she'riy to'plamlari, "Nigoh" (1968), "Qushlar va tushlar" (1971), "Shaharlik kelinchak" (1973), "Hayot darvozasi" (1978), "Bolalikka sayohat" (1984), "Vazifa" (1988) kabi nasriy to'plamlari chop etilgan. "Yillar shamoli" (1976), "Egilgan bosh" (1989), "Ayollar mamlakati va saltanati", "Aflotun" (1998), "To'rt tomon qibla" romanlari muallifi. O'zbekiston Respublikasi Davlat mukofoti laureati (2009), "Do'stlik" ordeni bilan mukofotlangan (1997). "O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan san'at arbobi" (1991) unvoni bilan taqdirlangan.

## SHAYTON ARAVA

Bir paytlar kiyish rasm bo'lgan "shaytonteri" degan gazlamani bir kun kim bilib, kim bilmasligi mumkin.

"Shaytonkavush" degan, bir kunlar chapdast ustalar o'yinchoq-kavush to'qigan yoki "shaytonkosa" degan, kishini devona qiladigan o'tlar nomi-yu, ularning o'zini ham bu kun ehtimol, birov bilib, birov bilmaydi. Kitoblarda o'qib, ma'nosiga tushunmaydi.

Lekin ko'pchilik velosipedni hamon ba'zan "shayton arava" deydi. Bu so'zlardan har birining shaytonga nimadir daxli bor. Qachondir rasmga kirgan velosipedni mingan kishi ko'chada lip etib ko'z oldidan o'tib ketganida "shayton arava" degan gap xayolga kelgan bo'lishi kerak.

Qisqasi, Abduvosit ismli kishi o'g'li Vosilga:

- Tug'ilgan kuning ekan. Yur! - dedi. - Senga bironta ulov olib bermoqchiman. U yoq-bu yoqqa borganda minarsan...

Ota-bola ko'chaga chiqib, shahar etagidagi anqoning urug'idan bo'lak hamma narsa sotiladigan katta bozorga kelishdi.

Ular bozor atrofidagi maydonda eshak, ot, keyin bir necha arava mingan chollarni ko'rishdi.

- Menga qolsa, senga eshakmi, o'tmi olib berardim. Ikkinisini ham, bobong minib yurardilar, mehnatkash hayvon! - dedi Abduvosit. - Faqat, katalakdek uyga eshakni, o'tni qanday olib kirasan? Shaharda har kim buning uddasidan chiqolmaydi. Men yoshligimda goh-goh arava minganman. Arava olib berardim-ku, hatto imkoni bo'lgan kishi ham aravani garaiga kiritib qo'yolmaydi. Sig'maydi....

- Bo'lmasa, nima olib berasiz, dada? - toqatsizlanib so'radi Vosil.

- Bitta velosiped. Shayton arava! Mendan sovg'a... Mashina olib berardim. Ilojim yo'q. Qo'lim qisqa. Mashinani katta bo'lganingda o'zing olarsan.

Inson bolalikdan sharoitga bo'ysunib qanoatga odatlanib bo'radi. Xalq iborasi bilan aytganda, ko'rpaga qarab oyoq uzatishga o'rganadi. Vosil velosipedga ham rozi, dadasidan minnatdor, boshi osmonda, xursand edi.

Ota-bola uch-to'rt do'konga kirib chiqishdi. Bolabop mitti velosipeddan g'ildiraklari odam bo'yidan baland haybatli velosipedlargacha tiqilib yotibdi. Ammo o'smirlarga mos mo'jaz birona velosiped ko'rinmaydi... Axiyri, xayriyat, ularning qidirgani topilgandek bo'ldi.

- Mana, shu bizniki! - dedi Abduvosit ko'ksini ko'tarib.

- Siz uni ololmaysiz, amaki, - dedi Abduvositga razm solib sotuvchi.

- Nega?

- U juda qimmat.

- Mashinadan qimmat emasdir? - dedi Abduvosit.

- Har qanday mashinadan ham uning narxi yuqori.

- Nega? - deb yana so'radi Abduvosit.

- Uni olimlar yangi ixtiro qilgan. Hammayoqda bemalol yuradi. Bunday savdo Abduvositning hamiyatiga tegdi. O'zbekni o'ldirsa, hamiyat o'ldiradi. Birovdan o'zingni kam deb bilish, bunga iqrar bo'lishga yuzing qanday chidaydi? Yergina yorilmaydimi?

- Og'zingga siqqanini ayt. Biz uni olamiz! - dedi Abduvosit.

Sotuvchi osmon bahosini aytdi. Abduvosit cho'ntaklaridan bor pullarni so'nggi tiyinigacha chiqarayotib, o'g'li oldida ortiq xijolat chekmaslik uchun:

- Bolam! Sen aravangni olib chiqaver. Yurgazib ko'r-chi! - dedi.

Vosil shu gapni kutayotgani aniq edi.

U velosipedni yetaklab, do'kon eshigi ostonasidan o'tib-o'tmay minib oldi.

Velosiped boshda eshakka o'xshab hangrab shataloq otgandek bo'ldi. Keyin, otga o'xshab pishqirdi. Keyin, aravaga o'xshab g'ijirladi. Nihoyat, mashinadek guvullab shiddat bilan o'rmondan jildi.

Vosil mingan ulovi mashinaga aylanib yo'lga tushgunga qarab pinagini buzmagani, kutilmaganda ro'y bera boshlagan voqea, aqlga sig'maydigan holatdan shunchaki hayron qolishdan nariga o'tmagan edi. Mana, endi yangi ixtiro qilingan "jonivor" uning irodasidan tashqari, o'z-o'zicha harakatga kirganini payqadi. Bundan ham dahshatli joyi, u aksincha, ostidagi ulov irodasi bo'yicha ish tutib beixtiyor, murvati buralgandek qo'l-oyoqlarini qimirlatib borayotganini sezdi.

Albatta, Vosil oddiy hurmat va odob yuzasidan dadasini kutmoqchi, dadasi bilan birga uyga qaytmoqchi edi. Lekin bu tel-balaracha oldinga intilgan-suringan shayton aravani to'xtatishning chora-imkoni bo'lmasa-chi? Sening xohishing biron narsani hal qilmasa-chi? Shu asnoda boshqa bir holat uning diqqatini tortdi. Chor atrofda mashina g'ujg'on o'ynaydi. O'ng-u so'lda barcha shoshib-hovliqib boravapti. Bunisi mayli. Yo'lida raqobat degan dardisar bo'lar ekan. Yoningdan o'tgan kishi borki, senga allaqanday adovat bilan, o'qrayib qaraydi. To'g'ri kelsa, ular Vosilni bosib-yanchib ketaverishga tayyor.

Vosil hech bo'lmasa, shayton arava qayoqqa borayotganini bil-sa ekan!

Shu payt u mingan ulov qaysidir dengiz bo'yiga borib qoldi. Vosil orqaga burilib qarasa, dadasi halloslab yugurib kelyapti:

- Bolam! Ehtiyot bo'l. Shoshma! O'zingni unutib, nobud qilib qo'yma...

Vosil yana dadasini kutolmadi.

Velosiped oldin kemaga aylanib suv yuzida, keyin kitga o'xshagan yopiq-qayiqqa aylanib suv ostida suzib ketdi. Dengiz sahrodek cheksiz bir olam-ku, ammo bu yerda ham ko'rpada ostida tepishgan-ga o'xshab raqobat, biri-biriga bardosh bermay ba'zan yuz bergan halokat, nima qilganda ham, ko'ringan-ko'rinmagan xavf-xavotir bor ekan. Vosil his etdi: bu yerda o'zing-o'zingni yo'q qilishdan bo'lak, birovlar kutilgan-kutilmagan xatti-harakati bilan seni mahv etishi hech gap emas! Xudo asrasin!

Shundan so'ng shayton arava dengizdan chiqib, qaysidir toqqa o'rmalab ketdi. Naq cho'qqiga yetganida oldin pիրիրakka, keyin tayyoraga, keyin havo kemasiga aylanib, yerdan ko'tarilganicha, Osmon qa'riga sho'ng'iy boshladi. Vosil qarasa, dadasi hamon orqadan halloslab yugurib, bulutdan bulutga, yulduzdan yulduzga sakrab o'tib, ovozi boricha baqirib kelayapti:

– Bolam! Bolajonim...

Osmonda ayniqsa, ahvol og'ir ekan. Yerda birov xabar topgan-topmagan, eshitgan-eshitmagan yulduzlararo ayovsiz jang borayotgan ekan. Vosil mingan shayton arava to'ppa-to'g'ri mana shu jang maydoniga kirib borsa bo'ladimi? Vosil umrida velosiped minib, bir kuni bunday ahmoqchilikka duch kelishini o'ylamagan edi. Gangib, esi og'ib qoldi.

Ayni shu soniyada o'q tegdimi, biron falokat turtib o'tdimi, shayton arava bexos siltanib-titrab, shuv etganicha, qaytib yerga tushib keta boshladi. Bir mahal nihoyat, to'p etib bozordagi do'kon eshigi oldiga kelib tushdi.

Vosil o'zini o'nglab olishga ulgurmay, dadasi ham halloslab yugurib kelib qoldi.

Ota-bola do'konga kirishdi.

– Bu matoni almashtirib bera qoling, – dedi Abduvosit.

– Siz nima, taraqqiyotga qarshimisiz?

– Taraqqiyot yaxshi, – dedi Abduvosit. – Lekin ogoh bo'lgan ham ziyon qilmaydi.

Sotuvchi omborxonadan boshqa velosiped olib chiqdi.

## SOYIM IS'HOQ

(1941–2022)

*Jizzax viloyati G'allaorol tumanidagi O'g'at qishlog'ida tug'ilgan Toshkent Davlat universitetini tugatgan. Dastlabki hikoyalari talabalik yillarida yozilgan. "Sirdan tinch daryo", "Yulduz ko'kda so'nadi", "Osmon ustuni", "Vafodor", "Ona yo'lbars hamlasi" qissalari, "Ko'klam adog'ida kuz", "Qiyomatga qolmagan qasos", "Ko'hna qal'a afsonasi" romanlari muallifi.*

## ZULMATDAN ZULMATGACHA

U yorug' dunyoga zulmat qa'ridan chiqib kelgandi. Bu dunyoda bir-ikki yil olatasir yashadi. Qancha yashaganini o'zi bilmaydi. Qandaydir hissiy boshqaruv ta'sirida uzoqroq yashashga, xavf-xatardan omon o'tishga intildi, xolos. Omon qolib nima ko'rdi, nima qildi – buni ham idrok etolmadi. Miyasida muqim o'rnatilgan qolgan jinsdoshlarining keyingi paytlarda uni chetlatishgani, to'dadan haydashga urinishgani. Buning sababini uzoq-yuluq his qiladi. Ammo o'rgangan ko'ngil, tarki odat qilolmadi. Ayniqsa, oxirgi ko'klam va yozda o'ziga juft ham topolmay yolg'iz qoldi. Topganlari bir-ikki kun o'tmayoq tashlab ketishdi...

Onasining mavsumdagi oxirgi tuxumi edi u. Endi tug'ishni bas qilib, ularni bosib yotish navbati yetgandi. Shuning uchun Ona kaklik tikanakli butalar orasidagi uyasidan ehtiyotlik bilan chiqdi-yu, toshdan toshga sakrab, toshsiz joylarda chaqqon yo'rg'alab ketdi. Uchragan qurt-qumursqalarni chiroyli tumshug'i bilan bir-ikki egz'ilab yutar, "suti" endi qota boshlagan boshqolarning donini teggina uzib, harislik bilan jig'ildoniga urardi.

Ona kaklik shoshilardi. Imkon qadar tezroq va ko'proq oziqlanib, suvga qonib, ertaroq uyasiga qaytishni, tuxumlarini bosib yotishni istardi. Jo'jalari tuxumdan chiqquniga qadar bunday



ehtiyojlari uchun vaqti bimalol bo'lmay qoladi. Haftasiga bir-ikki martagina, juda holdan toyganida donlash va tashnaligini qondirishga chiqadi. Shundayam tezgina - tuxumlari sovib ulgurmasidan qaytadi. Aks holda palag'dasi ko'payib ketishini biladi.

Nar kaklik aniq ko'rinadigan joylardan uyasini kuzatib yuradi. Ammo yaqiniga bormaydi. Makiyoni yotgan joyni yirtqichlarga bildirib qo'ymaslik uchun shunday qiladi. Biror yirtqich yaqinlashsa, darhol ro'parasidan chiqadi, goh yo'rg'alab, goh to'rt-besh qadam joyga uchib, uni uzoqroqqa aldab olib ketadi. Xavf bartaraf etilgach, biror balandlikdan sho'ng'iydi-yu, yuqoriga ko'tariladi. Noiloj qolgan yirtqich daf bo'lgach, kaklik avvalgi joyiga qaytib, donlab yuraveradi.

Nar kaklikning bu qilg'i - shunchaki ehtiyotkorlik chorasi. Aslida tosh va butalar orasida tuxum bosib yotgan makiyonni sezgir yirtqich payqashi qiyin. Bu paytda uning rangi atrofidagi tosh va butalar rangidan deyarli farq qilmaydi...

Kunlar o'tgani sayin Ona kaklikning tashvishlari ko'payib bordi. U endi tuxumlarini bot-bot aralashtradi - ortiqcharoq isganlarini tumshug'i bilan avaylab chetga oladi, chetda yetarlicha issiqlik ololmayotganlarini o'rtaga suradi. Keyin yana bosib yotadi. Ochlikdan darmoni, tashnalikdan sillasi qurisa-da, uyasini tashlab ketmaydi. Chunki dunyoga kelajak jo'jalarini omon saqlashi shart...

Ona kaklik chekkan zahmatlar zoye ketmadi: tuxumlarini to'liq ochirdi. Keyin oxirida ochgan jo'jalar tanasidagi namlikni quritish va darmonga endirish uchun bir kechadan ortiqroq bosib yotdi. Yorug' va issiq kunlarning birida avvalroq tuxum yorgan jo'jalar ovqat qidirib, patlarini beozor cho'qiyvergachgina ularni tor uya-dan keng dunyoga ergashtirib chiqdi.

Onaning jo'jalarini oziqlantirishdan ham zarurroq ishlari bor: eng muhimi - xavfdan saqlanish sezgisini kuchaytirish. Aslida jo'jalar shu tuyg'u bilan birga tuxum yoradilar. Uni ozroq shakllantirib, pishiqlantirilsa kifoya. Tog'-toshlarda g'animlari ko'p.

Eng xavfisi - burgut singari tepalarida uchib yuruvchilar bilan sirg'alib yonginalarida paydo bo'lib qoluvchi ilonlar. Salgina ehtiyotsizlik qilgan jo'ja ularning o'ljasiga aylanadi...

Ona kaklik zaruriyat bo'lmasa ham birdan to'xtadi. Bo'yinini cho'zib atrofiga sergaklik bilan quloq tutganday bo'ldi. Ortidan tizilishib kelayotgan jo'jalari ham joy-joylarida taqa-taq to'xtashdi.

Onalariga taassub qilibmi yo savqi tabiiymi, ular ham sergak tortishdi. Shu payt onasining xavfni bildiruvchi "kir-ik" deganga o'xshash tovushi eshitildi. Jo'jalar zumdayoq duch kelgan buta va xas-xashaklar orasiga urib ketishdi. Qizg'ish tumshuqchalari bilan oyoqlarini buta va o'to'lanlar orasiga iloji boricha chuqurroq tujib, o'sib ulgurmagan dumlarini yuqoriga ko'tarishdi. Shu holda ham ularni o'to'lanlarning hali qurib ulgurmagan pastki butoqlaridan farqlash qiyin. Ammo ilonlarni aldab bo'lmaydi: ular xas-xashaklarni ham, butalarni ham, ular orasiga bekinib olgan jo'jalarni ham aniq "ko'rishadi". Lekin daf qilishmaydi. Og'iz va tillarini o'tlarning tig'simon o'tkir barglari tilib yuborishi, butalarning ninasimon tikantari jarohatlab qo'yishidan qo'rqishadi. Ilonning tili - uning ko'zi, uni jarohatlantirish ilon uchun o'limgir. Shu tufayli tilini ehtiyot qiladi...

O'shanda oxirgi tuxumdan chiqqan jo'ja - Kenjatoygina onasini tushunolmay, joyida anqayib turaverdi. Boshqalardek o'zini o'tlar orasiga urmadi. Agar chinakam xavf paydo bo'lganida u tayyor luqmaga aylanardi. Onasi bundan g'azablandi, shekilli, yoniga yo'rg'alab bordi-yu, boshi bilan ko'tarib, yaqinrog'idagi butalar orasiga otib yubordi. Jo'ja butalarga qattiq urilmadi, lekin o'zidan nima talab qilinyotganini darhol sezdi. U ham jon qayg'usida boshi bilan oyoqlarini buta tagidagi o'tlar orasiga chuqurroq botirib, dumini ko'tardi.

Ziyraklik bilan kuzatib turgan onasini Kenjatoyning bu galgi harakati qanoatlantirdi. Endi uni ham atrofidagi o'tlardan farqlash qiyin bo'lib qoldi. Faqat dumidagi kalta parsimon patlarini ozroq "taroqlab", yonidagi o'tlarga taqabroq qo'ydi va o'zi ham bu yerni tark etdi. Juda holdan toyganidan jo'jalaridan sal uzoqlab, o'n daqiqacha qovzanib olishga ulgurdi va ortiga qaytdi. Bolalari, hatto nimjonroqday tuyulgan Kenjatoy ham o'zi ko'rib ketgan holatlarida qilt etmay turishardi. Bundan taskin topib, xavf o'tganligi haqida tovush berdi. Jo'jalar darhol bekingan joylaridan chiqib, zumdayoq onasini o'rab olishdi...

Kenjatoyga zulmat ichida jon ingandi. Nimdosh yorug'likni ilk daf'a bir haftacha ilgari his qildi. Yorug'lik qandaydir qattiq qo-biq orqali o'zini o'rab turgan yumshoq oq pardadan o'tib kelardi. Bu onasi tuxumlarni baravar haroratda saqlash uchun aralash-tirayotganida yuz berganmi yo qisqa muddatga uyasini ochiq qoldirib, oziqlanishga ketganidami, bilmaydi. Tezdayoq yana avvalgidek zulmat ichida qoldi.

Onasi tuxumlarini qayta og'ushiga olgani tufayli shunday bo'lganini ham bilmaydi. Ammo jismiga rohat berayotgan, tobora quvvatga kiritayotgan yoqimli bir zulmat edi bu. Shu sababli salgina ilgari ilg'agan yorug'lik sezgisini tezda unutib yubordi.

Bir kuni Kenjatoy yonginasidagi tuxumdan g'alati ovoz chiqqanini eshitib qoldi. Undagi yetilgan jo'ja kutilmaganda chiyilladi. Ovoz juda past chiqqaniga qaramay, uni onasi ham ilg'adi va tumshug'i bilan avaylab oldiga tortib oldi. Ko'p o'tmay shu tuxumni rosmana jo'ja yorib chiqdi. Ona keyin ochadigan jo'jalarga xalal bermasligi uchun po'chog'ini tashqariga chiqarib tashladi va birinchi bolasini avaylab bag'riga bosdi.

Shu soatdan boshlab uyaning goh u, goh bu yeridan chiyil-lash, besabr jo'janing o'zi yotgan tuxumni ichkaridan jur'atsiz-gina cho'qishidan chiqayotgan tovushlar ko'payibroq qoldi. Ona kaklikning tashvishi ham ortdi: mavjud sezgi a'zolarining barchasi baravar ishga tushdi. Ovoz qaysi tarafdan, qaysi tuxumdan chiqa-yotganini bexato topar va boshqa tuxumlarga ziyon yetkizmasdan avaylab oldiga tortib olardi. Biroq tuxumni yorib, bolasining un-dan xalos bo'lishiga yordam bermasdi: o'zi yorsin, o'zi chiqsin. Tuxumini yorib chiqolmagan jo'janing biror illati bor, yashab ke-tishi ham gumon...

Ertasiga jo'jalarning yarmidan ko'prog'i ochib chiqdi. Ilgariroq tuxum yorganlari onasining tagidan dimiqibmi yo anchayin sho'x-lik qilibmi, ustiga chiqib olishdi. Atrofga uloqib ketishlari ham mumkin edi, biroq onasining tahdidli tovushlari bunga imkon ber-masdi. Shu tovushlar tufayli patlar ustida qunishibgina yotaverish-di. Ayrimlarigina ovqat ta'masida qizg'ish oyoqlari tagidagi pat-larni beozor cho'qilib qo'yishadi.

Bu kunisiga tushga yaqin Kenjatoy ham tuxumdan chiqdi. Endi Ona kaklikning tashvishlari o'zgardi: uyasidagi tuxum po'choqlarini batamom chiqarib tashlab, keyin chiqqan jo'jalarini qanotlari tagi-ga bosib oldi. Ularni yaxshilab quritish barobarida, tanasining haro-rati bilan quvvatga endirishi lozim. Hozircha nimjon ko'rinayotgan jo'jalarni turli balo-qazolardan asrash tuyg'usi ham shuni talab qiladi.

U bekorga xavotirlanmayotgan edi. Ko'p o'tmay shunday xavf paydo bo'ldi: naritroqdan nimaningdir zaif shitirlashi eshitil-di. Hali hech narsa ko'rinmayotgan esa-da, butun diqqatini ko'z, quloq va tanasiga jamlagan Ona kaklik o'zlari tomonga kattagina ilon sirg'alib kelayotganini sezdi. Qisqa, lekin tashvishli tovushda "ki-ir-rk" degan tovush chiqargandi, ustidagi jo'jalar zum o'tmay qanotlari tagiga kirib olishdi. O'zi ham qanotlarini tashqaridan qa-raganda bolalari ko'rinmaydigan darajada jips yig'ib, boshini tagi-ga oldi. Imkoni boricha hurpayishga harakat qildi.

Ona kaklik shu ko'rinishida kattagina yumaloq toshga yoki yum-yumaloq cho'chqabosh o'simligiga o'xshab qoldi. Lekin tum-shug'i oldida ayri tilini tinimsiz biltanglatib kelayotgan chipor ilon uning tosh ham, cho'chqabosh o'simligi ham emasligini, o'ziga oziq bo'ladigan issiq qonli parrandalardan ekanligini bexato bildi.

Ilon ko'zlari borligiga qaramay hech narsani ko'rmaydi, biror to-vushni eshitmaydi. Tashqi olamni tili orqali "ko'radi", terisi orqali sezadi. Tili orqali yuboriladigan signallar o'lja yotgan joy, uning haj-mi va shakli, harakatlanayotgan bo'lsa yo'nalishi haqida ilonga aniq "ma'lumot" yetkazadi. Shunga qaramay bu safar u adashdi: ro'pa-rasidagi Ona kaklik va jo'jalarini bir butun holda "ko'rdi". Negadir bundan qanoatlanmadi. Yana bir qadamcha yaqinlashib, boshini baland ko'tardi. Tilini avvalgidan ham tezroq biltanglata boshladi. Natija o'zgarmani shekilli, hafsalasi pir bo'lganday bir lahza tili ham og'zidan chiqmay qoldi. Bu o'ljani yutib bo'lmasligini sezdi. Chiqishga sarflanadigan zahri hayf ketadi. Ilon bisotidagi asosiy qurol - zaharini bekorga sarflamaydi. O'ziga biror shikast yetishini payqasa yo o'ljasi qochib ketishini ilg'asagina shunday qiladi. Bunisi juda beozor, qochishni o'ylayotgani ham yo'q. Biroq juda yirik, og'zini o'n barobar kattalashtirganidayam sig'dirolmaydi...

Ona kaklik bu safar ham o'z ishini do'ndirib bajardi. Qattol dushmani noiloj undan uzoqlashdi. Boshqa jo'jalar ozmi-ko'pmi yorug'likni ko'rib, unga moslashib ulgurandilar. Kenjatoyda bunday imkoniyat bo'lmadi: tuxumdan chiqqan zahoti onasi tagiga bosib oldi. Yetaklab chiqqanida borliqni qurshagan kuchli yorug'lik ko'zlarini qamashtirib, uni dovdiratib qo'ydi. Shu tufayli onasining ogohlantirishini idrok qilolmay, sarang bo'lib, joyida turib qolgan edi. Unchalik og'riqli bo'lmasa-da, buning jazosini oldi...

Oxirgi tuxum bo'lgani va eng keyin ochib chiqqani tufayli Kenjatoy onasiga nimjonroqday ko'rindi. Jussasi ham boshqalarga taqqoslaganda jimitday. Lekin donlash paytida tirishqoqlik, chaqqonlikda boshqalardan qolishmasligini ko'rsatdi. Onasi uzib, tumshug'ida umatib tashlayotgan butalarning sershira kurtaklari, mayda don va urug'lar, ezg'ilab bo'laklab tashlangan qurt-qumursqalardan talashib-tortishib o'z ulushini olar va zum o'tkizmay yutib yuborardi. Shunday qilmasa, boshqalar og'zidagini tortib ketishini bilib qoldi.

Kenjatoyning harakatchanligi zimdan kuzatib yurgan onasini qanoatlantirdi. Uni alohida oziqlantirishiga hojat qolmadi. Endi u bor e'tiborini jo'jalarini to'ydirish, atrofini qurshagan xavf-xatarlarni vaqtida ilg'ash va bolalarini ulardan asrab qolishga qaratdi...

Kunlar bir-birini quvib, bilintirmay o'tib borardi. Vaqt o'tgani sari jo'jalarning patlari o'sib, qalinlashib, haqiqiy kaklik suratiga kirib bormoqda edi. Endi onalarining ortiqcha e'tibor berishiga unchalik zarurat qolmadi. Hozircha o'zidan ajratib yubormagan esa-da, ba'zi jo'jalar istagan paytida xohlagan tomoniga uloqib ketaveradigan bo'lib qolishdi. Yurib-yurib yana to'daga qaytishar, hech nima bo'lmaganday aralashib yuraverishardi. Bu "qoidabuzar"liklar jo'jalarda mustaqil yashash ko'nikmasi hosil bo'layotganidan darak berardi.

Bir kuni Ona kaklik bolalarini tog' etaklari bilan ham tanishtirmoqchi bo'lib, ularni quyiga yetakladi. Bu yerda ozuqa ko'proq bo'lisa-da, xatar ham shunga yarasha edi. Donlash bilan andarmon bo'lib, qishloqqa ancha yaqinlashib qolganini Ona kaklik kechroq payqadi. Suvloqlarga tezgina tushib chiqishgani bo'lmasa, jo'jalar ilgari hech qachon bunchalik quyiga tushmagan edilar. Bu - o'ta

xavfli edi. Bunda yuqoridagi g'anamlaridan tashqari miltiqli-miltiqsiz odamlar, it-mushuklar, hatto tovuq-xo'rozlarga ularga dushman. Shu tufayli u tezgina jo'jalarini yoniga chaqirib, ortiga qaytdi. Kenjatoyni esa qishloq chetidagi paxsa devor bilan o'ralgan hovli qiziqitirib qo'ydi. Ichida nima borligini ko'rish ishtiyogi onasining chorlovidan ustun keldi.

Kenjatoy chaqqon yo'rg'alab, biroq o'ta hushyorlik bilan hovli darvozasidan ichkariga mo'raladi. Hovlining narigi burchagidagi peshayvonli uy oldida ro'molini hakkari qilib o'ragan bir kampir yerdagi xas-cho'plarni qo'li bilan terib, ivirsib yurardi. Beriroqda chipor tovuq jo'jalarini qanotlari ostiga olib mudrardi. Aftidan, ancha ko'tarilib qolgan quyoshning issig'i elitgan. Boshqa biror xavf sezmagach, Kenjatoyning hovliga qiziqishi battar kuchaydi. Ho'sag'adan ichkariga sakrab, mudrab o'tirgan tovuq tomonga yo'rg'aladi. Uni onasiga o'xshatdi, shekilli. Darvoza yaqinidagi devorga taqab taxlangan o'tinlar orqasida cho'zilib yotgan Olapar uni puyqab, vovullaganicha tashlanib qoldi. Qaytish yo'li to'silganini ko'rgan Kenjatoy qo'ruqdan nima qilishini bilmay, o'zini tovuq tagidagi jo'jalar orasiga urdi. Bir zumdayoq hovlini qiy-chuv bosdi.

Olapar jo'jalarga aralashib ketgan begona qushni tutmoqchi bo'lib vovullaganicha tovuqqa intildi, hech narsadan bexabar tovuq esa bolalarini himoya qilmoq uchun itga chovut solmoqchi bo'ldi, kampir itni qaytarmoq ilinjida hay-haylab qarq'andi, tovuqlar ortida sochilib yurgan jo'jalar panoh izlab onasiga talpinishdi.

Oxiri it egasiga bo'ysunib, joyiga qaytdi. Sochilib ketgan jo'jalar yoppasiga onasining qanotlari tagiga kira boshlashdi. Nima qilishini bilmay turgan Kenjatoy ham ularga ergashdi. Xuddi shu paytda kampir uni ko'rib qoldi va hovlidagi to's-to'polon sababini angladi. O'zicha uni tutib olmoqchi bo'ldi. Mushtdaygina kaklik jo'jasini tutib olishi qiyin emasday tuyuldi. U o'ng qo'lining kaftini pastga qarataib oldinga cho'zganicha, bir-bir bosib tovuqqa yaqinlashdi. Tovuuq hurpayib, bir martagina cho'zib qurqulladi va jilm bo'ldi. Hech qachon yomonlik qilmagan, don-suvini vaqtida berib yurgan egasidan ko'pam cho'chimadi.

Kampir tovuqning yonginasida to'xtadi. Qo'lini asta tushirib tovuqni bosdi va yoniga cho'qqayib chap qo'lini tagiga yubordi.

Tovuq shundagina bezovtalanib, qattiq qoqog'laganicha egasining qo'lidan chiqishga urindi. Ammo eplolmadi: kampir anchagina chayir edi. U jo'jalarni bir-bir ushlab tashqariga chiqarib tashlar, biroq qidrganini topolmasdi. Kenjatoy allaqachon ko'ylagining kenggina yengidan kirib, yelkasiga ko'tarilib ketganini bilmasdi. Bo'ynini siqib turgan ko'ylak yoqasiga kelganidagina u ilojisiz turib qoldi.

Qo'rquv tuyg'usi Kenjatoyni harakatga soldi. O'tkiringina tirnoqlarini ko'ylak matosiga botirib yelkagacha yuqorilagandi. O'tishi mumkin bo'lmagan tor joyga kelgach o'nglanib, tirnoqlarini kampirning tanasiga botirdi. Bundan kampirning jon-poni chiqib ketayozdi: kaklik jo'jasi ko'ylagimning ichidadir, degan fikr xayoligayam kelmadi. Yelkasiga bir nechta chayon chiqib olib, nishlarini baravar sanchganday tuyuldi. Qo'rqanidan kuch bilan tortqilab, ko'ylagining yoqa tugmalarini chirt-chirt uzib yubordi. Kutilmaganda kengayib ketgan yoqadan Kenjatoy "lip" etib chiqdida, zumdayoq hakkarining tepasidagi chuqurchaga qulaygina o'mashib oldi.

Kampir faqat tugmalari uzilib, kengaygan yoqasidan jo'ja chiqib ketganini payqagandan keyingina yelkasiga chayonlar nishi emas, kaklik jo'jasining tirnoqlari botganini angladi. Yengil tortib, jimitdaygina jo'janing epcilligidan hayratlandi. Yovvoyi jo'ja eplagan bu chapdastlikni xonakisi hech qachon qilolmasdi. Shunga qaramay bidirlab qarg'andi:

– Voy sog'ona, sal bo'lmasa jonim chig'ip ketayin dedi-ya! – u ko'ylagi yoqalarini silkilab atrofiga qarandi.

Ona tovuq kurkullaganicha nariroqqa ergashtirib ketayotgan jo'jalar orasida ham izlagani ko'rinmagach, yana qarg'andi:

– Bu sog'ona mushdayg'ana bo'lib qay go'rga quridi?

Ro'molining ustiga qo'l yuborib qarash uning xayoliga kelmadi. Buning o'rniaga engashib, darvoza tarafga ko'z yugurtirdi. Xuddi shu paytda ro'mol ustidagi chuqurchada payt poylab turgan Kenjatoy pirillab uchib, uch-to'rt qadam nariga tushdi va zing'ilaganicha darvozadan chiqib ketdi. Uni payqab hurganicha ortidan quvlagan Olapar izini ham topolmay, qaytib keldi va bamaylixotir joyiga cho'zildi...

Kenjatoy to'dasining qayerlarda yurishini yaxshi bilardi. Shu tufayli qalin o'to'lanlarni panalab, yirik butalardan aylanib o'tib, ularni qiynalmay topib keldi. Onasi tikilib bir qaradi-yu, sog'omon qaytganidan ko'ngli tinchidi. Hech gap bo'lmaganday bolalarini yana yuqoriroqqa boshladi...

Jo'jalar bemaol uchib-qo'navradigan, xavf-xatarni mustaqil bartaraf qiladigan, o'z kunlarini o'zlari ko'radigan bo'lib qolishdi. Shu tufayli Ona kaklik yozning issiq kunlaridan birida bolalarini ajratdi: ularni o'z holiga tashlab, nari bilan allaqayoqqa uchib ketdi. Bu jo'jalarga unchalik bilinmadi. Oziqlanish uchun ba'zan bo'linib ketishgani bo'lmasa, avvalgidek to'dalashib yuraverishdi. Ba'zilari hatto juft qidirib qolishdi. Jo'jalar yordamsiz yashashga to'liq ko'nikkanlarida, ota-onalari yana to'daga qaytishdi. To'da – kaklik hayotining uzviy bir qismi. Bu, eng avvalo, ularning xavfsizligi uchun kerak. Yaqinlashayotgan xavfni to'pdagilarning biri bo'lmasa, biri sezadi, ovoz berib boshqalarni ogohlantiradi...

O'sha yili qish xiyla qattiq keldi. Tog'larni qalin qor qoplatdi. Momiq qor ozuqa beradigan xashaklarni ko'mib yuborgani kamlik qilganday, kakliklarning yurishini ham qiynlashtirib qo'ydi. Zovlarning chetidan amallab uchganlari ham tushgan joylarida yunshoq qorga botib qolishadi. Bu ularni atrofda izg'iyotgan, tepalarida uchib yurgan yirtqichlarning tayyor o'ljasiga aylantiradi. Shu tufayli ikki-uch kun yon-atroflaridagi butalarning qotgan kuraklari bilan jon saqlashga majbur bo'lishdi. Xayriyatki, bu uzoq davom etmadi. Tungi ayozlarda qor to'ng'ib, yuzasida bemaol yurish mumkin bo'lib qoldi. Tunda qotgan qor kunduz ham yumshamadi. Bu pastdagi suvloqlarga qiynalmay tushib-chiqish imkoniyatini yaratdi. Iliq suv oqayotgan jilg'alarining qirg'oqlari muzlamaydi. Hanz ko'karib turgan maysalarni cho'qilab ham jig'ildonlarini to'ldirsa bo'ladi. Ora-sira turli o'simliklarning urug'lari, don-dun ham uchrab turadi.

Ona kaklik ba'zan suvloqlarga qopqon qo'yishlarini ko'rgan. Nachora, ochlik uni ham har qanday xavfni unutishga majbur qilmoqda. Shu sababli to'dasini yonbag'irning etaklari tomon

dadil boshladi. Yo'lda ularga yana bir kichikroq to'lda qo'shildi. Orlaridan qanday to'lda ergashsa ham, oldingi to'lda g'ayirlik qil-maydi. Jilg'a qirg'oqlari uzun, unda har qancha kaklik yoyilib, be-malol ozuqa qidirishi mumkin. Biror yirtqichga duch kelishmasa bo'lgani.

To'dalar jilg'a boshidagi sersuv buloq tomondan tushib borish-di. Buloqqa yetmaslaridanoq Ona kaklik kirkillab to'xtab qoldi. U bu yerda qandaydir xavf yashirib yotganini sezdi. To'dasida-gilar ham uning ogohlantirishiga bo'ysunib, joylarida to'xtab qol-dilar. Ona kaklik joyidan siljimag, buloqning boshidagi o'zgarish-larga e'tibor qildi. Jilg'a manbayidan atigi ikki qadam narida keng-gina, usti tekis tuyatoshning o'rtasiga, aylanasiga to'rt tortilgan qandaydir qurilma o'rnatilgan. Bir cheti ikki qarich keladigan uchi ayri tayoqcha bilan ko'tarib qo'yilgan. Ayri tayoqchanning pastiga ingichka, lekin pishiq ip bog'lanib, ikkinchi uchi nariroqda tosh-larni nari-beri qalab qurilgan tor va pastak uycha tomonga tortib ketilgan.

O'tgan qishdayam shunday qurilmaga duch kelgandi u. O'shanda falokatdan zo'rg'a qutulib qolgan. To'pidagilarning yar-midan ko'pi jelaning tagida qolib, sayyodning pichog'idan o'tka-zildi. Shu ayanchli hodisa - ko'rganlari miyasining qaysidir puch-mog'ida saqlanib qolgani uchun bu safar ehtiyotkorlik qilgandi. Yo'ldosh to'pidagilar ogohlantirishga parvo qilmay, jelaning tagi-ga sepilgan donga yopirilib hujum boshlashdi. Shu payt ip birdan tortildi. Harislik bilan don cho'qiyotgan kakliklarning deyarli hammasi to'ring tagida patira-putur qilib qolishdi. Bu donlayot-gan to'pga qo'shilishga intiqib turgan Ona kaklik to'dasidagilarni qo'rqitib yubordi. Hammasi tumtaraqay qochib, o'zini duch kel-gan butalarning tagiga urdi. Kim biladi, Ona kaklikning ziyrakligi va yo'ldosh to'dagilarning ochko'zligi bo'lmaganida, ularning o'rnida o'zlari potirlab yotisharmidi... Hoynahoy, tayyor luqma-ni ko'rgach, och kakliklarning birontasi ham xavf tuyg'usiga uzoq bardosh berolmasdi.

Ovchi bekingan joyidan shoshilmay chiqdi. Ilgariroq yashirin-gani butalar orasidan mo'ralayotgan, bekinolmaganlari qulayroq joy izlab hanuz o'zini har tarafga urayotgan kakliklarga beparvo na-

zar tashladi. Yengilgina kerishib, qimidan pichog'ini chiqardi. Tig'i o'tkirligini bilsa ham tarki odat qilolmay, chap kaftiga bir-ikki ishqab qayragan bo'ldi. Keyin jela yoniga cho'qqayib, to'rt tagida potirla-yotgan kakliklarni ehtiyotkorlik bilan birma-bir chiqarib, chetroqda bo'g'izlay boshladi. Ishini tugatgach, sanab ko'rgandi, o'nta chiqdi. Katta galadan atigi shunchasi tuzog'iga ilinganidan unchalik ko'ngli to'lmadi. Ipnini tortishda ozroq shoshildi chog'i. Aslida shoshilmasa ham bo'lmadi: ko'pni ko'zlab ozidan ham quruq qolishi hech gap emasdi. Och qolgan kakliklar tuzoqqa sepilgan donlarni tezdayoq tugatib, qochib qolishlari mumkin edi. Hay, mayli, qochganlari yana keladi. Ochlik ularni shunga majbur qiladi.

Ovchi kakliklarning ikki to'pi birikib kelgani, ulardan bittasi - kichik to'pidagilardan ko'pchiligini tuzog'iga tushirganini bilmas-di. Katta to'dani katta tajribaga ega onaboshi boshqarayotganidan ham bexabar edi. Shu sababli kakliklarning hademay qaytishlari-ga umid bog'lab, jelaning tagiga donni qaytadan mo'l-ko'l sochib, kech peshingacha sabr bilan kutdi. Ammo qo'rqib qolgan kakliklar jilg'aga yaqinlashmadi. Tosh "qal'a"sida harakatsiz yotganidan kechki sovuq a'zoyi badanini junjita boshlagachina u ko'ch-ko'ronini yig'ishtirdi. Shu atrofda poylab yurgan kakliklar shun-dan keyingina ovchi qoldirib ketgan donni paqqos terib yeyishdi. Kamiga qirg'oqlarda ko'karib turgan maysalardan cho'qilashdi...

To'dadagi yaxshi-yomon kunlar ham o'tmishga aylandi. Ko'klamning o'rtalarida Ona kaklik hayotida go'yo yangi davr boshlandi. O'tgan mavsumdagi bolalarini tamom unutdi. Qanchasi bor-u qanchasi yirtqichlarga yem bo'layotgani bilan ishi bo'lmay qoldi. Polaponligida har biri uchun jonini jabborga berardi. Tahlikali damlarda o'zini qalqon qilib jo'jalarini asradi. Qorong'i-qattiq qilshda ham yo'lboshchilik qilib, ularni ne-ne balolardan qutqarib qoldi. Kunlar sal yurishib, har qaysisi o'z oldiga tirikchilik qilib ketishgach, begonaga aylanishdi-qolishdi.

Navbatdagi tuxum qo'yishidan ancha ilgari aloqalari butunlay uzildi. Uning endigi tashvishlari bo'lakcha - butun diqqati nasli-ning yangi avlodini dunyoga keltirish bilan band. Bunday paytlar-da makiyon kakliklar atrofida begonaning pashshaxo'rda bo'lishini yoqtirishmaydi...

Kenjatoy ba'zan o'zi sezmaganda holda onasini eslab qolardi. Shunda uning issiq bag'rida yotish lazzatini qayta tuyganday bo'lardi. Shu sababdanmi, ba'zan boshi og'ib, eski uyasiqga kelib qoladi. Bo'sh uya tepasida birpasgina mung'ayib o'tirgach, yana qaytib ketadi.

Bir kuni onasi uyada yotganining ustidan chiqdi. Quvonchdan kikirlab yaqinlashgandi, u tahdidli ovoz chiqardi – go'yo yonidan daf bo'lishini talab qildi. Aftidan, u tuxumlarini qizg'anardi. O'ziga begona bo'lib ketgan qandaydir yosh kaklikning uyasiqga yaqinlashishiga tish-tirmog'i bilan qarshiligi yaqqol sezildi. Kenjatoy hayron bo'lib turganida, qayoqdandir Nar kaklik paydo bo'ldi. He yo'q-be yo'q, tepkilab cho'qiy boshladi. Noiloj, bu yerdan qochishga majbur bo'ldi.

Kenjatoy juft qidirishga negadir shoshilmadi. Goh to'dada, ko'pincha yakka-yolg'iz uloqib, ko'p o'tmay yana uyasiqga kelib qoldi. Bu safar Ona kaklik ham, Nari ham yo'q edi. Ehtiyotkorlikni yo'qotmay uyaga yaqinlashib, tagida anchagina tuxum borligini ko'rdi. Qiziqsinib tuxumlarni ko'zdan kechirdi. Biriga bosh urgandi, tumshug'i ichiga kirib ketdi. Tili qandaydir shilimshiq suyuqlik ta'mini sezdi. Mazasi yomon emasday. Boshini ko'tarib atrofni tezgina nazardan o'tkazdi-da, tuxumning teshilgan joyiga yana tumshug'ini tiqdi. Bu safar suyuqlikdan ozgina so'rib yutgandi, juda mazali tuyuldi. Shuning uchun uni oxirigacha simirdi. Po'chog'ini chetga uloqtirib, ikkinchi, uchinchi tuxumlarni ham shu tarzda bo'shatdi. Nafsi ancha orom olib, tezda bu atrofni tark etdi. Qilmishi yomonligini bilganidan emas, shunchaki ehtiyotkorlik yuzasidan qochdi.

Shu paytgacha terib yegan qurt-qumursqalar, hasharotlarning birortasidan bunchalik lazzatlanmagandi u. Tuxumning mazasi butunlay boshqacha tuyuldi. Shu-shu unga mazaxo'rak bo'lib qoldi. Uya egasiz qoladigan paytni poylab, har kuni ikki-uchta tuxumni so'rib ketadigan bo'ldi. Bo'shagan po'chog'ini chetroqqa eltib yashirardi. Sho'rlik Ona kaklik tuxumlari kamayib ketayotganini avvaliga sezmedi. Savqitabiiy ularning bosadigan hisobga yetmaganini his qilardi, xolos. Shu tufayli qolgan tuxumlarni biror soat bosib, ustiga yangisini tug'ib ketaverdi. Ammo tuxumlari ko'payish

o'rniga tobora kamayib bordi. Shundagina u nimanidir ilg'agan-day bo'ldi. Kenjatoy ehtiyotkorlik yuzasidanmi, tez-tez o'g'rincha boshqa uyalarga ham tushardi. Mazali va to'yimli ovqatlar tezdayoq natijasini ko'rsatdi: kundan kunga ochilib, kuchga to'lib borardi. Patlarining rangi atrofdagi qovjirayotgan o'tlar va toshlardan unchalik farq qilmasa-da, yaltirabroq ko'rinadi. Oyoq va tumshuqlarining rangi odatdagi ochroq qizildan to'q qizilga aylanganday. Ikki yonidagi ko'zlariga tutash boshlangan va qorni orqali dumigacha cho'zilgan qora chiziqlar quyuuqlashib, yaltirab, chiroyli ko'rinib oldi. U o'zi bilan birga dunyoga kelgan to'pdagi eng chiroyli va kuchli kaklikka aylangandi. Biroq...

Jinsdoshlari bilan to'qnashsa, Kenjatoy har qanday kuchli kaklikni ham tepib ag'darar, cho'qisa badanini teshib yuborar, ikki-uch patini birvarakay yulib olardi. Shunga qaramay, ishlarini o'g'rincha bajarardi. Olomonga tushib qolishdan hayiqardi, shekilli. Nimayam bo'lib, o'zi o'sib-ungan uyadagi oxirgi tuxumni teshib ichayotganida ustiga onasi uchib keldi. U tuxumlariga kim qiron solganini bilgach, g'azabdan badanidagi eng mayda parlargacha tik turdi. O'lariga qaramay hamma qo'rqadigan Kenjatoyning tepasidan burguday bosib tushdi. Kenjatoy daf'atan bo'ynining boshiga yaqin joyidan qattiq changallab, yerga bosgan narsaning nima ekanligini bilolmay qo'rqib qoldi. Oxirgi ichgan tuxumning bir qismi burnidan keldi.

Ona kaklik bamisoli quturib ketdi. Nima qilayotganini bilib-bilmay Kenjatoyning yerga bosilib turgan boshiga qaradi. Burnidan oqib chiqqan tuxum hidini tuygach, battar jazavasi qo'zidi. Qo'rquvdan yiltirab turgan chap ko'ziga ko'zi tushgach, qahr bilan bir cho'qishda uni sug'urib oldi.

Kenjatoyning ko'z oldida yashin chaqnaganday bo'ldi-yu, shu lahzadayoq bir tomoni zimistonga aylandi-qoldi. Ketidan qo'zg'alangan kuchli og'riqqa chidolmay, bor kuchini yig'ib, onasini ustidan og'darib yubordi va oyoqqa turdi. Ona kaklik uning o'zini o'niglab olishiga fursat qoldirmay, qo'sh oyoqlab tepib yubordi. Bunday zarbni kutmaganidan, Kenjatoy muvozanatini saqlab qololmay, nishablikdan yumalab ketdi.

U tepkidan gandraklab, qiyalikdan yumalab tushgan esa-da, bundan og'riq sezmedi. Hujum qo'qqisidan bo'lmaganida, onasini osongina mahv etardi. Ammo Ona kaklik burgutga aylanib ketganday edi. Balki chek-chegarasiz alam tuyg'usi, g'azab va nafrat unga yengib bo'lmas kuchni ato etgandir? Nima bo'lganda ham Kenjatoy bu safar ta'zirini yedi. Chap ko'zidan qon sizg'ib, og'rig'i tobora kuchayib bordi. Chap ko'zi bilan hech narsani ko'rolmay qoldi. Buning sababini hali idrok etolmasa-da, bu yerdan qochib qolishni ma'qul ko'rdi.

Ona kaklik hamon quturardi: alamiga chidolmay shu paytgacha qadrii makon bo'lib kelgan, endi huvullab turgan uyasini vayron qilishga tushdi. Atrofiga terilgan mayda toshlarni panjalari bilan har tarafga uloqtirdi. Yaxshi kunlarida o'zi va jo'jalariga yumshoq, issiq to'shak bo'lib kelgan xas-xashaklarni tit-pit qilib yuborgach, bu go'shani bir umrga tark etdi...

O'yilgan ko'zi anchagacha Kenjatoyga azob berib yurdi-yu, asta-sekin yarasi bitib ketdi. Bir ko'zlab bo'lsa ham qiynalmay, odatdagi tirikchiligini qilaverdi: butalarning barra kurtaklarini uzib maydalab yeydi, turli urug'lar va qurt-qumursqalar bilan oziqlanadi. Lozim bo'lganida suvloqqa yolg'iz tushib chiqadi. Bu orada o'ziga juft ham topib oldi. Birgalashib qulay va xavfsiz joydan uya qurishdi. Jufti tuxum qo'ya boshlagach, har uch-to'rt kunda yashirincha kelib, ikki-uchtasini so'rib ketaverdi. Jufti uyadan bezib ketmasligi uchun bir-ikkitasini qoldirardi.

Jufti buni sezganmi-yo'qmi, bir kuni uyasini ham, uni ham tashlab, to'satdan g'oyib bo'ldi. Kenjatoy beminnatdek tuyulgan "oshxonasi"dan mahrum bo'lsa-da, bundan ko'pam aziyat chekmadi. Atrofdagi tuxumli uyalar ko'p, odatdagidek boshqa uyalarni poylay boshladi. Qaysidir makiyon tuxum qo'yib ketishi bilan u yetib boradi. Istaganicha tuxumni so'rib, po'chog'ini chetga uloq-tiradi-yu, qochadi.

Vaqt o'tgani sari Kenjatoyning tirikchiligi qiyinlashib bordi. Uni o'z to'pidagilar o'rtaga olib, tepkilab-cho'qib, to'dadan hayday boshladilar. Negadir boshqa to'dadagilar ham shunday qildilar. Odatda kakliklar qandaydir sababga ko'ra yolg'iz qolgan jinsdoshlarining o'z to'dasiga qo'shilishlariga monelik qilmaydilar.

Endi buning tamoman aksi yuz bermoqda edi. Ammo u o'g'rincha tuxumxo'rlik qilishni to'xtatmadi. Nima qilib bo'lsa-da, biror qarorvsiiz qoldirilgan uyani topib, undagi tuxumlardan keragicha yeb ketaverdi...

Yolg'izlikka biror jonzotning uzoq chidashi qiyin. Oradan qanchayam fursat o'lgach, Kenjatoyning ham bardoshi tugadi. U hech bo'lmasa o'ziga juft topish payiga tushdi. Baquvvat va chiroyli jussasiga qarab, unga mayl bildirgan makiyonlar ham bo'ldi. Ammo yaqiniga kelishi bilan taralayotgan g'alati va qo'rqinchli hidni ilg'ab, qochib qolishardi. Undan kelayotgan hid o'z tuxumlarining hidi ekanligini sezishardi, shekilli.

Bahordan buyon ichgan-so'rgan tuxumlarining hidi terisidan o'tib, patlarigacha urib ketgandi. To'dadagilar shu tufayli uni o'zlariga qo'shmas, shu tufayli makiyonlar qo'rqib qochishardi. Biroq bu hid o'zlaridan qolishi kerak bo'lgan zurriyotlarning hidi ekanligini hozircha kakliklarning hech biri aniq bilmasdi. O'zidan hazm bo'lib ketgan tuxumlarining hidi anqiyotganini Kenjatoy ham bilmasdi. Vaqt o'tgani sari uning qarovsiz qoldirilgan uya topishi qiyin bo'lib qoldi. Endi kakliklar uyalarni navbatma-navbat qo'riqlaydigan bo'lib qolishdi. Nihoyat ular yirtqichlardan ham xatarliroq dushman paydo bo'lganini payqashdi. O'z nasliga qiron solayotgan dushman jinsdoshlaridan ekanligini ham sezishdi. Boshqa yirtqichlar hech qachon bunchalik katta zarar berisholmagan.

Kenjatoyning o'g'irlik qilishiga hech qanday imkoniyat qolmadi. Shu tufayli vaqtincha tiyilib turmoqchi bo'ldi. Ammo tezda-yoq tuxumning xumori tutib, o'zini qo'ygani joy topolmay qoldi. Shundan keyin uyalarga ochiqchasiga bostirib boraverishni odat qildi. Egalarini tepib-cho'qib quvlab yuborar, tuxumlardan keragicha so'rib-simirib ketardi. Endi po'choqlarini avvalgiday yashirib ham o'tirmasdi.

Makiyonlar, ayniqsa yoshroqlari, tuxum qo'yish uchun uyalarga borishdan bezillab qolishdi. Kenjatoyning qachon va qayoqdan kelib bosqin yasashini hech biri bilmasdi. Shu tufayli ko'plari tog'yirtqichlariga yemish qilib, tuxumlarini duch kelgan joyga tug'ib ketishardi. Bu kakliklar uchun haqiqiy ofat - nasl yo'qolib borishi-

ning boshlanishi edi. Bunga jonzoqlarning hech biri chidolmasdi. Kutilganidek, kakliklarda ham o'zligini va o'z naslini saqlab qolish tuyg'usi uyg'ondi. Makiyonlari tugul, narlari ham shu tuyg'udan junbushga kelishdi va bosqinchi-o'g'ining yo'lini poylay boshlashdi. Oralarida Kenjatoyning alamzada ota-onalari ham bor edi. Kakliklar orasida boshqacharoq harakatlar yuzaga kelayotganini Kenjatoy sezdi. O'rtalariga tushish yaxshilik keltirmasligini ham his qildi. Iloji boricha ehtiyot bo'lish va to'dalardan uzoqroq yurishga intildi. Tog'-toshlar orasida mudom bekinib, pusib yashash oson emas.

Uni yolg'izlikdan ham dahshatliroq qiynayotgan narsa tuxumning xumori edi. Yegan tuxumlarining mazasini tuyganida beixtiyor og'zi suv ochib ketadi. Shunda to'daga tushib qolish xavfini ham bir lahzaga unutadi. Uchiga chiqqan kashandaday atrofiga olazarak qaranadi. Qayoqqaligini aniqlamay turib, boshi oqqan tarafga yo'rg'alab qoladi.

Shunday xurujlardan birida u tasodifan onasi yotgan yangi uyaga ro'para kelib qoldi. Bir ko'zining yo'qligi pand berdimi yo yaqinginasida yangi, iliq va mazali tuxum borligini his qilibmi, hushyorligini yo'qotdi. O'ljaga mushuqoligi jazavaga tushirganidan, chap tarafidagi butalar orasida bir to'p kaklik soyalab yotganini mutlaqo payqamadi.

Harislik bilan onasiga tashlanib, haydab yuborish uchun cho'qishga tushdi. Ona kaklik tajribali edi. Bunday hujumlarni vaqtinchaga bo'lsa-da, daf qilishni bilardi. Oyoqqa turdi-yu, biroq o'zini vazmin tutib payt poyladi. Cho'qishlarga dosh berib, himoyalananayotganday boshini olib qochdi.

O'nqovi kelgani zahoti o'ng panjasi bilan Kenjatoyning bo'ynidan omburday qisib yerga bosdi. Bu orada to'pdagilar yordamga yetib kelishdi. Uni har tarafdan o'rab, tepkilab-cho'qib palarini yula boshlashdi. Nar kaklik - otasi hayal o'tkizmay juftining panjasi yonida munchoqday yiltirab ko'rinayotgan ikkinchi ko'zini o'yib oldi. Olam o'sha lahzadayoq Kenjatoy uchun zulmat qa'riga sho'ng'idi. Daf'atan u nima bo'lganini bilolmay qoldi. Ko'zidagi chidab bo'lmas og'riq miyasiga burov solgach, bor kuchini jamlab, onasining panjasidan qutulishga harakat qildi: o'tkir tirnoqla-

rlini ishga solib, onasining jig'ildoni bilan ko'ksining terisini yirtib yubordi. Bir timog'i to'shining yuqorisidan ichiga ham kirib ketdi. Shundan keyingina onaning changali bo'shshib, Kenjatoyning bo'ynini qo'yib yubordi.

Birdan zimistonga aylangan bu qorong'i dunyoda nima qilib bo'lsa-da, jon saqlab qolish tuyg'usi Kenjatoyni orqaga - zov to'monga qochishga undadi. Zov kelgan tarafdaligini eslab qolganidan, chamalab o'sha tomonga yugurdi. Har tomondan tushayotgan tepklardan ko'ra badaniga juvoldizday botayotgan, o'yib olayotgan, par-u patlarini ayovsiz yulayotgan cho'qishlarning og'rig'iga chidashi qiyin bo'layotgandi. Ammo bariga chidab, yo'lida tasodifan ro'para kelgan jinsdoshlarini gavdasi bilan urib, ag'darib, chamasidagi joyga yetganini sezdi. Bor kuchini oyoqlariga berib sakradi va zovdan qiyalab, shiddat bilan kalla tashladi.

Kakliklarning bir nuqsoni - turgan joylaridan na tik va na qiyalab havoga ko'tarila olmasligida. Avvaliga, albatta, pastga sakrashi, qanotlarini silkitib muvofiqroq havo oqimiga tushib olishi, shundan keyingina mo'ljalidagi joyga ko'tarilib uchishi mumkin.

Shiddat bilan pastga sho'ng'iyotib, ko'tarilib olishiga qulay havo oqimiga duch kelganini Kenjatoy sezdi va balandga ko'tarildi. Ammo qanotlaridagi siyraklashgan patlar havoni yaxshi tutolmaganidan keragicha ko'tarila olmadi. Toliqib holdan keta boshlagach, ozroq pastga sho'ng'idi. Ko'zlari hech narsani ko'ra olmayotgani unga endi ta'sir qildi. Chinakamiga qo'rqib ketdi. Bor kuchini yig'ib yana ko'tarildi.

Atrof toshday qorong'i. A'zoyi badani zirqirab og'riydi. O'ng ko'zi va terisining jarohatlangan joylaridan qon sig'iydi. Zo'riqish natijasida terladi ham. Ammo atrofini qurshagan zulmat aroqayoqqa uchishini, nima qilishini bilolmay qoldi. Noaniq parvozlar natijasida yo'nalishdan ham adashdi...

Kenjatoyni o'ragan bu galgi zulmat yorug' dunyoga kelishi arafasidagiga aslo o'xshamasdi. Unisi rohatbaxsh va farog'atli edi. Undagi osudalik va sokinlik tanasiga quvvat indirardi. Vujudini o'rab turgan parda va sirtidagi qattiq qobiq go'yo o'ziga xos beshik edi. Onasi tuxumlarini aralashtirayotgan paytlarida bamisoli tebratayotganday rohat olib, daqiqa sayin o'sib-unardi. Bu safargisi undan kes-



kin farq qiladi: a'zoyi badanini iskanjaga olayotgan azob va og'riq daqiqa sayin kuchayib, uni holdan ketkizmoqda edi. Soniya sayin o'linga yaqinlashtirayotgan bu zulmat aslida onasining tuxumini birinchi marta o'g'irlab yegan paytidan boshlanganini u bilmasdi...

Shu atrofda daydib yurgan och tulki Kenjatoyning telba-teskari uchayotganini ko'rib qoldi. Bu uchishda kaklik uzoqqa borolmasligini payqadi va u qulashi mumkin bo'lgan joyni chamalab yugurdi. Oqibat kutganiday bo'lib chiqdi. Darmoni qurigan Kenjatoy qanotlarini to'liq yig'ishga ham yaramay pastga sho'ng'idi. Unchalik baland bo'lmagan bodom daraxtining shoxlariga urilib, qiyalikdan soy tarafga yumalab ketdi. Sabr bilan shuni kutib turgan tulki yugurib borib, qanotlarini zo'rg'a qimirlatayotgan Kenjatoyning bo'yundan g'archcha tishladi va ko'tarib, begona ko'zlardan panaroq joy qidirib ketdi.

Bu paytda o'zining bolasidan o'nglanmas jarohat olgan Ona kaklik jon bermoqda edi. Uning yirtilgan jig'ildonidan yegan-ichganlari ag'darilib tushgan, ko'ksidan sizg'ib qon oqmoqda edi. Tepasida Nar kaklik mo'ltirab o'tirardi. Boshqalari zov chetida tizilishib, Kenjatoyning pala-partish harakatlarini kuzatishmoqda edi: pastga qulagani, bodom shoxlariga urilib yumalab ketgani va och tulkining g'archcha tishlab olib ketganini ko'rishdi. Bir marta, atagi bir martagina iltijoga o'xshash "ki-ir-rk" degan ayanchli tovush chiqarganini ham eshitishdi. Lekin birortasida na bezovtalik va na qo'rquv hissi paydo bo'ldi. Qaytaga natija shunday tugaganidan yengillik tuyganday bo'lishdi. Bamaylixotir ortlariga qaytib, jon berayotgan Ona kaklikni o'rab olishdi. Bugun Ona kaklik nasllarining kushandasini o'linga mahkum etib, buyuk ishni amalga oshirgandi...

Ona kaklik jon taslim qildi. Uni o'rab turgan to'da g'amga botganday mo'ltirab, biroz vaqt sas-sadosiz turib qoldi. Keyin asta-sekin har tarafga tarqala boshlashdi. Oxirida juftining jasadini taqdir hukmiga topshirib, Nar kaklik ham ketdi. Hayotning azaliy va abadiy qonunlari og'ishmay o'z ishini bajarmoqda edi. Uning bugungi ayovsiz hukmlaridan biri shu bo'ldi.

## NE'MAT ARSLON

1941-yilda Qashqadaryo viloyati, Shahrisabz tumaniidagi Takiya qishlog'ida tug'ilgan. Samarqand davlat universitetini tamomlagan. 1971-80-yillardan boshlab "O'zbekiston adabiyoti va san'ati" gazetasi, "Yoshlik", "Sharq yulduzi" jurnallarida hikoya, qissa va romanlari bosila boshladi. O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a'zosi. Mustaqillik yillarida "Ayol suvratiga chizgilar", "Oldinda yana tun bor" hikoyalari chop etildi. "Adam vodiysi", "Mavhumot" romanlari dunyo yuzini ko'rdi.

## AMALGAMA

### 1

"Amalgama!.."

Xayollar olamining uzoq go'shasida qolib ketgan, mazmuni ham, mohiyati ham notanish bu so'z ko'ksimga afsonaviy eliksirday quyilib, vujudimni hissiyotlarga to'ldirib, yoqimli allalab turgan ilohiy ne'mat.

Amalgama deganim ana shu.

Faqat shuning o'zigina emas. Qishloqning oy bus-butun yoritgan sokin va sohir kechalari va ko'chalari, yo'l bo'yida qalashib yotgan tuyatoshlar, xarobgina qishloq kutubxonasi va tuproq tomli bir uy... Hammasi ana shu birgina so'zda mujassam. Men uzoq yillar amalgamaning sehriga lol bo'lib yashadim. Unga butun vujudim bilan intildim va undan qochdim. Har ikkala holatning ham sababi bor.

### 2

O'n uch yoshda edim o'shanda.

Qishki ta'tildan keyin o'n besh kun maktabga bormadim. Yanvar sovuq keldi. Qor, qirov, tomlar bo'g'otida sho'sha.

Deraza shishalarida palmalarning g'aroyib surati. Suvning, shamolning, havoning va inson xayollarining izi. Ertalabki quyosh derazaga chizilgan suratlarni iliq nurlari bilan yuva boshlaganda kutubxonaga yo'l oldim. Issiqqina xonada Nazira opa nimalarnidir yozib o'tirardi. Burchakda o'zicha guvranayotgan va o'z yumushini bajarayotgan tunuka pechdan olov harorati bilan birga yengilgina kerosin hidi taraladi. Javondagi kitoblarga ko'z yugurtirarkanman, kutubxona eshigi ochilganini va kimdir kirib kelganini payqadim. Bu Roziya edi! Ortimga o'g'irilib qaramasdan va hali qizgina kutubxonachi opa balan salomlashishga ulgurmasdan buni payqagan edim. Shu lahzada Nazira opa qizni so'roqqa tutdi:

- O'qidingmi?  
 - Himm, - javob qildi qizaloq.  
 - Tushundingmi?  
 - Bitta so'zni tushunmadim.  
 - Qanday so'z ekan?  
 - Amal...

Men o'g'irilib qarab Roziyaning alvondek qizarib ketganini va hadeb boshidagi munchoqli do'ppisini to'g'rilab kiyishga urinayotganini ko'rdim. Qiz biroz sukut qildi va nihoyat so'zning davomini topdi:

- Amalgama...  
 Roziya bu so'zni juda chiroyli qilib, "l" harfini aytayotganda tilini "to'shab", ya'ni tilini pastki tishlariga bosib talaffuz qildi. Men ham ichimda qayta-qayta aytib ko'rdim. "Amalgama, amalgama..."  
 - Bu bir qizning nomi.  
 Kutubxonachi opa aytgan bu gapning yolg'onligini men uzoq yillar bilmadim. O'sha kuni Roziya topshirgan kitobni men yozdirib oldim. Agar yangilishmasam, bu Lev Kassil degan yozuvchining "Mening aziz o'g'lonlarim" degan kitobi edi. Kutubxonadan chiqib yo'lga qaradim. Roziya ko'rinnadi. Uyga kelib kitobni varaqlashga tushdim. Men kitob varaqlaridan uni, Roziyaning o'zini izlardim.

Yillar o'tib, yoshimizga yosh qo'shilgan sayin jur'atim kamayib borardi. Keyinchalik hayotimni tahlil etib ko'rib, baxtsizligimga ana shu jur'atsizligim, jur'atsizligimga esa, halligi dardim sabab bo'lganligini angladim. Hayotdagi asosiy ermagim - o'tin yorish. Bu ham Roziyaga borib bog'lanardi. Bahaybat to'nkalar - devlar. Ular Roziyani o'g'irlab ketishgan. Men esa devlarni yengib, uni qutqazish maqsadida ertadan kechgacha bolta urardim. Natijada to'qizinchii sinflarga borib paylari baquvvatgina yigitchaga aylandim. Lekin jur'atsizligim zarracha kamaymadi. Har yil yoz oylari bug'doy o'rimiga chiqardik. O'sha paytlarda xo'jalikning asosiy ishchi kuchi o'smirlar edi.

Bir kuni daladan Roziya bilan birga qaytdik. Ayollar ancha oltislab ketishgan. Hademay ular qir ortiga o'tib ko'zdan pana bo'lishdi. Roziya bilan ikkalamiz yolg'iz. Nima uchundir u shoshilmayapti. Quyosh hali botmagan. Bug'doy g'aramlari ustiga bostirib kelayotgan tepaliklar soyasi o'rkach-o'rkach tuyalarga o'xshaydi. Go'yo hamma narsa yiriklashib borayotganday. Pastlikda kambargina sayhonlik bor. Nogoh Roziya yo'lni shu tomondan burdi. Yuragim taka-puka bo'lib ortidan yurdim. Qizgina suv yuvgan g'aldir bo'yiga o'tirdi-da, lozimining jiyaklariga yopishgan sertikan rindak va chakamug' urug'larini avaylab bitta-bitta tera boshladi. Men orqaroqda o'tirar, uning otning yolidek qalin, qattiq va qop-qora sochidan ko'zimni uzmasdim. Keyin u oyoqg'ini men tomon uzatdi va "anavini ol" dedi yuzidagi ranj ifodasi bilan poychasiga ishora qilib. Izmaging popugiga yopishgan rindak urug'larini ajratib olish oson kechmadi. Roziya aftidan menga oson bo'lsin deb lozimini biroz yuqoriroq ko'tardi. Uning to'pig'idan yuqorisi oppoq edi... Mayin va siyrak qora tuklar bilan qoplangan edi... Men bu "manzara"ga qaramaslikka intilib, rindak va chakamug'lar bilan uzoq olishdim. Barmoqlarim shiliniib, qonab ketdi. Rindakning po'lat simdek qattiq, qavssimon urug'lari yopishgan joyidan ajralishni sira istamasdi. La'natilar izmak popugiga o'ranib, shu qadar mahkam yopishib yotardi-ki, ularni qo'l bilan ajratib olishning sira imkoni yo'q edi. Shunda men tishlarimni

ishga soldim. Engashib mustahkam tugunga aylangan ipak popukni bor kuchim bilan tishlab torta boshladim. Lablarim oyoqlarining tuklariga tegib qitig'ini keltirardimi yoki boshqa bir sababdanmi, Roziya qiqirlab kulardi. Nihoyat, men rindak ustidan g'alaba qildim, lablarimning qoniga bo'yalgan popukni kaftimga qo'yib egasiga uzatarkanman, boshimni ko'tarib mag'rur bir qiyofada unga qaradim. Aslida buni g'urur deb ham bo'lmasdi. Keyinroq qonli tugunchani tishlab turgan o'sha holatimni qayta-qayta ko'z o'ngimdan o'tkazarkanman, qonli lablarim, zo'riqishdan qizarib ketgan ko'zlarim va yuzimdagi vajohatli ifoda bilan qizning ko'ziga qandaydir darrandaga o'xshab ko'ringan bo'lsam kerak, degan xulosaga keldim.

... Roziyaning kulgisi tindi. Uning ko'zlaridagi ifodani o'sha lahzada tushunishga o'zim edim. Bir nafas menga jimgina tikilib turdida, sira kutilmaganda "Sen shoir bo'lasan", dedi va go'yo mening borligimni ham unutganday indamay yo'lga tushdi. Biz oldinma-keyin jimgina yurib qishloqqa qaytdik.

#### 4

Oradan bir yil o'tdi. Kuz. Dov-daraxtlar za'faron rangda. Bu fasl menga kasalmand qiz qiyofasida namoyon bo'lib, yuragimda mungli hissiyotlar uyg'otadi. Roziyani qo'rsab xazonrez bog'lar-da kezardim. Qiziq holat: men qizning o'zidan ko'ra u haqda xayol surishni ko'proq sevardim. Bunday pallada ko'pincha yomg'ir yog'ishini orzu qilardim. Hind kinolaridagiday yomg'irlar ostida yursak, "bog'umi bahorumi..." deb birgalikda qo'shiq aytsak, shalabbo bo'lib ivisak, tom bo'g'oti ostida bir-birimizga qapishib tursak...

Shu yil ichida Roziyaning bo'yi cho'zildi. Rangi tiniq tortib, yigitlar undan ko'z uzolmaydigan bo'lib qolishgandi. Ana shundaylarning biri, nazarimda eng xavfli - Ro'zimat. Keng yelkali, bo'yodor, bezori bola. Roziyaning uzoqroq qarindoshi. Tez orada qizni unga unashtirishdi.

Bir kuni tuyatoshlar oldida ularning gaplashib turganini ko'rib qoldim. Yigit qizni kinoga taklif qilardi. Ularning yonidan qadamimni tezlatib o'tdim. Qaramadim, shunday bo'lsa ham

Roziyaning uchrashuvdan norozi ekanligini tushundim... Qiz ketishiga chog'lanar, ammo Ro'zimat uning yo'lini to'sib, ketkizgani qo'ymasdi.

Uyga kelib madad berishlarini istagandek javondagi kitoblarga termilib o'tirdim. Nogoh "Martin Iden"ga ko'zim tushdi. Kitobni olib ro'paramga qo'ydim-da, iyagimni kaftlarim orasiga olib, mushohada yurita boshladim. Shuncha kuchi va yengilmas irodasi bilan Martin ham sevgan qizini boshqa birovga berib qo'ygan edi. Men Ro'zimatni yenga olamanmi? Roziya uni sevib ulgurdimikin? Bugun ular kinoga borisharmikin?..

Ana shunday xayollar bilan qanday qilib ko'chaga chiqib ketganimni payqamay ham qolibman. Uzoqdan o'sha qadrdon va sir-dosh tuyatoshlar ko'ringandagina Roziyaning uyiga yaqinlashib qolganimni angladim. Yomg'ir tomchilab turardi. Tuproq hidi, og'ir bulutlar karvoni, yo'l hali quruq, ammo yo'l bo'yidagi toshlar changi yuvilgan...

Hamishagi joyimga kelib, bo'yimdan baland xarsanglar orasidan uning darvozasiga qaradim. Xayol olib qochdi. Yana o'sha hind kinolaridagi manzaralar: Ro'zimat - Jaga, qo'lida pichoq, men yengil yaralandim, Roziya kelib boshimni bag'riga bosdi va bo'zlab qo'shiq ayta boshladi. Uning ko'zlaridan oqayotgan tom-chillar yuzlarimga tomyapti...

O'zimga kelganimda yomg'ir sharros quyar, bo'tana suv yo'lning nishab tomoniga qarab jilg'a bo'lib oqardi. Bu manzaradan ko'z uzib, yana darvozaga qaraganimda, darvoza zanjiri tebranib turardi. Demak, kimdir darvozani ochgan, ko'chaga qaragan va yana yopib uyiga kirib ketgan. Bu, albatta, Roziya!

Dilimni afsus o'rtadi. Qosh qoraydi. Endi uni kutishdan foyda yo'q. Kech tushganda qizlar hovliga ham onalari hamrohligida chiqadilar. So'nggi bor darvozaga qaradim. Endi zanjir ko'rinmasdi. Yomg'ir kuchaygan, darvoza yondori, devor burchaklari, tom bo'g'otlari surmarang olib, bir-biriga qo'shilib borardi. Uyga tomon yurdim. Kutubxona binosi yonidan o'tarkanman, qo'lida kitob ushlagan cha kutubxonachining savollariga javob berayotgan Roziyaning holati ko'z o'ngimga keldi, tovushi qulog'imga eshitildi: "Amalgama..."

Takrorlab ko'rdim: "Amalgama... Amalgama..."

Ortinga qaradim. Bu yerdan uning uyi ko'rinmasdi. Qishloq ko'chalari kimsasiz. Ro'zimatning holiga ich-ichimdan kuldim. Unga yo'l bo'lsin shunday yomg'irli tunda ko'chaga chiqish! Tomlarning qoraygan ko'lankasiga qaradim. Ro'zimatdan ustunligimni his qildim va ortimga qaytdim. Tuyatoshlar oldidan o'tdim, mana uning darvozasi! Yuragim gurs-gurs urardi. Darvozaning qalpoqchali temir mixlari va yog'ochning bo'yalmagan g'adir-budir sirtini siladim. So'ngra zanjirni, Roziyaning barmoqlari tekkan zanjirni qo'limga oldim-u, uning hissiz va sovuq sirtiga lablarimni bosdim.

## 5

Oradan o'n yil o'tib biz yana uchrashdik. Universitetni bitirib kelib, anchagacha ish tanlab yurdim. Nihoyat, nomi yoqimsiz-roq bo'lgan bir korxonaga ishga joylashish niyatida rahbar bilan uchrashish uchun yuvunib, durustroq kiyimib peshtoqiga "XKMK" degan yorliq osilgan idoraga kirib bordim. Qabulxonada qorachadan kelgan bir ayol nimalarnidir yozib o'tirardi. Boshliqni surishtirdim. Ayol jilmayganicha, bir so'z demay, menga qarab turaverdi. Uning bunday qilg'idan biroz ranjib yana avvalgi gapimni takrorladim:

- Menga boshliq kerak.

- Boshliq menman.

Uning tabassum yoyilib turgan yuzidan ko'z uzib eshikdagi lavhaga qaradim: "Ro'zimat Salimovich Nihonov". Birdan ko'z o'ngimda Roziyaning bilagidan ushlab, uni qiynab turgan bezori gavdalandi. Nahot bu ayol o'sha...

- Qanday ish bilan kelgandingiz? - so'radi ayol endi rasmiy ohangda.

- Muhabbat izhor etish uchun.

Bunchalik surbetlik qila olishimni o'zim ham kutmagandim. Gapni yumshatmoq niyatida darhol so'radim:

- Siz Roziyamisiz?

- Ha, men sizni tanib turibman. Kitoblaringizni ham o'qiganman. Aytganim to'g'ri chiqqanidan xursandman. Siz shoir bo'lasiz derdim.

- "Sen" derdingiz.

- Ha, u paytlar yosh bola edingiz, o'zgarib ketibsiz.

Biz bir-birimiz bilan yuzma-yuz va juda yaqin turardik. Yana bir ahakkoklik qilgim kelib qoldi. Uning bilagidan shartta ushlandim. Xuddi bundan o'n yil avval darvoza zanjirini ushlaganday. Va ovozlarni pasaytirib shivirladim: "Men sizni sevardim, Amalgama!"

Roziya bo'shshagan barmoqlarim orasidan qo'lini tortib oldi. Shoshqin bir tarzda mendan uzoqlashdi. Eshik ochildi. Roziyaning ostona hatlab dahlizga chiqayotganini ko'rdim. "Alvido, birinchi muhabbatim!" - dedim ko'zlarimni chirt yumib. Kutilmaganda lablarimda iliq bir harorat tuydim. Roziya! Xayolimda u lablarini bo'shaga tutdi-yu, shoshqin uzib oldi...

Yuragimda hissiyotlar qayta jonlandi. Ammo bu hissiyot ulkan alangadan so'ng kul ostida qolgan va tobora so'nib borayotgan cho'qqa o'xshardi. Va u avvalgi ranglari bilan ko'zni qamashtirmas, tovuqlamas, olov kabi kuydirmasdi.

- Alvido, Amalgama!

Uyga qaytib, qo'limga Fasmerning lug'atini oldim. Shuncha yillar davomida meni maftun etgan, qalbimni sohir tuyg'ularga to'ldirgan bu so'zning mazmuni hafsalamni pir qildi. Nega shu paytgacha bu so'zning mazmuniga qiziqmaganim, bu narsa mutloqo xayolimga kelmaganidan taajjubdaman.

"Amalgama" simobda erigan ma'danning sovuq qotishmasi ekani...

- Hozir kema quyuq bulutlar qurshovida. Telelokatorlar hech qanday ish bermayapti.

- "Birinchi!" Nihoyatda ehtiyot bo'ling. Bulutlar qatlamining qalnliligi bizga noma'lum. Sizni qurshab olgan tuman sayyora boshigacha cho'zilgan bo'lishi ehtimoldan uzoq emas.

- "Ulug'bek!" Kema bulutlar qatlamini yorib chiqdi. Balandlik 15 ming metr. Sayyora sathini ko'ryapman. Jigarrang va alvon ranglarni ajratsa bo'ladi. Eh, yuragim hovliqib ketyapti! Shubhasiz, sayyora yuzasi quyuq o'simliklar bilan o'ralgan. Telelokatorlar yo'nalishini boya nur tarqatgan nuqtaga to'g'rilayapman.

Jmlilik.

- "Birinchi!" "Birinchi!" O'zi nima gap? Javob bering!

O'sha zahoti razvedkachi-fazogir Davron Sharipovning hayajonli, ayni paytda sevinchga to'la ovozi yangradi:

- "Ulug'bek!" Sun'iy qurilma ko'ryapman! Balandlik ming metr. O'lay agar, sun'iy qurilma ko'ryapman!

- Hovliqmang, "Birinchi", hovliqmang. Uni tasvirlab bering.

- Tagimda, yanglishmasam, shahar yastanib yotibdi. O'zga sayyora shahri! Nihoyatda baland qilib qurilgan to'g'ri shakldagi silindrlarni ko'ryapman. Asosining diametri taxminan yuz metrga teng bu inshootlar turar joy binolari bo'lsa kerak. Har bir silindir tepasida gorizonta yo'nalishda va turli balandlikka ega spiralsimon "butoqlar" bor. Ularning havoda muallaq turgan eng chekka qismi qalin mis likopchani eslatadi. Binolar yigirma-o'ttiztadan alohida-alohida joylashgan. Har bir guruh markazida boshqacha shakldagi - sharsimon, prizmasimon, to'g'ri burchakli qurilmalarni ham ko'ryapman. Chor-atrof o'to'lan, dov-daraxtlar bilan o'ralgan. Albatta, agar qizil va jigarrang bargli bahaybat o'simliklarni daraxt deb atash mumkin bo'lsa. O'simliklar binolarning devor va pastki "butoqlari" gacha chirmashib ketgan.

- "Birinchi!" Nurlanayotgan nuqta o'rnida nima ko'ryapsiz?

- Diametri ikki-uch kilometrga teng qoramtir doirani ko'ryapman. Yanglishmasam, bu mening nigohim qamray olishi mumkin bo'lgan butun maydondagi o'simliklardan xoli yagona joy. Eh, jin ursin!

- Nima gap, "Birinchi!"

## HOJIAKBAR SHAYXOV

(1945-2002)

O'zbek ilmiy-badiiy fantastikasi asoschilaridan biri. Xitoy Xalq Respublikasining Shinjon viloyatidagi Chuguchak shahrida tug'ilgan. Ota-bobolari asli toshkentlik bo'lib, Sharqiy Turkistonga ko'chib ketishgan va 1955-yil vataniga qaytishgan. Toshkent politehnika institutini (hozirgi Toshkent davlat texnika universiteti) tugatgan. O'ttizdan ziyod ilmiy-fantastik hikoyalar, qissalar va romanlar muallifi. Jumladan, "Rene jumbog'i" (1977), "Zalvorli odimlar" (1977), "Yettinchi operatsiya" (1979), "G'aroyib ko'lan-ka" (1980), "Olmos jilosi" (1983), "Hayotbaxsh xayollar" (1985), "Ajodlar xotirasi" (1986), "Yonar daryo" (1986), "Maktab sahnasi" (1988), "Sehrli qiz" (1989), "Telba dunyo" (1990), "Tutash olamlar" (1996), "Jodugarning eri" (1999), "Ikki jahon ovorasi" (2001). "O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan madaniyat xodimi" unvoniga sazovor bo'lgan (1997).

## SIRLI NUR

- "Ulug'bek!" "Ulug'bek!" Men - "Birinchi". Qanday eshit-yapsiz? Qabul.
- "Birinchi!" "Birinchi!" Men - "Ulug'bek!" Sizni yaxshi eshit-yapman. Nima yangiliklar bor? Qabul.
- Nur tarqatayotgan nuqta ko'zdan g'oyib bo'ldi.
- G'oyib bo'ldi?... Nega? Qachon?
- Bir necha daqiqa avval men sayyora atmosferasiga kirdim, nurlanayotgan nuqta tepasida bir zum to'xtab, kemani to'g'ri kurs-ga oldim, keyin pastlay boshladim. Ikki yuz metr ham tushishga ulgurmagandim, nurlanish birdan yo'qoldi.
- Hozir ostingizda nima ko'rinayapti?

- Kechiring, o'rtiq polkovnik. Og'zimdan chiqib ketdi. Balandlik ikki ming metr. Menga eng yaqin binoning ko'p joylari... shikastlanganga o'xshaydi!

- Shikastlanish qanday xarakterda?

- Bu savolga javob berish uchun binoga yaqinroq borishim kerak. Yonlama tortuv dvigatelini ishga solyapman.

- "Birinchi!" Ehtiyot bo'ling! Gravitatsion va maydon himoyasi qurilmalari ishini yana bir tekshirib chiqing.

Oraga yana jimlik cho'kdi. Ko'p o'tmay, tag'in Davron Sharipovning hayajonli, ayni paytda xavotir aralash ovozi eshitildi:

- "Ulug'bek!" Men - "Birinchi!" Spiral shakldagi bino qoshidaman. Bino nihoyatda qalin va tartibsiz o'sgan yovvoyi o'simliklar qurshovida. Uy burchaklari nurab ketgan, devorlarida kata-katta yoriqlar va chang bosgan teshiklar bor. Yaqin atrofdagi boshqa binolar ham xuddi shu ahvolda. Agar bu shahar bo'lsa, u - tashlandiq, o'lik shahar!

- "Birinchi!" Shikastlanish harbiy harakatlar natijasida yuzaga kelgan, deb taxmin qilish mumkinmi?

- Yo'q! - qat'iy javob berdi Sharipov. - Yo'q! Menimcha, binolar vaqt o'tishi bilan shu ahvolga tushgan. Ularni ko'p yillik chang qatlamlari bosgan. Men yaqin kelishim bilan qandaydir mayda jonzo'tlar to'dasi "guv" etib teshik va yoriqlardan chiqib, binoning orqasiga o'tib ketishdi...

- "Birinchi!" Darhol qoramtir doira nimadan iboratligini aniqlang.

- Xo'p bo'ladi!

Jimlik.

- "Ulug'bek!" Men - "Birinchi!" Doira ustidaman. U chor-atrofini mazkur sayyoraga xos qalin o'simliklar o'ragan oddiy maydon ekan. Ammo maydon ichi o'simliklardan xoli.

- Unda bitor maxsus qurilma ko'rinmaydimi?

- Yo'q.

- Maydonning relyefi qanday?

- Tekislik. Xuddi yaqinda tekislab chiqilganga o'xshaydi.

- Atriqlar yo'qmi?

- Yo'q. Lekin o'rtasi biroz ko'pchibroq turibdi. O'rtiq koman-dir, menda bir taklif bor.

- Aying?

- Doira o'rtasiga qo'nishimga ruxsat bersangiz. Shunda chor-atrofini kuzatish uchun ajoyib imkoniyatga ega bo'laman, lozim bo'lsa, darrov uchib ketishga ham ulguraman. Analizatorlar havoni tekshirib chiqishdi. Hammasi joyida. Radiatsiya yo'q.

Uncha uzoq bo'lmagan jimlik. Keyin "Ulug'bek" yulduzkezar kemasi komandirining qat'iy ovozi yangradi:

- Qo'nishga ruxsat!

Ziyo yulduzidan birinchi signal Pluton yaqinidagi kosmik zondlardan biri yordamida qabul qilindi. Aytish kerakki, bir necha asr davomida zondlar fazoni uzluksiz tintishar, biroq biror natijaga erishganicha yo'q edi.

Mana, nihoyat, birinchi signal - o'zga dunyo sivilizatsiyasidan ilk xabar olindi. Birinchi signaldan keyin ikkinchisi, so'ngra ma'lum vaqt oraliq'ida boshqalari qabul qilindi. Hamma signal-lar bir xil, ma'lum tartibda yuborilmoqda, ularning sun'iy usulda yuzaga keltirilayotgani esa aniq edi.

Fazo lingvistlari darrov qabul qilingan signallarni matritsa formasida yozib olib, aniqlashga kirishishdi. Biroq matritsalarida aks ettirilgan belgilarning asl ma'nosini aniqlashga kelganda qarama-qarshi fikrlar tug'ildi.

Buning boisi matritsadagi signallar ikki guruhga bo'lingan edi. Birinchi guruhda yetti sayyoradan iborat qandaydir yulduz sistemasi ifodalaniib, ulardan ikkinchi sayyora alohida ajratib ko'rsatilgan-di. Keyin sayyorada istiqomat qiluvchi mavjudotlar, o'simliklar, ba'zi kimyoviy elementlar va qator matematik funksiyalarning shartli belgilari aks ettirilgandi.

Ikkinchi guruh belgilar ham birinchisining deyarli aniq nusxasidan iborat edi. Belgilar birinchi guruhdagiday ketma-ket va ma'lum vaqt oraliq'ida uzatilgandi. Ularda birgina farq bo'lib, birinchi guruh-dagi tirik mavjudotlarning tasviri tushirib qoldirilgan edi.

O'sha ondayoq, nimadadir yanglilshilgan, degan taxmin paydo bo'ldi. Aftidan, belgilarning joylarini almashtirish, ya'ni matritsani teskarisiga o'qish lozim edi. U holda birinchi o'ringa tirik mavju-

dotlar aks ettirilmagan guruh chiqardi va go'yo Ziyov sivilizatsiyasi ana shu usulda sayyorada hayot paydo bo'lgani haqida axborot bermoqchi edi.

– Yo'q, – deya qat'iy e'tiroz bildirishdi fazo lingvistlari. – Matritsani faqat bir xil usulda tuzish mumkin. Hozir qanday yuzaga keltirilgan bo'lsa, xuddi shunday holda. Uni teskarisiga o'qishga intilish to'la ma'nosizlikka olib keladi, chunki bu holda hamma belgilar o'z yacheykalaridan turli kattalikda siljiydi va butun tasvir sochilib ketadi. Matritsaning formasi haqida ortiqcha gap yuritishning sira hojati yo'q. Olingan natijani izohlash lozim.

Bahslar avj oldi, yangi taxmin va farazlar o'rtaga tashlandi. Asosiysi esa, yerliklar, nihoyat, poyonsiz koinotda yolg'iz emasiliklarini uzil-kesil bilib olgan edilar.

Uch asr avval insoniyat Quyosh sistemasidan tashqariga chiqdi. Eng yaqin yulduzlarning chor-atrofi sinchiklab o'rganildi.

Vaqt o'taverdi. Yulduzlar sari uchish mislsiz tezlikda rivoj topdi. Koinotda o'ta yuqori tezlikda harakatlanishning yangi usullari kashf etildi. Inson olis yoritkichlar sari dadil qadam qo'ydi. Biroq hamma joyda u so'nib borayotgan va sathi muzlagan gelyidan iborat ulkan kosmik sayyoralar yoki endigina tug'ilayotgan olovli, shiddatkor dunyolarga duch keldi.

Odam o'zi kabi odamlar bilan muloqot qilmasdan yolg'iz yashay olmagan kabi, yaxlit sivilizatsiyalar ham o'z taraqqiyotining ma'lum bir bosqichida o'zaro muloqot qilish uchun o'tkir ehtiyoj sezishadi. Keyin olis fazolarni tadqiq qilishga kirishishdi... Ziyodan kelgan sirli signallarning ulkan quvonch va o'ta ko'tarinki kayfiyatda kutib olinganligining boisi ham ana shunda edi. Darrov yulduzlararo uchishga hozirlik ko'rila boshlandi.

Mana, nihoyat, "Ulug'bek" yulduzkezar kemasi Ziyov yulduz orbitasida aylanuvchi ikkinchi sayyora yaqinida.

Odatda yulduzkezar kemalar sayyoralarga qo'nishmas edi. Ular sayyora atrofida ma'lum orbitada aylanib yurishar, fazogirlar guruhi esa, maxsus kichik kemalarda yulduzkezar va o'rganilayotgan sayyora o'rtasida qatnab ish olib borishardi. Sayyoraga birinchi bo'lib razvedkachi fazogir otlandi.

"Ulug'bek"da razvedkachilik vazifasi toshkentlik yosh fazogir Davron Sharipovga topshirilgan edi.

Kema Ziyoga yaqinlashayotganidayoq sayyora yuzasida nurlanayotgan dog' aniqlangan edi. Sayyorani o'rab olgan qalin bulutlar eng sezgir lokatorlarga ham pand bergan va nurlanayotgan nuqta yagona mo'ljal bo'lib xizmat qilayotgan edi.

Biroq... kutilmaganda u qayoqqa yo'qolgan bo'lishi mumkin?

– "Ulug'bek!" Men – "Birinchi!" – hisobot berdi Davron Sharipov sayyoraga qo'ngandan keyin bir necha daqiqa o'tgach. – O'rmonda qandaydir harakat boshlandi.

– Aniqroq gapiring, nima harakat?

– Daraxt tanalari orasida g'alati soyalar g'imirlayapti, shoxlar silkinayapti, eng asosiysi, go'yo ulkan fillar podasi quruq shox-shabhalarni bosib, yanchib kelayotganday qattiq shovqin eshitilyapti.

– Buning sababi kuchli shamol emasmi? Yoki biror mahalliy quyun ko'tarilgandir?

– Balki. Ammo... Yo'q, bu shamol emas, albatta. Daraxtlar orasidan qandaydir qora massa sudralib chiqyapti. U sekin-astamen tomonga kelyapti.

– "Birinchi!" Tezlik bilan uchib ketishga shay turing. Himoyamaydoni kuchlanishini oshiring.

– Tushunarli. Ammo bunga hozircha hojat yo'q. Massa negadir harakatdan to'xtadi. Undan ingichka tarmoqcha ajralib chiqib, kattatezlikda kema sari kelayapti. Mana, endi aniq ko'ryapman... Ha! Bu yoqqa, yanglishmasam, yo'qo'ng'iz, yoki chumolilarning zich to'dasi jadal yurib kelyapti!

– Ularni durustroq tasvirlab bering.

– Oldindagi qo'ng'izning orqa tomoni yarim aylana shaklida, ustida uchta oq doira bor. Oltita oyoq yoki qo'l yordamida harakatlanadi. Bosh o'rni kichikroq yarim sfera joylashgan, undan uzun mo'ylovlari chiqib turibdi.

– Uning kattaligi qanday?

– Uzunligi bir metrga yaqin. Balandligi qirq santimetrcha. Yurganida bu o'lcham biroz kattalashadi. Tanasi jigarrang tusda, oyoq-qo'llari qop-qora. Ularda ikkitadan bo'g'in bor. Oyoq-qo'llar pastroqda yo'g'onlashib, yapaloq shaklda tugallangan.

- Afsuski, biz olti oyoqli qo'ng'izlarni sizga qo'shilib tomosha qilish imkoniga ega emasmiz. Nurlanish berganimizga qaramay, bulutlar qatlami haligacha tarqalmadi, telelokatorlar hamon jim...

- "Ulug'bek!" Menimcha... Qarshimdagilar biror mahluq yoki hasharot emas.

- Nima uchun?

- Sayyora atmosferasining tarkibi bu yerda tez-tez kuchli chaqmoqlar chaqnab turishidan dalolat beryapti. Demak, hayvonlar yashin va u bilan bog'liq xavfni yaxshi bilishadi. Negaki, men qo'nayotganimda tormozlash dvigatelidan foydalanib, xiyla uzoq muddat kemanding tagidan pastga olov purkab turdim. Lekin men ularda olovdan qo'rqqanlik alomatlarini payqamadm. Bu - hayvonlarga xos bo'lmagan xislat. Buning ustiga, bu, albatta, subyektiv mulohaza, menga qo'ng'izlarning harakati haddan tashqari oqilona tuyulyapti. Hayvonlar yurganda o'z energiyasini bunchalik aniq hisob-kitob bilan sarflay olmaydi.

- Mabodo, qarshimda aqlli mavjudotlar turibdi, deb aytish niyatingiz yo'qmi?

- Bunday deb taxmin qilinsa ham, menimcha, noto'g'ri bo'lmaydi. Men har xil sivilizatsiya vakillari bir-biriga ikki suv tomchisiday o'xshashi kerak, degan nazariya tarafdori emasman. Men jigarrang qo'ng'izlarning oliy aqlga ega ekaniga ishonishim mumkin. Biroq u holda tashlandiq shaharni qanday izohlashni bilmayapman.

- Biz hali, "Birinchi", ko'p narsalarni izohlashimiz kerak!

- Yana: kichkina qo'ng'izlarga spiral shakldagi bahaybat binolar nima uchun zarurligi ham muammo...

- Xo'sh, u holda yana qanday taxmin qilishimiz qoldi?

- Menimcha, ular mashinalar. Yoki robotlar. Yo bo'lmasa, kiberlar.

- Olti oyoqli kiberlardan qanday naf bor?

- Bu sayyora uchun xuddi shunday kiberlarga ish bera oladi. Atrofimdagi changalzorlarni bir ko'rganingizda edi! G'ildiraklar yordamida ular orasida yurish mutlaqo mumkin emas. Faqat qadam tashlab yuruvchi kiberlarga amal-taqal qila olishi mumkin. Qadam tashlab yuruvchi mexanizm uchun esa, oyoqlarning optimal soni, o'zingizga ma'lum, oltita bo'lishi kerak.

- Sizningcha, robot-qo'ng'izlar sayyoraning changalzorlar bilan qoplanishini avvaldan bilib yaratilgan ekan-da?

- Men bunday deb qat'iy tasdiqlamoqchi emasman. Biroq bir vaqtlar insoniyat tomonidan yaratilgan kiberlar o'z-o'zlarini sozlab, yana takomillashib, boshqatdan bunyodga kelishgan va birdaniga odamzodni yo'q qilib tashlagan, deya taxmin qilish nega mumkin emas ekan? Ana unda hammasi tushunarli bo'ladi: tashlandiq shahar, changalzorlar, manavi mavjudotlar to'dasi...

- Nima tushunarli bo'ladi? Signallar-chi? Yaqindagina nur taratgan nuqta-chi? Axir u bir necha soat davomida bekorga nurlanmangandir? Bu kimdir o'zi haqida bildirmoqchi bo'lganidan dalolat bermaydimi? O'zingiz qo'ngan qora doira haqida nima deya olasiz?

- Menda hozircha boshqa taxminlar yo'q... Diqqat! Jigarrang massa yana harakatga keldi. U, boya aytganimday, qo'ng'izlarning tug'iz guruhi ekan. Ular oldingi qo'ng'izlar tuzgan ikki yo'lning narig'i chekkasiga "oqib" kelishyapti. Boyadan beri eshitilayotgan noaniq shovqin birdan quloqni qomatga keltiruvchi qasir-qusurga aylandi. Nima bo'lyapti o'zi? Jigarrang massa olg'a intilib, go'yo o'rmonni bir chekkadan yamayotganday orqasidan yo'l ochib ketyapti!

Tag'in jimlik cho'kdi.

- Aql bovar qilmaydi! Bizning magistral shossetlardan qolishmaydigan katta yo'l bir necha daqiqa ichida o'rmon ichiga shu darajada kirib ketdiki, jigarrang massa, hatto, ko'rinmay qoldi. Qarshimda tizilgan qo'ng'izlarning ikki safining oxiri yo'l boshiga borib taqaldi... Yo'l boshida qandaydir qora nuqta ko'rindi. U men tarafga quyunday tezlikda uchib, tobora kattalashib ko'rinyapti. Mana, u oldimdagi maydonga yetib keldi. Kemadan qirq metrcha narida to'xtadi. Bu... bu havo yostiqlichalari yordamida harakatlanuvchi oddiy arava ekan. Unda momiqsimon oppoq bir nima yotibdi. Aftidan, meni mehmonga taklif qilishayotir... "Ulug'bek!..."

Javob bo'lmadi.

- "Ulug'bek!" "Ulug'bek!..." - Davron Sharipov bir necha daqiqa baqirib, mikrofonni silkitib ko'rtdi. Biroq yana hech qanday javob bo'lmadi. Negadir aloqa uzilib qolgan edi.

Oldindagi qo'ng'izlar harakatga kelishdi. Ular arava oldida to'planishib, torgina yo'lakcha hosil qilishdi. "Nima bo'lyap-



ti o'zi?" - o'ylardi Davron ularning harakatini kuzatarkan. - Ulug'bekka hech nima qilmagan, albatta, yulduzkezar kema sayyoradan ancha narida, buning ustiga kuchli quvvatli himoya maydoni bilan ta'minlangan".

U o'rnidan turdi, asbob-uskunalariga to'la tor kabinada u yoddan-bu yoqqa yura boshladi.

Balki aloqa uzilib qolgani qaytanga yaxshi bo'lgandir? Endi u yuzaga keluvchi har qanday vaziyatda o'zi mustaqil qaror qabul qila olish huquqiga ega. Uch asr! Uch asr davomida odamzod fazoda o'z aqli qardoshlarini qidiradi. Kim biladi, balki shlyuz-kam-eragina olis Yer vakilini orzu qilingan tarixiy uchrashuvdan ajratib turgandir?

Sharipov o'zining mahalliy oliy aql egalariga qirg'in keltirgan qo'ng'izlar haqidagi taxminiga o'zi ham ishonmagan, u sayyoradagi sirli hodisalarga izoh qidirayotgandi, xolos. Izoh hozircha yo'q, biroq signallar ham, yorug' tarqatgan nuqta ham, g'alati bulutlar ham, hammasi kimdir tomonidan umumiy bir ip bilan bog'langan-day edi. Davron Sharipov yana bir marta efirga chiqib, aloqa o'rnatishga urinib ko'rdi. Biroq hech qanday javob ololmadi. Shunda u skafandrini kiydi, lazer-avtomatni qo'lida bir aylantirib ko'rib, yana joyiga qo'ydi. Keyin o'zi bilan bir necha kislorod balloni olib, shlyuz-kamera sari yo'naldi.

Oyoqlari ostidagi tuproq nihoyatda yumshoq, u xuddi prujinadek bosilib, oyog'ini olishi bilan yana ko'tarilib qolardi. Sharipov bu buyuk daqiqalarga mos tantanali bir gap aytmoqchi edi, buning o'rniga birdan qo'ng'izlarga qarab:

- Hey! Sizlar tishlamaysizlarmi? - deb so'radi.

Qo'ng'izlar sukut saqlab turishardi. Yigit xuddi es-hushini yo'qotganday, hech qayoqqa qaramay, tor yo'lakdan qo'ng'izlarning mo'yloviga tegar-tegmas bo'lib, arava tomonga yurdi.

Arava unchalik baland emas, bir metrcha ketardi. Bir necha zina uning platformasiga olib chiqdi. Davron momiq deb o'ylagan narsa momiq emas edi, albatta. Uning tizzalarigacha botib kirgan oyoqlari bu oppoq material orasida bemalol harakat qilardi. U oyog'i ostidagi g'alati matoni ushlab ko'rgisi keldi, lekin skafandr qo'lqoplari bunga imkon bermadi.

Birdan uning o'tirgisi keldi. U cho'kkalamoqchi edi, biroq, kutilmaganda qulay va yumshoq kresloga o'tirayotganini his qildi. U orqasi bilan kresloga suyandi, tirsaklar yumshoq tirgagichlarga tiraladi. U momiqsimon material bilan o'ralgan kresloning shaklini aniqlashga intilib, qo'lini pastga yuborgan edi, bo'shliqdan boshqa hech nimani topmadi.

U o'zini nihoyatda yaxshi his qilib, xotirjamlik og'ushiga cho'mdi. Oyoqlarini uzatib yubordi, rohatlanib kerishib, ko'zlarini yumdi. Uyqu aralash yengil shovqin eshitdi: arava joyidan jilgan edi.

Davron ko'zini ochganda, atrof yarim qorong'ulik og'ushida edi. U hamon aravada oppoq momiqsimon materialga botib yotardi. Arava devorlari jigarrang kublardan tashkil topgan tor va uzun yo'lakda turardi. Har bir kubning yon tomonida matritsa shaklida joylashgan ko'plab teshikchalar mavjud edi. Ba'zi teshikchalar o'zidan qizg'ish nur taratib turardi. Davronga shift ko'rinmas, biroq yopiq bino ichidaligini aniq sezib yotardi.

U kutilmaganda o'ziga kelib, keskin o'rnidan turdi-da, polga sakrab tushdi. O'sha zahoti tepadan yoqimli, uncha yorug' bo'limgan nur taraldi. Arava yengil sirpanib, yo'lak bo'ylab nari ketdi. Past, xotirjam, ayni paytda yoqimli ovoz eshitildi:

- Xavotirlanmang. Siz har qanday xavfdan xolisiz.
- Men qayerdaman?
- Siz Kibernetik Markazning bosh pulitidasiz.
- O'zingiz kimsiz?
- Kibernetik Markazning tovushga taqlid qiluvchi modulyatori.

- Siz bizning tilimizni qayerdan bilasiz?

Markaz uchun sizning tilingizni o'zlashtirish qiyin bo'lmadi. Ajablanarlisi shundaki, sizlar haligacha telepatiyani o'zlashtirib olmay, har biri ma'lum ma'noga ega bo'lgan "so'zlar" deb ataluvchi tovushlar yig'indisi yordamida o'zaro muloqot qilar ekansizlar. Tilingizni to'la o'rganish uchun Kibernetik Markazga sizning yulduzkezar kema-dagilar bilan gaplashgan so'zlaringiz yozib olingan plyonkani bir necha daqiqa tahlil qilib chiqish kifoya qildi.

- "Ulug'bek"ka nima bo'ldi? Nima uchun aloqa uzilib qoldi?

- Yulduzkezar kemangiz mutlaqo xavfsizlikda. To'g'ri, ekij  
paj yana bir necha soat siz haqingizda hech qanday xabarga ega  
bo'lmaydi. Buning sabablarini sizga keyinroq bildiramiz.

- Mening kema bilan aloqa qilishimga kim monelik ko'rsatdi?

- Kibernetik Markaz.

- Siz nima uchun hadeb Kibernetik Markaz haqida gapiryapsiz?

Uning bunyodkorlari odamlaringiz qani?

- Sayyorada odamlar yo'q. Hamma odamlar o'lib ketishgan.

- Nima-nima? Qanaqasiga?..

- Buyuk O'lim Asrida hammasi halok bo'lishgan.

- Buyuk... O'lim... Asrida?..

- Ha.

- Hammasi halok bo'lishgan, deysizmi? Hammasi-ya? Eng  
so'nggi odamgacha-ya?..

- Hozir hammasini o'zingiz ko'rasiz.

Tepadan tushayotgan mayin havorang nur so'ndi, lekin o'sha  
zahoti ko'zni qamashiruvchi yorqin qizg'ish nur paydo bo'ldi.  
Davron jigarrang, tekis polda kublarning jilvalanayotgan va uzluk-  
siz o'chib-yonayotgan tuynukchalariga tikilgancha, hamon qotib  
turar ekan, kutilmaganda o'zini qorong'i va yoysimon yo'lak  
bo'ylab uchib ketayotganday his qildi.

Qo'qqisdan... uning nigohi ostida yana shahar ko'rindi. Yana  
o'sha spiralsimon baland binolar, prizmalar, sharlar... Lekin bu  
endi o'lik va tashlandiq emas, balki hayot gurkirab yashnagan, nur  
va gullarga to'la shahar edi.

Ba'zi binolar o'zaro tomchisimon avtomobillar qatnayotgan  
katta yo'llar bilan tutashgan. Osmonda uchayotgan turli-tuman  
shakldagi apparatlar ma'lum yo'nalishlar bo'yicha harakat qilar,  
aftidan, ular shaharning asosiy transporti vazifasini o'tardi. Davron  
uchuvchi apparatlar binolarning gorizonttal "butoqlari"dagi "tikop-  
lar"ga qo'nishayotganini payqadi.

Biroq shahar qanchalik g'aroyib bo'lmasin, Davronning e'tibo-  
ri hozir unda emas edi.

Uning ko'zi pastdagi, eng yaqin silindr asosidagi odamlarga  
tushgan, biroq ular uzoqda bo'lganlari uchun qomatlari va yuz  
tuzilishlarini ko'rolmay fig'on bo'layotgandi. Qani endi ularni

yaqindan ko'rishning iloji bo'lsa. Bu narsa xayoliga kelishi bilan,  
birdan ziyolik qarshisida paydo bo'ldi.

Ziyolikning boshi tuxumsimon shaklda edi. Ko'zlari - yer-  
liklarmikiga nisbatan o'zaro ancha uzoqda joylashgan va do'ppa-  
yib chiqqan qorachig'lar unga ayni bir paytda butun chor-atrofni  
ko'rish imkonini berardi. Ehtimol, shuning uchun bo'lsa kerak, zi-  
yolikning bo'yni ancha sust harakatlanar, buning ustiga, u nisbatan  
kalta va yo'g'on ko'rinar - bosh to'g'ridan to'g'ri tanaga tutashib  
ketganday tuyulardi. Ochiq qo'llari, tanasining terisi xuddi yuziniki  
kabi mayin va silliq edi.

Keng va yapaloq burni peshanasidan boshlanib, yuzining  
o'rtasida birgina yoysimon teshik bilan tugagandi; aftidan, burun  
ziyoliklar organizmi uchun yana qandaydir boshqa, alohida vazi-  
fani ham o'tardi. Lablardan deyarli xoli bo'lgan og'zi esa xiyla kat-  
ta bo'lib, ikki chekkasida eshitish organlari - qopqoqsimon plas-  
tinkali ikki teshik joylashgandi.

Ziyolikning bo'yi sayyoraning gravitatsion kuchiga mos - to'rt  
metrcha edi. Barmoqlardan xoli qo'llari ikki qizg'ish so'rg'ichlar  
bilan tugallangandi. Davronga uning qo'l va oyoqlari suyaksizday  
tuyuldi. Ehtiyotiga qarab ular katta va kichik radiuslar bo'yicha be-  
malol egifa olardi.

Qo'ng'izlar qatori ilk paydo bo'lganida, ularning aqli mavju-  
dotlar toifasiga kirishi haqida bahs qilish mumkin edi. Biroq hozir  
hammasi hech qanday bahssizoz ravshan edi. Zotan ziyolikka bir  
qarashning o'zidayoq unda uzoq asrlar mobaynidagi murakkab  
taraqqiyot jarayonida yuzaga keluvchi fikrlovchi mavjudotga xos  
hamma sifatlar - aql, farosat, bahodirlik, ko'tarinki ruh, olijanoblik,  
yumor va hokazolarni payqab olish sira qiyin emasdi. U qomatdor,  
xushbichim va bahodir edi. Yer o'ichamlari mezon bo'yicha emas,  
albatta. Biroq unga tikilarkan, Davron shakllar mukammalligining  
naqadar xilma-xil bo'lishi mumkinligi haqida o'ylab, koinotning  
ko'rinishi turli-tuman, ammo kelishgan va bahodir odamlari bilan  
faxrlana boshlagandi.

- Axir ular halok bo'lishgan-ku! - birdan hushiga keldi Dav-  
ron. - Bu to'rt metrlik odamlar Galaktikada butkul yo'q bo'lib  
ketishgan! Ular qanday falokatga yo'liqishgan ekan?

Shu zahotiyozq fazogir o'zini katta prizma shaklidagi bino ichida, to'g'rirog'i, bino xonalaridan birida ko'rdi. U qandaydir ilmiy laboratoriyaga kelib qolgani aniq edi. Xonani har xil rangdagi suyuqliklar solingan turli yaltiroq shisha idishlar, asbob-uskunalar to'ldirgandi.

Xo'mraygan qiyofali qomatdor bir ziyoli qandaydir kolbani chayqab ko'rayotgandi. Keyin u yaltiroq plastinka oldi, unga kolbadagi suyuqlikdan bir tomchi tomizdi-da, mikroskopsimon apparat ostiga qo'ydi. Bir necha daqiqa qimir etmay turdi, nihoyat, jur'at qilib okulyarga qaradi. U mikroskopdan boshini ko'targanida, boyagi kayfiyatidan asar ham qolmagandi. U esi og'ib qolganday kula boshladi, keyin qo'shiq boshlab, o'yinga tushib ketdi. Xonaga boshqa ziyolilar kirib kelishdi, ular mo'ysafidga xayratlanib tikilishdi, biroq ko'p o'tmay o'zlarini ham ashula aytib, raqsqa tusha boshlashdi.

- Bu Tibbiyot Akademiyasining bir guruh olimlari, - tovushga taqlid qiluvchi modulyatorning mayin ovozini eshitdi Davron. - Ular hozir xursand bo'lishyapti, chunki insonning umrini ming yilgacha uzaytirish mumkin bo'lgan preparat - aksilgenni sof holda ajratib olishga muvaffaq bo'lishdi. Afsuski, bu kashfiyot odamlarni baxtli qilmadi...

Yangi ko'rinish.

Umumziyo Axborot Tizimi aksilgen kashf qilingani haqida xabar qilmoqda. Ajoyib istiqbol qarshisida insoniyat qalbi bamisoli larzaga keldi. Ming yil hayot! Ming yil ichida qancha ishlarni bajarishga ulgurish mumkin!

Yana bir ko'rinish.

Ziyoning hamma Tibbiyot muassasalari odamlarni aksilgen bilan emlashga kirishgan. Mana, birinchi baxti kulganlar! Ming yil yashovchi birinchi ziyoliliklar!

Aksilgen ishlab chiqarish bo'yicha alohida sanoat tarmog'i bunyod etildi. Aksilgenlar hammaga yetishi kerak! Hozir yashayotganlar va kelgusi avlodlar uchun!

Aksilgen bilan emlash go'yo odamzodning kayfiyati va tabi'iyatiga qamchi urganday bo'ldi. Odamlar o'zlarini xuddi boshqatdan dunyoga kelganday yosh va baquvvat his qilishdi. Kelajak

uchun endi eng dadil rejalarini tuzish mumkin edi. Sayyora bo'ylab sarmast qiluvchi quvonch va zavq to'liqlari taraldi.

Biroq...

Birinchi bo'lib sotsiologlar bong urishdi. Ular ziyolilarning hozirgi o'sish sur'ati shu xilda davom etaversa, ming yildan so'ng sayyoraning ahvoli nima kechishini tezkorlik bilan isbotlab berishdi: aholi soni yildan yilga orta boradi, o'lish deyarli sodir bo'lmaydi... So'ngra elektron hisoblash mashinalari chiqargan matematik xulosalar maydonga qo'yildi.

Agar biroz chora ko'rilmasa, sayyora aholisining soni geometrik progressiya bo'yicha o'sib boraveradi va bir necha asrdan so'ng o'zining eng yuqori qiymatiga erishadi. Ana unda oziq-ovqat, turar joy va insoniyatning ko'plab boshqa ehtiyojlarini qondirish uchun sayyoradagi barcha zaxiralar tugaydi.

Sayyora ortiq birorta odamni ham boqa olmaydi, butun bo'sh maydonlarni to'ldirgan osmono'par binolar boshqa birorta oilani ham sig'dira olmaydi. Ziyo aholisining soni esa, hamon o'sishda davom etaveradi. Shunday qilib, kelajakda oziq-ovqat ham, turar joy ham, bo'sh yer parchasi ham muammoga aylanadi. Odamzod misli ko'rilmagan xor-u zorlikka duchor bo'ladi.

Ziyo xalqi o'z taraqqiyot yo'llarining hamma bosqichlaridan o'tar ekan, urush, ochlik, kasallik, qashshoqliklarni boshdan kechirib, nihoyat, endigina baxtli va ijodiy yashash huquqiga erishganday edi. Biroq...

Sayyorada rivoj topayotgan ijtimoiy jamiyatlarning ba'zi o'ziga xos xususiyatlari tufayli unda biologiya, tibbiyot, genetika kabi fanlar tez sur'atlar bilan rivojlanib, davrdan ancha ilgari lab ketgandi.

Ehtimol, aksilgen biroz ertaroq, o'z vaqtdan ilgariroq kashf etilgandir. Boshqacharoq sharoitda, ya'ni ziyolilar o'z yoritkichlari tizimidan tashqariga chiqib, o'zga dunyolarni o'zlashtira boshlagan mahalda, ehtimol, u hayotga muvaffaqiyatli joriy qilingan bo'lur edi. Balki o'shanda ular oldida tug'ilishni cheklash muammosi yuzaga kelmagan bo'lardi.

Ammo, afsus! O'lis yulduzlarga uchish endi boshlangan edi. Aksilgen kashf etilgan paytda ziyolilar o'zlarining eng yaqin qo'shnilari Tao burjiga borishga ulgurishgan va uning sayyoralarini

da hayot yo'qligiga to'la ishonch hosil qilib qaytishgandi. Biroq ilk tajribaviy parvozlar butkul boshqa narsa. Axir gap o'zga sayyoralarga ommaviy ravishda ko'chib o'tish, hatto, ko'chib o'tishgina emas, balki fazoviy jismlarni o'zlashtirish haqida boryapti-da!

Ziyo insoniyati bir necha asr davomida bunga erisha oladimi, yo'qmi? Zotan sotsiologlar sayyorada faqat bir necha asrlik xotirjam hayotgagina kafolat berishmoqda edi. Undan keyin - cheklashlar, taqiqlashlar, ochlik, muhtojlik...

Ming yillik quvonch, ijod nash'asi, umid va g'alabalar o'rninga ming yil yashash uchun kurash, ming yillik ko'ngilsiz va och-nahor hayot. Hozirgi ziyolikni ham mana shunday kelajak kutmoqda edi.

Ko'hna sayyora hech qachon bunchalik keskin tortishuvlar, janjal va o'zaro o'ta qarama-qarshi fikrlarning shiddatli kurashiga guvoh bo'lmagandi. Aholining bir qismi aksilgen bilan emlab bo'lingani vaziyatni yanada murakkablashtirgandi. Keyingi inyeksiyalarni taqiqlash haqida, hatto, gap ham bo'lishi mumkin emas edi.

Ziyoing Buyuk Kengashi haftalab kengash o'tkazdi. Niho-yat, u yuzaga kelgan muammoning asosiy tamoyillarini ishlab chiqdi.

1. Hech kim inson hayoti muddatini cheklash huquqiga ega emas.

2. Ziyolilarning hozirgi avlodi ming yil yashashi kerak.

3. Hayot muddatining keskin uzaytirilishi odamlarning hayotiy ehtiyojlarini qondirishga ta'sir ko'rsatmasligi kerak.

4. Hamma yuqorida ko'rsatilgan tamoyillar tug'ilishni vaqtincha cheklash hisobiga amalga oshirilishi lozim.

Asosiy tamoyillarga tayanib, Buyuk Kengash shunday qaror qildi:

- Sayyoraning hamma odamlari kechiktirilmadan aksilgen bilan emlanishi lozim.

- Tibbiyot Akademiyasiga uch yil davomida vaqtincha sterilizatsiya qilishning xavfsiz usullarini ishlab chiqish topshirilsin.

- Kelgusida sayyoraning hamma odamlarini aksilgen bilan emlash vaqtincha sterilizatsiya qilish bilan birgalikda amalga oshirilsin.

Bunday qarordan hamma qoniqish olganga o'xshadi. To'g'ri, bu'zan e'tirozlar, xavfning oldini olishga intilgan ovozlilar ham eshitilib qoldi, biroq ularga hech kim quloq solmadi. Uzoq muddat baxtli hayot kechirish umidi xuddi himoya maydoniday, har qanday boshqa fikrni uloqtirib tashlayverdi.

Dastlabki ikki yil davomida sayyora ahli Tibbiyot Akademiyasida yuzaga kelayotgan yangiliklar bilan yashadi. Ikki yil - olimlar oldilariga qo'yilgan vazifani hal etishlari uchun shuncha muddat kifoya qildi.

Akademiyada pokiza qalbli, tajribali olimlar ishlashardi. Biroq ular juda shoshilishardi: axir ular ham ming yil yashashdek imkoniyatning afsonaviy shukuhidan sarmast edilar-da.

Mana, nihoyat, aksilgen bilan sayyoraning eng so'nggi fuqarosi emlangan kun ham yetib keldi. Bu kun sayyora tarixida eng buyuk kunlardan biri bo'lib qolishi kerak, deb hisoblashdi. Shu kundan boshlab, hatto, yangi sana hisobini boshlash kerakligi haqida taklif kiritganlar ham topildi.

Oradan bir necha yil o'tgach, ko'tarinki kayfiyat va quvonchlar boshqa hissiyotlar bilan almashindi. Insonlar ruhiyatiga bir nima bo'lganday edi. Odamlar ehtiyotkor, sustkash va hushyor bo'lib qo'llishdi. Har kim o'z sog'lig'ini diqqat bilan nazorat qiladigan, o'zgina tobi qochsa, vahima ko'taradigan odat chiqardi. O'zaro e'tiborsiz munosabatda bo'lish hollari ko'paydi. Kutilmaganda arzimagan narsa uchun qizishib ketishlar, ahmoqona xafa bo'lishlar odat tusiga kirdi. Ilmiy tajribalarda qatnashishni istovchilar soni keskin kamayib, oliy o'quv yurtlarining auditoriyalari bo'shab qoldi.

Hech kim o'z hayotini xavf ostida qoldirishni istamasdi. Fazogirlar, dengizchilar, uchuvchilar, suv osti g'avvoslari ommaviy tarzda o'z ishlaridan voz kechib, turar joylari yaqinida osoyishta ishlar bilan shug'ullana boshlashdi. Ilgari yaxlit bo'lgan insoniyat tor va cheklangan dunyochasiga biqinib olgan ayrim-ayrim individuumlarga bo'linib ketdi. Ming yil yashashdek ajoyib imkoniyat turganda, hech kim xastalik yoki biror tasodif tufayli halok bo'lishni istamas edi-da. Biroq eng dahshatlisi hali oldinda edi.

Vaqtincha sterilizatsiyaning ta'sir muddati allaqachon tugagan, biroq tug'ilish negadir hamon qaytalamayotgandi. Avval, sterili-

zatsiya, aftidan, hisob-kitob bo'yicha belgilangan muddatdan ko'proq vaqtga ta'sir qilsa kerak, degan fikr aytiladi. Biroq yillar ketidan yillar o'taverdi, o'n yilliklarni yangi o'n yilliklar almashtirdi, asrlar ham o'tdi - odamlar, hatto, chaqaloq yig'isi qanday yan-grashini ham unuta boshlashdi.

Ana shundaygina, sterilizatsiya bo'yicha tajribalar shoshma-shosharlik bilan o'tkazilgani, sterilizatsiyaning aksilgen bilan o'zaro ta'siri esa, umuman tekshirib ko'rilmagani yodga keldi. Aftidan, xuddi shu - aksilgen bilan sterilizatsiyaning o'zaro chatishmasi organizmning yangi xususiyati - naslsizlikni yuzaga keltirgandi. Shunday qilib, inson zoti to'la qirilib ketish xavfi ostida qolgan edi. Aylodlarni qidirishning esa hojati yo'q edi. O'z vaqtida hamma ming yil yashashni xohlagandi. Lekin hech kim aylodlarning ahvoli nima kechishini o'ylamagandi.

Biroq... Ajabo! Bu dahshatli yangilik ziyolilar ongiga tez ta'sir qilib, ularni jipslashtirdi va ularga yangi kuch-quvvat baxsh etdi. Aylodlar hayotini barbod qilgan kechagi xudbinlar bir daqiqa ichidayoq fidoyilarga aylanishdi. Ularda maqsad paydo bo'ldi.

Kelgusi aylodlar hayoti, inson aylodini saqlab qolish muammasi hammaning o'y-fikrini band etgan, odamlar bu yagona maqsad yo'lida qayta yashash va ishlashga bel bog'lashgandi. Yana hayot-baxsh mehnat va tashabbuskorlik avjga mindi. Yaqindagina deyarli bo'shab qolgan auditoriyalar qaytadan limmo-lim to'ldi. Millionlab odamlar o'z bilimlarini oshirish kurslariga kirib o'qiy boshladilar. Tibbiyot-Akademiyasida ishlash uchun istak bildirganlarning go'yo cheki yo'qday edi. Butun sayyora naslsizlik sirini izlashga kirishgandi. Odamlar yo'l qo'yilgan xatoni tuzatishga intilishardi. Ular kecha-yu kunduz tinim bilmay o'qishar, ishlashar, tajribalar o'tkazishardi. O'yin-kulgi, maishat va sayohatlar tamom unutilgandi, uyqugagina bir necha soat ajratilardi, xolos.

Biroq ziyolilar kechikkan edilar. Ular nihoyat naslsizlik sabablarini aniqlashga muvaffaq bo'lishdi. Ammo xatoni to'g'rilashning uddasidan chiqa olmadilar.

Birinchi aksilgen qabul qilgan odamlar vafot eta boshlagan, sayyorada hayot so'nib bormoqda edi.

Shunda Buyuk Kengash hamma yetakchi olimlarni to'pladi. Sayyoraning eng so'nggi ziyoli o'lgandan keyin bo'ladigan kelajagi haqida jiddiy fikrlashib olish kerak edi.

Eng so'nggi odam o'lgandan keyin? Biroq odamsiz qanday kelajak bo'lishi mumkin?

- Bo'ladi! - deyishdi bir og'izdan olimlar.

Ziyo odami koinotda yolg'iz emas. U olamdan ko'z yumadi, biroq millionlab o'zga sayyoralarda hayot davom etaveradi. Modomiki shunday ekan, sayyoraga boshqa, munosib sivilizatsiya vakillari kelib, uni so'ngan va huvullagan samoviy jisimga aylanishdan saqlab qolmoqlari lozim!

Shunday qilib, odamlar batamom o'lganlaridan so'ng o'zga sivilizatsiya vakillarini taklif qilib, ular haqida ma'lum ijobiy xulosaga kelgach, Ziyodagi ulkan halokat siridan ularni voqif etish bo'yicha ishlarini amalga oshirishi lozim bo'lgan Kibernetik Markazni modernizatsiya qilish va avtomat-robotlarni yaratish tartiblarini ishlab chiqish dardkor edi. Bunda hamma narsani e'tiborda tutish, har qanday vaziyatni hisobga olish, shu jumladan, agressiv kayfiyatdagi sivilizatsiya vakillarining uchib kelishini ham nazardan soqit qilmaslik kerak edi.

Shunday qilib, Ziyo olimlari o'z hayotlaridagi eng so'nggi ishni bajarishga kirishdilar.

Davron o'sha tor va salqin yo'lakda. Tepadan uncha yorug' bo'lmagan nur taralib turibdi, jigarrang kublar bamisoli oy nuriga cho'mgan sokin ko'l yuzasiday jilvalanyapti.

- Bundan chiqdi, sizlar fazoga birinchi signal uzatganingizda sayyorada odam qolmagan ekan-da? - so'radi u.

- Yo'q, u paytga kelib atigi bir necha ming odam qolgandi. Uchinchi signal uzatilayotgan mahalda sayyoraning eng so'nggi odami ham vafot etgandi.

- Ular biz haqimizda hech qachon hech nima bilishmaydi, - o'yladi Davron yuragi uvushib. Keyin yana kiberga murojaat qildi: - Bizning yulduzkezar kemamizni siz qanday payqadingiz?

- Ziyodan uch parsek narida bizning soqchi zondlarimiz o'rnatilgan. Biz yulduzkezar kemangizning orbitada qolgani va sayyoraga kichik kema yaqinlashib kelayotganini bilganimizdan

keyin to'rtinchi variant bo'yicha ish tutishga qaror qildik. Bu variant kichik kemanding Kibernetik Markaz yaqinida qo'nishi va uning ekipaji miyasining bioelektr maydonlarini o'rganish uchun gipnotik holatda bosh pultga olib kelish va shu tariqa muloqot qilishni nazarda tutardi.

Qisqasi, hamma ish quyidagicha amalga oshirilgandi. Siz qo'ng'izlar deb atagan robotlar o'rmonning bir qismini yo'q qilib, doirasimon maydon hosil qilishdi va o'sha yerdan o'zaro ma'lum vaziyatlarda joylashib, kemangiz tomonga yorug'lik nuri yuborib turishdi. Siz bu nurni payqadingiz va kemangizni maydon tomonga haydadingiz. 15 ming metr balandlikda har biri u yoki bu chashtodagi to'lqinlarni to'sish qobiliyatiga ega bo'lgan qator himoya qatlamlari joylashgan. Markaz yulduzkezar kema bilan aloqangizni uzib qo'yishni lozim topdi.

Siz qo'nganingizdan keyin esa, kibernetik Markaz tahlil uchun kerakli axborotlarni yig'ib bo'lgach, radioto'lqinlar yo'lini ham to'sib qo'yishga qaror qildi. Unga Ziyo odamlari g'oyatda ehtiyotkorlik bilan ish tutishni vasiyat qilib ketishgandi.

Markaz, razvedkachi-fazogir oqil va jasoratli odam bo'ladi va u yuzaga kelgan vaziyatda muloqotga kirishishga jazm etadi, deya fikrlab yanglishmagandi.

Yer deb ataluvchi sayyoraning vakili! Miyangizning bioelektr maydonini hamda kemandagi materiallarni obdon o'rganib chiqib, yulduzkezar kema bilan aloqa paytidagi gaplaringizni, shuningdek bizning odamlarimiz halokati bilan tanishayotgan mahalingizdagi xatti-harakat va hissiyotlaringizni tahlil qilib, Markaz Yer sivilizatsiyasi olijanob va biga nisbatan do'stona kayfiyatda, degan xulosaga keldi!

Ziyo sayyorasi endi shu daqiqalardan boshlab sizlarga tortiq etiladi!..

Hayrat va hayajon og'ushida sukut saqlayotgan Davronda Ziyoning eng so'nggi odami hayotining oxirgi daqiqalarini ko'rish istagi tug'ildi. O'sha zahoti uning qarshisida yarim qorong'i tor xona ko'rindi. Yumshoq kursida oyoqlarini uzatib bir mo'ysafid o'tiribdi. Uning yuz qiyofasi kosmetik tibbiyot yordamida xiyla yosh ko'rinsa ham, lekin qomati keksa chollarmikiga o'xshab buk-

chayib, mukkullab qolgan edi. Ming yoshlar atrofida bo'lgan bu odamning ko'z qarashlari kishini hayratga solardi. Bu ko'zlarda misilsiz charchoq, ta'rif qilib bo'lmas darajadagi zerikish ifodalari mujassam edi. U ro'paradagi bir nuqtaga tikilgancha, qimir etmay o'tiribdi. Uning borliq vujudi karaxt bir holga kelgani, asablari nihoyatda taranglashgani shundoq ko'rinish turibdi.

U birdan titrab ketdi. Butun bir sayyorada yakka o'zi qolganini chinakamiga his qilgandi.

So'nggi ziyoli gugurt qutisiga o'xshash nimanidir ushlab olgandi. Dastlab Davron unga hech qanday e'tibor bermadi. Ziyolining negadir rangi oqarib ketdi, lablari nimalardir deb shivirladi, so'ngra u qutidagi qandaydir tugmachani bosgan edi, "shiq" etgan ovoz chiqib, o'sha zahoti xonani ko'm-ko'k tuman qopladi. Tuman tarqalganda, kursi o'tnida kuyib ketgan kichkinagina qora narsa qolgan, xonani esa azotning o'tkir hidi tutib ketgandi....

Dahshatga tushgan Davron yana yo'lakda turardi. Kublarning birida qizil strelka millitlay boshladi.

- Yerlik birodar! Ana u yerga boring! - Modulyatorning ovozini eshitdi u.

Davron kubga yaqin keldi. Shunda u mazkur kub boshqalari-dan biroz o'zgacharoq ekanini payqadi. Unda teshikchalar emas, balki chiziqchalar shaklidagi uzun-uzun tirqishlar bor edi. Kub "shs" etgan ovoz chiqargan edi, tirqishlardan birida qandaydir oq plastinaning cheti paydo bo'ldi. Davron uni qo'lga olish kerakligini payqadi.

Plastina jilvalanuvchi materialdan tayyorlangandi. Uning bir tomoni belgilar bilan to'ldirilgandi.

Davron zo'r berib tikilar ekan, garchand belgilar notanish bo'lsa ham, birdan o'zini ularning ma'nosiga tushunayotganday his qildi. Plastinani ko'zlariga yaqinroq olib kelib, o'qiy boshladi:

## "VASIYATNOMA

*Muhtaram qardoshlarimiz!*

*Biz, qachonlardir mag'rur va baxtiyor, hozir esa baxti qaro xalq Sizlarga hayotimizning eng so'nggi soatlarida murojaat qilyapmiz.*

Bizning sivilizatsiya hali yosh edi. Biz ko'p ishlar qildik. Yana ko'p ishlarni amalga oshirishimiz lozim edi. Bizda kuch, quvvat va iroda bor edi.

Biroq bizning kamchiliklarimiz ham yo'q emas edi.

Bizni xudbinlik barbod qildi.

Inson abadiy emas, lekin insoniyat abadiy!

Biz ana shu oddiy haqiqatni unutib qo'ydik. Oqibatda shum taqdir ustimizdan achchiq hazil qildi.

Bizni endi hech narsa qutqara olmaydi. Biz abadiy yo'qlik qa'riga ketyapmiz.

Biroq bizning hayot qaynagan go'zal sayyoramiz qolyap-ti. Buyuk inqirozimiz bo'sag'asida Sizlardan o'tinib so'raymiz: muqaddas sayyoramizni qarovsiz qoldirmang! Unda yashash uchun avlodlaringizni olib keling! Yurtimizda inson zoti, albatta, ulug'lannog'i kerak! Zotan, faqat insongina uni kimsasiz, bo'm-bo'sh va o'lik sayyora-ga aylanishdan saqlab qola olishga qodir!

Kibernetik Markaz Sizlarga bizning sayyoramiz va barcha energiya zaxiralарimiz haqida ma'lumot beradi. Bu zaxiralar sayyorani qayta oyoqqa turg'azish va uzoq asrlar davomida Sizlarni ta'minlash uchun yetib ortadi. Kibernetik Markazning o'zi bo'lsa, shu daqiqalardan boshlab to'la Sizning hukmingiz ostiga o'tadi.

Sayyoramizda baxtiyor hayot kechiring!

Gohi-gohida Sizgacha yashaganlarni ham eslab qo'ying va hech qachon ularning xudbinlarcha qilgan xatosini takrorlamang!

Muhtaram do'stlar, Ona sayyoramizni seving! So'nggi soatlarimiz yetdi! Alvido!

**SAYYORA MO'YSAFIDLARI".**

- Yerlik birodar! - o'sha zahoti Davronning quloqlari ostida modulyatorning mayin ovozi yangradi. - Bulutlar qatlami tarqatildi! To'lqinlar to'siqdan xoli etildi. Robotlar qo'nish maydoni bunyod etishga kirishdilar. Kemaga bu haqda darrov xabar yetkazing. Shoshiling! Hali oldinda ishlaringiz juda ko'p!...

## TOHIR MALIK

(1946-2019)

Toshkent shahrida tug'ilgan. Toshkent davlat universiteti (hozirgi O'zbekiston Milliy universiteti)ni tugatgan. Birinchi yirik asari - "Hikmat afandining o'limi" (1972). Turli yillarda "Zaharli g'ubor" (1974), "Falak" (1975), "Somon yo'li elchilari" (1978), "Chorrahada qolgan odamlar" (1982), "Bir ko'cha, bir kecha" (1983), "Alvido, bolalik" (1989), "So'nggi o'q" (1990), "Ov" (1995) kabi ilmiy-fantastik, sarguzasht qissalari yaratgan. "Shaytanat" romani (1-kitob, 1992; 2-kitob, 1995; 3-kitob, 1997; 4-kitob, 2000; 5-kitob, 2011) muallifi. O'zbek adabiyoti rivojiga qo'shgan hissasi uchun "O'zbekiston xalq yozuvchisi" unvoniga sazovor bo'lgan (2000).

## AJAB DUNYO

Osmon tuni bilan odamlarning qayg'u-hasratlarini tinglay-tinglay, o'ksib-o'ksib, yulduzlarini ko'z yoshi misol duv to'kib ado qildi-yu, rangi bo'zara boshladi. "Quyosh chiqquniga qadar bu sho'rliklarning ahvoli ne kechar ekan, ko'rib olay", degan maqsadda birgina yulduzini qoldirdi.

Yigitalining ko'zi shu yulduzda. Yonida ikki o'g'li, supaning uchetida xotini uxlab yotibdi. Hozir ular ham uyg'onishadi. Xotini bilan kichik o'g'li boshqoq terгани jo' naydi. Kattasi bugun hosilotnikida ishlashga buyurilgan. O'zi esa quruq to'rvani yelkasiga osib, yog'och oyog'ini do'qillatganicha podani haydab ketadi. To'qorong'igacha hovli yelkasidagi to'rvasi kabi bo'm-bo'sh, huvullab turadi.

Gospitalda oyog'ini kesgan doktor unga "yotoch oyoqda ko'p yurma", deb tayinlagan. Qishloqqa qaytgach podachilik qilishini bilganida, bunday demasmidi... Hozir kim yonboshlaydi - hamma oyoqda. Yaxshiki, tun bor - oyoqlarni uzatib yotish mumkin.

Bo'Imasa, odamning beli ko'rpacha iskamay, oyoq oyoq bo'lganiga pushaymon yeb yurarmidi.

Yigitali kesilgan oyog'ining zirqirab og'rishidan uyg'onib ketdimi yo ko'rgan tushidan cho'chib uyqusi buzildimi, aniq bilolmadim. Yarimta oyog'ini ehtiyotlab silab, bu tun ko'rgan tushini esladim: zambarda uch bolaning murdasi emish. Uchovi ochlikdan tarashadek qotgan - quruq suyakning o'zi. Murdalarning tepasida Ramazon - urushda bir ushoqni bo'lilib yegan qadrmoni. Yigitaliga xo'mrayib qarab turganmish. "Bolalarimdan xabar olmading, ana endi ularni o'z yonimga chaqirib oldim", dermish. "Sen... sen... halok bo'libmiding?" deb ajablanarmish Yigitali. Ramazon esa javob bermasmish. Ana shunda... zambardagi bolalar igr'ib o'rinaridan turishib uni quchoqlashib olishganmish. Ramazon esa ulardan uzoqlashayotganmish. Yigitali do'stini to'xtatmoqchi bo'larmish-u, ammo yurolmasmish...

Ko'rgan tushi - shu. Zambardagi uch bolaning o'ligini kecha o'ngida, poda qaytayotganda ko'rgan edi. Ikki ayol, bir erkak zambardagi uch jasadni qabristonga eltishayotgan edi. Erkak - Qambar cho'loqqa qishloq ahli go'rkovlik vazifasini yuklagan. Lahad kovlashni bilmayman, deb rad etmoqchi bo'lganida, bu bahonasi o'tmagan. Hozir qoidasini keltirib go'r qaziydigan, murdani yuvib, kafanlaydigan zamon emas. Yuvishga-ku, yuviladi, biroq, qo'lga ilingan mato bilan kafanlanib, keyin tuproqqa topshirilisa bas. Yuziga tuproq tushmasa, erta-inda sayoq itlar kovlab yeb ketmasa bo'lgani. Cho'loqligi inobatga olinmasa, qishloqda to'rt muchasi sog'erkak - shu Qambar. Rais hisobga kirmaydi. U odam emas, u - rais! O'zining qarichi bilan o'lchansa, gunohkor bandalardan yuqori turadi. Mulki Fir'avnikiday bo'Imasa-da, u ham o'zini shu yerning xudosiday his qiladi. Faqat unga sig'inib, namoz o'qilmaydi. Boshqa jihatlar Fir'avning o'zi - aytgani-aytgan, degani-degan! Odamlar Xudodan qo'rqishmaydi, Xudo rahmdil, shafqatli, gunohimizni kechar yoki ko'rsa ham ko'rmaganga olar, deb marhamatidan umid qilishadi. Ammo raisdan umid yo'q - kechirmaydi, ayamaydi. Uning boshqa erkaklarga qo'shib urushga jo namagani sababini hech kim bilmaydi. Ehtimol Xudo "shu qishloqdagi bandalarimni ezib, qoniga tashna qilib yuborasan", degan vazifa yuk-

lab, olib qolgandir. Agar chindan shunday bo'lsa, birov unga: "Hoy inson bolasi, qishloqda erkak zotini ko'rib turibsan, ellik yetti arslon urushga ketib, ikkitasigina qaytdi. Shularning bittasi oyoqsiz, bittasi esa ko'r. Xotinlar go'rkovlik qilsa uyat-ku! Qambar cho'loqqa yordam ber, yo g'assollik qil", deb ko'rsin-chi?!

Xullas, avval go'rkovlikni, keyin esa g'assollikni ham bo'yniga olishga majbur bo'lgan Qambar cho'loq kecha oqshomda ketmonini yelkaga tashlab, zambarning oldida shox tashlab kelardi. Ikki ayol orqada - ikki yon tutiqchdan tutgan. Qambar cho'loq qadam tashlaganda, zambar dam u yon-dam bu yon qiyshayaverib, ayollarni ancha urintirib qo'rgan.

Yigitalini ko'rgach, zambarni yerga qo'yishdi. Ayollar muk tushib o'tirib, nafas rostlashdi. Qambar cho'loq Yigitaliga yaqinlashdi:

- Boshqoq terayotgan yerimdan chaqirib kelishdi. Uchovning baravariga jon berganini qara, - dedi u Yigitali bilan omonlashgach.

- Kimning bolalari bular?

Yigitali jangohda o'limlarni ko'raverib diydasi qotib ketgan. Lekin zambarda qator yotgan, ustiga eski latta tashlangan bolalarni ko'rib, xo'rliki keldi, tomog'iga nimadir tiqildi. Urush payti o'lsa, mayli edi, bomba tagida qolib o'lsa, mayli edi, qurshovda qolib o'lsa ham mayli edi. Endi-chi? Urush tugaganiga bir yil bo'ldi. Bolalarning ochdan o'lishiga qanday chidash mumkin?

Urush tugaganiga bir yil bo'ldi... Bag'rini qorga berib yotganida, olovga kirganida... G'alabadan keyingi kunlarni shunday tasavvur qilarmidi? Ochlik, qashshoqlik - urush daraxtining achchiq mevalari. Demak, daraxt hali qurigani yo'q. Hali bu mevalardan ko'p-ko'p to'lib ko'rishadi...

- Bittasi Zebiniki, anavi yamoq ro'mollisi, Sotvoldining xotini, sendan bir hafta oldin ketgan edi, esingdami? Qani, nosdan ol-chi... Eridan yodgor edi bola bechora. Asray olmadi-da... - Qambarali cho'loq Yigitali uzatgan nosdan otib, kaftini qoqdi. - Bittasi Halimaniki, Eshqo'zining xotini. Qishloqda birinchi qoraxat shu xotonga kelgan edi. Bu ikkinchi bolasini Egamga topshirishi.

- Uchinchisi kimniki?



- Zarifa shaddodniki. Shodivoyning xotini, - Qambar cho'loq "Yigitali to'rt yil urushda yurib hammani unutvorgan", deb birlarmidi, har holda birov haqida gapirsa batafsil izoh berishni sira qo'ymasdi.

- O'zi qani?

- Isitmada alahsirab yotibdi. Bolasining o'lganini bilmay ham qoldi, - og'zi tupukka to'lib gapirishga qiynalgani uchun Qambar cho'loq nosni tupurdi-da, bo'yniga tashlab olgan chorsining uchi bilan labini artdi. - Azob bo'lganda bolalarga azob bo'ldi. Uvol ketishyapti bechoralar. Dunyoga kelib azobdan boshqa narsani ko'rishmadi. O'liklari tozaroq kafan ko'rsa ham mayli edi, shunisi-ga kuyaman.

- Shunchalik och ekan, aytishsa bo'lmasmidi?

- Kimga? Raisgami? Voy, undan ko'ra Egamdan imyon so'ra, beradi. Aslida sen rais bo'lishing kerak. "Kommunizm"ga yangi rais saylashibdi. Urushdan kelgan Voisovni eshitganmisan? Bittagina medali bor ekan. Sening ikkita ordening bor, sen rais bo'lishing kerak. Bu - bitta mening gapim emas, odamlar shunaqa deyishyapti.

- Yo'q yerdagi g'alvani kavlamlaring. Menga "rais bo'lasan", deb orden berishibdimi? Urushdagi xizmat urushda qolib ketdi. Raislik mening qo'limdan kelmaydi. Undan ko'ra hamma yig'ilib raisdan so'rasin, ikki kungina bo'lsa ham boshqni o'zimizga teraylik.

Qambar cho'loq bu gapni eshitib, bosh chayqadi.

- Bilmadim-ov... Kecha adirga chiqib Guljahonni qamchiladi. Bolasi uch kun ketma-ket "baraka" boshqoq topgan ekan. "Sen brigadirlingni pesh qilib, boshqalar topgan "baraka"ni ham bolangga yozdirgansan", deydi nodon. O'rtaga tushsak ham ko'nmaydi, dayusning bolasi. Insofi yo'qlar ham bor-da, qaysi bir qorakuyaning ko'ziga Guljahon boyib ketganday, to'yib ketganday ko'ringan-u, raisga chaqqan. Bechora degin, shunaqa ig'vo bo'lishini ko'ng-li sezib, bolasi topgan "baraka" uchun bitta ham boshqoq olmagan ekan. Sen shu raisdan insof kutayapsanmi... Ke, qo'y uni... Mollaring bu yog'iga uyini topib ketadi, sen menga qarashib yubor. Qosh qorayyapti, ikki cho'loq bir bo'lib ko'mib kelaylik. O'zimga qol-

50 uchovini bir go'rga ko'mamanmi, deb turuvdim, aqalli o'lganda yayrabroq yotishsin, yur.

Poda qishloq yo'lida ohista ketmoqda edi. Bu yog'i xavotirsiz. Qambar cho'loq aytganiday har biri o'z go'shasini topib boradi. Yigitali tayog'ini Zebiga berib, o'zi zambarning orqasiga o'tdi.

Xotinlar jim borishardi. Yig'lashga ularda mador, ko'zlari-da yosh yo'q edi. Urush payti aza ochaverib, azadorga qo'shilib yig'layverib, ko'z yoshlari qurib ketgan. Ularning jimligi Yigitalini battar azobga soldi. Yig'lashganda edi, faryod urishganda edi, bu bolalarning, bu begunohlarning o'limi Yigitali qalbini bunchalik timamas, bunchalar poralamasmi...

Kecha o'ngida ko'rgani - bugun tushiga kirdi. Ikki yil badalida suyangan birodari Ramazonning bolalari bo'lib ko'rindi.

Yigitali tongga bandi bo'layotgan osmondagi tanho yulduzga tikilganicha ancha yotdi. Oyog'ining zirqirashi sal bosildi. Shu yaqin o'rtada ot pishirdi. So'ng tuyuq ovozi eshitildi. Yigitali tirsagiga tayanib qaddini ko'tardi. "Kim bo'ldi bu?" degan xayolda ko'cha tomon tikildi.

- G'aflat bosib yotibsanlarmi!

"Rais-ku! Uyidan chayon chiqdimi bu dayusning, kallai saharlab izg'ib qolibdi?"

Yigitali shu xayol bilan o'midan turdi. O'g'li tol navdasidan yasab bergan qo'ltiqayoqqa suyanib, otlq tomon hakkalab yurib bordi.

- G'aflating nimasi, rais, hali tong otgani yo'q.

- "Kommunizm"da yangi rais saylanibdi, eshitdingmi?

- Eshitdim... - Yigitali o'zicha "Gap bu yoqda ekan-ku?" deb kulimsirab qo'ydi. Qo'shni qishloqdagi jangchining rais bo'lganini Qambar cho'loqdan avval ham boshqalar aytib yurishgan edi. Gap aylana-aylana bu raisning qulog'iga o'zgacha tarzda yetganga o'xshaydi.

- Rais bo'lg'ing kelib qoldimi?

- Shu xayol uyqungni buzibdi-da, a? Amal iloni to'shaging-da to'lg'onib tinchlik bermadimi? Chakki bezovta bo'lisan. Raisliging o'zingga buyursin. Men tuya emasmanki, hammomni orzu qilsam. Tirikchiligim shu "oshi halol" bilan o'tib tursa, bas.

Bunaqa gaplaring bilan o'zingni ham qiynama, mening ham qatig'imni achitma. Bor, bola, yo'lingdan qolma.

Yigitali atayin "bola" dedi. Rais undan to'rt-besh yosh kichik bo'lsa ham gerdayib, sensirardi. Yigitaliga bu malol kelsa-da, ochiq aytishga mulohaza qilardi. Hozir, o'rni kelganda, yoshini pesh qilib qo'ydi. Bundan o'zi huzur qildi. Tabiiyki, bu balandparvozlik raisiga botmadi. Yigitalida raislikka da'vo yo'qligiga ishonsa ham, uni biroz ezib qo'ygisi keldi.

- Hammomni orzu qilmaydigan tuya tuyakashning ishiga aralashmasligi kerak. Qo'lingdan kelsa, kolxozni ol, tebrat beshigini. Odamlar bir kun davlatga, olti kun o'ziga tersin boshqoni. Hota-mitoy Yigitalining davrida davronlarini sursin! Zolim Safarqulning davrida ezilib adoyi tamom bo'lgan edi. Olaqol raislikni!

- Sen menga piching qilaverma, bola! Rais bo'lsang - o'zingga! Sendan qo'rqadigan joyim yo'q. Olsang - shu tavoqni olarsan. Odamga o'xshab gaplashadigan bo'lsang, egardan tushib gaplash. Otda turib sasiydigan bo'lsang - yo'lingdan qolma. Ammo bola, oldi-ketingta qarab ish tut, xalqning qarg'ishiga uchraysan. Odamlar ikki kungina o'ziga boshqo tersa, xirmoningga o't ketmaydi.

- Ho', akajon, bu boshqolar meniki emas, davlatniki. Topshiraman bu donlarni. Bilingizmi! Yo siz don berishimizga qarshimisiz?

- Bola deyman, sen gapni boshqa tomonga burma. Biz dongina emas, jon ham berganmiz. O'sha jon berganlarning yetimlariga endi non kerak. Hech bo'lmasa ularning yodgorlarini saqlab qolish kerak. Sen ularning nomlarini pesh qilaverma. Sen avval o'z xalqingni boq. Ular sening ertangi kuningga yaraydi. Bu yerlardan ertaga ham don olishing kerakmi? Kim ekadi, kim o'radi, kim yanchadi? Sillasi qurigan ayollarmi? Eti ustixoniga yopishgan bolalarmi?

- Tillaring burro. Sen urushda miltiq otganmisan yo gapga o'qiganmisan? Boshing to'la g'ij-g'ij aqlmi deyman, a?

- Rais, yo'lingdan qolma. Xuddi enangni Uchqo'rg'ning qayiqisidan ko'rsatib qo'ymayin.

- O'h-ho', do'q ham qiladilarmi hali! O'pkangni bos. Urushga borganman, deb kerilaverma. Sen urushga borgan bo'lsang, bu yerdagilar qayish uqalagani yo'q. Biz senlarni boqdik, biz sen-

larni kiyintirdik. Och-yalang'och holing bilan qo'llaringdan nima kelardi? O'lsang, bir o'q bilan o'larding-ketarding. Biz to'rt yil har kuni bir o'lib-bir tirilganmiz. Bizda ham til-zabon bor, gapirsak arziydi.

- Til-zaboning bor, bilaman. Ammo sen o'zingni kunda bir o'lib, bir tirilganlar qatoriga qo'shma, bola. Bizni kimlar boqib, kimlar kiyintirganini bilamiz. Ular oyoqqa xrom etik, egniga galife shim-ukitel kiyib, otda gerdayib o'tirmaydilar. Kunda bir o'lib, bir tiriladiganlar ana, adirda chang yutib, qon tupuryaptilar. Etlari qichishsa, sen qamchining bilan qashib turibsan. Agar sen bir o'lsang eding, bu kunlarni boshqa ko'rmay deb, tirilmay qo'ya qolarding. Qaray, to'rt yil pisib yurishingga fatvo ham topibsan-da, he, hezalak!!! Jahl qoni ko'pirib-toshgan Yigitali shunday deb, ot sag'risiga qo'ltiqayog'i bilan urib qoldi. Tayoq qars etib sindi, ot qattiq kishnab, sapchidi. Yigitali muvozanatni saqlay olmay, yonboshiga gap etib yiqildi. Rais bexos sapchigan ot ustidan uchib tushay dediyu, biroq o'zini o'nglab olib, jilovni qattiq tortdi. Ot yana bir qattiq kishnab, to'xtadi.

- Ko'ramiz, kim kimning enasini ko'rsatarikin! - rais shunday deb otni Yigitali tomon burdi.

Uyg'onib, erkaklarning gapiga xavotir bilan quloq solib, ularga o'g'rincha qarab yotgan Oynisa irg'ib o'rniidan turdi-yu:

- Voy-dod! Erimni o'ldirib qo'yasiz! - deb baqirdi.

Bu ovozdan ikki o'g'il ham sapchib turdi.

- Ota, otajon! - deb baqirdi hali uyqusi o'chmagan kichik o'g'li. Kattasi esa bir-ikki sakrashda onasidan ilgariroq borib, otning yo'lini to'sdi.

- Qo'rqma, ering o'ladigan anoyilardan emas, - dedi rais g'ijinib. - Eringga aytib qo'y, sen oqibatsizlarga qarindoshlik qilmaganimda, hammalaring yotardilaring... yotadigan joylaringda... He, senga gap o'rgatganni...

Rais so'kina-so'kina otni burib, nari ketdi.

"Darvoqe, bu xunasa Oynisaga qarindosh bo'lguvchiydi-ya", deb o'yladi Yigitali, o'g'liga suyanib o'rniidan turar ekan.

- Nima bo'ldi, dadasi, nimaga kelibdi? - deb so'radi Oynisa, xuddi hech nima bilmaganday, hech gap eshitmaganday.

- Boshqoq terгани vaqtliroq chiqqlaring, deb kelibdi mehribon qarindoshing...

Yigitali shunday deb gapni qisqa qilib qo'ya qoldi. Oynisa "Voy sho'rim!" deb lab tishladi-yu, supadagi o'rinni yig'ishtira boshladi. Keyin sigir sog'di. Keyin bir kosadan sut ichishdi. Bitta zog'ora nonni to'rtga bo'lib yeyishdi - nonushtalari shu bo'ldi. Oynisa eng kichik bo'lakni o'ziga olgani uchun eri unga norozi qiyofada xo'mrayib qarab qo'ydi.

- Noningdan yana bormi? - dedi Yigitali qovog'ini ochmay.

- Bor... - dedi Oynisa, aybdor odamning ovozi bilan.

- Zarifanikiga kirib chiq, xasta emish.

- Kecha oqshom kirganman.

- Bugun ham kir.

- Xo'p...

Oynisa erining avzoyi buzuqligiga rais bilan bo'lgan mojaro sabab, deb o'yladi. Bir tomondan u haq - to'polon hovuri hali ko'tarilmagan edi. Lekin boshqa tomondan Yigitali tong yulduziga qarab yotgandagi xayolini, qarorini xotiniga aytasmi-aytmamasmi, deb qiyalayotgandi. Aytish-ku, qiyin emas, ammo Oynisa xotinligiga borib, "Yo'q, qo'ying", deb qolsa, Yigitalining qoni qaynab ketishi mumkin. U-bu deb yuborsa, ko'ngilxiralik... U mana shundan bezovta.

- Qancha uning bor, biror tandır chiqadimi? - deb so'radi Yigitali.

- Chiqib qolar...

- Nazirobodga borib kelmasam bo'lmaydi.

- Maylingiz... Kuzda bormoqchi edingiz-ku?

Oynisaning bunday osongina ko'nishi Yigitali yelkasidagi tog'ni qulatdi.

- Tushimga kiryapti, - dedi u chuqur xo'rsinib.

- Kim, o'rtog'ingizmi?

- Bugun bolalarining o'ligi ustida turganmish.

- Tushda o'lik ko'rsangiz, o'ngda tirik ko'rasiz.

- Sen tushimni yo'yib, menga aql o'rgatmagin-u, aytganimni qilaver.

- Maylingiz, dadasi...

Shu bilan gap tamom. Qaysi xotin eriga aql o'rgatib baraka topibdiki, Oynisa topsin. Yigitali yog'och oyog'ini kiydi. Xotini uzatgan chorakta nonni katta o'g'lining xaltasiga soldi:

- Bugun loyda ishlaysan. Qorinni to'qlamasang, loy chaqardil, - dedi.

Oynisa kenjasi bilan Zarifanikiga, undan adirga ketdi. Kattasi hosilotnikiga. Yigitali esa yog'och oyog'ini sudrab, ko'chaga chiqardi. Xuddi uni kutib turganday xonadonlardan jonivorlar ma'rab chiqqa boshladi. Yigitali Zebi yashaydigan uyga qaramay o'tib, oriq shigirmi haydab chiqqan ayol qarshisida to'xtadi. Uning salomiga alk oldi-yu, ko'zini yerga tikib:

- Bugun gal sizniki, - dedi past ovozda.

Ayol tushunmaganday Zebinikiga qarab qo'ydi. Keyin qo'shni uydagi fojia xayolini yoritib o'tdi-yu, shoshilib bosh irg'adi-da:

- Voy esim qursin, ha-ya, to'g'ri, meniki, meniki... - dedi.

- Agar bo'lmasa... o'zingizni qiynamang.

- Unaqa demang, keling, kelavering...

Yigitali indamay nari ketdi.

Uning odati shu: hech mahal "oshi halol!" deb baqirmaydi. Podachilik qilgani uchun bersalar oladi - bermasalar yo'q. Ba'zan xaltasi quruq qaytadi. Ba'zan bir necha siqim un, besh-o'n qurut yoki turshak bilan. Xonadonlar navbatma-navbat ovqat qilib uni siylashadi. Yigitalining vazifasi - navbat kimniki ekanini eslatib turish. Har eslatganda sadaqa so'raganday eziladi. Avvaliga aytmay, och ham qoldi. Ochlikka chidab ham yurardi, hamqishloqlari ayb-itishdi. "Yovg'on sho'rvamizni nazarga ilmayapsizmi?" deb pi-chinglar ham qilishdi. O'shandan beri har kuni eslatadi. Go'yo sadaqa so'raganday bo'ladi, eziladi. Ammo na iloj!

Poda Yigitalining oyog'i og'riyotganini sezganday, shoshilmasdan yuradi. Hatto shaytontabiat echkilar ham yugurishmaydi. Xuddi egalari tuni bilan boqishgan-u to'q qoringa yurish erish tuyulayotganday. Qishloqdan chiqaverishda Yigitali oriq otda o'tirgan yigitni, orqaga mingashgan qizni ko'rib, to'xtadi. Yigitning ustida yo'l-yo'l beqasam chopon. Juda yangi bo'lmas ham, har holda urinmagan, yamoq ko'rmagan. Qizning egni-da shtapel ko'ylak. Yigitali ularni tanimadi. Lekin ust-boshlari-

ning o'ziyoq ularning kimligi, qayoqqa ketishayotganini anglatdi. Yigit - kuyov, qiz - kelin. Ustlaridagi engil o'zlariniki emas, kolxozniki. Raisning xonasida turuvchi bu to'n bilan ko'ylak kelin-kuyovga faqat bir kungagina berib turiladi. Hozir kelin-kuyov qishloq sovetiga - ro'yaxtdan o'tishga ketishyapti. Demak, bu oqshom - to'y! Besh-o'n odam yig'iladi, dasturxoniga o'zgina mayiz-turshak qo'yiladi. Choynakka olmachoy damlanadi. Yig'ib-tergani bo'lsa, bir tandir non yopar, chalpak pishirar, sho'rva yoki mastava bilan siylar. Bo'lmasa - yo'q. Sen to'yda non sindirmading, deb kim ham ayb qilardi?

Yigitali kelin-kuyovning maqsadi, borar manzilini bilsa ham, ularning salomlariga alik olgach, ko'ngil uchun so'radi:

- Ha, yigitning guli, yo'lingiz bo'lsin?

- "Xohladim" ga ketyapmiz...

Kuyovning ovozida baxtiyorlik ohangi bor edi. U kolxozning chophonini kiyib uylanayotganiga ham xursand. Xursand bo'lmaychi?! Gap chopardami? Gap orqada o'tirib, belidan quchib olgan suluvda! Shtapel ko'ylak hammaga sig'sin, birovga tor kelib qolmasin, deb ataylab kattaroq tikilgani uchun qizning nozik qaddida xuddi ilgichga ilinganday shalvirib turibdi. Bu qiz yarashliki kiyim kiyisa bormi, bu yigit qarab-qarab to'yamas-ov...

Yigit "xohladim" ga ketyapmiz" degach, qiz xuddi gunohi oshkor bo'lib qolganday uyalib, boshini egib oldi.

- Baxtlaring ochilsin, yigitning guli. Saodatli bo'lg'in, qizim! - dedi Yigitali ularni duo qilib.

- Aytganingiz kelsin, tog'a, - dedi yigit mamnunlik bilan.

- Qo'sha qaringlar, o'g'illaringga ham shunaqa sarpolar buyursin.

Yigitali bu niyatni beixtiyor aytib yubordi.

- Iye, tog'a, yaxshi nafas qiling, - dedi yigit. - O'g'illarimiz o'zlarining kuyov chophonlarini kiyib yurishadi, Xudo xohlasa.

Yigitali yaxshi ko'ngilda aytgan gapining zil tomoni ham borligini fahmlab, izza chekdi.

- Inim, men ham shuni aytmochiman-da. Siz bo'lakcha tushunibsiz. Bu kunlarni bog'lab beribdimi. Oldinda dorulzamonlar tushunib...

ribdi. Xudo shoyad sizga beradigan farzandni rizqli-nasibali qilib, yurtimizga ham qut-baraka bersa.

- Shunday kunlarni ko'ramiz, deb umid qilib yuribmiz-da, bu dunyoda, tog'a. Omiyn, aytganingiz kelsin, - yigit shunday deb otlning qorniga oyog'i bilan asta nuqib qo'ydi.

"Men taqdirimdan nolimasam ham bo'ladi, - deb o'yladi Yigitali, kelin-kuyov ortidan bir qarab qo'yib. - Har holda to'yimda engil-boshim o'zimniki edi. Dasturxonimga qo'yarli nonim bor edi. Bu ko'rguliklarimiz o'tar-ketar. Bolalarimning baxti kuladigan kunlar ham kelar..."

Yigitali podani o'tgan hafta o'tlatgan yeriga - soy bo'yiga haydadi. Bu yerlarda ko'kat butunlay qovjiramagan. Nam yerlarda o't ko'karib turibdi. Yigitali chillaning issig'iga chidamay joni uzilgan o'tlarga qarab Yevropaning o'tloqlarini esladi. Shu o'tloqlar bu yerlarda ham bo'lmaydimi, sigirlar yelini sutga to'lmaydimi, qo'chqorlar, buqalar bo'tdoqi bo'lmaydimi...

To'quyosh tafti kesilib, poda qaytadigan vaqt bo'lguncha Yigitali birodari Ramazonning xayolida yurdi. U qishlog'iga qaytgandan beri Nazirobdoga uch-to'rt marta otlandi. Uni to'shu paytgacha ikki narsa ushlab turar edi: birinchisi - birodarining uyiga quruq qo'l bilan kirib borgisi kelmasdi. U shahid ketgan bo'lsa, bolalari zoriqayotgandir, bir tishlamdan bo'lsa ham u-bu olib boray, deb niyat qilardi. Ikkinchisi - Ramazonning tirik yoki o'lik ekanini aniq bilmasligi. Yaralanib, yiqilganini aniq biladi. Uni do'zax o'tidan o'zi olib chiqdi. Endi nafas rostlayman, deganida sal narida bomba portlagani, oyog'i jiz etib kuygani ham esida. Qolgani yodida yo'q. Ramazon qaytmagan bo'lsa, demak, snaryad parchasi unga ham tekkan. Buni eshitisha uyidagilar: "Bomba portlagan ekan, sen nimaga tiriksan-u, u jon berdi", deb ta'na qilishmaydimi? Yuziga aytishmasa ham, ularning mungli qarashlaridan shu ma'noni uqmaydimi?

Yigitali ba'zan Nazirobdoga xat yozmoqchi ham bo'lardi. Lekin "birodarim, tirikmisan?" deb satr bitishga qo'li bormasdi.

Mana endi, nihoyat, vaqti-soati yetganga o'xshaydi. Ramazonning bolalariga atab picha un to'plashdi. Birodari tirik...

qaytgan bo'lsa, u bilan, yo'qsa, jigarlari bilan ko'rishishning turli yo'llarini xayolan pishitdi. O'zini shu uchrashuvga ruhan tayyorladi.

Poda tegirmon yaqinidan o'tayotganida, Yigitalining dimog'iga yoqimli bir is urildi. Och qorinning tatalashiga shu is kifoya bo'ldi. "Un tortishibdi-da, - deb o'yladi Yigitali, - chalpakni kim pishirayotibdi ekan?"

U podani tezlatib o'tib ketmoqchi edi, bolaning ovozi keldi:

- Yigitali tog'a, to'xtang ekan...

Yigitali orqasiga o'girildi. Tegirmon tomondan do'ng oshib bir bola yugurib kelardi. Qo'lida chalpak.

- Oling ekan, sizga, - dedi bola hansirab.

- Kimmiki bu? - deb so'radi Yigitali.

- Qambar tog'aniki.

- O'zing yedingmi?

- Hammamiz yedik, - bola shunday deb qo'lidagi chalpakka qaradi.

Yigitali chalpakni olib, bir uchidan sindirdi-da, unga uzatdi:

- Ol, qorning to'q bo'lsa ham ol, bo'lmasa... - Yigitali kulimsirab, bolaning burnini chimchiladi, - kinnang kiradi, ol.

Bola "noiloj" chalpakni oldi. Shu ozginagina chalpakni deb yaxshi odamga kinna kirishi durustmas-da...

- Qambar tog'angga ayt, biznikiga kirsin. "Yumushlari bor ekan", de.

Bola "xo'p" deganicha iziga qaytdi. To'rt-besh qadam yurmay, chalpakdan o'ziga tekkan ulushni og'ziga soldi.

Yigitalining kichigi oyoqlari yorilib ketganidan kechalari ingrab chiqayotgan edi. Bugun bir yog'lamasam bo'lmaydi, deb qaror qilib Qambar cho'loqni shunga aytirdi. Yelkasidan bosib turilmasa, qatqaloq yerday tilim-tilim bo'lib yorilgan tovonga piyozdog' qo'yganda bola azobga bardosh berolmay to'lg'onib, sapchib-sapchib ketishi hech gapmas. Yigitalining o'zi bu azoblarni xo'pam tortgan. "Bunaqa oyoqning boridan yo'g'i yaxshi", deb dodlagan vaqlari ham bo'lgan. O'shanda farishtalar "omin" deb yuborgan ekanmi, etik kiyib Yevropaning yarmini kezgan oyoqning bittasini tashlab qaytdi. Ba'zan: "Qani edi, bir mo'jiza bilan oyog'im

o'sib chiqsa. Tovonlarning yorilishiga ham, kunda piyozdog' bosishlariga ham rozi edim", deb qo'yadi. Bolasiga piyozdog' bostishganda, o'zining azoblarini eslaydi. Shuning barobarida bu azoblarni o'tkinchi deb biladi. O'g'lining bu oyoqlari bejirim yubzallarni kiyadi, ulug' shaharlarda yuradi, deb ishonadi. Faqat... ulug' shaharlarda yurganida ko'rgan bu azoblarini yodidan chiqarib yubormasa edi, deb xavotirlanadi. Odamzod yaxshi kunlarga yetsa, ko'rgan-kechirganlarini unutadi ba'zan. Unutdimi, demak, klbrga va nafsning turli balolariga bandi bo'ladi-qoladi. Yaxshi kunning qadriga yetish, asrash uchun o'tgan tashvishli-tahlakali kunlarini esdan chiqarimaslik kerak. Yigitali farzandining shunday ulg'ayishini istaydi.

Qambar cho'loq qosh qorayganda chorsisiga ikkita chalpak o'rab keldi.

- Bugun un tortirdim, - dedi u, go'yo poda qaytarda Yigitalini uzoqdan ko'rmaganday, unga chalpak yubortirmaganday.

Olmaoqchi solib damlangan choydan keyin o'choqqa o't qalandi. Yog' qizdirildi, piyoz qizartirib olindi. So'ng kichik o'g'lonning tovonlariga bosildi. O'g'lonning chinqirig'i yetti mahallaga yetdi. Bunday chinqiriqlar qishloq uchun yangilik emas, shu sabab hech kim ahamiyat bermadi.

Tongda tandinga o't yoqildi. Non yopildi. Non isi taraldi. Bunga yon-atrofdagilar befarq qarashmadi. Yigitalining safarga otlangani xotiniga ma'lum ekan, bas, qishloq bexabar qolarkanmi?

Non isi taralishi bilan gap tarqaldi:

- Baraka topgur, shu holida urushda o'lgan o'rtog'ining bolalaridan xabar olib kelarmish.

- Xabar olgisi kelsa, o'zimizda bechora yetimlar kammi, nonni begona qilmasa ham bo'lardi...

Yigitali gaplardan bexabar, u bo'lajak safarini, aniqrog'i, Ramazon yoki uning jigarlari bilan uchrashish onlarini o'ylaydi.

Ketar chog'i Oynisa bir gapi bilan uning ko'nglini og'ritib qo'ydi:

- Nonning yarmini sotsangiz, o'sha tomonlardan bolalarga etik-petik olib kelardingiz...

“He, esi yo‘q xotin, – deb o‘yladi Yigitali, – men nima g‘am-da-yu, sen nima g‘amdasan. Etiksiz kun ko‘rsa ham bo‘ladi. Ammo nonsiz yashash mumkin ekanmi? Yalangoyoq qolishmas bolalar. Xudoga shukr, o‘g‘illarning ikkovi ham shudli yigit bo‘lyap-ti. Bu yoqda men borman. Xor bo‘lishmas. Aytganman-ku, senga, Ramazonning bolalari kichkina. Kattasini olti yoshda derdi. De-mak, hozir sakkiz yo to‘qqizdadir. Shularni o‘ylamay... Ha, mayli, onasan-da, ona (!), o‘z bolangga kuyasan. Men urushda o‘lib ket-samu, Ramazon tirik qaytsa, allaqachon seni yo‘qlab kelardi. Sening bunaqa gaplar bilan ishing yo‘q... Nodonsan-da, nodon...”

Yigitali xayrlashar chog‘i bu gaplarni xotiniga xayolan aytdi.

U tuni bilan poyezdda yo‘l yurdi. Tushadigan bekati kichik, poyezd atigi uch daqiqagina to‘xtar ekan. Shoshilsa ham arang ulgurdi. Poyezddan tushgan uch-to‘rt yo‘lovchi tarqalib, bekat-da Yigitalining yolg‘iz o‘zi qoldi. “Odamlar buncha shoshilmasa, Nazirobodga qanday borishni so‘rab olishga ham ulgurmadim-a!” deb gangib turganda kimdir:

– Ha, inim, xayolingiz parishonroqmi? – dedi.

Yigitali ovoz kelgan tomonga qaradi: supurgi dastasiga suyanib turgan qariya undan javob kutayotgan edi.

– Nazirobodga borishim kerak. Qayoqqa borishni bilmay, ga-rangman.

– Nazirobodgami? – qariya uning yog‘och oyog‘iga qarab bosh chayqadi. – Bu holda yetib borolmassiz-ov. Yo‘l yiroq. Picha ku-ting, bitta-yarimta arava kelib qolar.

Yigitali “ilojim qancha” deganday yelkasidagi xaltani qo‘liga olib, bir qavatli ko‘kimtir bino devoriga taqab o‘ratilgan o‘rindi-q sari yurdi.

– Nazirobodda kimingiz bor, qarindoshingizmi? – deb so‘radi qariya unga ergashib.

– Birodarim...

– Birodarim? Kim ekan u, balki tanirman? Nazirobodliklar ko‘p kelib turishadi bu yerga.

– Ramazon deganni taniysizmi? Qirq uchinchi yilning o‘rtala-rida urushga ketgan.

– Ramazonmi? – Qariya o‘ylandi. – Do‘konchi emasmi?

– Urushdan oldin kolxozda hisobchi ekan. Urushdan qaytdimi yo yo‘qmi, bilmayman.

– To‘rt chaqirim yurilsa, Qizilko‘prik degan shaharcha keladi. O‘sha yerdagi non do‘konda nazirobodlik odam ishlarkan. Otini “Ramazon” degandek bo‘lishuvdi.

– Uni o‘zingiz ko‘rganmisiz, past bo‘yli, burni yapaloqroq.

Qariya uni ko‘rmagan edi, boshqa tayinli gap aytmadi. Qi-zilko‘prikka olib boruvchi yo‘lni ko‘rsatib qo‘ydi.

Shag‘al to‘kilgan o‘ydim-chuqur yo‘ldan yurish it azobini bersa-da, Yigitali chidadi. U bir narsadan xursand: birodari tirik! Bekatdagi sersoqol gapni mujmal qilgani bilan Yigitali Qizil-ko‘prikdagi do‘konchining aynan birodari Ramazon ekaniga isho-nardi. Yuragi shunday xitob qilardi: “Bu o‘sha – do‘sting Ramazon! U tirik! Sen uni jangda o‘lim qo‘lidan yulib olgan eding. Endi u seni kutyapti. Shoshil! Bu yo‘l nima ekan, bundan battarlarida yur-gansan. Qani, yur... Tezroq yur!”

Yigitali endi do‘sti bilan uchrashadigan baxtiyor daqiqalarni ko‘z oldiga keltirdi. Uyida ekanida, bu tomonlarga talpingan kez-larida bu uchrashuvlarni ming xil ko‘rinishda tasavvur etardi. Hozir ularning barchasi o‘rniga yangisi xayoliga keldi:

... Do‘sti uni ko‘ra solib, quchoq ochib yuguradi...

“Jonjo‘rajon, bor ekansan-ku, yo‘lingga ko‘z tikaverib, ko‘zla-rim oqib tushayozdi, – deydi-da, mahkam quchoqlab oladi. – Jon jo‘rajon, oyoqni tashlab kelibsan-da, a? Tirikligingni bilar edim. Yuragim sezar edi. Qanot chiqarib uchgim kelardi. Ammo iloj qila-olmadim, jon jo‘rajon. Noshukur birodaringdan xafa bo‘lma”.

“Qo‘y bu gaplarni, – deydi Yigitali. – Zamoni ko‘rib turibman. O‘lmabsan, shuning o‘zi men uchun katta baxt. Diydor qiyomatga qolsa nima qilardik? Bundan buyon bordi-keldi qilmasak bo‘lmay-di. Xudo jonimizni bekorga qaytarib bergan deysanmi? Bolalarini voyaga yetkazib, baxtini ko‘rishin, keyin ikki birodar davr-u dav-ronini sursin, deb bu dunyoda qoldirgan. Armonda ketganlarning son-u sanog‘i yo‘q-ku...”

Shirin xayollar yo‘l azobini butunlay chetga sura olmas ekan. Yigitali yog‘och oyog‘ini ko‘tarib bosishga bezillab qoldi. Yelkasidagi xalta og‘irlik qila boshladi. “Tavba, non ham og‘irlik

qilar ekan-a, - deb qo'ydi o'zicha Yigitali. - To'rt chaqirim devdi, ko'proq yo'l bosdim, shekilli? Shaharchasining qorasi ko'rinay demaydi-ku?"

Yigitali yakka qayrag'ochga yetgach, xaltani yerga qo'ydi. Bir ko'ngli dam olmay yuravergisi bor. Ammo oyoq zirillab: "To'xtamasang bir azob berayki, onangdan tug'ilganingga pushaymonlar yegin", deb ogohlantiryapti. U oyoqlarini uzatib o'tirib olib, yog'ochoyoqni yechdi. Shuni kutib turganday shabada esib, bir rohatlandi, bir yayradi. Yarimta oyog'i orom olgach, yana ro'dapo yog'ochni kiyib, o'rmdan turdi.

Shaharchaga yetib borgach, non do'konni topishi qiyin bo'lmadi. Oqlangan devoriga ko'mir bilan "Xleb" deb yozib qo'yilgan ko'rimsizgina pastak bino oldida yigirmaga yaqin odam navbat kutib turibdi. Yigitali do'konga yaqinlasha turib Ramazonni ko'rdi! Ammo unga, talpinganiga daf'atan ro'para bo'la olmadi. Ramazon bu onda jahl bilan qattiq-qattiq gapirardi. Yigitali do'konga yon tomondan yaqinlashib, Ramazonga ro'para turgan kampirni ko'rdi. Kampirning yonoqlari bo'rtib chiqqan, ro'moli sirg'alib, yelkasi-ga tushgan. Qog'oz tutgan titroq qo'lini Ramazonga uzatgan holda yalinardi:

- O'zim och qolsam ham mayliga. Bolamning yodgorlari tuz totmay o'tirishibdi. Baraka toping, ilyoim bolalaringizning rohatini ko'ring.

Kampir gapini oxiriga yetkaza olmadi. Ramazon unga qarab yana baqirdi:

- Yo'q dedim-ku! Buvannikini kesib beramanmi sizga! Non kerak odam vaqtiroq turmaydimi!

- Voy, baraka topgur, kecha xuftonda kelib shu yerda tunaganman. Nonning kelishini kutib, kuni bilan navbatda turdim-a...

- Bo'ldi, bo'ldi, qonimga tashna qilib yubordingiz. Ramazon shunday deb deraza qopqog'ini sal ko'tardi-da, tirgovichni oldi. Navbatda turganlar kampirni chetga tortib qolishmaganda, og'ir derazaqopqog'ining boshini majaqlashi mumkin edi. Kampir do'kon ochilib, do'kondor: "Keling, ona, men hazil-lashdim, siz uchun topiladi non", deb qolarmikin, degan ilinjida derazaqopqoqqa ancha vaqt umid bilan tikilib turdi. Navbati yet-

maganlar umidlari sinib, asta tarqala boshlashdi. Kimdir taqdiridan nolidi. Kimdir do'kondorni qarg'adi. Kampir non olish huquqini beruvchi qog'ozlariga mung bilan tikilib turdi-da, ularni kamzuli cho'ntagiga solib, do'kondan asta uzoqlashdi. Besh-o'n qadam yurib, yana ilinj bilan orqasiga o'girilib qaradi. Chorasiz kampirning bir-ikki qadam bosishidan Yigitalining nazarida zamin zirillardi. O'g'lining (balki o'g'illarining) hajrida kuyib, adoyi tamom bo'lgan bu ona non deb chinqirib turgan nabirasining (balki nabiralarning) oldiga nima deb kirib boradi? Boshini qaysi toshga ursin bu ona!

Kampirning og'ir qadamiga yer chidolmadi - titray boshladi. Yigitalining nazarida shunday bo'ldi. U ahyon-ahyonda uyg'onib, shahar-u qishloqlarni vayron qiluvchi zilzilalarning sababini bilmaydi. Bu haqda o'ylab ham ko'rmagan. Biroq hozir yer titraganday tuyulganida, buning sababini topganday bo'ldi: odamlarning bemehrlklariga chidolmagan onda yer asabiylashib, "dod!" deb titrasa kerak!

Yigitali bu yerga nima uchun kelganini unutdi. Kampirning orqasidan biroz qarab turdi-da, tez-tez yurib, unga yetib oldi.

- Onaxon, to'xtang.

Kampir bexos eshitilgan ovozdand cho'chib, o'g'irildi.

- Menga aytyapsizmi? - dedi xavotirlanib.

Yigitali "ha" ishorasini qilib, xaltaning og'zini ochdi-da, ikkita non olib, kampirga uzatdi.

- Onaxon, oling, bolalarga berasiz.

- Mengami? - Kampirning hayrati battar oshdi. - Bunga pulim yetmaydi, almashadigan tuzuk-quruq narsam ham yo'q.

- Bepul olavering.

- Bepul?

Kampirning taraddudi, ishonchsizligi Yigitalining achchig'ini qo'zg'ota boshladi. Endi u maqsadini qanday tushuntirsin? "Hamma narsani pulga chaqavermang. Bu dunyoda hali odamgar-chilik degan fazilat bor, diyonat bor, insof, vijdon... Agar bular qirilib bitgan bo'lsa, qiyomat boshlanibdi-da", desinmi? Be, bularni tushuntirguncha... Ikkita non deb ikki soat laqillashi kerakmi?

- Oling, bo'lmasa aynib qolaman, - dedi Yigitali yolg'on po'pi sa bilan.

Kampir ishonib-ishonmay nonga qo'l uzatdi. "Nahot bu yorug' dunyoda shunday odamlar qolgan bo'lsa? Yo bu odam emas, farishtamikin? Mening nolalarimni eshitib, Xudoyim osmoni falakdan tushirdimikin? E, yo'q, nolalarga tushadigan bo'lsa, kunda osmondan ming-ming farishta yog'ishi kerak. Bu odam - yaxshi odam..."

- Mayli, olaman, ammo... Siz shu yerda tura turing. Bekorga olib ketaversam... sadaqa bo'ladi. Men gado emasman. Shu yerda turib turasizmi?

Yigitali baqirib yubormaslik uchun xo'rsindi: "Odamlarga ham yaxshilik qil, ham nima uchun yaxshilik qilganingni obdon tushuntir".

- Xo'p, anavi do'konda bo'laman, - dedi u g'og'ing'illab. Kampir endi ancha ildam, ancha dadil qadam tashlardi.

Yigitali do'konga qaytib, derazaqopqoqni taqillatdi. Ichkaridan: "Non yo'q, tamom!" degan ovoz keldi. Yigitali yana taqillatdi. "Menga ham tinchlik kerak, insof bormi o'zi sizlarda!" degan hayriq eshitildi.

- Ramazon! - deb chaqirdi Yigitali.  
- Ha, Ramazonman. Lekin non yo'q, tamom!

Yigitalining achchig'i chiqdi. U bunday uchrashuvni sira kutmagan edi. Agar biron-bir folbin unga yo'liqib: "Birodaring bilan shu tarzda uchrashasan", desa shart tilini sug'urishga tayyor bo'lar edi. Nima qilsin, umid degani qo'lga qo'naveradigan qush emas ekan.

Yigitali yana taqillatganidan keyin derazaqopqoq asta ko'tarildi.

- Kimsan?

- Yigitaliman...

- Yana qaysi Yigitali? - Ramazon shunday deb boshini chiqarib uni ko'rdi-yu, - Yigitali?! Yopiray, rostdanmi, o'zingmisan?! - deb tezgina qopqoqni yopdi. Dam o'tmay do'konning yon tomonidagi pastak eshik ochildi. Ramazon chiqib, hali jahldan tushmagan Yigitalini quchoqlab oldi. Yigitali uchrashuv umidida o'y surgan

nida birodarining shunday quchoqlashini tasavvur qilardi. Lekin bu holat ayni damda unga huzur baxsh etmadi.

- Obbo sen-ey, obbo, jo'rajon-ey! Qaysi shamol uchirdi, a? ye, oyoq qani? Tashlab keldingmi? Chatoq bo'libdi. Qani, yur, ichkari kiraylik, keyin uyga o'tamiz.

Ramazon tinmay gapirib, uni do'kon ichiga boshladi.

- Shu yerda rizqimni terib yuribman. Bola-chaqa Nazirobodda. Bu yerda ham bittasi bilan nikohdan o'tib qo'rganman. Nazirobodga rais bo'lasanmi, deyishdi. Hozir rais bo'lib esimni yebmanmi! Kolxoz omboridagi sichqonlar qo'ltiqayoqda yurgan bo'lsa... Jo'rajonlarga qulluq, shu joyni eplab berishdi. Xo'o'sh, qorning ochdir, a? Hozir, hozir, jon jo'rajon, ammo oyoq chatoq bo'libdi-da.

Ramazon gapira-gapira deraza ostiga begona ko'zdan panalilib yashirib qo'yilgan qutini ochdi. Yigitali aniq ko'rdi: quti ichida o'n-o'n besh dona non bor edi. Berilisa, tun-u kun navbatda turib, oqibat noumid qaytganlarning yarmiga yetardi. Ramazon nondan bittasini olib, pichoq bilan kesdi. Qutining yonidagi xaltachani titkilab, bir parcha go'sht, to'rtta tuxum chiqardi. Shisha bilan piyolani qayerdan olganini Yigitali sezmay qoldi. Uning ko'zi hamon qutida edi. Qutidan unga non ilinjida javdiragan ko'zlar tikilib turganday edi.

Uning nigohini Ramazon ham sezdi: "Ko'zi nonda, och ekan, bechora. Balki shuning uchun kelgandir. Hali tirik o'lik bo'lib bo'yninga osilib olmasa edi. "Seni qutqarganman", deb minnat qilsa, ikkita non berib qutulib qo'ya qolarman. Ikkita non - hozir hayot degan gap!"

- Qani, jo'rajon, uchrashuvimizni bi-ir yuvaylik. Xo'o'sh, nima yumush qilyapsan?

- Podachiman.

- Ishing yurishmabdi-ku, jon jo'rajon? Nima qilmoqchisan endi, yo shu atroflardan ish qidirmoqchimisan?

Cho'qqiga intilib, oqibat botqoqqa botgan odam holiga tushgan Yigitali bo'g'i qovozda buyurdi:

- Qani, quy.

Ramazon yarim piyola quydi.



- Sotmayman buni. Bu kishiga olib keldim. Non berib edilar.  
- Non? Shu odammi? - Ramazon Yigitaliga ajablanib qaradi. -  
Sen non berdingmi?

Yigitalining vujudi titray boshlagan edi. U Ramazonni bolaxonador qilib so'kishi ham, ta'na-dashnomlarga ko'mib tashlashi ham, hatto urib qolishi ham mumkin edi. "Hammasi bekor. Bu men o'ylagan odam emas ekan. Na gapning, na kaltakning foydasi bor bunga. Men Ramazonni olovdan olib chiqmagan ekanman. Ramazon jangda o'lgan ekan. Bu mening do'stim emas, Ramazon qiyofasiga kirgan shayton..." Shu fikr uni barcha gap-u harakatlardan to'xtatib qoldi.

Yigitali Ramazonning qo'lidan etikni olib, kampirga uzatdi:

- Yog' och oyoqqa xrom etik yarashmaydi, onaxon, bekor qilibsiz, qani, yuring-chi...

Yigitali shunday deb, yo'l boshladi. Besh-o'n qadam yurgach, orqadan Ramazonning ovozi keldi:

- Tezroq qayt, kutaman!

Yigitali qayrilib qaramadi. Ramazon uning izidan birpas tikilib turdi-da, "Esi bormi, buning, kelib-kelib kampirga ilakishadimi?" deb g'ijimib, do'koniga kirib ketdi.

Etikni bag'riga bosib olgan kampir Yigitaliga yetib oldi. "Etik o'g'ijimiki bo'lsa kerak. Ajab dunyo... Xotirani ham nonga almash-tirisha..." deb o'yladi Yigitali.

- Onaxon, nonni bekorga oldim, deb xijolat chekmang. Agar mumkin bo'lsa, uyingizda bir kecha tunay. Holdan toyganman. Bu ahvolimda bekatga yetib borolmayman.

- Baraka topgur, bir kecha ming kecha emas, joyimiz bema'lol. Uyga borishgach, kampir mayda to'g'ralib quritilgan qizil sabzidan choy damladi.

- Haligi do'kondor tanishingizmi? - deb so'radi kampir unga choy uzata turib.

Yigitali kutilmagan savoldan gangib, darrov javob qaytarmadi.

- Yo'q, - dedi nihoyat, benihoya bir o'kinch bilan. - Birodarimni izlab kelgan edim bu yerga. Shu odamdir deb o'ylabman. Endi bil-sam... U urushda o'lgan ekan. Uni qutqarib qololmagan ekanman...

Kampir boshqa gap so'ramadi.

- To'ldirib, baquvvat qilib quy.

Yigitali piyolani bir ko'tarishda bo'shatdi. Nonga ham, go'sht, tuxumga ham qo'l uzatmadi.

Ramazon o'ziga ham quydi.

- Omon bo'l, jo'rajon, kelganingdan xursandman. Qaytishingda esimga sol, bolalaringga non-pon berib yuboraman.

Bu gap Yigitalining bo'g'ziga xanjardek sanchildi.

- Bu yoqqa ber!

- Juda tomoq taqillab turgan ekan-da, a?

Yigitali Ramazonning xunuk hiringlashiga qaramay, qo'lidagi piyolani tortib olib, ko'tardi. Ichaturib xotinidan o'pkaladi: "Bormang, deb turib olsang o'larmiding! Sendaqa bo'shang xotin-dan yana bormikin bu olamda?! Cho'loq ering bir yoqqa boraman, desa indamay qolaverasanmi?..."

Uning xayolini derazaqoqqoqning taqillashi buzdi.

- Kim u, non yo'q! - deb baqirdi Ramazon.

Tashqaridan ayolning: "Menga bir kishi kerak edilar", degan siniq ovozi keldi.

- Qanaqa kishi?

- Bir... oyoqlari yo'q...

- Seni so'rayapti shekilli? - deb ajablandi Ramazon Yigitaliga qarab, keyin gapni hazilga burdi: - Kelmasingdan xotinlar yo'qlab qolishibdi-ku, yomonsan, jo'rajon, yomonsan. Polshada ham bitta jonon ishqingda mast bo'lib yurardi, a? O'zing ham qaramading, menga ham ilinmading, shunaqa xasisliging ham bor edi...

Yigitali kampirning qaytib kelganini anglab, uning gaplariga parvo qilmay o'rindan turdi. Xaltasini qo'lga oldi. Ramazon unga ergashib, tashqariga chiqdi. Kampir bir juft xrom etikni xuddi chaqaloq kabi bag'riga bosib turardi.

- Baraka topgur, shuni oling, yaxshiliklarga kiying... - dedi kampir etikni uzatib.

"Jo'rajon pismiqliqina bo'lib chayqovchilik qilib yuribdi shekilli", - deb o'yladi Ramazon. Keyin oldinga o'tib, etikni qo'lga oldi: "Yangigina ekan, bir-ikki kiyilgan xolos..."

- Qanchadan bo'ldi, kampir?

Kampir xuftonga yaqin non do'koniga navbatda turgani chiqib ketdi. Ertasiga kun yoyilganda xursand kayfiyatda ikkita non ko'tarib qaytdi. Sabzi choy damlab Yigitalining chiqishini kutdi. Chiqavermagach, u yotgan xona eshigidan mo'raladi. Mehmonning o'zi yo'q, ammo xaltasi yostiq yonida turardi. Kampir uni "Biror yoqqa chiqqandir", deb kutdi. Mehmon peshinda ham, kechqurun ham ko'rinmadi. Kampir xaltani ochishga botinmadi. Uch kundan keyin kichik nabirasi xaltada non borligini aytgach, hayratdan dong qotdi.

... Yigitalini qishloqqa kiraverishda ikki kishi qarshi oldi. Ularning ikkovi ham orasta kiyingan, qotmadan kelgan, harakatlari chaqqon edi.

- Yigitali Sultonaliyev sizmisiz? - deb so'radi yoshrog'i.

- Menman.

- Ikki kundan beri qayoqlarda yuribsiz?

- Birodarimni izlab keldim. Kimsizlar, nega meni surishtirib qoldingiz?

- Qani, yuring biz bilan. Kimligimizni borgan yeringizda bilasiz.

- Qayoqqa? Idoragami?

- Ha... idoraga.

"Bular rayondan kelishgan shekilli? Yana odamlarning gapi to'g'ri kelib, meni rais qilib qo'yishsa-ya? E, yo'q, baribir ko'nmayman. Bir oyoq bilan kolxozni eplab bo'larkanmi? Ajab dunyo... Sendan so'rab ham o'tirishmaydi-ya..."

O'sha kuniyoq Yigitalining "xalq dushmani" sifatida "fosh qilinib", qamoqqa olingani haqida gap tarqaldi.

Rais odamlarga ikki kun davomida o'zlari uchun boshoq terishlari mumkinligini e'lon qildi.

Oradan uch oy o'tib, Oynisa o'g'il ko'rdi. Odamlar "hukumatning bu qamog'idan hech kim tirik qaytmaydi", deyishgach, bolaning ismini "Yodgor" deb qo'ydi.

Oradan roppa-rosa bir yil o'tgach, Yigitali yog'och oyog'ini do'qillatib uyiga kirib keldi. Ko'ksida orden. "Raising gaplari yolg'on ekan-da, bo'lmasa qamoqdagi odamga ham orden berisharmidi?" deb o'yladi Oynisa.

Kenjatoyining ismi Yodgor ekanini bilib, Yigitali avval ranjidi. Keyin:

- Komandirimga xat yozmaganimda, chindan "Yodgor" bo'lib qolishi hech gap emasdi. Bahonada men komandirimni topdim, oxirgi jang uchun berilgan ordenni oldim. Ular meni o'lib ketgan, deb yurishgan ekan. Ajab dunyo-da, bu o'zi... - dedi.

- Odamlarning gaplariga ishonmay, o'g'lingiz olti oylik bo'lgunicha ham ism qo'ymagan edim. Endi o'zingiz boshqa ot qo'yib bering, - dedi Oynisa.

Yigitali biroz o'ylanib turgach, bosh chayqadi:

- Yo'q, shu kunlarimni eslatib yuradi. "Yodgor" bo'laversin...

... Oradan olti yil o'tib, kutilmaganda Yigitaliga Ramazonidan bir xat keldi. Qachondir "do'st" deb atalgan inson nomini xotira kafaniga o'rab, qalb mozorining tub-tubiga ko'mib qo'ygan edi. O'sha "do'st" o'zining tirik ekanini bildirib xat yozibdi.

"Qadrdonim, jon jo'ramga sog'inchli salom..."

"Qadrdon oshnang borligini olti yilda bir eslabsan, durustsan, bola", deb o'yladi Yigitali.

"... Meni o'lim changalidan qutqargan jo'rajonimni sog'inngandan sog'indim..."

"Sog'insang kelmaysanmi, yo'qlamaysanmi, he nomard, to'rt muchang sog' bo'lsa, men dunyoning narigi burchagida yashamasam..." Xayoliga kelgan bu fikrni quvib, Yigitali o'qishda davom etdi:

"... Seni ko'p eslayman. Qani edi, qanotim bo'lsa-yu, uchib borsam, seni bag'ringa bossam. Ammo ilojim yo'q. Qanotlarim qirqilgan. Arzimagan bir necha ming so'mni deb azob chekib yuribman..."

"Xudo jazoingni beribdi-da, xalqning qarq'ishi osmonga uchib yo'q bo'lib ketmaydi, tuproqqa singmaydi, shunga aqling yetmasmidi?" - deb o'yladi Yigitali.

"... Jon jo'rajon, butun umidim sendan. Katta idoralarga xat yozib, urushdagi xizmatlarimni ayt. Komandirimiz hozir katta ishda ekan, unga xat yoz, meni himoya qilsin. Sen meni o'limdan tortib olgan eding, bu yerdan chiqib ketishimga ham yordam qil. Bolalarim yetim qolmasin..."

Yigitali xatni o'qigach, o'ygatoldi. Kum bo'yi o'tirsa ham, tursa ham xayoli Ramazonda bo'ldi. Avvaliga "Oxiri harom teshib chiqibdi-da", deb o'yladi, ammo "Battar bo'lsin" degan hukmga kel-madi. Tushida olti yil avvalgi manzarani yana ko'rdi:

... Zambarda uch bolaning o'ligi emish. Uchovi ochlikdan tara-shadek qotgan - quruq suyakning o'zi...

... Faqat... Aniq esida: Ramazon avvalgi safar murdalar tepasida bo'zlab turgan edi. Bu gal do'konidagi non to'la quti ustiga o'tirib olib xunuk tirjayarmish...

Har yili bahorda bir suvab qo'yiluvchi supada yotgan Yigitali ko'zlarini ochdi-yu, bo'zara boshlagan osmonda yolg'iz qol-gan yulduzni ko'rdi. Anchagacha qimir etmay yotdi. Ko'rgan tu-shini biron-bir narsaga yo'yamadi. Quyosh ko'tarilib, hamma o'z yumushi bilan ketgach, kenjatoyi bilan qoldi. Jo'jaxo'rozni quvib yurgan Yodgorning harakatlarini kuzatib jilmaydi. So'ng qo'lga qalam-qog'oz olib komandiriga xat yoza boshladi. Xatga so'nggi nuqta qo'ygach, yelkasini bosib turgan og'ir yukdan qutulganday, ko'ngli ravshanlashdi. Yog'och oyog'ini do'qillatib pochtaxona to-mon yurar ekan, "Ajab dunyo..." deb pichirlab qo'ydi.

## ASAD DILMUROD

(1947-2019)

Samarqand viloyati Urgut tumanidagi Qoratepa qishlog'ida tug'ilgan. Toshkent Davlat universiteti (hozirgi O'zbekiston Milliy universiteti)ni tugatgan. Ilk hikoyalari to'plami - "Osmonning bir parchasi" 1978-yilda chop etilgan. Turli yillarda uning "Tosh bur-gut" (1979), "Sirlil zina" (1980), "Sherdor" (1986), "Mulki" va "Girih" (1989), "Tog'lar, sukut saqlamang" (1987), "Oq ajdar sayyorasi" (2000), "Mezon burji" (2007) qissalari, "Afrosiyob sukunati" (1983), "Ko'chki" (1991) kabi kitoblari nashr etil-gan. "Mahmud Torobiy" (1998), "Fano dashtidagi qush" (2001), "Pahlavon Muhammad" (2006), "Rang va mehvar" (2012) sin-gari romanlar muallifi. "O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan mada-niyat xodimi" unvoni bilan taqdirlangan (1998).

## XILVAT

Kuz quyoshi ostida mudrayotgan shahar ko'chalarida yupun ki-yingan, kalta sochlari qirovlagan ozg'in kampir tushiga changali dov qarchig'ay kirganini ayta-ayta so'ylanib yurar edi...

Oradan ko'p o'tmay, avji qish chillasida, yer-u ko'k pag'a-pag'a qor ko'rpasi bilan o'ralganda, dabdurustdan shaharga Amir Temur Ko'ragon tashrif buyurdi. Ichiga olov tushgan Sorbug'o qipchoq hukmdor etagini o'pish uchun oshiqdi.

Sohibqiron bunaqa safar paytida ko'pincha dorug'a hovlisi yoki chorbog'ida qo'nar, oliy martabali mehmonga xos saxovat-u na-zokat ko'rsatishni ma'qul bilardi. Ammo bu navbat negadir mar-hamatini darig' tutdi, ipakday eshilayotgan Sorbug'o qipchoqni badtar kuydirib, bedovi jilovini Xoja Ahmad Yassaviy xonaqohi tomon burdi.

Egarda zo'rg'a ilinib turgan a'yonlar-u boyonlar, shohona ziyofat-u orasta bo'lmalarni chetlab o'tib, ship-shiydam manzilga intilgan sohibi davron ortidan churq etmay ergashdilar.

Shahar chetrog'ida qo'nqaygan xonaqoh g'ira-shira qorong'ilik aro allatovur vahimaga cho'ngandi. Faqat ba'zi tuynuklaridan xira militirab yonayotgan sham shu'lasi ko'rinar, ora-chorada bedor darveshlar va muridlar tilovati quloqqa chalinar edi.

Sohibqiron yo'l-yo'lakay sukut saqladi, qori kuralgan bo'sag'ada otdan tushgach, hamrohlari sari o'girilib, ohista so'z qotdi: "Janoblar, kamina kori-holidin birgina gumashta xabar olib tursa kifoya. Siz hokim ixtiyoridasiz!" So'ng qoruvli, o'ktam qadd-u qomatini tik tutib, salobatli qadamlar bilan qiya ochiq eshik sari yurdi...

Xonaqoh ahli ba'zi kaltafahm mardum o'ylamay-netmay tuproq bilan teng qo'yadigan tabarruk dargohga ko'ngil bog'lagan martabali zotdan xabar topgan hamono, birdan g'avg'o ko'tarib, muborak diydorini ko'rish uchun yopirildi. Ammo har qachongidan qat-tiqroq buyruq olgan baquvvat va abjir gumashta shafqatsiz ravishda hech kimni hujraga yo'latmadi.

Zax va rutubatning achqimtir hididan Sohibqiron dimog'i yorilgudek bo'ldi, ammo zig'ircha parvo qilmay, egnidan siym-u zar bezagan banoras choponi, boshidan nafis pat va yoqut qadalgan qirmizi shohi taqyasini bafurja yechdi, devordagi mixdan uzun tim qora chakmon-u uchli kigiz kuloh olib kiydi. Bu ishidan ancha yengil tortib, dardi holini pinhon tutgan uzun kechani, bir dam mijja qoqmay, botiniy tilovat bilan o'tkazdi.

Bahonada qirchillama qishning zulmat pardasiga o'ralgan sokin oqshomlari hamdami va sirdoshiga aylandi. Bo'ya-palos to'shal-gan torgina hujrada kechadigan bedorlik - botiniy zikr onlari naqadar shukuhli ham maroqli: mehribon Alloh yodi bilan qolganda joni huzur topar, ich-ichida chiroq yonar edi. Goho o'zini onadan qayta tug'ilgan odamga qiyoslardi, go'yo yorug' dunyoni o'sha baxtiyor zot ko'zlari bilan ilk bor ko'rayotgan edi.

Bu erta Soqibqiron, qor tinimsiz uchqunlab, izg'irin va sovuq benihoya qahriga olib turgan esa-da, Sorbug'o qipchoq, Joku barlos, bir necha xos mulozim, nihoyat, patak soqolli shayx - mulla

Nishonni hamroh qilib, xonaqoh bo'ylab aylandi. Ne-ne zamonlarni ko'rgan obida devorlari sho'r va nam ta'sirida nuray boshlagan, me'moriy qiyofasini yo'qotishiga bir bahya qolgan edi.

- Piyrimiz bo'lmish hazrat Ahmad Yassaviy bul joyni Alloh uyi hisoblag'onlar, - tushuntira boshladi mulla Nishon. - Oltmish uchdan keyin yerto'lani xilvat bilib, to umrlari oxiriga qadar chilla naqtaganlar...

Sohibqiron faqirlikni kasb-u kor bilgan Ahmad Yassaviy ijasorati afsonaga aylanib ketganini yaxshi biladi. Elda mashhur "Hikmatlar"i botinida nihon teran ma'nolardan ozmuncha oziq olganmi? Qachondan beri o'zini ulug' pining g'oyibona muridi sanaydi. Ummun, mana shu sajdagoh sari mushtoqlanib intilgani, bo'sag'asi gardini ko'ziga to'uyo qilish tilagi bilan yongani bejiz emas.

Bugun ko'nglida yana bir ezgu niyat kurtakladi: ilim-issiq kunlar kelishi bilan xonaqoh ta'mirini boshlash uchun yetarli miqdorda mablag' ajratadi, shundan keyin, inshaalloh, o'ng'ayroq joyda har kim ko'rsa quvonadigan maqbara qurdirmog'i lozim.

Reja ustiga reja pishitayotgan Sohibqiron e'tiborini bir tabaqasi qiyahaygan omonat darvoza biqimida kuymalanib turgan, ko'zlari kirtaygan ozg'in kampir tortdi...

Changali dov qudratli qarchig'aydan ogoh etgan va ulusni oncha-muncha shoshirib qo'ygan mo'minayi musulima shu tinmasak mushfiq jon edi. Sho'rlik munkullab qolgan bo'lsa-da, is-siq-sovuqni pisand qilmay, shaharda tentirab yurgani, tez-tez bo-zor oralab turgani bois, katta-yu kichikka birdek tanilib qolgandi. Faqat nash-u nasabi, ismi-sharifi, tirikchilik manbai, ro'zg'orini har kim ham bilmasdi. Ba'zi hangomatalab qitmir kimsalar esa, ayol zotidan chiqqan yakka-yu yagona qalandar, deb masxara qilishni yaxshi ko'rishardi.

- Ey onaxon, zap sovqotibsiz, - yumshoq kuldi Sohibqiron, uch-to'rt qadam narida beixtiyor to'xtab, - issiqqina sandal ko'zida qilsangiz bo'lmasmu toat-u ibodatni?

- Yaxshisi... tegirmondin xabar olgaysiz, insofli banda! - cho'kkan ko'zlarini jildiratib ming'irladi kampir. - Manim toat-u ibodatim og'irligi tushmas hech kimga!..

Sohibqiron qiyofasini istehzo qopladi.

Vo'ajab, mushtdekkina bo'lib nimaga sha'ma qilayotir padar qusur bu yosuman?

- Hazratim, og'ir olmang, bu shunaqa hardamxayol, - xushomad ohangida bidirladi mulla Nishon, - yo'q yerdagi gaplarni aljiyveradi. Xudo bas kelsun!..

- Taajjubga molik... Kesakdin o't sachragandek!

Sohibqiron, goh ortiga qarab, goh bosh chayqab, shoshilmay hujra sari yo'naldi. Jimjit hujra to'rida, anchayin yupqa ko'rpachada tizzalagach, ilgari qaydadir kampir bilan uchrashgandek bo'laverdi. Andak og'riyotgan boshini kaftlari orasiga olib uzoq o'ylasa-da, bir to'xtamga ketolmadi, saldan keyin gumashtani chorlab, hamyon tutqazdi va maqsadini aytdi.

Gumashta negadir qimirlamadi: gunoh ish qilib qo'ygan kimsadek ro'parasida kalovlanib turar, yakkam-dukkam ajin tushgan yumaloq betida tashvish va xavotir ifodalangan edi.

- Xoda yutdingmi, bandayi gumroh?

- Bir qoshiq qonimdin keching, a'lo hazrat, - g'udrandi nihoyat gumashta, niholdek egilib. - Tuhfangizni yetkarmak iloji yo'qtur.

- Iye! - ajablandi Sohibqiron. - Nechun?

- Sho'rlikni Sorbug'o qipchoq navkarlari hibis qilmishlar.

- Sababi ayonmu?

Gumashta yo'q ma'nosida ma'yuslanib bosh tebratarkan, Sohibqiron tutaqib ketdi. Axir, ne ko'rgilikki, kimsan Sorbug'o qipchoq kelib-kelib kuchini to'ridan go'ri yaqin bir o'jizayi notavonga ko'rsatsa?! Chamasi, hargiz mol-u dunyoga to'yman ko'zlari qavat-qavat shira boylamish, bas, kapangga o't ketgurni tuzukroq tergab qo'yishi kerak.

Sohibqiron mujda tekkan zahoti shamol kabi shitob yetib kelgan va barvasta qomatini oyoqlari ostiga tashlagan Sorbug'o qipchoqqa nigohini tikan qilib sanchdi.

- Olampanoh, eshitdik-ki, shahrimiz yalmog'izi muborak ta'bingizga ozor bermish, - dedi u do'rillab, past tushishni istamay. - Shu bois tegishli tadbir chekdik, toki yo'lingizni boshqa to'smasun.

- Ko'p afsuski, xom o'yabsiz, birodar, - dedi Sohibqiron tahdid aralash. - Tomdin narini ko'rishdin mahrum sizdek kimsa uchun amal-u martaba hayf!..

- Afv etgaysiz, - endi arang sado berdi hokim. - Yana bir andishayi sabab bor orada, ya'ni o'sha o'jiza betiga xudojo'ylik niqobini tortgan firibgar erur.

- Insof bilan so'ylang, qipchoq begi.

- Valine'matim, bizga ma'lumki, o'g'li Erxonmi go'dak yoshidln qing'ir yo'lga g'ij-gijlamish. Endilikda ul bachchag'ar musulmonlar mol-holiga ko'z ola qilish ila ro'zg'or tebratadur. O'n kuncha muqaddam iflos tumshug'ini xazinamiz qopqasiga tiqibdur.

Birdan Sohibqiron qosh-qovog'i uyildi.

- Qipchoq begi, unaq nobakor o'g'il muqarrar jazo olur, - dedi keyin afsus bilan. - Lekin onaizorni o'z holiga qo'ying.

Sorbug'o qipchoq qayta-qayta qulluq qilib, oshig'ich hujrani tark etgandan keyin Sohibqiron og'ir uf tortdi. Axir, zardasi qaynab, nadomat chekkanicha bor-da: buqalamun siyoqli bu kas olis yo'lda hamrohlikka yaramaydi chog'i!..

Sohibqiron botiniy tilovat bilan mashg'ul bo'larkan, ruhi goho yorishar, goho nedir g'uborga chulg'anar edi. Ibodatdan keyin turk qavmij rahnamosi sanalmish Xoja Ahmad Yassaviy (Alloh oxiratini toabad obod aylasin!) arvohini hamxona bilish ayricha saodat ekanligini yana mushohada qildi.

Sohibqiron ertalab, avvalroq chamalab qo'yganidek, hali qad-dini tuzukroq tutib olmagan shahar bilan tuzukroq tanishish, qisqasli, guzarlari va bozorlarini aylanish tilagida tashqariga chiqarkan, darvoza oldida yana haligi kampirni uchratdi va yana nogoh o'y-fikri alg'ov-dalg'ov bo'lib ketdi.

- Onaxon, muruvvatli tangri taolo faqirmi Turon mulkining toj-utaxtiga loyiq ko'rmish, - dedi saldan keyin chertib-chertib, - biron arzingiz bo'lsa tinglayin.

Jonsarak kampir ilkis o'girilar ekan, qat-qat ajin qoplagan ensizgina beti, xira tortgan nigohida nedir hayrat bilan yo'g'rilgan andisha ifodalandi. Va muborak nomi yetti iqlimga tarqalgan dovruqli zotni boshidan oyog'iga qadar qiziqsinib kuzatdi. Lekin churq etib

og'iz ochmay, qovog'idan qor yog'dirib, cho'pdek ozg'in jussasiga yarashmagan viqor bilan yo'lini davom ettirdi.

Sohibqiron miyig'ida kinoyaomuz kuldi, ammo neki tuygan bo'lsa, barini jimgina ichiga yutmay iloji qancha? Hozir ortiqcha bir narsa deguday bo'lsa, kampir dilini badtar og'ritib qo'yishi va yana o'zi xijolat chekishi mumkin. Haytovur, o'lgudek dimog'dor ekan, nimasiga buncha ishonarkin qurmagur. Zindonda chiyralib yotgan o'g'li bilan ham zig'ircha ishi yo'qdek, tavba!..

Zimiston sovuq chirsillagan navbatdagi kechada Sohibqiron bosiriqib qoldi, tushida kampir qat-qat ajinli beti yumdalangan, yonoqlaridan shashqator yosh dumalayotgan, qirovlagan sochi ko'ksida parishon yoyilgan alfozda ko'rinish berdi.

Tavba, ertalab, tushi ta'birini o'ylagancha, ko'rpachada lol-u hayron xomushlanib o'tirganda, gumashta hay-haylashiga qaramay, qiya ochiq eshikdan o'sha mo'mina pildirab kirdi. Boshiga eskiroq bo'z ro'mol o'ragan, egnida nimdoshgina baxmal kamzul, qo'ltig'iga kichik tuguncha qistirib olgan va oqarinqiragan lablarida siniq bir kulgi...

Sohibqiron taxmin qildiki, qayg'u-alam, ayriliq va xo'rlik oxiri suyak-suyagidan o'tib, arz-dod uchun kelgan, hozir uzundan uzun obi-diyydasini boshlab, nonko'rlik ko'chasida adashgan nuridiydasi gunohidan kechishni so'rab o'tinadi.

- Olampanoh, azal tegirmoni azaldin buzuq, - dedi kampir bir yonda cho'nqayib. - Andog' erkan, shafqat tilashda maza-matra bormi?

- Onaginam, maza-matra albatta bo'lur, qachonki so'z adolatni tiklash ustida borsa! - keskin javob qaytardi Sohibqiron. - Afsus, ko'p holda mardum yaxshi bilan yomonni farqlamas!

- Zamona zayli shu bo'lsa, ne qilsin?

- Ko'zingiz oq-u qorasi Erxon ham o'sha qatorda, - dedi Sohibqiron kesatiq ohangida. - Qilmishini qoni bilan yuvadir, bu musibat shirin joningizga achchiq botmasmi?

- Botar... Lekin ilojim qancha? Peshona sho'rini sho'r yosh yuvolmas!

- Namuncha noumidsiz, onaxon?

- Negaki, manimdek o'jizalar va notavonlarga hamisha chorasizlik chora bo'lg'on. Sizdek iqboli kulib, dunyo so'ragan bahodir zotlarni esa charx hatto qaro tunda ham oftob bilan siylagay!..

- Hay, hay, mazaxlaysiz chog'imda?

- Hazratim, ko'z ochib ko'rganim Rumda, to'ng'ichim Eronda, o'rtancham Iroqda... muborak tug'ingiz ostida jon fido qilg'onini qaysi til bilan aytam?

Nogoh Sohibqiron dili tub-tubida misli yo'q qirg'inbarot jang-ujadal guldirosi, tahdid-u tahluka aralash urho-ur, yaralanib qulayotgan sarbozlar oh-u vohi, jon-jahdi bilan ko'kka sapchiyotgan asov otlar kishnashi aks-sado bergandek tuyuldi.

- Netayki, ota mehriniyam, qahriniyam ko'rmay, ko'ngli yarim, ko'zi o'larday och, qo'li egri bo'lib o'sdi Erxonim!..

- Onaxon, taqdir-da!..

- Attang, o'lat tegib, go'dakligida o'lib ketmagan ekan, hozir nasog'iga qolib o'tirmas edim!..

Gumashta mo'ralab suhbat bo'lindi.

Kampir xayr-xo'shni nasiya qilib jo'nagach, Sohibqiron ko'ksibutunlay huvullab, ibodat bilan mashg'ul bo'lish va sal-pal ovunish uchun taraddud chekdi. Lekin, harchand urinmasin, qaniki o'y-fikrini bir nuqtada jamlay olsa?!

Ertalab Soqibqiron aniqroq tuydi: ta'riflash mahol boshqacha evrilish qo'zg'algan edi ruhida. Shunaqa hol ilgari har qadamda va hatto har soniyada yuz berardi, bu yerga tashrif buyurgandan beri ko'ngli tinch-xotirjam tortib, ancha yengil nafas olayotgan edi. Ajabo, yana nima bo'ldi? Taxminiga ko'ra, ishni kecha kampir buzib ketdi. Tavba, har gal u bilan uchrashganda nimadir ro'y berayotir, nima balo, afsun qiladimi?

Sohibqiron asrdan keyin negadir, hujraga sig'may, bir joyda o'tirolmay qoldi, yuragi po'rtanadek toshib, sezimlari o't tushgandek chatnab ketaverdi. Kimdir go'yo olisdan elas-elas chaqirar, xiyol mahzun xayrixoh tovush inon-ixtiyorini o'g'irlagan edi. Sir-u sinoat bilan o'ralgan xilvat olamidan sado kelarmidi, kim bilsin.

Bir payt hushini o'nglab qarasa, tepada son-sanoqsiz qarq'alar charx urib faryod chekayotir, qor zarralarini chirpirak uchira-uchira izg'irin g'uvullab esayotir, jism-u jonida - ta'rifi yo'q bir isyon!..

Qiyalik shimolida yastangan qabriston o'rtasida, yuqori tarafida uchiga tug' bog'langan yo'g'ongina egriroq xodacha qo'ndirilgan oddiy go'r yonida xomush tizzalagan, kuloh qo'ndirilgan boshi xam... Lablarida umid-u ilinj aralash mahzun shivirlash: buz-rukvor, faqir qoshingizdamen!..

Sohibqiron nihoyat yaxlagan kesakka asta peshonasini tegizib xo'rsinar ekan, dorilfano bilan dorilbaqo o'rtasida guldirab yotadigan tegirmonni ko'rgandek bo'ldi. Oradan taxminan yarim soat o'tsa ham, hamon piri komilni abadiy panohiga olgan tuproq uyumi biqinida parishon cho'kkalab turardi.

Tishlari takirlay boshlagan gumashta, vaqt bemahal bo'lib, qah-raton sovuq kuchayib borayotganini uchinchi marta yurak yutib eslatgach, qayta duoyi fотиha o'qidi-da, shoshilmay yo'l tortdi.

Sohibqiron qaysidir guzar choyxonasi oldida, qor ko'mgan daraxtlar ostida, halqa solib g'ivirlayotgan ayol-u erkakka duch keldi. Nogoh kimdir ko'rib qolib, o'zini oshig'ich panaga urdi, tez orada boshqalar ham shivir-shivir bilan to'rt tarafga suruvday tir-qirab ketishdi. Faqat bir kishi qoqilgan qoziqdek qimirlamadi, aja-bo, u har qachongidan ko'ra yupunroq kiyingan, rang-ro'yi tag'in ham zahillashgan kampir edi.

- Buzayturg'on ko'p-ey... Tuzayturg'on qani? Esizgina!..

Buni qarang: zahar tomadi-ya tilidan!..

Qurmagur kampir xirilloq tovushini atay ko'tarib kesatayotgani va hamiyatiga tegayotgani bejiz emas, axir, kimsan yetti iqlim us-tidan hukm yurgizishga qodir jahongir bo'la turib, haligacha bir mayda jumboq yechimini topmadi-da. Erxon mojarosidan Sorbug'o qipchoq so'z ochishni istamagani tabiiy holdir, xo'sh, nechun o'zi sir-u savdo tagiga yetish uchun sal bo'lsin qiziqmadi? Hordiq istab, osudalik tilab, xilvat sari chekingani bahona, arqonni bu qadar uzun tashlab qo'yishi ko'pam risolaga to'g'ri kelmasa kerak.

Sohibqiron bexosdan yo'lini o'zgartirdi.

Betiga sanchilayotgan izg'irinni pisand qilmay, jadal lo'killab borar ekan, tezroq Sorbug'o qipchoq bilan oraochdi qilish - betidan niqobni olib tashlashni mo'ljalldi edi. Atrofida beli baquvvat, das-ti uzun kaslarni to'plagan, o'shalar panohida o'ziga ortiqcha bino

qo'ygan hokim osonlikcha jon bermasa kerak. Lekin zig'ircha ay-bini sezsa bormi, tomiri suvga yetgan esa-da, jallod ilkiga topshiradi nobakormi!..

Nozik ganch naqshlar bilan ziynatlangan ulkan xonayi xosni chilim tutuni tumandek qoplagan, zarhal kosalarda qirmizi sharob ko'pirayotir, uzun dasturxonada sarxil noz-u ne'matlar muhayyo edi. Qo'shqavat adras-u kimxob ko'rpachalarda bemalol qo'r to'kib o'tirgan, qovoqlari ko'pchigan sarxush kishilar hazil-mutoyibasi va qiyqirig'i bemalol tashqariga eshitiladi. To'rdi beso'naqay oyoq-larini uzatib yonboshlagan Sorbug'o qipchoq xotirjam pinak qilar, har zamonda xirxirab xurrak tortar edi.

- Oh-ho, bazmi jamshid avjida-ku, - gulduragan tovushda kesatdi Sohobqiron ostoni hatlagan zahoti. - Dunyoni suv bossa o'rdakka ne g'am, shundaymi?

Sachrab ketgan davra ahli baravar poyiga yopishdi.

- Qadamlariga hasanot, qiblagohim! - tutilib lutf qildi Sorbug'o qipchoq, muz ostidan chiqqandek dag'-dag' uchib. - Bir qoshiq qonimizdin kechgaysiz, g'ofil qolibmiz.

- Qipchoq begi, eshitdimki, amringizga ko'ra erta-indin Erxon dorga tortilur, - dangaliga ko'chdi Sohobqiron. - Bilay-chi, bandayi mo'min qancha siym-u zaringizni qiya qilmish?

- Hay, hay, nimasini aytayin, javohiro't to'la sandug'cha yo'qol-gan, olampanoh, - dedi Sorbug'o qipchoq, hamon qaltirog'i bosil-may. - Bundan ko'p afsusdamiz.

- Rizobek, sizdan eshitaylik, - hokim kabi gangib, adoyi ta-mom bo'layozgan qozikalonga yuzlandi Sohobqiron. - Rosti qay-da-yu, ko'sti qayda, o'zingiz tuzukroq anglatgaysiz.

- Muhtaram hokim rostini aytdi, - beixtiyor nigohini olib qoch-di qozikalon. - Nafsi hakalak otgan muttaham Erxon xazinamiz barakasini uchirmish!

- Aqlga sig'mas, qandog' epladi ekan? - cho'zilib ketgan no-xush jimlikni buzdi Sohobqiron. - Nima, gumroh soqchilarni g'aflat bosgan erdimi?

- Olampanoh, - jon hovuchlab g'udrandi qozikalon, - taftishni boshqarib turgan bosh vazir borini bizdin puxtarroq bilur.

Sovuqdan yaxshi asraydigan qalininga zarbof to'n kiygan Qodir Bo'tabek holi-ruhi ayniqsa zabun: halidan beri, hamma qatori, bo'lma to'rrog'ida oyog'i kuygan tovuqdek tipirchilab turar, ichidan qirindi o'tayotgani bois, rang-ro'yi ko'karib ketgan edi.

- Bir qoshiq qonimdin keching, ey ulug'lar ulug'i, - dedi u tili arang buralib, bukilganicha qayta-qayta yer o'parkan. - Faqir alardin ortiq dalil bilmasmen...

- Hokim va qozikalon hukmiga rozimisiz?

- Barcha rozidur. Faqir ajralib qolarmidim?

- Ha, tuzuk... Bu dunyoda kimki o'g'ri, zavoli har doim tayin!..

Qariyb butun mamlakatda taniqli, xususan, shu atrofda so'zi qilichdek kesadigan uch mansabdor bergan guvohlik asli yetarli edi. Hatto ular Erxon aybini bo'yniga olganini bir necha marta kuyinib ta'kidlashdi. Faqat u hozircha sandug'chani qayga yashirgani va ichidagi boylikni kimlar bilan bo'lishganini sir tutayotgan ekan, agar og'zidan gullaydigan bo'lsa, yovvoyife'l sheriklari bir kechada tinchitib ketisharmish!..

Soqibqiron ko'zlari olma-kesak terayotgan Sorbug'o qipchoq qarorgohida andak taskin topdi, hokim va boshqalar bilan xayrlashib, xonaqoh sari qaytgandan keyin ichini har xil gumonlar yumdaladi. Aftidan taftish shunchaki nomiga, pala-partish va xom-xatala o'tkazilgan va ko'p narsa noaniq qolgan ko'rinadi. Qaytadan barini birma-bir chig'iridan o'tkazish maqsadga muvofiqdir. Aniqrog'i, Erxonni ayamay qattiqroq burash kerakki, toki bilgan-kechirganini ipidan ignasigacha so'ylasin.

Shahar allaqachon orom og'ushida...

Sohibqiron esa bedor: sovub ketgan jimjit hujra o'rtasida, Qur'oni karim qo'yilgan lavh yonida muk tushib, xayolan turli ko'chalar bo'ylab kezib yuribdi. O'y-fikri bir dam tutqich bermas, tobora chuvalanib, boshi g'ovlar edi. Nogoh kampiri eslab, g'ussa va afsusga chulg'anar ekan, eshikdan gumashta mo'raladi. Bildiki, huzuriga kimdir kelgan, ajabo, naq katta saharda-ya?!

Cohibqiron ijozati bilan eshikdan oshiqib kirgan, peshida al-latovur orziqib tizzalab, etagini qosh-ko'ziga surta boshlagan mosh-guruch soqolli kishini ilgari qaydadir, adashmasa, Sorbug'o qipchoq saroyida kechgan bir mashvaratda uchratgan edi. Ehtirom

rasm-u rusumini kelishtirib o'rninga qo'ygandan keyin mehmon nihoyat o'zini tanishtirdi. Rostdan ham u xazinabon Mustafo Shoshiy bo'lib chiqdi.

- Xo'sh, birodari aziz, nechun kunduz yorug'ida kelmay, kecha qorong'usida bezovta qilursiz faqirni?

- Qiblagohim, afv etgaysiz men odobsizni, lekin mabodo mal'unlar bilib qolsalar, kallamdin judo bo'lurmen, - mahzun qi-yofa oldi Mustafo Shoshiy. - Shu sabab bemahal qadam ranjida qilmakni ma'qul topdim.

- Shunaqami? Qulog'im sizda.

- Erxon javr ostida qolmish!..

- Bilib qo'ying, yolg'ondin to'yg'onmen.

- Olampanoh, zig'ircha yolg'on so'ylasam, tangri qarq'ishiga uchrayin va til tortmay o'layin, - dedi uzib mehmon. - Muborak xotiringizga ma'lum bo'lsinki, dastlab taftishda ishtirok etibmen. Ammo keyin qozikalon qistovi bilan hokim faqirni chetlatmish!..

- Sabab?

- Sababi... Valine'matim, Erxon gunohdin xoli, bechorani tez-roq hibsdin bo'shatish lozim, degan taklif aytganim!

- Kazzobga tarafkashlik qildingizmi?

- Imonimni tikib aytamen, g'aznadin sandug'cha yo'qolgani rost, lekin ani Erxon o'g'irlagani xususidagi xulosa uydirmadur.

- Yo'g'-e! Isboti bormi?

- Ishonmasangiz, o'zidin so'rang, qiblagohim... To'g'ri, bandayi ojiz xazinaga kirgan, ma'qul tuyulgan sandug'chani o'marish-ni mo'ljalagan, ammo keyin... Tasodifan devorda bir bitik ko'rib qolgan-u aynigan.

- Bitik? Xo'sh, xo'sh?!

- Shundog', olampanoh... Devorda hunargir xattot: "Alloh qillayotgan amallaringizdan xabardor bo'lguvchidir", degan oyati muborakni insho qilgan ekan. Har neki qilmishi xufiya qolishiga ishonib yurgan Erxon, haligi bitikni o'qigach, peshonasiga bir shapati urgan va shashqator yosh oqizganicha sandug'chani joyiga qo'yib jo'nagan. Eshikdan chiqqan joyida... uyg'onib qolgan qorovullar tutishgan!..



Mustafo Shoshiy kuyingancha yuragi tubidan chiqarib so'ylar, hujra sovuq bo'lishiga qaramay, ajin tilimlagan enli peshonasini reza-reza qaynoq ter qoplagan edi.

Imoni butun odam ekanligi rang-ro'yidan bilinib turgan xazinabon izohlariga astoydil quloq tutgan Sohbiqiron kalava uchini topgandek yengil tortdi, muhimi, mavridi kelgan zahoti Erxon bilan uchrashishni mo'ljalladi. Tun bo'yi tuzukli uxlamay, kallayi saharlab huzuriga Sorbug'o qipchoqni chorladi-da, ko'nglida borini baralla aytdi:

- Qipchoq begi, darhol farmoni oliy bitilsun. Biz Erxon xundin kechduk. Yigit yashamog'i kerak. Yana bir taftishdan keyin umuman biron jazoga loyiq yoki noloyiq ekanini jiddiyroq o'ylab ko'rgaymiz.

Bunaqa bo'lishini kutmagan Sorbug'o qipchoq oqara-bo'zara e'tiroz bildirishga urindi. Lekin Sohbiqiron bir ola qaragan ediki, pisillab o'chdi-da, kaltak yegan it kabi dumini qisib jo'nadi...

Hush-xayolini xilvat ixtiyoriga bergan Sohbiqiron oradan ikki kun o'tib ketganini sezmay qoldi. Bugun ertalab gumashta kirib-chiqib dasturxon tuzayotgan chog'da, bu dunyoyi dunda qahr-u g'azab yupanch bo'la olmasligini o'ylab o'tirardi. Saldan keyin shunchaki ul-bul totindi-da, tokchadan qalin muqovali kitob olib, asta-sekin varaqlay boshladi. Qaysidir qiziqarli fasldan yarim-bir bet o'qigan ediki, nogoh ostona gusurlab, ko'zlari kosasidan irg'ib chiqqan Sorbug'o qipchoq shoshilib kirdi va barvasta gavdasini poygakka otdi.

- Qiblagohim, ko'rgilik, Erxon o'zini o'zi chavaqlab tashlaptur!..

- Qipchoq begi, ne deb sannaysiz?

- Afsuski, so'zim rost! Musibat sodir bo'lmish!..

Sohbiqiron, kitobni tezda joyiga qo'yarkan, qoplondek shiddat bilan otilib turdi-da, titrab-qaqshab yukunayotgan Sorbug'o qipchoqni yoqasidan bo'g'ib ko'tardi va shaxt bilan siltab yubordi. Harchand o'zini bosishga tirishmasin, ko'ksi sim-sim achishat, ruhi ostin-ustun bo'lib, yer-u ko'kka sig'may qolgan edi.

Ko'p afsus, loqaydlik o'tib, tadbiri puxta qilmadi, butkul qo'yib yubordi savil qolgur jilovni, endi shundoq ham alamdiyda,

bug'ri biyron mustipar onaxon betiga qaysi ko'z bilan qaraydi? Ertaga tag'in hujrasiga xaltasini qo'ltiqlab kelsa-da, insofli banda, baraka toping, tegirmon holidan xabar olish shunchalik bo'lar-da, deb kemasatsa, ey Xudojon, ne kechadi holi, tutdek to'kilib tugamasm?! Yana afsuski, Erxon nechun qasd qildi ekan joniga?

Bas, achchiq ichakday cho'zib o'tirmay, tezroq sir-u savdo tagliga yetishi, oqni oqqa-yu, qorani qoraga ajratishi lozim, aks holda, ruhida qo'nim topa boshlagan osudalikdan judo bo'lur. Hoziroq taftishni sarkarda Joku barlos ixtiyoriga topshiradi. Odam tanish, vaziyatni to'g'ri baholash va hatto iz topish bobida u besuyak...

Chindan ham sarkardalar ichra eng salohiyatlisi hisoblangan Joku barlos Erxon atrofida yurgan avvali-oxiri yo'q mish-mishlarni allaqachon eshitgandi. Sohbiqiron gardaniga maxsus vazifa yuklagach, bir necha xos mulozim yordamida jadal ishga kirishdi va ertasi shomga yaqin mufassal ma'lumot berdi.

Qoq yarim kechada, atrof jimjit bo'lib qolganda, zindon soqqhilari chopqin qilingan, xunrezlik Erxonni oradan ko'tarish uchun amalga oshirilgan, chatog'i shundaki, fitna boshida Sorbug'o qipchoqning o'zi turgan emish!..

Sohbiqiron arang bosdi g'azabini, bas, dedi ichida, itdan bo'lgan qurbonlikka yaramas, har qadamini nazoratda tutish va xashagini ochib tashlash lozim. Yolg'iz tangri najotkor! Bilmagan ekan, bu shahar iqlimi va amaldorlari ko'nglini rutubat bosmish, bundan xos ham, avom ham jabr-u jafu tortur. Miskinlik hech qachon ayb sanalmas, aksincha, jaholat sari og'ish gunohi azimdir. Kimligi no-malum bir ojiza mansabni ot qilib mingan kaslarga qanday bas kelsin. Sho'rlik hozir o'z yog'iga o'zi qovrilib yotgandir. Bir borib ko'nglini so'raydi, shunga hafsala qilmasa, bekor katta gapirib yurgan ekan yorug' dunyoda!..

Ertalab, qor uchqunlab turganda, chakmon-u choponga o'ralgan amirlar va beklar xonaqoh oldida to'planishdi. Hamma Sohbiqiron etagini tavof qilish uchun oshiqardi. Lekin u har kimga ro'yuxshlik bermas, qovog'i solingan va parishon edi. Boshiga qunduz telpak qo'ndirgan Sorbug'o qipchoqqa ko'zi tushganda, ichini ayniqsa nimadir yondirib, dog'uli salomiga alik olishni ham istamadi.

Sohibqiron gumashta o'nglagan g'ijinglayotgan to'riq beliga abjirlik bilan qo'ndi-da, shitob jilovni siltadi, vaziyatni anglagan-day jonivor dumini xoda qilgancha, izg'irin supurayotgan o'nqir-ch'o'nqir ko'cha bo'ylab yo'rta ketdi.

Hayrat-u havasga ko'milgan mulla Nishon zo'r ishtiyok bilan yo'l ko'rsatib bordi. Saldan keyin u mingan qovurg'alari sanalib qolgan cho'gir shahar chetidagi ko'rimsiz hovli ro'parasida pish-qirib to'xtadi.

Darvoza ikki qanotida besh-o'n kishi bel bog'lagan va qo'l qovush tirgan holda sukut saqlab turardi. Bezatilgan otlarda yelib kelgan, shohona liboslar kiygan aslzoda zotlarni ko'rib, ular shoshib-gangib qolishdi. Ancha tetik ketmon soqolli chol, guzar oqso-qoli shekilli, kampir betob yotganidan xabar berib, tavoze ila ichkariga shoshildi.

Oqsoqol izidan faqat Sohibqiron, Joku barlos, Sorbug'o qipchoq, Qodir Bo'tabek va Rizo olchin ergashdi, boshqalar hassakash birodarlar qatoridan joy egallashdi.

Sohibqiron gupullab isiriq hidi anqiyotgan torgina dahlizga kirarkan, go'yo birdan bag'ri o'pirildi, axir, g'ira-shira qorong'ilik qa'ridan mo'lurab boqayotgan horg'in va ma'yus ko'zlar ta'nasiga tob berish oson ekanmi, qodir egam?

To'rda uyilgan lo'la bolishga yelka tirab o'tirgan, jussasi yana ham kichraygan kampir ohista pichirlab duo o'qiyotir, rang-ro'yida bir olam mung va hasrat naqshlanib qolgan...

Uzun qora ko'ylak kiyib, qora ro'mol o'ragan g'undalakkina xo'shro'y ayol, kelini bo'lsa kerak, atrofida parvona, hatto har bir so'zi va har bir imo-ishorasiga mahtal...

- Onaxon, bandalik, - dedi Sohibqiron, qisqagina duoyi fotihadan keyin, bo'g'zi achishib. - Allohim jannatini ayamasun!..

- Iloyim, shunday bo'lsin, - og'ir so'lish oldi kampir, kalta kipriklari namlanib. - Kecha aytishdi, muruvvat qilgan ekansiz.

- Ha, imkoni boricha... Ammo faqir dog'da qoldim.

- Na chora? Osmon uzoq, yer qattiq! - qat-qat ajin bosgan yonoqlaridan dumalagan shashqator yoshni zahil tortgan kaftlari bilan sekin artidi kampir. - Shahanshohim, ming bora uzr,

izzat-hurmatigizni joyiga qo'yolmadik. Sizdek ulug' zot hamisha qo'nog'imiz bo'lmas.

- Xijolat chekmak mavridi ermas, onaxon.

- Xudo haqi, tashrifingizdin boshimiz ko'kka yetdi!..

Axiyri, xiyol tetiklashgan, oz bo'lsa ham ko'ngli yorishgan kampir beixtiyor nimjon gavdasini ko'tardi va oliy martabali mehmon chehrasiga qaytadan razm soldi.

- Olampanoh, shu desangiz, bugun... yo ertami... beva qolgan kullimga bir yumush buyurmoq niyatida edim, xudoyimdin o'rgilay, mushkulimni o'zi oson qilmish!..

- Ne yumush ekan, onaxon?

- Yodingizda bormi-yo'qmi, bilmadim, zamonida sizdin bir omonat qolg'on ixtiyorimda!..

Qo'shqavat baxmal ko'rpachada horg'in tizzalagan Sohibqiron, nogoh hushyor tortib, ixcham kuzalagan soqolini siladi. Tavba, ko'p ulomat va naqadar hayratli, axir, to'ridan go'ri yaqin kampir qanday omonat ustida so'z yuritayotir? Qurmagur ko'pni ko'rgan va bir baloni biladi-yov. Yoki shirin joni bo'g'ziga tiqilib, aljiray boshladimi sho'rlik?

Har holda Sohibqiron, shubhalarini haydab, oxirigacha sabr bilan xotirjam kutishga qaror berdi. Bu orada kampir bir qadar jon-sarak bo'lib qolgani va orziqayotgani sezildi, hatto nogoh mo'jiza ro'y berib, yoshlik fastliga qaytgan kabi, nigohi boshqacha chaqnay boshladi. So'ng nimadandir cho'chingiraganday astagina boshlag'adi. O'sha zahoti kelin taxmondagi mayda naqshlar chekilgan sandiqdan ola-bula tuguncha oldi.

Sohibqiron lol-u hayron bo'lib kulimsiradi, axir, tunov kuni qora hovuqdan cho'chimay yupun kiyingan kampir, to'satdan hujrasiga bostira kirib, yuragini to'kkanda shu narsa qo'ltig'ida emasmi?

- Marhamat, shahanshohim!..

Vo'ajab, g'ira-shirada yalt-yult qilayotgan matoh nima?

Hushimi yoki tushi - binoyidek ko'z qamashtirar kamar-ku!

Rostdan ham aql bovar qilmas: naqshlari qavariq tilla to'g'a, nozik zarblangan zarrin hoshiya, lov-lov yonib tovlanayotgan la'l-u yoqutlar naqadar yaqin diliga!..

Sohibqiron o'tli nigohini ro'parasida ham mung'ayib, ham sinqi kulimsirab turgan kampirga ko'chirdi va nogoh o'zini shirabo'ron aralash urayotgan laylak qor qo'ynida, tiriklik nishonasi yo'q zimziyo va kimsasiz dasht o'rtasida ko'rgandek bo'ldi...

Barini avvalidan oxirigacha esladi: omad butunlay yuz o'g'irgan o'sha mudhish kunda, barcha sherigidan adashib qolib, mo'g'ullar pistirmasiga duch kelgan va yelkasiga kamon o'qi sanchilgan edi. Uzoq muddat tuz totmay, ko'p qon yo'qotgani sababli, tinkayi madori qurib, oxiri bir qishloq yaqinida yuztuban quladi. Es-hushini yig'saki, mol tezagi va pichan hidiga to'la nim qorong'i og'ilda, pichan g'arami ichra aftodahol yotibdi. Kimdir malham surib, yarasini bog'labdi. Keyin bilsa, xaloskori xokisor va nozik-kina xushro'y ayol ekan...

Tez orada kuch-quvvatga kirgach, ayolni siylamoq niyatida, cho'ntagini kovladi-yu, sariq chaqa ham topolmadi. Oxiri, xijolatini yashirolmay, quruq rahmat aytish bilan kifoyalandi.

Qor ko'rpassi ostida mudrayotgan Kesh sari yuzlanarkan, bo'z yigit bo'lib bo'y ko'rsatganda, padari Tarag'ay bahodir ezgu niyat bilan beliga bog'lab qo'ygan kamami o'sha yerda unutib qoldirganini bildi. Oh, shunaqa afsus chekdiki, nedir og'riqdan hatto yuragi tars yorilayozdi. Axir, u shunchaki oddiy buyum emas, bahosi ham, takrori ham yo'q yodgorlik: yetti pustiini ko'rgan va yetti bobokaloni jism-u joniga mador bo'lgan. Uzoqni ko'ra oladigan buzrukvori esa, vaqti-soati yetganda, o'zi uni eng jo'mard va oqil farzandiga topshirishi lozimligini necha marta qulog'iga quygandi.

Sohibqiron g'am-u anduhga botdi, vaqtni boy bermay, besh-o'n ishonchli navkar bilan haligi qishloqqa oshiqib keldi. Ammo kuni-ga yaragan ayol daragini topolmadi, hovli-joyini mo'g'ullar yoqib yuborgan ekan...

Sohibqiron, kamarni yodidan chiqarmagan esa-da, allaqachon undan umidini uzgandi. Axir, bunaqa narxi baland kamyob molni kim ham o'zini qilib olishni istamaydi.

- Onaxon, faqir shu damgacha hech kimga, hatto qudrati zo'r podshohlarga ham bo'y egmay yashadim. Ammo sizga ta'zim qil-sam yarashur. Bugundan sizga o'g'il bo'ldim!...

Sohibqiron asta kaftini ko'ksiga bosdi.

Chamasi, kampir ham o'sha damlar achchiq-chuchugi, og'ir-yengilli va jabr-u jafolarini xotiridan kechirayotgan edi. Ehtimol, shu bois ozg'in yuzi ajinlari tobora yechilib, nigohi nurlanib borardi. Faqat koshki hali alohida lutf bilan aytilgan taklif, ado etilgan ehtirom dilida o'rnatilgan qavat-qavat dog'larni yuvib yuborish uchun ozgina yarasal...

- Onaxon, aytgim, faqir ne qilsam dilingiz shodlanur? Hozir har neki tilagingizni mustajob qilishga hozir-u nozirman! Buyuring, bemalol ikkilanmay buyuring, ey onaxon!

Kampir javob qilmay xo'rsindi, hech kimga e'tibor bermay, boshqatdan lo'la bolishga ohista suyandi-da, xiralashgan va halqa-halqa yosh aylanayotgan ko'zlarini beholgina yumdi...

Shu bilan suhbat boqiy bo'ldi. Sohobqiron mo'tirab qult-qult yutinayotgan kampirning yillar tamg'asi bosilgan chehrasiga oxirgi marta o'girilib qaradi, ko'ksi uvalganicha nimadir degisi keldi, ammo darhol tilini tiydi. Og'ir-og'ir qadamlar bilan dahlizni tark etgan mahalda, bezovta yuragi laxcha cho'g' tekkan kabi kuyishayotgan edi.

Sohibqiron hamon izg'irin uvullab supurayotgan o'nqir-cho'nqir ko'chadan bedovni qichab haydadi: bir intqlik bilan tan-gri uyi bo'lmish xonaqohda qoyim xilvat sari oshiqardi. Izidan esa qorama-qora bir sharpa shovursiz yo'rg'alab kelardi...

ham, kelinning ham tiliga soʻz kelmas, goʻyo bir-birovini endi koʻra-yotganday jim oʻtirishadi. Onda-sonda aytiladigan gaplari oʻzlariga ham erish tuyuladi. Qiziq, nega shunday ekan? Toʻydan oldin esa ikkovi ikki yoqda qachon birga boʻlishni, miriqib subhatlashishni, bir-birining diydoriga qonishni orzu qilardi. Visol onlarida biri qoʻyib, ikkinchisi gapga tushardi. "Sevasizmi?". "Sevaman". "Siz-chi?". "Men ham". Shu kabi bir xil soʻzlar qayta-qayta takrorlanar, ammo na yigitning, na qizning gʻashiga tegmas, aksincha, yana eshitgisi, yana soʻragisi, yana eshitgisi kelardi.

Endi-chi? Qiziq, nega endi bunaqa? Yoʻq, ular bir-biriga toʻyib qolgani yoʻq! Oshiq-maʼshuqlik yoʻrigʻi boʻlak ekan. Unda birga boʻlishlariga qanchalik ishonsalar-da, baribir hali amalga oshmagan shirin orzu edi bu. "Yutganim oʻzimmiki, chaynaganim gumon", degan gap bor. Nikoh bu gapni ularning koʻngillaridan chiqarib tashladi. Yoʻq, oʻzaro qandaydir "yotsirab" qolishi bundanmas. Ular hamon bir-biriga tashna, hamon intiq. Faqat endigisi boʻlakcha... Nikoh har kimning ham hayotini boshqa izga solarkan. Negadir odam oʻzini salobatli, vazmin sezib qolarkan. Olingi shoʻxliklar, hazil-huzullar endi...

Muhabbat erining yuzlarini, sochini ohista silay boshladi. Baxtiyor koʻzini ochdi. Yuzlari sutga chayilganday oppoq, shundanmi, qosh-koʻzlari yana ham qoraroq koʻringan farishtasifat Muhabbat oʻtiripti. Uning ipakdek mayin qoʻllari Baxtiyorning sililiq yuzlarini siladi. Bir tutam quyosh yogʻdusi sahnadagi balerinani quvlab yurgan proyektor nuridek uning yuziga tushib turibdi. Kelin-kuyov bir-biriga unsiz uzoq termildi. Keyin koʻzlar bir-biriga yaqinlashdi, yana va yana yaqinlashdi...

Muhabbat ohista boshini koʻtardi. Uning yuzlari loladek qizarib ketgan. Erining koʻzlaridan koʻzini olib qochib, uning yuziga astagina shapatiladi. Bu shapatining taʼsirini na kuyov sezdi, na kelin.

- Yomonsiz, - dedi Muhabbat.

- Sen yaxshisan, - dedi Baxtiyor.

Ikkalasi ham unsiz jilmayishdi.

- Turmaysizmi end?

- Hali vaqtli, shekilli... Bugun dam olish-ku.

- Shunday boʻlsayam-da... Bitta-yarimta kelib qolishi mumkin.

## MAMATQUL HAZRATQULOV

1947-yilda Samarqand viloyati Urgut tumanidagi Mingbuloq qishlogʻida tugʻilgan. Toshkent Davlat universitetini (hozirgi Oʻzbekiston Milliy universiteti) tugatgan. "Oqqush" (1978), "Choʻli Iroq" (1982), "Hayotning bir parchasi" (1984), "Intizor" (1985), "Quyosh men tomonda" (1986), "Jurʼat" (1989), "Eshiklar ochiq" (1991), "Chiroq oʻchmagan kecha" (2002), "Koʻkkoʻl" (2005) kabi nasriy toʻplamlari nashr etilgan. "Mehrkop koʻrgazdim" (1989), "Mehmon" (1986), "Qadrim" (1992), "Afangining yangi sarguzashtlari" (1993) nomli pyesalar muallifi. "Oʻzbekistonda xizmat koʻrsatgan jurnalist" unvoni bilan taqdirlangan (1988).

## CHOʻLI IROQ

Muhabbat erini uygʻotmoqchi boʻlib uyga kirdi-yu, miriqib uxlayotganini koʻrib, fikridan qaytdi. Shirin uyqusini buzgisi kel-madi. Astagina stulga oʻtirdi. Baxtiyor xuddi yosh boladek pish-pish qilib beozor uxlardi. Uning orasi ochiq qalin qoshlari piyirab qoʻyadi. Muhabbat erining qoshlariga termilib, oʻyladi: "Muncha orasi ochiq. Eskilarning gapida hikmat koʻp. Qoshlarining orasi ochiq yigitlar uzoqdan uylanadi, ularning koʻngli ham ochiq boʻladi, deganlari rost ekan. Yetti uxlab tushimga kirmagan... U-chi? U oʻylabdimi menga uylanishni?"

Ularning toʻyi oʻtganiga endigina bir oy boʻldi. Toʻydan oldin bir-biriga juda yaqin, sirdosh edilar, hatto tortinmas, uncha-muncha gaplarni bemalol aytishardi. Nikoh kunidan boshlab ikkalasining ham koʻnglida gʻalati bir kayfiyat tugʻildi. Bir-biriga koʻrinmas iplar bilan chambarchas bogʻlanganini his qilganlari sari uyalish, tortinish tuygʻulari joʻsh urardi. Yolgʻiz qolgan kezlari kuyovning

- Kim ham kelardi? Hamma o'z ishi bilan ovora hozir.  
- Bilib bo'ladimi? Axir har yakshanba kimdir keladi-ku, esingizdan chiqdimi, - dedi Muhabbat kulib.

Chindan ham to'ylaridan keyin ularning har dam olishda biroq kelardi. Goh kelinning urug'laridan, goh kuyovning qarindoshlaridan yoki ularning to'yiga kelolmagan do'stlari muborakbod etgani kelishardi. Shunga ular ko'nikib qolishgan, biror yakshanba mehmon kelmasa, nimadir yetishmayotganday tuyulardi.

- Ha-ya, rost aytasan. Sakkiz yarimning konsertimi? Yoz qiziq-da, soat sakkizda choshgoh bo'lib ketgandek ko'rinadi. Qishda shu paytda tong otmagan bo'lardi hali.

"Endi Turg'un Alimatov ijrosida satoda "Cho'li iroq"ni tinglang". Suxandonning e'loni Muhabbatning diqqatini tortdi.

- To'xtang, Baxtiyor aka, eshitaylik shu kuyni. Juda yaxshi chaladi-da.

Sato tilga kirdi. Baxtiyor shiftga termilib yotar, Muhabbat erining nayzadek o'tkir, uzun va qalin kipriklari qurshab olgan juda tiniq, hayotidan mamnunlik sezilib turgan chaqnoq ko'zlaridan nihohini uzmaydi, ammo xayoli parihon. Sato torlari ingrar, goh hazine, goh baland pardada nola qilardi. Goho nafasi jim bo'lib qolar, lekin orqada - xuddi tog'lar aks-sado qaytarganday uning nolasi zirillab turardi. Musiqa go'yo asta-sekin kishi yuragiga kirib borar, uning pardasini hozir... hozir yirtib yuborguday bo'lardi.

Muhabbat o'zini tamoman yo'qotib qo'ygan, yuragi yonib ado bo'layotgan sham misoli titrayotganini sezmasdi. U hali umrida hech ko'rmagan joylarni hozir shu tobda xayol ko'zlar bilan yaqqol ko'rib turardi: ana poyonsiz sahro, qum, qum... Issiqdan oyoq kuyadi. Karvon ketidan borayotgan o'n yetti yashar sohib jamol qizning madori qurigan. Tili tanglayiga yopishadi. U bor kuchini to'plab "suv" demoqchi bo'ladi, lekin tili aylanmaydi, u juda og'ir, xuddi shishib ketganday. Atrofda biron jonzo't yo'q. Oldinda ketayotgan nortuya bo'ynidagi qo'ng'iroqning mayin, yurakni ezuvchi sasi keladi quloqqa. Sahro - non yopishdan oldin oqartirilgan tandir. Bu tandirga bordi-yu ilohiy qudrat bir tomchi suv tashlasa, kiprik qoqquncha o'tgan fursatda qurib qoladi. Tuya

atqoniga bog'langanicha borayotgan go'zalning oppoq yuzlari ishqning zo'ridan bo'g'riqib ketgan, to'q jigarrang tusga kirgan. Endi loaqal ko'zini ochishga ham quvvati yetmaydi.

Tonggi shabnamdek beg'ubor bu go'zalni taqdir qayoqlarga olib ketmoqda? Uni kimlarning shafqatsiz panjasi ostiga tashlaydi. Buni kim biladi? Hech kim! Hech kim!

O, sho'rlik qiz! Qanday jafolar kutmoqda seni. Madorsizlik, tashnalik qizning xayollarini alg'ov-dalg'ov qilib yuboradi. "Qachon yetamiz? Qayerga boramiz? Mushtipar onam, dasti kalta otam! Qaylarda qoldingiz?". Lekin buni hech kim bilmaydi, uning qismati og'ir, yo'li yiroq. Juda yiroq... qum, qum, qum...

Kuy o'tmishdagi ana shu g'am-g'ussa haqida so'zlamochi bo'ladi, lekin gapirolmay yig'laydi. Bu g'amni hatto sato torlari ham ko'tarolmay, o'pkasi to'lib ketadi. Ingrab, ezilib yig'laydi, yig'laydi.

Baxtiyorning yuziga issiq bir tomchi tushdi. U shart xotiniga qaradi.

Muhabbatning xiyol qisiq, ammo har qanday yurakni bir ko'rishdayoq o'rtovchi tim qora ko'zlariga yosh to'lgan, kipriklari orasidan sizib chiqardi.

- Senga nima bo'ldi, Muhabbat?

Muhabbat yoshi ko'zlarini javdiratib eriga termildi-yu, indamadi, gapirmadi.

- Senga aytayapman? Nima gap o'zi? - Bu safar Baxtiyorning ovozida bir o'ktamlilik zohir edi.

Muhabbat chuqur xo'rsindi.

- Kuyi shunday bo'lsa, g'amning o'ziga qanday chiday olgan ekan odamzod?!

- Qo'ysang-chi, azizam, har kuy eshitganingda bunaqa ezilaversang, o'zingni o'zing ado qilasan-ku.

- Yo'q, Baxtiyor aka, - Muhabbat erining sochlarini mehr bilan siladi, - hamma kuyga ham yig'layvermayman. Bilasiz-ku, "Cho'li iroq"ni yaxshi ko'raman. Shu kuyni eshitishga o'zinning ham yuragim yo'q, bezillab qolganman. Lekin chalganda o'chirib qo'yolmayman, eshitmay turib ketolmayman, jur'atim yetmaydi.

- Bo'ldi! - Baxtiyor chaqqon sakrab turdi o'rnidan. - Odam degani bunaqa pessimist bo'lmaydi. Yarashmaydi! Qani, choy-poyingni olib kel!

Bu - Baxtiyorning xotiniga boshqa erkaklar kabi buyruq ohangida ilk gapirishi. Buni Muhabbat ham sezdi, lekin u qadar e'tibor bermadi. Qachondir, bir kun borib shunday bo'lishini bilardi.

O'sha kuni kechgacha Baxtiyorning chiroyi ochilmadi, ko'nglig'ash bo'lib yurdi. Muhabbatning yig'lagani sababini o'zicha tahlil qilar, turli xavollarga borardi. "Nega buncha ezildi u? Yig'idan o'zini tutolmadi. Nega? Xo'sh, kuyni yaxshi ko'rsa nima bo'libdi? Men yomon ko'ramanmi? Yoki shunchalik toshbag'irmanmi? Yo'q! Kuyni yaxshi ko'rgan odamning hammasiyam yig'layvermaydi-ku. Biron sabab borki, yig'laydi, eziladi shunchalik. Ehtimol, shu kuy bilan bog'liq bir gap bordir? Albatta, menga aytarmidi..." U o'ylagan sari xayoliga turfa fikrlar kelar, go'yo izlagan narsasini hozir topadigandek tuyulardi: "Balki huv anavi gapi bekor-gamasdir: "Qandaydir bir ashulachimi-yey, sozandami-yey menga uylanmoqchi bo'lib yurardi. Lekin ota-onam unga ikki dunyoda ham bermasdi. O'zim-ku, o'ldirsa ham tegmasdim". Ehtimol, bu bilan qo'rqan oldin musht ko'tarar qilgandir. Har qalay, bir gap bor. O'zi ertalab, o'rnimdan turmasimdan kelib erkalanishidan yuragim shig'illovdii-ya. Xotin kishi yo yomon tush ko'rib chiqa yoki harom yo'lga qadam qo'ysa, hech bo'lmasa oldingi jazmanini o'ylab yuragi siqilsa, erini erkalashga, unga suykaliushga tushadi, deyishardi. Shu gap rostga o'xshaydi. Shamol bo'lmasa daraxtning uchi qimirlamaydi. Odamlar ming yillik tajribalaridan keyin bir xulosaga keladilar.

Bu fikrlar Baxtiyorning ichini sichqondek kemirar, yuragi gupullab urardi. "Xotin zotining eng soddasi ham ayyorlikda tulkiga dars beradi". Bularni o'ylagan sari qaysidir o'rtog'idan eshitgan ana shu gap yodiga kelar va unga o'zini o'zi ishontirardi.

Baxtiyor vajohatini bosolmadi. Hozir xotinini chaqirib, ochiq-oydin gaplashib olmoqchi bo'ldi. "Temirni qizig'ida bosgani ma'qul".

- Muhabbat!

Oshxonadan Muhabbatning ovozi eshitildi.

- Labbay.

- Menga qara... Bu yoqqa kel!

Muhabbat kirdi. U peshband tutib olgan, qiya qilib o'ralgan yaltiroq ro'moli yarashib turardi. Muhabbatning yonoqlari issiqdan qizarib ketgan, qayrilma qoshlari qaldirg'och qanotidek ingich-ka, quralay ko'zlari o'tdek yonib turardi. Ro'moli ostidan toshib chiqqan qop-qora sochlari oppoq bo'ynida erkalanib yotardi.

Qorong'i joydan birdan yoruqqa chiqa odamning ko'zi qamashadi. Baxtiyor ham ana shunday holga tushdi. U hozirgina o'rik o'tin cho'g'idek yonib, kuyib turuvdi. Muhabbat bilan yuzma-yuz bo'ldi-yu, ko'zi jimirlab, dami ichiga tushib ketdi.

O, go'zallik! Sening oldingda kimlar tiz cho'kmagan! Ne-ne bahodir-u pahlavonlarni lol qoldirmagansan? Sening mehr-u seh-ringga ne-ne azamatlar asir bo'lmagan!

- Chaqirdingizmi? - Muhabbatning tabassumi Baxtiyor qalbidagi alangaga suv sepdii.

U xotiniga qarab turib simobdek erib ketdi.

- Ha chaqiruvdim. Gugurt bormi?

- Gugurt, ha, bor. Mana, - u peshbandining cho'ntagidan gugurt olib berdi.

- Rahmat...

\* \* \*

Baxtiyor uyga kelsa, Muhabbat yig'lab o'tiribdi.

- Yana nima bo'ldi?

- Hech nima. O'zim shunday.

- Yashirma mendan, baribir bilib olaman. Keyin xafa bo'laman.

- Nimani yashiraman sizdan, Baxtiyor aka. Eshityapsizmi, mu-shlqa, "Cho'li iroq".

Baxtiyor battar tutoqdi.

- Eshitayapman. Shuning uchun so'rayapman-da. Xo'sh, "Cho'li iroq"ni yaxshi ko'rsang, nima bo'пти? Shunga yig'laysan-mi? Axir bir marta bo'lmasa, ikki marta bo'lmasa... Har doim shu ahvol. Turmush qurganimizga bir yil bo'layapti-yu, hamon shu kuyni eshitsang yig'laysan. Bo'ldi-da, endi.

- Turmush qurishimizning nima aloqasi bor bunga. Ilgari ham shunaqa edi. Bundan keyin ham...

- Demak... Kuy zamirida kimdir bor. Uni eshitganingda o'shani eslaysan... "Cho'li iroq" yaxshi kuy emish. Bilkidik yaxshiligini... - Baxtiyor aka! Nimalar deyapsiz? Nahotki... Nahotki meni... Muhabbat o'zini Baxtiyorning ko'ksiga otdi.

- Aldama meni. Laqillataman deb o'ylama. Sen o'ylagan laqmalardan emasman.

Muhabbat ko'zlarida g'ilt-g'ilt yosh bilan eriga termildi.

- O'tinaman sizdan, bunaqa fikrlarni xayolingizdan chiqarib tashlang. Axir bu men uchun haqorat-ku. Sizdan bo'lak biron kishi aqalli qo'linni ushlagan bo'lsa, til tortmay o'lay!

- Qasam ichma!

- Ishonmasangiz nima qilay axir? Hech narsani, hech kimni eslamayman. Bilmadim, nimaga unday? Shu kuyni eshitsam yuragim siqilib, yig'lagim kelaveradi...

- Bo'ldi. Bas qil kuy-puyingni.

Muhabbat piq-piq yig'lar, o'zini bosmoqchi bo'lgani sari battar o'pkasi to'lib kelardi. Baxtiyor ayyonga chiqdi-da, sigaret tutatdi.

\* \* \*

Kuni bilan Baxtiyorning kayfiyati bo'lmadi. Yuragi xijil, ko'ngli xira. Boshlig'idan eshitgan dashnami yaraga tuz sepganday bo'ldi. Ishxonadan ertaroq chiqdi-da, bufetga burildi. Odatiga qarshi u yerdan bir stakan aroq olib ichdi. Gazak ham qilmadi.

Uyga kelsa xotini hali ishdan qaytmabdi. Qorong'i tushish palasini - g'ira-shirani yoqtirmasdi u, yuragi siqilib ketadi. Shuning uchun hovlida o'tirolmadi. Ichkari kirib yechinmasdanoq karavotga cho'zildi. Yotgan joyida sigaret tutatdi.

Radioda konsert bo'layapti. "Endi "Cho'li iroq"ni tinglang". Baxtiyor radioni o'chirmoqchi, sug'urib olib hovliga iring'itmoqchi bo'ldi. Lekin qandaydir kuch, iroda uni bu fikridan qaytardi. "Radioda, kuyda nima ayb. O'chirganim bilan..." Sigaretni bosib bosib tortarkan, kuyning sehrli to'riga ilinib qolganini - berilib tinglayotganini o'zi ham sezmasdi. Satodan taralayotgan mungli kuyni sigaret tutuniga qo'shib ichiga yutayotganday, bu ohang

yurak pardalarini zirillatayotgandek bo'ldi. Endi kuy sadolari ichidan eshitilayotganday tuyuldi.

O, sehrli kuy! Necha asrlardan buyon qancha-qancha odamlarning yuragini zirqitatasan? Ne-ne toshbag'irlarni mumday eritmading! O, buyuk xalq! Ona xalqim! Sening betimsol dahongga ta'zim! Ming bor tasanno! Shu kuylaring, shu sehrkor mo'jizalaring bo'lmaganda, farzandlaring ham shu qadar muloyim, odamoxun, bag'ri keng bo'larmidi! Ming bor qulluq senga, ona xalqim!

Kuyning ko'z ilg'amas to'ri Baxtiyorni mahkamroq siqib borardi. U nigohini bir nuqtadan olmay tubsiz o'yga g'arq bo'ldi. Kitoblarda o'qigani, kinolarda ko'rgani, rahmatli buvasidan eshitganlari - o'tmish, g'amli, alamli o'tmish ko'z oldiga keldi. Kuy o'sha uzoq moziy haqida, uning yuraklarni silqituvchi dardlari haqida yig'lab, faryod solib hikoya qilardi. Olisdan, juda olisdan kimningdir nolakor, ammo shiddatli, isyonkor, mardona ovozi chalindi qulog'iga:

*Baski qo'ydin men falakning yelkasiga g'am yugin,  
Kiydi motam to'nini-yu, bo'ldi qaddi ham duto.*

Eshik qars ochilib, Muhabbat kirdi. Chiroqni yoqdi. U erining bu ahvolda yotganini ko'rib qo'rqib ketdi.

- Sizga nima bo'ldi?

Baxtiyor gapirmadi. Faqat "jim" degandek qo'lini ko'tardi-da, radioga ishora qildi. Shundagina Muhabbat kuyni eshitdi. U eriga qaradi. Qaradi-yu, uning ko'zlarida elektr nurida yaltirab turgan yosh tomchilarini ko'rdi. Bu hol uni haykaldek qotirib qo'ydi. Kuy tindi.

- Sizga yarashmas ekan, - dedi Muhabbat og'ir tin olib.

Baxtiyor indamay o'midan turdi. Sekin kelib xotinini quchoqladi. Yuz-ko'zlaridan o'pdi. Bu bo'salar Muhabbatga hammasidan - to'ydan oldingi o'g'rincha bo'salardan ham qaynoqroq, mehrliroq tuyuldi...

Yaqinroq bir qarindoshi (otini aytishmaydi), rosti bilan qutrgan bo'lsa, ko'p azob chekib o'tirmasin, degan chog'i boyaqishning ustida elak tutib, bir chelak suv elagan ekan, lekin Abduvohid Odamga hech korihol bo'lmagan, qaytaga, sovuq suvdan tani junlikib, o'rnidan sapchib turgan. Turayotgan mahali tirsagi ilkiroq tegib ketgan ekanmi, Abduvohid Odamning o'rniga haligi jonachir qarindoshining o'zi yiqilib tushgan. Uniyam betiga suv sepib hushiga keltirishgan. Keyin bir gal Sattorchaning qutrgan itining ustidan ham shu taxlit suv elashgan. Lekin it o'rnidan qaytib turgan. Sattorchaning o'zi itim qutrgan ekan, ustidan suv elovdik, tinchgina yotib o'lib qoldi, deb rosa ikki yil gapirib yurdi.

Xullas, Galatepada qutrgan odamlar haqida uncha-muncha gap bo'lgani bilan, ularni hech kim o'z ko'zi bilan ko'rishgan. Qutrgan itlarni ko'rishgan, qutrgan xo'tiklarni ko'rishgan. Manzar polvonning sariq novvoschasi qutrgan edi – uni ko'rishgan. Manzar polvon novvoschani halolab qolishga ulgurdi, lekin bozorga olib chiqmadi, insof qildi, yerga ko'mib qo'ya qoldi. Keyin bir vaqtlar Galatepada mast nortuyalar ham bo'lardi. Nortuyalar quturmagan bo'lsayam, quturgandan kam emasdi. Qirq birinchi yil ekan, Jonuzoq arab Galatepaga ko'chib kelib, o'ttizta tuyasi bilan kolxozning pillasini Kattaqo'rg'onga tashigan. Galatepa asli o'troq saroylardan emasmi, karvon qishloqni oralab o'tganida ismi jon bor – hammasi ko'chaga tomosha qilgani chiqardi. Karvonning boshida bo'yniga qo'ng'iroq taqqan maydaqadam bir eshak yurguvchi edi, uning ortida – bosh tuyay, ustida Jonuzoq yer-u ko'kka ishonmaydigan chuvakkina arab xotin bilan, keyin yana yigirma to'qqiz tuyay, barisi yukli, barisi zo'r, har yonda uch-to'rttadan bo'taloq, pishqirib, atrofga og'zidan ko'piklar sochib, oyoq ostidagi zaminning changini naq samoga ko'tarib... Bu g'aroyib tomosha uzoqdagi Kattaqo'rg'on tarafga yo'l tortguvchi edi. Jonuzoq arabning o'zi, ostida oq bo'z oti, o'ychan, qiyaga qo'ngan qirg'iyday tik, karvon yonida ketardi. Jonuzoqning eshagi ko'p karvonchi eshak edi. Galatepadan chiqquncha karvonni sal sekin, maromida tortardi, keyin, qishloqning sarhadidan o'tib, eshakning o'zi qadamini ildamroq bosardi, uning ortidan karvon ham, cho'lining yolg'izoyoq zarang yo'lga marjonday tizilib olib, yurimini tezla-

## MUROD MUHAMMAD DO'ST

1949-yilda Samarqand viloyatining Jom qishlog'ida tug'ilgan. Toshkent davlat universitetini (hozirgi O'zbekiston Milliy universiteti), Moskvadagi M.Gorkiy nomli Adabiyot institutini tugatgan. *Dashtabki hikoyalar to'plami* – "Qaydasan, quvonch sado-si?" 1976-yilda chop etilgan. Shundan keyin "Mustafo" (1977), "Bir toychoqning xuni" (1979), "Galatepaga qaytish" (1983), "Dasht-u dalalarda" (1987) singari hikoya va qissalari nashr etilgan. "Lolazor" (1988) romani muallifi. O'zbekiston davlat mukofoti sovrindori (1990). "Mehnat shuhrati" ordeni bilan mukofotlangan (1999).

## BIR TOYCHOQNING XUNI

Galatepada G'uchchi chol quturarmish, degan gap oralab qoldi. Hammaning og'zida shu: G'uchchini besar it qoqanmish, G'uchchi quturarmish.

Jami ulus gapirganicha bor edi, negakim, Galatepa Galatepa bo'lib birorta odam zoti quturmagan. Qishloq sho'rosining keksa kotibi Qosimov domla bayram kunlarida, kolxozning yillik hisobot yig'inlarida qutrgan odamlar haqida gapirgani rost, lekin u sanagan odamlarning bittasini ham qutrgan it qopmagan, ularning ko'pi bosmachi, boy va yana bir balo bo'lib o'tgan yot unsurlar, keyin, Qosimov domlanning o'zi, avomroq kishilar chalkash tushunmasin uchun: "Men buni ramziy ma'noda gapiryapman, o'rtoqlar!", deb aytadi.

Abduvohid Odam ikkinchi xotini ham ketib qolganida rosa bir hafta bag'rini xaxga berib yotuvdi. Uydan ko'chaga chiqmagan, yemagan, ichmagan, gapirsang gapirmagan – misoli karaxt ilon-day bo'lib yotgan. Uniyam dashtlab quturibdi-da, deb o'ylashgan.



tardi. Ko'rmagan odamning tushunishi qiyin: bir yoqda qo'ng'iroqlar jiringlaydi, bir yoqda tuyalarning o'rkachi chayqaladi, bir yoqda Jonuzoqning qoragina xotini, dunyo bilan ishi yo'q, sekin mudraydi... E, ko'p qiziq tomosha edi! Qishloqdan chiqib bo'lgach, Jonuzoq karvondan sal orqaroqda qolardi, orqada qolardi-yu, olishdagi qirlarga qarab yakka-yu yagona ashulasini boshlardi:

*Ey sorbon, ohista ron, ki oromijonam meravad,  
On dil ki bo xud doshtam, bo dilistonam meravad...*

Shu qo'shig'ini aytganda, Jonuzoq arab ko'p g'am tortguvchi edi. Tarziga qarab turib, bechora arab, garchi forsiyda qo'shiq aytsayam, o'zining arabiy sahosini, atrofini xurmo o'ragan vohalarini sog'inibdi-da, deb o'ylarding. Lekin shuncha arabiy ma'yusligi bo'lsa ham, Jonuzoq birorta arabcha so'zni bilmasdi. Gapirganda o'zbekchaga tojikchani aralashtiribroq gapirardi.

Galatepada u haqida har xil gaplar yurardi. Birovlar uni urushdan qochib yuribdi, deb ham o'ylagan. Lekin Jonuzoq qo'li-ko'ngli ochiq, ko'p yaxshi arab edi. Keyin o'ttizta tuyasining sharofatidan kolxozga nafi tegardi. Shu sabab hech kim sen urushdan qochib yuribsan-ku, deb yuziga solmagan. Boshqa joyga ham xabar qilishmagan. Sho'roning kotibi Qosimov domla, xabarkashroq odamlarga: Jonuzoqning aft-basharasiga durustroq qaranglar, bu bir yurgan boshi ochiq arab, turgan-bitgani mo'y, shuncha mo'yi bor odamning dum-pumi bo'lsayam ajabmas. Agar uni askarlikka olsa, keyin bu palakat Xudo urib girmonga asir tushsa, ular muning dumini ko'rsa, padarlar nati bir enlik dumining dastidan butun boshli qizil qo'shinni bebro' qiladi-da, deb aytgan. Qosimovga hamma ishongan. Ishonmaslik gunoh edi. Negaki, Qosimov domla ko'p rostgo'y, farishtali odam bo'lib, umrimda bor-yo'g'i uch marta, undayam uqubatli amir zamonasida yolg'on gapirganman, deb naql qilguvchi edi.

Lekin biz salgina "o'tlab" ketdik. Maqsadimiz sari - o'sha tuyalarning o'ziga qaytamiz. Ular ko'klam chiqishi bilan g'irt mast bo'lib qolardi. Bir xillari borki, ko'chaga g'ov bo'lib olib, odam o'tkazmasdi. Jonuzoq arab Galatepada olti yil yashagan bo'lsa, olti

bor ko'klamda Jomning cho'liga ko'chib, o'sha yoqda tuyalarning masti tarqashini kutgan.

G'uchchi cholni it qopganidan keyin galatepaliklar Barot Qiyshiqning choyxonasiga yig'ilib, allamahalgacha Jonuzoq arabning tuyalaridan gap-gashtak qilib o'tirishdi. Rahmatli Salim chiqqanini eslashdi. Jonuzoqning nortuyasi chap qulog'ini uzib oluvchi, bechora Salim shu bitta quloqsiz o'lib ketdi-ya, deb eslashdi. Keyin gap quturgan xo'tiklarga, ulardan sekin-sekin quturgan itlariga o'tdi. Lekin G'uchchi cholga yetmadi, shart uzilib qoldi. Endi hammaning o'yi G'uchchi cholda edi. Faqat birovi gapirgani ham jura't qilmadi. Nihoyat, mulla Sunnatning o'g'li Nazar Maxsum chidab turlomadi, ko'nglidagini aytdi: "Tamom! - dedi u. - Endi G'uchchingin bolasi zanjir izlasin!.."

Shu gapni yetkazishganda G'uchchi chol avval beg'arazgina koldi, keyin jiddiy tortdi, Nazar Maxsumni "yag'ir xo'tikcha", deb atadi, keyin yana bir marta, bu gal sal og'rinibroq koldi.

Nazar Maxsumning bashoratidan keyin odamlar G'uchchi cholning uyiga serqatnov bo'lib qolishdi. Kimsa borki, kelib, undan hol so'raydi. Shundan G'uchchi chol sal sergak tortdi. Avval u itning qopganini o'ziga o'y qilib o'tirmagan edi: endi bu bir it, it bo'lgandan keyin itligini qiladi, huradi, qopadi... Yarasi ham arzi-mas edi, bitib ketar, dedi-yu, do'xtirga ham bormadi. Endi qarasa, yo'q, hech bo'lmaydigan, hamma uni ko'rgali kelyapti, keladi-yu, biror sinoati bormikin, rostdan ham quturganmikin, deb ko'zlaringaga qarab turadi. Ular gap so'raydi, sen bo'lsang, xuddi aybdorday, tiling kalimaga kelmaydi, go'yo seni rostdan quturgan it qopgan-u, lekin sen nomardlik qilib shuncha kelgan musulmonni aldab o'tiribsan! E, munaqada quturgan it qopmasayam quturib ketasan!..

G'uchchi chol oshnasi Ibodullo Maxsumga gap soldi: "Siz yonimda o'tirsangiz, Maxsum, - dedi u. - Siz bo'lsangiz, kelgan birov menga oshirib gapirolmaydi..." Ibodulla Maxsumning to'moqda oz-moz ishlari bor edi, lekin jo'rasining sazasini o'ldirolmadi. Xotini bilan andak g'ijillashib olgach, G'uchchi cholning uyiga jo'nadi.

Mana, to'rt kundirki, do'stining uyida kunni kech qiladi. U kelgandan keyin mehmonlar ham juda ozayib qoldi. Kelgani ham it-

dan emas, boshqa chet-chaqadagi narsalardan gapiradi. Birovlari mutlaqo gapirmaydi, tiliga tushov tushib, Ibodullo Maxsumning rivoyatlarini eshitadi, keyin hech gap-so'zsiz, ko'ngillari qisir bo'lib qaytib ketadi.

Payshanba kuni odamlarning qadami uzildi. Kechgacha behuda mehmon kutdilar, keyin, shom mahali, Ibodullo Maxsum aytdi: "Mening mehmonligim cho'zilib ketdiyov, aka?" G'uchchi chol yurak oldirib qo'rgan ekan, ko'nmadi: "Yana ikki kun mehmon bo'p keting, Maxsum", deb yalindi. Ibodullo Maxsum o'ylab qarasa, oshnasi haq, hozircha hol so'rab kelganlarning hammasi qiziqqanidan kelgan, qasd qilganidan emas. G'uchchi quturgan mish degan mish-mishni eshitgan-u, ichiga sig'dirib o'tirolmagan. Ibodullo Maxsum bu gapni kim tarqatganini bilolmay garang edi. Uzunquloq gap kimningdir og'zidan chiqqandirki, ulusning orasiga tushibdi? Tarqatgan odam bo'lmasa, mish-mishni Xudo tarqatadimi? Yo'q, u hali keladi. Kelmasdan, G'uchchi cholning ahvoliga maza qilib tomosha qilmoqdan boshqa iloji yo'q - ichi qarolarning taomili shu.

Ibodullo Maxsum kutgan odam shanba kuni choshgohda keldi. Bu zamon ikki oshna bog'ning to'ridagi chorpoyada qiroat qilib o'tirardi. G'uchchi chol kelgan odamni sezmedi, lekin Ibodullo Maxsum sergakroq edi, darchaning ochilganini eshitdi-yu, o'qiyotgan kitobidan boshini ko'tardi. "Keldi, aka, - deb shivirladi u. - Kellarini biluvdim, aka". G'uchchi chol darcha tarafga qaradi, qaradi-yu, To'raboyni ko'rdi. "Ketmang, Maxsum, - dedi u oshnasiga. - Bu dayus yomon, menga zo'rlik qiladi..."

Darchadan kirgan odam, ya'nikim To'raboy jussasi kichik, dumaloqqina bir odam edi. Yuzi qora, soqoli oppoq, soqoli oqligidan yuzi battar qora bo'lib tuyuladi. Mulla Doniyorning aytishicha, bu odamning ichidagi qorasi yuziga tepgan ekan. Keyin u ikki dunyodan ham umidini uzgan bir do'zaxi ekan, oxirati yo'qligini o'zi ham bilarkan, shu barobar, musharraf jannat musulmon bandalarning ko'zlariga o'zgacha bir qabohat bilan, ya'nikim, ilon avrash qilib tikilarkan... Qabohati bormi, yo'qmi va magar bo'lsa, nechog'lik va ne turfa, bunisini Xudo biladi, lekin To'raboy tikilishning hadisini olgan - ixlos bilan tikilsa, o'tirgan joyingga mixlab qo'yganday

bo'ladi. O'ziyam qarashining zo'riligini biladi, chini bilan tikilsam, toshni yoraman, deb o'ylaydi.

Xullas, shanba kuni choshgohda To'raboy keldi. G'uchchi chol bilan Ibodullo Maxsum uning istiqboliga chiqmadi. Uchovi ham iyaklarini silkitib, soqolsalom qilgan bo'lishdi. To'raboy xashaki olmalar ostidan yo'lakhadan mayda qadam bosib keldi. Chorpoya yonida turgan oftobadan suv quyib, belbog'iga artindi. Peshvozning sovuqligidan ko'ngli lat yedi, lekin sezdirmedi, qaytaga o'ziga o'zi suv quya turib jilmaygan bo'ldi. Keyin qo'l artgan qiyiqchasini chap yelkaga tashlab, chorpoyaga chiqdi. Ibodullo Maxsum andek surilib, bo'shatgan joyda chordona qurib, yuziga fotiha tortdi-da, biqiniga bolish oldi... Bir muddat jim o'tirishdi. Keyin G'uchchi chol sekin gap ochdi:

- Keling, To'raboy, - dedi u sekin.

- Keldik, - dedi To'raboy.

- Nega keldingiz? - deb so'radi Ibodullo Maxsum.

Bu xil navozishdan so'ng G'uchchi chol o'zining mezbongini esladi. O'ng tarafga qo'zg'algan bo'lib Ibodullo Maxsumning o'ngiridan sekin pastga bosdi. To'raboy buni ko'rib turdi, lekin ko'rmaganga olish o'ng'ayroq edi - ko'rmaganga oldi. Bir ko'ngli Ibodullo Maxsumga bosibroq tikilmoqchi bo'ldi, lekin uning ters o'g'irilib o'tirganini ko'rib, dog'da qoldi.

- Keldik, - dedi u sal turib.

- Hech ko'rinmaysiz, To'raboy? - deb so'radi G'uchchi chol.

- Kecha bozorda ham ko'rinmadingiz. Kasal bo'p qoldimi, deb o'yladik.

- Men kasal bo'lmayman, - dedi To'raboy.

- Sog' odamning hammasi bozorga boradi, - dedi G'uchchi chol.

- Ish ko'p, - To'raboyning javobi muxtasar bo'ldi.

- Ishlayapman deng?... - gapga qo'shildi Ibodullo Maxsum. - Hech bir tinmadingiz-da, To'raboy! Mana biz, akam bilan qiladigan ishimiz yo'q, o'tgan-ketgandan gaplashib o'tiribmiz.

- O'tgan-ketgandan gapirgan yaxshi, - dedi To'raboy, keyin G'uchchi cholning cho'pon tagiga yashirilgan qo'lga tikilibroq qaradi. - Machitdan kelyapman. Machitda bir xil gaplar bo'ldi.

- Ibodullo Maxsum To'raboyning quturgan itdan gap ochishi tayinligini sezdi-yu, gapni boshqa tomonga burdi:
- Machitda odamlar gaplashmaydi, To'raboy, machitda namoz o'qishadi.
  - Yo'lda gaplashdik, - dedi To'raboy. - Machitda namoz o'qidik, gapni yo'lda gaplashdik.
  - Munisi boshqa gap, - dedi Ibodullo Maxsum. - Magar gaplashgan bo'lsangiz, yolg'iz emas ekansiz. Yana kimlar bor edi?
  - Hammasi bama'ni odamlar, - dedi To'raboy.
  - Kim ekan? - qiziqsindi Ibodullo Maxsum.
  - Mulla Nishon, - dedi To'raboy, - keyin Nazar Maxsum bor edi.
  - Mulla Nishon savodsiz odam, - dedi Ibodullo Maxsum. - Haftiyakni bitirmay madrasadan qochib kelgan. Nazar Maxsum yolg'onni ko'p gapiradi, muning ustiga to'ng'iz go'shti yegan.
  - Yo'g'e, u to'ng'iz go'shti yemagandir, Maxsum, - G'uchchi chol oshnasining niyatini anglamadi chog'i, sekin e'tiroz qildi. - To'ng'izning go'shti harom-ku, Maxsum!..
  - Nazar Maxsum to'ng'iz go'shti yegan, - o'jarlik bilan takrorladi Ibodullo Maxsum.
  - To'ra Qora yengilganini payqab, talvasaga tushdi.
  - Mulla Doniyor bor edi, mulla Doniyor bama'ni odam-ku! - dedi u fig'onni chiqquday bo'lib.
  - Mulla Doniyor bama'ni odam, - dedi Ibodullo Maxsum. - Lekin u indamay o'tirgan. Mulla Doniyor ahmoq odamlarning gapiga qo'shilmaydi. O'zingiz aytin, u sizga gap qo'shdimi?
  - Men gapirganim yo'q, - dedi To'raboy.
  - Balli! - dedi Ibodullo Maxsum. - Odamlarga gap bo'lsa bas, yo'qdan yo'ndirishadi. G'uchchi akamni mo'ltovidan adashib qolgan bir tozi andak tinaganday bo'luvdi, shuniyam gap qilishgan chiqar?..
  - Gap qilishdi, - To'raboyning tan olishidan o'zga chorasi qolmagan edi. - Har kim har xil gapiradi, Maxsum. Lekin men gap qo'shmadim.
  - Ma'qul, bu ishingiz ma'qul, To'raboy!.. - Ibodullo Maxsum uni maqtab qo'ydi.

Maqtov To'raboyga ko'p yoqmadi. Ichida, meni go'dakka o'xshatib laqillatdi, degan xayolga bordi, jahli qo'zg'adi. Ibodullo Maxsum uning tek qolganini ko'rib, endi xavf o'tdi, degandek, oshnasiga qarab iljaydi. G'uchchi chol buni rag'bat tushunib, yara-dor qo'lini choxon chokidan chiqardi. To'raboy uning salla yirtig'i bilan o'ralgan qo'lini ko'rdi. Ko'zlarida bir nima yilt etganday bo'ldi-yu, tag'in o'chdi. G'uchchi chol o'zining sal shoshganini payqadi. Lekin endi qo'lni qaytadan yashirish foydasiz edi...

\* \* \*

- G'uchchi chol quturmaganini ko'rsatmoq istab, o'zicha bama'ni gaplardan gapirmoqchi bo'ldi. Lekin bama'ni gap deganlari hadeganda tiliga kelavermadi. Shunda u yarasi arzimastligini namoyish qilmoq bo'lib, chap qo'li bilan ko'rpachaga tayandi. Qo'li qattiq og'ridi. Shunday og'ridiki, manglayiga sovuq ter chiqib ketdi. To'raboy uning ahvolidan ogoh bo'lib, mamnun iljaydi, so'ng, tag'in jiddiy tortdi, kishi bilmas quvunch bilan hol so'radi:
- Yomon tishladimi, akam? Tishiyam ancha botgandir?..
  - G'uchchi chol bezovtalandi.
  - Itning nasli yomon ko'rilmovdi, - dedi G'uchchi chol, - ayb blazning o'zimizdan o'tdi.
  - Nima balo, siz o'zingiz tishlagin, deb aytdingizmi?
  - Yo'q, - dedi G'uchchi chol. - Tishlagin, deb aytganim yo'q, lekin tishladi.
  - Quturgan it gapni bilarmidi!..
  - G'uchchi chol bu gapni javobsiz qoldirdi.
  - It quturmagan, yaxshi it, - dedi Ibodullo Maxsum.
  - Bo'lmasa, nega tishlaydi? - To'raboy baralla kulib so'radi.
  - Mana, G'uchchi aka, qarang, qo'lingizni boylab olibsiz. Itning qogani rostdirki, siz qo'lingizni boylabsiz?..
  - Maxsumning sallasi... - dedi G'uchchi chol.
  - Ibodullo Maxsum o'ng'aysizlandi. G'uchchi choldan sal norozi bo'ldi. Uning boshiga o'raganidan bo'lak, uyda yana uchta sallasi bor edi. Oshnasini tozi qopgan kuni buxori sallasidan bir bo'lak yirtib boylagan, lekin buxori sallamdan yirtib boylayapman, deb hech o'ylamagandi.

- Gap salladami, aka? - dedi u sekingina.

G'uchchi chol indamadi. Maxsumga qarab ma'yus jilmaydi. Ko'zlari ozgina yoshlanganday bo'ldi. "Ko'ngli bo'sh odamman", deb o'yladi u, lekin ko'ngli bo'shligidan uyalmasdi, qaytaga ichi yorishib ketganday bo'ldi.

- Siz ko'p kuyunavermang, To'raboy, - dedi Ibodullo Maxsum. - Har kim o'z aravasini o'zi tortadi.

- Oq qo'yniyam, qorasiniyam o'z oyog'idan osishadi, - dedi To'raboy.

- Yaxshi gap bilan ilon inidan, yomon gap bilan musulmon dinidan chiqarmish, - dedi Ibodullo Maxsum.

- Ilonni yomon ko'raman, - dedi To'raboy.

- Men ko'rgan yerimda boshini tosh bilan urib, yanchaman, - Ibodullo Maxsum sal qizishdi.

- Ayamang, Maxsum!.. Lekin ilon deganingiz ham Xudoning yaratgan maxluqi.

- Xudo ilondan kechgan, - Ibodullo Maxsum bo'sh kelmasdi. - Shayton uning og'zidan kirib, dumidan chiqib ketgan.

- Qayerda? - To'raboy isbot talab qildi. - Aytang, qayerda?

- Jannatning darbozasida, - dedi Ibodullo Maxsum. - Ilon bilan tovuq qorovul turgan joyda.

- Baribir ilon Xudoning maxluqi, - dedi To'raboy.

- To'raboy, asli sovuq odamsiz-da!.. - dedi G'uchchi chol. - Ilonni himoya qilganingiz nimasi!..

G'uchchi chol asli soddaroq odam edi, umrida birorta zarbul-masal yozmagan, zarbulmasal qilib gapirishlarini ham ko'p anglamasdi. Bu gal u nimanidir anglaganday bo'ldi, anglaganday bo'ldi-ku, lekin ichiga sig'dirib turolmasdi. Ko'ngliga kelganini aytdi. Aytib bo'lgach, sal oshirib yubormadimmikin, deb o'ylanib qoldi. Keyin, agar sal oshirgan bo'lsam, To'raboyini ozgina silab-siy-pashim kerak, degan niyatga bordi.

- Otangiz yaxshi odam edi, - dedi u biroz turib. - Men u kishini yaxshi bilaman, bugungiday esimda turibdi!..

- Sizning otangiz ham zo'r odam edi. - To'raboy, garchi u G'uchchi cholning otasini ko'rmagan ersa-da, tantilik qildi. - U kishini zo'r sakboz deyshardi.

- Xudo bir uloqni yaratmish, unga atab bir tup shuvoqni, - dedi Ibodullo Maxsum.

G'uchchi chol oshnasi o'zini uloqqa mengzaganidan og'rinmasdi, aksincha uning gaplarini ma'qullab bosh irg'adi.

- Mening birovga ziyonim tegmagan, - dedi u. - Uyda bitta kafanligim bilan tablada bitta otim bor.

- Otingiz yugurikroq, shunisidan qo'rqaman, - dedi To'raboy.

- Yaxshi ot egasini ranjitmaydi, - dedi G'uchchi chol. - Mening otim yuvvosh, ustini xuddi taxtiravon deysiz!..

- To'raboy otni bilmaydi, - dedi Ibodullo Maxsum, - siz buyoqdan buqalarni so'rang, bostirmasida uchatasi boylog'liq turibdi.

- Baribir, ehtiyot bo'ling, G'uchchi aka, - dedi To'raboy. - Yiqitib ketsa chatoq bo'ladi, qariganda suyakning bitishi qiyin!..

- Go'rga piyoda bormasman, - dedi G'uchchi chol.

Keyin u chorpoyna ustida g'oz turib, hovlining narigi burchigga ovoz berdi. Zum o'tmay, Ergashning ikkita qizalog'i choy keltirdi. G'uchchi chol Ibodullo Maxsumning piyolasini o'zi taraf olib, choynakning ikkinchisini To'raboyning oldiga surib qo'ydi.

- O'zingiz bir maydalaysiz!..

To'raboy choyini qaytardi. Bir-ikki ho'plam ichib, G'uchchi cholga yuzlandi:

- Kampiringiz ko'rinmaydi?

- Bizning kampir sal pastroq, - dedi G'uchchi chol. - Bir hafta burun hovlidan chiqib ketgan. Shu, mening o'zimga qolsa!..

- Nevaralarimdan tag'in ranjibdi-da, aka? - Ibodullo Maxsum sal chaqqonlik qildi.

- Men G'uchchi aka bilan g'ijillashibdimi, deb o'ylabman, - dedi To'raboy.

- Yo'q, nevaralar bilan, - dedi G'uchchi chol. - Menga gap qaytarib ko'rsin-chi!..

Aytgan yolg'onidan o'zi ham qizardi. Ko'rpacha chetida yotgan sochiqni olib, bir-ikki yelpingan bo'ldi.

- Kun sal dim keldi, - dedi Ibodullo Maxsum.

- Ha, Maxsum, kun dim keldi, - G'uchchi chol uning gapini tasdiqladi.

- Mening mijozim sovuqroq, - dedi To'raboy. - Men dimligini sezmadim.

- Siz hali yoshsiz, To'raboy, - dedi Ibodullo Maxsum. - Siz hali buni sezmaydiz.

To'raboy piyolasini yerga qo'ydi-yu, G'uchchi cholga tikildi. Unisi ikkita qarq'ashoyi gulli piyolani yonma-yon tizib, quygani choynakni ko'tardi, lekin shu tobda ko'zlari To'raboyning sinchkov nazariga duch kelib, bezovtalandi, choynak tutgan qo'lga titroq kirdi. Choy choynakning jo'mragidan dasturxon ustiga to'kilaverdi.

- It quturgan emasdi, - dedi u titrab-qaqshab. - Tozi edi, biz o'zimiz unga ozor berdik, boylab olmoqchi bo'ldik...

- Choydan bosibroq iching, yengil tortasiz!..

- Ichaman, To'raboy, mana, ichyapman-ku!..

G'uchchi chol sal garangsidi. Ibodullo Maxsum o'tirgan joyida bir-ikki g'imirladi, lekin biron narsa demadi. To'raboy - mehmon, uning o'ziyam mehmon, G'uchchi chol bo'lsa - mezbon edi.

G'uchchi chol oshnasining piyolasini to'ldirishni unutib, faqat o'ziga qo'ydi va atay xo'rillatib icha boshladi.

- Men choyga ko'p o'rganmaganman, - dedi u. - Yilqining ortidan ko'p yurganmiz, ko'zaning suviga o'rganib qolganmiz.

- Yilqidan gapirmang, G'uchchi aka, - dedi To'raboy. - Bitta toy kamomad qilgansiz.

- Yo'q, - deb e'tiroz bildirdi G'uchchi chol. - Men umrimda kamomad qilmaganman. Uyurim doim tus-tugal bo'lardi.

To'raboy aytayotgan bo'z toyning tarixi uzun edi. Uni G'uchchi chol Payshanbaning bozoridan sotib olgan. Odamlar uyuridan o'maribdi-da, deb o'ylamasligi uchun, bo'z toyga qo'shib, yana bit-ta qari baytalni ham ikki barobar qimmatiga savdo qilgan-u, yetaklab kelavergan. So'ng biror oylar chamasi shu yag'ir baytalni minib guzar aylangan, guzarda duch kelgan ismi mardunga: "Yaxshi baytal, zotli, zotli-ku, lekin yoshdan qolgan, chanochoqda quluni tablada turibdi", deb gap uqtirgan. Gapiga birov ishonmagan. Bo'z toy o'sha qirchang'i baytalga o'xshamasdi - hurkak, tolmabo'yin bir toychoq edi...

- Xudo begunoh qulunning payini qirqqanga hech ro'shnolik bermasin!.. - dedi Ibodullo Maxsum.

Ikki oshna baravar yuzlariga fотиha tortishdi. To'raboy ularga qo'shilmadi, ma'yuslandi... Aslida uning gunohi ko'p emasdi. Aksiga olib, o'shanda yo'ng'ichqa ayni gulga kirgan mahali edi. Agar toychoq shu gulga kirgan yo'ng'ichqani payhon qilimaganida, balki payi ham qirqilmagan bo'lardi. Buning ustiga, gulga kirgan yo'ng'ichqa payhon qilingan kecha sutday oydin edi, agar kecha sutday oydin bo'lmaganida, balkim, bo'ztoyni birov ko'rmagan ham bo'lardi... To'raboy keyinchalik payi kesilgan toychoqqa ko'p achindi. Lekin bo'lar ish bo'lgandi: bo'ztoy yo'ng'ichqani payhon qilgandi, yo'ng'ichqa esa, endi gulga kirgan edi, buning ustiga, kecha oydin edi, bedapoya uvatida yotgan chalg'ining o'tkir tig'i ham shu oydinga o'zgacha bir yaltirab ko'ringan edi...

- Maxsumga balli, - dedi G'uchchi chol. - Shu toyni odam qildi. Payini yamagani qurbi yetmadi, lekin...

- Qo'ying, aka, - dedi Ibodullo Maxsum. - Qo'ying, gapirmang...

- Gapiraman, - dedi G'uchchi chol. - Axir, siz uni aqalli bir marta minmagandirsiz!..

Uning gapida biror xilof joyi yo'q edi. U o'sha bo'z toy toki ot bo'lib, keyin o'z ajali bilan ketganiga qadar biror marta ustiga egar bosmagan edi. Bo'z toy, keyinchalik xomsemizroq (u chopmaslikdan semirib ketgandi) ot, bir umrga oqsab qoldi. Ibodullo Maxsum shu oqssoq otni yetaklab yurishni yaxshi ko'rardi. Ayniqsa, To'raboyning ko'k temir darvozasi yonidan o'tishni yaxshi ko'rardi. Odamlar uning cho'loq otga bo'lgan mehrini ko'p tushunmadi, birovlar hatto g'alatiga chiqardi, savdoyi atadi...

Ibodullo Maxsum birovdan ortiqcha gumon ham qilgani yo'q. Bor-yo'g'i ikki marta guzardan toy yetaklab o'tdi, xolos. Keyin... yakshanba kuni bo'z toyni yetaklab bozordan qaytayotgan To'raboy bilan yonma-yon biror yuz qadamcha yurib ko'rdi, uning rang-ro'yiga, oyoq olishiga razm soldi-yu, hamma gapni payqadi. Mana, biror o'ttiz yildirki, u bilan To'raboyning orasida bittagina sir botin yashaydi. To'raboy tashvishi ko'p odam - ba'zida haligirni sirni unutib qo'yadi, qo'lga erk beradi, tiliga erk beradi. Lekin Ibodullo Maxsum xudolig'ni unutmagan, insofni biladi, olijanoblik

qilib, eski, unutilib ketay degan sirmi qaytadan To'raboyning esiga soladi.

- Men mudiriligimda ikki tonna arpa kamomad qiluvdim, - To'raboy birdan pastga tushdi. - Bunaqasi bo'p turadi, aka...

- Bilmadim, - dedi G'uchchi chol. - Men umrimda kamomad qilmanman.

- Mening aybim kamomadim, sizniki shu bitta - toy...

- Balkim, meningam aybimni aytarsiz? - deb so'radi Ibodullo Maxsum.

To'raboy kalovlanib qoldi. Uning baxtidan bo'lib hovli darvozasidan G'uchchi cholning o'g'li Ergash kirib keldi. Chorpoyadagilar bilan uzoqdan bosh iring'ab salomlashdi. So'ng, astoydil tikilib, To'raboyni tanidi-yu, qiziqishi ortdi. Lekin u chor-poyaga kelib ulgurmadi. Ochiq qolgan darvozadan jikkakkina bir g'unajin kirib, so'ramay-netmay, o'zini kampir o'tqazgan kichkina gulzorga urdi. G'unajinning shahdi baland edi - qo'yib bersa, kam-pirning gulzorini ship-shiydam qiladigan. G'uchchi chol avvaliga hay-haylashga chog'landi, lekin sal turib, fikridan qaytdi. "Battar bo'lsin! - deb o'yladi. - Qariganda gul ekishni unga kim qo'yibdi, chalpakka o'rab otsang it yemaydi-ku, yana xina bilan rayhon ekkaniga o'laymi!.."

Ergash shart ortiga qayrilib, qo'lga tayoq oldi va yugurib kelishda g'unajinning quymichiga kaltak soldi. Ibodullo Maxsum jonivorming kaltak yeganini ko'rmayin deb, ko'zini chirt yumdi. G'uchchi chol indamadi, ichida Ergashni so'kdi. "Sadqayi mol ket!" To'raboy bo'lsa, chorpoyada cho'kkalab oldi-da, Ergashga pishang bera boshladi:

- Ha, domullo, uring! Padarlar natini yaxshilab uring!.. Urib oyog'ini sindiring, domullo! Shoxiga, shoxiga uring! Qaytib birovning tomorqasiga kirmaydigan bo'ladi... Biqiniga, och biqiniga uring! Og'rimaydigan joyiga uring!.. O'roq-po'roqdan yo'qmi, domullo? Olib, biqiniga sanchimaysizmi, axir?! Bo'shshamang, domullo, uring, savilni uring!..

Ergash To'raboyning baqirig'idan bezor bo'ldimi yoki o'zining ham rahmi keldimi, g'unajinga qaytib tayoq ko'tarmadi. Bir-ikki po'pisa-yu do'q bilan g'unajinni darvozaga qaratib haydadi.

G'unajin darvozadan beriroqda o'sgan bir tup semiz supurgini tomir pomiri bilan qo'porib, ko'chaga qochib chiqdi...

- Yaxshi g'unajin, - dedi To'raboy qaytib o'tirgach. - Mamasolining g'unajini. Sal ovchiligi bor, biroq urib o'ldirmasa, yaxshi sigir bo'ladi.

- Qisir qolgan, - dedi Ibodullo Maxsum. - Yanagi yili yana qisir qoladi. Oyoq olishi yomon buning...

- To'raboyda uchta buqa bor, shunga oborsa bo'larkan, - dedi G'uchchi chol.

- Opkeluvdi, - dedi To'raboy. - Lekin buqaning haqini bermadi.

- Siz sigir boshiga necha puldan olasiz? - deb so'radi Ibodullo Maxsum.

- Uch so'mdan, - dedi To'raboy. - Buqalarning yemishiga kerak.

- Buqa arab savob ish qilasiz, - dedi G'uchchi chol.

- Har kimning ko'ngli tusagani, - dedi To'raboy. - Mana, akam, akam ot asraysiz, men buqa asrayman.

- Akam otni ko'ngil uchun asraydi, - dedi Ibodullo Maxsum. -

Siz buqani bo'rdoqiga asraysiz. G'uchchi akam otini o'zi boqadi, siz buqalarni hech boqmaydiz. Boqasiz-ku, lekin o'zlarining topgan puli hisobiga boqasiz.

- Har kimning ta'bi, - dedi To'raboy. - G'uchchi akam ot asraydi, men buqa asrayman.

- Buqani minib bo'lmaydi, - dedi Ibodullo Maxsum. U negadir shu topda To'raboyni kamsitishni istab qolgandi.

To'raboy bu gapga e'tiroz bildirolmadi.

- Hindular ho'kiz minarmish... - sekin gap qo'shdi G'uchchi chol.

- Baribir, ho'kiz otday chopolmaydi, - dedi Ibodullo Maxsum, so'ng oshnasiga ranjibroq qaradi. - Shu, aka, hindu bilan tuyaning farqi o'zi kam, qilgan ishining hammasi teskari bo'ladi...

\* \* \*

G'uchchi chol darvozani berkitib kelayotgan Ergashni ko'rib, chorpoyadan turdi, keyin ota-bola uzoqroqqa, bog'ning to'ridagi xashaki olmalar tagiga o'tishdi.

- Xo'sh, ota?.. - deb so'radi Ergash.

U muallim edi – so'roq so'rganida chap qoshi xiyoligina ko'tarilib tushardi.

G'uchchi chol indamadi. Ergash boshqa gap so'rashdan imyandi, ko'zlarini chang yuqqan poyabzaliga bir muddat qadab turdi, so'ng yerda yotgan eski boltani olib, olmaning ayrisiga qistirdi.

– Sen menga bunday gapirma, – dedi G'uchchi chol. – Hali yoshsan. Men gapirsam yarashadi... Qachon manavi olmalarni qirib tashlaysan?! – kutilmaganda baqirdi u. Ayriga qistirilgan boltani olib, daraxt tanasiga soldi. Bolta o'tmas edi, lekin G'uchchi chol andog' urdikim, zarbning kuchidan olmaning oq-sarg'ish tanidan bir parchasi ochilib qoldi. – Nima, boltaniyam o'zim charxlab beraymi?

– O'zim charxlab olaman, – dedi Ergash.

Ota-bola ozroq tumtayib turishdi. Keyin Ergash gap qotdi:

– Menga bir gapingiz bormidi, ota?

G'uchchi chol unga o'qrayib qaradi. O'g'li hozir o'y o'ylashga xalal berardi.

– Salomingni ayamasang bo'ldi, bolam, – deb achitdi u.

– Mehmoningiz bor ekan... – Ergash mojaroning bemavridligini eslatishga urindi.

G'uchchi cholga uning pisandasi hech yoqmadi.

– Hm... – dedi u.

– Charchadim, ota, – dedi Ergash.

– Charchabsan-da? – o'smoqchiladi G'uchchi chol. – Nima, laylak haydadingmi, o'g'lim?

– Kuchuk axtaladim!.. – Ergash o'zini tutib turolmadi, portlab ketdi. – Nima qilasiz tergab?

– Men seni tergadimmi hali?.. – G'uchchi chol miyig'ida iljaydi.

– Bo'lmasa nima? – Ergashning chap qoshi yana xiyol ko'tarildi.

– Qoshingni kerma, – dedi G'uchchi chol. – Nega qoshingni kerasan? Xotinga yarashadi! Erkakmisan o'zi? Enang o'g'il tug'dim, deganday bo'luvdi-ku?..

Ergash og'rindi. Bir xayoli shart burilib ketish ham bo'ldi, lekin chol... "Chol xafa bo'ladi, – deb o'yladi u. – Keyin ikki dunyodaniyam qutulolmaysan..."

– Baxudo, – dedi Ergash, – Baxudo, ota, so'kinmang!..

– Tojikcha gapirma, – dedi G'uchchi chol. – Besh yil shaharda o'qib, menga topib kelgan gaping shu bo'ldimi?

– Ota!.. – dedi Ergash. – Mening sizga tili-jag'im tegmadi.

– Enangga o'xshaysan, – dedi G'uchchi chol. – Uyam tili-jag'idan gapiradi.

– Meni tinch qo'ying, ota, – yalindi Ergash. – Men sizga yosh bola emasman.

– Battarsan!.. – dedi G'uchchi chol. – Sen bilan gaplashib bo'lmaydi.

– Bo'lmasa gaplashmang!

– Oq qilaman!.. – do'q urdi G'uchchi chol.

– Bilganingizni qiling!..

G'uchchi chol Ergashning jahldan bo'g'riqqan yuziga bir muddat zavqlanib tikildi. "O'zimga o'xshaydi, – deb o'yladi. – Dag'alroq bo'lgani ma'qul, halimday eshilib tursa, buning erkakligi qoladimi..."

– Menga ko'p aql o'rgatma, – dedi u. – Xohlagan paytimda hovlidan quvib solaman.

Bunisi endi lalmi do'q edi, lekin Ergash cholning yumshaganini tushunmadi.

– Mayli, mayli, – dedi u. – Shu yerdan ketganim ma'qul. Meni sharma'nda qildingiz, ota!

– Ota, dema meni!.. – baqirdi G'uchchi chol, so'ng chorpoyada o'tirgan mehmonlarni o'ylab, birdan past tushdi. – Sen hali burningni terlatib non topib berganing yo'q... Bor, bitta uloqni so'yl!.. – bexosdan buyruq berdi u. – Xotiningga ayt, barini qozonga tashlasin!..

Ergash bu gapni hech kutmagan edi – angrayib turaverdi.

– Yo men o'zim so'yaymi? – deb so'radi G'uchchi chol. – So'yardim-ku, lekin ilojim yo'q, qo'l yaramaydi.

– Uyda go'sht bor.

– Uydagi go'sht ozlik qiladi.

– To'raboyga shuncha izzatmi? – deb so'radi Ergash.

– To'raboyga bo'lmay, Maxsumgami? – dedi G'uchchi. – Maxsum menga do'st odam, bir burda nonimgayam qanoat qiladi.

– Tuzuk, – dedi Ergash.

- Nimasi tuzuk?

- Tuzuk, - dedi Ergash tag'in. Boyagi jahldan asar ham qolmadi. Otasining chinqoqligini o'ylab, sal iljaydi ham. - Lekin uloqqa enam pul bergan-ku, ota?
- Enangning mahriini men berganman, - dedi G'uchchi chol. - Bor endi, mening aytganimni qil!..

\* \* \*

Biror uch soatlardan keyin, chollar o'tirgan chorpoyaga bir lagangan serpiyoz qovurdoq keltirishdi. Taomni Ibodullo Maxsum boshladi. Keyin To'raboy bilan G'uchchi chol ham yenglarini shimarib, laganga yaqinroq surildilar.

- Serpiyoz bo'пти, - dedi To'raboy katta bir luqmani qo'liga olib. - Men piyozni yaxshi ko'raman, Maxsum...
- Men piyozni yaxshi ko'rman, lekin baribir yeyman, - dedi Ibodullo Maxsum.

- Men ertalab uyda sho'rva ichuvdim, - dedi To'raboy. - Lekin uloq go'shti shirin, ko'ngil tortadigan bo'пти. Shu bir zamon bo'lsada, oyoqni uzatib yotib faqat uloq go'shti yesang!

- Hadeb uloq go'shti yegan maza qilmaydi, - dedi G'uchchi chol. - Jonga tegadi. Mana, men oshniyam yaxshi ko'raman.
- Baribir, oshning tagiga uloq go'shtidan bosasiz, - deb e'tiroz bildirdi To'raboy.

- Molning go'shtiyam bo'laveradi, - dedi Ibodullo Maxsum.

- Manzar polvon guruchli taom yemaydi, - dedi G'uchchi chol. - Yesa, tomog'iga tiqilib qoladi. Birovlar osh yeganda yetimchaday qarab o'tiraveradi. Keyin lagan bo'shagandan keyin tagida qolgan yog'ning yuqi bilan maxsisini moylaydi.

- Baribir moylarkan-ku, - dedi To'raboy. - Harna nafi bor-kul.. Lekin menga qolsa, doimo uloq go'shti yerdim.

- Kunora yeng, To'raboy, - Ibodullo Maxsum To'raboyning o'jarligini ko'p yoqtirmadi. - Bo'lmasam, bo'kib qolasiz. Uyingiz do'xtirdan olis. Do'xtirga opketsa, buqalarga kim qaraydi?

To'raboy qaltisroq gapirmoq bo'lib, qo'lini dasturxondan tortdi. Lekin qovurdoqni ko'zi qiymadi. Chimirilgan o'siq qoshlari

tag'in yoyildi, bir qultum yaxna choydan simirib, laganga yaqinroq surildi.

- O'ldirsa, uloqning go'shti o'ldirsin! - dedi u xushhollik bilan.
- Ora-sira boshqa taomdan ham yeng, - dedi Ibodullo Maxsum. - Kelinga aytng, yalpizdan ko'proq qo'shsin. Yurakkayam, miyayayam foydasi bor.

- Mening yuragim tuzuk, Maxsum.

- Miyangiz-chi? - deb so'radi Ibodullo Maxsum.

To'raboy bu gapni eshitmadi.

- Yalpizning endi ikki quloq chiqargani durust, - dedi u.
- Yo'q, To'raboy, - dedi G'uchchi chol. - Yalpizning miyaga zi-yoni bor. Bizning ola mushuk shu yalpizdoridan ichib xarob bo'ldi.

To'raboy quvonib ketdi. G'uchchi cholni xuddi telbani tomosha qilgandek, alohida bir diqqat bilan ko'zdan o'tkazdi.

- O'ldiringizmi, ishqilib?

- Juda berahm odamsiz-da, To'raboy!.. - dedi G'uchchi chol ranjib.

To'raboy gapni o'ziga yuqtirmadi. Kuldi. Kulganida ustki labi jilyrilib, sarg'aygan milkari ko'rindi.

- Kulmang, To'raboy, - dedi Ibodullo Maxsum.

- Men kulmadim, Maxsum, o'lay agar, kulmadim, - To'raboy kulganini tan olmadi. - Akamning mushugi qiziq ekan-da o'zi!..

- Uyam Xudoning yaratgani, - dedi Ibodullo Maxsum. - Bizning mushuk haftasiga bittadan ilon o'ldiradi. Poylab turib, panjasi bilan bitta uradi - tamom, o'ladi-qoladi!

- Bijjiki pashtroqidi, Maxshum, - dedi G'uchchi chol g'o'ldirab. - Men shuni yebbo'vay, keyin...

- Yeng, aka osh bo'lsin! Yeb bo'lgandan keyin aytasiz.

G'uchchi chol og'zidagi luqmani yeb bo'lib, Ibodullo Maxsumga qaradi:

- Yeb bo'ldim, Maxsum.

- Endi gapiring, aka, - ruxsat berdi Ibodullo Maxsum.

- Bizning mushuk piyonista edi, Maxsum, - dedi G'uchchi chol. - Kampir yuragiga deb yalpizdori ichadi deng... Qayoqdanam mushugi tushmagur shunga o'rgandi. Kampir dorisini ichib yurganida tuzuk edi, bechora qolgan-qutgan yuqini yalab kun o'tkazardi.



Lekin kasofat qurumsizlik qilib dorisinyam ichmay qo'ydi. Keyin mushukning miyovlab behuzur bo'lganini ko'ring!..

- Ih!.. - dedi Ibodullo Maxsum. - Men mushukni munchalar bo'lar deb o'ylamovdim!

- Bo'larkan-da, Maxsum, - dedi G'uchchi chol. - Bahor payti ariq labiga tushib, balchiqdan endi bodrab chiqqan yalpizni panjasi bilan o'ziga qayirib oladi, keyin tepadagi ikki quloqchasini kurt-kurt qilib yeydi. Necha marta ariqqa tushib ketdiyamki, yana qaytib boradi!.. Bo'imasam mushuk deganingiz suvdan qo'rqadi.

- Quturgan odam ham suvdan qo'rqadi, - dedi To'raboy.

Jim qolishdi. G'uchchi chol hikoya bilan ovora, tuzukroq ovqat ham yeyolmadi, battar ochiqqanini sezdi, lekin shuncha gapdan keyin maosh qilishni o'ziga ep ko'rmay, qo'lini dasturxon chetiga artidi. Ibodullo Maxsum ham o'zini tiydi.

To'raboy laganning ko'p buzilmagan chetini o'ziga qaratib, ish-taha bilan yeya boshladi. Yegandayam chapillatib yedi. Boya gap ustida ko'p sezilmagan ekan, hozir eshitib, Ibodullo Maxsumning g'ashi keldi.

- Chapillatmang, To'raboy! - dedi u toqati toq bo'lib.

To'raboy bunisini kutmagandi - og'zidagi og'zida, bo'g'zidagi bo'g'zida qoldi. Qaytarib tashlay desa - oldida dasturxon, chay-nab yutay desa, bunisiyam og'ir. Bechora bir muddat baqrayib qoldi. O'zigayam ko'p ta'sir qildi. Nihoyat, og'zidagi luqmani chaynamay-netmay, bir amallab yutdi. Ustidan bir piyola yax-na choyni ko'tarib, Ibodullo Maxsumga sanchibroq tikildi. Lekin Ibodullo Maxsum G'uchchi cholga o'xshagan chidamsiz emasdi, To'raboyning ko'zlariga kulib qaradi.

- Men sizga aytсам, Maxsum, - deya gap boshladi To'raboy.

- Aytng, To'raboy, armoningiz qolmasin, - dedi Ibodullo Maxsum.

- Ovqatdan keyin aytса nima bo'ladi, Maxsum? - deb so'radi G'uchchi chol. U o'zining mezbongligini unutilmay garang edi. - Xo'p deng, Maxsum, shuni ovqatdan keyin aytсин.

- Mayli, hozir aytaversin.

- Men yoshroq bo'lganimda, sizni bir urardim, Maxsum, - dedi To'raboy.

- Menga G'uchchi akam yordam berardi, - Ibodullo Maxsum gapni hazilga burmoqchi bo'ldi.

- To'g'ri, - dedi G'uchchi chol. - Meni Juman g'alcha o'g'il-lari bilan qo'shilishib urgan. U paytda Maxsum Buxoroda o'qib yurardi.

- Ming o'qigani bilan, baribir mullalik qilolmadi, - dedi To'raboy.

- Qilolmadim emas, qilmadim.

- Baribir, Maxsum, men sizni urardim...

- Menga bir qarang, To'raboy, - dedi Ibodullo Maxsum jahllanib. - Avliyoga atalgan uloqday holingiz bor, bir mushumdan ortmaysiz. Yoshlik paytimda bir ursam, sizni Sigirtepaning ortidan topib kelishardi!

- Uzoqasmikin? - deb so'radi To'raboy. - Siz asli nokas odamsiz, Maxsum. Menga hasad qilasiz!

- Hoy, To'raboy, siz kimsizki Maxsum sizga hasad qilsa!.. - dedi G'uchchi chol g'azabidan bo'zarib. - Siz Baxsumga ko'p ta'na qilmang!

- Qo'ying, aka, - dedi Ibodullo Maxsum. - Buning gapiga ko'p e'tibor bermang, bu kishi birovning payini qirqib turmasa bo'lmaydi.

To'raboy birdan pusib qoldi. Ne qilsa ham, payi kesilgan bo'z toy uning zaif joyi edi. Ba'zida To'raboyning o'zi ham shunga ajablanardi: endi odam deganing borki, dunyoga kelib gunohdan forig' bo'lmaydi. Sutday oq bo'lishning hech iloji yo'q. Bo'imasam, xudoga shukur, shu bo'z toydan boshqa ayblari ham oz emas. Lekin ularni hamma biladi. Ularni deb allaqachon sharmanda qilishgan. Qaytaga sharmanda bo'lganing ham durust, sharmandalik bir kun, bir oy, boringki, bir yil cho'zilar, keyin borib unut bo'lib ketadi. Ibodullo Maxsum shu bitta bo'z toyning gapini gap qilib olgan, ista-istaladi, istamasa - yo'q... Lekin haligi oshiqcha. Tilini sug'urib olgan kamlik qilar!.. Bir toychoqning xuni o'zi qancha, kesilsa, payi kesilibdi, shuni yashirding nima-yu yashirmading nima? O'zi-ku, shuni aytсанg, tinchishing tayin. Maxsumning shamalariga chidab yurgandan ko'ra, bir yo'la sharmanda bo'l-da, qo'yl..

To'raboy sharmanda bo'lishga ahd qildi.

- Birovning payini qirqqan yomonmi, Maxsum? - deb so'radi u.

- Bilmadim, qassob bo'p ko'rmaganman, - dedi Ibodullo Maxsum. U To'raboyning shum niyatini allaqachon payqagan edi.

- Aytaylik, G'uchchi akamning otining payini qirqsam nima bo'ladi? - deb talmovsiradi To'raboy.

G'uchchi chol eshitgan gapiga ishonmay, o'rimdan sapchib tirdi.

- Og'zingizga qarab gapiring, To'raboy! - dedi u. - Men otimni siz bilan qo'shib bitta tabлага bog'lamasman!

To'raboy tag'in amalga yetmadi. Dog'da qoldi. Ichida G'uchchi cholni so'kdi: "Galvars! Bilishniyam istamaydi!..." Keyin ko'zlarini G'uchchi cholning salla bilan chirmalgan yarador qo'lga tikdi:

- Qo'l endi ko'pkariga yaramaydi-ku, yurt og'asi!

G'uchchi chol besaranjom bo'ldi. Qo'lini chopon ostiga yashirmoqchi edi, bo'lmadi, oshnasi "qo'yaver!" degandek ishora qildi.

- Quturmagan bo'lsayam, qoqganini qarang! - dedi To'raboy. - Birovning zanjirdagi iti bo'lsayam bir gap edi, lekin u mo'ltionidan qolgan ekan. Mo'ltioni xalqi ahmoq emas, shaytonga dars beradi, sog'itni hech mahal tashlab ketmaydi, o'zi bilan opketadi!...

G'uchchi cholning yuragiga vahima tushdi.

- Men hech belgisini sezmadim, To'raboy, - dedi u.

- Birdaniga belgi nima qiladi! - G'uchchi cholning soddaligidan kuldi. - Sal turib belgi beradi-da, axir!.. Ishtahangiz ham yo'qolgan ko'rinadi. Bilsangiz, G'uchchi akam, quturgan itning ustidan g'alvirda suv elashadi.

- Men suvdan qo'rqmayman, To'raboy, - dedi G'uchchi chol. - O'zingiz ko'rdingiz, bemalol choy ichib o'tiribman.

- Endi bu bir misol-da, G'uchchi akam... - dedi To'raboy. - Agar yana bir misol opqarasak, mana, siz... biror kimsaga tish so-larmidingiz?

- E, men itmidimki, birovni tishlasam! - ajablandi G'uchchi chol.

- Men sizni itga mengzamadim, - dedi To'raboy. - Endi bir misol qilib gapirdim. Men birovni to'satdan tishlab olgingiz kelmaydimi, deb so'rayapman.

- Itga mengzamadim deysiz-ku, lekin tishlaging kelmaydimi, deb so'raysiz. Endi itga mengzaganingiz shu-da, To'raboy?

- Yo'q, bu gaplardan Xudo asrasin! - dedi To'raboy. - Minba'd bunday gapirmang!

- Bo'lmasa nima? - G'uchchi cholning daf'atan qahri keldi. - Men sizga bo'yinsa bo'lmasam, yoshim biror o'n yosh katta bo'lsa, to'nga menga bunday hazil qilasisiz?

- Men sizga hazil qilmadim.

- Bo'lmasa, chiningizmi bu? - deb so'radi G'uchchi chol.

To'raboy javob o'rninga qiqirlab kuldi. Shu paytgacha hurpayib o'tirgan Ibodullo Maxsum boshini ko'tardi.

- Siz akamning quturmaganiga hafasiz chog'i, To'raboy? - deb so'radi u.

- Xudo ursin! - To'raboy qo'shqo'llab yoqasini ushladi. - Agar shunday o'yilgan bo'lsam, tongga yetmay o'lay!..

- Akam qutursa, sizning suyunishingiz tayin, - dedi Ibodullo Maxsum. - Juman g'alcha akamni o'g'illariga qo'shib urgan. Siz shu odamning jivanisiz. Sizning suyunishingiz tayin.

To'raboy bunday keskin da'voni kutmagan ekan, ko'zlari pirlir-ir ucha boshladi. G'uchchi cholga madad so'rab tikildi.

- Juman g'alcha meni urgan, - dedi G'uchchi chol.

- Ursa u uribdi, mening aybim nima? - deb so'radi To'raboy.

- Juman g'alcha jonday tog'angiz edi, - G'uchchi chol unga aybini eslatdi.

To'raboy ko'p mulzam bo'ldi. G'uchchi chol haq edi. Yaxshimi, yomonmi, Juman g'alcha uning tog'asi.

- Alam qilyaptimi, To'raboy? - surishtirdi Ibodullo Maxsum.

- Alam qilyapti, - deya tan oldi To'raboy.

- Alam qilgan joyiga tuz seping, - dedi Ibodullo Maxsum.

To'raboy avval bo'zardi, keyin qizardi, o'zini har ne tutga-ll urindi-ku, ilojini topmadi, xunuk bir tirjayib, bori-yo'q zahrini to'kib soldi:

- Sizam quturibsiz, Maxsum!

Oradagi ilimibgina turgan ip chirt etib uzildi. G'uchchi chol Ibodullo Maxsumga yalt etib qaradi. Lekin Ibodullo Maxsumning yuzi qilt etmadi.

- Bir oyoqning chigilini yozsak, To'raboy, - deb taklif qildi u. - Yuring, bir oyoqning chigilini yozaylik.

To'raboy uni o'zicha tushundi.

- Yoshingiz bir joyga borib qolgan, Maxsum, - dedi u. - Sizni urish menga uyat..

- Boshqa gap bor, To'raboy, - dedi Ibodullo Maxsum.

To'raboy unga ishonqiramay qaradi.

- Shuni ertaga gaplashsak bo'lmaydimi, Maxsum?..

Ibodullo Maxsum tahqirli sukut bilan javob qildi. To'raboy noiloj chorpoyadan tushdi.

- O'zingizni kalishingizni kiying, - dedi Ibodullo Maxsum. - Meniki hali yangi, to'nga kiyib boradigan...

To'raboy battar kalovlandi, Ibodullo Maxsumning kalishini yechib, o'zining uvadarroq juffini oyoqlariga ildi. So'ng Ibodullo Maxsumga ergashib, boyagina G'uchchi chol bilan o'g'li Ergash gaplashgan joyga - qari xashaki olmaning tagiga bordi. To'xtadilar. Ibodullo Maxsum choponning barlarini qayirib, belbog'iga qistirdi, so'ng To'raboy tarafga bir qadam bosdi. To'raboy ortga tislandi.

- Hazillashmang, Maxsum, oxiri yomon bo'ladi, - dedi u, so'ng gapining isboti uchun ikki-uch marta yer depsindi.

- Quttugan it meni yam qopgan, - dedi Ibodullo Maxsum. - Sizam men bilan ehtiyotroq bo'p gaplashing.

- Hazillashmang, Maxsum, jahlim chiqsa, aqlim ketadi, - dedi To'raboy. - Joningizga rahmingiz kelsin, Maxsum!

- Bo'g'zingizdan bir tishlaymi, To'raboy? - deb so'radi Ibodullo Maxsum, so'ng rostdan tishlamoqchi bo'lganday, tishlarini takillatdi. - Xo'p deng, kekirdagingizdan bir tishlam uzib olay, To'raboy?

To'raboy cho'chidi. Yana ikki qadam ortga tislandi, tishlanish asnosida darvoza tarafga o'g'runcha qarab oldi. Negadir ko'ngliga ma'yuslik cho'kdi. Ibodullo Maxsumdan azbaroyi xafa bo'ldi chog'i, ikki marta chuqur xo'rsindi. Keyin uni chetlab o'tib, darvoza yo'naldi. Ibodullo Maxsum uning ortidan yurdi. To'raboy ildamladi. Ibodullo Maxsum ham qadamini tezlatdi. To'raboyning o'zi to'lagina, choponi taniga ham xiyol tor edi. Tezroq yurganidan keti chopon tagida qalpanglab borardi. Ibodullo Maxsumning xayoliga nogahon bir shum fikr keldi, iljaydi, bir-ikki bor o'zing o'ng oyog'iga, keyin To'raboyning ortiga qarab oldi. Lekin huz qalay oyoq ko'tarmadi - insof qildi. Garchi To'raboyning ortiga

tegman bo'lsa-da, shu o'yni o'zidanoq zavqlandi. Hatto, shu o'y barobarida ko'nglidagi ozmi-ko'p xusumatni ham unutganday bo'ldi. Go'yoki tepki bilan xusumat orasida hech bir aloqa yo'qday edi... "Tepging keldi, tepmoqchi ham bo'lding, lekin tepmading... Baribir, - deb o'yladi Ibodullo Maxsum. - Tepmoqchi bo'lganingning o'ziyam yaxshi. Odamning miyasiga shunday hayolning kelganiga qarang... Kekirdagingni uzib olaman deding-ku, lekin uzib olmoqchi emasing, lekin tepaman, deb aytmasang ham - tepging keldi..."

Ibodullo Maxsum ilgari hech bunday tarzda o'ylamagan edi. Shu sabab o'yni zavqini tuyish o'zgacha bo'ldi. Mabodo, To'raboy aqalli bir bora ortiga qayrilganda edi, balkim, Ibodullo Maxsumning quvonchini ko'rib, rosa ajablangan bo'lardi. Haytovur, u ortiga qayrilmadi. Ibodullo Maxsum uning qayrilmog'ini o'ylab, o'zini ylg'ishga, sal-pal qovoq uyishga urindi. Lekin ilojini topmadi. Keyin u oshkora iljaydi. Ibodullo Maxsum darvoza oldida to'xtadi. To'raboy esa ko'chaga chiqqandan keyingina qadamini sekinlatdi. Ortiga hadik aralash boqdi. So'ng ta'qibchisining ichkarida qolganini ko'rib, to'xtadi, dadillashdi va etagini qoqdi: "Endi bu yerni yelkanning chuquri ko'rsini!"

O'sha kuni kechasi G'uchchi chol Galatepadan bosh olib ketishga ahd qildi.

Yozning dim, issiq tunida uzoq o'ylab yotdi. Qazogacha yor-udostning oldida qolgan ma'qul edi, deb o'yladi. Lekin taqdir deganing teskari keldi, mundayroq o'lim bilan o'lsam bir gap, lekin quturib o'lish... Hech kim seni ayab o'tirmas, tinch o'lsang - o'lganing, bo'lmasa, sharta ushlab, daraxtning tanasiga zanjirband qilishadi, vassalom!..

Xullas, u bosh olib ketgali ahd qildi: uydagilarga shaharga ketdim, deb aytadi, keyin bir pana-pastqam joyni topib... kutadi. O'tsa, o'tib ketgani - kuning uzoq ekan, magarkim, o'tmasa... E, shuniyam o'y qilib o'tirasanmi!.. Odam deganing bir marta dunyoga keladi. Bir boshda bir o'lim, beshikka tekkan yelka tobutga tegmay qolarmidi!..

Ertasi kuni tong mahali G'uchchi chol kunchiqarga qarab yo'l tutdi. Birov ko'rmasin deb, soy-u soya joylarni tanlab yur-

di. Choshgohda tog'ning etagiga yetib bordi, lekin o'rlamadi, kuchini ayadi, archazorni oralab o'tgan tekisgina so'qmoqdan ketaverdi. Tog'ning narigi belida bu so'qmoq birdaniga tik oldi, Cho'nqaymishga ketadigan dovonga qarab burildi. G'uchchi chol janubroqqa, sarg'ish o't-o'lan qoplangan cho'lga tomon tushib bordi. Galatapa uzoqda, archazor kumush bo'lib yaltiragan tog' tumshug'i ortida qolib ketdi. G'uchchi chol xiyla charchadi, terga botdi. Uyqusiz tun uni azoblab qo'ygan ekan, a'zoyi-badani zirqirab og'riy boshladi. Bekorga ot minmabman, deb o'yladi u, hech kim gumondor bo'lmasdi, toqqa ketyapti, deb o'ylashardi, xolos... Kimning mening quturib o'lganim bilan bir pullik ishi bor?... Otni ayadim, zaval bo'lmasin, dedim. Sirasini aytisa, otning o'zi nimaga keragi bor? Azroilni piyoda yurib ham topib olarman!..

Birdan u qo'ng'iroq tovushini eshitdi. Avvaliga qo'y-qo'zini er-gashirgan serka bo'lsa kerak, deb xayol qildi, lekin harchand tikilmasin, yaqin-atrofdagi qo'y zotini ko'rmadi. Qo'ng'iroq tovushi ham goh kuchayib, goh susayib, tog' bag'ridagi yaylovdan emas, butkul ters tarafdin - ro'paradagi toshloq qirlar ortidan kelardi. Yarim soatlar o'tgach, qarshisidagi qir o'rkachida bitta otliq paydo bo'ldi, uning ortidan uchta tuva bodrab chiqdi. G'uchchi chol ko'zlariga ishonmay, bir zum tek qotib qoldi.

Kichkina karvon tobora yaqinlashib kelaverdi. Nihoyat, G'uchchi chol karvonboshini tanidi: bu o'sha ma'lum va mashhur Jonuzoq arab edi. Karvonboshi ham uni tanidi chog'i, otnining jilovini tortdi.

- Assalomu alaykum, G'uchchi aka, - dedi Jonuzoq arab horg'in bir ovozda. - Bu dunyoda tirik bormisiz, aka, joningiz tinchmi?..

- Birnav, - dedi G'uchchi chol.

- Kattaqo'rg'onga ketyapman, - dedi Jonuzoq arab. - Qarib qoldim. Kattaqo'rg'onning tuzi tortdi... Juda qaridim, G'uchchi aka...

G'uchchi chol uning qariganini o'zi ham ko'rib turardi: soch-soqolidan tortib, to gardanidan chiqib turgan mo'ylarigacha oppoq, yuzlari cho'tir, battar qoraygan...

- Ko'p kasal bo'ldim, - dedi Jonuzoq arab. - Chechakka chalindim.

- Men esa uloqib kelyapman, - dedi G'uchchi chol. - Besar it qopti. Quturgan, deb aytishyapti. Tozi edi, menga o'rgansa, mo'ltinini esdan chiqarar, devdim... Mo'ltinining iti itlik qilmas ekan, Uzoqboy. Bilasiz, bitta qo'shquvur miltig'im bor, endi tozi asrasam, deb o'ylodim. O'zingiz o'ylang, umrim uyur ortida o'tdi, bir yoqqa chiqolmadim, chiqarga. vaqt bo'lmasdi. Endi qarigan chog'imda otga minib, miltiqni olib, keyin bitta tozini ortimdan olib, bir joylarga ovga chiqaman degan niyatim bor edi. Yoshligimdan shuni o'ylardim, Uzoqboy, faqat burgutim yo'q. Bir kuni Cho'nqaymishdan burgutning jo'jasini sotib oldim. O'n so'm berdim, tumshug'i qoraysa ovga opchiqarman, dedim, lekin burgutning bolasi quzg'un bo'p chiqdi...

- Yomon bo'пти, - dedi Jonuzoq arab. - Burgutning quzg'un bo'p chiqqani yomon, G'uchchi aka. Quzg'un ovga yaramaydi.

- Bilaman, - dedi G'uchchi chol. - Lekin bechora qush quzg'un bo'larga ham ulgurmadi. Men Payshanbaga ketuvdim, uydagilar tuzlangan go'sht berib o'ldirib qo'yibdi... Balkim, ular qasddan qilmagandir, lekin quzg'un baribir o'ldi. Burgut bo'lmasayam, bechora qushga ichim achidi. Uydagilar mening otimniyam yomon ko'radi, Uzoqboy, sotgin, deb aytadi, bo'lmasam, seni bir jar-parga tashlab ketadi, deyishadi...

- Ular otni bilmas ekan, G'uchchi aka! - ajablandi Jonuzoq arab. - Bilsa, muncha yomon xayolga bormasdi. Yo'q, G'uchchi aka, otni birovga sotmang!

- Kingayam sotardim, - dedi G'uchchi chol. - Jonivor o'zimga bosh qo'yib qolgan. Sotsam, sayisligini kim qiladi? Yaqinda kasal bo'luvdi, bir pudcha sabzi yedirdim, qoni tozalandi. Yo'q, Uzoqboy, boshqa birov otni xarob qiladi. Uydagilar hammasi mendan xafa. Bir hafta bo'ldi, kampir singlisini ko'rgani ketgan. Ozroq xafalashgan edik, shu paytda ketgani yomon bo'ldi, odamlar uni arazlab ketdi, deb o'ylayapti. Omadim yo'q ekan, Uzoqboy.

- Mening xotinim uyda o'tiradi, - dedi Jonuzoq arab. - Avval karvon bilan yurardi, endi uyam qaridi... Boradigan qarindoshiyam yo'q, o'zimga o'xshagan yetim. Sizam biror yetim qizga uy-lansangiz bo'larkan, G'uchchi aka.

gohda Kattaqo'rg'onga yetaman, ertaroq yetishim qiyin, tuyalar qarib qolgan.

- Tuyani nima qilasiz, Uzoqboy? - deb so'radi G'uchchi chol. - Hammasi salt ekan-ku?

- E, tuyasiz bo'larkanmi, G'uchchi aka!.. - ajablandi Jonuzoq arab. - Tuyasiz yo'l yo'lga o'xsharmidi!.. Axir men... Kattaqo'rg'onga tuya tortardim-ku, esingizdan chiqdimi, G'uchchi aka?

- Kattaqo'rg'on yaxshi shahar, - dedi G'uchchi chol. - Odamlariyam yaxshi.

- Qiziltosh ham yaxshi, - dedi Jonuzoq arab. - Siz xo'p deng, G'uchchi aka, Qiziltoshga boring. Siz u tarafda necha yil yilqi boqqansiz!

- Unga ko'p bo'ldi, Uzoqboy! Eh-he, juda ko'p bo'ldi!..

- Haliyam kech emas. Siz Qiziltoshga boring. Piyoda yurganga uzoq, yaxshisi, mening baytalimni oling. Xurjunniyam oling, men tuyada bir amallab yetib borarman.

G'uchchi chol yo'q deyolmadi. Jonuzoq arab unga baytalining illovini tutqazib, o'zi tuyalardan biriga amr qildi:

- Cho'k, cho'k, jonivor!

Tuya cho'kkaladi. Jonuzoq arab uning o'rkachiga chiqib o'tirgach, tuya o'midan turdi. Har kim o'z yo'lga keta boshladi. Biror yuz qadam bosib, Jonuzoq arab G'uchchi cholni chaqirdi:

- Sal bo'lmasa, esimdan chiqay debdi, G'uchchi aka! Oti Sanobar!

- Kimning oti? - tushunmay so'radi G'uchchi chol.

- Baytalingizning oti!..

Shu so'zlarni aytib, Jonuzoq arab qir ortida ko'zdan g'oyib bo'ldi.

G'uchchi chol ertasi yarim tunda Qiziltoshga borib tushdi. Baytalini eski rabot burjidagi yulg'un tupiga bog'lab, xurjunini nura-gan paxsa devor tagiga oldi. Rabotning usti o'pirilib tushgan, darbo-zaxonasida sayrayotgan boyqush odam isini sezib jim bo'lib qoldi, keyin yana boshladi. So'ng xas-xashak ostidagi chigirtkalar, kavak-lardan sudralib chiqqan ilonlar... Basma-bas sayrashga tushdilar.

- Menam shuni o'ylovdim, - dedi G'uchchi chol. - Lekin buyam yomonmas, insofi bor. Boshqasini olsam, balkim, yomon bo'larmidi, o'zingiz o'ylang, men yilqi ortida yursam, uyga haftada bir kelamanmi, yo'qmi!..

- Endi biz qarib qoldik, G'uchchi aka, - dedi Jonuzoq arab. - Endi tinchroq o'tirsak bo'larmidi.

- Hech iloji yo'q, Uzoqboy!..

- To'g'ri, iloji yo'q. Siz, G'uchchi aka, shu mo'ltonidan qolgan toziga tegmasangiz bo'larkan.

- Tozi yomon emasdi... O'rgatib olgim keldi. Maxsum aytdi, qo'ying, aka, dedi, bu bir besar it, tishlab-netib yurmasin... Yo'q, quloq solmadim, endi eshitsam, quturgan tozi ekan. Men kutib o'tirmadim, Uzoqboy.

- Kutmaganingiz yaxshi, - dedi Jonuzoq arab. - Mana, men shuncha yil yana Kattaqo'rg'onga boray dedim, qarasam, endi qartayib qolibman. Boshqa o'tirolmadim... Nega piyoda ketyap-siz, G'uchchi aka? Esimda, bitta saman otingiz bo'lardi, zo'r edi, Sigirtepaning tagida poyga bo'lsa, o'zingiz birinchi bo'p kelardiniz. Hoziram o'sha yerda uloq bo'ladimi?

- Endi ko'p uloq chopishmaydi, Uzoqboy - dedi G'uchchi chol g'amgin turib. - O'sha saman otim ham endi yo'q, endi mening boshqa otim bor - qizil qashqa ot... Ko'rib turibsiz, Uzoqboy, bosh olib ketyapman. Bo'lmasam, meni daraxtga bog'lab qo'yi-shadi. O'zingiz o'ylang, Uzoqboy, men daraxtni shu niyat bilan o'tqazibmidim? Yo'q, bunga chidashim qiyin. Bundan ko'ra, biror cho'li-biyobonda o'lib ketganim ma'qul...

- Siz Qiziltoshga boring, - deb maslahat berdi Jonuzoq arab. - Suvi yaxshi joy. Hammayoqda qizil tosh, zarra qumigacha qizil... - Menga suvning keragi kam, - dedi G'uchchi chol.

- Baribir Qiziltoshga borganingiz ma'qul. Men u yoqda doim qizil o'tov tikardim. Qiziltoshning toshiyam qizil, mening o'tovim ham qizil bo'lardi. Borib yana o'tov tikardim-u, lekin yosh o'tib qoldi. O'lar oldidan Kattaqo'rg'onga borib kelsam, shuyam katta gap. Uyda tinch o'tirolmayman, G'uchchi aka. O'tgan kuni hech chidayolmadim, uch tuyani yetaklab yo'lga tushdim. Indin chosh-

Atrof sutdek oydin. Oydinda rabotning xarobasi ulkan ko'rina-  
di. Vaqt ham negadir sustlashib qolgan.

G'uchchi chol yolg'izlikdan endi cho'chidi. Ko'ngliga cho'kkan  
vahimadan qutulmoq istab, baytaling yoniga bordi, bo'ynidan  
mahkam quchoqladi, yuzini uning to's-dag'al yollariga bosdi.  
Baytalg hojising qilig'i xush yoqdi, bo'ynini tag'in ham quyi  
egdi, so'ng yuganini bir-ikki silkitib, nozli kishnadi. G'uchchi chol  
baytaling og'zidan so'lig'ini chiqarib, o'tlagani qo'ydi. O'zi kam-  
zulini yerga tashlab, xurjunni yostiqlik qildi-yu oyni, xira yulduzlarni  
kuzatib yotdi...

Sal o'tib, yuragi siqildi. Nariroqqa o'tlab ketgan baytalni cha-  
qirdi:

- Beh-beh, jonivor, beri kel!

Baytal sezindi. O'tdan bosh uzib, G'uchchi cholning yoniga  
keldi. Uning yuzlarini hidladi. Baytaling og'zidan achchiq kakra  
hidi ufurdi. G'uchchi cholning ko'ngli buzildi.

- Hammamiz o'lamiz, Sanobar, - dedi u baytalg. - Menam,  
meni gapga qo'ygan To'raboyam, hammamiz... Bir-birimizning  
dilimizni bekorga og'ritganimiz qoladi. Hech kim dunyoga ustun  
bo'lolmaydi. Eshityapsanmi, jonivor?

Baytal ikki marta bosh siltab tashladi.

- Xudoyam bir kun borib o'tib ketadi, - dedi G'uchchi chol.-  
Odamlar bo'lmagandan keyin xudoning nima keragi bor?

- Biz-chi? - deb so'radi baytal. - Bizlar qolamiz-ku?

- E!.. - deb qo'l siltadi G'uchchi chol. - Barisi bir emasmi?  
Nima, ot odammidiki...

U birdan jimib qoldi. Baytaling ko'nglini og'ritganini sezdi.

- Sen boshqa gapirmagin, jonivor, - dedi u sal turib. - Baribir  
seni tushunolmayman. Otmisan, odammisan ishqilib, dunyoga bir  
kunlik mehmonsan. Endi shuniyam gap qilib yuramizmi?

Baytal o'sal bo'ldi. Boshini bir silkitib, yuganini chiqarib tash-  
ladi-yu, boshi oqqan tarafga yo'r'tib ketdi. G'uchchi chol o'zining  
vahmi bilan ovora bo'lib yolg'iz qolganini payqamadi ham.

"Yaxshi bo'lmadi, - deb o'yladi u. - Xudoga shak keltirdim!  
Xudo bo'lmasa... bo'lmaydi-ku, axir?!" Nazarida Xudo yo'qolib,  
dunyo yetim qolganday edi.

Alqissa, G'uchchi chol ancha kundan so'ng Galatepaga sog'-  
omon qaytib keldi. Kelgan kuni kechqurun guzarga chiqdi, odam-  
larni to'plab ularga Jonuzoq arab, uning baytali haqida naql qildi.  
Lekin ishongan odam kam bo'ldi.

- Jonuzoq har qadamda bittadan ot hadya qiladigan ahmoq  
emas, - dedi choyxonachi Barot Qiyshiq. - Galatepaning tuzini tot-  
gan edi, qadrdonligimiz bor edi. Nega o'zi kelmadi?

- Kattaqo'rg'onga ketayotgan ekan, - dedi G'uchchi chol. -  
Men piyoda ketayotuvdim, ot bilan bir xurjun yegulik berdi.

- Yegulik qani, G'uchhibek? - deb so'radi Nazar Maxsum.

- Yegulikni yedim.

- Xurjuningiz qani?

- Xurjun eskiroq edi, rabotda qoldirdim.

- Tuzuk, tuzuk, - deb salmoqladi Barot Qiyshiq. - Mayli, xur-  
junni nari qo'yaylik, siz ayting, G'uchchi buva, Jonuzoq arab hadya  
qilgan otning o'zi qani?

- Ot ketib qoldi, - G'uchchi chol rostini aytishga majbur bo'l-  
di. - Mendan arazlab ketdi.

Gurung ahli uning gaplaridan kulgan bo'ldi.

- Siz bir qiziq odamsiz, - dedi choyxonachi. - Hamma sizdan  
xafa bo'ladi, arazlaydi, ketib qoladi. Avval kampingingiz ketuvdi,  
endi baytal ketibdi...

- Kampir kelgan, - dedi G'uchchi chol. - Singlisini ko'rib keldi.

- Ketib qolganda xafa bo'lgandirsiz? - gapini qo'yimadi choy-  
xonachi.

- Nega xafa bo'laman, u qochib ketgani yo'q-ku?..

- Mo'ltoning tozisi-chi, tozi qochib ketgani rost-ku?

G'uchchi chol kalovlanib qoldi. Xayriyat, mulla Donyor uning  
jonlga ora kirdi.

- Siz choy opkelsangiz bo'lardi, Barotboy, - dedi u choyxon-  
achiga qarab, so'ng, Barot Qiyshiq o'choq boshiga ketgach, yana  
G'uchchi cholga murojaat qildi.

- Qaytganingiz tuzuk bo'пти, G'uchchi. Bular bekorini aytibdi,  
men Jonuzoqning ot hadya qilargiga ishonaman. Xudoga shukr, tirik  
ekan, men avvalroq bir rahmatli bo'p ketgan, deb eshituvdim.

- Hali tirik ekan, - dedi G'uchchi chol. - Ancha cho'kib qopti. Kattaqo'rg'onga borgisi kep yo'lga chiqibdi.

- Biz sizni yo'qolib ketdi, deb o'ylovdik, G'uchchibek, - deb gap qo'shdi Nazar Maxsum. - Men bir shahar borsammi ham dedim, har ne, o'g'limiz Sanobek hukumatning odami, sizni izlagani bironi qo'yarmidi...

- Yo'qolganim yo'q. Qiziltoshga boruvdim. Jonuzoqboy otini berdi. Ko'p aqlli baytal edi, odamga o'xshab gapirardi.

Mulla Doniyor bilan Ibodullo Maxsumdan bo'lak hamma uning gapidan kuldi.

- Yaxshi baytal edi, - davom etdi G'uchchi chol. - Musulmon baytal edi. Shayton yo'ldan urib, Xudoga shak keltiruvdim, shunga xafa bo'ldi.

Bu gal undan oshkora xoxolab kulishdi. G'uchchi chol nima deyari bilmay, tek qoldi. Shuncha gap yetmagandek, mulla Nishon uni kofirlikda aybladi:

- Siz Xudoga ishonmaysiz, G'uchchi, - dedi u. - Shu sababkim, shaytoni alayhila'na baytalingizning taniga kirib olibdi. Tilga kiribdimi, uning taniga shayton oralagan. Siz kofirsiz, G'uchchi, g'irt kofirsiz! Faqat kofirning boshiga shundayin kasofat savdolar tushadi!

G'uchchi chol gapirolmay qoldi. Baxtiga, Ibodullo Maxsum gapga aralashdi:

- Esingizda bo'lsin, Nishonboy, shayton odamning tanidan o'zga joyni o'ziga makon qilmaydi, - dedi u. - Siz tuzuk odamsiz-ku, lekin mullalikdan mazangiz yo'qroq. Baytal jonivorning biror fisq-u fasodi, bizga o'xshab g'ayirli bo'lmasa, nega siz unga Bunday tuhmat qilasisiz? Xudoning ko'rsatgan karomati deng, ajabmaski, shu baytal keyin odamga aylangan bo'lsa...

- Maxsum hindu ekan!.. - deb qichqirdi mulla Nishon mulla Doniyorni guvohlikka chaqirib. - Eshityapsizmi, Maxsum hinduning mullasiga o'xshab gapiryapti. Bitta kofir kamlik qiluvdi, endi, manavi Maxsum ham kofir chiqdi!.. O'zingiz aying, Doniyor aka, baytal ham hech zamonda odamga aylanadimi?

- Bunisi tadjirji Xudoga bog'liq, - dedi mulla Doniyor mujmalroq qilib.

- Yo'q, Doniyor aka, baytal odamga aylanmaydi. Sizam baytalning odamzoddan bo'lmish farqiga bormaysiz ekan!

- Bo'lmasa, nega Murod juvozkashning xotinchasi baytalga o'xshab kishnaydi? - deb so'radi mulla Doniyor.

Qolgan mardumlar ham uning gapini bir og'izdan tasdiqlashdi. "Murod juvozkashning xotini rostdan ham ikki yashar baytalchaga o'xshab kishnaydi", deb aytishdi.

Mulla Nishon ko'p mulzam bo'ldi. Chandon o'yladi hamki, munosib javob topolmadi. Keyinroq borib, xayolida g'alati-g'alati gumonlar tug'iladigan bo'ldi. Deylik, xotini Hanifa kulsa, "Nega kishnayapsan, baytalcha?", deb so'raydi. Shu-shu, bechora Hanifa kulishni ham bas qildi. Endi uni qitiqlab ham kuldirolmaysan. Zavqi oshib-toshib ketganida, labining bir burchini ko'tarib iljayadi, xolos. Keyin birdan xo'rliigi keladi. Lekin tuzukroq xo'rsinishi ham qiyin. Mulla Nishon uning xo'rsinganini eshitsa bo'ldi, "Nega pishqiryapsan, baytalcha?", deb so'raydi.

Mashoyixlar aytganidek, yurt ayvoni keng, bu ayvonda ming alvonda odam, ming alvon odamning ming turfa tashvishi bor. Mulla Nishonning tashvishi - gumon qilmoq. Hanifaning tashvishi - kishnamaslik, bizniki... Kim bilsin, bizning nima tashvishimiz bor?.. Bunday qarasa, tashvishimiz qolmadi hisob. Burchimiz roviylik edi, bo'yin tovlamadik va manzilga yetdik. Manzilga yetgan kimsaning bitta niyati bo'ladi:

- Tanimiz sog', jonimiz tinch bo'lsin!

U boshini ko'tarmaydi, oyoqlari qaltirab ketadi.

– Orziqul bobongning chaylasi oldidagi o't belga uradi. O'sha joyga bor! O'roqqa boxabar bo'l, yana oyoq-poyog'ingga sanchib olib... Seni ko'tarib do'xtirma-do'xtir chopib yurmayin.

“O'smaydi ham, to'lishmaydi ham, – deb tashvishlanadi chol. – Rangida rang qolmabdi-ya”.

“Bir shapaloq ursa bormi, yerparchin bo'lib ketsam kerak, – cho'chinqiraydi bola. – O'tning sag'risiga bir mushtlab, sulaytirib qo'ygan-a!”

– Nega oqshom yana sahargacha o'qiding?

– Qiziq kitob edi-da.

– He, kitobing bilan qo'shib... Qiziq deb xonumonimga o't qo'ymoqchimisam?

U hayron bo'lib otasiga bir qarab qo'ydi.

– Uxlab qolibsam. Kitobing surilib, chiroqqa tegay-tegay deb turibdi. Uyqusirab turtib yuborsang, omin, Allohu akbar, hamma-yoq yonib ketadi. Eng birinchi o'zing yonasan kitobing bilan birga.

“Demak, joyimga ko'tarib o'tkazgan ekanlar-da”.

U o'zini bir zum otasining quchog'ida tasavvur qildi. Dimog'iga qariyalarga xos achqimtil ter hidi urilgandek bo'ldi. Yig'lagisi kelib burnini tortib qo'ydi.

“Bunga ham qiyin. Shuncha mol-holni bir o'zi eplaydi. Tong-sahardan uyg'otaman. Dashtda bir o'zi, kitobdan boshqa ovunchog'i yo'q...” – Cholning rahmi keldi, endi yotig'i bilan gapira boshladi:

– Birov seni majburlayaptimi, dunyodagi hamma kitoblarni o'qiysan, deb. Darsingni beshga o'qisang bo'ldi-da. Ertadan kechgacha Bulung'urning loyqa suvidan chiqmaysan, oqshomi bilan kitobga sho'ng'iysan.

Bolaning xo'rliqi keldi: “Axir cho'miladigan bitta men emas-ku”.

– Nega maktabning olmasidan o'g'irlading? Ana, chorvog'da meva-cheva to'lib yotibdi-ku. Kuning xom olmaga qoldimi! Shunaqa ko'zi och bo'lasanmi, valad!

“Bular-ku begunoh norasida, o'g'rilikning ma'nisini qaydan bilsin, – deb g'ashlanadi chol. – Bir tishlab tashlab yuborishadi. Shuni “Ha unday, ha bunday, bolani boshdan terqash kerak,

*Samarqand viloyati, Jomboy tumanidagi G'azira qishlog'ida tug'ilgan. Samarqand davlat universitetini tugatgan. “O'zlik”, “O'ying gardishi”, “Bu kunning davomi”, “Asqartog' tomonlar-da”, “Soyasini yo'qotgan odam”, “Hali hayot bor”, “O'zi uylan-magan sovg'isi”, “Ro'yo yoxud Gulistonga safar” kabi nasriy asar-lari va romanlari chop etilgan.*

### OYNING GARDISHI

Otasi uni hech qachon urmagan, hatto chertmagan ham, lekin qattiqroq gapirganda, u bo'ynini qisadi, yelkalarida titroq turadi.

Otasi u qadar, kishi yuragiga vahm soladigan haybatli, devqo-mat emas, hamma qariyalarga o'xshagan oddiy mo'ysafid, faqat bo'yi balandroq, yoshi oltmishdan oshgan bo'lsa-da, qomatini tik tutib yuradi.

“Otang ilgilarini ko'p qiynalgan. Karimovlar xo'p azob bergan, majlislarda tikka qilib do'q urgan”, deydi onasi. U esa otasiga birovning tik gapirishini ko'z oldiga keltirolmaydi. “Salohiddin akanglar senday paytlarda otang sho'rlik...”, deya hikoya qilishga tushadi onasi. U jon qulog'i bilan tinglaydi-yu, otasining “sho'rlik” bo'lganiga ishonmaydi. Uningcha, otasi “o'sha paytlarda” ham hozirgidek, qayerga bormasin, hamma peshvoz chiqqan, qayerga kirmasin, hamisha to'rdan joy olgan. Hatto Xudoyqul guppi kabi og'zi kattalar ham otasining oldida tilini tiyib qoladi-yu...

Otasi biron kimsa bilan urishmagan, san-manga bormagan bo'lsa-da, qishloqdagilar undan haytiqadi, haytiqish aralash hurmat qiladi.

Uning yelkalariga titroq yugurdi.

– Miyang xatomi sening?! Ikki bog' o't deb Bulung'ur yoqaga borasanmi! Falokat bosib suvga tushib ketsang...



bo'lmasa o'g'ri bo'lib ketadi", deb hovliqqanini qara. Voy dono-ye!  
O'zing-ku, bir institutni o'n yilda zo'rg'a bitiriding, endi odam qatoriga kirib, boshqalarga aql o'rgatadigan bo'lib qoldingmi!"

- Ikkinchi marta shunaqa gap eshitsam, o'sha olmaga oyo'g'ingdan osaman. Bir kamim sen tufayli...

U qarshilik ko'rsatmaydi. Yig'lamaydi ham. Otasi uni yetaklab borib, olmaga... oyog'idan osadi! Shunda Abdualim kelib bir chetda, ajab bo'пти, degandek tirjayadi. Yo'q, yo'q! Hech kim kelmaydi. U hammaning esidan chiqadi. Osilib turib-turib, oxiri, o'pkasi og'ziga tiqiladi-da, o'li-ib qoladi... Hamma yig'laydi. Qosim muallim ham juda pushaymon bo'ladi, "Otasining bunchalar zolimligini bilganimda, o'g'irligini aytmadim", deydi. Odamlar afsus bilan bosh chayqashadi: "Qanday a'lochi edi! Qish bo'yi qirqta kitob o'qigan edi. Hay attang, borib-borib zo'r odam bo'lar edi-da! Otasining diydasi qattiq ekan, shunday o'g'ilni-ya!" Onasi o'zidan ketib qoladi. Otasining ko'zlaridan duv-duv yosh oqadi: "Yo parvardigor, qanday gunohi azimga botdim! O'rninga mening jonimni ol-u tirlitirib ber! Mayli, hech ish qilmasin, kun bo'yi kitobdan bosh ko'tarmasin. Velosiped ham olib beraman". U hammasini eshitib yotadi. Lekin mulla "Saloti janoza-a", deyishi bilan quloqlari chippa bitadi. O'rmidan turmoqchi bo'ladi, lekin...

- E, sal gapga ko'zingning suvini oqizasan. Qanaqa nohusdan o'zi! Artma yenging bilan. Qara, yaltirab ketibdi. Hayf-e senga ko'ylak! Semiz-semiz kitoblarni o'qiysan-u, burningni yenging bilan artasan.

"Sal qattiqroq gapirsang ko'zida yosh tayyor turadi-ya, tavba", deb xunob bo'ladi chol.

Hushak tovushi eshitildi - Abdualim. Chol miyig'ida kuladi:

- Ana bulbulchang sayrayapti, o'tga ketdik, deb.

U boshini burgancha piqirlab kulib yuboradi.

Chol yengil tin oladi: "He, bir kun odam bo'lar-da, bu ham".

- Bormay qo'ya qol, shuncha yo'lga bir o'zing borasanmi, o'zi keladi otang, - deb uni yo'ldan qaytarmoqchi bo'ladi onasi.

- Qari odam-a! Qorong'ida turtinib yuradimi axir, charchab qoladilar.

- Charchamaydi, hali otday. Qaridim, deb qo'rqitadi-da. Eh-he, hali otang...

Uning jahli chiqib onasiga baqiradi:

- Bo'ldi-e! Hamma ishga aralashaverasizmi!

- Yopirim-ey, bu kishining otalariga o'xshab zug'um qilishlarini. Achchiqchalari burunlarining uchida turadi. Yana yarim yo'ldan yig'lab qaytmagin.

- Patinkam qani, deypaman sizga!

- Ana turibdi-ku, burningning tagida.

U shunday oyog'i tagida yotgan botinkasini ko'rmaganiga izza tortadi, lekin sir boy bermay pishillab kiyina boshlaydi.

- Bir burda non olgin yo'lga.

U ensasi qotib onasiga o'shqirib bermoqchi bo'ldi-yu, lekin uch chaqirimlik yo'lni, boradigan joyi qabriston yonida ekanini o'ylab, bir burda nonni qo'yniga soladi.

Yulduzlar xira yaltiraydi.

Yo'l olachalpoq oydin. Eshak bir tekisda yo'rg'alab bormoqda.

U ortiga o'g'irilib, eshak dupuridan ko'tarilgan changning havoda erinchoq turib qolishini kuzatadi.

"Chang tuproq orasida siqilganidan oqarib ketgan havomi yoki tuproqning maydasimi? Changda qolganingdan so'ng tupursang, burningni qoqsang, loy tushadi - tuproqning maydasi bo'lsa kerak-da.

Qorong'ida hamma narsa jimib qoladi-ya. Qiziq, odam ham qorong'ida qo'rqadi. Axir oqshom ham quyoshi yo'q kunduz-ku, faqat quyoshning o'rniga oy chiqadi.

Oyning nuri nimadan, mayda oqish changga o'xshagan bo'yoqmi? Havoni, yo'lni shu rangga bo'yagan. Soyalar qora, chunki ularni oydan daraxtlar to'sgan. Nega oy daraxtlarni ham oqish rangga bo'yamagan? Ularning yashil tusi oy bo'yog'i ostida qolib ketmaydimi? Xuddi suyuq rang surtilgandek yaltiraydi. Soyasi bilan qo'shilib usti yaltiroq, tagi chirigan, qoramtir pichan g'aramiga o'xshaydi. Kunduzi quyosh sochgan nurlar oqshom qayga yo'qoladi? Bordi-yu, kechasi ham kunduzgidek yorug' bo'lsa-da, quyoshning o'rniga oy chiqib tursa. Yoki hech ham kun botmasa. Juda alomat bo'lsa kerak".

Eshak to'satdan burildi. U eshakdan ag'anab tushay dedi. Egarning qoshini mahkam changallab, qo'rquv bilan yo'lga tikildi. "Nimadan hurkkan ekan, ilonmi?"

Dumaloq soya yo'l chetidagi o'tlarga tomon g'imirlardi: "E, tipratikan ekan-ku".

Bolaning kulgisi qistadi.

"Oyning soyasiga o'xshaydi-ya... Oy Yer bilan Quyosh orasiga kirganda soyasi Yerga tushadi. Muallim aytgani to'g'ri-yu, lekin soyasi buncha bahaybat? Oyning soyasi tipratikandan sal kattaroq bo'lmaydimi?"

Bir marta Quyosh tutilgani uning esiga tushdi. Hammayoqni qizg'ish qorong'ilik bosgandi o'shanda. Onasi uning qo'lga cho'p tutqazib, "tog'orani dang'illat", degan edi.

"Oyim qo'rqan edi, Abdualim ham. O'shanda hamma qo'rqanday edi. Oyning soyasidan ham odam qo'rqadimi?"

Chorrahaga kelganda eshak sekinladi, quloqlarini salanglatib, xirt etib qo'ydi.

"Ha, jonivor-ey, qayoqqa burilay, deb so'rayapti".

U xalacho'pni ko'tardi-yu, lekin eshakning bo'yniga urmadi, to'g'riga degan ma'noda no'xtaning ipini siltadi. Eshak yana o'sha maromda yo'rg'asini boshladi.

Bolaning xayollari boyagi izidan chiqib ketdi.

"Eshakka buncha katta quloqning nima keragi bor, a? Odam-larga o'xshab shivirlab so'zlashmasa. Hangrashini quloqsiz ham eshitish mumkin. Odam shuncha tovushlarni eshitadi-yu, lekin qulog'i kichkina. Eh-he, o'ylab qarasa, bir-birining gaplari, qushlar sayrashi, mashinalar gurullashi, traktorlar tarillashi, shamol shuvullashi, aravaning g'iyqillashi, eshikning g'ijirlashi, radio, qo'shiq... Voy-bo'!"

U daf'atan uydan chiqqandan beri hech narsa eshitmayotganini sezib qoldi. Hatto eshakning dupurini ham eshitmay kelaveribdi. Buni o'ylashi bilanoq atrofdagi barcha ovozlari shiddat bilan uning qulog'iga yopirildi: chigirtkalar chirillashi, itlar hurishi, traktor tovushi, kimdir varanglatib qo'rgan ashula, uzoqdagi Bulung'ur arig'i bandining shovullashi, hatto ostidagi egarning zorlanib

g'ichirlashi - hamma-hammasini birdan aniq eshita boshladi. Buntun borliq shatur-shuttur qilib nafas olayotgandek.

U sokin tuyulgan oydinga buncha ko'p tovush borligiga shunchalar ajablандiki... Ma'lum muddat shu tovushlar bosimi ostida, og'zini yarim ochgancha, hech narsani o'ylamasdan, barcha ovozlari bilan birga; o'zining ham pishillab nafas olishini tinglagan ko'yi egarda qotib ketaverdi.

O'zi sezmaganda asta-sekin xayolga berildi.

"Yer nafas olsa kerak, chopib ketayotgan odamdek hansirab nafas olsa kerak. Bu tovushlarning barchasi shundan. Hamma narsa nafas oladi. Daraxtlar ham zararli gazlarni yutib, kislorodga aylantirib chiqaradi, degan edi Turg'unov muallim. Aytganday, shamol Yerning nafas chiqarishi, jimlik yutishi emasmi? Ha, shamol - Yerning nafasi. Oy-chi, nafas oladimi? Yoki kuylarmikin?"

U tuzukroq javob topa olmadi. Oydan kumushrang unsiz sadolar yo'l yoqalab ketgan daraxtlar chodiri uzra yaltiroq iz qoldirgancha quyilib tushishini g'ira-shira tasavvur qildi-yu, aniqroq fikrlashga chog'i kelmad.

"Qanaqa kuy? Radiokarnaydan chiqadigan kuymi? Unaqaga o'xshamaydi. Ana, oyni o'zi radiokarnayga o'xshar ekan. Nega "oy yuzingni" deyishadi? Oy qizlarning yuziga hech ham o'xshamaydi-ku... Misol uchun Mahbubaning afti oyga emas, to'rlagan qovungaga o'xshaydi. Saodatning beti to'la sepkil. Oyda esa sepkil yo'q.

Hozir birdan shu radiokarnay - oydan "Oy yuzingning shevasi..." deb qo'shiq boshlanib ketasa-ya! Yoki qo'shiq o'rninga "Hey bola, hadeb angrayaverma!" degan baqiriq eshitilsa.

Buni o'yladi-yu, yuragini vahm bosdi. Darrov ix-ixlab, eshagini niqtadi. Eshak jadalladi. Oy rostdan ham baqirib yuboradigandek, unga qarashga bolaning yuragi dov bermadi. Biroq sal o'tmay qo'rqo-pisa boshini ko'tarib yana oyga qaradi.

Shunda... tong qotdi - daraxtlar oralab uni ta'qib etib kelayotgan oy ochiqqa chiqib muallaq turar, tumanli tebrasida esa... kat-takon, mahobatli doira yaraqlar edi.

Qanchalar chiroyli!

Eh-he! Xuddi juda katta sirkul bilan, uchini oynning qoq o'rtasiga qo'yib chizilgandek. Nega shu paytgacha ko'rmadi?

U hamma narsani unutdi.

Oy pastga enib, juda-juda yaqin kelgan, bola unga yonma-yon holda, aylana gardishning o'rtasida chayqalib-chayqalib suzib ketayotgandek edi. Dunyoda oy va boladan boshqa hech kimsa yo'q edi.

Bola oyga qo'shilib ketgan edi...

To'satdan oy mushukdek bag'illab unga tashlangandek bo'ldi. U qichqirishga ham ulgurmay, egardan uchib ketdi - eshak shaxt bilan o'zini yonboshga otgan edi. Ikki mushuk pixillashib yo'lni o'qday kesib o'tdi. Chang-to'zon ichida qolgan bola bir muddat nafasi ichiga tushib, o'ziga kelolmay turdi. So'ngra entikib-entikib yig'lab yubordi.

"Mov bo'lgan mushuklar ekan-ku, shunga qo'rqamanmi? Ahmoq eshak hurkib..."

U o'ziga taskin berdi. Qo'zg'algan edi, o'ng bo'ksasida sanchiq turdi: "Xalacho'p kirib ketmadimikan?" Xalacho'p bir qadamcha narida yotardi. U o'tirgancha xalacho'pga intilganida gavdasida ham allanechuk og'irlik tuydi. Sekin o'rmdan turdi, oyoqlarini siladi, bo'ksasini avaylab ushlab ko'rdi. Og'riq a'zoyi badaniga tarqaldi.

Xayriyat, hech joyi sinmabdi, chiqmabdi. Faqat tirsagi achish-yapti - shilingan. Odam yiqilganda tuya o'rkachini, ot yolini, eshak esa tuyog'ini tashlaydi uning ostiga. Shuning uchun tuyadan, otdan past bo'lgan eshakdan yomon yiqiladi.

Eshak natiroqda turardi.

"Minib olay, keyin kunini ko'rsataman. Hozir ursam qochib ketadi, tutqich bermaydi".

U "ish-ish", deb eshakka yaqinlashdi. Eshak qochmadi. U inqillab o'zini egarga oldi-yu xalacho'p bilan eshakni savalay ketdi. Eshak xalacho'pdan himoyalaniib kallasini oyoqlari orasiga tiqqancha, turgan joyida gir aylandi. Uning egardan ag'anab tushishiga sal qoldi, o'zini o'nglab no'xtaning ipini siltadi. Eshak tez yurib ketdi.

... Hamma narsa yo'qoldi. Oy ham, bolaning xayollari ham. Yo'ning ikki cheti tut aralash qator tollar bilan qurshaldi, yana ochildi.

Qarshidan qabriston vahimali, bosiq bir sukut bilan bostirib kela boshladi. Uning taniga titroq kirdi. Otasiga: "Qo'rqmayman, eshakni o'zim olib borib, sizni olib kelaman", deganiga pushaymon yedi.

"Ashula aytammikan? Lekin bu yerda, mozoratning oldida baqirib bo'ladimi? O'liklar eshitib... Arvohlarni bezovta qilmaslik kerak".

U qabristonga qaramaslikka tirishib, oyoqlari bilan eshakning bliqiniga niqtadi. Bultur, yo'qolgan qo'yini axtarib yurganda, o'pirilib tushgan eski qabrda bir qora narsani ko'rgani esiga tushib yuragi uvishdi. O'shanda urra qochib qolgandi.

"Soch chirimasmikan?... Eski joy-da. Qirq gektar-a! Kunduzi uncha qo'rqinchli emas-u, lekin hozir... Nega oqshomda vahimali bo'ladi-a? Jin-ajinalar chiqadimi? Ajina odamning otini aytib chaqiradi. Mening otimni qayoqdan bilar ekan?... Men uni uchratmagan bo'lsam. Yo u meni ko'rganmikan?... Otingni eshitsang "Ha", demaslik kerak. "Ha", desang chalib ketadi. Meni chalmasa kerak. Menga tegmaydi. Chunki otamning bobosining otasi tegirmon toshi ustida sariq sochlarini tarab o'tirgan ajinani qo'rqmay ushlab olgan. Ajina rosa yalinganda ham qo'yib yubormagan. Sochini burab qiynayvergan. Oxiri, "Yetti pushingga tegmayman", deb qasam ichgandan keyin qo'yib yuborgan. Ajina shu zahoti turgan joyida yo'q bo'lib qolgan. Men beshinchi pushtman. Meni ajina chalmaydi. Lekin hazillashib chaqirishi ham mumkin-da, bu bolani bir qo'rqitib qo'yay, deb".

Qabriston yonidagi qishloqchaga kirilganda eshak birdan hangrab yubordi. Bola nafasini ichiga yutib, egarga qapishib qoldi. Yon tomondagi darvoza tagidan bir kuchuk vakillagancha pildirab chiqdi. Kuchuk bola yuragidagi qo'rquvni ham hurib tashladi.

Simyog'ochga osilgan lampochkadan tushayotgan nurning sarg'ish doirasiga kirganda, u qabristonga qaradi. Qabriston osovishta, vahimasi ortga chekingan edi. Kuchuk ham bir-ikki g'ing-shib orqada qoldi.

U tirsagi hali ham achishayotganini sezdi.

"Boya yiqilganimda ust-boshim tuproqqa rosa belangan bo'lsa kerak".

... U Mahmud akaning darvozasi oldida eshakdan tushmay qichqira boshladi:

- Husniddin, o' Husniddin!

Uning ovozi chiyillab chiqdi. Buni o'zi ham sezib, kattalarning tovushiga o'xshatib yo'g'onroq ovozdagi yana chaqirdi.

Ichkaridan Shakar xolaning: "Hu-uv... It bog'liq, kiraver!" degani eshutilgach, bola eshakdan tushib, kiyimlarini qoqishga tutindi.

U eshikni ochib, ichkaridagilarga "Assalom", deb kirayotganida, ayvonda idish-tovoq yuvayotgan Shakar xolaning Robiya puchuqqa: "Mushtday bolaning shuncha yo'ldan qo'rqmay kelganini qara", degani qulog'iga chalilib, g'ururlanib qo'ydi.

- E... Malla cho'pon, kelsinlar, kelsinlar, - deya uni ko'rgan zahoti Xayrulla amakisi odatdagi hazilini boshladi.

Otasi hammadan yuqorida, uyning to'rida yonboshlab yotardi; u kirgan paytda bir muloyim nigoh tashladi-yu, gapida davom etdi:

- Yana rivoyat qilurlarkim, agar sizning hamsoyangizki bo'lsa, uning tomiga g'o'zapoya bosilgan bo'lsa, aytaylik, shamol tur-di-yu, bir bog' g'o'zapoya sizning hovlingizga tushdi...

"Bilaman, bu yog'i: "Sizning shu g'o'zapoyani yoqib pishirgan ovqatingiz - makruh".

- Akram aka, shu o'g'irlikka kiradimi, kirmaydi? - deb so'radi Mamat mesh. U ham yonboshlab yotgan edi.

"O'zi otamdan katta-yu, aka, deydi".

- Albatta kiradi. Ya'ni, masalan, borib, maydondan yig'ib, o'zingiz orqalab kelmangansiz. Unga mehnatingiz singmagan. Mehnatsiz topilgan bir igna bo'lsinki, u - harom.

U amakisining yoniga cho'kdi. Amakisi unga egilib shivirladi:

- Ey, menga qara, yo'lda rosa qo'rqdingmi?

- Nimadan qo'rqaman?

- Har ko'zlari piyoladay-piyoladay keladigan ajina sochlarini voyib, oldingdan chiqmadimi?

- E-e, nima qilasisiz yolg'on gapirib.

- Yolg'onmi, bo'lmasa, nega dodladang?

"Eshitibdi yig'laganimni!"

- Qachon?

- Boya.

- Yo'g'e, boshqa birovdir.

- Sening tovushingni tanimaymanmi! Otang izza bo'lmasin deb, indamay o'tiribman-da. Beshinchida o'qib, ajinadan qo'rqamanmi?

- Ajina emas, ikkita mov mushuk big'illashib qoldi.

- Ana, qo'rqibsan-ku!

"Aldayapti. Eshitmagan, shuncha joydan yig'laganimni eshitadimi! Sinab ko'ryapti!"

- E-e, siz o'zingizning Rahmoningizni biling, sal qorong'i tushgandan keyin dalaga chiqishga qo'rqadi-yu.

Amakisi bir zum gap topolmay qoldi-da, keyin ko'rsatkich va o'rtancha barmoqlarini juftlab unga cho'zdi:

- Bir-biriga yopishib qolib juda azob beryapti-da. Qani, zo'r bo'lsang, shularni ochib qo'y-chi!

U amakisining barmoqlarini ajratib qo'ymoqchi bo'lib qo'l uzatdi-yu, rosa chiranganidan keyin amakisi nima qilishi esiga tushib, qo'lini tortib oldi.

- Meni uyaltirmoqchisiz-a?

- Ha, shum-e, bilasan-a!

Mahmud akaning esiga bola tushib otasidan so'radi:

- Eshon bobo, Maqsudga osh olib kelishsin?

- E-e, qornim to'q, uydan sho'rva ichib keldim.

- Sho'rvang yo'lda tushib qolgan-da.

- Mayli, zo'r'lamang, bu o'zi kam ovqat yeydi, - dedi otasi. Amakasiga bu ham bir bahona bo'ldi.

- Bu ovqatning o'rni ham kitob yesa kerak-da, - keyin otasiga o'girilib davom etdi. - Tunov kuni qarasm, buningiz eshakning ustida ham kitob o'qib kelyapti. - Unga qarab quv jilmaydi.

"Juda yopishib oldi-da bugun. O'zi ham ignaday gapni tuyaday qiladi-ya. O'qishimning unga nima og'irligi tushibdi. Otamning gapini yetmaganday, endi bu ham..."

- Bekor aytibsiz, - deganini o'zi ham sezmay qoldi u.

- E, buni qara, o'zidan kattaga ham gap qaytaradimi, - dedi amakisi.

Otasi Xayrulla akaga ta'na bilan qarab qo'ydi. Amakisi jim bo'ldi. Otasi salmoqlab gapirdi:

- Bunga urish-so'kish kor qilmaydi. Bilmayman, kitobdan nima topgan. Akalari yoshligida pishiqina edi. Qudrat bundayligida, bo'yi bir qarich bo'lib, qo'sh qo'shar edi.

- Shuni bilgani to'g'ri, - dedi shu paytgacha jim o'tirgan Rahmat aka. - Qani, bizning shumtakalar ham shunday o'qisa. G'irt xuligan. "Besh"ga o'qiysanlar", degan shart qo'yib, ikkoviga ham velosiped olib berdim. Qayoqda! Bir oy o'tmasdan shalog'ini chiqarishdi.

- Ha, endi bolaning o'zi qiziqmasa, qiyin. Urib-so'kib yo'lga sololmaysiz, - dedi Mamat mesh beg'amlik bilan. - Bizning Pirmatning ahvoli ham shu - qulayini topdimi, bolalarni to'plab, eshak ko'pkari qiladi. Ko'p eshak halak, bir po'stak halak.

- Hozir o'qimanganga qiyin, - dedi Rahmat aka. - Borib-borib o'qimanganga ish qolmaydi. Ilgari traktorining qavatida bir-ikki oy yursang, "Universal" berishardi. Hozir traktorchilikka ham dip-lom kerak. Traktor haydash ham qiyinlashib ketdi.

Bu gap otasiga yoqinqiramadi:

- O'qiganlari olamni guliston qilyaptimi! Mana, bittasi Haydarning o'g'li. Xudoning bermish kuni og'zida papiros, tagida matasekl, sang'igani-sang'igan. Kim bir piyola quyib bersa - o'shanga jo'ra. O'n yil maktabda o'qidi, o'n yil shaharda tentirab yurdi. O'rganib kelgani - araqxo'rlik.

Otasi Qosim muallimni yomon ko'radi. U o'n yil emas, yetti yil o'qigan shaharda. Uch yil armiyada bo'lgan. Bir yil sinfida qolgan shaharda ham. Rost, yaxshi dars beradi-yu, lekin ko'p ichadi.

Mamat mesh ayanchli iljayadi - Haydar novvoy unga qarindosh. - Akram aka, Salohiddin kam ko'rinadi, yuribdimi eson-omon? Otasining yuzi tundlashdi, keng peshonasidagi ajinlari chuqurlashib, yana yozildi.

- Bilib, bilmaslikka olib gapirasiz-a, Mamat aka.

- Endi so'rayapman-da, Akram aka, - dedi Mamat mesh. - Harna qilsa-da, o'g'lingiz.

- O'g'li?! Bunaqa o'g'ilning boridan yo'g'i yaxshi! - dedi otasi. - Ne-ne azoblar bilan o'qitdim. Qanday og'ir yillar edi! U bo'lsa, o'qishni bitirib kelib, muallimligini boshlagach, nima deydi deng: "Ota dindand kechasiz. Nima qilasiz yo'q Xudoga ishonib..."

- Ha, endi nodonlik qilgan-da, - dedi Mamat mesh beparvolik bilan.

"Jo'rttaga so'radi. Otamning hamma sirlarini biladi-da, Qosim muallim uchun alamini olyapti. To'g'ri gapirishga qo'rqadi".

- Nodonlik?! Aytgan gapini bilasizmi?! Men dindor bo'lganim uchun u kishi amallarga ko'tarilmay qolgan emish. Uyalmay-netmay o'zinga shunday degan...

"Qachon aytgan ekan?"

Akasi uyga kelganda uni yonidan jildirmaydi. Otasi gapirgan paytlarda u bilan hazillashib o'tiradi. Bir kuni akasi nimaga-dir go'rkovlar haqida so'zlab, "Shekspir degan yozuvchi o'tgan, uning asarida go'rkovlar juda zo'r yozilgan", dedi. Otasi indamadi. Akasi yana bir-ikkita shunga o'xshash gaplarni aytayotganda, otasi jahl bilan: "To'xta", dedi-yu, birdan baland ovozda tojikchalar baqira ketdi. U hech narsa tushunmay goh otasiga, goh akasiga hayron boqib, ularning tojikchani bilishiga ajablanar edi. Bir mahal otasi unga "Bor, o'yna", dedi. U hovlida nima qilishini bilmay gangib yurdi. Sal o'tmay akasi chiqdi. Uning ortidan otasining: "He, Shekspuling bilan qo'shib..." degan so'kinishi eshitildi. Akasi ayanchli iljayib uning yoniga keldi va "Boboy yomon qariyapti-da", deb g'udrandi. Uning tomog'iga allanarsa tiqildi, ezilib ketdi, akasiga rahmi keldi.

- Hozir-chi? Boshlarida soyabon shapka, oyoqlarida yirtiq baltinka, ilingan magazinchining ustida yozadi, yulg'ich, muttaham, deb. Beshkapadagi Abdullaning o'g'li shuning dastidan qamalib ketdi. Sherqulning to'yiga borganimda xotini oldimga beshta bosalini yetaklab chiqdi. Yer yorilmadi, yerga kirsam. O'g'lim, qo'y shu ishingni, odamlarni qon qaqshatma, dedim. Qilmadi.

Mamat mesh qo'rqa-pisa qarab qo'ydi-da, yana dasturxonga tikilib oldi. Mahmud aka dasturxonning sochig'ini o'ynab o'tirardi. Amakisi boshini quyi osiltirib miq etmasdi.

- Endi aspiranturami, paspirturami degan katta o'qishga kiramish. Bunday tanangga o'ylab ko'r, to'rtta bolang bor, yoshing ham qirqqa bordi. Olim bo'lish osonmi, buning uchun o'n-yigirma yil umr kerak. Ellik-oltmishga borib olim bo'lganingda elga qan-

day karomat ko'rsatarding! Shunday deb nasihat qilsam, men to'rt yilda dissirtassa yoqlayman, deb g'udinglaydi...

U amakisiga termildi. Qani endi, amakisi boshini ko'tara qolsa! - Ha, o'g'lim, mana, Karimboyning o'g'li Samarqandda o'n besh yil o'qishning orqasidan quvib, endi olim bo'ldi. Nurmat kerosinfulurshning o'g'li urushdan qaytgandan beri institutda dars berib, endi do'xtir bo'ldi. Sen ertadan kechgacha gazetda ishlab, kechqurun bola-chaqang bilan o'ralashib, qandayiga to'rt yilda olim bo'lib qolasan, desam, ko'rasiz-da, deydi...

U otasining endi ancha gapirishini o'ylab siqilib ketdi. Hech kim otasiga qo'ying shu gapni, deya olmaydi-ya!

- Kolxozga rais bo'l, deyishsa, ko'nmabdi. Nima, olim bo'lmasa, non topolmay qoladimi? Qishloqqa kel, raislik yoqmasa, maktabga mudirlik qil, xalqqa aralash-da, axir qachongacha tentirab yurasan menga yordam bermasang ham, odamlarga foydang tengar-ku, desam...

Nihoyat amakisi unga qaradi: "Bir narsa deb otamni to'xtatsangiz-chi. Akam sizga ham qarindosh-ku!" Amakisi tushundi shekilli, ko'zlarini olib qochdi.

- ...Achchig'im chiqib ketdi. Tur yo'qol, ikkinchi eshigimga oyoq bosma, qayoqda sang'ib yurgan bo'lsang, o'sha yoqqa jo'na deb...

- Amaki, qo'ysangiz-chi, shunaqa gaplarni. Uydagi mojaroni nima kerak ko'chada doston qilib...

- E... Sen jim o'tir! Men kuyib ketganimdan gapiryapman. Odamlardan yashiradigan sirim yo'q. Hamma ko'rib, bilib o'tiribdi. Qachongacha yashiraman?! Pustikamarimdan bo'lgan bolam tugul, meni yaratib qo'rgan bo'lsa ham, betiga aytaman. Menga gap qaytarib valdiraysan-da, o'zing unga bir og'iz nasihat qilolmaysan.

- Men nima deyman uningizga? Bir narsa desam, siz tushunmaysiz, unafaq emas, bunaqa deb aql o'rgatadi. Sigirlaringni semirtir, kattaroq og'il solib, mollaringni ko'paytir, deydi. Hangi eshagingning burnini tilsang, charchamaydi, qattiqroq hangraydi, deb kuladi. Bildingizmi! Shunday deb kalaka qilib turgan odamga men nima deyman?!

- Ana, ko'rdingmi! Bu degani tezakka qorishib, og'il tozalashdan boshqasiga aqling yetmaydi, degan ma'nini bildiradi. O'zidan boshqani odam sanamaydi-da! Osmonda yuradi u, osmonda!

Otasining qo'li bir zum havoda qotib qoldi. Bola cho'chib ketdi. - Yerdagilarni oyog'ining uchi bilan ko'rsatadi. Sen nima deb yuribsan hali. U o'zini prapesir sanaydi... Hamma ahmoq, u dono! Hamma onasidan tug'ilgan bo'lsa, u osmondan oyog'ini osiltirib tushgan.

Mahmud aka cho'ntagini timirskilab, nosqovog'ini oldi. Nosqovog'ning orqasiga ko'rsatkich barmog'i bilan sekin-sekin urib boshini orqaga tashlagancha, nos otdi. Amakisi imo bilan nosqovog'ni so'radi... Otasi jimib qoldi. Oraga og'ir sukunat cho'kdi.

- Yo pirim-ey! Uf-f, - deya yonboshlab yotgan Mamat mesh og'ir chayqalib chordana qurib o'tirdi, qorni chalishtirilgan oyoqlariga bosildi.

- Xayrulla, nosqovog'ni tashla bu yoqqa!

Otasi ham nos chekdi. Yana hamma jim qoldi.

- Ey, bu dunyoda qurt bo'lsin, qumursa bo'lsin, rizqini topadi, - deb gap boshladi Mamat mesh kutilmaganda. - Qimirlagan jon borki, o'z tashvishida. Har kimning o'z nasibasi bor. Mana, yoshimiz yetmishga boryapti. Inqilobni ko'rdik - hammasini ko'rdik! Quloq-quloq degan zamonlarda yashadik. Mol-dunyo kishiga vafo qilmaydi. Olimxo'jaboyning ming qo'yi bor edi. Ko'chaga chiqsalar taglarida saman ot, atroflarida o'n-o'n besh murdlari. Ana as'asa-yu mana dabdaba! Nima bo'ldi? Quloq bo'lib dom-daraksiz ketdi. Urushni ko'rdik. Qirq ikkinchi yildagi qish shunday sovuq bo'ldiki, shunday sovuq! E Akram aka, bu Rusiyaning sovuq'i yomon bo'lar ekan. Oyoq-qo'ldan ajralishimga sal qolgan. Qulog'im haliyam sal issiqqa qichishadi.

Negadir amakisining kulgisi qistab qoldi. Bildirmaslik uchun mo'ylovining uchini buray boshlagan-da, ko'zlarini chaqchayib ketdi.

- ...Birovni aka dedik, birovni uka, ishqilib, bola-chaqani och qoldirmadik. Hozir zamon yaxshi. Qaysi uyga kirmang, radiyo... Odamlar kirini ham moshinada yuvadi. Tavba, shu kir yuvadigan

moshinaga qatiq solib, tugmasini bossang, sariyog'ini ajratib berar ekan-a! Ey, bu odamlarning ustaligi...

“Bir narsa demoqchi bo'lsa, gapni aylantirib, oxirini yo'qotib qo'yadi. Avval qurt-qumursqa, keyin inqilob, Olimxo'jaboy, urush, qimmatchilik. Endi kir yuvadigan mashinaga o'tib ketdi”.

- Xayrulla, kechagi oylikdan necha so'm oldingiz? - deb so'radi Mamat mesh dabdurustdan.

- To'yt yush sho'm, - deb javob berdi amakisi og'zida nos borligi uchun soqovlanib.

- Shu suvchilik ham serdaromad ish-da. Nima dedingiz, Akram aka?

Otasi indamadi. Mamat mesh gapida davom etdi:

- Pulni yo'qotmang. Bozor kuni o'zim bir yaxshi sigir olib bera-man. Amakisi gilamni qayirib nosini tufladi, kafti bilan og'zini artdi.  
- Borini eplab olay-chi. Bolalar televizor olib bering, deb ga-rang qilishyapti.

Shu payt otasi ko'krak cho'ntagidan zanjiri uzun soatini chiqardi:  
- Soat ham o'n birdan o'tibdi, Mamat aka. Gap sotib o'ti-rishimizdan foyda yo'q. Turaylik. Qani, omin...

Mamat mesh o'midan zo'rg'a qo'zg'aldi. Sal egilgan ko'yi qulochini keng yoyib, belbog'ini aylantirib esha boshladi.

Mahmud aka Mamat meshning, bola o'zlarining eshagini yetaklab keldi.

Mamat mesh ayilni qaytadan, qattiqroq tortdi. “Shunday katta qorin bilan eshakka qanday qilib minar ekan?”

Mamat mesh ancha vaqt kalovlanib turdi-da, oxiri:

- Mahmudjon, qo'ltiqdan olmasangiz... - dedi xijolatomuz.

Mahmud aka yordamga shoshildi. Mamat mesh: “Yo, pirim!” deya bir amallab o'zini egarga oldi, eshagi beli mayishib, gandi-rakladi.

Mahmud akadan ibrat olgan bola otasiga ko'maklashmoqchi bo'ldi, lekin ulgurmadi. Otasi uzangiga oyoq tirab, egarga yengil o'tirdi. Bola aylanib o'tib otasining bu oyog'iga ham uzangini to'g'riladi.

- Qo'limdan ushla, - dedi otasi, - endi oyog'ingni oyog'imga qo'y!

- Oyog'ingiz qayrilib ketmaydimi? - dedi bola otasining oyo-g'iga oyoq bosishga yuragi betlamay. - Qo'yaver, ikki pud kela-sanmi, yo'qmi, - dedi otasi. U otasi aytganday qildi. - Ana shun-day, qo'limdan mahkam ushla. Qani, ha!

U otasining qo'liga osilib chirandi, gavdasini yerdan uzolma-di. Otasi uning qo'ltig'i osha yelkasiidan tortgandan so'ng egarning ortqasiga minib oldi.

Ular bir muddat jim ketdilar.

Amakisining oyoqlari yerga tegay-tegay deydi: daroz, bo'lali odam bo'lsa-da, eshagi chog'roq, egarida uzangi ham yo'q.  
Mamat mesh gap boshladi:

- Ma'rakasi tuzuk o'tdi. Odam ham yaxshi keldi. Oshi yeyishli bo'libdi. Qurbon yaxshi oshpaz-da. Lekin qirriqroq.  
Otasi indamadi. Amakisi cho'zib esnadi.

Yengil shabada turdi. U junjikib otasiga yaqinroq siljidi, uning yelkasiidan quyiroqqa boshini qo'ydi, yuzi ishqalanaverganidan g'ashi kelib, yana ortga surildi.

“Bu boboylar yozda ham chopon kiyishadi-ya, issiqlab ketish-maydimi?”

Qabristondan daraxtlar sharpasi qarayib ko'rindi. Boyo'g'li qichqirdi, allaqanday qush pitirlab qanot qoqdi, yana jim bo'ldi.

- Mamat aka, - dedi otasi, - ertaga Orziqulni ko'rib kelaylik.

Mamat mesh eshagini xalacho'p bilan bir tushirib qoldi. Jahli chiqib so'kindi.

- Ertalab O'sarni ko'ruvdim, - dedi otasi yana unga parvo qil-may. - Qora novvos bilan g'unajimini bozorga olib chiqar ekan. Bir gap bo'lsa, shoshib qolmay deyaпти.

- Yo'g'-e, - dedi amakisi tashvishlanib, - o'tgan kuni bonga-nimda durust edi-ku! Bir soatcha hangomalashib o'tirdik. Ovqati ham yaxshi edi. Bir kosa sho'ra ichdi.

- Omonat-da, aytib bo'ladimi. Ahvoli yomondir-ki, O'sar yig'inyapti. Aqli bola, sezmasa, bilmasa, bekordan bekorga hov-liqib, menga maslahatga kelmasdi. Bugun borishga vaqt yo'q edi, ertaga boraylik. Choshgohda uyga kelsangiz, Eshmurod bilan Qodir akani ham olib birga o'tamiz. Ularga tayinlaganman.  
Mamat mesh og'ir so'lish oldi, indamadi.

- Mamat aka, - dedi otasi.

- O'zlaring boraveringlar, - dedi Mamat mesh. - Ertaga usta chaqirganman, yonida bo'lmasam, bir o'zi eplolmaydi.

- Qo'ying, vaj-karson qilmang. U yoqda birov... - Endi otasi qattiqroq gapirdi. - Ilhaq bo'lib yotibdi bechora! Necha yillik oshnachiligingiz bor. Sizni deb qamalib ketishiga sal qolgan... Mamat mesh indamay ketaverdi.

U Orziqul boboni yaxshi ko'radi: har gal uchratganda Orziqul bobo: "Assalomu alaykum!" deb uni qizartiradi. U esa sal yaqinroq kelsin, keyin salom beraman deb ulgurilmay qolardi. Chol uni kalaka qilardi: "E, esingizdan chiqib qoldimi? Otangiz bergan tarbiya qani? Muallimlariga borib aytamiz-da, endi". U: "Men salom berguncha o'zingiz shoshilib..." deya tutilib qolardi. Shundan keyin u Orziqul bobo ko'chani narigi boshida ko'rinishi bilan oq "Assalomu alaykum", deb qichqiradigan bo'ldi. Biroq Orziqul bobo o'zini eshitmaganga olib, indamay kelaverardi. U qayta qichqirardi. Chol peshonasiga qo'lini soyabon qilib tomgami, yoki biror qiziq narsa ko'rgandek, yergami tikilib yaqinlashar edi-da, birdaniga: "Assalomu alaykum", der va "Va-alaykum assalom", demay-sizmi, o'g'lim", deb unga ajablanib boqar edi. "Sizdan oldin salom berdim-ku, axir", deya yig'lagudek xunob bo'lardi u. Orziqul bobo achchiqlanardi. "Muallimingizga borib, Maqsudboyga odob o'rgatmabsizlar, deb aytmasammi", deb po'pisa qilardi. U bir kuni onasiga arz qildi. Onasi: "Bobong seni yaxshi ko'rganidan hazil-lashadi-da", deb qo'ya qoldi.

Endi shunday yaxshi kishi og'ir kasal bo'lib yotibdi-yu, Mamat meshning uni ko'rishga borgisi yo'q.

U otasini Mamat mesh nima uchun "aka" deb izzat qilishini birdan tushundi - otasi ukasiga gapirgandek, o'zidan kichik odamni ko'ndirgandek, balandda turib, muloyim ovozdagi gapirar edi:

- Xo'p qiziq odamsiz-da, Mamat aka, ichingiz tor. O'sha gapni haligacha ko'nglingizda saqlab yuribsiz. Qo'ying, o'tgan ishga salavot. Besh kunlik dunyo - to'rt-beshta boboy qoldik. Siz ham, mana, yetmishni qoralayapsiz. Endi nariyog'ini o'ylang, mayda-chuyda gaplarni emas. Ko'ngilni keng qiling, keng. Haqimiz qolmadi, endi bu dunyoga ustun bo'lolmaymiz.

Mamat mesh yana og'ir so'lish oldi.

Chorrahaga yetib keldilar. Mamat meshning yo'li boshqa, u eshagini burdi.

- Tong otsin-chi, xudo bir yo'l ko'rsatar. Yaxshi boring, Akram aka! Aytganday, - Mamat mesh eshagining jilovini tortdi (qishloqda faqat uning eshagiga yugan solingan). - Ish-she, sabil qolgur! Xayrulla, kelasi bozor Sherqo'rg'onga boramizmi? Ola sigir juda chimxo'r chiqdi, quritib kelmasam, siz ham novvosingizni sotmoqchi edingiz-ku. Aktamning moshini bilan ketamiz.

- Men so'ymoqchi edim, - dedi amakisi. - Keyin Sherqo'rg'onda qoramolning narxi pastroq, yutqizasiz.

- Yo'q-yo'q. Kecha bozor Usmonlar borib kelishibdi, yaxshi o'kan.

- Hay, ko'ramiz-da, hali vaqt ko'p-ku, - dedi amakisi dudmal qilib.

- Birga borsak yaxshi bo'lardi-da, - dedi Mamat mesh. - Yonimda tursangiz, har holda, bir kishidan ikki kishi... Yana bir o'ylab ko'ring.

...Ular yo'lda davom etdilar.

- Borarmikan? - dedi amakisi.

- Boradi, - dedi otasi ishonch bilan. - Orziqul yotib qolgan-dan beri nima qilishini bilmay, imoga mahtal bo'lib yuribdi. To'g'ri kirib boray desa, bo'yni yor bermaydi. Birovning yur-yur qilishini kutadi. Sirtidan shunday ko'ringan bilan o'zi yomon odam emas - hozir tixirlik qilyapti, ko'rasan, ertaga borib, Orziqulning oldida ko'zyosh to'kib ham oladi...

- Hali ham o'sha arazimi?

- O'sha. Turib-turib nash'a qiladi odamga - bitta shopulbop tekni deb et bilan tirnoqday ikki jo'ra san-manga borib qolishgan-a! So'raganda Orziqul ham bera qolmagan. Og'zi beparavuz odam - "Tobutingizga nasib qilsin", degan. Ertasiga yarashib ketishlari ham mumkin edi-yu, lekin oraga bir-ikki gap yetaklovchi tushib...

Oy juda-juda balandda, nurli gardishi ichida loqayd suzib botat, yerdagi ikki kishining suhbatini bir maromda, tevarak-atrofga, tovushlarga aloqasiz bir tarzda davom etar edi.



Bola oyga tikilib, uning ikki soacha oldin qanchalar suluv ko'ringaniga ajablanar edi.

Har holda tegrasidagi doira qaydan paydo bo'ladi?

- Ota, - dedi u yurak yutib.

Otasi unga e'tibor bermay gapida davom etdi. U yana takrorladi:

- Ota!

- Nima deysan? - dedi otasi gapi bo'linganiga norozi bo'lib, "Urishib bersa-ya".

- Hu, o'zing atrofidagi doira qaydan paydo bo'ladi?

Otasi boshini ko'tarib oyga, so'ngra amakisiga qaradi, keyin koyib berdi:

- Bola degan gapni gapga qo'shib, kattalar so'zlashganda aralashmaydi, jim turadi.

U noo'rin savol berganidan izza bo'ldi. Amakisi buni sezdi shekilli, o'ziga yaqin olib, izoh berdi:

- Hech qayerdan paydo bo'lmaydi, oy qo'tonlagan-da.

- Qo'tonlagan?!

- Qo'tonni bilasan-ku. Shu, qo'y qamaladigan qo'tonni.

U osmonda o'tlab ketayotgan xo'ppa semiz, dum-dumaloq oppoq qo'yni tasavvur qildi: yulduzlarni bitta-bitta chimdib boradi, qo'toni ham u bilan birga siljiydi.

Otasi oppoq ko'ylakda, ko'rpacha uzra yerga qarab uzala yotdi-da, unga:

- Qani, Saidmaqsud, bir yelkalamni bosib qo'ying, o'g'lim, - dedi.

U to'liqlanib ketdi: otasi undan mamnun bo'lgan, uni yaxshi ko'rgan chog'lardagina sizlard.

U ehtiyotkorlik bilan otasining beliga oyoq bosdi.

- Chiqavering, chiqavering!

So'ng devorni ushlab o'ng oyoq'ini ham qo'ydi. Qaltirab ketdi. Juda balandlikka chiqqanday, yiqilib tushsa, suyaklarigacha mayda-mayda bo'lib ketadiganday tuyuldi.

- Endi asta-sekin yuqoriroqqa yuring.

U avaylab qadam bosdi. Oyoq'ini otasining salqigan terisi bilan toyirilganda, to'xtab qoldi. Otasining suyaklari qisirladi. Uning ko'ngli allanechuk bo'lib ketdi.

- Chap yelkamni bosing!

Otasining suyaklari yana qisirladi,

- Endi o'ng yelkamni.

U devorga ikki qo'llab suyandi. Tizzalaridagi titroq pasaydi.

- Endi ikki yelkamning o'rtasini.

Otasi juda bahaybat, pahlavon odam tuyuldi unga.

"Uch yuz kilolik toy paxtani yelkasiga olib, yuz qadam yurish-dan garov o'ynab yutgan. Mening og'iriligim nima bo'libdi".

U dadillanib bir tekisda mayda qadam tashlaganicha otasining kiftida u yoq-bu yoqqa borib kela boshladi. Otasi rohatlanib, bir necha marta uh tortdi. "Baraka toping!" deb alqadi.

Dunyoda undan baxtiyorroq odam yo'q edi.

- Ha, ana shunday!

Onasi choy ko'tarib kirdi.

- Ko'p yashang, o'g'lim! Tush endi.

U chiroqni o'ziga yaqinroq suradi, lo'labolishga ko'kragini bosib kitobini ochadi.

"Orziqul bobo o'lsa, O'sar aka juda yomon kunga qoladi-da. Odam qanday qilib o'ladi, a? Joni qayeridan chiqib ketadi? Narigi dunyoda juda yomon bo'ladi-ku! Oqshom mozoratda bir o'zi... Hammayoq qop-qorong'i. Chiqay desa ustida qalin tuproq... Munkar-nakir keladi... Uh-h, qanday qo'rqinchli!.."

U kitobning navbatdagi varag'ini ochayotganda, hech narsa o'qimayotganligini sezib, yana qayta boshdan o'qishga tutindi.

"Otam ham qariyapman, deydi. Qariyverib-qariyverib, oxiri o'lib qolsa-ya! Yo'q, otasi hali baquvvat. Bugun o'zi qo'rqdi, bo'lmasa kiftida o'yin tushsa ham otasi parvo qilmas edi. Shunday kuchli otasining o'lishi mumkin emas. Otasi o'lmaydi, sira-sira o'lmaydi. U ham hech qachon otasini tashlab, shaharga ketmaydi. Maktabni bitirgandan keyin shaharni rosa tomosha qilib, ko'p kitob olib qaytadi-da, umrining oxirigacha otasining yonida yashab, unga xizmat qiladi, duosini oladi. Otasi bilan birga qariydi. Akasi noto'g'ri qilgan. Nega u otasini sog'inmaydi, a? Har kuni otasini ko'rmay yashashga qanday chidaydi? Otaning qarq'ishiga qolgan odamning ishi o'ngmaydi. "Ota qarq'ishi - o'q", deydi onasi. Mana, endi qanday qilib olim bo'ladi? Hamma hayiqadigan, hur-

mat qiladigan otasini qanday tashlab ketish mumkin! Qariy-qariy, oxiri mukkullab, o'rnidan birov qo'ltig'idan olmasa turolmaydigan, eshakka o'zi minolmaydigan bo'lib qolsa, uni kim boqadi?! Akasi shuni o'ylamagan-da. U otasini..."

... U oq qo'yg'a minib olib, ko'zlarini qamashtirayotgan gardish devorning eshigini axtaradi. Oq qo'y esa tixirlik qilib yurmaydi, bir joyda qotib turaveradi. Pastda otasi qo'lini paxsa qilib qichqiradi: "Miyang xatomi sening! Nega oyga minib olding? Yana yiqilib tushib boshimga balo ortirma. Seni ko'tarib do'xtirma-do'xtir chopib yurmayin. Yaxshilikcha tush, devapman, bo'lmasa olmaga oyog'ingdan osaman". Otasining yonida Orziqul bobo qotib-qotib kuladi: "Ana, xolos! Bizni pulisirotdan o'tkazib qo'yadigan qo'yni minib olibsiz-ku! Muallimingizga borib aytmasammi". Mamat mesh eshagidan tushmay otasiga taskin beradi: "Qo'ying, inda mang, bolaning o'zi xohlab tushmasa, majbur qilib bo'lmaydi. Ko'p o'qigan-da. O'qimasa, oyga chiqarmidi". U hadeb yaraqlayotgan gardish devorning eshigini axtaradi, devor esa uning ko'zlarini qamashtiradi, eshigi esa ko'rinmaydi. Oq qo'y ham tixirlik qilib joydan siljimaydi. U qo'yni xalacho'p bilan uradi, qo'yning junlari oyog'iga o'ralashib qoladi. Birdan dimog'iga achqimtil hid uriladi-yu, uchib ketadi. Otasi esa negadir muloyim ovozda gapirib qoladi: "Ha, nodon bola-ya, yana chiroqni o'chirmabdi..."

- Ha, nodon bola-ya, yana chiroqni o'chirmabdi. Uyqusirab tur-tib yuborsa bormi!

Chol oriqqina o'g'lini avaylab ko'tardi. O'g'li quchog'ida uyqusirab cho'chib tushdi, allanarsa deb g'udrandi. Chol o'g'lini joyiga yotqizar ekan, mehri iyib ketdi.

"Hali qirday yigit bo'ladi. O'jarligi ham, achchig'i ham - o'zim. Akalaridan ko'rmaganimni shundan ko'raman".

Chol o'g'lini hech qachon urmagan, hatto chertmagan ham. Faqat mushtday boshidan bu qadar ko'p kitob o'qiy boshlaganiga tashvishlanadi, xolos.

Pastdan, qishloqning ichidan tovush sal balandladi-yu, o'chdi, past g'ovur eshitildi - Orziqul qaytish qildimikan - tovush O'sarmikiga o'xshaydi, boshqa og'ir yotgan odam yo'q...

## ERKIN A'ZAM

1950-yilda Surxondaryo viloyatining Boysun tumanida tug'ilgan. Toshkent davlat universitetini (hozirgi O'zbekiston Milliy universiteti) tugatgan. Dastlabki hikoyalar to'plami - "Chiroqlar o'chmagan kecha" (1977). "Otoyining tug'ilgan yili" (1981), "Olam yam-yashil" (1984), "Javob" (1986), "Bayramdan boshqa kunlar" (1988), "Pakananing oshiq ko'ngli" (2001), "Kechikayotgan odam" (2002), "Jannat o'zi qaydadir" (2007), "Shovqin" (2011) kabi qissa va hikoyalardan iborat kitoblari nashr qilingan. "O'zbekiston xalq yozuvchisi" unvoniga sazovor bo'lgan (2016).

## ANOYINING JAYDARI OLMASI

U har yili xuddi bir paytda - yerdan qor ketib, tentak shamollar esa boshlagan ko'klam kunlarida kelardi; shamollarga qo'shilib, shamoldek to'polon bilan kirib kelardi. To'satdan. Yelkasida - ha, qo'lida emas, yelkasida - ikki tarafga ham "Barnaul" deb yozilgan pachoq jomadon, chap ko'zini qisingiragancha qarshingizda beo'xshov tirjayi-ib turadi. So'ng, jomadonni harakatsiz buyumdek bir chetga ulotiradi-da, qulochlarini keng yozib, bolaligingizni yodga soladigan, bolaligingizdek sho'x, bolaligingizdek beg'am ovoza hayqiradi:

- Chantrimore-e!

Siz esa - uni ko'rganingiz zahoti g'am bosib, tashvishga cho'ma-tiliz: xayr endi, osuda kunlarim! U hali shunday g'ala-g'ovurga ko'mib yuboradiki! Biroq ayni damda, har ikkalangiz uchun qadri, shartli bu g'alati taomilni buzishga haqqingiz yo'q.

- Kalamakatore, - deysiz istar-istamas. - Yana keldingmi? Yana o'qishgami?

- Senginaning jonginanga tegishga! - deydi u va battar g'ashingizni qo'zg'amoqchidek, belingizdan mahkam ko'taradi, aylantiradi. - Ha, jo'ramdan-da, jo'rajonimdan-da!

Uyga kiritilgach, egasidek betayin - qulflansa ochilmaydigan, ochilsa qullflanmaydigan antiqa jomadon ming bir amal-taqal bilan ochiladi. Xona kuzaki olmalarning hidiga burkanadi. Bir yog'i qirmizi, bir yog'i xol-xol, bandining tubi qizil qumga to'lgan olmalari; ko'rimsiz, jaydari olmalar. Bolaligingiz olmalari, bolaligingiz hidlari. Boshingiz aylanib ketadi. Ko'p narsa birdan esingizga tushadi, entikasiz. Shu tobda uni quchoqlab olgiz, "Jo'rajon!" deyingiz keladi. Ammo, nimadir - boyagi g'ashlikmi, g'ururmi yo'lib bormaydi, ijirg'anib so'raysiz:

- Nimaga kelding, Ramazon? Baribir kirolmaysan-ku?!

- Kirsam-chi? - deydi u yana chap ko'zini qisinqiragancha tirjayib. - Kirsam-chi?

- Kirolmaysan! Xudoga ham, bandasiga ham ayon!

- Mayli, jo'ra, buyam bir gap-da. Mana, sen o'qiyapsan-ku, bo'ladi-da menga shu. Qo'y-e, manavi olmalarga qarasang-chi! Bunaqasi Bog'i Eramda ham bitmaydi! - So'ngra u jomadonini titkilab, o'n qavat dag'al qog'ozga o'ralgan allanimani chiqaradi: - Mana buni enang berib yubordi, suzma-chakki. "Chalob qilib ichsin, chanqog'i bosiladi, - dedi. - Shaharlik qizlardi ketidan yuguraverib tomoqqinalari qaqrab ketgandir bolaginamning", dedi.

Jomadon, o'sha ma'lum va mashhur jomadon tag'in talay hiyla-yu hangoma bilan yopiladi. Bu jomadonni u harbiy xizmatdan olib kelgan edi. Kelishi ham qiziq bo'lgan. Xuddi hozirgidek to'satdan paydo bo'lib qolgan. Xizmat qilgan joyi - Barnaul haqida vaysayverib kechasi bilan uyqu bermagan. O'sha yerda tug'ilib, o'sha yerda o'sgan kabi gapirgan gapi nuqul - "Bizda Barnaulda unaqa, bizda Barnaulda bunaqa". Ovoziga ohang berib, ruscha so'zlar qo'shib gapirganiga nima deysiz! Ensangiz qotib jerkinganizdan keyingina bir tirjaydi-yu, yana azalgi tovushi bilan shang'illab gapira boshladi. Ertalab yuzingizga ko'pik chapiyotganingizda, "E, salaga, zelen!" deya ustarani qo'lingizdan olib harbiychasiga soqol qirishni ko'rsatdi; sip-silliq bo'lib qolgan iyak-chakaklaringizga jomadonidagi askarlik atiridan sepib qo'ydi,

O'shanda u - harbiy xizmatdan qaytayotgan odam - uch-to'rt kun bemalol Toshkentda yurgan, bir oqshom dabdurdustdan "Barnaulga ketaman!" deb turib olgan edi. "Esing joyidami, xizmatni tugatgan bo'lsang, Barnaulda nima bor senga?" "E-e, uyga borgim kelmayapti. Bir xat olgan edim..." Ammo qanaqa xatligini aytmagan, qiyin-qistov bilan, bo'ynidan bog'lagandek arang jo'nagan uyiga. Endi ham o'qish bahona har kelganida "Bir yoqlarga ketsammikan, jo'ra?" deb qoladi o'z-o'zidan ma'yus tortib. "Ha, tag'in Barnaulmi? - deysiz ensangiz qotib. - Xudo ursin, miyang xato sening, Ramazon!" "To'g'ri aytasan, jo'ra, xato. Nima shunday, o'sha yoqqa ketgim kelaveradi-da. Ey-y, sen tushunmaysan!"

...Ramazon jomadoni qirrasiga o'tirib olib, "Quloq sol", deydi-da, shang'illagancha gap boshlaydi: - Boysundan gapiramiz! Toshkentda uloqib yurgan boysunlik musofirlar uchun beriladigan eshittirishimizni boshlaymiz! Ona ahahringiz yangiliklari bilan tanishing!

Ashur kal eskilik sarqiti sifatida nosdan voz kechib, zamonaviylikka intilib sigaretga o'tibdi ("Koshki foydasi bo'lsa, telpakni tashlab, shlapa kiyganida ham baribir hammaga ma'lum: boshi valtiroq kal!"); o'zining bobosi ko'knorning kayfida momosi bilan g'jillashib, ammasining chorbog'iga ko'chib ketibdi ("Meni boshqa narsa o'ylantiradi. Ukkag'ar boboning bir sandiqchasi bor. Boshining ostiga qo'yib yotardi doim. Gap ko'p-da unda. Olib ketdi! O'shandan umid katta edi"); Esonberdiyev, o'sha g'o'ddaygan "Esonberdiyev-hukumat", Boysun tarixidagi battol milisa, iste'foga chiqqach, Qo'rg'onchadagi nafasi o'tkir mulladan bir oy eskicha shaboq olib, dastor o'rab qaytibdi, hozir xatmi Qur'on-u chilyosingacha usiz o'tmas emish ("Bir kuni xudoyiga ketayotib boshida salla, qo'lida aso, milisaxona oldidan o'tganda chest berib yuboribdi")...

Ramazoning hangamalarini tinglarkansiz, Boysun oralab yurgandek, ajabtovur odamlar to'ldasiga kirib qolgandek bo'lasiz. - Tur endi, ko'cha aylanaylik, - deydi u "yangiliklari"ni aytib tutgach.

- Seni bi-ir lag'monga to'ydiray, to'rt tiyinlik "dumba-jigar" somsadan yeyaverib oshqozoning kalla-pochaga to'lib ketgan-dir. Menga qara, to'rt tiyin-to'rt tiyin yig'ib, shu somsachiga bir

haykal qo'ysalaring-chi, a? Maslahat-da buyam. Beshyog'ochning o'rtasiga! Tatigan tuzingga tovon-da.

Ramazon turish-turmushi bilan shaharga yarashmaydi, shaharga sig'maydi. Unga qo'shilib ko'chaga chiqqani ham uyalsiz. Yurgan yo'lida lakalov qiliqlar qilib, hammani o'ziga qaratib, shang'illaganicha allanimalarni vaysab ketaveradi. Lug'ati ham an-tiqa: tramvayni "uch tiyinlik" deydi, taksini - "pulyutar", restoranni - "registron". Xudo deng, yo'lida suratxona uchramasin - tilla topgan tentakdek qichqirib yuboradi u:

- Ana-a!... Yur, jo'rajon, bir portretga tushaylik!

- Portretni nima qilasan?

- Esdalikka-da. Bir kun katta odam bo'lib, burning ko'tarilib ketsa, "Mana, ikkovimiz jo'ra edik", deb o'zingga ko'rsataman.

- Ko'rsatsang nima bo'ladi?

- Uyalib, burning yana... joyiga tushadi.

- Gapni qarang, burnim joyiga tushar emish! - deyman uni er-maklab. - Xo'sh, qanday turmoqchilar suratda?

Ramazon ko'chaning o'rtasida tomosha yasab, zavq bilan tushuntira boshlaydi:

- Sen o'tirasan, to'g'riga qarab. Men tepangda tik turaman, mana bunday. O'ng qo'lim sening yelkangda, ko'zim chap bilagimdagi soatda bo'ladi. Ikki jo'ra! Qalay, zo'r-a?

- Qo'ysang-chi, - deyman, uylarining to'riga osig'liq - otasi quroldosh og'aynisi bilan xuddi shunday holatda tushgan surat ko'z oldimga kelib. - Bobom zamonidan qolgan poza-ku bu!

- Bo'lmasa, yur, sening fozangga tushamiz, jo'rajon, padrushka qilib...

Ramazonga hammayoq - o'ziniki, ko'rgan odami - amnavach-chasidek sinashta, darrov gap qo'shib, apoq-chapoq bo'lib olaveradi. Oshxonada navbatga turganida duch kelgan kimsaga: "Ho'v jo'ra, anavi joyni band qilib, choy-poy tayyorlab turing", deyishi hech gap emas. Muqarrar mojaroni kutganingizda ahvol boshqacha bo'lib chiqadi: haligi kishi bir zum Ramazonga bagrayadi-yu, al-lanechuk itoatkorlik bilan bo'sh choynak qidirib ketadi. Ramazon ham qarzdor bo'lib qolmaydi: u qiladi, bu qiladi - o'sha zahoti uning ko'nglini oladi. U xo'jalik do'koniga kirib boshog'riq dori

so'rashi ham mumkin, xotirjam bo'ling - albatta topib berishadi. U qo'pol qilib so'raydi - unga muloyim javob qaytarishadi.

Ana shunday bizning Ramazon! U bir gal hatto Toshning ham kapalagini uchirgan!

Beshyog'ochda Tosh degani bo'lardi, bezorilarning bezorisi. Rostmi, yolg'onmi, "Pichoqlashib, uch marta qamalgan, tog'asi kattakonlardan, o'sha qutqargan", deyishardi. O'zi maroq bilan eslarmish: "Hi, shundoq qilgan - hazillashib qo'yganimiz-de". Xudo ham turqni o'ylab bergan: kalla tarvuzdek, qorin - tarvuzcha, barra - korsonning o'zi, sergo'shtlikdan ko'zlar ko'rinmaydi, tilla tishlar doim tomoshaga irshayib turadi. Katta-yu kichik uni "aka" deyishga majbur, o'zi esa hammani, avji kelsa, otasi tengini ham sensirayveradi. Bir to'da "shotiri" bilan erta-yu kech kinoteatr oldida pista chaqib, o'tgan-ketganni tergaydi. Borib yetti bukilib ko'rishmasangiz - kun yo'q. "Hi, o'qivossanlar-mi? - deydi, ko'zi boshqa yoqda, ko'kimtir yozuvli biqqi burmoqlarining uchini cho'zib. - Malades, o'qilaring. O'qib bo'llaring-de, quyonni rasmini chizlaring".

Ramazon ana shuning kapalagini uchirdi. Kinoteatr yonidan o'tishda men yugurgilab borib Toshga qo'l uzatdim. U "Hi, o'qivossanlarmi?" dedi-yu, to'rt-besh qadam narida turgan Ramazonga ko'zi tushdi.

- O'vv, kelmaysanmi mana bundoq!

- Nima deysan? - Ramazon, kaftida nos, oyoqlarini kergancha beparvo g'o'ddayib turardi. - Gaping bo'lsa, o'zing ke!

O'lding, Ramazon, hozir dabdalang chiqadi!

Ajabo, Tosh men bilan tezgina xayrlashdi-da, unga xavfsirab qaray-qaray zipillaganicha kinoteatrga kirib ketdi (Negadir bu safar yonida sheriklari yo'q edi). Tosh, kallakesar Tosh qo'rqdi! Umrida chumchuqqa ozor bermagan nimjonga Ramazondan qo'rqib qoehdi! (U keyin bir kuni mendan so'radi: "Anuv og'ayning ja-a anaqa-ku, a, kim edi?") Loqaydgina javob qildim: "E, o'zi shunday. To'rt marta qamalib chiqqan-da. O'shanda ham qamoqdan kelayotgan edi". Shundan so'ng Tosh men bilan yuzimga qarab, quyuq so'rashadigan bo'ldi).

Bu haqda Ramazonga gapirganimda u rostakamiga ajablandi:

- Nimasidan qo'rqaman? Beshyog' och enasining mahriga tushganmi?

Ana shunday bizning Ramazon!

\* \* \*

Malika ikkimizga boshlab oq fотиha bergan ham shu - Ramazon. Endigina tanishgan, kinoteatrlarga qatnab yurgan kezarimiz edi. "Yur, sening ham madaniy saviyang oshsin", deb bir gal Ramazonni teatrغا ergashtirib bordim. Madaniy saviyasi oshgan-oshmaganini bilmadim-u, yugurdi-yeldi - bilek topib bizni xursand qildi, tanafus mahali shampun-u muzqaymoq ulashib, Malikaning ko'nglini topdi. Ammo bir vaqt tomdan tarasha tushgandek, unga qarab salmoqlangancha "Keli-in, endi-i, bizning Boysunlar ham yomon joy emas", deb qolsa bo'ladimi! Xijolatdan muzlab ketdim. Malika jimgina kulimsirab qo'ydi. Teatrdan keyin uyiga kuzatayotib, Ramazonning qo'polligi uchun uzr so'raganimda, u "Do'stlaringiz ichida eng yaxshisi shu ekan", dedi.

Bizning Ramazon ana shunday!

\* \* \*

U har yili o'qishga kirmoqchi bo'lib keladi. Kelgani bilan koshiki imtihonni o'ylasa - karavotim ostidagi, burnog'i yil o'zi tashlab ketgan darsliklarni bir-bir qo'lliga oladi-yu, ochib ham ko'rmay, qaytib joyiga uloqtiradi.

- Gurungdan ber-e, jo'rajon! - deydi shang'illab.

- Ramazon, kirolmasliging aniq, yaxshisi - ket, - deyman jahlimni bazo'r yutib. - Sen, senki kirsang, men tashlab ketaman shu o'qishini, xudo ursin! Maktabda qanday o'qiganing dunyoga doton-ku!

- Hay, hay, men kirmasam kirmayin-u, lekin sen unaqa qila ko'rma - Toshkent sho'irsiz qoladi-ya! - deydi u qo'llarini ko'ksiga qo'ygan ko'yi yasama tazarru bilan. Keyin hiringlaydi: Algebradan "besh" olganim esingdami?

Esimda, Ramazon bir gal darsda odatdagidek "javob" berganida, ya'ni churq etib og'iz ochmaganida devonafe'lroq matematika muallimimiz "Haydarov, bugun men sizga "a'lo" baho qo'yaman,

shuncha yil maktabda o'qib armon bilan ketmang-da", deya unga chindan ham "besh" qo'ygan edi...

Ramazon tong saharda - hali men shirin tushlar ko'rib yotgan paytda turib, nonushtaga Beshyog' ochdan "dumba-jigar" somsa va qatiq olib keladi. So'ng rasioni vang qilib qo'yib, changitgancha xonani supurarkan, xunuk, yoqimsiz tovush bilan hamma qo'shiqqa bir xilda "jo'r bo'ladi".

*Xush qol endi-i, Zuhroxonim,*

*Ayro tushdi-i bu jo-on sendan...*

Nonushtadan keyin men o'qishga jo'nayman, Ramazon ko'chaylangani chiqadi. Goho shu bo'yi uch-to'rt kun ketadi. Bir kuni darsdan kelsam - mushshayib qotgan non kavshab o'tirgan bo'ladi.

- Qayoqda eding?

- E, yuribmiz-da.

So'ng, o'tirib-o'tirib Barnaulga jo'namoqchi bo'ladi: aldab-suldeb yo'ldan qaytaraman.

- Nima qilay bo'lmasa, jo'rajon, ayt?

- Uyga jo'na.

- Qanday ketaman?

- Qanday ketarding - bilek olasan-u poyezdga chiqasan.

- Tekin bilek kerak-da menga.

- Iye, puling ko'p edi-ku?

- Endi yo'q-da, jo'rajon, nima qilay?

Keyinroq eshitib qolaman. Ramazon hamshahar talabalarimizdan bir-ikkitasini topib, bor puliga o'shalar bilan yallo qilgan, ularga osh bergan. Oshini yeb bo'lgach, miriqib-miriqib bu inoyi-ahmoqning ustidan kulishgan. Qo'shilishib o'zi ham kulgan. Endi esa yo'likraga pulni mendan undirmoqchi!

"O'qishga kiraman!" deya kerilib kelgan azamat, imtihon tugul, kitobning ham yuzini ko'rmay, qanday paydo bo'lgan bo'lsa, shunday jo'nab qoladi: to'satdan.

- Akangning safari qaridi, jo'rajon!

- Ketganing rost bo'lsin! Endi kelib ovora bo'lib yurma!

- Kelasi bahor kutaverasan!

Ana shunday bizning Ramazon!

Xudo omadni ham o'Ichab, misqollab berar ekan. U bir ketssa... hammasi ketar ekan. Ramazonni qamalgan, deb Toshga maqtaganimda farishtalar kaftlarini keng yozib, "Omin!" demoqqa shaylanib turishgan ekan: Ramazon qamaldi!

Bu safar ham u odatdagidek bir jomadon va bir to'rxalta olma bilan kelgan edi. Malikaga o'zi otgan tulki terisini sovg'a qildi - bulturgi va'da. Biznikida ikki kun turdi-yu, o'zicha bir balolarni valdiray-valdiray, jomadonini ko'tarib allaqayoqqa g'oyib bo'ldi. Oradan uch kunmi, to'rt kun o'ttich, menga militsiyadan chaqiruv qog'ozi keldi.

Ramazonning jo'rasi ekanim - go'lligim, soddaligim basharamga bitilgan shekilli, tergovchi - sarg'ishdan kelgan, ko'kko'z kishi meni kutilmagan dag'dag'a bilan qarshi oldi:

- Sizni qamoqqa olamiz, og'ayni!

Ko'z oldim qorong'ilashib ketdi. Ishga kirganimga bir yil ham to'lgani yo'q, Malika bilan to'yimiz o'tgan yozda bo'lgan, u hozir uyda o'tiribdi - o'g'ilmi, qizmi kutyapmiz. Shunday bir paytda... Nega? Nima sababdan?

Tergovchi sababini aytdi.

Bundan besh kun oldin Haydarov Ramazon uch jomadon olma-yu anor va ikki quti uzum bilan Novosibirsk poezdiga chiqayotgan mahalda qo'lga tushibdi ("Jo'ra, bir Barnaulga borib kelay deyapman. Tomoshaga. Xizmat qilgan joylarim, sog'inibman"). Pastda ular ikki kishi ekan, kupeda esa to'satdan bittasi g'oyib bo'lib qolibdi.

Dastlabki tergovning ko'rsatishicha, qochgan chayqovchi - ishboshi. O'sha men emishman!

- Kim aytdi, kim? Isbotlang! - deya joyimdan turib ketdim.

- Kim aytardi, sherigingiz - Haydarov!

La'nati Ramazon! O'zing tushgan choonga meni ham tortmoqchi bo'libsanda? Nomard, chayqovchi!

- Chaqiring! Yuzlashtiring! - Shosha-pisha yonimni kavlab, xizmat guvohnomamni tergovchining oldiga otdim: - Mana, ko'ring!

Tergovchi unga anchayin bir ko'z tashladi-yu, qaytib qo'limga tutqazdi, sinovchan tikilib so'radi:

- Og'ayningiz avval ham chayqovchilik bilan shug'ullanarmidi? Shunda og'zimdan chiqqan gap uchun o'zimni hech qachon kechirmasam kerak:

- Shug'ullangan bo'lsa bordir, men qayoqdan bilay? U og'aynim emas, shunchaki hamqishloq, hamshaharmiz.

- Shunaqami? U sizni og'aynim, yaqin og'aynim, dedi-ku?! Hozir olib kelsam, og'aynim emassan, deb yuziga ayta olasizmi?

- Bo'пти, sizga ruxsat, - dedi tergovchi chaqiruv qog'ozi imzo chekib berarkan, sovuqqina bir ohangda. - Iloji bo'lsa, uyidagilarga xabar qilib qo'ysangiz - kelasi jumada sud. Ha, shoshmang. U siz haqingizda hech nima degani yo'q. "Og'aynim bo'ladi, ikki kecha uyida yotdim", dedi, xolos. Keyin tergovchiga anqayib qaradim.

Sudga ikki kun qolganda - kuyadori hidi anqib turgan kostumiga urushda olgan medallarini taqib Ramazonning otasi va sovxozda haydovchilik qiladigan akasi yetib keldi.

Ota ko'rgan odamiga nuqul bir gapni takrorlaydi:

- To'ydan qochib kelib edi. Tog'asining qiziga ko'ngli yo'qmi, to'ydan gap ochdingiz - o'qishni bahona qilib, Toshkandga jo'naydidi. Armiyadan qaytgandan beri shu ahvol. U yoqda enasi og'ir yotibdi, "Ulimning mavridginasini ko'rmay ketadigan bo'ldim-da", deb chirqillagani-chirqillagan. Bozor bormoq tugul og'zidagini eplab yutolmaydigan bolaning bu ishini qarang endi!

Tajangroq akaning battar tajangligi tutadi:

- Shuningizni o'zi boshdan erkalatib yubordingiz-da, ota! Oyog'iga kishan urib bo'lsa ham, to'yni boshlash kerak edi. Bu muttahamga nima yetishmasdiki, bizni bunday sharmanda qilib o'tiribdi!

Ota turib-turib mendan noliy ketdi:

- A, jivanjon-a, siz-ku o'qigan, esliroq edingiz, jo'rangizni yo'ldan qaytarmabsiz-da! Nima kasofat urdiki...

Ramazonning sudi ham o'ziga o'xshadi - qip-qizil hangoma! Sudya - ko'zoynak taqqan, o'rta yoshlardagi barvasta ayol - yigirma yil shu sohada ishlab, bunday antiqa sudni ham, bunaqa g'alati sudlanuvchini ham ko'rmagan bo'lsa kerak. Butun sud davomida u ishni harchand yengillashtirishga urinmasin (otaning ko'krigidagi medallar, onaning og'ir yotgani to'g'risidagi spravka-yu boshqa

ijobiy qog'ozlarning xizmati tufayli bo'lsa kerak), ayblanuvchining o'zi unga sari battar chalkashtirar, chigallashtirar edi. Ramazon hozir ayblanuvchidan ko'ra ko'proq qiziqchiga, o'zini atay merovlikka soladigan sirk masxaraboziga o'xshardi. Sochi tap-taqir olingan, egnida - yotgan joyidagi allakimning ola-bula, yoqasi ochiq bachkana ko'yilgi. Qo'llarini orqaga qilgancha burchakda alla-nechuk kulgili tarzda qo'qqayib turibdi. Go'yo bu yerda bo'layotgan gaplarning unga sira aloqasi yo'q - to'planganlarni shunchaki kuldirishti, maroqlantirishi lozim, xolos. Savolni tushunmagandek ko'zlarini pikipiratib, xonadagi yigirma chog'lik odamga bir-bir qarab chiqqandan so'ng shiftga tikilgan ko'yi shunday bir gapni aytib yuboradiki, sudya ko'zoynagini qo'lga olib baqrayib qoladi: goh yelkasini qisadi, goh boshini changallaydi. Boshqalar ham shunday. Ramazonning o'zi esa menga qarab xijolatomuz iljayib qo'yardi. Tergov beraverganiga joniga tekkanmi yoki birga yotgan tajribali sheriklarining turli-tuman yo'l-yo'riqlari gangitib tashlaganmi, xullas, uni qandaydir jin chalgani aniq edi.

- Ayblanuvchi Haydarov Ramazon, oldin ham shu ish bilan shug'ullanganmisiz? - deb so'raydi sudya.

- Men, Haydarov Ramazon, 1950-yili Boysun rayonida tug'ilib edim. Keyin... - deya tutilib qoladi.

- Ayblanuvchi Haydarov, hech kim sizdan tug'ilgan yilingizni so'rayotgani yo'q. Oldin ham chayqovchilik qilganmisiz, deyapman?

- Keyin maktabni bitirib, Sovet Armiyasi safida xizmat qilib edim. Keyin bo'lsam...

- "Keyin, keyin"... - Sudyaning ensasi qotdi. - Hayda-arov!

Bu gaplar hammasi mana - ishingizda yozilgan. Siz bizga aytgiz: avval ham qilganmisiz shu ishni?

- Qanaqa ishni?

- Uf-f! Chayqovchilik-da!

- Yo'-o'q... E, qilganman, qilganman.

- Iya, dastlabki tergovda "Chayqovchilik bilan shug'ullanmaganman", degan ekansiz-ku?

- Shug'ullanmaganman-da o'zi.

- A, hozirgina nima dedingiz?

- Shug'ullanmaganman, desam... ishonasizmi?

- Uf-f... Aytgiz-chi, sheringiz kim edi?

- Sheringim, sheringim... bilmayman... yo'q edi.

- Shuncha yukni bir o'zingiz qanday ko'tarib chiqdingiz poyezdga? Biror kishi yordam bergandir?

- Hech kim yordam bergani yo'q, o'zimiz... e, o'zimiz! Nima, jomadon ko'tarib yurish qiyinmi? Ichida to'rt-besh kilogina olmasi bor edi, xolos.

- Menga qarang, Haydarov, uch jomadon va ikki quti bilan qo'lga tushgansiz-ku? Qolganlari kimniki edi bo'lmasa?

- Demak, ular boshqa shaxsga tegishli bo'lgan. Organ odamlari kuzatayotganini sezib, u sizga tashlab qochgan, shundaymi? A, Haydarov?

- Shunday... E, yo'q-yo'q, meniki edi, meniki!

- Ayblanuvchi Haydarov! Esingizni yig'ib oling. Yo tob-pobingiz yo'qmi? Qayeringiz og'riyapti, aytgiz, sud majlisini to'xtataylik.

- Ebi, nimaga? Soppa-sog'man.

- Bo'lmasa aytgiz: buncha uzum-u anorni ko'tarib qayoqqa ketayotgan edingiz? Nima maqsadda?

- Shunday, aylanib kelgani. Barnaul - xizmat qilgan joyim. Zo'r joy, og'aynilarim ko'p u yerda.

- Shuncha narsani og'aynilaringizga olib borayotgan ekan-sizlar-da?

- Yo'g'-e, men ularga to'rttagina olma olgan edim, bo'ldi. Quruq bormayin deb.

- Uzum bilan anor-chi? Ularni sotmoqchi bo'lgansiz-da?

- Nega sotaman? Axir u... Bilasizmi, men Barnaulga...

- E, Barnaul, Barnaul... Olmani qayerdan oldingiz?

- Qayeringiz nimasi? Chorbog'dan-da. Kuzda boring, chor-bog'imizga to'lib yotadi, yerga to'kilib.

- O'sha yoqdan olma ko'tarib kelish shartmidi? Sovg'aga ekan, Toshkentdan olaqolsangiz bo'lardi-ku?

- Bu yerning olmasi bo'lmaydi-da, taxir, dorining ta'mi keladi. Bizda shunday bir olma bor, Boysunning olmasi, "jaydari olma" deyimiz. Boshqa joylarda bitmaydi unaqasi. O'zi ko'rimsizrog'-u, lekin shunday shirin, shunday shirin, yesangiz...

- Mayli, mayli, Haydarov, keyin yeymiz olmani...  
- Zo'r olma-da lekin. Bu, hozirgi olmalaringizning bari buzilib ketgan. Har baloni payvand qilaverib aynitib yuborishgan-da. Faqat bizlarda qolgan unaqasi. Men o'zim olmani uncha yaxshi ko'rmayman, yesam - ko'nglim ayniydi.

- Ha-a, demak, olma o'zlaringizniki, uydan olib kelgansiz?  
- Iye, ishonmasangiz, ana - otam o'tiribdi, akam o'tiribdi, jo'ralarim - so'rang! Ka-atta olmazorimiz bor! Yo to'rt kilo olмага ham spravka olib kelaymi?

- Bo'пти, bo'пти, ishondik. Demak, siz uyingizdan to'rt-besh kilo olma olib, o'sha o'zingiz aytgandek, hech joyda bitmaydigan antiqa olmadan olib, birga xizmat qilgan og'aynilaringizni ko'rib kelgani Barnaulga jo'nagansiz. Bittagina jomadon bilan, bittagina! A, qolgan narsalar kimmiki edi - uzum, anor?

- Uka, tushsangiz-chi, biz sizga yordam qilmoqchimiz.

Yaxshilab o'ylab, to'g'risini aytg. Taqdiringiz hal bo'lyapti, axir!

- Opajon, bir marta kechiring!

- Men sizga "opajon" emasman!

- O'zingiz "uka" deyapsiz-ku, men nima deyin sizni? Otingizni bilmasam, familiyangizni bilmasam...

- Otimni bilishingiz shart emas. Men siz uchun - grajdanin sudyaman!

- Men ham grajdanman.

- Yo'q, siz endi - ayblanuvchisiz, aybdorsiz!

- Men... aybdorman?! Aybdorman, kechiring...

Sudya ko'zlarini qattiq yumib, boshini changallagancha sarak sarak qildi.

Bu gaplar hammasi tushimda kechayotgandek edi (Tushda bo'lmay, hayotda ham shunaqasi bo'ladimi, axir!).

Hukm o'qildi. Chayqovchilikda ayblangan Haydarov Ramazon bir yilga ozodlikdan mahrum etildi.

U bo'ynini qiyshaytirgancha mung'ayibgina turardi. Hukmni eshitib asta boshini ko'tardi, nimadandir xijolat chekkan misol g'alati iljaydi! Iljaydi! Go'yo qamoqqa emas, bir yillik tomoshaga, dunyo bo'ylab sayr-u sayohatga ketyapti!

Suddan keyin xuddi bir mo'jiza ro'y berib, "Kechirasizlar, hazillashgan edik, Ramazonjon kecha tug'ilgan chaqaloqdek begunoh ekan", deya ozod qilib yuboradigan kabi, hovlidagi tut tagida to'dalanib turgan edik, tasodifan Toshga ko'zim tushdi. U qandaydir miliitsiya leytenanti bilan yurgan ekan.

- Hi, bundoq? - dedi oldimdan o'tayotib.

- Yana o'sha!.. - dedim ma'noli qilib.

- O'sha-ya! - U ko'rsatkich barmog'i bilan kekirdagini "kesib", "Nima, odam o'ldirganmi?" demoqchi bo'ldi.

- Shunga yaqin, - dedim bu gal kamtarlik bilan: kayfiyatim buzuq edi.

Tosh "Zo'r ekan, tan berdim" degan kabi boshini dikillatib, leytenantning ketidan zipilladi. "Ramazonan qolishmaslik uchun to'rtinchi marta "hazillashib" qo'rganmi, kim bilsin..."

Bir payt qandaydir shang'illagan ovoz qulog'imga chalindi:

- E-ey, she'ringni o'qidim - gazeta berar ekan!

Ovoz kelgan tarafga qarasam - Ramazon! Qo'llari orqada, ikki soqchining o'rtasida yopiq mashina tomon ketyapti, ko'zlari chaqnaydi: "E-ey, she'ringni o'qidim..."

"O'l-a, - dedim ichimda, - shunday paytda mening she'ringa balo borqaj, o'zingni o'ylasang-chi! - lekin xudbinlik ustun keldi. - O'qibdi-ya, o'sha yerda o'qibdi-ya!"

Ramazonning ortidan qarab qolarkanman, negadir uning sevimli qo'shig'i esimga tushdi: "Xush qol en-di-i, Zuhroxonim..."

- Jo'rang qip-qizil g'alcha ekan, - dedi sudga birga borgan yozuvchi do'stim qaytishda. - O'zini o'zi qamatdi. Chexovning "Yovuz niyatli kishi" hikoyasidagi Denisning o'zginasi-ya! O'qiganda shunaqa odamlar borligiga ishonmagan edim...

Kechqurun uyda Ramazonning otasi bilan akasini xo'b kutdim, mendan domangir bo'lishganmi yoki bu ko'rgilikdan gangib Boysunga jo'navorishganmi - kelishmadi.

Ramazonning qamalganiga besh oy bo'ldi. Besh oydirki, yur-sam ham, tursam ham - ichimda bir tugun, qattiq, ozorli tugun. Jonim chiqadi, Ramazonni so'kaman, so'kaman-u, ajabo, ko'rgim keladi uni, ko'rgim! Uning oldida o'zimni aybdor sezaman. To'g'ri, u ko'p g'ashimga tekkan, meni ko'p g'alvalarga qoldirgan; balki



muttahamdir, chayqovchidir, lekin baribir – jo'ram! Jo'ram yotibdi. Qamoqda. Qanaqa joy ekan u?

Besh oy davomida undan uchta xat keldi. Ammo... uchalasi ham bittagina so'zdan iborat: "Chantrimore!" Vassalom.

"Chantrimore" – "Kalamakatore..." Shodi garang... Bolaligimiz ertagi, zavqi, quvonchi. Maktabimizning yonida yashardi. Qachon qaramang, iljayib turadi. Basharasiga baqrayib so'ksan-giz ham iljayardi – eshitmasdi, qulog'i og'ir edi. Qishin-yozin mudom bo'yin-boshini malla qiyiq bilan tang'ib, quloqchin bos-tirib yurardi. Oqshomlari eshigi og'zidagi supachada, go'yo hech kim eshitolmaydigan bir kuyni tinglayotgandek, ko'zlari chala yu-muq, mudrab-chayqalib o'tirardi. Ahyon-ahyonda o'tkinchilardan birortasiga qarab "Chantrimore!" deb hayqirar, "Chantrimore!" desangiz, "Kalamakatore!" deb javob qaytarar edi. Hovlisi muyu-lisdagi pastlab ketgan torko'chaning adog'ida edi. Qish kunlari yer muzlaganda biz unga suv sepib, ko'cha og'zida Shodi ga-rangning ishdan qaytishini poylardik. U bamaylixotir yurib kelib, xuddi kar emas, ko'rdek, oyna misol yaltirab yotgan sirpanchiqqa oyoq qo'yar va ana shu zahoti bor bo'yi ko'tarilib tushar, boshida-gi quloqchin otilib ketib, o'zi sirg'algancha darvozasi tagiga bo-rib qolar edi. Biz esa torko'chani qiyiriqqa ko'mib yuborardik: "Chantrimore! Kalamakatore! Chantrimore! Kalamakatore!..." Shodi garang alpong-talpong joyidan turib, quloqchimga qarab chopardi. So'ng ko'zlarini olaytirib, bizga po'pisa qila-qila hov-lisi tomon yurar, hayal o'tmay, choponi barini olmaga to'ldirib chiqar va uni qorning ustiga qubba shaklida terib qo'yib, o'zi uyiga kirib ketar edi. Biz bitta-bitta sirpana borib, olmalarni qo'yin-qo'njimizga joylab, "Chantrimore! Chantrimore!" deya suron solgancha ko'cha boshiga qaytardik. Shodi garang esa darvozasidan boshini chiqarib hayqirib qolardi: "Kalamakatore! Kalamakatore!.."

Doim shunday bo'lardi. Biz doim torko'chaga suv sepib qo'yar, Shodi garang doim ko'ra-bila o'sha yerdan yurib uchib tushar, keyin turib bizga po'pisa qilar, lekin doim olma bilan siylar edi. Doim! Uning farzandi yo'q edi. Xotini bor, hovli-joyi bor, kattakon olmazor bog'i bor – farzandi yo'q edi.

Bir kuni kimdir meni telefonga chaqirib, "Tush pastga!" deb do'q qildi. "Kimsan o'zing?" dedim jahlim chiqib. Nogahon men sira kutmagan shang'i ovoz yangradi: "Chantrimore!" Yuragim gu-pullab ketdi. Qayerdan? Qanday qilib? Nahotki?..

Tushsam – isixonamiz oldidagi xiyobonda birov ishsha-yib turibdi. Yuzi shishinqiragan, ko'zlari ich-ichiga cho'kkan, ko'ylak-shimi g'ijim bir kimsa, Ramazon.

– Ha?! – dedim hovliqib, tahlika bilan.

– Keldim.

– Qanday? Hali, hali ... vaqt bor-ku?

– Qochdim-da, jo'rajon, seni ko'rgim keldi. – U qulochlarini keng yozib yaqinlasha boshladi.

– Qochding?! – Men, to'g'risi, allanechuk irgandimmi, tisaril-dim va g'azab bilan baqirdim. – Yo'qol, ko'zimga ko'rinma! Meni tinch qo'y!

– Panjaradan kelgan odamniyam jo'rasi shunday kutib oladimi?

Uni qayta sud qilib, ochiqqa – majburiy xizmatga chiqarishibdi. Muddati bitguncha shahar yaqinidagi g'isht zavodida ishlarmish.

– Oqlashdi, jo'rajon, oqlashdi, – deya tinmay so'zlardi u. – Aybim yo'q edi-da o'zi.

– Nega aybing bo'lmas ekan? Chayqovchi! Bizda begunoh odamni qamamaydi. Unaqa qonun yo'q,

– Mana, meni qamadi-ku? E, u yerdagi odamlarning gapini eshitib tursang, birontasiniyam tirnoqcha aybi yo'q. Lekin – bor, bor! Mana, o'zimni olaylik, aybim yo'q edi – bor chiqdi. Shunday gap-da. – Ramazon kaftini to'ldirib nos otdi. U qandaydir o'zga-rib – jiddiylashibdi, chala faylasufga o'xshab qolgan edi: ilgari hech bunday gapirmasdi. Nosini tufurgach, yengil tortgandek qo'l siltab, davom etdi: – Mayli, bu gaplar hozir befoyda, baribir ishon-maysan. Keyin bir kun hammasini aytib beraman. Lekin boyagi gaping to'g'ri: aybi bo'lmasa qamamaydi. Ayb, ayb, deymiz-u, kimda yo'q u, jo'rajon? Mana shu savlat to'kib yurganlarning hammasi ham oppoqmi?

So'ng u tuyqusdan eski ashulasini eslab qoldi:

– Yur, jo'rajon, ikkovimiz bir portretga tushaylik!

- Shu aft, shu angor bilanmi? - dedim kulib. - Boshqa payt, boshqa payt.

Ramazon o'sha kuni menikida tunab, ertasi ishiga ketdi. Ishi og'ir - tandirdan cho'g'dek qizib chiqqan g'ishtlarni olib taxlar ekan: horib-chuykab, kaftlari qavarib, oyda bir marta, shunda ham yo'lkira so'rab kelardi. Hordiq kuni shaharga tushib, eski odati - bor-budini allakimlarga ulashib, ketishda mendan pul so'rab kelardi.

O'sha - o'zimizning Ramazon!

\* \* \*

Olti oydan keyin uning jazo muddati bitdi. Bitgan kuni u kechki poyezdga bilek olib, ishxonamga keldi.

- Hamma jo'rangni chaqir!

- Ha, yana biror hunaring qolganmidi?

- Bi-ir, registronda o'tiraylik! Ketar jafosiga!

Ishdan ertaroq chiqib, to'rt-besh ulfat "Zarafshon" restoraniga bordik. Ramazon hamma narsani taxt qilib, uzun stolning to'rida tirjayib o'tirgan ekan.

- Bor jo'rang shumi? E, bechora! Ziqnaligingga boribsan-da. Qo'rqma, karmon katta, atab qo'yganini berdi!

O'sha kech restoranda rosa yayradik. Ramazonning o'zi ayniqsa bayram qildi. Muzika boshlanishi hamono o'rtaga tushib, holdan toyguncha o'ynadi. O'yini ham o'ziga o'xshagan edi: goh tizzalariga shapatilay-shapatilay davra bo'ylab kavkazchasiga yo'rg'alab ketadi, goh qo'llarini ikki yonga siljitgancha kifflarini qimirlatib, "Ha-a, hu-u!" deya qiyqiradi, hayqiradi, sakraydi, iring'ishlaydi: goh jilmayadi, goh hazilga qovog'ini uyub oladi: duch kelgan qizni raqsga tortadi, ajabki, u ham nozlanib o'tirmay peshvoz chiqib bo-raveradi: qizga qarab kuladi, yig'laydi, po'pisa qiladi, yolvoradi: endi mag'zur, purviqor, keyin yana tushkun, g'amgusor, yana izhor, iltijo... Chapak, olqishlar...

Bütün restoran ahli tomoshabin, barchaning ko'zi Ramazon-da. Bu oqshom u bayram qilardi, tantana qilardi: kechagi g'amu g'uborlarini unutgan, yana asliga qaytgan, o'sha eski - beg'am, beg'ubor Ramazonga aylangan edi.

Restorandan chiqqach, sheriklarimga javob berib, Ramazonni kuzatgani u bilan vokzalga bordim. Poyezd hali kelmagan ekan, suv ichish bahona tag'in restoranga kirdik. Kayfi ancha oshib qolgan Ramazon ana shunda dardini yordi.

- Baribir ishonmaysan-da, jo'rajon, - deya gap boshladi u. - Lekin iltimos: bu safar ishon!

Ramazon o'shanda rostdan ham Barnaulga jo'nagan ekan. Poyezdni kutib o'tirib, mana shu yerda, restoranda bir kishi bilan tanishib qoladi. Birga ovqatlanishadi. Keyin Ramazon uning yuklarini - o'sha mash'um jomadon va qutilarni vagonga joylashga ko'maklashadi. Poyezd jo'nay-jo'nay deb turganda kupega ikki odam kirib keladi. Ularning sharpasini oldinroq sezgan haligi kishi tahlika aralash yig'lab-yolvorib Ramazonga yopishadi: "Jon uka, yuklar meniki deng, yarmi meniki, deng. Chiqib ketsak, foydani teng bo'lamiz. Meni bilishadi, qo'lga tushsam... Siz yoshsiz, kechirishadi", alay-balay. Ramazon - go'l, tay-tuv Ramazon laqqa ishonadi, hech baloni o'yamasdan rozi bo'ladi. Hushini yig'ib, qarasa - atrofini militsionerlar o'rab turibdi. "Ha, meniki, meniki, - deydi sarosimaga qolib, - hammasi meniki". Yoniga qarasa - haligi kishi yo'q, yerga kirgandek zim-g'oyib.

- Ana, aytdim-ku, ishonmading, baribir ishonmaysan, - dedi Ramazon hafsalasi pir bo'lgandek, qandaydir mung bilan. - Hech kim ishonmaydi.

- Shu gaplarni nega sudda aytmading? - dedim hayratim oshib.

- Aytib edim, tergovda ming marta takrorladim. Tergovchi eshitgisi ham kelmadi. "Senlarning hammang shunaqa tulkisan!" dedi. Nima qilsin - shuncha narsa bilan qo'lga tushganingdan keyin yelkangga qoqib, qo'yib yuborsinmi? Kimnidir qamashi kerak-ku, ularning ham plani bordir. O'zi tergoviyam, kamerasiyam jonga tekkan edi, jo'ra, e, cho'zilib yotadimi, Xudoning buyurgani-da, dedim!

- Ahmoq, tentak! Bir muttahamning nayrangiga uchi-ib... Odam ham shunday anoyi bo'ladimi? Men o'laqlisam ishonmasdim.

- Men ishondim-da, jo'rajon, nima qilay? "Yettita bolam bor, - dedi, - yettovi ham qiz, - dedi. - Uchtasi bo'y yetgan, uzatishim kerak, o'zim zavodda oddiy qorovulman, jigarim kasal", dedi.

Ahvolini ko'rgan kishi, agar inson bo'lsa, ishonardi, men ham ishonibman-da, jo'rajon!

- Mana - ishonchingga mukofot!.. Sen ham qochgin edi, "Bilmayman, meniki emas", deb turib olgin edi, kallavaram!  
- Bunday qilsam, uni tutar edi-da? So'z bergan edim, nomardlik bo'lardi...

- Iye! - dedim fig'onim chiqib. - Ha, tutsin edi, qamasin edi-qilmishiga yarasha!! Vay ahmog'-ey, so'z bergan emish! Balki qizlarining tashvishini qilgandirsan, ersiz qoladi sho'rliklar deb?! Ehtimol, o'sha uchiga chiqqan chayqovchidir, qallobdir! Ular shunaqa bo'ladi. Ba'zan hatto uydagi xotinini ham o'rtaga qo'yib...  
- Unisini senlar bilasan, gapga boysanlar. Kap-katta odam, ko'ziga yosh olib gapirganda ishonmay bo'ladimi? Sochlari ham oq edi... Mayli, jo'ra, endi pushaymonning foydasi yo'q - bo'lgani bo'ldi, bo'yog'i so'ndi. Dunyoni panjaradan ham bir ko'rib qo'ydim-da, ziyon qilmas...

Ramazon chakkasini kaftiga bosgan ko'yi deraza osha perronga tikilib o'tirardi. O'yechan, beozor, hokisorgina... "Uni xushlamaslik, yoqtirmaslik mumkin, lekin yomon ko'rib bo'lmaydi", deb o'yladim ichimda.

U bir payt ko'zini qisinqiragancha nima deb qoldi deng:

- Hozir Novosibirsk poyezdi keladi, hayyo-huyt deb Barnaulga jo'navorsam-chi?

- O'lg'ing kelgan bo'lsa shunday qil, milisaga tutib bermagan ham nomard! - dedim achchiqlanib. Laka-lov qiliqlari, gap-so'zlari yana birpasda ko'nglimga urgan edi. - Ramazon, boshni qotirma, qayoqqa ketsang ket, jo'ra! Iltimos, endi bu yoqlarga qadam bosa ko'rma!

Ramazon ketdi. Poyezd o'rtidan qo'zg'alganda perron bo'ylab bir hayqiriq yangradi: "Chantrimore-e!" "Kalamakatore" bo'g'zimdada qoldi - ayto'lmadim. Poyezd endi to'xtamaydi, uni na men, na Ramazon to'xtata oladi: Ramazon esa ketdi, jo'nab ketdi, endi kelmaydi!

U ketgach - shahar, g'ala-g'ovur shahar birdan zerikarli, fayzsiz ko'rindi ko'zimga.

Shunday qilib Ramazon ketdi, boshqa kelmadi. Borgan yili uylandi, baribir o'sha qizga - tog'asining qiziga uylandi (Onasi ham tuzalib qolgan bo'lsa kerak). Keyingi yili o'ziga imorat qurdi. Hozir to'y qilmoq taraddudida yurganmish...

Bultur kuzakda Boysunga borganimda bozor aylanib yursak, yonimdag'i hamrohim:

- Ana, oshnangizni qarang! - deb qoldi.

Ramazon! Oldida bir choyquti, bozorni boshiga ko'tarib, yeng shimargancha olma sotyapti. Ko'nglimda shubha uyg'ondi: "O'shandagi gap tasodif emas shekilli, asli qonida bor ekan-da bu-ning". Lekin nima ham derdingiz - tirikchilik, birovning ro'zg'orini bitov tebratmaydi.

- Barnaulda olma kamchil emish, Barnaulga olib borish kerak edi! - dedim yaqinlashib, kinoya bilan.

- E, e, jo'rajon! - deya yuzi yorishgancha o'rtidan turib ketdi u. - O'zim ham Barnaulni ko'zlab turuvdim, senday maslahatchiga zor bo'lib. Nima qilay, jo'ra, yer bilan bitta to'kilib yotibdi. Molga beray desam, ko'ngil bo'lmaydi, uvol. Undan ko'ra... - Ramazon tanlab-tanlab, hamrohim bilan menga ikkitadan olma tutqazdi. - yeb ko'ringlar, bunaqasi Bog'i Eramda ham yo'q.

Birpas oldida chaqchaqlashib turdik. U hay-huylab o'tgan-ketganni chaqirar, idishi bo'lsa idishini, bo'lmasa - qo'yni-qo'njini olmaga to'latib jo'natar edi.

- Pulini nega olmayapsan?

- E, otamga qavm bo'ladi, noqulay.

- Bunisi-chi?

- E, ena jamoatimizdan qarindosh...

- Olmang ko'p bo'lsa, davlatga topshirvormaysanmi bunday qilib o'tirguncha?

- Qarzim bormi? Arzon oladi!

- Axir, hammaga tekin ulashyapsan-ku?

- E, biri xesh, biri tabor.

- Senga begonasi bormikan Boysunda?

- Bor, - dedi Ramazon tirjayib. - Mana - sen! Musofir, sotqin, shaharlik!

U kechqurun bir to'rxalta sara olma ko'tarib uyimizga keldi.

– Yaxshimi, yomonmi, shoir noming bor, ko'chada olma ko'tarib yursang obro'ying buziladi, dedim...

“Obro'ying buziladi”, to'kiladi emas, “buziladi”! Ramazonning gapi, Ramazoningina shunday deyishi mumkin!

Ana sizga – Ra-ma-zo-on!

\* \* \*

Ramazon, jo'ra, jo'rajon, mana – qo'limdan kelganicha seni naql qildim. Men bu narsani sen uchun, senga bag'ishlab yozdim. Ba'zi o'rinlarda oshiribroq yuborgan bo'lsam, ko'nglingga olmasan. Bu ish qurg'ur o'zi shunaqa, shunday qilmasa bo'lmaydi.

Mendan ahvol so'rasang – turmushim eskicha, bir maromda. Chatog'i shundaki, bi-ir maromda! Noliyotganim yo'q, hamma narsam yetarli, joyida. Lekin hayotimga nimadir yetishmaydi, nimadir – yirikroq tashvish deymizmi, to'polon deymizmi yoki bir mo'jizami... Qilayotgan ishlarimdan ko'nglim to'lmaydi, hammasi ko'zimga mayda, arzimasdek tuyuladi. Ishga borib kutasan o'sha narsani, uyga kelib kutasan – behuda. Goho boshingni devorga uring keladi – shoyad biror yangilik ro'y bersa!..

Bu noliq, shikoyat emas, Ramazon – hasrat, do'sting do'stga hasrati!

Kecha kechasi birovnig yo'talidan uyg'onib ketdim. Qattiq yo'talardi, beton devorga qoziq qoqqandek bo'g'iq yo'tal. “Qizimmi?!” Uyuq qochdi. Xotinimni uyg'otib, “Turib qarasang-chi!” dedim. Narigi xonaga chiqib, qizimdan xabar olgan xotinim “E, qo'shninging bolasi-ku!” dedi. O'sha zahoti xotirjamgina uyquga ketibman.

Nega bunday, Ramazon?

O'tgan hafta tunga yaqin uyimga telefon bo'ldi. Boysundan. Bir hamshaharimizning tog'asi vafot etibdi, ertalab chiqarishmoqchi, iloji bo'lsa, shu gapni jiyaniga yetkazishim kerak ekan. “Bemahalda sizni bezovta qildik-da, og'ajon, ovora bo'lasiz-da”, deb qayta-qayta uzr so'rashdi, “Iloyo bir o'g'lingiz o'nta bo'lsin, baraka toping”, deya rosa alqashdi. Ishdan qattiq charchab kelgan edim, o'zimcha mulohaza yuritdim: “Jiyaning uyi shaharning bir chetida! Ertalab chiqarisharkan, bugun borib aytdim nima-yu sa-

harda ishxonasiga telefon qilib qo'ydim nima – baribir janozaga yetib borolmaydi”. Yetib borolmasligi aniq edi, lekin...

Ana shunday, mening uyimda telefon bor! Men ishdan charchab kelaman! Nega bunday, Ramazon? O'rimda sen bo'lganing-da nima qilarding?

Sudingda qatnashgan yozuvchi do'stim yaqinda “O'zini o'zi qamatgan afandiroq bir oshnang bor edi, qayerda hozir, nima ish qilyapti?” deya seni so'rab qoldi.

Afandimiding, Ramazon? Hozir ham shundaymisan? Bilaman, shundaysan, sen o'zgarmaysan. Ammo men nega o'zgardim? Nega bunday bo'lib qoldim? Nega o'shandagi zorlanishlarimga kulib qaradim, sen bilan “bir portret”ga tushmadim? Tushganimda, bugun uni xonamning to'riga osib qo'yadim – ba'zi narsalarni eslatib, ba'zi narsalardan ogohlantirib turardi. Men aytgan “poza”lardan, sen aytgan “foza”lardan...

Bir haftalik betayin, bema'no kuydi-pishdilar oqibati – shanba kunlari turgim kelmay, to'shakda uzoq cho'zilib yotaman, gangib, karaxt yotaveraman, kutib – nimanidir, kimnidir... Mana, hozir sen kirib kelasan. To'satdan. Tashvish bilan, to'polon bilan. Olma olib kelasan, jaydari olma. “Chantrimore-e!” deysan qulochingni keng yozib. “Kalamakatore!” deyman men.

Bu nima degani, Ramazon? Qaysi tildan bu g'alati so'zlar, ma'nosi nima? Men bilmayman, sen ham bilmayman. Shodi garangdan so'raylik desak, u endi yo'q – uzoq yili o'lgan. Miyasi aynib o'lgan. Quloqning zahmidan. Urushning kasri.

Undan tirmoq – farzand qolmadi, mol-dunyo qolmadi – “Chantrimore” qoldi, “Kalamakatore” qoldi, bizga: senga, menga... Nima degani bu?

O'ylashimcha, buni endi faqat ikki kishi – ikkalamizgina tushunadiganga o'xshaymiz: sen-u men.

## XURSHID DO'STMUHAMMAD

1951-yilda Toshkent shahrida tug'ilgan. Toshkent Davlat universitetini (hozirgi O'zbekiston Milliy universiteti) tugatgan. Adibning dastlabki hikoyasi 1981-yilda e'lon qilingan. "Hovli etagidagi uy" nomli birinchi kitobi 1989-yilda nashr etilgan. Yigirmaga yaqin nasriy kitoblari chop etilgan. "Qazo bo'lgan namoz" (1996), "Jajman" (1997), "Hijronim ming-dir mening" (2000), "Hamid A'lamovning aytolmagan gaplari" (2002), "Beozor qushning qarg'ishi" (2005), "Yolg'iz" (2019) shular jumlasidandir. "Bozor" (2000), "Donishmand Sizif" (2017) romanlari muallifi. O'zbek adabiyoti rivoji yo'lidagi mehnatlari uchun "O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan madaniyat xodimi" unvoni berilgan (2020).

## SHABADA

Baxt ham nasiba, u kimlardir zor qaqshab izlab yuradi, ro'pasidan, oyog'ining ostidan chiqib quchoq ochib kutadi, kimlardir esa kalaka qilgandek mudom chetlab o'tadi.

Tog'asi Komronni yomon izza qildi.

– Hayotda noshukurlikdan yomon narsa yo'q, – dedi u avvaliga muloyimlik bilan, lekin bu muloyimlik-vazminlik portlash arafasidagi sokinlik ekani tog'aning fe'lini biladiganlar uchun yangilik emas edi. Komron ham o'sha portlashga shay holda tanbeh-u nasihatga quloq tutdi. Mirsayyid tog'a davom etdi: – Xotining sening nasibang, sen esa — uning nasibasi, oyday-gulday yashab dunyo kezib yuribsan, shu nasibangdan yuz o'girmoqchimisani? Ayt, yuz o'girmoqchimisani?! Kiftingda ko'tarib yurgan yum-yumaloq qovoqning ichida aql-idrok, tog'dek ko'ksingda diyonat bormi, o'zi?!

Komron o'zini bu gaplardan mutaassir bo'lgandek tutib o'tirsa-da, xayoli taqdirimi-tasodifimi unga ro'para qilgan boshqa bir... nasibada edi. Xo'p, xotini uning nasibasi ekan, bunisi-chi? Buni ko'rib ko'rmaganlikka olsa, qo'l cho'zsa yetgulik oraliqda shamshoddek raso qaddini, oqqush bo'ynidek nozik bo'yni-dudog'i, yanoqlari yal-yal nur taratayotgan... nasibadan ko'z yumib o'tsa noshukurlik bo'lmaydimi?!

Komron ko'nglidan kechgan shu o'ylarini tog'asidan yashirmandi. Mirsayyid tog'a hang-mang bo'lib qoldi, shunday tanbehlarini jianiga kor qilmaganidan lol edi u.

– Bir oilaning buzilishi arshni larzaga keltiradi. Eshitganmisan, shu gapni? – Yana bosiq ohangga ko'chdi tog'a. Komron tushunmadimi, qulog'i yaxshi ilg'amadimi, tog'asiga savol nazari bilan qaradi. – Arshni larzaga soladi, deyapman, tushunasanmi, o'zi, osmonni, ko'kni ostin-ustun qiladi! Shuni bilib qo'y, bola...

\* \* \*

Zinapoya bo'ylab chiqib-tushayotganlarning hisobi yo'q edi. Yigitlar qizlarga, qizlar yigitlarga to'qnashib-netayozgan, quvnoq qahqahalar, shodon baqir-chaqirlar, salom-aliklar-u xayr-xo'shlar to'lgan zinapoyada yoshlarning joni ichiga sig'maydi, oyoq-qo'llari qanotga aylangan – uchishmaydi, xolos.

Komron zinapoyaning bir chekkasidan boshini xam qilganicha yuqoriga ko'tarila boshladi. Ikkinchi, uchinchi... beshinchi qavatga yetdim, deganda boshini ko'tardi. Nega ko'tardi? Yana uch-to'rt pillapoyani bosib o'tganida, beshinchi qavat yo'lagiga yetgan, shundoqqina chapga burilsa, ikki eshik naridagi xonaga bosh suqsa – kelishilgan, uni kutishyapti – zarur yumushini bitirsa, vassalom, kechga dovr mo'ljalagan ishlari boshidan oshib yotibdi, bozor-o'char, onasining yolg'iz jigargo'shasi bo'lmish xasta tog'asini ziyorat qilish, uyga borib jomadonlarni tartibga solish – o'rab-chirmash, bog'lash-qulflash, uch haftalik ta'til kunlaring bir kun bemalol diydoringga to'yolmadim, deya xarxashadan tinmayotgan onasini xumordan chiqarish. Hozir esa... Nega u boshini ko'tardi?..

Komronning boshi aylanib ketdi, boshidan oyoqlarining uchi tomon yoki oyog'ining uchidan boshi tomon allaqanday to'liqin

shuvullab o'tdi, ichiga daydi va telba shamol kirib qolgandek, shamol uni shu ondayoq muvozanatdan chiqarib ag'daradigandek. Komron rangi o'chganini beti qizib ketganidan sezdi, ro'parasida - uch pillapoya yuqorida tek qotgan notanish qizdan ko'z uzolmay qoldi. Paxtaday, sutga chayilganday, qaymoqday, yo'q, ularning barchasidan-da o'zgacha - hushni o'g'irlar darajada yoqimli.

- Nega bunchalar oppoqsiz?

Qiz o'zini yo'qotib qo'ydi, begona yigit bergan savolini eshitmadi, eshitsa-da, ilg'amadi, duv qizarib jimgina bosh chayqadi. Yo'q, dedi u, yo'q - shu ma'noda bosh chayqadi, faqat ovozi chiqmadi, shu bois yo'q deganini hech kim - Komron ham, qizning dugonalari ham... qizning o'zi ham eshitmadi. Lekin uch odimlik pillapoya shohid - qiz uch karra aytdi: yo'q, yo'q, yo'q!..

- Ismingiz nima?

Kimdir - pastdan chiqib keldimi, yuqoridan tushib kelayotubdimi - tikkasiga Komronga urildi, Komron jon holatda zina panjarasini tutib qolmasa, pastga qarab ko'ptokdek dumalab-yumalab ketishi muqarrar edi.

- Voy-y!

Ko'k tomon, oy tomon, arsh tomon uchdi "voy"!

...Komron shu qadar zaif, irodasi mo'rt edimi?.. Shunchalar ta'sirchan, yuvosh, sodda-go'l edimi?.. Bularni ham, o'zining butkul boshqa odamga aylanib qolganini ham bilmadi.

- Ismingiz nima? - deb so'radi yana Komron.

G'ala-g'ovurda ovozi eshitilmadi. Komron savolini takrorladi.

- Nozik!..

Qizning o'zi aytdimi, yonidagi dugonasimi - Komron payqamadi. U dam-badam vujudidan ko'tarilayotgan hovurni sovutolmayotgan, sovutish qayoqda, hovur uni tovaga solib qovura boshlagandi.

- Nozik?.. Nozikoy?..

- Nozik!..

Bu safar qizning o'zi aytdi, sekin va beixtiyor aytdi, istar-istamas, ajablanib aytdi. Yo'lak, ko'chaga chiqaverishdagi kenggina chorburchak dahliz gavjum, hamma o'zi bilan o'zi ovora edi, To'satdan izdihom oralab yaqinlashayotgan ko'laga ko'rindi, kimlar o'zlarini chetga olishga ulgurishdi, kimlar - yo'q, ko'laga

Komron bilan Nozikning o'rtasidan quyundek yelib o'tdi-ketdi. Quyunning izidan ularning orasida quyuq bulut qoldi. Nozikning shundayiga ham oppoq chehrasi battar oqardi, buni Komron payqamadi, Komronning ham quti o'chdi - buni Nozik payqamadi. Yigit ham, qiz ham bu singari ishoralarni ilg'aydigan ahvolda emasdilar.

- Ertaga ketmayman, - dedi Komron.

- Qayerga ketmaysiz? - hayron bo'lib so'radi Nozik.

- Hech qayoqqa... - Komron shunday deb qo'lidagi ixcham jomadonnusxa sumkasini titkilab uchoq chiptasini oldi, Nozik bilan uning dugonasi yoniga yaqinlashib chiptani ko'rsatdi.

- Viy-y-y!

Komron bexosdan qizning oyog'ini bosib oldim, degan xayolda o'zini orqaga oldi.

- Chet elga ketyapsizmi?! - hayratini yashirolmay qarsak chilib yubordi Nozikning dugonasi o'zini tutolmay.

- Chet elga, - dedi Komron va zarracha ikkilanmay-netmay chiptaning qoq o'rtasidan yitirdi. - Nozikoy, sizni ko'rish uchun ham hech qayoqqa uchmayman!..

\* \* \*

- Keldingmi, bolam, qayoqlarda qolib ketding? O'rtoqlaring telefon qilaverib holi-jonimga qo'yishmadi.

Komron kuldi.

- Ertaga uchmaydigan bo'ldim.

Rahima aya tushunmay o'g'liga angraydi.

- Tinchlikmi?

- U tomonlarga samolyotlarning uchishi bekor qilinibdi.

Rahima aya o'g'li hazillashayotganini tushundi.

- Biror ishing bitmay qoldimi? Tog'angnikiga bordingmi?

- Ertaga ketmayman-ku, boshqa kuni borarman, aya. Yaxshisi,

siz bilan hangamalashib o'tiraman.

\* \* \*

Kamol darvozani ochib yap-yangi hovliga kirgan akasining ke-tidan izma-iz besh-olti odim tashladi-yu, qariyb hovlining o'rtasiga

bordi, qo'shqavatli uyning haybatidan, ko'm-ko'k hovuzdagi suvning tiniqligidan ko'zini uzolmay turib qoldi, uy tomon o'girildi.

- Ichkariga kiraylik, - yo'l boshladi Komron. Kamol unga so'zsiz ergashdi.

Ravon, uy va yo'laklar, har qadamda did bilan qo'yilgan qimmatbaho jihozlar, devorlarga ilingan manzarali suratlar, mahobat, mahobat... Ikkinchi qavatdagi mehmonxonaga ilingan qandilni tomosha qilayotgan Kamolning do'ppini qo'lga oldi-da, tapillatib kaf-momiq ipak gilamga tushgan do'ppini qo'lga oldi-da, tapillatib kaf-tiga urib qoqdi. Komron kulgisini yashirolmadi.

- Esing joyidami, Kam, shunday uyda chang-g'ubor bo'ladimi?!

Kamol akasining istehzosiga e'tibor bermadi, og'ir va viqorli kursilardan birining chekkasiga omonatgina qo'ndi-da, tepaga ang-raydi.

- Uchinchi qavati ham bormi?

- Bor, - dedi Komron, - u yerga faqat yotoq - spalniydan chiqiladi.

- Hm... - dedi-qo'ydi Kamol. - Shu turishi qanchaga tushdi, aka?.. O'zingiznikimi, endi, shu uy?

Ukasi hamon ko'zlariga ishonolmayotgan edi. Komron bir shoda kalitni uning oldiga tashladi.

- Mana, istagan mahal istagan eshikni ochib kiraverasan. Nikoh kuni kelin bilan bolalaringni olib ko'chib kelasizlar, zinaning narigi qanoti sizlarga, tushundingmi, joy mo'l, hammamizga yetib ortadi.

- Ishni pishiq qilibsiz-u, illo...

- Nima, illo? Gaping bo'lsa, ikkovimizdan boshqa hech kim yo'q, aytaver.

- Onam ko'rmadilar-da, bu joylami...

Suv quygandek jim-jit uyda allaqaysi eshikning qirs etib yopilgani aniq-tiniq eshitildi. Kamol savol nazari bilan akasiga angraydi. Komron birinchi qavatga olib tushadigan zinapoya tepasiga borib, pastga qaradi.

- Dahlizniki... - dedi u qo'l siltab, so'ng bir muddat jim turdi-da, ukasi bexosdan aytgan gapga javob berishga kirishdi: - Meni o'ylamaydi deysanmi, uka. Ilgariroq... hayotlik chog'larida rozilik

berganlarida, kim biladi deysan, shu joylarda balki uzoqroq yashar-midilar... Oyoq tirab oldilar, sira ko'ndirib bo'lmadi...

- Onamizga nasib etmagan bo'lsa, tog'amni olib kelsak, ko'rsalar, duo qilsalar...

- Tog'am, deysanmi? Nimalar deyapsan, ukajon, qaysar daraxtning yog'ochidan yo'nib ishlangan o'sha tog'am shu uyga kelib duo qilishiga ishonasanmi?! Shunga ko'zing yetadimi, Kama?!

- Tushuntirsak, onamning ruhini o'rtaga qo'ysak...

- Onam bilan qoni bir odam-da, ikki dunyodayam tushunmay-di, peshanasiga multiq tirasang ham bilganidan, aytganidan qolmaydi... Kimsan falonchi olim, pismadonchi professor qarigan chog'ida uyda kasal bo'lib yotib, bir yumalabdi-yu nasihatgo'y mullaga aylanib qolibdi! Menga aytgan gaplarini aytсам... Arsh-nima degani, Kam? Sen bilasanmi? Qayerga joylashgan u? Osmo-n - kosmos degani bo'lsa, osmon qayoqda-yu, mening oilam qayoqda?! Mening osmon bilan necha pullik ishim bor?!

\* \* \*

"U tomonlar"ga samolyot kunda-kunora uchishdan to'xtamadi, lekin Komron uchmadi. U erta ketib kech qaytar, qo'li-ko'zi internetdan, qulog'i qo'l telefonidan bo'shamas, onasining bag'rida bo'lishdan ulkanroq baxt-saodat yo'qligini takrorlashdan charchamas, lekin xayoli joyida emasdi uning. "Tobing qochyaptimi? Mazang yo'qmi?" deb onasi qo'yarda-qo'yamay siquvga oldi, kor qilmadi, kunda-kunora "u tomon"dan Komila qo'ng'iroq qilar, eri bilan gaplasha olmayotganidan zorlanar, xavotirlana boshlaganini tushuntirishga harakat qilardi.

- U tomondagi idoramizning bu yerdagi vakolatxonasida nozik vazifa topshirishgan, shuni bitirmaguncha bormasam kerak, - dedi Komron nihoyat.

- Shuni Komilaga tushuntirib ayt, ming xayolga borib xavotirda o'tiribdi, - dedi ayasi.

Komilani ming xayolga duchor qilgan Komronning o'zi bir xayol iskanjasidan chiqib ketolmayotgan, qanday bo'lmasin shu bir xayol girdobi uni domiga tortib ketayotgandek, Komron shu taxlit g'arq bo'lishni o'zi uchun tengsiz baxtiyorlikdek ep bilayotgan edi.

- Ertadan keyin yangam kelyapti, - dedi Kamol akasiga. -  
Kutib olishga chiqa...

- Kelyapti?! Nega menga aytmay kelyapti? - tutaqib ketdi  
Komron xuddi uyqudan uyg'ongandek ko'zlarini ishqab.

Rahima aya jerkib berdi:

- O'zing xotining bilan yolchitib gaplashmasang, qayoqdan  
aytadi senga, qachon aytadi?! Ishing ko'payib ketgan bo'lsa, unda  
nima gunoh, bolalaringda nima gunoh?!

Komronning miyasi yashin tezligida ishladi, vaziyatdan betala-  
fot chiqishning birdan bir chorasini topdi va uni ayasi bilan ukasiga  
aytdi:

- Vakolatxonadagi ishlarim tugay deb qoldi, bugun yo ertaga  
javobini aytishadi.

- Aytishsa, u holda Komilaxon kelmay tursin, bir-ikki kun sabr  
qilsa, o'zing borsang, ayol boshiga bolalarini surgab ovora bo'lib  
yurmasdi.

Komron yana topqirlik qildi.

- Otlangan bo'lsa kelaversin, uyidagilarini sog'ingan, - dedi.

\* \* \*

Uchoq belgilangan vaqtda yerga qo'ndi, toqati tugab borayotgan  
Komila yuklarini tezda oldi-da, o'g'il-qizini surgaganicha tashqari-  
ga oshiqdi. Komila hov naridagi avtoulavlar to'xtash joyida ko'rin-  
gan Komron bamaylixotir kelayotganini ko'rdi-yu, yuragining bir  
chekkasi uzilib tushdi. Xarxasha qilayotgan o'g'il-qiziga e'tibor  
ham bermay Komron tomon peshvoz yurdi. U erining avzoyiga sin-  
chiklab qaramoqchi edi, uning ko'zlaridan juda-juda ko'p narsani  
bilib olishiga ishonchi komil edi, Komronning esa ko'ziga birinchi  
bo'lib Komilaning jussasi ko'rindi. Ha, xotini jussador, semizlikka  
moyil, tarozi pallasiga qo'yilsa, eridan hiyla ortiqroq tosh bosadi-  
gan ayol edi. Birinchi marta xotini Komronning ko'ziga jussador-  
gina emas, beso'naqay va qo'pol ko'rinib ketdi.

Uyga yetib kelishgunga qadar Komron yo'ldan, Komila erining  
avzoidan ko'z uzmedi. Komila ko'nglining ko'z va dil ilg'amas  
burchaklarida sas-sado chiqarishga jur'at etolmay, pusib yotgan  
shubha-gumonlari endi ko'z o'ngida saf torta boshlaganini sezdi.

- 252 -

Komron ilgari Komron, eri ilgari er emas edi...

Komron uyga yaqin qolishganidagina yorildi:

- Men erta yo indin u yoqqa ketishim kerak, - dedi xotinini  
ahamiyatsiz yangilikdan boxabar qilayotgandek beparvo ohangda.

U tinimsiz o'ylayotgani, miyasida chigaldan chigal rejalarini  
pishirayotgani ochiq-ravshan sezilayotgan, o'zicha u pinhon tut-  
gan sirlarni ustalik bilan yashiryapman deb o'ylayotgan, Komila  
esa ayollarga xos ziyiraklik bilan erining xayolida pishib yetilmagan  
bahona-yu vaj-korsonlarning ildiz-u shox-shabbasigacha fahm-  
lab-ilg'ab ulgurayotgandi.

\* \* \*

Musharrafning kuni rosmana tug'di. Bir tomonda yosh boshi-  
ga, tag'in kimsan qaynog'asining yangi qallig'iga qaynona bo'lib  
qoldi, ikkinchi tomondan, yetti uxlab tushiga kirmagan shobona  
xonadon bekasiga aйланди. Uy-joylar yaltillaydi, yog' tushsa ya-  
lab-yulqasang arziydi, hamma narsa yangi! Bolalarni aytmaysizmi!  
"Detskiy" da odamning jonidan boshqa o'yinchoqlarning sanog'iga  
yetmaysiz! Faqat bola bolaligini qiladi-da, bir-ikki daf'a o'g'li  
amakisini savolga tutib qolsa deng.

- Amaki, Imronni qachon bu yerga opkelasiz? - deya so'radi  
ertalabki nonushta mahali.

Dasturxon tevaragida og'ir sukunat cho'kdi. Musharraf o'g'liga  
tanbeh bermoqchi edi, kechikdi.

- Nozikoy, cho'yg qaraysizmi? - deb chal'itdi boshqalarni qi-  
yin ahvoldan xalos etish maqsadida.

Dasturxonning popugini o'ynab nafasini ichiga yutib o'tirgan  
Nozikoy "xo'p" deganicha o'rmdan turdi-da, qo'shni xona - osh-  
xonaga kirib ketdi.

Komron jiyaning savolini javobsiz qoldirmadi.

- Imronni ham, Go'zalni ham olib kelaman, jiyani, - dedi baral-  
la. U atayin Nozikoy eshitadigan qilib gapirdi. - Kelishadi, ularni  
tashlab qo'yamaymiz...

Kamol akasiga zimdan ko'z tashladi, shu orada oshxonadan  
qaytib chiqqan Nozikoy sassiz-nesiz yurib kelib, stol ustida turgan  
choynakka qo'l uzatdi.

- 253 -



– Qaynadimi? – deb soʻradi ovozini pastlatib Musharraf.

– Hm, qay...

Shu payt oshxonada nimadir taraqlab ketdi. Dasturxon atro-fida oʻtirganlarning barchalari choʻchib oshxona tomon oʻgʻirildilar. U tomonda qandaydir chinni asbob tushib chil-chil sindi, ketidan oshxonaning ochiq eshigidan quyuq bugʻ-tutun burqsib chiqdi.

Oshxonaga birinchi boʻlib Kamol, uning izidan Musharraf yetib bordi.

– Yonyapti! – deb baqirib yubordi Kamol. – Yorilib ketibdi!

Xotini uning vahimasiga joʻr boʻldi.

– Vahima koʻtarmanglar, – dedi Komron atayin vazminlik bilan. Kelib oshxona ichiga qarab turdi-turdi-da, ukasi va boshqalarni tinchlantirdi. – Choy qaynab... suvi tugab qolgan... Nu, chort s nim!..

Xijolat va qoʻrquvdan oshxona eshigiga behol suyanib qolgan Nozikoy bu gapni eshitib yigʻlab yubordi.

– Qanday qilib? Hozirgina qoʻygandim, hozirgina. Toʻldirib qoʻygandim, – deya oldi u, xolos.

\* \* \*

Komila kelgan kundan ikki kun oʻtar-oʻtmas Komron yoʻlga otlandi. Rahima aya erta saharlab joʻnab ketishga shaylangan oʻgʻlini qoʻyarda-qoʻymay xonasiga qamab oldi. Avvaliga yotigʻi bilan gapni uzoqdan boshladi. Onasining qandaydir muddaoda gapni atayin uzoqdan boshlashi togʻasining odatlariga oʻxshab ketishini oʻylab ketdi Komron. Shubha yoʻq, onasi togʻasiga shikoyat qilgan. Togʻasi uning koʻzini moshday ochib qoʻyish qasdida gapni osmondan boshlab, kosmosning... ar... arsh dedimi – Komron ichida kulib qoʻydi – koinotning chang-toʻzoni chiqib ketarmish-mi-yey!.. Bu yogʻidan u yogʻi yaqinlashib toʻshakka qadaliy yotgan, umri bino boʻlib tugʻilib oʻsgan shahar-u viloyatidan ikki qadam narini koʻrmagan odamlar oʻylab topgan safsatalar...

– Erkakdir-ayoldir, – dedi onasi, – oila taqdiriga hamisha-har kuni hushyor boʻlmogʻi kerak. Er-xotin oʻrtasida sovuqchilik paydo boʻldimi, beparvolik oqibati yaxshilik bilan tugamaydi. Xullas,

– 254 –

soʻzimni qulogʻingga olmasang u dunyo-yu bu dunyo rozi emasman, shuni unutmang, oʻgʻlim!..

\* \* \*

Safarga “otlangan” yuklar topshirildi hamki, aka-uka oʻrtasida subbat qovushmadi. Komron Kamoldan, Kamol Komrondan nimanidir kutayotgan, lekin ulardan hech birlari ogʻiz ochishga jazm etolmayotgan edilar. Nihoyat, Komronning sabri tugadi. U Kamolni chetga tortdi.

– Kama, – dedi-yu, soʻzini davom ettirmadi, soatiga qaradi. Fursat gʻanimat edi. Uchoq chiptasini roʻyxatdan oʻtkazsa, shu zahoti ichkariga kirib ketadi. Vaholanki, uning barcha umidi, ishon-gani ukasida edi. Shu boisdan u aytadiganini aytib tashladi: – Men juda ogʻir ahvoldaman. Senga aytaman-u, joʻnab ketaman. Ukam boʻlib, erkak boʻlib tingla. Menga yordam ber.

Kamol akasining ahvolini tushunib yetgan, lekin unga qanday yordam berishi mumkinligini tasavvuriga sigʻdirolmayotgan edi. Komron davom etdi:

– Yotigʻi bilan onamga tushuntirasan... koʻndirasan.

– Nimalar deyapsiz, aka? Bu gaplarni aytish siz oʻylagandan koʻra ancha ogʻir. Oqibati esa undan battar, shularni oʻylab koʻringizmi?

– Toʻgʻrisi, oʻylamadim, koʻrdim-u aql-hushimdan ayrildim... Tamom boʻldim...

– Kimni koʻrdingiz? Kap-katta erkaksiz-a! Kim ekan, qayerda duch kela qoldingiz, aka?!

Komron Kamolning biligidan tutdi, soʻzsiz uni kuzatuvchilar lzdihomi tomon boshladi. Boyadan beri aka-ukadan koʻz uzmay xavotirda turgan guldek nozik-nozanin... Nozikoy ular tomon bir-ikki odim tashladi-yu, yerga qaraganicha toʻxtadi.

Kamolning tili aylanmay qoldi. Shu topda aytishi mumkin boʻlgan soʻzi yoʻq edi uning. Aʼzoyi badani majolsizlanib beixtiyor nari ketdi. Komron unga yetib oldi.

– Komila yangamning ahvoli nima kechadi? Bolalarning-chi?... dedi Kamol parishon xayollarini yigʻolmay. Komron nimadir dedi, lekin javobning qizigʻi qolmagandi Kamol uchun. Davom et-

– 255 –

di: – Men siz aytayotgan yukni zimmamga ololmayman, qolaversa...  
– Nima, qolaversa?!

Komronning tovushi Kamolning qulog'iga og'ir botdi. U atayin bir zum so'zsiz qarab turdi-da, so'ng gapirdi:

– Hozir siz og'ir ahvolda ekansiz, agar bundan kechmasangiz, – dedi u Nozikoy turgan tomonga ishora qilib, – hammamizni og'ir ahvolda qoldirasiz. Onam ko'tarolmasliklari esa aniq, aka...

\* \* \*

Komron hashamdor mashinasini darvozaga taqab to'xtatdi-da, o'tirgan joyida pult tugmasini bosdi. Yuqoriga yig'ilib ochiladigan darvoza tiq etmadi. Komron kaftida tutib turgan matohning tugmalarini bir-bir bosib chiqdi, yana natija bo'lmadi.

– Kichik eshikdan kiring-da, ichkaridan darvozani oching, – u shunday deb Nozikoyga kalitni tutqazdi.

Yaqindagina yomg'ir yog'ib o'tgan, hovli qorong'i, uyda hech kim yo'q, chiroqni yoqish uchun yo'lakka qadar yetti-sakkiz qadam yurish kerak. Komron xotinining yakka tavaqali kichik eshik yoniga yetib borganiga, kalitni qulfga suqayotganiga qarab turdi-yu, nimagadir chalg'ib, undan ko'zini uzdi. Zum o'tmay yo'lak chirog'i yongani ko'rindi, ko'rindi-yu... Komron nima voqea yuz berganini anglolmay qoldi, lekin kimdir "V-voy!" deganini aniq eshitdi, yuragi allaqanday noxushlikni sezib, mashinadan otilib chiqdi, yugurib hovliga kirdi. Ne ko'z bilan ko'rsaki, Nozikoy devorga suvanganicha behush yiqilib yotardi.

– Nozikoy! Nozik-k! Menga qarang! Menga qara, Nozik!

Komronning o'takasi yorildi, nazarida shu tobda suyuqlik, ardoqli, go'zaldan go'zal arzandasidan ayrilib qolayotgandek edi. Yo'lak devoridagi jo'mrakni burab hovuchiga suv oldi-da, Nozikning betiga sepdi. Yana va yana sepdi. Nozik seskanib ko'zini ochdi. O'midan turishga harakat qilaturib, hush-behush ho'ngrab yubordi.

– Nima bo'ldi, Nozik? Aytang, nima bo'ldi, axir?! – qo'rqib ketgan Komronning betiga suv sepadigan kimsa yo'q edi.

– Nariyoqqa, – dedi Nozik qo'li bilan hovli tomon ko'rsatib, – nariyoqqa o'tib ketdi...

– Kim? Kim o'tib ketdi? – Sapchib qad rosladi Komron. Hovliqib hovli tomonga yugurdi. – Ko'rdingmi? Senga tegdimi?! Qanaqa?..

– Qop-qora... sharpa... Baland... Betini ko'rmadim...

\* \* \*

Komron "u tomon" da turib ham ukasini holi-joniga qo'ymadi. Sen gapni boshlab bersang bas, qolganini o'zimga zim tushuntiraman, deb kunda sim qoqishdan charchamadim.

Kamol mavridini poylagan edi – mavridini onasining o'zi keltirdi.

Nima bo'ldi-yu, ona-bola yolg'iz qolishdi, Kamol endi o'tirgan joyidan qo'zg'algan ham ediki, onasi uni to'xtatdi.

– Kamol, o'g'lim, – dedi u vazmin bir tovushda, – ichimda bir xavotir bor, shuni kimga yorilishni bilmay ezilib ketyapman.

Kamol onasiga birrov razm soldi-yu, indamadi. Rahima aya esa undan sado chiqishini kutdi.

– Qanday xavotir, aya? – deya savol qotdi u.

– Qanday bo'lardi, akangning qadam olishi yoqmayapti...

Komil temimi qizig'ida bosdi:

– Menga ham, – dedi u xunobi oshib.

Rahima aya o'midan turdi, bir-bir qadam tashlab Kamolning to'parasiga kelib to'xtadi.

– Xavotirim bejiz emasmi?! Xabaring bormi?! Qadam olishi...

– Noma'qul qadamini bosib bo'lgan akam!

U shunday dedi-yu, birdan yuragi orqasiga tortib ketdi. Shu tobda og'zidan chiqqan gapni onasiga o'q tekandek ta'sir ko'rsatishi mumkinligini keyin o'ylab qoldi. Biroq onasi kutilmaganda o'zini dadil tutdi. Rahima aya bor irodasini jamlab ich-ichidan otilib chiqayotgan g'azabnima, o'kiriknima, nafratnima bo'g'zida tutib qoldi, o'zi dunyoga keltirib, o'zi voyaga yetkazgan o'g'lining aftiga ignadek nigohlarini suqudek bo'lib qadadi. Kamol bu nihogha dosh berolmadi, ko'zini olib qochdi. Menda nima gunoh, deya o'zini oqlash mavridi emasligini tushundi. Rahima aya boshqa churq etmadi, yotoq bo'lmasi tomon asta-asta odimlab bordi-da, ochiq eshik yonida ortiga o'girildi, bir zum ravon derazasi orqali

hovliga nigohi yetganicha termilib turdi-turdi-da, boshini xam qilganicha ichkariga kirib eshikni ohista yopdi.

\* \* \*

Musharraf ovsinining yonida allamahalgacha qolib ketdi. Keyingi kunlarda qorong'i tugul, kuppa-kunduzlari ham Nozik ikkinchi qavatga chiqmas, chiqmagani-chiqmagan, Musharrafni yonidan jildirmaslikka ham odatlandi. Musharraf uning rang ko'r-hol so'r bo'lib qolganiga achinar, faqat bu emas, Nozik bo'lar-bo'lmasga cho'chib ketadigan, tiq etgan shovqindan tahl-kaga tushadigan bo'lib ham qolgandi. Musharraf asta-sekin uning ko'ngliga qo'l soldi, hozir ayni o'ynab-yayrab qoladigan paytingiz, bunday sharoitlar bizdaqalarning yetti uxlab tushimizga kirmagan, o'zingizni qo'lga oling, ko'zga yaqin kelinsiz, sizdaqalarga ko'z tegishi aniq, shuning uchun unda-munda irim-sirimini ham unut-mang, ikki-uch qayta o'qitvorsangiz, qushday yengil bo'lib yura-siz, deb nasihatlar-u mehribonchiliklarga ko'mib tashladi, ko'mib tashlagani sayin ham Nozikning chehrasi ochilmadi, uning zo'raki jilmayishlarida burungi tarovatdan asar qolmagandi.

Musharraf Nozikoy qandaydir hurkak bo'lib qolganini, lekin ovsini undan buni yashirayotganini sezib ulgurgan, Nozikoy ham o'zidan ko'ra ancha-muncha dadilroq bo'lgan Musharrafning qat-tiq-qattiq gapirishlarida, ko'z qarashlarida xavotir, tahlika sharpa-sini ilg'ay boshlagan edi.

\* \* \*

- Namuncha, - dedi Kamol to'shakda yonboshlab yotgan joyidan, hovliga chiqaverishdagi eshikni mahkamlab qulflagach ham uni qayta-qayta tortib ko'rayotgan xotinining harakatlarini kuzatib. - Bunaqa odatning yo'q edi-ku?

- Tunda tashqariga chiqsangiz... - to'satdan gap boshladi Musharraf. Kamol hiringlab kuldi.

- Tunda tashqariga chiqadigan odatim yo'q-ku, xotin, ko'zing ilinmay turib tush ko'ryapsanmi?

- Kecha kechasi turmadingizmi?

- Kecha kechasi?... - o'ylab qoldi Kamol. - Tosh qotib uxladim-ku, Mushar.

- Hazillashmang!

- Nega hazillashay, qattiq charchagan edim, yostiqaqa bosh qo'yganicha tosh qotibman...

Musharraf chayon chaqqandek sapchib o'rmidan iring'ib turdi. Turasolib xona chiroqlarining barini ketma-ket yoqib yubordi. Uning rangida rang qolmagan, lablari gezarib ketgan, xuddi to'shagilga begona maxluq kirib qolgandek dag'-dag' qaltirardi. Kamol xotinini bu ahvolda birinchi bor ko'rishi edi, o'zini vazmin tutishga harakat qilib, asta o'rmidan qo'zg'aldi.

- Nima bo'ldi, Mushar, gapir, nimadan bunchalik esxonang chiqib...

- Aniq ko'rdim!..

- Nimani? Qachon?

- Tunda, qora sharpa! Bo'yi sizdey... Tepamga kelib qarab turdim!..

- Ishonmayman.

- Bunga ishonmasangiz, ichi suvga to'la choy qaynatkich yonib ketganini ko'rdingiz-ku! Nozik yonimdan jilmaydigan bo'lib qoldi, bejizga emas bu! Nazarimda bexosiyatroq uyumi, deymand-da...

- Sekin!.. Bu so'zni og'zingdan chiqara ko'rma, axir akam...

Kamol akasi bilan bu xonadonga ilk safar kelishganini eshladi. O'shanda aka-uka yuqori qavatda suhbatlashib qolishdi, shunda to'satdan pastdagi allaqaysi eshik o'zidan-o'zi qisirlab yopildi... Kamol aniq eshladi o'sha hodisani...

\* \* \*

Rahima aya uzzukun uyga qamalib yotadigan odat chiqardi, kampir hech kim bilan gaplashmas, huzuriga boshqalar kirishini xushlamas, kelinlariga so'zni qisqa qilib, boraqolinglar, deb chiqarib yuborar, Komilaning ko'ziga qarolmas, Imron bilan Go'zal nevaralarini ko'rganida o'pkasi to'lib ketar - tarkidunyo qilgan odamdek uning uchun hech narsaning qizig'i qolmagandi...

\* \* \*

O'tganlarning ruhlarini shod qilish niyatida lorsillagan qora qo'chqorning joni baxshida qilindi. Besh-olti nafar qo'ni-qo'shni ishtirokida o'tkazish mo'ljallangan "is chiqarish" tadbiri kichkina to'yga aylandi. Xabarlanganlarning bari keldi, tog'a kelmadi.

- Akang endi menga begona, - dedi Mirsayyid tog'a, o'zini arang vazmin tutib, — men-ku, mayli, onasining betiga oyoq qo'ydimi, guldek oilasining, o'g'il-qizining uvolidan qo'rqmadimi, o'nta qo'y atamaydimi! Yuzta qo'y atamaydimi!..

\* \* \*

Shom qorong'isida uyga qaytgan zahoti aya Kamolni chaqirtirdi. Kamol ayasining hech kimni ogohlantirmay ketib qolgan uchun unga tanbeh bermoqqa og'iz juftlagan ham edi, onasi uni gapirishga qo'ymadi.

- Telefon qil, - dedi qo'lini uzoqqa degan ma'noda boshi uzra silkib. — Qayerda bo'lsayam top.

- Xo'p... Faqat hozir u yerda yarim tun, hamma uyquda... taysalladi Kamol. — Uxlab yotgan bo'lsa...

- O'lib yotgan bo'lsayam uyg'ot!

Kamol onasi to'nini teskari kiyganini, endi unga hech kimsaning gap-so'zi kor qilmasligini bildi. Shu asnoda akasi bilan bog'landi-yu, telefonni onasiga uzatdi. Rahima aya kaftidagi telefonni qulog'iga bosgan zahoti muddaoga ko'chdi:

- Hm... Ertaga yetib kel!.. Bilmadim!.. Eshityapsanmi, yerning ostidamisan-ustidamisan, oxirgi gapim shu: ertadan qolmay yetib kel!..

\* \* \*

- Asal oyi bir oy davom etadi deb kim aytsa aytaversin, bizning umrimiz, hayotimiz asal-l!

Komron o'rtidan tura solib gizni beli va taqimlari ostidan ikki qo'llab ko'tarib oldi, bir-bir qadam tashlab uchinchi qavatdagi xoxxonaga yo'naldi.

- Osmonga, - dedi kulib, - osmondan ham tepaga - arshga olib chiqaman! - Komron shodumon edi, shodligini baralla nishonlashni istayotgan edi.

- 260 -

- Yo'q, - dedi Nozik, - u yoqqa chiqmaylik.

Komron ahidan qaytmadi. Uni bir qo'lidan qo'ymay ikkinchi qo'lli bilan uchinchi qavatga olib chiqadigan darcha eshigi ilgagini tushirdi.

- Qo'rqvapman! To'xtang, ochmang!

Billur hovuzcha ichiga ikki kishilik par o'rin to'shalgan, oppoq choyshab tungi shabadada muattar hid taratar edi.

Hamon uni bag'ridan qo'ymagan Komron bir oyog'ini ko'tarib billur hovuz devori osha oshirib o'tishga ulgurdimi-yo'qmi, nimaudir lop etdi.

- Qoching! - deya nola chekib yubordi Nozik.

Komron oyog'ini tortib ulgurdimi-yo'qmi, ko'z o'ngida oppoq choyshabning bir chekkasi tutab, dimog'iga achimsiq is urildi...

\* \* \*

Komronning bu qadar zudlik bilan yetib kelishini hech kim kutmagandi. Biroq o'g'lingiz keldilar, deya suyunchi undirish xayolida ayaning huzuriga yugurgilab kirgan Musharrafning faryodini birinchi bo'lib Komila eshitdi. Komila qaynonasining tepasiga yetib bormay xona o'rtasida tek turgan ko'yi kaftlarini betiga bosganicha unsi, lekin achchiq-achchiq o'krab yubordi.

\* \* \*

Musharraf erining qulog'ini tinchitmad.

- Bilmadim... Bu ahvolda yuragim ado bo'ladi, dadasi.

- Qo'yingin, bir narsani gapiraverasanmi, Mushar! - dedi Kamol xotiniga uqdirishga urinib. - Sen aytayotgan narsa odamning narida bo'ladi, hayotda emas.

- Hayotda yo'q bo'lsa, ko'zga ko'rinyapti-ku? Tunda tepamga kelib qaragan kim?! Bu yoqda Nozik homilasini tushirib qo'ygandan xabaringiz yo'q.

- Homilasini tushirgan bo'lsayam chidab o'tiribdi-ku!

- Qayoqda chidaydi! Tiq etsa yonimga kelib oladi, bir o'zi tepa qavatga qadam bosmaydigan bo'lgan. Sho'rlik esdan og'ib qolmasa, deb qo'rqaman...

- Hozirgina ko'rdim-ku, tepaga chiqib ketayotuv...

- 261 -

- Opa!!

Musharraf jim bo'ldi. Derazadan hovli tomon boshini chiqarib qulog'ini ding qildi.

- Chaqirdi, - dedi Kamol cho'chiganday diqqatini jamlab.

- Opa-a! O-opa-a-a!..

Chinqiriqdan shoshib qolgan Musharraf bilan Kamol izma-iz quvalashganday Komron bilan Nozikoy yashaydigan tomondagi ayvon zinasidan chiqishganida ikkinchi qavat eshigi bo'sag'asidagi supachada yiqilib qolgan Nozikoyni ko'rishdi.

- Ana! - dedi Musharraf va yotoq bo'lmasiga kiraverishdagi eshik yonida holsizlanib o'tirib qolgan Nozikoyning yoniga oldinma-кетин ko'tarilishdi.

- Qarang... ichkariga qarang... - deya oldi hamon o'zini qo'lga olomagan Nozikoy. U qalt-qalt titrar edi. Musharraf qo'rqa-pisa hoboxnaga bosh suqdi-yu, "Voy, o'la-ay-y!" deb qichqirganicha yoqasini changalladi.

Pardoz-andoz javoni ustida nima bo'lsa, hammasi uy bilan bitta bo'lib sochilib yotardi.

\* \* \*

- Onang rahmatli o'lishini kutib yurgan ekansan-da?! O'tgan o'tdi, tamom-vassalom deb o'yladingmi?! Tuprog'i sovumay-a?! Ruhini chirqiratib...

- Qo'ying, tog'a, bu gaplar ortiqcha...

- Ortiqcha bo'lsa, senga - katta ko'cha! Illo singlimdan qolgan uy-joy Kamol bilan Komilaniki, sen esa... Sadqayi o'g'il ket-e!..

\* \* \*

Hammasi tunda yuz berdi.

Komron bilan Nozikoy allapallada to'ydanmi-mehmondorchilikdanmi qaytishganida hali chiroq yonmagan - qomatini g'oz tutib turgan shohona koshona qora zulmat og'ushida qaqqayib turardi.

- Yotaqlaylik, ertalab shug'ullanamiz, - dedi Komron.

Nozikoyning ko'ngli g'ash edi, avvaliga uxlolmay, xayolan ming ko'chaga izg'idi, nihoyat erining bilagidan tutganicha... ko'zi

llingan ekan, qattiq shovqindan cho'chib uyg'ondi. Uyg'ondi-yu, eshikni ustma-ust taraqlatib jonholatda "Aka! Aka!"lab baqirayotgan Kamolning ovozini tanidi.

- Yong'in! Chiqinglar! Aka-a!..

\* \* \*

- O'tnimadan chiqibdi? - betini ters burib savol qotdi Mirsaiyyid tog'a.

- Chiroqni simidan deganmish... - Kamol shunday dedi-yu, o'sha tunda uyda chiroq butunlay o'chganini eslab hayron bo'lib yelkasini qisdi.

Oraga og'ir sukunat cho'qdi, nihoyat tog'a boshini chayqay-chayqay, ming afsus degan ohangda salmoqlanib gapirdi:

- Guldek oilaning buzilishi arshni larzaga keltirishini aytgandim. Tushumadi, tushunishni ham istamadi. Aytib qo'y, chiroyli uyidagi mashmalarning bari o'sha men aytgan larzaning shabadasi, xolos... Uqdingmi, shabadasi...

shilgan yolg'iz tog'asi – Mamatqul cho'pon oilasini ko'z oldiga keltirib, sog'inchdan beixtiyor entukib qo'yadi.

Agar bu yog'ini surishtiradigan bo'lsak, ustoz ham asli o'sha yoqdan, ya'ni tog'oldi ovullarning biridan. Bu tomonga bir necha yil narisida, endigina uylangan kezlari ko'chib kelgan. U vaqtda yetti-sakkiz yashar bolakay bo'lgan yigitcha yaqinda o'n beshdan hatlab, taqdir taqozosiga ko'ra, o'zlariga devor-darriy on qo'shni ermish Tog'ay polvonning umidli va suyukli shogirdiga aylangan – ustoz qavatida kurashli davralarda teng-to'shi bilan bellashib, dam g'oliblik nash'asini surib, dam mag'lublik azobini tortib keladi. Bu atrofda eng oldi polvonlardan biri sifatida ustozining obro'yi juda baland, faqat ba'zan biror-bir yaqinini kutayotgan boladek, yo'lga g'amnok termilib qolishi yomon. Emasam, xeshlari qora tortib kelishunga qaramay, negadir bu odatini tark etmaydi. Yigitcha uning bu qilg'idan goh ajablanib, goh noxushlansa-da, sababini so'rashga istihola qiladi, so'ragan taqdirida ham ustoz tushmagur osonlikcha tish yoradigan odamlardan emas, aqling yetmagan ishga burun tiqma, degan yo'sinda shunday bir qarash qiladiki, aytar gaping bo'g'zingda qolib ketadi. Bunga sari yigitchaning qiziqishi battar ortadi. Biroq bir kun kelib o'zi ham aynan shu ahvolga tushishini, ya'ni ustoz kabi dam-badam yo'lga termilib qolishiga to'g'ri kelishini xayolining ko'chasiga-da keltirmaydi.

Mana, ikkinchi oydirki yigitcha qirga tirmashgan yo'lga alam bilan boqadi: "Bas, o'lsam-da, ha-ha, o'lib qolsam-da, bu yo'lga qadam bosmayman!", deydi ichida. Aslida uning xafaligi yo'ldan emas, ushbu yo'l to'g'ri olib boradigan tog'asining oilasidan. Bungacha, tabitan o'ta jigarchiligi bois, onasining ba'zan jiddiy moneliklariga qaramay, yaylovdan beri kelmaydigan kamsuqum, yigitcha nazarda, yakkaqo'l tog'asining ro'zg'oridagi ayrim kam-ko'stlarni to'g'rilamoq, yanada aniqrog'i, erkak kishi bajarishi lozim bo'lgan og'irroq yumushlarni ado etmoq uchun oyda, yo'q deganda, bir-ikki qir oshardi. Bolaligida tog'asinigiga tez-tez ergashtirib boradigan onasining e'tiroziga kelsak, derdiki: "Endi kap-katta yigit bo'p qolding, tog'angnikiga hadeb boraversang,

## NORMUROD NORQOBILOV

1953-yilda Qashqadaryo viloyatining Yakkabog' tumanidagi Qishliq qishlog'ida tug'ilgan. Toshkent davlat universitetini (hozirgi O'zbekiston Milliy universiteti) tugatgan. Dastlabki hikoyasi – "Chorraha" (1982). "Zangori ko'l" (1987), "Unutilgan qo'shiq" (1990), "Yuzma-yuz" (1993), "Paxmoq" (1997), "Sariqgul" (1998), "Arazchi chumchuq" (1999), "Bekatdagi oq uycha" (2000), "Jo'shqin daryo", "Ovul oralagan bo'ri" (2005), "Bo'ron qo'pkan kun" (2007) kabi qissa va hikoyalardan iborat to'plamlari nashr etilgan. "Quyoshi botmaydigan yurt", "Shim yoxud xotinlar janjali" nomli asarlari asosida bir necha qismli film yaratilgan. "O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan madaniyat xodimi" (2006) unvoni bilan taqdirlangan.

## XESH

– Ha-a, bu dunyoda o'zgani emas, o'zni yengmoq qiyin...

Xayrulla ustoz bo'lmish Tog'ay polvondan bu gapni ko'p bora eshitgan esa-da, haligacha ma'nosini anglab yetolmagan. Boz ustiga, ustoz kimnidir nazarda tutib yoxud shunchaki nasihatomuz tarzda emas, har daf'a guvaladek mushтини iyagiga tirab, ovulga kungay qirga o'rlagan ensiz yo'lga goh mungli, goh xayolchan termilgan ko'yi, xuddi baxshilardek ohangga solib aytdi bu gapni. Bunday paytlarda ustoz qalbini alam va o'kinchga o'xshash nimadir ayovsiz kemirayotganini sezgan yigitcha, biror jumboqning tagiga yetadigandek, yo'lga ko'z tikadi. Biroq ustoz hurmati harchand shuni istasa-da, uning kabi g'amga botmaydi, aksincha, bir-biriga ulanib ketgan qirlar oralig'idagi choqqina ovulda umrguzaronlik qiluvchi va onasi aytmishli, qizdan boyib, o'g'ildan

odamlar, otining tezagini quritmaydigan orsiz qo'noq ekan, deb uyvat qilishadi!" Yigitchaning esa odamlar nima deb o'ylashlari bilan zarracha ishi yo'q, imkon topildi deguncha tog'asining og'irini yengil qilmoqqa oshiqadi. Ammo buni qarangki, bu tashriflarini, yot-begonalar bir chetda qolib, qo'li shirin, tili bejoroq, nodon fe'lli o'z qarindoshi – Misqal yangasi butunlay bo'lakcha tushunarkan.

O'sha kuni yigitcha ko'klam jalasi yemirgan og'ilxona devorining quyi qismini somonsuvoq qilayotib, tushdan so'ng jindek orom olish o'yida tom soyasidagi og'och oxurga yelka tiragan yerida ko'zi ilinganini sezmay qolgan ekan, shifti qoraygan yozgi oshxona tarafdin eshiltilgan taraq-turuqdan cho'chib uyg'onib ketadi. Ana shunda sopol laganni sindirgan qizlaridan birini epsizlikda ayblab koinayotgan Misqal yangasining, orada andak nafas rostlab, to'ng'ich qiziga zardali tarzda aytgan gapi qulog'iga chalinadi: "Kechda qozonga etni mo'lroq solishni unutma! Ming qilsayam, yetim yetim-da, ish bahona, shirin tomoq yeyish ilinjida keladi u!" Kutilmagan bu gapdan yigitcha misli tarashaday qotib, uzalgan oyoqlarini yig'olmay qoladi. Chunki har kelganida oldiga totli yemaklar qo'yib, ol, katta-katta ol, deya doim qistab turadigan yangasining bu xatti-harakatida qon-qarindoshlikning o'ziga xos mehr-oqibatini ko'rganday bo'lardi-da. Endi, ayonki, bu mehr emas, shunchaki sag'irga shafqat ekan! Axir, u birovning shafqatiga muhtoj sabiy emas, davra ko'rgan, erta bir kun elga tanilishi tayin bo'lgan polvon yigit-ku! Nahotki, Misqal yangasi buni bilmasa?! Qarindoshchilikni qandaydir taom bilan o'lchasa?! Shu kuni ketmon loyxandaqda, andava chelakda qolib, yigitcha imi-jimida jilib qolgan, aziz narsasidan mosuvo bo'lganday, abgor bir ahvolda uyiga qaytgan. Yaxshiyamki, omadi chopib, bolaligidan ustoz tarbiyasini ko'rib kelayotgan emasmu, bu haqda birovga churq etmagan, buni o'ziga ep ko'rmagan. Bor alamini hovli etagidagi qo'lbo-la turnik poyiga qator terib qo'yilgan turli vazndagi toshlardan olgan – birini qo'yib, birini ko'tarib, jahd va jahl bilan rosa rosa mashq qilgan, shu bilan hovurini bosgan.

Biroq dardini yashirgani bilan, avvalgidek qirga intilmay qo'rganini onasi qolib, Tog'ay polvon sezgan ekan, tarovatti yoz

oqshomlaridan birida uni hovlisidagi baland supaga chorlab, gap orasida to'satdan so'rab qoldi:

– Bu-u... keyingi paytda qir oshmay qo'yding?

Yigitcha odob bilan hozirgina uy bekasi dasturxon chetiga qo'yib ketgan choynakni qo'lga olib, choyni qaytarar ekan, yuragiga boplab tig' sanchgan. Misqal yangasining gapi tugul, turqini-da eslagisi kelmay, shunchaki o'zim, degan bo'ldi. Lekin Tog'ay polvon tishga qarab, ichdagini o'qiydigan odam emasmu, norozilanib tomoq qirdi. Yigitcha uning o'tkir qarashini vujudi orqali his etib, nimasini gapiray, degan yo'sinda ko'z osti qarash qildi. Ustozi nigohini o'qdek qadab, ichingda borini to'k, degan ma'noda bot tomoq qirgach, yigitchaning o'pkasi to'lib, ovozi titrab, lagandagi mevalar ustida g'imirlab yurgan chumoliga boqqan ko'yi, ne gapligini oshiqmay bayon etdi: So'ngra ustozining qahrlanib, agar shunday degan bo'lsa, yangang g'irt ahmoq xotin ekan, bundan keyin izzatingni bilibgina yur, halakaning itiday tog'angnikiga yugurishni bas qil, devishini kutdi. Bu gapdan pishang olishini tuyib, o'zini g'iybatga chog'ladi. Lekin u kuigan qutquli xitobdan darak bo'lavermagach, ajabsinib, asta qansharini ko'tardi va ustozining shom pardasi ostida xira tortgan qir yag'rinidagi yo'lga xayolchan tikilib turganini ko'rdi.

– Demak, yangangdan qattiq xafasan? – dedi Tog'ay polvon bir damdan so'ng u tomon yuz burib.

Yigitcha tasdiq ma'nosida bosh iring'adi.

Ustozi unga sinovchan tikilib, dedi:

– Endi borging yo'q, shundaymi?

Yigitcha alam bilan, ha, dedi-da, keyin jahl bilan qo'shib qo'ydi:

– O'lib qolsam-da, bormayman, ortiq nominiyam tutmayman!

– Ha-a, tering ancha yupqa ekan... – ustoz o'ng tizzasini siypalay turib, bir zum sukutga cho'mdi. Keyin o'ziga o'zi gapirgan ohangda dedi: – Nimayam derdim, raqibning eng zo'riga yo'liqibsan...

Xayrulla, yangamni nazarda tutayapti, degan o'yda unga hayratomuz ko'z tashlab, ayol boshi bilan u kishi qanaqasiga menga raqib bo'lishi mumkin, democchi bo'ldi. Ulgurmadi. Tog'ay polvon

gapni boshqa yoqqa burib, yanagi haftada qo'shni ovulda kurashli to'y borligini aytarkan, o'sha kuni u bilan bellashihi tayin bo'lgan yigitchalardan birining nomini tutib, bu daf'a eplaysanmi, deya so'radi. Xayrulla u tilga olgan yigitchani o'tgan kuni soy bo'yidagi chimzorda ilk bora oyog'ini osmondan keltirib yerga urgan emasmi, g'urur va ishonch bilan, ha, deya bosh iring'adi. Bu gapdan so'ng ustozini qo'lidagi bo'sh piyolani u tomon yumalatib, o'ychanlik bilan dedi:

– Agar chinakamiga jahd qilsang, bunday raqiblarni mag'lub etmoqning hech bir mushkul joyi yo'q. Biroq bu tiriklik dunyosida shunday bir battol raqib borki, ana uni uddalash juda qiyin. Bunday raqibga har kimning ham chog'i yetavermaydi...

Tog'ay polvon sal uzalib, naridagi qirmizi baxmal bolishni biqiniga tortarkan, uddalash juda mushkul bo'lgan o'sha kuchli raqibni noxushlanib eslaganday, asabiy bir tarzda iyak changallab, tag'in xayolga toldi. Shunda ustozining holat va harakatlarini zimdan kuzatib turgan yigitchanning ko'z o'ngida qorachadan kelgan, mushaklari haddan ziyod bo'rtgan, o'ta haybatli bir kimsa namoyon bo'ldi. U devsiyat bu kimsani xayolan ustoziga baqamti qo'yib ko'z rarkan, hov birda uning kimgadir, biz ham arazlab kep qolganlardanmiz, degan gapi favqulodda esiga tushib, o'zicha shu xulosaga keldi: "Ustoz o'zi tomondagi qandaydir bir zo'rga bas kelolmaganidan, nomusga chidayolmay, bu tarafga ko'chib kelgan ekan-da! Ha-a... Dam-badam qir yo'liga qarab qo'yishiga qaraganda, o'sha zo'rga nisbatan haliyam alami kuchliga o'xshaydi..." Yigitcha tasavvurida jonlangan polvonni chindanam bor gumon qilib, hamdardlik bilan dedi:

– Nima, siz uni yenga olmaganmisiz, ustoz?

– Kimni?

– Haligi... Hozir o'zingiz aytgan zo'r raqibni?

– Yengganman...

– Kim edi u?.. – hayajondan yigitcha qaltirab ketdi.

Ana shunda qoshida yonboshlab yotgan ustozining qalin lablari orasidan yigitcha aslo kutmagan quyidagi jumla sirg'alib chiqdi.

– O'zim...

– Ni-i-ma?!

Tog'ay polvon yangasidan jiddiy arazda bo'lgan va ayni damda hayratdan baqa yanglig' qotib qolgan yigitchaga zimdan razm solarkan, shu payt qulog'i ostida akasining, senday inim yo'q, men uchun o'lgan, o'lib bo'lgan u, degan hayqirig'i baralla jaranglaganday bo'ldi. U og'ir xo'rsinib, alam bilan quyi labini mahkam tishladi: agar o'shanda to'yidagi kurashda o'zini bir qo'ldayoq mag'lub etgan qo'shni tumanlik Sarvar polvonni atay ko'kka ko'tarib, o'zini tuproqqa qorishtirgan shirakayf akasining kurakda turmaydigan gap va qiliqlariga bardosh bermoqqa o'zida kuch topa olganida edi, ya'ni ichidagi bo'y bermas raqibni yenga bilganida edi, og'azini o'rtasida qattiq janjal qo'pmagan, o'zi esa g'azab otiga mimib, bu tomonga ko'chib kelmagan bo'lardi. To'g'ri, keyinchalik akasini kechirib, undan ko'p bora uzr so'rgan. Afsuski, avvaliga ukasining mushtidan totinib, so'ngra go'ng to'ldirilgan qopdayin ayvonga uloqtirilgan aka uni kechirmadi va haligacha shu hol, shu ahvol – rang-tusi gezarib, o'zini yetti yot begonadek tutadi. O'lgan vaqt davomida o'z qilmishidan ming bora aziyat chekib, ich-etini yeb kelayotgan Tog'ay polvon endilikda mudom bir narsani – adovatni yaqin xesh tutgan nodon akasining, Xudo insof berib, aziz qo'noq sifatida qir yo'lida paydo bo'lishini ilhaq kutadi. Darvoqe, oqshom yigitchanning dard-u arazidan ogoh bo'lmaganida, Tog'ay polvon mazkur voqea xususida ikki dunyoda ham og'iz ochmagan, so'zi yakunida esa har qanday vaziyatda o'zini tuta bilgan odamgina, tom ma'noda, haqiqiy polvon sanalishini alohida ta'kidlab, kechirimli bo'l, demagan bo'lardi.

Ertasi yakshanba kuni tongdan yigitcha tog'asinikiga otlandi.

Onasi, yo'l bo'lsin deya, odatdagi gapini boshladi:

– Otining tezagi qurimasdan...

– Otimning tezagi allaqachon qurib bo'lgan, enajon! – dedi yigitcha uning gapini bo'lib. – Tezroq borib otimning tezagini yangilab kelmasam, bu yog'i juda uyat bo'lib ketdi..

Yigitcha tog'asining hovlisiga qadam qo'yishi bilan, har doimgidek, boshi bilan ishga sho'ng'idi – loy qorib, og'ixona devorining chala qolgan qismini suvashga tushdi.

Tushga borib ishini tugatdi.



U egnini almashtirib, qayrag'och ostidagi supaga tuzalgan das-turxon chetiga bamaylixotir cho'karkan, qozon boshida kuymala-nayotgan yangasi tomon yuzlanib, beg'araz, o'ktam va sho'xchan ovozda dedi:

– Yanga, ho-ov yanga, ovqatni etliroq qip suzing! Bilasiz, biz yetimlar, ish bahona, shirin tomoq ilinjida kelamiz!..

Misqal yangasi kutilmagan bu sha'madan lavlagiday qizarib ketdi. Azbaroyi uyalganidan qo'lidagi taom to'la laganni yonidagi qiziga tutqazib, o'zi dasturxon boshiga kelmadi, kelolmadi. Chunki supada o'zi bilgan yetimcha emas, mayda-chuyda gap-so'zlarni nazar-pisand qilmaydigan, jigarchil xeshi, Tog'ay polvon ta'biri bilan aytganda, dunyodagi eng battol raqib – o'zini yenga olgan yigitcha, ovul kayvonilaridek chordana qurib, og'zini to'ldirib, non chaynab o'tirar edi-da.

## OLIM OTAXON

(1951–2021)

*Toshkent shahrida tug'ilgan. Toshkent davlat universiteti (hozirgi O'zbekiston Milliy universiteti)ni tugatgan. "Kutish" nomli birinchi hikoyasi 1967-yilda bosilib chiqqan. Shundan so'ng turli yillarda "Botalik kaptarlari" (1981), "Oqshom xayollari" (1986), "Ozod qushlar haqida qo'shiq" (1988), "Adoqsiz ko'chalar" (1980) nomli hikoyalar to'plamlari, "Saylanma" (2021) kitobi nashr etilgan. "Do'stlik" ordeni bilan taqdirlangan (2021).*

## TO'RTINCHI QAVATDAGI SARG'ISH DERAZA

*U sarson izlardi o'zini-o'zi.  
A. Rembo.*

Hayotda hech narsa o'zidan-o'zi sodir bo'lmaydi: beamr tikan ham kirmaydi, deganlari bejiz emas – ro'y bergan har qanday ho-disaning sababi mavjud – biroq kech kuzning zamharir kunlaridan birida tasodifan uchrab, xayolingni alg'ov-dalg'ov qilib yuborgan narsaning sababini sen hech qachon topa olmayсан: qolaversa, bunga hatto qiziqib ham ko'rmayсан...

Basharti qiziqsang – o'sha osmon, o'sha sayyoh qushlar, zamharir qayg'ular va xayollarning g'amgin tovushlaridan bo'lak nima ham yodingga tushardi?! Mabodo qiziqsang va bir-biriga halqa-halqa ulanib ketgan bu manzaralar chashmaning tubidagi toshchalar kabi ko'z o'ngingda ravshan tiklangan taqdirda ham ularga ortiqcha ahamiyat berib o'tirmasding.

Holbuki, hammasiga arzimagan narsa – osmonni to'ldirib uchayotgan yo'lovchi qushlarning g'amgin tovushlari sabab bo'lgan edi.

Esingdami, o'sha kuni kech qaytding: qoraygan osmon, rutubatli havo... Chakmoning yoqasini ko'tarib, negadir bolaligingda yuz bergan bir voqeani hadeb eslashga urinib, yomg'ir yuvib o'tgan yo'lakdan yurib kelarding. Ko'ngling biroz g'ash edi, ehtimol, yuragingga hech narsa sig'masdi.

"Nima qilish kerak?" – deya o'zingdan norozi bo'larding va sen kin-asta allaqanday umidsizlik yuragingga cho'kib borayotganini sezarding. "Xuddi hayotimda bir nima yuz beradigandek, doim nimanidir kutib yuraman... Nima qilish kerak?"

Sen chuqur xo'rsinib, baland imoratlar sari burilding va kimsasiz maydonga kirganningda chor-atrofga alanglading; nechanchi marotaba bu beo'xshov imoratlar orasida devsfat odamlar yurtiga kelib qolgan Gulliver xayolingdan o'tdi; eting junjikdi: darvoqe, izing'irinning dami kesilgan yerda junjikishing ajablanarli...

Sen ko'rimsizgina bino tomon yurib va xuddi shunday ko'rimsiz yo'lak orqali o'tib, chapga burilasan. Yo'l o'rtasida kalta-kulta shoxlarini uzatishga chog'langan ko'yi qotib qolgan daraxt yonidan o'tayotib xo'rsinasan. U yongan simyog'ochdek shumshuk va ayanchli ravishda qaqqayib turardi.

Dunyoda xosiyatsiz narsalar ko'p: xosiyatsiz kunlar, xosiyatsiz tushlar, hatto xosiyatsiz tasodiflar... Sen irim-sirimlarga ishonmaganing uchun bu xosiyatsiz daraxtga boshqa ko'z bilan qararding.

Shamol endi ro'paradan esardi, sen chiqishdan ko'ra tushish noqulay va qiyin bo'lgan zina tarafga yurasan. Zina tepasiga yetganda, tevarak-atrofni allanechuk shovur-shuvur tutib borayotgan day tuyuladi; sen pastga tusha boshlaysan – quyiroq tushganing sari shovqin kuchayib boradi. So'nggi pog'onaga oyoq qo'yganingda, dastlab boshing uzra dengiz to'lqinlari guvullagandek, ilkis bosh ko'tarib, uchib borayotgan qushlar galasiga ko'zing tushganda esa hazin sadolar yangrab ketadi.

Osoyishta qanot qoqib borayotgan qushlar... Ularning tovushidagi ohanglar shunchalik ma'yus va shunchalar ham kuchli ediki, beixtiyor ta'sirlanib, tomog'ingga bir nima tiqilganini his qilasan. Zum o'tmay zina panjarasiga behol suyangan ko'yi ulardan ko'z uzmay turib, "Hozir yomg'ir yog'adi", degan o'y ko'nglingdan kechadi.

Qushlarning tovushidagi g'amginlik ularning qanot qoqishidagi vazminlikka uyg'un edi. Shu asno boya yo'lda kelayotib sen eslashga uringan bolaligingdagi voqea yarq etib yodingga tushadi: zavol payti qabriston devori yoqalab yolg'iz yugurib ketayotibman, yomg'ir shivalayotganga o'xshaydi, boshdan oyoq oppoq kiyingan bir kishi ro'parangdan chiqib, allanimalarni so'raydi, sen javob berasan, so'ng birdan bu odamning ortidan qarash uchun o'girilasan... Ammo qabriston ko'chasida hech zog' ko'rinmaydi. O'shanda bir necha kungacha shu voqea haqida o'ylab yurganding.

Sen ko'zingni behol yumasən. Ko'z oldingda zangori zulmatning sirli shakllari yonib-o'chadi va bolalik xotiralari bir to'lqin kabi yuraging sohillariga tinmay urilayotganini his qilasan.

Qulog'ing ostidan qushlar nolasi anchagacha ketmaydi, sen ko'zingni ochasan-da, uylarning son-sanoqsiz derazalarida ketma-ket yonayotgan va zarhal iplarga osilgandek sezilar-sezilmas silkinayotgan chiroqlar shu lasiga termulasan-u, yolg'iz ekaningni armon bilan his qilasan. Egasiz boqqa begona qushlar yopirilib kelganidek, g'ash va huvullagan ko'nglingga kutilmagan kechinmalar kira boshlaydi.

Xuddi mana shu qushlar juda ko'p narsalar haqida seni ogoh qilishi mumkindek va hayoting qo'ng'iroqchalarini chalib yuborishga qodirdek daf'atan ularga talpinasan.

Biroq qarasang qushlar yo'q, ular uzoqda qora dog'lardek qip-qizil shafaqqa singib borardi. Sen mung'ayib ular ortidan termilasan, nazaringda yana boshqa qushlar to'dasi uchib o'tadigandek hech qayerga jilmay ko'zing tolguncha qarab turaverasan. Bexosdan bir narsaga ko'zing tushadi-yu, yuraging hapriqib hammasiga tushunasan.

Bu hozirgina tepasidan sayyoh qushlar uchib o'tgan imoratning to'rtinchi qavatidagi deraza edi, undan asta-sekin quyulashayotgan qorong'ilik qo'yniga ipakdek mayin shu'la taralardi. Bamisli notinch dengizda adashib-uloqib yurgan va kunlardan bir kun nur sochayotgan mayoqni ko'rgan dengizchilar ilkis quvonchdan o'zlarini yo'qotib qo'ymay, dastlab jilvagar mayoqning najotbaxsh raftoriga maftun bo'lganidek, sen ham bir necha soniya to'rtinchi qavatdagi sarg'ish derazaga hayrat bilan tikilib qolasan. Deraza

chindan ham mayoqqa o'xshardi: u imlar yoxud chorlar va bu deraza shaklidagi yorug'lik manbai ohangrabodek domiga tortardi. Sen beixtiyor: "Qushlardan xotira bu", deya xayol qilasan: darvoqe, derazadan yog'ilayotgan qizg'ish shu 'la bilan qushlar ovozida muayyan umumiylik bor edi - ikkovining zamirida ham unsiz far-yod kuchli, ikkovi ham deyarli bir xil ta'sir etardi.

Esiz, ertaklardagi afsonaviy qushlar yodingga tushmaydi, bo'lmasa bu sarg'ish derazani albatta ularga qiyoslagan va afsonaviy qushlarning tiriklik suvi, mangu go'zallik yashiringan makonlarni izlab topishda odamlarga ko'mak bergani yoki o'sha manzillarga olib boruvchi vositalar - oltin gardishli ko'zgu bilan duldul hadya qilganlari bilan bog'larmiding?

Qorong'ilik hamon quyug'lashardi, sen esa bu sirli derazadan ko'ngil uzolmaysan; qorong'ilik borliqni qo'rqinch pardasiga qalinroq o'ragani sayin deraza ravshanlashib, o'n to'rt kunlik oydek to'lishib bormoqda edi. Bu bir mo'jizaga o'xshardi! Besh qavatli uyning deyarli barcha derazalarida chiroqlar yongandi, lekin ularning bamisoli oydek porlagan to'rtinchi qavatdagi anavi deraza oldida yonarqurtlar yoki tuman qo'ynida xira yiltiragan yulduzlardan farqi yo'q edi.

Oxiri ko'zing toliqadi, ohista xo'rsinagan, yo'lga tushasan, o'n o'n besh qadam yurgach, o'ng qo'ldagi ensiz yo'lakka o'tib yana derazaga nazar solasan. Bu yerdan deraza ko'zga yaxshi chalinmaydi.

Sen yo'lakning adog'iga borgach, yana bosh ko'tarib qaraysan. Endi derazani bafurja tomosha qilsa bo'lardi, chunki sen uning naq to'parasidasan. Nazaringda deraza hamon kimnidir chaqirar, kimnidir o'zidan ogoh qilardi: nimadandir umidvorga o'xshardi. Sen daf'atan mana shu iltijoni payqab qolganing uchun zum o'tmay u iltijoning qizg'ish barmoqlari vujudingga yopishib, yuragingni paypaslayotganini sezib seskanib ketasan. Ha, u yuragingni izlamoqda edi! Beixtiyor entikasan.

Bu yerdan hatto chetlariga lolarang to'r hoshiya bostirilgan deraza pardasining zarrin gullari aniq ko'rinardi. Sen, ana - hozir pardaning bir chetini ohista qayirib, biroq qarab qoladigandek yoki parda bexos qimirlab ketadigandek yuragingni hovuchlab

kutasan. Ammo parda qilt etmaydi va sen oyog'ingni sudrab uyga jo'naysan.

Shu kuni allamahalgacha mijja qoqmay, tunchiroqni yoqib o'tirasan, ko'zlaring qum tiqilgandek achishadi; yuraging bezovtalana boshlaydi. Oxiri qaqshab og'riyotgan yelkalaringni silab-siy-pab, tunchiroqni o'chirmasdan uxlab qolasan.

Oradan ikki kun o'tgach, yana shu yo'l bilan uyga qaytasan. To'g'ri, bu yo'ldan yurishga asli odatlanmagandig. Lekin sarg'ish deraza kun bo'yi xayolingdan ketmagani uchun shu yo'ldan kelgandig. Kimsasiz maydoncha. Mana o'sha xosiyatsiz daraxt. Darvoqe, sen tut bo'lsa kerak, deb o'ylagan daraxtga o'zingcha nom qo'yib olgandig: "Rog'!"

Shu yerga ko'chib kelgan paytlaringda endigina: "Rog'!" degan doston yozib tugatgandig. O'shanda dostoning g'ayritabiyy sarlavhasiga xuddi kelishib olgandek hamma baravariga ochiqdan ochiq qarshi chiqqan edi. Olimlar ham, shoir-u noshirlar ham bu so'zni tushunmagan, uning zamirida qanday ma'no yotganini bilmagan bo'lsalar ham, astoydil, samimiyat bilan tanqid qilgandilar. Sen o'shanda pinagingni buzmagandig, chunki ular nazaringda sen ustalik bilan qo'ygan tuzoqqa ilingan, ya'ni nihoyatda kaltabin ekanliklarini fosh qilgan edilar. Ayrimlar doston qolib ko'proq ar-xaik so'zlar, mistika va rog' haqida og'izlariga kelganini valdiragandilar; ba'zilar sarlavha tufayli dostonning yutug'i xiralashib turibdi, degandi. Kim minbarga chiqib gapirsa, gapini nimadan boshlamasin va umuman nimalar haqida to'xtalmasin, baribir oxir-oqibat muqarrar sarlavhadagi shu so'zga kelib to'xtar yoki barcha fikrlari beixtiyor shunga bog'liq bo'lib qolaverardi.

Hech kim, buning ma'nosi nima, deb so'ramagandi. Holbuki, sen o'zing ham bilmasding. Shuning uchun muhokama nihoyasida so'zga chiqib hammalarini mulzam qilgan va sizlarning fikringiz ham, she'riyatga munosabatlaringiz ham rog' deb kulg'an eding.

U suvlar oqib ketdi. Biroq o'sha dostonning ruhi, kayfiyati keyin nima yozgan bo'lsang, o'shanda aks etaverdi va hatto hayotning tarziga ham ta'sir qildi. O'sha doston o'zligini sarson bo'lib topolmayotgan inson haqidagi o'ylaringdan tashkil topgan edi.

Hozir beo 'xshov daraxtga kulimsirab qaraganingda ana shular ko'nglingdan kechdi. "Rog', rog', bog', bog'... " deya shivirlaysan zinadan tusha boshlaganingda.

Sen iloji boricha derazaga qaramaslikka tirishasan. Lekin dilingning bir chetida sarg'ish derazaning xuddi o'sha kungiday porlab turganiga ishonch bor edi. "Balki o'sha kuni chindan ham tasodifan shunday bo'lgandir", - deya xayolingdan kechirasan-u, baribir qaramaslik uchun o'zingni chalg'ita boshlaysan.

Sen duch kelgan narsalar haqida eslaysan: dastlab Verlen haqida o'ylaysan, keyin Muhabbatga bergan va dang xayolingdan ko'tarilgani, unga yuborgan so'nggi maktubning nihoyasida: "Menga sening ko'zlaring emas, mana shu ko'zlaring xayoli muhim", degan mujmal, hozir eslaganing hamono tuturiqsiz va bachkana bo'lib tuyula boshlagan jumalarni eslab, peshonang tirishadi, baribir yana sarg'ish deraza xayollaring orasiga asta kirib qoladi.

Zinadan tushib, ensiz yo'lakning adog'iga kelib qolganingni payqab, noiloj bosh ko'tarib qaraysan.

Sarg'ish deraza seni kutayotgan edi.

Qaraganing zahoti deraza xuddi sen bilan salomlashmoqchidek parpiraydi va yorishib ketadi - go'yo qorong'ilik qo'ynida gurullab gulxan yona boshlagandek.

Sen beixtiyor qo'l ko'tarib, ishora qilmoqchi bo'lasan, ammo orqa tarafdan qadam tovushlari eshitilib, fikringdan qaytasan. Ikki kishi yoningdan shosha-pisha o'tib ketadi. Bu odamlar shunchalik hovliqib borar ediki, oyoqlari chalishib, har qadamda qoqinib-suri-nardilar.

Daf'atan, "Shular ham menga o'xshab sarg'ish derazani ko'rib, fikr-u zikri bu bilan band bo'lishi mumkinmi?" deb o'ylaysan.

Bu sarg'ish derazaga har kuni qanchadan qancha odamning ko'zi tushmaydi deysan?! Biroq ich-ichingda birortasi unga ahamiyat berish tugul, qayrilib ham qaramasligiga ishonching komil edi.

Ehtimol, sen ham shu choqqacha qaramay, sayyoh qushlar osmonni to'ldirib uchib o'tgan o'sha oqshom ko'rib qolgandirsan? Ehtimol, har bir odam uchun shunga o'xshab alohida bir tasodif kerakdir?!

Bora-bora bu sarg'ish deraza fikr-u xayolingni o'g'irlab qo'ydi. Sen hatto ba'zi kunlari tezroq qorong'i tushsa-yu, tezroq o'sha deraza oldiga borsam, deya kutadigan bo'lding. Goho ishxonang-da derazadan serqatnov ko'chaga qarab o'tirgan paytlarda birdan ko'z oldingga sarg'ish deraza kelar, yuraging orziqib ketardi. Sarg'ish deraza bamisoli mahubang edi, mahbuba bo'lganda ham yulduzdek charaqlagan, zoriqqan ko'zlarida, horg'in va o'ychan qarashlari, zarif tabassumida intizorlik, iltijo va alohida mehr jil-valangan mahbuba!

Bir kun havo behad sovib, qor hidi kelayotganiga qaramay, kechki payt yomg'ir quyib berdi. Sen derazani qiya ochib, shovul-lab yog'ayotgan yomg'irni picha kuzatib turganingda xayoling qo'chdi va ko'z oldingga o'z-o'zidan sarg'ish deraza keldi.

Keyingi paytda seni bir narsa ajablantira boshlagan edi. Sarg'ish derazaning nimasi o'ziga asir qilib oldi, deya boshing qo-tardi. Boshing qotardi-yu, ammo o'ylaganing sari yengil tortarding, yo'q, to'g'irrog'i, qalbing-la bir xushnudlik tuyarding, ruhingda bir kuchlanish sezarding. Shuning barobarida, baribir nimasiga uch-ganingni ham bilging kelardi.

O'sha, qiya ochiq derazadan yomg'irni tomosha qilib turga-ningda, daf'atan, shu bugunooq u kimning uyi ekanini aniqlashga qaror qilasan va beixtiyor xonaga sig'may, g'ira-shira yo'lakka chiqib, tashqariga yurasan. To birinchi qavatga tushib, shlapangni kiyib ko'chaga chiqquningcha bu istak-xohish kuchayaveradi. Sen yosh boladek hayajonlana boshlaysan. Bu avzoyingdan seziladi, shekilli, kiyimxonadagi ayol ham, eshik yonida xayrlashgani bosh silkiib qo'rgan kishi ham ajablanayotganini yashirmay, ortingdan qarab qoladi.

Ko'chaga chiqqach, yomg'irga ham qaramay yo'lga tushasan.

Metroning oppoq nur to'shalgan zinalaridan tushib borayot-ganingda, platformada yoqib qo'yilgan son-sanoqsiz chiroqlar shu lasidan ko'zing qamashadi: stansiya kunduzgidek charog'on - bu charog'onlik odamlarning qalbiga yetib bormayotgandek tuyuladi senga. "Nega oddiy, sarg'ish deraza mening yuragimni hunchalik zabt etgani holda, metrodagi nur bir paysa ham ta'sir qilmaydi. Bunda qanday sir bor?" deya ajablanasan.

Metrodagi iliq havo elitadi seni, lohas bo'lasan, faqat toza havoga chiqqachgina yengil tortasan.

Yomg'ir shivalardi: sen avtobusga chiqasan, avtobus chamasi o'n daqiqa yurgandan so'ng qorong'i bir bekatda seni qoldirib jo'naydi. Sen ko'chaning narigi yuziga o'tasan - fikr-u xayolingda hamon sarg'ish deraza.

Daf'atan, sarg'ish derazani ko'rishdan ko'ra, uyda kim istiqomat qilishini bilish istagi kuchayadi.

Bu sarg'ish derazaga o'rganib qolgan dastlabki paytda ham, keyinchalik ham xayolingga kelmagandi. Ammo ilk bor derazaga ko'zing tushgan kunning ertasidan boshlab unga naqadar qiziqib qolgan bo'lsang, hozir, oradan ikki hafta o'tgach, u yerda kim yashayotganini bilishga shu qadar qiziqqa boshlaysan va bittayarimtasidan so'rab bilishga qaror qilasan.

Istagan odamingni yo'lak yonida uchratasan. Avvaliga u nima demoqchi bo'layotganingni ang'lay olmaydi, ko'zlaringga tikiladi, ammo indamaydi. So'ngra yelka qisadi va bu kekxa bog'bonni uying orqa tomoniga olib o'tishdan boshqa ilojing qolmaydi.

Afsuski, cholga bir nimalarni uzoq tushuntirgach, bosh ko'tarib qaraganingda, daming ichingga tushib ketadi.

Ko'zlaring o'rganib qolgan sarg'ish derazani topolmaysan. U o'z o'rni bo'lgani bilan nurafshon emas - eski g'orning vahimali og'zidek qorayib turardi.

Chol yelkangga qoqib qo'yadi va uyiga taklif qiladi, sen uzr so'rab, tinka-madori qurigan kimsadek oyog'ingni sudrab, uyingga jo'naysan.

Arang to'rtinchi qavatga chiqib, eshikni ochasan va uyga kirasan. Uning sovuqligi seni ajablantiradi, borib radiatorni ushlab ko'rasan, so'ng chakmoningni yechib, stul suyanchig'iga tashlay-san-da, divanga behol cho'zilasan. Yotgan yeringda bosh tomoningdagi tunchiroqni yoqish uchun cho'zilasan va daf'atan barmoqlaring, kafting bir haroratni tuyib, hayron bo'lasan. O'rningdan tunchiroq lampochkasini ushlab ko'rasan. Lampochka yaqinda o'chirilgandek iliq, hali sovib ulgurmagan bo'ladi.

Ertasiga peshinga do'vur hardamxayol yurasan: dam-badam derazadan ko'chaga qaraysan. Ahyon-ahyon hovliga tushib aylana-

san - ammo ko'ngling joyiga tushmaydi. O'zingcha sarg'ish deraza haqida turli taxminlar to'qiyasan: go'yo u yerda yashayotgan kimsa uzoq payt kutaverib charchagan-u, chiroqni o'chirgan, endi hech qachon qayta yoqmaydi yoki kecha uyida bo'lmagani uchun chiroqni yoqib ketishni istamagan: yoxud men bormasimdan xiyol avval chiroqni o'chirib, qo'ni-qo'shnisidikiga chiqib ketgan....

Kutilmaganda bordi-yu, kecha yomg'irda sayr qilgani hovliga tushgan bo'lsa-chi, degan o'y kechadi va sen "Agar shunday bo'lsa, demak, u meni ko'rgandir. Ehtimol, men unga parvo qilmagandirman", degan xulosaga kelasan.

Shunga qaramay, sen bugun, albatta, nimadir oydinlashishi kerak, deb ishonasan. Basharti, sarg'ish derazani bugun ham topolmasang, u holda tamom - umidingni uzishing mumkin. Agar seni kutib olsa, demak, kechagi iztiroblaring o'rinsiz - biror kor-hol to'y bergan chiqadi.

Ish vaqti tugab, ko'chaga chiqqaningda hamon yomg'ir yog'ardi. Ezib yog'ardi. Kechagiga o'xshab metroda emas, tramvayda ketasan. Tramvay juda uzoq, aylanma yo'llar bilan qatnagani uchun unga kamdan kam chiqarding.

Dekabrning boshlari edi. Sen tramvaydan tushib, ko'chani kesib o'tasan-da, orqaga biroz yurasan, so'ng chap qo'ldagi do'kon yoqalab borib, baland uylar tomonga burilasan. Yomg'ir tezlashib, ikki qadam narini ko'rib bo'lmasdi, sen shalabboying chiqib, zina yoniga yetib borasan, zinadan tushar-tushmas, boshingni ko'tarib qaraysan. Sochlaringdan, yuzingdan yomg'ir suvlari oqardi. Harchand tikilma, sarg'ish derazani topolmaysan. Bu xuddi bevaqt tashlab ketgan hamrohdek ko'ksingni tirnaydi. Sen yig'lagudek bo'lib yana qaraysan - deraza yo'q, yana va yana qaraysan - faqat yomg'ir yog'ayotir, yog'ayotir - yomg'irdan bo'lak narsa ko'rinmayotir: sen xunob bo'lasan va yo'lingda davom etasan, boshmoqlaringdan suv o'tadi, qizib ketgan badaningga chippa yopishgan ko'yilg'ing g'ashingga tegadi. Sen ensiz yo'lakning adog'iga bor-gach, yana - bu safar javdirab qaraysan va hafsalang pir bo'ladi. Kiftlaring, kuraklaring, tizzalaring achisha boshlaydi. Shu choq kimdir chaqirgandek bo'ladi-yu, to'xtab qaraysan, ammo hech kim ko'rinmaydi. Zum o'tmay to'niga o'ralib, soyabon ko'tarib olgan

bir kishi paydo bo'ladi, sen uni kuzatib turasan va yoningga yetib kelganda, birdan to'xtatib, sarg'ish derazani ko'rsatib so'raysan. Ha, ha, ikki kundan beri chiroq yonmaydi. Qandaydir shubhali, deya u kishini qiziqirmoqchi bo'lasan, biroq soyabonli odam bir qaraydi, ikki qaraydi va lom-lim demay, jo'nab ketadi.

Tarvuzing qo'tug'ingdan tushib yana qaraysan, qaraysan-u, yuraging birdan uvushib, to'xtab qolgandek bo'ladi.

Yomg'ir to'zoni oralab sarg'ish deraza elas-elas miltirardi.

Birdan ko'ngling buzilib, o'sha tomonga yurasan, deraza tagiga yaqinlashganing sari nazaringda u tobora ravshanlashib boradi. Ana u! Sarg'ish shu'lalarga burkangan, horg'in va intizor. Tomog'ingga bir nima tiqilib achishadi va yuraging gursullab ura boshlaydi. Sochlaring ivib, bo'yningga, quloqlaringga yopishib qolgan.

Sarg'ish derazani injular bilan bezayotgan yomg'ir tinmaydi. Tevarak-atrofdan tovushlar kuchayadi, bu tovushlar dunyoni tutadi. Sen endi shukronalar aytasan - ko'nglingda muhabbat uyg'onadi, zotan, bu muhabbat bahor yomg'irlarida ivib egilgan maysalarga o'xshaydi.

Sen derazaning shundoq ro'parasiga borib olasan-da, xuddi Sulla legioni qarshisida yakka o'zi qilich yalang'ochlab turgan Antonyy singari o'zingni ham ojiz, ham har narsaga qodir seza boshlaysan...

Bu bir jodu edi. Chunki sen sarg'ish derazasiz g'arib va benavo ekaningga ishongan va yo'qotib qo'yishdan qo'rqa boshlagandan e'tiboran, uni avaylashga, uning holidan xabar olib turishga, er-tami-kechmi unga yetishishga ahd qilasan va bu ahd sizot suvlari kabi yuragingning teran qatlamlariga oqib kiradi.

Endi faqat sen unga emas, balki sarg'ish deraza ham senga talpinayotgandek va u ham senga o'xshab najot kutayotgandek tuyuladi.

Sen o'zingni xuddi uzoq yo'lning mashaqqatli dovonlaridan o'tib olgandek his etasan. Go'yo sarg'ish deraza bilan oralaringda bir-birini anglash va o'zaro hamdardlik boshlangan edi.

Oqibat sen qaysi yo'l bilan bo'lmasin, men yordam berishga tayyorman, deb unga tasalli berib qo'yish yo'llarini axtara boshlaysan. Ammo qanday qilib? Buning uchun o'sha uydakim yashayot-

ganini aniqlash zarur edi. Shu tariqa avval qiziqib, so'ng hafsalang pir bo'lgach, unutib yuborgan muammo yana bezovta qiladi.

O'sha kuniyoq ertalab ishga ketayotganda farrosh xotindan ba'zi narsalarni so'raysan. Azbaroyi biron foydasi tegarmikan, degan ilinjda ezma xotinning hasratlarini tinglaysan, unga dalda berasan va oxiri sen qolib, u o'ziga kerakli narsalarni so'rab, boshingni qotirishga tushadi. Qo'l siltab, ishga jo'naysan.

Kechqurun ham barcha urinishlaring zoye ketadi. Hech kim aniq javob bermaydi. Hamma ajablanadi va bir nimalar deb ming'irlaydi. Hatto ba'zilari esa senga boshdan oyoq razm solib, indamaydi yoki bosh chayqab qo'yadi.

Nihoyat, kunlarning birida sen uyda o'tirolmay yuraging ziq bo'lib ko'chaga chiqasan-da, o'sha to'rtinchi qavatdagi sarg'ish derazali uyni yo'qlashga qaror qilasan. Eshik yonida nafas rostlab, qo'ng'iroq tugmasini bosasan. Negadir hayajonlanasan. Ichkaridan yumshoq qadam tovushlari eshitilgandek bo'ladi. Ammo ikki-uch daqiqa o'tadi hamki, hech kim javob bermaydi. Sen yana qo'ng'iroq chalasan, biroq hech kim chiqmaydi. Shunda qo'ng'iroq tugmasini uzoq, to uyda hech kim yo'qligiga ishonch hosil qilguncha bosib turasan, so'ng pastga tushib, binoni aylanib o'tasan-da, derazaga qaraysan: sarg'ish deraza allanechuk fayzkor charaqlardi.

"Ichkarida birov bor-u, eshikni ochmayapti", - deb o'ylaysan. Ammo o'sha zahoti: "Balki hech kim yo'qdir", - degan xayolga boras. "Unda dam yonib, dam o'chishining siri nimada?" Sen ming xayolda uyingga qaytib borganingda, nima qilishni bilmasing. Kunlar o'tdi.

To'rtinchi qavatdagi sarg'ish derazali uyda kim yashashini bilish istagi shunchalik kuchaydiki, azbaroyi aniqlamaguncha yeganing ichingga tushmas bir ahvolga yetding.

Ammo sen bir narsani unutib qo'yayotgan eding: sen uchun sarg'ish derazaning mavjudligi muhimmi yoki shu uyda kim yashashimi? Holbuki, ayni chog'da mana shu narsani oydinlashtirib olish zarur edi. Chunki bular aslida tamoman boshqa-boshqa narsalar edi. Dastlab sarg'ish deraza sabab vazifasini o'tagan bo'lsa, u endi go'yo oqibat edi - sababini izlash orqaga qaytish deganidir.

Kunlarning birida mana shunday hal qilib, mushkul kechinmalar bilan ishdan qaytayotgan paytingda dekabr oxirlab qolgan, havoda mayda qor uchqunlayotgan edi. Sen ko'ksingni to'ldirib nafas olgancha qor uchqunlarining tobora yiriklashayotgani hamda tezlashayotganini sezib ajablanarding.

Baland imorat ostidan o'tib, huvullagan maydonchaga yetganingda qor yana ham tezlashadi. To'xtab, atrofga razm solasan. Go'yo shu qor tufayli hayotingda bir o'zgarishlar ro'y beradigandek edi, zero, bu baland-baland imoratlar ham endi beso'naqay va ko'rimsiz tuyulmasdi.

Qor yog'ardi.

Sen Rog' yoniga kelganingda uni tanimay qolasan: daraxt opoq, harir libosga burkangan...

Zinadan tushayotganingda esa shamol kuchayadi va ko'p o'tmay chinakam qor bo'roni boshlanadi. Shamol qor uchqunlarini changallab olgancha chir aylanib yelar, dam uylarning devoriga, derazalariga keltirib urar va dam etaklarini hilpiratgancha osmon-u falakka ko'tariladi.

Sen zinadan tushgach, ko'zlaringni kafting bilan panalab derazani izlaysan. Son-sanoqsiz qor uchqunlari oralab, sarg'ish deraza seni chaqirmoqda edi. Nazaringda u horg'in emas, sokin edi. Sen ensiz yo'lakning adog'iga borib, qo'l silkiysan va bir iztirob vujudingni sekin qamrab ola boshlaydi-yu, xuddi uzoq ayriliqdan so'ng farzandini ko'rgan onadek ko'ngling buziladi...

## NURULLOH MUHAMMAD RAUFXON

*1955-yilda Farg'ona viloyati O'zbekiston tumanidagi Oyimcha Qaquir qishlog'ida tug'ilgan. Toshkent davlat universitetini (hozirgi O'zbekiston Milliy universiteti) tugatgan. "Yo'l boshida" (1984) to'plamida hammuallif bo'lgan bo'lsa, keyinchalik uning "Dunyo keng" (1985), "Shu yerlik kishi" (1987), "Etakdagi kulba" (2014) nasriy asarlar to'plamlari chop etilgan.*

### ETAKDAGI KULBA

Jimjit Qishloqqa jimjitlikni buzib o'xshovsiz bir devona oralandi. U bir marom va bir ohangda nimalardir deb jar solar, ora-chora jinko'channing ikki tomonidagi pastqam uylarga va undan ham pastqam eshiklarga ko'z tashlab, go'yo jariga javob kutar edi.

Yer yuzida paydo bo'lganidan beri Qishloq bunaqa devonalarni, har turli kelgan-ketganni ko'p ko'rgan. Birda: "Qaychi-pichoq o'tkirlayma-a-an! O'roq-ketmon egovlayma-a-an!" deb charxchi jar solib o'tadi. Qishloqda nima ko'p, o'tmas pichog'-u to'mtoq ketmon ko'p - bir zumda hammasi shaqir-shuqur qilib charxchining oldida to'planadi. Birda chegachi kelib qoladi: "Singan choynak-piyola chegalayma-a-an!" Qishloqliklar bolalarining qo'llariga chaqa berib, chegachining oldingi kelishi bilan hozirgi kelishi oralig'ida singan choynak-piyola va kosa-laganlarini tutqazib, ko'chaga chiqazishadi. Yana: "Jun olama-an!" degani qancha, "Uvada titama-an!" degani qancha. Boshqa kunlari Qishloq qish bo'lsa qorasovuqdan dildirab, yoz bo'lsa saratondan jizg'inagi chiqib yotaveradi. Bahorda bir nafas oladi, kuzda bir nafas chiqaradi. Zerikarli.

Bunaqa kelgindilarni ko'raverib Qishloq ko'nikib ketgan, hamishagi hol deb qaraydi. Devonaga ham parvo qilmasligi mum-

kin edi, lekin uning so'zlari bu gal sal bo'lakcharoq tuyuldi. Devona odamlardan qotgan non emas, eski kiyim-bosh emas, nimadir boshqa narsa so'rayotgan edi:

- Uyi kuygan kim bor?... Moli kuygan kim bor?... Bag'ri kuygan kim bor?..

Qishloq sergak tortdi, shubhalandi. Zerikarli va tussiz hayotiga sal bo'lsa-da bo'lakcha bir havo kiritishi mumkin bo'lgan bu ishdan negadir quvonmadi, aksincha, biroq qo'rqinch hissi bosdi uni. G'alati tovush va undan ham g'alati so'zlar egasini ko'rishga qiziqqan tajribasiz bola-baqrarga tajribali ota-onalar o'shqirib berishdi:

- Ha, qayoqqa?! Qayt orqangga!

- Eshikni tambala! Uyda xap o'tir!

Diqqinafas ko'chada hali ham Devonaning tovushi kezar, jim-jitlik shovqinidan tom bitgan quloqlarga uning tovushi allaqanday yoqimli bir epkin bo'lib kirar, hatto shirali eshitilar edi:

- Uyi kuygan kim bor?... Moli kuygan kim bor?... Bag'ri kuygan kim bor?..

Ming tiyilmasin, baribir maroq ustun keldi: qattiq tambalangan, zulfnilangan va kamiga yana ichdan qulflangan eshiklar orqasiga Qishloq asta-sekin va ixtiyorsiz ravishda surilib keldi, tirqishlardan ko'chaga mo'ralay boshladi.

Kim bo'ldi bu odam? Nega birdan bunaqa narsalarni so'roqlab qoldi? Usta bo'lib ustaga o'xshamaydi, kuygan uylarni butlab beray desa? Boy bo'lib boyga o'xshamaydi, moli kuyganlarga suyanchiq bo'lsa? Tabib bo'lib tabibga o'xshamaydi, kuygan bag'irlarga dori qo'ysa? Kim axir?..

G'irt devona! So'zi turishiga, turishi so'ziga uyg'un kelmaydigan dalli! Albatta, Qishloqda uyi, moli yo bag'ri kuyganlar qancha, lekin shu paytgacha birov bularni so'ramagan-da. Uzoqdan kelib so'rash tugul, qishloqliklarning o'zi ham bir-biridan yurak yutib, tovush chiqarib hol so'ramay qo'rgan. Bir hisobga, so'rab nima qiladi, qachondan beri bir osmon ostida, bir tuproq ustida birga-birga yashab keladi, bir-birining holini har kim o'zi ko'rib-bilib turibdi, ko'rib-bilib turgan narsasini yana so'raydimi?!

Shunday bir pallada... qandaydir bir Devona... issiqdan pishillab yotgan Qishloqda... ko'chama-ko'cha yurib... qanaqadir bir narsalar desa!

Jinko'chalar uzra momaqaldiroqdek tuyqus yangragan bu tovush, albatta, shubhali va qo'rqinchli edi. Axir, momaqaldiroq ham bahorga yarashadi. Kuzdayam mayli deydik, ammo yozning qoq o'rtasida guldurashi...

- Nima deyapti? - deb so'raydi qiziquvchan xotinlar.

- Ovozingni o'chir! Ishing bo'lmasin! - deb jerkiydi ehtiyotkor orlar.

Ichkarilarda hol bu ekan, tashqarida Devona hayron edi. O'likmi bu qishloq, deb o'ylaydi. Uzun umri ichida ne-ne yurtlarni kezdi, ne-ne odamlarni ko'rdi, ammo bunaqa gung Qishloqqa endi yo'li-qishi. Biron-bir ofatdan aholisi qirilib, kimsasiz sho'ppayib qolgan shahar-u qishloqlar o'tmishda ko'p bo'lgan, albatta. Bu qishloqqayam yaqin orada biron ofat keldimikan yo? Unday desa, ko'rinshidan juda unaqa tashlandiq makonga o'xshamaydi, yaqin-yaqinlarga gacha odam yashaganing izlari bilinib turibdi.

Lekin jimjitlik, xuddi o'lik deysiz.

Shunga qaramay, Devona qandaydir bir ichki sezgi bilan, Qishloqda bironta tirik jonzot qolgan bo'lishi kerak-ku, axir, degan umidda jar solishdan to'xtamasdi:

- Uyi kuygan kim bor?... Moli kuygan kim bor?... Bag'ri kuygan kim bor?..

Shu palla... etakdagi bir eshik g'iyqilladi. Bunaqa so'rovga javoban bironta eshikning ochilishini sira kutmagan Qishloq sap-chib tushdi. Shu damgacha jimjit kechayotgan turmushini bezovta qilgan bu g'iyqillash, nazarida, yana juda uzoq zamon boshi uzra qo'rqinch solib yangrab turganday bo'ldi. Eshiklarni qiya ochib, hadik-xavotirda, tovush chiqqan tomonga mo'raladi.

Etakdagi kulbada eski zamonlardan beri bu Qishloqqa begona bir odam yashardi. Qayerdan kelib qolgan, ota-onasi kim, xeshlari bormi, nima ish qiladi - Qishloq buni bilmas, uni tanimas edi. Keyingi paytlar hamma o'zi bilan o'zi bo'lib ketib, Begona battar ko'zga chalinmay qolganidan, hatto o'ldiga ham chiqarib qo'ygan.



Bu nima degan gap, bir kishi o'lsa, Qishloq bilmasmı, odamlar to'planib ko'mmasmı?!.

Ha, odam to'planmasa ham, o'lgan kishini ko'mmasa ham, kimningdir o'lganini Qishloq bilmay qolsa ham, bo'laverarkan! Nega deganda, hozir ko'plar hovlisidan o'ziga go'r qazib, uyini mozor qilib olgan - shu yo'l o'ng'ay kelib qoldi: ha, desa, yuvin-mayoq, kafanga o'ranmayoq, go'rıga kirib ketyapti. O'lish oson va tekin bo'lib qoldi. Hech kimga og'irıngiz tushmaydi, Qishloq ham bilmay qolaveradi.

Yo'q, hartugul, Begona hali o'lmagan ekan, o'lmaganini Qishloqqa yog'siragan eshigi bildirdi. Jimjitlik pardasini chok-chokidan so'kib, bu pastqam eshik bu ulkan olamga jar soldi:

- G'iy-y-iql!..

Keyin ostonada Begonaning jussasi ham ko'rindi. Bo'ynini cho'zib, picha tevarakni sinchiladi, nihoyat, ko'ngli tinchlandimi, asta ko'chaga oyoq qo'ydi.

Devona to'xtadi. O'lımsangi Qishloqda tuyqus paydo bo'lgan bu tirik odamga ajabsinib qaradi.

Chından ham, Begona shu turishida xuddi go'rdan chiqib kelayotganga o'xshardi: tirish bosgan yuzida qon asari yo'q, o'siq qoshlaridan quloqlarigacha, quloqlaridan yelkalarigacha, yelkalaridan burni-yu patila soqol-mo'ylovigacha o'rgimchak in to'qib tashlagan; kiyimlari ham ilviroq. Yurganida, o'rgimchak to'rlarini avaylaganday, oyog'idan boshqa joyini qimirlatmaslikka tirishib yurardi.

Devonaga yaqınroq kelib, to'xtadi. Og'zini xiyol ochdi, orada qishloqqa olazarak boqdi, hayiqdimi, gapira olmadi, ammo nimalardir degisi kelayotgani quyuq to'r ichra xiragina yiltirab turgan ko'zlaridan bilgili edi.

Devona uzoq kutdi, hadeganda Begonadan sas chiqavermagach, o'zi birmimalar deganday bo'ldi.

Qishloq uning gapini eshitmadi, lekin ko'chaga chiqishga, bu Devona bilan bu Begonaga yaqınlashishga, gaplariga quloq solishga yuragi betlamadi ham.

Devona yana kuta-kuta, kutganiga erishavermagach, oxiri Begonaning is bosgan qulog'iga og'zini qo'ydi va... bir o'kirdi!

Bu o'kiriqdan Begona titrab ketdi, boshi-yu qo'llarini ixtiyorsiz qimirlatib yubordi.

O'rgimchak to'rlari chirt uzildi.

Keyin Devona ketdi. Jar ham solmay qo'ydi, orqasiga ham qararamadi, Qishloqda qanday to'satdan va bilintirmay paydo bo'lgan bo'lsa, shunday to'satdan va bilintirmay yo'qoldi.

Begona yana eshigini g'iyqillatib... go'rıga kirib ketdi.

Qishloq tag'in jimjitlik chuquriga cho'kdi.

Bu sirli-jumboqli manzara ko'zlardan tez o'chgani singari eslardan ham tez o'chdi. Xuddi aslida bo'lmaganday...

## XAYRIDDIN SULTON

1956-yilda Toshkent viloyati Qibray tumanida tugʻilgan. Toshkent davlat universitetini (hozirgi Oʻzbekiston Milliy universiteti) tugatgan. "Quyosh barchaga barobar" (1980), "Bir oqshom ertagi" (1983), "Onamning yurti" (1987), "Umr esa oʻtmoqda" (1988), "Boburning tushlari" (1992), "Boburiynoma" (1997), "Toʻqchilik va yoʻqchilik" (2002), "Saodat sohili" (2005), "Odamlardan tinglab hikoya" (2021), "Navoiy, 30" (2022) kabi nasriy kitoblari nashr etilgan. "Sarhovuzning boʻylarida" (1992) dramasi muallifi. 2016-yilda "Fidokorona xizmatlari uchun" ordeni bilan taqdirlangan.

## ONAMNING YURTI

Nihoyat, onamning yurtiga joʻnar boʻldik.  
Onamning yurti!

Esimni tanibmanki, bu soʻz xotiramga olis ertak boʻlib, maʼyus alla boʻlib oʻtmashgan. To hanzuz quloqlarim ostida soʻnmas bir qoʻshiq yangligʻ jaranglaydi u.

Shu paytgacha onam tilidan uning taʼrifinigina eshitardik. Shu paytgacha uning qaydaligini, qanday joy ekanini bilmasdik; onamning yurti – onamning oʻtli armoni ekanini sezardik, xolos. Onam yetti-sakkiz yashar goʻdak chogʻida yurtidan ayrilgan ekan.

"Adogʻi yoʻq tuproq yoʻldan aravaga tushib kelganim yodim-da, – derdi onam va shu zahoti koʻzlaridan duvullab yosh oqib ketardi. – Otam bilan onamni elas-elas eslayman. Otam soqollari uzun-uzun, qizil yuzli odam edi. Onam judayam novcha edi, oʻrnidan turganida, boshini kunga urib olmasaydi, deb qoʻrqardim..."

Onamning yurti kunchiqardami, kunbotardami, daryo ortidami, togʻlar bagʻridami, dasht-u biyobonlar qoʻynidami – birortamiz bilmas edik. Faqat, uning tengsiz goʻzal bir maskan ekanini anglardik. U yurtda osmon – osmon emas, mushfiq ona; togʻlar – togʻ emas, mehribon padar; gullar – gul emas, munis hamshira; u yerda odamlarni xoʻroz qichqirigʻi emas, bulbul navosi uygʻotadi.

Oradan ne bir zamonlar – oltmish olti yil oʻtganiga qaramay, onam hamon taqdiriga tan bermas, hamon ufqdan koʻzi va koʻnglini uzolmas, hamon yurtining taʼrifini tildan qoʻymas edi. Biz ham bunga oʻrganib qolgan edik. Baʼzan togʻ-u toshlar aro koʻmilib yotgan shu kichkinagina qishlogʻimiz zeriktirganda, baʼzan nimadandir ranjiganimizda, goh esa yuragimiz besabab gʻussaga toʻlganda onamning olis, nomaʼlum va sirlı yurtiga bosh olib ketgimiz kelardi.

Mana, nihoyat, uning daragi topildi!.. Onamning quvonchini bizga qanday tasvirlab beray? Yoʻq, chamalab koʻrdim, qoʻlimdan kelmas ekan. Buni tasavvur qilmoqchi boʻlsangiz, yaxshisi, onangiz quvongan kezlarda, aniqrogʻi, uni oʻzingiz bir ogʻiz shirin soʻz bilanmi, bir savob ish bilanmi quvontirgan damlaringizda asta kuzating. Afsus, ming afsus, bunday onlar hayotimizda qanchalar kam: biz – farzandlar, onalarimizga shodlik oʻrniga aksar ranj-u alam yetkazamiz, xolos.

Xullas, yurtining daragini eshitdi-yu, onam bir kechada yasharib ketdi. Har kecha sirqirab azob beradigan oyogʻining ogʻrigʻini ham unutgandek boʻldi. Endi uning yetmish uchga kirganiga hech kim, hatto oʻzi ham ishonmas edi.

"Nahot tugʻilgan yurtimni bir koʻrmay ketsam?" – derdi onam mudom xoʻrsinib. Men esa, goh kulib, goh jiddiy tortib, endi mu-sofir-u muhojir degan gaplar qolmaganini, mana shu bepoyon mamlakat, shu ajib diyov barchamizning yagona vatanimiz ekanini yotigʻi bilan uqtirmoqchi boʻlardim. Onam gaplarimni jimgina tinglardi-yu, koʻz yoshi tinmasdi.

Bilardim, uning dardi pinhon, koʻngli yarim, biroq uni butun qilmoqqa ojiz edim: urushda nobud boʻlgan ikki ogʻamni tiriltirilmamasam, na yuragidagi, na oyogʻidagi ogʻriqni sugʻurib olo-lmasam...

Onam hademay chevara ko'radi, lekin hanuz meni himoyasiz go'dak biladi - xuddi to'rt yashar bolani asrab-avaylagandek tejab-tergaydi; hali-hozir jindek kech qolsam, iyagini yostiqaqqa tiragancha yo'limni poylaydi, qoramni ko'rishi bilan beozor koyib qo'yadi: "Namozshom arvochday shu paytgacha tentirab yuribsanmi? Soat necha bo'ldi?" "Bir", - deymen bamaylixotir ust-bo'shimni yecharkanman. "E, gapirmaye! - deydi onam ranjib. - Bir qoldimi, allaqachon o'n bo'lgandir!"

Onam soatni bilmasdi - yurtini, nasl-u nasabini bilmaganidek.

Avvallari yosh edim, onamning dardi dilini anglamas ekanman. Faqat ko'p yillar keyin, boshimdan turli savdolar kechib, oq oralagan sochlarim bir-bir to'kila boshlagandagina bu haqda bot-bot o'ylaydigan bo'lib qoldim.

Va shundan so'ng onamning yurtini izlashga kirishdim.

Onam yoshlik yillari, jamalaksoch qizcha paytida el qatori burchoq terгани chiqqan. Burchoq terib yurib adashgan. Adashgan-u qaytib na ota-onasini, na yurtini ko'rgan. Yodida qolgani - baland arava-yu uzun tuproq yo'l.

Onamning yurtini goh intizor bo'lib, goh umidsizlikka tushib, sabr-chidam bilan uzoq izladim. Qo'shimizning Razzoq degan bir o'g'li Toshkentda, radioda ishlardi. Shu yigit ko'p yordam qildi. Birgalashib yozdik, birgalashib kutdik. Astoydil yig'lagan ekanmizmi, nihoyat, so'qir ko'zdan ham yosh chiqdi - onamning yurtidan darak keldi!

Shunda men onam uzoq yillar mobaynida xo'rsinib so'zlagan yurtini xayolan aniq-taniq ko'rdim, o'zimni go'yo ming yillardan buyon o'sha yerda yashagandek, yashaydigandek his qildim - shunchalar qon-qonimizga singib ketgan edi u.

"Joy bo'lmay qurib ketsin, - derdi onam ba'zan zorlanib, - loqaq yuz yuvarga suvi bo'lmasa-ya! Esiz-esiz, yurtimdagi daryo-daryo suvlar..."

Uning ranj-u koyishlari bejiz emasdi. Tang-u tor, tog'-u tosh qishlog'imizda bir tomchi suv gavharga teng, gavhar nima, odamning xuni bilan baravar edi: ichimlik suvini ham yetti-sakkiz chaqirim olisdan tashib keltirardik. Lekin, taa'jubki, onamdan bo'lak hech kimsaga buning og'irligi bilinmasdi.

Bilsam, onamning yurti chindan ham ulug' daryo sohililarida ekan.

"Do'xax bo'lib ketdi-ku, - deb nolirdi onam ba'zan. - Hah, yurtilimning shamollari-ya..."

Bu atrof-javonibda bizning qishloqdan ko'ra salqinroq joyni topmoq amrimahol, saraton kunlari ne-ne shaharliklar shu yerda jon saqlaydi, har nechuk, onamning bu gapi noshukrlik emasmikan?

Bilsam, onamning yurti hur shamollar maskani - zumrad vodiy qo'ynida ekan...

Xushxabar kelgan kuni uyimizda to'y bo'lib ketdi. Faqat, onamning ko'z yoshlarigina bu tantanani xiyol buzib turardi.

Maktub janubiy vohalardagi qishloqlarning biridan jo'natilgan, uni onamning ota urug'i - amakivachchasi Omonqul degan kishi bitgan edi.

"...Tog'amning Ulbo'sin otlig bir qizi bundan ko'p yillar burun yo'qolib edi. Bizning xeshlar bari, dom-daraksiz ketgan, deb yur-gich edi. Qay bir kun radiodan aytib qoldi. Avlodimizdagi qari-qartanglar o'y o'ylab, o'sha Ulbo'sin bo'lsa kerak, dedi. Agar chindan ham egachimiz Ulbo'sin bo'lsa, keling, diydor ko'rishaylik, biz bo'raylik, topishaylik, qaytadan xesh bo'laylik".

So'ng, onamning qay yo'sin adashgani-yu qanday g'oyib bo'lgani xususidagi bizga yod bo'lib ketgan tafsilotlar hijjalab bayon etilgan edi.

Onamga qolsa, hoziroq - ko'z yoshi qurimasdan qanot bog'lab uchmoqqa shay. Ammo Razzoq ikkalimiz maslahatlashib, gapni bir joyga qo'ydik: u ishxonasidan ikki-uch kunga ijozat olib, biz bilan birga boradigan bo'ldi. "Ajoyib taqdiralar" degan ocherk yozaman, zo'r chiqadi", - dedi.

Indini tong saharda yo'lga tushdik.

Poyezdda yurdik, avtobusda yurdik, yengil mashinalarda yurdik, yo'l yursak ham mo'l yurdik, dasht-u biyobonlardan, shahr-u qishloqlardan o'tdik, poyonsiz paxtazorlar, yashil tutzorlar, bog'-u bog'chalar, qadimiy sardobalar, past-baland qirlar ortda qoldi va bir kuni choshgoh chog'i onamning yurtiga kirib keldik.

Shalog'i chiqqan taksi shag'al karyerining ko'hna binosi oldida to'xtadi. Birin-ketin tushdik.

- Shu yerdan so'rarsizlar, - dedi zanjidek qop-qora haydochi va mashinasini ortiga burib, yov quvgandek jo'nab qoldi.

Ko'z o'ngimda ufq qadar cheksiz, sarg'ishtob bir yalanglik yas-tanib yotardi. Unda-bunda pastak ihota daraxtlari yakkam-dukkam tikka-ygan.

Avtobus bekati ham shu yerda ekan. Maydoncha kimsasiz. O'lislarda hovur jimirlaydi, ko'z tinadi. Yog'och o'rindiqlarda qal-pog'ini bostirib kiygan bir chol qopchig'ini yonboshiga qo'yib mudraydi.

Asta onamga razm soldim: to'rt tomonga hayron boqadi, mijjalari nam, lablari titrab-titrab qo'yadi.

- Keldik, ona! - dedim atay bardam tovushda.

Onam shoshib bosh irg'adi, kulimsiragandek bo'ldi.

Bekat maydonchasida bir zum gangib turdik. Qo'limdagi adres-da bundan boshqa gap yo'q edi. Boshim qotib, Razzoqqa qaradim, Razzoq menga. Shu payt yerdan chiqdimi, osmondan tushdimi, bil-mayman, qarshimizda bir to'da odam paydo bo'ldi-da, olag'ovur boshlanib ketdi. Darrov ko'nglim sezdi: onamning qarindoshlari... qarindoshlarim!

Mudrab o'tirgan chol cho'chib tushdi, ko'zlarini ochib, norozi xo'mraydi, so'ng shartta ters o'g'irilib oldi.

Shovqin qanday boshlangan bo'lsa, birdaniga shunday tindi. Hamma bir-biriga alanglar, gap-gapga qovusha qolmas, yotsirash hukmron edi. Onam Omonqul amaki bilan ko'rishayotganida bar-cha o'zini tutolmadi, ayollar oshkora yig'ladi, erkaklar ko'z yoshi-ni yashirib, teskari qaradi.

Onam asta engashdi, qoqsuyak kaftini yerga tegizib, yuz-ko'zlariga surtdi:

- Yetkazganiga shukur! - dedi o'pkasi to'lib.

Onamning avlodi o'ziga o'xshash suyagi buzuq, dali-g'uli odamlar ekan. Omonqul amaki ayniqsa menga ma'qul bo'ldi: qizil-mag'iz, barvasta, yurt so'ragan odamligi ko'rinib turibdi.

Boya negadir payqamagan ekanmiz: bekatning shundoq orqa-sida chog'roq bir qishloq bor ekan. Qirq-ellik uy qator tizilgan. Hovlilar tegrasida devor-tosh yo'q, na eshik, na qulf ko'rinadi.

Yangi topishgan qarindoshlarimiz bizni shovqin-suron, iz-zat-ikrom bilan olib ketishdi. Hayhotdek bir hovliga kirdik. Tumonat odam, qo'ylar so'yilgan, doshqozonlar qaynagan... Bu - Omonqul amakimizning hovlisi ekan.

Uyma-uy, xonadonma-xonadon tinmay ziyofat.

To'rtinchi kuniga borib men charchadim, Razzoq zerikdi. Biroq onam...

Ertalab choydan keyin asta hovliga chiqdik. Omonqul amakimning o'g'li - o'ttiz beshlar chamasidagi malla yigit, yo'lak-dagi "Belorus"ni kavlashtirayotgan ekan, bizni ko'rib, xush-xan-don iljaydi.

- Ha, bo'la?

- Bo'lar endi, Fayziqul, - dedim horg'in kulimsirab. - Safarimiz ham qaridi.

- E, qo'ying-e, bo'la! - Fayziqul qo'lini moylattaga shosha-pi-sha artib, yugurgilab oldimga keldi. - Nima bu! Hali bunday bir gurgung qilganimiz ham yo'q.

- Mana, topishib oldik, gurgunglashaveramiz-da. Bu yoq ishga boradigan, - dedim Razzoqqa imo qilib.

- Ish bo'laveradi-da, aka, - dedi Fayziqul Razzoqqa yuzlanib. - Hali sizlar uxlab yotganingizda Bobonazar aka bilan Mahkam kelib aytib ketdi. Bir piyola choy ichib chiqmasangizlar, uyat bo'ladi.

Yana "bir piyola choy!" Yana ziyofat! E, tavbandan ketay! Nahot dunyoning bor gapi dasturxondan iborat bo'lsa?!

- Menga qarang, bo'la, - dedim baribir muloyim ohangda, - biz endi bugun qaytamiz. Ha, bo'lak iloji yo'q. Shoshmang-da. Agar bizga juda himmat qilmoqchi bo'lsangiz, bir aylantirib kelmay-sizmi?

- E-e, jonim bilan-e, mana hozir! - Fayziqul hovli o'rtasida tur-gan sariq "Jiguli"ga qarab yurdi.

- Mashinani qo'ying, bo'la, - dedim yengidan tortib. - Ha, shunday bir, piyoda... Yo'q-yo'q, shu ma'qul. A, Razzoq?

- Ulbo'sin xolamni ham olaylik, bo'lmasa? - dedi Razzoq o'ylanib.

- Unda, men mashinani opchiqay, - dedi Fayziqul kissasini kavlab.

- Qani, oldin onamdan bir so'raylik-chi, - dedim.
- Onam ichkari uyda, xotin-xalaj davrasida tashvishmand o'tirgan ekan.
- Bir yurtingizni aylanib kelaylik endi, - dedim.
- Sobiringni tush ko'rib yuribman, - dedi onam. - Tinchmikan ishqilib? Qaytaqolsak ham bo'lardi. Ko'zlaring kirtayib qoppti, is-sig'ing bormi? - U qoqsuyak kaftini peshonamga qo'ydi.
- Ona, onajon!
- Bir aylanib kelsak, devdim...
- Onam ayvon ustuniga suyanib o'tirdi.
- O'tgan kuni Omonqul amaking bilan atroflarni ko'rib keldim. Onamning qiyofasi, rang-raftorida shu paytgacha ko'rinmagan xushnudlik bor edi.
- Xursandmisiz, axir?
- Xursand bo'lmaymanmi, bolam? Otamning mozorini zi-yorat qildim, onamning... Ota avlod, ona avlodimning diydoriga to'ydim. Yetkazganiga shukur!
- Tushdan keyin jo'nar bo'ldik.
- Fayziqul bizni aylantirib kelgani boshladi.
- Qishloq sirtidan kattagina ko'ringan ekan, xolos. Bitta uzun ko'cha, o'n besh daqiqada adog'iga yetdik. Etakdagi so'nggi uydan narida cheksiz-chegarasiz yalanglik.
- Bundan narida nima bor? - deb so'radim Fayziquldan.
- Dasht.
- Undan narida-chi?
- Men bormaganman. Yetimtog' bor, deyishadi.
- Jiydatepa qayerda, Jiydatepa?
- Jiydatepa? Ha, u... huv temiryo'lning naryog'ida, - dedi Fayziqul kaftini peshonasiga soyabon qilib.
- Boraylik, - dedim.
- E, ancha uzoq-da?
- Mayli, mayli.
- Jiydatepa - do'ppidek keladigan pastak bir tepalik ekan. Yonboshida o'tinga aylangan uch tup qari jiyda.
- "...bir jiydazor bog'ki, boshi-adog'i yo'q. Jiyda gullaganda ichiga kirsang, adashib qolasan. Gullari sap-sariq, gurkirab yotadi, boshlaring aylanib ketadi..."

Onamning yurti!..

Nahot onam shu yaydoq yalangliklarga, shu zebsiz maskanlarga umr bo'yi ta'rif topolmay o'tgan bo'lsa? Shu bafayzgina ovulning afsonamakon ekaniga nahot o'zi ham ishongan, bizni ham ishontirgan bo'lsa?

Daryo-daryo suvlar degani - shu bo'tana ariqmi?

Hur shamollar degani - shu quturgan garmselmi?

Oydin oqshom degani - chivin to'la kechalarmi?

Bir jiydazor bog' degani...

Onamning qarindoshlari... qarindoshlarim bilan xo'shlashdik.

Sarpo-suruq, izzat-ikrom bilan kuzatib qoldilar. Endi ularning borar va'dasini olib, jo'nadik. Fayziqul mashinasida poyezd stan-siyasigacha kuzatib qo'ydi.

Poyezd dasht-u biyobonlarni, shahr-u qishloqlarni, poyonsiz paxtazorlar, yashil tutzorlar, bog'-u bog'chalar, qadimiy sardobalar, past-baland qirlarni ortda qoldirib, onamning yurtidan ona yurtim sari yelib bormoqda.

Nega yuragim orziqib ketyapti? Vo ajab! Ona yurt degani - onaning yurtigina emas ekan-da?

Chidayolmadim, onamga ko'nglimni ochdim:

- Yurtingiz yaxshi ekan, ona lekin baribir o'zimiznikicha kelmaydi, a?

Onam yarq etib qaradi, shodumon kulib kelayotgan ko'zlarida g'alati bir hayrat uchqunlandi, uzoq o'ylandi:

- Yurtning yaxshi-yomoni bo'lmaydi, bolam.

Shunda men onamning bezovta ko'zlariga tikildim va nigo-him qarshisida shovullab yotgan hududsiz bug'doyzorlarni, g'arq gullagan jiydazor bog'larni, zumrad adirlar uzra xandon otib ku-layotgan baxtiyor bir qizaloqni ko'rdim!

Razzoq deraza oldida jimgina o'tirar, taajjub bilan bizga ter-milib qolgan edi.

...Qishloqqa yarim kechasi yetib keldik. Hammayoq qorong'i, tog'lar, bog'lar sukutda - go'yo nafasini ichiga yutib, bizni xavo-tirlanib, intizor kutayotgandek.

## JAMILA ERGASHEVA

(1956–2018)

*Surxondaryo viloyatining Jarqo'rg'on tumanida tug'ilgan. 1979-yili Toshkent Davlat universiteti (hozirgi O'zbekiston Milliy universiteti) ning jurnalistika fakultetini tamomlagan. Uning "Izhor" (1990), "Intiqom" (1993), "Tanazzul" (1996), "Ayol jo-dusi" (2003), "Zulfiyar" (2011), "Shom shafag'i jilvalari" (2017) kabi kitoblari chop etilgan.*

### DARD

Sulton kampirning kenjasi bozorda yuk tashiydi. Uning aravasi bozordagi eng ozoda, ko'rkam arava, o'zi ham hech qachon odamlar bilan haq talashmaydi, kim qancha bersa, shuni indamay olib ketaveradi, bozorligini kim qayerga desa, shaharning narigi chetidagi uyiga bo'lsa ham olib borib beraveradi. Har kuni bozor chetidagi eng gavjum oshxonadan bir kosa osh, bitta kulcha olib, tushlik qiladi, ustidan bir donagina muzqaymoq yalashni ham unutmaydi. Qolgan pullarining bir so'mini ham kamaytmasdan onasiga keltirib beradi. Sulton kampir kechki paytlar bozordan ranglari o'chingirab qaytgan o'g'lining yelkalaridan quchib, "Boy bolam, boyvachcha bolam-a", - deb erkalaydi. Akalar esa ko'pincha ijirg'anadi:

- Yo'q qiling shu ovsaringizni. Shuning topgan pulini..

U haqiqatan ham soddami, ovsarmi, ishqilib, biroz g'alatiroq. Gaplashsangiz, gaplari ham to'qmoqday, ko'rinishi ham binoyidek, bir aybi - ba'zan katta ko'chalarda ham qo'shiq aytib yuraveradi, bir xayolga berilsa, manglayida turgan qirq yillik qadrdonini ham tanimaydi, ba'zan yetti yot begonaga yetti bukilib salom berib, hol-ahvol so'rab qoladi.

Bu yil tiyramohda Sulton kampir yomon og'ridi. Har oqshom yotishdan avval "Shu bolamning nasibasi uchun ertaga sog'salomat turayin-da", - deb Allohga iltijo qiladigan bo'lib qoldi.

Bo'lmasa, to'qqiz bolani uyli-joyli qilgan boybichcha, bu yoqda kelinlarning, u yoqda kuyovlarning hurmatiga sazovor bo'lib o'tirgan ayol. Ammo go'yo joni shu kenjasining ichida. Kelinlari-yu qizlariga tinchlik bermay qo'ydi:

- Shunga bittagina qiz topinglar, o'lib-netib ketsam, kir-chiri, o'rin-to'shagi qarovsiz qolmasin.

Kelinlar indamay qo'yishardi. Qizlar bo'lsa: "Jim o'tiring, shu tentagingizga kim ham tegaman deb, o'lib boryapti", - deb siltab tashlashardi. Momoning ko'zlarida "g'ilt-g'ilt" yosh aylanardi: "Senlarga qolgan kunim qursin".

- Buningiz bir sinf o'qigan bo'lmasa, bir harf tanimasa, umrida biron qiz bilan gaplashib ko'rgan bo'lmasa! Buni qanday uylanirasiz? - jovullashardi beshafqat qizlar onani battar ranjitib. - Bo'lmaydi. Agar o'lib ketsangiz, o'zimiz qaraymiz, siz hech xavotirlanmang.

Momo o'ziga yetguncha qaysarmidi yoki o'g'lidan shunchalar xavotirlandimi, ahvoli sal o'nglangach, o'zi kelin axtarishga tushib ketdi. Izlab-izlab, o'zi orzulaganidan ham ziyoda bir qiz topdi. Ollis tog'li qishloqda yashovchi bu qiz ertaklardagi malikalar bilan husn talashgan cho'pon qizidek edi. Bir aybi - oyog'i tug'ma oqsoq, shu ayb bilan yoshi o'ttizga yetgan, shu kunlarga yetguncha ota-ona ham o'lib ketgan, yangalarning xizmatida turkixo'rda bo'lib yurgan bir xokisor pariroy edi.

Momoni boshlab kelgan ovsin - asli shu qishloqning odami, gap maqsad-muddaoga ko'chgach, bo'lajak kuyov yigitni qiyomiga yetkazib maqtadi.

- Shunday ko'ngilginasi ochiq. Shunday mehribon, mehnatkash, salomini kanda qilmaydi. Bozorda ishlab, aka-opalaridan ko'proq pul topadi. Agar xo'p desalaringiz, ovsinim bilan qaynog'am ham shu qizning xizmatkori bo'lishadi.

Aka bilan yanga qizdan so'rab ham o'tirishmadi: "Bitta og'izning kami kam, atagan-boylaganlaringiz bo'lsa, olib kelaveringlar".

Sulton kampir borini to'kdi. Boshqa o'g'il-qizlarini ham tinch qo'ymadi. Aka-opalar har qancha chimirilib, g'ijimishmasin, Sulton kampir kenjasining to'yini hech kimnikidan kam bo'lishiga yo'l qo'ymadi.

Oppoq ko'ylak bilan tim qora kostum-shim kiyib, bo'yinbog' taqib olgach, bo'lar-bo'lmasga iljayib turaverishini aytmasa, Kenja ham naq shahzodaga aylandi-qoldi, yonida turgan suluv kelinchak ham malikaning xuddi o'zi, to'yga kelganlar ularga qarab to'ymas edi.

To'y tarqagach, Kenja qarindosh-urug'lar yetovida kelimi chimildiqqacha kuzatib qo'ydi. Bir vaqt qarasa, chimildiq ortida qunishib o'tirgan kelin bilan ikkisidan boshqa hech kim yo'q. U qo'rqib ketdi, eshik ortida turgan yangalarning "hay-hay"lashiga qaramay, qochib chiqib ketdi. Bir dasturxonga qolgan-qutgan yeguliklarni yig'ib, to'yni yakunlayotgan yigitlar uni ko'rib, qiy-qirib yuborishdi.

- Xo't-roz! Bo'ldimi?

- Hey, men senga nima degandim? Bizning Kenja bilan hazil-lashma, demaganmidim? Kenja, bu yoqqa kel! Qani, kuyovga quyinglar!

Uni ham o'z davralariga qo'shishib, biri qo'yib, biri unga kuvovlik "vazifa"larini tushuntira ketishdi...

Kenja ancha sarxush, toliqqan holatda chimildiqli uyga kirganda kelinning yonida o'tirgan yanga ohista tomoq qirib, tashqariga chiqib ketdi. Kelin odob bilan o'rmdan turib, chimildiqning bir chetiga o'tdi. Kenjani chimildiqqa boshlab kelgan mardona sarxushlik tarqab, uning o'rmini hayajon egallab oldi:

- Assalomu alaykum.

Unga javoban kelin rasamaddisini keltirib, uch marta ta'zim qildi.

- E-e, yasha-a-ng, rahma-a-t, - u yurak yutib, kelinning yoniga borib, qo'llaridan tutdi. - Nega tik turibsiz, o'irsangiz-chi?

Kelin itoatkorlik bilan o'tirdi.

- Ismingiz nima?

- Oygul...

- Oy?.. Ha-a, kechadan buyon bu qizni qayerda ko'rganman, deb hayron bo'laman-a. Siz osmondan tushib keldingizmi? Yana osmonga qaytib ketib qolmaysizmi?

Kelin bosh chayqadi: "Yo'q, ketmayman".

- Rahmat sizga! Keling, endi uxlaymiz, men sizni yechintirib qo'yishim kerak ekan...

Shu kundan boshlab, Kenja bozorga chiqmay qo'ydi. Ertayu kech kelinning izidan soyadek ergashib yurardi:

- Oy! Oymomo, Oymomom mening! - uning yuziga termilib hech to'ymas, zavqi kelganda atrofdagilardan hech tortinib o'tir-masdan, ko'rsatkich barmoqlari bilan kelinning biqiniga nuqib, qitiqlab qo'yaverardi. Bundan kelin sho'rlik yerga kirib ketgudek xijolat bo'lar, sholg'omdek qizargan ko'yi uyiga kirib ketar, izidan kelgan Kenjani jerkib tashlardi:

- Odamni sharmanda qildingiz!

- Joningdan!..

U achchiqlangan sari Kenjaning zavqi oshib, kelinga yopishib ketaverardi.

- Boring-e naryoqqa, kuppa-kunduzi uyalmaysizmi?

- Nega uyalishim kerak? Axir siz mening zakunniy xotimim-siz? Ha, unda men siz bilan istagan paytim istagan ishimni qilishim mumkin... Ha, shunday!

Kelin... chillasi chiqar-chiqmas ketib qoldi. Sulton momo ne-ne orzu-havaslar bilan qilgan zeb-u ziynatlar, yaltir-yultur kiyim-kechaklar, oyoqlariga yiqilgudek bo'lib yalingan qaynona va dilafgor erning iltijo bilan javdiragan ko'zlari - hech narsa uni olib qololmadi.

Oradan bir hafta o'tgach, tog'dan qudalar kelishib, o'zlari qilgan uch-to'rt kiyim-kechak, ko'rpa-to'shakni olib ketishdi:

- O'zimni osaman, deyapti juvormarg, uvoliga qolib ketmaylik. Kelinning ahvoli haqiqatan ham yaxshi emasga o'xshardi, bu narsa ularning qo'rquv soya tashlab turgan ko'zlaridan anglashiib turardi:

- Bir o'qitib ham tashladik, hech foydasi bo'lmadi.

Shu kuni Kenja rosa yig'ladi. Ko'chaga chiqib ketib, allaqayerdan ichib kelib, hovlini boshiga ko'tarib, to'polon qildi:

- Oymomomni topib beringlar! Topib beringlar Oymomomni!

Uni yupatish uchun bahona ham izlab ko'rishdi:

- Hey, Kenja, tentakmisan? Oymomo kechasi, uxlab qolganingdan so'ng keladi. Kunduzi quyosh bo'ladi. Sen kechgacha sabr qil, Oymomom o'zi keladi.

Ammo Kenja murosa qilishni istamas edi:

– Yo‘q, yo‘q, hozir kelsin mening Oymomom! Hoziroq olib kelib beringlar!

U yosh bolalardek yerga o‘tirib olib, tepsinib-tepsinib yig‘lardi. So‘ng shu ahvolda yig‘lab-yig‘lab ko‘chaga chiqib ketardi.

– Oymomo-o! Oymomoginam! – huvullab yotgan bo‘m-bo‘sh dashtlarga qarab baqirardi Kenja. – Qanisan? Nega meni tashlab ketding? Sensiz menga juda qiyin, enamgayam qiyin, kel, kela qol, Oymomo, bizni qiynama! Yo‘lga tushdingmi? Rahmat, bilardim qaytib kelishingni, men seni o‘zim kutib olaman, hozir, mana, borayapman, hozir yetib boraman.

U har kuni o‘ziga o‘zi shunday gapirib, yo‘lga tushadi. So‘ng katta yo‘lni yoqalab ketaveradi, ketaveradi... Bir joylarga yetib borgach:

– E-e, sen bu tomondan kelar eding-ku, esimdan chiqibdi. Shoshmay tur, hozir oldingda bo‘laman, – deydi.

Va yana yo‘lni yangilaydi.

Hammadan ham Sulton momoga qiyin bo‘ldi. Bolasining aravakashlik qilib topgan pullarini sanab olib o‘tirgan kunlari ham bir davron ekan. Nonushtadan so‘ng o‘z-o‘ziga gapirib, mung‘ayibgina chiqib ketayotgan o‘g‘liga “hay-hay”lagani bilan ortiga qaytara olmasa, uning qayoqqa ketayotganini bilmasa, bod chalgan oyoqlarini sudrab unga ergashib yura olmasa, huvullagan hovlida yolg‘iz yotib, xasta bolasining dardiga malham bo‘la olmasa!

– Onang bo‘lmay, mengina o‘layin-a, bolam!.. Qo‘limdan bir ish kelmasa... Qayerlardan seni uylantirdim-a! Sog‘larni devona qilgan ishq savdosi qurib ketsin-a, mening devona bolamni daydi qildi, adoyi tamom qildi! Endi qandaylar chora topaman-a!

Sulton momo bir kun beliga katta shol ro‘molni qattiq bog‘lab, yoniga o‘g‘lini oldi-da, yo‘lga tushdi. Yo‘l yurib, yo‘l yursa ham mo‘l yurib... Oymomoning qishlog‘iga yetib keldi.

– Shu Oygul kelin bilan o‘zim bir gaplashayin.

Ularning kelayotganini ko‘rib, Oygul eng ichkari uyga kirib olgan ekan, hovliga chiqmadi. Sulton momo ko‘zlari javdirab turgan kenjasini mezbonlarning oldida qoldirib, o‘zi ichkariga kirdi.

– O‘g‘lim, sen shu yerda o‘tirib tur, men namozimni o‘qib chiqay.

Oygul ham rangi o‘chib, ozib-to‘zib ketgan edi, Sulton kam-pirni ko‘rib, garchi bu uchrashuvga o‘zini tayyorlab o‘tirgan bo‘lsa ham, kalovlamib qoldi. Kampir qizni bag‘riga bosib, uzoq yig‘ladi:

– O‘g‘lim ikkovimizni tiriklayin yerga ko‘mib kelganingni bilasanmi? Odam it bilan ham, mushuk bilan ham do‘st bo‘lib yashaydi. Beva befarzand qo‘shimimizning bir mushugi bor edi, shu mushuk bolalab-bolalab bir uy mushuk bo‘ldi, beva shularga qarab, shularning tashvishi bilan o‘tib ketdi boyoqish. Nahot mening o‘g‘lim mushukdan ham yomon bo‘lsa?!

Oygul indamadi.

– Jon bolam, uyga yur, uyingga yur. Sen ketgandan buyon bolam bir kun ham uyda o‘tirgani yo‘q. Kun bo‘yi seni izlab ko‘chalarda tentirab yuradi. U o‘zi yaxshi yigit edi, uylangunicha bozorda ishlab, dunyo-dunyo pul topib kelgich edi. Ichmaydi-chekmaydi. Senga qiziqib, besh-olti kun bozorga chiqmay qo‘ydi-da. Sal kunda qiziqishi ham so‘nadi, yana avvalgi holiga qaytadi. Unga o‘zgina vaqt kerak, jon bolam, jonim bolam, yo‘q dema, uyga qayt.

Oygulning quralay ko‘zlari yoshga to‘ldi, bir yutunib, bosh chayqadi: “Yo‘q”.

– Yo‘q, dema, bolam. Kenjam o‘lib qoladi. Savob uchun, Xudoning roziligi uchun qaytgin. Mayli, uni er deb bilma, bir mushukka qaragandek qarasang ham mayli, faqat uni bu ahvolda tashlab ketma. Bir odamni bir parcha etdan boqib-bovlab, ko‘pga qo‘shish qancha savob bo‘lsa, birovning hayotini saqlab qolish ham shuncha savob bo‘ladi. Hech ish qilma, qo‘lingni sovuq suvga urmasang ham mayli, faqat uyimda o‘tirsang bo‘ldi. Xo‘p degin, jon bolam, maylimi?

Onaizorning yuragi erib, suv bo‘lib oqib ketdi. Oygul hiqillab yig‘lay boshladi, shunday bir mehribon onasi yo‘qligini armon qildi...

Lekin baribir bosh chayqadi.

– Momo, hech ilojim yo‘q. Ber desangiz, yuragimni sug‘urib, qo‘lingizga berayin. Ammo men endi u uyga qaytib bora olmayman. O‘g‘lingiz... mushuk bo‘lsa, bosh burmay qaragan bo‘lar edim, ammo u odam, siz bilan men o‘ylagandan ham sodda odam. Uni yo‘ldan urib, yomon ishlarga o‘rgatuvchilar, shundan huzur



qiladiganlar ko'p. Odamlar juda beshafqat. Meni qiynamang, men bora olmayman.

- Kim, nimani o'rgatibdi bolamga, ayt, o'zim gaplashaman. Oygul aytmadi.

Sulton kampir zo'rg'a sudralib tashqariga chiqdi. "Namozimni o'qib chiqay", deganda indamay supada qolgan o'g'li unga qarab:

- Oymomo yo'qmikin, - deb so'radi.

Sulton kampir qizarib ketgan ko'zlarini o'g'lining umidvor nihoidan olib qochdi. Kenjaning rangi o'zgardi. Bir onasiga, bir uy egalariqa qaradi:

- Ena, men shu yerda qolay. Shularning ishlarini qilib, shu yerda yuray, ena, maylimi? Oymomo ham bir kun baribir shu yerga keladi. Xo'p deng, ena...

Sulton kampiring sultonligidan asar ham qolmagan edi. U umid bilan javdirabgina mezbonlarga qaradi:

- Mayli edi... Xudo yo'liga... Hamma ishlaringizni qiladi...

Mezbonlar yerga qarashdi:

- Oygulning o'zi ziyoda. Arvohlar to'yi xotiri uchun saqlab yuribmiz.

Sulton momo og'ir xo'rsinib, o'rnidan qo'zg'aldi:

- Bolam, endi Oymomong osmondan tusha olmas ekan, bu yerdan ketamiz.

Kenja bir onasiga, bir xo'mrayib turishgan uy egalariqa qaray-qaray yo'lga tushdi. Ammo uning ko'nglini birpasda umidsizlik tark etib, muhabbat egalladi:

- Ena! Ena-a! - o'ydim-chuqur so'qmoqda bir amallab ilgari-layotgan onasining yengidan tortdi iljayib. - Biz bu yoqda yurib-miz, Oymomo uyga borib, bizni kutib o'tirgan bo'lsa-ya.

... Har kuni, qishin-yozin, ertadan kechgacha soch-soqollari o'siq yigit tentirab yuradigan yo'lga kelganda mashinalar teziik-ni biroz pasaytiradi. Uni taniganlar esa tavba qilishadi. Ehtimol, kimlardir to'ydan keyin unga o'rgatgan amallarini eslab kulib ham yurar...

Ammo bir narsa aniq, muhabbat og'ir dard ekan.

## SHOYIM BO'TAYEV

1959-yilda Tojikistonning O'ratepa tumaniga qarashli Maydoncha qishlog'ida tug'ilgan. Xo'jand davlat pedagogika institutini tugatgan. Ilk qissasi - "Sirli yulduzlar" (1984). Shundan so'ng yozuvchining "Dunyoning sarhisobi bor" (1988), "Endi bari boshqacha" (1990), "Shamol o'yini" (1995), "Kumbotardagi bog" (1997), "Hayot" (2000), "Ko'chada qolgan ovoz" (2005) kabi qissa va hikoyalardan iborat to'plamlari nashr etilgan. "Qo'rg'onlangan oy" (1996), "Shox" (2007) kabi romanlar muallifi. "Do'stlik" orz-den bilan taqdirlangan (2001).

## QARZ

Talaba yozgi ta'tilga chiqqach, tug'ilgan qishlog'iga jo'namoqchi bo'ldi.

Uning qishlog'i tog' etagida.

Shahar do'konlariga bir-bir kirib, katta boyvachchalardek ko'ziga ko'ringan narsalarning narx-navosini so'rab-surishtirdi, ammo hech narsa xarid qilmadi. U oladiganini qishloq do'konidan olishni o'yladi. Shunisi ma'qul ekan. Qishlog'iga mo'ljalidan yarim soat barvaqt yetib borib, do'kon oldida avtobusdan tushdi. Uch-to'rt bekorchixo'ja oftobshuvoqda nimalarnidir valaqlashib o'tirishardi.

- Ha-a, og'ayni, kelyapsanmi? - deb so'radi o'tirganlardan biri talabani har kuni ko'rib yurgandek. - O'rischani ham o'rganyap-sanmi?

Talaba ular bilan ko'rishib-so'rashmoqchi edi. Bu sovuq gap tufayli tuyqusdan to'nini teskari kiydi.

- Nimani o'rganyapman, nimani o'rganmayapman, aytganim bilan baribir foydasi yo'q, - dedi bo'sh kelmay dabdurdustdan tig'li savol tashlaganni o'yib olish qasdidida. - Sen baribir tushunmaysan.

- O'ho, tushunadigan bo'lib qoptilar-da, - dedi oftobshuvoqda kuch yig'ib miyasini to'ldirayotgandek ko'ringan haligi shovvuz talaba bilan hoziroq janjal boshlab yuboradigandek bir alpozda. - Xo'p, ana endi ko'ramiz, qancha o'qiganingni, o'qigan bo'lsang anavi bilan gaplash-chi...

O'zi tomonga ishora qilinganini payqagan notanish yigit sergaklanib, goh o'tirganlarga, goh talabaga qaradi.

- Tolik, - talabani qo'yib, endi yon tomoniga o'girilganicha notanish yigitga murojaat qildi u. - Vot student... Ruskiy gaplash, ruskiy biladi...

Notanish yigit o'rmidan turdi. Uning bo'yi baland, qo'llari uzun-uzun edi. U talabaga dadil yaqinlashdi. Uning sap-sariq ot yuzining iyagi ingichka, qo'y ko'zlarining muloyim boqishi talabaga kimnidir eslatib turgandek edi. U qo'l uzatib:

- Anatoliy, - deb o'zini tanishtirdi.

Talaba uning kurakdek kaftiga qo'lini qo'yib ismini aytdi.

- Juda xursandman, - dedi Anatoliy notanish joylarda oftobda qatiq yalashgan eski tanishini uchratib qolgandek behad suyunib.

Shu chog'da rus tilidan hamisha qiyinalib, sinov va imtihonlarni amal-taqal yopib yuradigan talaba do'kon oldini ishg'ol etgan hamqishloqlari nazdida bir zumda donishmandga aylandi-qoldi.

Ular uch-to'rt daqiqa gurung qilishdi. Tamom. Boshqa gap-so'z bo'lgani yo'q. Talaba Tolik bilan xayrlashgan bo'lib, bosh irg'adida, do'kon tomon yurdi.

Tolik bir lahza xayllanib qoldi, keyin xayrlashgan odamiga nimanidir aytish yodidan ko'tarilgandek, talabaning ortidan ergashdi.

Talaba do'konga kirib bordi.

Peshtaxta ortida kuymalanib turgan sotuvchidan bo'lak do'kon-da hech kim yo'q edi. Talaba tomoq qirib qo'ygancha, unga salom berdi.

- Vaalaykum... - deya bosh ko'targan sotuvchi odam bolasini ham ko'rar kun bor ekan-ku, degandek mahtallik bilan va qo'shib qo'ydi: - E, kelsinlar!

G'o'labirdan kelgan, oltmish yoshlardagi tepakal sotuvchi juda seriltifot, ostonadan kim qadam bossayam uning mavqeyini bilib, kasb-koridan kelib chiqib gap-so'zni do'ndiradiganlar xilidan edi.

- O'qish, o'qish va yana o'qish! - dedi sotuvchi talaba bilan ko'risharkan. - Xo'sh, nima beray? - deb so'radi keyin uning qo'lidagi pulni ko'rgan zahotiyoy chap qo'lga olgan qog'ozni o'ng qo'li bilan karnayday o'ray boshlab, talabaning ortidan kirib kelgan Tolikka ko'z qirini tashlab qo'yarkan.

Talaba oqqand, pechenye, novvot so'radi.

- Ofarin aqlingga! - deb maqtadi uni sotuvchi. - Bir kilodanmi?

Talaba bosh irg'adi. U talabaning aytganlarini bir zumda alohida-alohida qog'ozga solib, tarozida tortdi-da, ularni qog'oz paketga joylab, qo'lga tutqazdi. Talaba ortiga burilib, endi do'kon-dan chiqayotganida peshtaxta yonida uymalashib, negadir hadeb cho'ntagini kavlayotgan Tolik dabdurustdan:

- Ming so'm qarz berib tur, - dedi.

Bu talaba uchun kutilmagan hol edi: negaki, bu qishloqda qoq-qani qozig'i, osgani xurmachasi bo'lmaganlar ham qarz-havola qilishni xayollariga keltirishmasdi. Tolikning bu qilig'i sotuvchining ham og'zini ochib qo'ygandi. Talaba Tolikka aytgan pulini tutqazdi. Tolik darhol cho'ntagidan chiqargan pullarni unga qo'shdi-da, sotuvchidan bir shisha vino so'radi.

Sotuvchi pulni olishga oshiqmadi.

- Qarzga vino olib ichganingni otang bilsa meni jonimni sug'urib oladi, - dedi.

Tolik bu gapni ma'qullab, bosh irg'adi. Lekin pulni uzatib turaverdi. Sotuvchi o'ylanib qoldi.

- Aslida bermasdim-kuya... - dedi yon berayotganini bildirib.

Tolik hamon pulni uzatgancha unga tik qarab turardi. Axiyri, sotuvchi uning qo'lidagi pulni xuddi tortib olayotgandek shartta oldi-da:

- Bo'пти, - dedi.

Tolik iljaydi.

- Faqat bir sharti bor, - dedi sotuvchi ogohlantirayotgandek talabaga va Tolikka bir-bir jiddiy qarash qilib.

- Qanaqa shart ekan? - deb so'radi talaba pul berib baloni sotib olayotgandek ko'ngli g'ashlanib.

- Buni uchovimizdan bo'lak hech kim bilmasligi kerak, - dedi sotuvchi qat'iy qilib.

Tolik shosha-pisha bosh irg'adi.

Sotuvchi bir shisha vinoni qog'ozga qand o'ragandek o'rab, uning qo'lga tutqazdi. Tolikning og'zi qulog'iga yetib, avval sotuvchiga, keyin talabaga minnatdorlik bildirdi-da, do'konni tark etdi.

- Ishqilib, oxiri baxayr bo'lsin, - deya ming'irlab qo'ydi sotuvchi o'ziga-o'zi gapirayotgandek.

Talabaning ko'ngliga shubha oraladi.

- Nega bunaqa deypsiz? - deb so'radi u sotuvchiga qattiq tikilib.

- Bu yerda or-nomus masalasi bor-da, odam shundan xavotir oladi, yo'qsa nima, bir shisha emas, ikki shishani ham o'zim berib yuboraverardim... Bu zormandani qishloqda birov og'ziga olmasa...

- Qanaqa or-nomus? - deb so'radi talaba uning keyingi so'zlariga e'tibor bermay.

- Usmonali akaning or-nomusi.

- Qaysi Usmonali aka?

- Anavi... fermadagi molboqar bor-ku... Nahotki, tanimasang?

- Nega tanimay, hamisha yerga qarab, bir nimalarni o'ylab yuradigan Usmonali amaki-da.

Sotuvchi do'konda hech kim yo'qligiga ishonchi komil bo'lsa-da, tevarak-atrofga olazarak nazar tashlab olib, peshtaxta ustiga engashdi.

- Shu-u Usmonali aka askarlikda bo'lgan... - dedi shipshiyotgandek. - Haligi yigit Usmonali akaning o'g'li, - deb ma'lum qildi sotuvchi.

- Tolikmi?

- Anatoliy Usmonaliyevich, - ishshaydi sotuvchi talabaning so'zini o'zicha to'g'rilagan bo'lib. - U kishi askarlikda o'sha yerda uylanib, bir o'g'il, bir qiz ortirgan deyishardi. Askarlikdan keyin ham qolib ketib, besh-olti yilcha o'sha yoqlarda yashagan. Keyin-keyin yurt sog'inchi ustun kelib, ulami bu yerga olib kelmoqchi bo'lgan, ko'ndirolmagan, keyin shartta bariga etak siltab kelavergan...

- Oilasini tashlab kelganmi? - deb so'radi talaba sotuvchi ham ma'nasani biladigandek.

Sotuvchi, shuyam savol bo'ldimi, degandek g'alati tarzda labini burdi. Keyin talabani ogohlantirayotgandek bo'lib:

- Ammo-lekin, uning o'g'li sendan qarz olganini hech kimga og'zingdan chiqara ko'rma, - dedi. - Usmonali aka ko'ra-bila turib bu ishga jim qarab turganim uchun avval kelib meni yeydi, keyin esa seni...

Talaba tarvuzi qo'lting'idan tushgancha tashqariga chiqdi.

Do'kon oldida o'tirganlar biroz ko'paygan, ammo Tolik ko'rinmasdi. U tashqariga chiqishi bilanoq:

- Senga Tolik nima dedi? - deya kimdir qichqirdi.

Talaba kiftini qisdi:

- Hech nima...

- Ko'zingga qara-da.

Talaba ketdi.

U katta yo'lni endigina kesib o'tgan ediki, yonboshdagi tor ko'chadan yo'tala-yo'tala Tilla bobo chiqib qoldi.

- Iye, iye, Tojivoymisan? - deb so'radi.

- Ha, Tojivoyma, - bosh irg'adi talaba.

- Buni qara-ya... O'qishdan kelyapsanmi?

Talaba yana bosh irg'ash bilan uni tasdiqladi.

- Durust, durust, - Tilla bobo o'z yo'lida davom etmoqchi edi, qandaydir muhim narsa yodiga tushib qolgandek to'xtadi. - Usmonalining o'ris xotinidan bo'lgan o'g'lini ko'rmadingmi ma'bodo? - deb so'radi.

- Ko'rdim, - dedi talaba.

Tilla bobo unga sinovchan tikila turib:

- Shu bola biron falokatni boshlab qo'yib, bu yoqlarga qochib kelgan-ov! - dedi tomoq qirib qo'ygancha.

- Bilmadim, - dedi talaba kift qisib, o'zini bu gaplarga aloqasiz ko'rsatib.

- Yo'qsa, o'z-o'zidan nima qiladi kelib? - dedi Tilla bobo o'z mulohazasini asosli dalillar bilan tasdiqlayotgandek. - Usmonalini otam deganda, shuncha vaqt kutib yurarmidi, avvalroq kelardi-da. Tinchgina yuruvdig-a.

Tilla bobo karaxtlanib turgan talabaga sarosar nazar tashlab qo'ydi-da:

- Yo, ovlo, o'zing asra, - deganicha yo'lida davom etdi.

Talabaning ichidagi noma'lum hadik battar kuchaydi...

Talaba keyingi safar kelishida qishloqqa yetmayoq avtobusdan tushdi. Bu choqda uzumlar g'arq pishgan, talaba qishloq chetidagi o'zlarining tokzor bog'larini oralab, keyin uylariga borishni xayol qilgandi. Shunday qildi ham. Kechqurun uylariga kirib borib otasi bilan ko'rishib-so'rashib bo'luvdi hamki, izidan akasi keldi.

Endi o'tizga to'lgan akasining qop-qora yonoqlari ichiga botgan, o'z yoshidan o'n-o'n besh yoshlar katta ko'rinardi. U ustachilik qilari, poytesha-yu to'ng'izarra ishlatardi, kasbiga yarasha jahli ham burnining uchida turardi.

- Qalaysan? - dedi akasi qo'lini uzatib, u har gal quchoqlashib ko'rishardi.

- Durust, - dedi talaba ham qo'l uzatib.

- O'qishlar qalay?

- Yomonmas.

- Qishloqqa kelganingda ehtiyot bo'lib yur.

- Tushunmadim...

- Nimani tushunmaysan? Usmonali akaning anovi o'g'li bilan nimalarni gaplashdilaring?

- Nimani gaplashibmiz?

- Menga qara, uning nima ishlar qilib kelganini kim biladi?

Balki, birovni o'ldirib bu yerlarda qochib yurgandir, balki, o'g'irlik qilgandir...

Talaba o'zini zo'rliab kuldi.

- Kulasan-da, kulasan, - dedi akasi bu kulgining yig'isi ham bor, degan ma'noda. - U seni so'rayverib holi jonimga qo'ymayapti.

- Nima gapi bor ekan?

- Aytarmidi...

- Borib so'ray bo'lmasa.

Akasi talabani katta xavf-xatardan qutqarib qolmoqchi bo'la-yotgandek:

- Kallang ishlamaydi-da, endi shu yetmay turuvdi, - dedi. - Sen, yaxshisi, uning ko'ziga ko'rinmay yur.

Talabani otasi o'mroviga bolishni tortgancha peshayvonda yonboshlab yotgandi. Aka-ukaning tik turgancha nimalarnidir muhokama qilishayotganidan toqati toq bo'lib:

- Ha-a, nima gap ekan? - deya baqirib so'radi.

Aka peshayvon tomonga uch-to'rt odim bosib, ortga o'girildi-da:

- Bu Usmonali akaning haligi o'g'li bilan nimalarnidir gaplashibdi, - dedi.

- Gaplashsa gaplashar, - dedi ota parvo qilmay. - Usmonalining o'zi kim-u, o'g'li bo'lsa?..

- U buni mendan so'ragani-so'ragan.

- Biron ish-yumushi bo'lsa so'raydi-da, - dedi ota, shungayam ota go'ri qozixonami, degan ohangda.

Aka qo'l siltadi.

- Siz ko'chaga chiqmay yotasiz, qishloqda odamlar qanaqa bo'lib ketishganini bilmaysiz-da, - dedi endi otasini ham ayab o'tirmay nimalargadir ishora qilganicha. - Qarab tursam, ko'cha-kuy-dami, to'y-ma'rakadami ular pisir-pisir gap qo'zg'ashyapti.

- E! - ota yotgan joyida qandaydir hafsalasizlik bilan qo'l siltadi.

- Nima, siz uni bu yoqlarga behuda kelgan deb o'ylayapsizmi? - dedi aka.

- Men hech nima deb o'ylaganim yo'q, - dedi ota. - Boyoqish Usmonalining o'g'li ekan, hamqishlog'imiz ekan, qondoshimiz ekan, qora tortib kelibdimi, o'shanga balli...

- E, qo'ying-e, siz ham o'sha kasofatning yonini olmang.

Ota nimadir demoqchi bo'ldi-yu, o'g'li bilan gap talashib o'tirishni o'ziga lozim ko'rmay, narigi yonboshiga ag'darilib oldi.

Aka shundayam o'z fikrida sobit qolganini bildirib:

- Ko'ziga qarasin-da, - dedi-yu, tilining ostiga bir otim nosvoy tashlab, indamay chiqib ketdi.

Ertasi kuni talaba akasining nasihatiga ko'ra Toilkka duch kelmaslik uchun do'kon oldidagi bekatga tushmay, uzumzor oralab kelgan yo'li bilan iziga qaytdi. Biroz olisligini aytmasa, talabani o'ziga ham shu ma'qul tushdi, do'kon oldidagilarning har xil pichingli savollariga javob berish dahmazasidan qutiladi, Tilla boboga ham to'qnash kelmaydi.

Talaba endi qishloqqa yetmay avtobusdan tushadigan, shu yerdan avtobusga chiqadigan bo'ldi.

Uning baribir qulog'ini tinchimadi. U uyga kelgan zahotiy oq akasi ham paydo bo'lar, g'oyat tashvishli qiyofada:

- U seni yana so'radi, - derdi.

Akasi bu gapni har gal har xil tarzda aytardi: bir gal, u falonchi-pistonchining janozasida otasining yonida turgan ekan, butun qishloq ahli yig'ilgan edi, u esa janoza-panoza deb o'tirmay menga yaqinlashdi-da, seni so'radi, desa, boshqa gal, men falonchi-pistonchining uyini qurayotganimda hashar bahonasida uyam keldi, o'ziyam rosa loy tashidi-yu, endi tushlikka chiqayotganimizda yana yonimga kelib seni so'radi, derdi. Keyin sen u bilan nimalarni gaplashganding, ishqilib, o'shanda unga qandaydir va'dalar berganmiding, agar shunaqa bo'lgan bo'lsa ochig'ini ayt, ochiq-oydin hal qilib olaylik, degan so'rab-surishtirishlar boshlanardi. Uni ko'rishga meniyam yuragim bezillab qoldi, shunaqa qilaversa, men ham endi bu qishloqda ishlamay, boshqa joylardan ish izlashimga to'g'ri kelib qoladi, derdi akasi.

Bir tomoni talabaning akasiga rahmi ham keldi. Namuncha u meni so'rab-surishtirmasa, degan jumboq hamon talabaning boshini qotirardi. Tikka borib, nima gap, mana men keldim, desa bo'ladiku, ammo akasi uning bunday harakat qilishiga mutlaqo qarshi, tinch yur, u qandaydir kasofatni boshlab kelgan - hamma shunday deyapti, buni o'zinning ham ko'nglim sezib turibdi, sen yaxshisi u bilan uchrashma, gaplashib ham yurma, deydi.

Bu gaplarni eshitib, talabaning gumonsirashi battar ortadi.

"Balki, Tolikning yana vino ichkisi kelib pul topolmaganidan meni izlab-qidirib yurgandir?" degan fikr ham miyasiga bot-bot kelib qolar, bu dardisarning dahmazasidan qanday qutulsam ekan, deb o'ylardi.

Oradan oylar o'tib, talaba yangi yilni kutib olish uchun qishloqqa keldi. Shaharda qor uchqunlab turardi, qishloqda esa qalin yoqqan ekan.

U avtobusdan odatdagidek qishloq chetida tushib qoldi.

Hammayoq oppoq, ko'z qamashadi. Talaba tizzadan qor kechib, tepaliklar oralab ketdi. Qachonlardir yog'ishni boshlagan laylakqor hamon gupullab urib turardi. Tuyqusdan talaba ortidan kimningdir baqirib-chaqirayotganini eshitib qoldi.

U o'girildi. Uzoqda uzun qora choponli kimdir birov u tomonga shoshib kelar, qo'llarini tepaga ko'targancha, to'xta, ishorasini qilib to'lg'ar, oshiqib-shoshiqqanidan o'qin-o'qun yiqilib ham qolardi.

"Kim bo'lsaykin?", deb o'ylagan talaba biroz to'xtab kutishga qaror qildi. U yaqinlashaverdi. Orada ozgina masofa qolganda talaba uning Tolik ekanligini bildi-yu, noiloj qoldi. Endi kech edi.

Tolik boshidagi telpakni yulqib yechdi. Shunda uning qora terga botgani ma'lum bo'ldi. Telpagi bilan yuz-ko'zini artarkan:

- Uff!.. - deganicha o'zini shartta qor ustiga tashladi.

U nafas rostlay boshladi. Keyin choponning barini qayirib tashlab, shimining cho'ntagiga qo'lini suqdi va undan pul chiqazib o'tirgan joyida talabaga uzatarikan:

- Ma, ol! - dedi.

Talaba beixtiyor:

- Nega? - deb yubordi.

- Nega bo'lardi? - dedi hamon harsillab ko'ksi ko'tarilib tushayotgan Tolik. - Bu sendan olgan qarzim. O'shandan keyin seni hech uchratolmadim, pulingni o'shundayoq qaytarmoqchi edim... Kinga berishimni bilmayman. So'rab-surishtirib akangni topdim, sendan olgan qarz pulni unga tayinlab berib yubormoqchi bo'ldim-u, anavi sotuvchi uchovimizdan bo'lak hech kim bilmasin, degani uchun bunday qilmadim. Akangdan seni so'rasam, biron aniq javob bermaydi, tavba, qiziq odamlar-a bular...

Talaba ham negadir shu chog'da holdan toyganini payqab, uning yoniga o'tirdi. Ko'ngli xotirjam bo'lganiga qanoat hosil qilgandek, Tolik ko'ksini to'ldirgancha chuqur nafas oldi.

- Keragi yo'q edi, - g' o'ldiradi talaba.

- Nega endi?

Tolik jilmaydi. Uning jilmayishida o'zini ketma-ket kunlar, ketma-ket haftalar, ketma-ket oylar mobaynida qiynab kelgan mushkulotdan forig' bo'lganining quvonchi mujassam edi.

Talaba yuzini boshqa tomonga burdi.

Uning ko'zlari jiqqa yosh edi.

monxonaga kirib, azza-bazza to'rga chiqdi. Duoyi fohidan so'ng xuddi beshigimizni tebratib katta qilganday bepisand so'rashdi:

- Yaxshimisan, uy ichlaring tinchmi?  
- Rahmat, tog'a, - dedik biroz hayron bo'lib, so'ng uning to'porilligiga xayolan qo'l siltab, biz ham so'rashdik:  
- O'zingiz qanday, binoyigina yuribsizmi? O'g'il-qiz, nevara-chevara deganday?..

- Xudoga shukur. "Xo'sh, deganingizdan bildik, o'zbek ekan-siz", degan ekanlar. Bizdan so'rasang, jivan, otimiz Shopo'lat, qishloqdagilar Shoppi bova deyishadi. O'g'il-qizdan tinchigan-miz, momoy bilan endi... Ha, bu yog'ini o'zing yaxshi bilasan. Xo'sh desak, Shoppi bovang Toshkentda, "narxo'z"da o'qigan, naq qirq besh yil hisobchi bo'lgan! Otang rahmatli ToshMlda o'qirdi o'shanda. Jo'ra bo'lganmiz. Bobongdan qolgan uylaringga bir-ik-ki kelganman, unda sen yosh bola eding, eslolmaysan. Otangning o'tib qolganini eshitmagan ekanman, uch kun burun bir ma'rakada eslab qolishdi. Xudo rahmat qilsin, yaxshi jo'ram edi...

"Jo'ra bo'lganmishlar!.. Shunchalik qadrdon ekansan, shu paytgacha qayerda eding?" - deyishga yuz chidaydimi... Bu orada mehmon dimog'ida tilovat boshladi.

Yetmishga yaqinlashgan bo'lsa-da, hali ancha tetik ko'rinadigan, qotma gavdali, o'ydin-chuqur yuzlarida chechak izlari bilinib turgan, ko'zlari qora ham, qo'ng'ir ham emas, allaqanday rangga o'xshaydigan bu chol ikkita surani naridan beri yumaloq-yos-tiq qilgach, yuziga fohiha tortdi. Bizam qo'shildik, albatta. Ko'p o'tmay xotin dasturxon olib, ichiga noz-ne'mat solib, bo'y qizlar-day uyalib kirdi.

O'sha oqshom Shoppi bova bilan xo'p otamlashdik. Mehmonning qulfi-dili ochildi. Lekin bovaga qoyil qolmay iloj yo'q: ikki qo'shni tuman u yoqda tursin, butun viloyat odamini tanir ekan! Bi-r guruhlar berdiki, o'h-ho'! Goh bovamizdan oladi, goh otamizdan.

Erta tongda mehmonning turtkilashidan ko'z ochganimizda qishloqning asosiy ko'chasida, odatdagidek, Bozirgon bangining tovushi yangrayotgandi:

## ABDUNABI HAMRO

1961-yilda Buxoro viloyati Olot tumanida tug'ilgan. Toshkent davlat madaniyat institutini (hozirgi O'zbekiston Davlat san'at va madaniyat instituti) tugatgan. "Xiyonat" (1993), "Oq alvas-ti" (1994), "Otam aytgan qo'shiqlar" (2002), "Yirtqich" (2003), "Unutilgan qo'shiq" (2005), "Olis manzillar sari" (2006), "Botalikka sayohat" (2007), "Qishda ochilgan gul" (2008), "Vaqt daryosi" (2010), "Otdan qolgan yodgorlik" (2014), "Ruhiyat ranglari" (2015) kabi she'riy va nasriy kitoblar muallifi.

## MEHMON

Mehmon deganiyam haddidan oshmasa yaxshi ekan-da. Keldi-ketdining me'yorini bilsa, oldiga qo'yganingni yesa, ikki kun, boring ana, uch kun turgach, qo'lginasini ko'ksiga qo'yib, "Xo'p, bo'lmasa, chirog'im, endi bizga ruxsat, hurmat-izzat uchun ko'p rahmat", desa. Bu mehmonimiz esa, sadag'asi bo'lay, ketish haqida o'ylamayotganday edi, nazarimda...

So'rasangiz, mehmonimiz qo'shni tumanning chekka bir qish-log'idan, aytishicha, otasi bovamiz bilan, o'zi esa rahmatli otamiz bilan qadrdon bo'lgan ekan. Yoshi bir joyga borganda qadrdon-larining zuryodlarini sog'inib, so'rab-so'rab, topib kelibdi. Ota qadrdonimizni quchoq ochib kutib oldik, poyiga mehrimizdan poyandoz soldik. To'g'ri, oldiniga odamgarchilik yuzasidan o'rta-charoq so'rashdik, o'zini tanitib, ota-bovamizdan gap ochgach, mehrimiz iyib, bag'irlashdik-da.

- Otamizni ko'rib qolgan tabarruk odam ekansiz, qani, ichkari-ga marhamat!

Ilftotimizdan boshi ko'kka yetgan mehmon yasatig'liq meh-

- Barvaqt turinglar! G'aflat bosib yotavermanglar, oying yuziga dog' tushadi! Bir-biringizga salom bering, farishtalar Xudoga yetkazadi! Bir-biringizni yaxshi ko'ring, bo'lmasa shayton sizni yaxshi ko'radi! Odam odam bilan tirik, tez-tez ko'rishib turinglar, bo'lmasa kunning bag'ri kuyadi! Tarozidan urmanglar, yulduzlar boshingizga to'kiladi! Qani, turinglar, hovli-haramni supirib-sidiranglar, iflos joylarga jinlar makon quradi!

Mehmonimiz anqayib, cho'michday burni tanqayib, goh bizga termuldi, goh ko'chaga quloq tutdi.

- Kim bu dangal odam? Jarchimi?

- E'tibor bermang, bova. Qishloqning devonasi bu.

To biz yuvinib-taranguncha, hovli-joyga qaranguncha mehmon banguing izidan jo'navoribdi, nonushtayam sabil qoldi. Bozirgonning nimasi qiziq, hayronman...

Saxti-sumbati nomiga yarasha bo'lgan Bozirgon qishloqdagi eng baquvvat odam edi (Elomon polvonni hisobga olmaganda, albatta).

Aslida bu gaplardan murod shuki, nimagadir bugun Bozirgonning shashti pastroq, ovozi xastaroqday edi. Ishqilib, qishloq chetidagi ariq bo'yida arabning o'ligiday shalpayib, devning panjalariday shoxlari yalpayib yotgan Bobotut yonida ularga yetib oldik. Bangi g'adir-budur tut ustida o'tirar, chap ko'ksini ushlab, ingrab qo'yardi. Shoppi bova uch qadam narida unga serrayib termilayotgandi.

- Ebi-ebi, poshsho bova, tinchlikmi, qayeringiz og'riyapti? - deya bangiga mehribonlik qilgan bo'ldik.

U asta boshini ko'tardi, ma'yus ko'zlaridan dumalagan ikki tomchi yosh barvaqt ajin tushgan yuzlaridan oqargan kalta soqoliga singib ketdi.

- Mana bu yerim... - uning ovozi xirillab, arang chiqdi, yirtiq choponi yoqasidan qo'lini tag'in chap qo'yniga tiqdi.

- I-i, bu-u deyman, yurak masalasi...

Mehmonimiz, nihoyat, o'zini sal o'nglaganday bo'ldi. Yag'iri chiqib ketgan, chetlari pastga sollanib turgan shlapasini to'ldirib, soydan suv olib chiqdi. Albatta, suvning to'qson foizi ne-ne balo-larni ko'rgan shlapadan pastga sizib, oqib tushdi, vale qolgani ham

bangini o'ziga keltirishga kifoya qildi. Bozirgon qurg'ur biroz nafasini rostlagach, nimagadir yumilib borayotgan ko'zlarini bazo'r ochib, menga g'o'ldiradi:

- San tushunadigan bolasan, odamlarga ayt, mani aybsitmasinlar... Yoshlarga nasihat qilinglar, yurtni tashlab, uzoqqa ketmasinlar... Begona yurtdan boltaning sasi keladi... Polvon bovang biladi, manga ayon bo'lgan... Endi Sapar do'xtirmi chaqirtir... Shu-u... yurak sabil sa-l-igina-a. Ay-y, buyam o'tar-ketar. Esiz, umrim-a...

O'sha kuni to Safarboy do'xtirmi chaqirib, to u "Tez yordam" moshini kelguncha na bizdan sado chiqdi va na mehmonimizdan. Nihoyat, do'xtirlarning moshini kelib, bangini olib ketdi. Shoppi bova yonginamizda cho'zilib yotgan Bobotutga ancha sin solib turgach, so'radi:

- Ko'p ko'hna ekan-da, a?!

- Nimasini aytasiz, bova... Momomiz rahmatti aytardilarki, bir paytlar ana shu yerda Nurboy degan kishining hovlisi bo'lgan ekan. Uni Nursariqboy deb atashgan. Bilmadim, o'tgan asrning yigirmanchi yillarimikan, o'ttizinchimi, ishqilib, o'sha boy bovamiz amirning qaysidir xotinining qiziga uylangan ekan-da. Yangamiz qurg'ur shunchalik suluv, shunchalik sochi uzun ekanki, sochini sandalning ustiga chiqib yuvarkan! Yerda o'tirib yuvsu, sochi yerga to'kilib turarkan! Bir quchoq soch-da, meymon bova! Alqissa, boy bovamiz ana shu xotiniga uylanganda katta to'y beribdi, mana shu o'zingiz o'tirgan tut tepasiga tillo qovoq ostiribdi. Shu, hamishagi noskadi-da, faqat ustiga oltin qoplatgan. Urub tushirgan merganga bir ho'kiz sovrini bor! Yillar o'tib, tut qaridi, chiridi, oxiri yiqildi. Tut deganimiz qiziq daraxt ekan: yillar o'taveradi, bu chirimaydi, lekin ichi kuyadi! Go'yo birov asta yonadigan olovda, o'risning payalningida kuydirgandek kishi bilmas qorayib boraveradi... E-e, buyam odamga o'xshaydi-yey, dardi ichida! Mana shu o'zingiz o'tirgan tut-da. O'shandan beri buni "Boy bovaning tuti" deymiz, ko'pchilik Bobotut deydi. Ishqilib, shu-da, meymon bova. Bozirgon bangi buni ko'o'-p yaxshi ko'radi, kuniga bir kelib o'tirma, uxlab tinchi yo'q...

- Bu kishi... jarchi bova?

- E-e, bu Boziron banga-ku! Chernobili, allaqayerda harbiyda bo'lib kelgan. Yoshligida devday edi, o'lay agar! Boqilgan buqani bir mushtlab yiqitardi! Odamman degani-ku, unga tiklanib kelolmasdi. Ishqilib, armiyadan kelib o'qishdan yiqildi, ota-onasi bevaqt o'tib qoldi. Amakilari buni uylantirdi, lekin... O'sha xizmat qilgan yerida bir baloga yo'liqqan ekan bu qoramanglay. Radiatsiyami, ishqilib, bir ofat dorigan bunga. Endi, har kimga har xil ta'sir qiladimi, yo banga bodililik qilib, kuchiga ishonib, xavfli zonaga ichkariroq kirganmi... Kelin baraka topsin iloyim, to'qqiz-o'n oy o'tirdi, buning hurmatini qilib, so'ng ajralib ketdi. Bir traktorchi bolaga tegdi, xotini o'lgan bir yigitga... Bu bechora hammasiga ko'nikdi, alamini bosolmay... Ishqilib, mana, yigirma-o'ttiz yilki, buning oti Boziron... Ko'p o'qiydi, armiyadan ikki chamadon kitob olib kelgan, deyishadi. Qo'shni qishloqlik domlaga qatnab, ozmi-ko'pmi eskichaniyam o'rgangan degan gaplar yuradi, tag'in kim biladi deysiz. Bir qarasangiz, "Man Boziron poshshoman, Go'ro'g'libekning jon-jigari!" deb ko'ksiga mushtlab o'tiradi, bir ko'rsangiz bundan mo'min-musulmon odam yo'q, kulbasida yotib olib, "Voh Kunsulu-vim-a" deb yum-yum yig'laydi. Aka-ukalari bor, issiq-sovug'iga qarab turishadi. O'zimizam uni... yaxshi ko'ramiz, meymon bova...

Mehmonimiz ko'z oldimizda o'zgardi. Birdan jiddiy tortdi, sabotati ortdi, manglayi tirishdi, dovuchcha chaynaganday yuzlari burishdi, birpas nafas yutib turdi, so'ng og'ir bir damsar urdi. Shu uf tortganda bilmadik, qancha dardlarini chiqarib yubordiykin.

- Harqalay, xabar olib turish kerak undan, - dedi u nihoyat.

- Bo'lmasam-chi, bova! Qani, kettikmi?..

O'sha kuni mehmonni aylantirib, qishloqni tomosha qildirdik, qavm-u qarindosh bilan tanishtirdik. "Hamma xursand bo'ldi", desak, ko'ra-bila turib yolg'on gapirgan bo'lamiz. To'g'ri, bittayarimta chollar, ota-bobomizni ko'rib qolgan kishilar andak sevin-gandek bo'lishdi, mehmonimizning mehr-u oqibatiga tahsin ay-tishdi. Lekin ko'pchilik... Rosti, hozir ko'pchilik chopib yuradi, shoshib yashaydi. Zamon, vaqt tezlab ketdi-da... Ishqilib, qarindoshlar "Ha-a, shundaymi, yaxshi-yaxshi" dan boshqasiga yarash-madi, mehmonimiz tarafga tuzukroq o'girilib qarashmadi. Ularning

o'zlarini tutishlarini ko'rib, mehmon bechora shuncha yo'l bosib, bekorga o'zini charchatganiga amin bo'ldik. Ha-a, toshga yomg'ir kor qilurmi, muttasil yoqqan bilan, degan ekan Mashrab bovami, ishqilib, mashoyixlardan biri...

Tushlikda mehmonni Oqmurodning baliqxonasiga olib kirdik. Alabki, mehmon baliqdan irimiga bir-ikki cho'qilagan bo'ldi, xolos. Unga savol nazari bilan qaradik, "Sog'lik joyidami?" - deb so'radik, u bosh chayqab, uf tortdi.

- Anovi bola hech xayoldan ketmayapti-da, sabil...

- Qaysi bola?

- E-e, Boziron-da, boyagi bola!

- Boziron bola emas, ellikdan o'tdi, - dedik kulimsirab.

- Hay, shu-da, baribir hali yosh bola u...

Qiziq odam ekan-da bu boboy: uning ko'nglini ovlay deb jon kuydirasiz, u bo'lsa parvoyi-falak, qayoqdagi bir devona tashvishida.

Uch kungacha mehmonimiz ochilmadi, kalavasining uchini yo'qotganday garangsib yurdi, to'rtinchi kun esa keskin ohangda buyurdi:

- Kiyinib chiq, balnisaga boramiz!

"Zora mehmon o'sha yoqdan birato'la uyiga jo'navorsa...," degan ilinj bilan unga ergashdik. Tuman markazidagi kasalxonaga yetib kelgach esa, bu umidning aldamchi sarob ekanligi ayon bo'ldi. Bir chetdagi xarobgina, ovloq palatada yetimday yotgan Bozironning ahvolini ko'rib, cholning avzoyi buzildi, cho'ntagidan bir taxlam pul chiqardi.

- Ma, katta do'xtirni top-da, yarmini asta kissasiga tiq, keyin aptekaga borib, Bozirgonga kerak dorini topib kel! Serrayma, nima, sen turganda soqolimni selkillatib men chopaymi? Tez bo'!

"Bodilikni qarang! Soqoli bo'lsayam boshqa gap edi", degan gap xayoldan o'tdi. Noiloj kettik, oqsoqolning gapi muhokama qilinmaydi.

Aslida bizni hayratga solgan narsa bu ham emas. Dori ham, katta do'xtirning ko'ngliga yo'l ham topildi. Mehmonimizning siyosati qattiq, dami baland ekan, vag'ir-vug'ur qilib, bemorning yoniga yana bitta karavot qo'yidirdi-da, yotib oldi.



- Sen boraver, men qolaman. Jiyanni yakka qoldirib bo'lmaydi, odam-odam bilan tirik. Yurak bilan o'ynashib bo'ladimi. Vaqtning bo'lsa, erta-inda bir aylanarsan biz tomonlarga.

Damni g'animat bilib, yopishqoq mehmondan qutulganimizga shukur qilib, qanot bog'lab uyga uchdik.

- Tamom! - dedik xotinga tantanavor ohangda. - Mehmon o'sha yoqdan uylariga ketishlari aniq!

Shu gapga o'zimiz ham, bekamizniyam ishontirdik. Lekin har safargiday adashgan ekanmiz: ertasiga boboy do'xtirlarning moshiniga ortib, Bozirconni qishloqqa olib keldi. Katta ko'chaning boshida moshindan tushib, suron soldi:

- Voy jigirim-ey! Voh ko'zimning oq-u qorasi! Bevaqt ketgan jiyanim-ov!

Bunaqa paytda el tez birlashadi, birpasda odam to'plandi. Oqsoqollar yo'l-yo'riq berishdi, yosh-yalanglar yugurgilab qolishdi. Janoza o'qilgach, Shopo'lat bova tobutning old tarafini biz bilan yon-yon turib ko'tardilar...

O'sha oqshom ancha salqin tushgan bo'lsa ham mehmonimiz hovlida tamaki tutatib, yulduzlar ketma-ket uchayotgan osmonga ancha vaqtgacha termilib o'tirdilar.

- Yulduzlar to'kilyapti... - nihoyat xastahol shivirladilar u ki-shi.

Darhaqiqat, osmon go'yo had-hisobsiz gunohkorlarni kiftida ko'tarib yurgan zaminni jazolamoqqa qasd qilganday, ketma-ket olovli paykon otayotgandi.

Ertalab turib qarasa, mehmonxona bo'sh! Mehmonning o'rni sarishta qilib yig'ilgan, uning qora sumkasi ham joyida yo'q. Chala-yarim kiyinib, ko'chaga chopdik. Quyosh, go'yo bag'ri kuygandek qizarib, endi bosh ko'targan qishloq ko'chasidan Shopo'lat bova-mizning o'ktam ovozi taralayotgandi:

- Turinglar, g'aftlab bosib yotavermanglar! Bir-biringizni avaylang, uyingizga xayr-baraka kiradi! Oqibatni yo'qotmanglar, bo'l-masa yulduzlar boshingizga to'kiladi...

Ovoz tobora uzoqlashib borardi. Bozirconning dardlarini olib, bovamiz qishlog'iga ravona bo'ldi...

## AKBAR MIRZO

1961-yilda Andijon viloyatining Oltinko'l tumanida tug'ilgan. Toshkent davlat universitetini (hozirgi O'zbekiston Milliy universiteti) tugatgan. "Orzuga oq yo'l", "Qalb isyoni" hikoyalari to'plamlari chop etilgan. "Ayozi chozilgan bahor", "Najot kemasi" qissalari, "Oqtepalik o'g'ri" va "Ajali bilan yuzma-yuz" romanlari muallifi.

## QOYADAGI CHAQALOQ

Quyosh tog' ortiga o'tdi. Qurbon aka otning beliga tashlangan xurjundan qalin lattaga o'ralgan qo'ng'iroq olib, boshi barobar ko'targanicha qattiq chaldi. Adirni birdan qo'y-qo'zilarning ba'ragan ovozi tutdi. Qo'zichoqlar dikonglab chopishdan to'xtab, onalarini qidirib qolishdi.

- Qani, o'tovga, qayt-u qayt!

Qurbon akaning hayqirig'idan so'ng adirni yana jimlik qoplatdi. Serka buyruqni tushunganday yo'l boshladi, poda asta adir yoqalab pastga yo'rg'aladi.

Tog'ning soyasi chor-atrofni qoplay boshladi. Uzoqdagi qoramir bulutlarga ko'zi tushgan Qurbon aka tog' havosiga ishonib bo'lmasligini yaxshi biladi, ko'ngliga kelgan xavotir ichida: "Olapar!" - dedi qo'ng'iroqni jigarrang xurjunga joylarkan. Olapar egasiga bir qarab qo'ydi-da, lapanglab podani biroz tezlatdi. Suruv qorong'i tushmasdan o'tovga yetib keldi. Qurbon aka qo'ra oldida peshvoz chiqqan o'g'lini ko'rib hayron bo'ldi. Yo'lda Olapar bejiz hurimaganini, o'tovga yetar-yetmas chopib ketganining boisini endi angladi.

- Tinchlikmi, Ergashali, erta qaytibsan? - xavotirini yashirolmay so'radi Qurbon aka Olaparni silab erkalayotgan o'g'liga tiki-larkan.

- Tinchlik, dada, tinchlik, - dedi Ergashali qaddini tutib, dasiga salom bergach.

- Birato'la imtihonlarni topshirib kelaman, deganding-ku? - otdan tushishga shoshilmagan ota hamon o'g'luga sinchkov nazar tashlab turardi.

- O'tgan yili ijara turgan uyimizda odam bor ekan. Yana o'n kunlarda bo'sharmish. Shaharda tentirab yuramanmi, deb kelaverdim. Ungacha sizga qarashib turarman, dada, - dedi Ergashali endi otning jilovini qo'lga olib, uning keng peshonasini silarkan.

- Shunaqa degin? - Qurbon aka bu g'amxo'rlikning boisini tushunolmay yana ajablandi.

Ergashali ertaroq bormasam bo'lmaydi, deb turib olgandi-da. Axir imtihonga yaqin ketarsan, ungacha yaxshilab tayyorgarligingni ko'r, yana o'tgan yilga o'xshab kirolmay qaytib kelmagin, demaganmidi? Xo'sh, kim haq bo'lib chiqdi? Nahot bu qaysar bola xato ish qilganini endi tushungan bo'lsa? Balki shuning uchun otaning ko'zlariga tik qaray olmayaptimikan? Ha, pushaymon bo'lganga o'xshaydi. Bo'lsa bunchalar mehribonchilik qayoqda edi. Qurbon aka hamon viqor bilan o'tirarkan, boshini tebratib qo'ydi. Ergashali dadasiga qaradi: "Tushasizmi?" Buni o'zicha tushungan ota, nihoyat, uzangiga oyog'ini tiradi, pastga tushgach, otning ketiga asta-asta urib, bugungi xizmatiga minnatdorchiilik bildirdi. Tolmas bunga javoban bo'ynidagi uzun yollarini silkitdi.

Ota-bola quchoqlashib ko'rishishdi. Ergashali dadasining sog'inganini sezdi. "Ota baribir ota-da", - dedi ichida, so'ng chaq-qonlik bilan ishga kirishdi: otni bog'lab, qo'raning og'zini berkitdi. Qurbon aka o'tov chetidagi o'choq boshida kuymalanib yurgan ke-liniga, tarvaqaylab ketgan qari tutning tagidagi supachada qo'lla-rini yo'rgakdan chiqarib olgancha og'zidagi so'rg'ichni tinimsiz so'rayotgan nevarasiga bir-bir qarab chiqdi. Tiyrak nigohlari yana kimnidir qidirdi. O'tov ichidan qo'lida dasturxon bilan chiqib kelgan xotiniga ko'zi tushgach, vujudini xotirjamlik egalladi.

Ishini tamomlagan Ergashali supa tomon yurdi. Tut shoxiga ilingan chiroqni burab yoqdi. Keyin bugun rosa uch oylik bo'lgan farzandining ustiga engashdi. Go'dak dadasini taniganday mit-

ti qo'lchalarini o'ynatib talpindi, og'zidan so'rg'ichni chiqarib yubordi.

- Seni sog'inibdi, - dedi xontaxta ustiga dasturxon yozayotgan Toshxon aya jilmayib. Ammo keyin birdan o'zgardi: yig'lab yuborishdan o'zini zo'rg'a tiydi, dilini o'rtagan gapni esa plehirlabgina aytdi: - Bularni opketib qolsang... qanday chidar-kanman?

- Hali ketayotganim yo'q-ku. Avval o'qishga kiray-chi.

- Baribiram-da, - dedi Toshxon aya nevarasini qo'lga olib, jajji barmoqchalaridan ketma-ket o'parkan.

- Bo'ldi, ona, - Ergashali dadasi tomon ko'z qiri tashladi. - Ittimos, boshlamay turing. Dadam eshitsa...

Itining fe'li egasiga ma'lum, deydilar. Toshxon aya darrov o'zini qo'lga oldi: hech narsadan xabari yo'qday, eriga: "Keldingizmi, charchamay", - dedi-yu, kelini tomon yurib, namiqqan ko'zlarini yashirgan bo'ldi.

Oila dasturxon atrofida to'planganda adir tagidagi o'tovga yana fayz kirdi. Qurbon akaning nazdida o'g'li biroz sermulozamat edi, o'zini ancha erkin tutishi, o'qishga kirishiga ishonch bilan gapirishi ham e'tiborini tortgan, hatto taajjublanishiga sabab bo'layotgandi. "Qiziq, - xayolidan kechiradi ota oshni ishtaha bilan paqqos tushirayotgan farzandiga zimdan nazar tashlab. - Nega bunchalar ichi qiziyaptiykin?"

Dasturxonga duo qilingach, Qurbon aka nevarasini bag'riga oldi. "Danagidan mag'zi shirin-da", - dedi negadir mo'ltirab turgan xotiniga ko'z qirini tashlab. Keyin bolakayni erkalay boshladi. Ergashali bu holni uzoq kuzatib o'tirolmadi, nimanidir bahona qilib o'rndan turdi. Mazali palov uchun rahmat eshitgan kelin avval idish-tovoqlarni, keyin dasturxonni yig'ishtirdi. Kattagina suyak bilan siylangan Olapar qo'ra tomon ketdi.

\* \* \*

Ergashali barvaqt turib, suruvni oldiga soldi. Otasi hamroh bo'lay degandi, unamadi.

- Charchagansiz, dam oling.

Bu g'amxo'rligni o'zicha tushungan Qurbon aka noiloj o'tovda qoldi. "Mendan keyin boqaverasiz, podangizni, degani-da bu", - deya xayolidan o'tkazdi qo'lga ketmon olarkan.

O'g'li shaharga ketgandan buyon ekin-tikinga qaray olgani yo'q edi. Ishlashga fursat topilgani uchun boshqa gaplarga qo'l sil-tadi. Tepadan sizib kelayotgan suv yo'lini to'sib, pomidor ekilgan egatlarga to'g'riladi. Keyin sal pastroqdagi terakzor tomon yurdi. Ancha ko'zga ko'rinib qolgan daraxtlar uning ko'zini quvontirdi. Endi ularning yonidan chiqqan mayda shoxlarni kesib, shakl berish kerakligini o'ylab, o'tovda ancha ishlar yig'ilib qolganini payqadi. Ergashaliga ruxsat berganiga achindi. Shu ishlarni u bajarganda yaxshi edi-da. Oltmishga kirganda daraxtma-daraxt chiqib yurmaydi-ku, axir. Yaxshisi, ertaga o'g'lini o'tovda qoldiradi. Rostdan ham ketib qoladigan bo'lsa, barcha qiyin ishlarni tugatib ketsin. Qishdan bir amallab chiqib olishsa, u yog'i bir gap bo'lar.

Go'dak yig'isi eshitildi. Qurbon aka nevarasi uyg'onganini anglab, chaylaga qaytdi. Quyoshning tafti tanga yoqa boshladi. Tut soyasiga kelib o'tirgach, keliniga: "Qani, polvonni opchi-qing-chi!" - dedi mehri tovlanib.

Zurriyod! Qurbon aka go'dakni qo'lga olib peshonasidan o'pganda, yuragida qandaydir o'zi darrov anglab yetmagan hislar jo'sh urganini sezdi. Nasl davomchisi tug'ilganida bir quvongan bo'lsa, hozir u quchog'ini to'ldirib turganidan, bobosiga qarab jil-mayib qo'yayotganidan ming quvondi. Qani edi, Yo'ldoshali yurib qolgan bo'lsa-yu, qadami yetgan butun yerlarni ko'rsatib chiqsa! Ot mindirib, atrofdagi borliq jonivorlarni bir-bir tanishtirsa, ularga oshno qilib, mehr uyg'otsa... Balki shaharga ketishni istamagan bo'larmidi?

Xotining kechasi allamahalda aytgan gapi esiga tushib, ko'ng-li g'ashlandi. Nima emish, agar o'qishga kirs, bola-chaqasini olib ketarmish. Yopiray, bu narsa uning xayoliga qayerdan keldi? Yoki kelin shunaqa shart qo'ydimikin? Tavba, bu bola shaharga o'qish uchun ketyaptimi yoki oilasini boqishgami?

Uyqusi qochgan Qurbon aka kechki ovqat ustidagi gap-so'zlar-ning mohiyatini endigina anglaganday bo'ldi. Ha, o'zini sal baland tutishi bekorga emas ekan-da. Hali institutga kira oladimi, yo'qmi?

Yana o'tgan yilga o'xshab... Lekin imtihonlardan o'tsa-chi? Unda nima bo'ladi?

Qurbon aka beixtiyor qo'lidagi go'dakka termildi. Yana bir necha kundan keyin nevarasi ketib qoladiganday uni mahkamroq quchdi. Dadasiga yo'ldosh bo'lsin deb, ismini Yo'ldoshali qo'ygani-chi? Endi afsus chekishga hojat yo'q: chaqaloqqa ism qo'yilgan, qulog'iga azon aytilgan. Balki aqlini tanigach, bobosining oldiga qaytar? Qarigan chog'ida beliga quvrat, ko'ziga nur bo'lar. Yana kim biladi? Axir o'g'liga ham ne umidlar bilan Ergashali deb ism qo'ygandi: menga ergashsin, o'rminni bossin, deb. Ammo oqibatli nima bo'ldi? Besh-olti kun shaharda yurib: "Biror haftada ket-aman", - deb o'tiribdi-yu, bu go'dak u yerning nonini yeb, havo-sidan nafas olsa, qaytib kelarmidi?

Qurbon aka birinchi marta o'zini ojiz sezdi. Biroq tezda fikrini jamladi: hozirdanoq umidsizlikka tushishni ep ko'rmadi. Chaqaloqni ko'tarib o'tov atrofini aylantirdi. Kelining issiqqa olib chiqmang, deb kuyinganiga e'tibor qilib o'tirmadi. Tog'ning toza havosidan to'yib-to'yib nafas olsin, deya soya-salqin joylarda ancha yurdi. Hatto qorni ochqab yig'iga tushganda ham onasining qo'lga tutqazishga shoshilmadi.

"Dadang mendanam qaysar chiqibdi. Esini taniganda "Seni o'qitaman", degan bitta gapimni mahkam ushlab olganini qara. Rostdan ham chin ko'ngildan aytganmanmi yoki otdan qulab kasal yotganimda jahl ustida gapirib yuborganmanmi, bilmadim-u, ammo og'zimdand chiqqani haqiqat. Shuning uchun lafzimdand qaytolmay, o'qishga qarshilik qilmadim. Negaki, kirolmasligiga ko'zim yetadi-da. Cho'ponning o'g'li institutga kira olardimi? Erta-yu kech qo'yning ortidan tayoq ko'tarib yurgan bo'lsa, qanaqa bilim bo'lsin unda? Oyda bir-ikki marta maktabga borib qo'ysa, hisobga o'tarkanmi? Yoki maktabni tamomlagani haqidagi guvoohnoma nima uchun yozib berilganini bilmaymanmi? Eh, Ergashali-ya, Ergashali, gapim-ga quloq tutmadi. Ana, o'tgan yili nima bo'ldi? Yiqilgan kurashga to'ymasligini bilaman. Nega sal kunda qaytib ketaman, deb gapir-diykin? Bu esi past dadang nimaga bunaqa dediykin? Yo meni si-nash uchun atay aytdimikin? Gapir, gapirsang-chi, mittivoy! G'ala-g'ovur shaharga ketasanmi yoki mana shu tinch, osuda adirda men

bilan qolasanmi? Mana bu bog'ni ko'ryapsanmi? Hov, anavi baland tog'larni-chi? Ha, barakalla. Endi bularning hammasi o'zimizniki, bolam. Ularga ko'z-quloq bo'lmasak, asrab-avaylmasak, nima bo'ladi? Iye, Burgutvoy havoga ko'tarilibdimi? Qara, ko'ryapsanmi? Ana, huv, ana. Lekin... Sal bezovtami, deyman. I-i, sherigiyam chiqib olibdi-ku. Nega bolasini yolg'iz qoldirdi ekan? Yo senga o'xshab ularning ham qorni ochdimikin? Onangni chidolmay ol-dimizga kelayotganiga qaraganda uyam sening ochiqqanini sez-ganga o'xshaydi. Bo'пти, qani, yur-chi, bo'Imasa".

Rayhon o'g'lini olib, o'zlariga ajratilgan chaylaga kirib ket-di. Qurbon aka dasturxon yozilgan supaga kelib o'tirdi. Ishtahasi yo'qligidan, biqiniga yostiqliq tiradi. Keyin necha yillardan buyon Bobotog'ni makon qilgan Burgutoyga termildi. Uning goh pastlab, goh balandlab uchishini, ba'zida tanish ovoz chiqarib qo'yishini sal xavotirlanib kuzata boshladi. Boyaqish o'tgan yili bolasidan ayrilib, alamzada bo'lib ancha uchib yurdi. Bir joyda qo'nim topol-may, o'zini tog'dan toqqa urgani-chi? Tinchlanguncha atrof-dagi jonzotlarni ancha halak qildi. Hartugul bu yil polapon ochib, yana xotirjam parvoz qila boshladi. Nechta ochdiykin? Bolasi qanot chiqarib qolgandir?

Dasturxonga nigohi tushib, bir piyola choy quydi. Biroq xayoli o'g'luga ko'chib, ishtahasi yo'qoldi. "Bu yerda ko'p qolmasmish. Shaharda yashasa, xuddi o'qishga kirib ketadiganday gapirdi-ya. Nimasiga ishoniyapti bu bola? Ishlab qormiga, ijarasiga pul topadi-mi yoki o'qishga tayyorgarlik ko'radimi? Rostdanam tushunolmay qoldim. Hali kelsa, jiddiyroq gaplashaman shekilli".

\* \* \*

Kechqurun suhbat uchun umuman imkon bo'lmadi. Kiyimlarini apil-tapil almashtirgan Ergashali qishloqqa tushib ketdi. Simfdoshi uylanayotgan ekan, bormasa bo'lmasmish. O'g'lining ortidan qarab qolgan Qurbon aka balki to'y uchun qaytib kelgandir, degan o'yg'a bordi. Ijara bandligini bahona fahmlab, boshini sarak-sarak qilganicha televizor ko'rish uchun yonboshladi.

Ertalab o'g'lini egarlangan ot ustida ko'rib gapirishga yana botinolmadi. Erkaklik tusi urayotgan Ergashaliga ot juda yara-

shib turardi. Ularga qaragan odam "Ot - yigitning qanoti", degan maqol naqadar to'g'ri aytilganiga yana bir bor amin bo'lishi aniq. Shundoq o'ktam yigitning ra'yiga qarshi boriging ham kelmaydi. Buning ustiga adirma-adir qo'y boqish uzoq safarga chiqish bilan barobar. Yo'lga otlangan odamning dilini bilib-bilmay og'ritib qo'ysang, ishi yurishmasligi mumkin. Xudo ko'rsatmasin-u, mabo-do biror xatarga yo'liqsa, bir umr afsus-nadomatdan qutulolmay-san. "Keyingi pushaymon - o'zingga dushman", deb bekorga ay-tilmagan, axir. Marhum dadasidan eshitgan pand-nasihatlar xayoy-lidan o'tib, ortiqcha gap qilib o'tirmadi: "Bo'пти, yaxshi borib kel. Omadingni bersin".

Tushdan keyin osmonda yana tanish qushlar paydo bo'ldi. Diqqati bo'lingan Qurbon akaning qo'li ishga bormay qoldi. Bur-gutlarning shiddatli parvozi ko'nglini xijil qildi. Nima bo'ldiykin ularga? Kechayam bunchalik bezovta emasdi-ku? Yoki iniga biror-tasi tahdid soldimikin-a? Biroq qoyaga chiqish har kimning ham qo'lidan keladigan ish emas. Balki ilondir deyishga odamning tili bormaydi. Chunki burgut tog'-u toshdagi har qanday tajovuzkor ilondan qo'rqmaydi. Unda burgutlarning tinchini buzishga kim jur'at qildiykin? Bu qadrdon qo'shnisining halovati yo'qolib, nega chir aylanib uchayapti?

Qurbon aka otga minib Bobotog' tomon borsammikin, deb taraddudga tushib qoldi. Egar-jabduqni endi qo'lga olgandi, birdan xotini yuz ochdiga ketgani miyasiga urildi: attang! Chor-atrof-ga najot bilan termildi. Anchagacha ham hech kimdan darak bo'lmadi. Shunday paytda Olapari yonida bo'lmaganiga afsuslandi. Uni be-malol qorovul qilib tashlab ketishi mumkin edi. Tarvuzi qo'l-tig'idan tushgan odamday hafsalasi pir bo'ldi. Qo'lidagi narsalarni joyiga tashladi. Kechadan beri bir joyda turib qolgan Tolmas bu holatdan jahli chiqqanday yer depsindi. Qurbon aka: "Nima qilay, chorasiz-man", - deganday qo'llarini yoniga shapillatib urdi.

Bobotog' tepasida bir juft burgut hamon charx urib uchardi. Kelinning o'zini qoldirishga ko'ngli bo'lmagan Qurbon aka joyi-da o'tirolmay qoldi. Xotini hali-beri kelmasligini bilib, battar ach-chiqlandi. "Shu xotinlarga ham hayronman, - dedi o'z-o'zi bilan gaplashib. - Bir gapga tushib ketishsa, uyi borligini ham unutib

qo'yishadi". Ter bosgan peshonasini artarkan, birdan bekorga jahli qilayotganini anglab qoldi. Bu tog'-u toshda, o'tovda hayot kechirishning o'zimi? Xotini bechora shunaqa paytlarda bir yayrab olmasa, qachon yayraydi? Xudoga shukurki, kelin olib, ayniqsa, nevara ko'rib bahri-dili ochilgan, ba'zida shu kengliklarga ham sig'may ketadi. Mayli, to'yga bormaganga yarasha, yuz ochdida bemalol o'tirib kelsin. Anov gaplar chin bo'lib, kelin ham shaharga ketib qolsa... yuragi yana yarimta bo'lib qoladi. Xuddi anavi bezovta burgutlar misoli o'zini qayerga qo'yishni bilmay qolsa kerak. Boyaqishga qiyin bo'ladi-da.

Qushlar o'tovga ancha yaqin kelib uchishi Qurbon akaning xayolini bo'ldi. Odatda ular o'tov tepasiga kamdan kam kelishardi. Ha, oxirgi marta qachon kelganini eshladi. Chaqaloq ovozi qir-adirlarda aks-sado berganda ularni shu yaqin-atrofdan ko'rgandi. Go'yo qutlagani kelishganday ancha parvoz qilib qaytib ketishgandi. Qurbon aka yanglishmasa, o'sha kunlari ularning polaponlari ham ko'z ochgandi. Burgutlarning hozirgi xatti-harakati o'sha paytdagi sokin parvozga sira o'xshamas edi. Ovoz chiqarishlari ham bo'lakcha. Go'yo boshlariga xatar tushganday, undan ogoh etmoqda. Yoki tog'da qandaydir yov o'rmlab yuribdi...

Qurbon aka qo'l-oyog'i ipsiz bog'langan odam degan naqlning mohiyatini ana endi to'liq tushungandi. O'ziday nochor ahvolga tushib ko'zlagan manzilga keta olmagan odam aytgan ekan-da, deb fikr yuritdi qo'rg'on atrofini aylanan ekan. U shu zaylda bot-bot tulporining yoniga kelib qolar va egarga ko'z tashlab qo'yardi.

Burgutlar bu yerda hech qanday najot yo'qday birdan g'oyib bo'lishdi. Ammo kechga yaqin negadir podaning ustida aylanib uchib, o'tovga yaqinlashishdi. Ulardagi bu jur'atni ko'rib Qurbon aka yana taajjubga tushdi. Ular endi bezovtalanib qanot qoqishmas, bir-birini ta'qib ham qilmas edi. Tinch va sokin parvoz Qurbon akaning ko'nglidagi g'ashlikni biroz aritsa-da, necha yillardan buyon qadrdon bo'lib qolgan bu qushlarning jimgina o'tovni kuzatishlari allanechuk g'alati tuyulayotgandi.

O'g'liga razm soldi. Ergashali odatdagiday sipo edi, ammo qat-tiq toliqqani bilinib turardi. Qurbon aka otga nigoh tashladi. Jonivor yaxshigina dam olgan chog'i, charchoq alomatlari sezilmasdi.

- Burgutlar bugun juda bezovta bo'lishdi-da, ini atrofdan begona odamga ko'zing tushmadimi?

Ergashali bu savolni kutgan shekilli: "Yo'q, ko'rmadim", - deya xotirjamlik bilan javob qildi. Biroq qo'y-qo'zilarni qo'raga qamarkan, ko'z qirini otasidan uzmad.

- Qorong'i tushib qoldi, qaytishsa bo'lardi.

- Haydab yuboraymi?

- Ular odamzodning gapiga quloq solmaydi, o'g'lim.

- Miltig'ingiz bor-ku.

- Nima, ularga o'q uzmoqchimisiz?

- Qo'rqitsak, qaytib ketisharmidi, deyman-da.

- Ana, ketishyapti.

Darhaqiqat, bu paytda bir juft burgut o'tovdan uzoqlasha boshlagan edi.

\* \* \*

- Xo'p desangiz, bugun ekin-tikinga qarasam, - dedi Ergashali yuz-qo'lini shoshilmasdan yuvib kelgach.

- Ha, charchadingmi?

- Onanga ham qarashay-da. Toshkentga ketib qolsam...

- Shunaqami? - deya xotining yuz-ko'zida paydo bo'layotgan ma'noli ifodalardan bir nimalarni uqqan Qurbon aka belini mahkamroq bog'ladi. - Mayli, onangga qarash, ekin-tikinlarni epaqaga keltir. Ishqilib, bugun-erta ketib qolmayсанmi?

- O'tovdagi ishlarni tugatay-chi.

- Bo'пти, men ketdim. Iye, polvonim bilan xayrlashmadim-ku. Bor, olib chiq!

Qurbon aka nabirasini qo'lga olib erkalatdi. Shop mo'ylovini jajji qo'llariga ishqab kuldirdi. Bu orada o'g'liga yuzlanib, shu quvonchni bizdan olib ketmoqchimisiz, deganday boshini sarak-sarak qildi. Keyin nari ketarkan, ichidagini baribir gapirdi.

- Bu polvon shaharning bolasi emas. Anavi erkin burgutlardek shu keng qir-adirlarning, osmono'par tog'larning shunqori bo'ladi. Sening yo'lingni to'smayman-u, ammo bu pahlavonni olib ketib qolma. O'qishni bitirsang, u yog'i bir gap bo'lar.

Ergashali gap orasida burgutlar degan soʻzdan keyin xayoli chalqʻib, pahlavonni polapon deb eshitganday boʻldi, tezda boshini egarkan, yer ostidan toqqa qarab qoʻydi. Dadasi sal uzoqlashgandan keyingina yengil nafas oldi.

Tushga yaqin Sarvixon aya: "Dadanga ovqat tashlab kelay", degan bahonada yoshlarni xoli qoldirdi. Ona farzandining dilini sezadi, kelinning harakatlaridan niyatini biladi. Axir u ona-da.

Emin-erkin qolgan yoshlar bir-birining diydoriga toʻyishdi. Keyin ozroq tamaddi qilgan boʻlishdi-da, yana oʻtovga oshiqishdi. Ichkari issiq va dim boʻlgani bois, chaqaloq injiqlik qila boshladi. Rayhon bolani tutning soyasidagi belanchakka solish uchun tashqariga olib chiqdi. Nimadir yodiga tushib, oʻgʻilchasini supachaga yotqizdi-da, yana ichkariga oshiqdi. Goʻdaginging oyoq-qoʻllarini yaxshilab yoʻrgaklab qoʻymasa, qimirlab uygʻonib ketishi mumkin. Mahkam yoʻrgakda bola tinch va uzoq uxlaydi.

Ergashali darrov qaytgan xotinini bagʻriga tortdi.

- Bolani hali yotqizmadim.

- Boʻlaqol, jonim.

Rayhon koʻzlari yumilib ketayotgan chaqalogʻini yuzlaridan oʻpib-oʻpib yoʻrgakladi, endi belanchakka yotqizmoqchiydi, belidan bogʻlaydigan bogʻichni olmagan yodiga tushdi. Belanchakni oʻrtasidan bogʻlamasa boʻladimi?

- Keldingmi, asalim.

- Birpas sabr qilsangiz-chi. Xayolimni oʻgʻirlaysiz-a.

- Ha, yana nima?

- Bogʻichni olmabman-ku. Belanchakni bogʻlashim kerak.

- Boʻpti, boʻpti. Boraqol. Ha, toʻxta, bilasan-a, yaqin kunlarda seni shaharga olib ketishimni. Yaxshi bir joyni ijaraga olib maza qilib yashaymiz, - dedi Ergashali xotinining yelkasidan quchib. - Bu togʻ-u toshlarda tentirab yurmaymiz. Biz boshqacha yashaymiz!

- Avval oʻqishga kirib oling-chi.

- Mana koʻlasan, bu yil albatta, kiraman.

- Boʻpti, hozir kelaman.

- Shoshma, bir oʻpib olay.

- Bola tashqarida qoldi.

- Kel, kelsang-chi!

Ergashalining baquvvat qoʻllaridan chiqib ketish oson boʻlmadi. Erining issiq bagʻrida Rayhonning koʻz oʻngidan hamma sharoitlari bor shinam xonadon oʻtdi. Qanday yaxshi! Kimi mashina yuvsa, gilamni changyutgich tozalasa, suv isitmasa, yozilgani tashqariga chiqmasa. Birgina yumush - ovqat tayyorlashgina qolar-kan-da unga. Erib ketdi. Ergashalining otash boʻsalari unga porloq kelajak hadya qilardi...

Bir payt Rayhonning chinqirigʻi butun borliqni tutdi. Togʻning baland qoyalari urilib aks-sado berdi. Nafasi ichiga tushib ketgan Ergashali tashqariga otilib chiqqanida xotini dod solganicha qandaydir bahaybat qushning ortidan chopib borardi. Bir payt boshidan roʻmoli uchdi, sochlari toʻzidi, qadamlari tezlashdi. Baqirib borgan sari ham kuchayar, ham pasayar edi.

"Bu urgʻochi burgut-ku! Nima, u oʻgʻlimni olib qochdimi?"

Ergashali Rayhonning: "Bolamni qaytar! Qaytar deyaрман senga!" - degan nidosini endi angladi. Mudhish hodisa roʻy bergani miyasiga urganda tamom boʻldi. "Qasos!" U kechirilmas xatoga yoʻl qoʻygani tushunib yetganida, boʻgʻzidan ana shu birgina soʻz otilib chiqdi.

- Oʻldiraman! Oʻldiraman, bolamni joyiga qoʻy! - deva baqirdi Ergashali. Uning ham gʻazab, ham oʻkinchga toʻla ovozi uzoqlarga yetib bordi.

Rayhon birdan toʻxtab, orqasiga oʻgirildi. Erining tahlilali baqirigʻi uni shunga majbur qilgandi. Ergashali gandraklab oʻtovga kirib ketdi. Bagʻrini tigʻlayotgan yosh onaning koʻngli yana bir dahshatli hodisa roʻy berishi mumkinligini sezdi, chogʻi, endi ortiga qarab chopdi. Yiqilib tushdi, ammo bunga eʼtibor qilmadi. Oyoqlari mayishib ketsa-da, chopdi, uning birdan bir maqsadi tezroq oʻtovga yetib kelish edi. Bu paytda koʻzlari qonga toʻlgan Ergashali qoʻlida qoʻshotar bilan oʻtovdan chiqdi. Vaqtini boy berishni xohlamadi, otmasa, burgut uning oʻgʻlini qoyadagi iniga olib ketadi. Tipirchilagan bola u yerdan tushib ketishi mumkin. Shuncha balanddan qulagan chaqaloqning tirik qolishi... Yoʻq, u toshlar-ga urilib, nobud boʻladi. Undan koʻra qushni yaralagani maʼqul. Oʻljadan ayrilishni istamagan burgut goʻdakni tashlab yubormaydi. Asta birov yerga qoʻnadi. Xayolidan yashin tezligida oʻtayotgan bu

fikr uning nazarida to'g'ri edi. Mo'ljalga oldi. Otdi, ammo shu on kimdir qo'llariga tirmashdi: o'q xato ketdi.

- Otmang! Aslo ota ko'rmang! O'q bolamga tegsa, nima bo'ladidi? Uni o'z qo'llaringiz bilan o'ldirmoqchimisiz?

- Nari tur!

- Otmaysiz!

- O'ldiraman bu gazandalarni! Tuxumini quritaman!

Er-xotin tortishar, burgut esa shiddat bilan qoyadagi ini tomon uchib borardi.

- Miltiqni menga bering! Boring orqasidan, bolamni olib keling!

- Bolani qoyadan olib tushib bo'lmaydi.

- Men bilmayman, boring, boring dedim sizga!

- E-e.

- Bo'lmasa, o'zim boraman! Qayerdaligini aytsangiz, bas.

Ergashali nima qilarini bilmay qoldi. Burgut undan qasos olgandi. U ikki kun toqqa qanday chiranib chiqib, uning bolasini o'g'irlagan bo'lsa, qushchaning onasi ham shunday yo'l tutgandi. Jonga jon bo'ldi: o'ch olindi. Bundan bexabar Rayhon yirtqich qushlarni qarq'ashga tushdi. Bu yerga kelin bo'lib tushganiga afsus-nadomat cheka boshladi. Bolasiga bir narsa bo'lsa, hammayoqni ostin-ustun qilib tashlashini aytganda, Ergashali chidab turolmadi, miltiqni o'tov tomonga uloqtirdi-da, qoya sari yo'lga tushdi.

- Hoy, otga minmaysizmi?

Ergashali xayolini yig'di, darvoqe, tulpori bor-ku. U otga egar urib o'tirmadi. Bir sakrab ustiga mindi-da, endi oyoqlari bilan binigina niqtagan edi, dadasiga ko'zi tushdi. Rayhon qaynotasini ko'rib, o'kirib yig'lab yubordi.

Nima hodisa yuz berganini ko'rgan Qurbon aka o'g'lining yo'lga g'ov bo'ldi. Ergashali otni arang to'xtatib qoldi. Dadasining g'azab to'la nigohlariga chiday olmay boshini xam qildi.

- Bolasiga tegindingmi?

Ergashalining tili aylanmadi.

- Sendan so'rayapman, yaramas!

Ergashali zo'rg'a boshini qimirlatdi. Shu ishorani kutib turgan Qurbon aka o'g'luga yaqin keldi-da, qarsillatib shapaloq tortib yubordi. Ot hurkib ketdi, Ergashali o'mbaloq oshib yerga quladi.

- Ko'mamak! Kimga sotoqochi bo'lding? Nega katta gapirib qoldi desam, gap bu yoqda ekan-da.

- Ota, kechiring meni, pulga qiziqib... - Ergashali o'rindan turib dadasining oyoqlariga yopishdi.

- Pul desa, vijdoningni ham sotasanim?

- Jon ota, bilmay qoldim, sizdan yolvorib so'rayman, bolamni qaytaring!

- Sen menga emas, anavi burgutlarga yolvor, ahmoq!

Ergashali bunday qarasa, xotini tepasida turibdi. Qo'lida qo'shotar. Ko'zlari qinidan chiqib ketgan er bir otasiga, bir nafrat bilan tikilib turgan Rayhonga qaradi.

- Nima qilyapsan? E-e-esing joyidami?

- Agar bolamni tiriklayin olib kelmasangiz... Sizni ham, o'zimni ham otib tashlayman!

Qurbon aka xotinini suruv oldida qoldirib kelib, to'g'ri qilganini tushundi. Bu ko'rgiliklarga guvoh bo'lganida chidarmidi, boyoqish. Kelinida paydo bo'lgan jur'at Qurbon akani sergaklantirdi.

- Polaponni qayerga yashirding?

- Tepalik ortidagi daraxt kovagiga.

- Bor, opke!

Ergashali otga qamchi bosdi. Qurbon aka muloyim gapirib, kelinning qo'lidagi qurolni oldi. Qayerdadir chaqaloq ovozi eshitilganday bo'ldi. Rayhon boshini changallab yana dod soldi. Keyin yo'lga tushgan qaynotasiga ergashdi.

- Yo'q, siz shu yerda kuting.

- Bormasam bo'lmaydi. Burgutlar bolamni tilka-pora qilib tashlagan bo'lsa-chi? - tizzalariga mushtladi kelin.

- Ular vahshiy emas, qizim. Polaponni ko'risha... Qaytib keladi. Mana ko'rasiz, nabiramga ziyon yetkazishmaydi.

- Xo'p, ota. Boring, boraqoling, bo'lmasa.

Ergashali polaponni qoyaga olib chiqmoqchi bo'ldi. Qurbon aka unamadi. Baland tepalikka ko'tarilib, yerga oq choyshab yoydi va uning o'rtasiga borib qanot chiqarib qolgan qushchani ikki qo'llab uchirib yubormoqchiday boshi uzra bir necha marta havolatdi, le-

kin erkiga qo'ymadi. Ochiqqan qushcha ota-onasini qidirdanday noliy boshladi. Uning g'azabkor ovozi asta kuchaydi. Qurbon aka qoyalardan ko'z uzmas, bir zum jim qolgan polaponni yuqoriga ko'tarib, jahlini chiqarishda davom etardi.

Ana, havoda bir emas, ikki burgut ko'rindi. Qurbon aka vaqt bo'lganini angladi va polaponni choyshab ustida qoldirib, pastga tusha boshladi. Qushlar ovozni tanigan edi, shunday bo'lsa-da, tepalikka qo'nishga shoshilmadi. Obdon aylanishdi, hech qanday xavf yo'qligiga ishonch hosil qilgandan keyingina erkak burgut birinchi bo'lib bolasining oldiga tushdi. Lekin choyshab ustiga chiqmadi. Polapon qanot silkib joyida turaverdi. Shunda qandaydir ovoz chiqardi, aftidan, bolasini yoniga chorladi. Bu holdan ona burgut xavotirlandi, chog'i, pastlab uchib keldi-da, qanotlari bilan polaponni nari surdi. Choyshabdan tushgan qushcha ikki-uch qadam tashladi. Xuddi shu paytni poylab erkak burgut panjalarini ishga soldi: bolasini changallab osmonga ko'tarildi.

Qurbon aka yengil nafas oldi.

Ergashali qoyaga tikilganicha dong qotib turaverdi.

- Ketdik!

- Qayerga?

- O'tovga.

- O'g'lim-chi?

- O'g'ling ishonchli joyda.

- Dada! Hazilning vaqtimi, hozir?

- Bola o'g'irlatish qalay bo'larkan?

- Dada! Mazax qilmang, iltimos. Men hozir...

- Qayoqqa?

- Qoyaga chiqib...

- Burgutlarning ucha ini bor, qaysi biriga chiqasan?

- Hozir qorni ochib yig'lay boshlaydi. Shunga qarab, qayerda-ligini bilib olaman.

- Shu yerdan qimir etma. Kut! Men suruvning oldiga ketdim. Onang ta'zirini yegandir.

- Nimani kutaman? Qachongacha kutaman? - so'radi Ergashali otga minayotgan dadasidan jahli chiqib.

- Burgutlar bolangni olib tushgungacha.

- Olib tushmasa-chi?

- Ular senchalik bag'ritosh emas.

- Dada!

- Nima, dada? Shaharga ketganidan ko'ra... Qoyada unib-o'sganियam ma'qul menga.

- Yo'q, uni olib tushmasam bo'lmaydi. Mana ko'rasiz, hali zamon keliningiz ham yetib keladi. Men chiqmasam... U o'zini qoyaga otadi. Bu yerda qo'l qovushtirib o'tiraversam, ikkovidan ham ayrilib qolaman.

Ergashali shunday deb yig'lab yubordi.

- Mayli, yig'la-siqta. Ammo yarim soat joyingdan qimirlama. Men tezda qaytib kelaman.

Qurbon aka suruv tomon ot choptirib ketdi. O'g'lining o'kirib yig'lashiga yuragi ezilsa-da, ortiga qaramadi.

\* \* \*

Anchadan keyin osmonda tanish burgut ko'rindi. Biroq uning changalida yo'rgaklangan bola ko'rinmadi. Ergashalining ko'zlari tinib, boshi gir aylana boshladi. Tomog'i qurib, og'ir-og'ir yutindi. Tizzalab olganicha qoyaga tikildi, tikilaverdi. Endi unda birgina ilinj qolgandi: hademay inida qolgan urg'ochi burgut parvoz qiladi va uning o'tkir panjalarida yo'rgak bo'ladi...



ko'rib, erkalab kelishga har qanday mahal, har qanday faslda, izg'irin-u jaziramada imkon topganidan hayratga tushgan, umr daftarlarining bir burchida hamisha uyining bir chetida ko'cha to'ldirib o'ynayotgan bolalarga havas va orzumand tikilib o'tiradigan, oldidan o'tgan har bir bolani uyiga olib kirib, qand-qursalar bilan siylaydigan qiyofada saqlanib qolgan bu o'ksik ko'ngil sohibasiga nisbatan mehrlari yanayam oshgan, men tengilarning deyarli hammasining xotirasida qishloq ko'chalarida yor-yor aytib uzatib kelishayotganda shamol olib qochib ketgan ro'moli izidan yugurib yurganda bo'yni-yu ko'ksini bezab turgan zeb-u gardon jilosida yuzi xuddi to'lin oyday yorishib ketgan kelinchak bo'lib qolgan ayolga nisbatan boshqa hech kim har bir harfida jon-u jahonni o'rtaydigan iddao bilinib turgan bunday so'zlarni yozishga jur'at etolmasdi. Ammam xat yozibdimi, demak, tutingan enamning ahvoli og'irligi rost. Yo'qsa, ammam to'shakka mixlanib qolsa ham, meni bezovta qilishni, tutingan enamni deb shaharga xabar yuborishlariga rozi bo'lmasdi. Enam sho'rlik qo'lini sindirib olganda ham, keyin oyog'ini ololmay bir qish o'rnidan turolmagan-da ham, ammam barcha yaqinlarimizga bu haqda menga bir og'iz bildirmaslikni tayinlagan edi. "Chivin chaqsa ham jivanimni chadirib, sarson qilmanglar, ishdan qoldirmanglar. Do'xtir odamning vaqti yo'qligini o'zlarining ham bilasizlar. U esa do'xtirlarning katasini", deb hammaga o'z hukmini o'tkazganini singlimdan eshitgandim. Ta'til payti qishloqqa borganimda bir yilda sahro jaziramasi-da qovjiragan bo'taday qurib-so'ligan enamni ko'rib, tafsilotini eshitganimdayoq, ammam shu yo'l bilan dunyoda jonidan ham yaxshi ko'rgan va bir umr faqat dardi bilan yashagan akasi – tutingan otam uchun Oyto'ldi enamdan o'ch olayotganini va toki tirik ekan, bunday qasoslar va xo'rlashlar, dashnom-u ta'nalar davom etishini sezgandim. Ammam enamga nisbatan juda shafqatsiz va murossasiz edi. Enam bechora esa ammamni ko'rsa, o'zini qo'yargaga joy topolmay, kalavasini yo'qotib qo'yar, har qanday haqoratli gapini indamay boshini egib eshitar, tutingan otamdan ham ko'ra ammamning tanbehidan cho'chir, har bir so'zini qonun, har bir ishorasini, har bir harakatini o'ziga norozilik deb bilar, ko'nglini olish uchun jonini berishga ham tayyor edi. Ammam, garchi enam

## NAZAR ESHONQUL

1962-yilda Qashqadaryo viloyati Qamashi tumanidagi Tersota qishlog'ida tug'ilgan. Toshkent davlat universitetini (hozirgi O'zbekiston Milliy universiteti) tugatgan. Dastlabki asari – "Urush odamlari" (1988). Shundan so'ng yozuvchining (1989) "Maymun yetaklagan odam" (2001), "Shamolni tutib bo'lmaydi" (2004), "Momo qo'shiq" (2006), "Shaftoli guli" (2011) kabi kitoblari nashr etilgan. "O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan madaniyat xodimi" unvoni bilan taqdirlangan (2022).

## BEPOYON OSMON

Xat qisqa va zardali edi – "Oyto'ldi enang og'ir yotibdi. Joni uzilmasdan kel!" – bunaqa dag'al jumalarni faqat ammam yozdirishi mumkin, boshqa hech kim. Pashshaning qanotiday keladigan shu bir parcha qog'ozda ham Oyto'ldi enamga nisbatan bir umr tark etmagan ta'na-yu dashnomini, o'zining azaliy munosabatini bildirish uchun "Oyto'ldi enang" deya istehzo qilgani va bunday piching-u kinoyalar faqat ammamning qo'lidan kelishini xatni o'qigandayoq tushungan edim: asli menga yanga bo'lgan, lekin keyinchalik dadam va onamning xohishi, sa'y-harakati bilan faqat mening emas, o'zining yuvoshligi, jonsarakligi, tilidan "jonim", "jonim" tushmasligi, teng-to'shlarimning hammasini "o'zinning bolam" deb erkalashi tufayli barcha qishloq bolalarining ham tutingan onasiga aylangan, ular ulg'ayib, hayotning tashvishlariga o'rallashib qolib, o'z jujuqlariga ham mehr berishga vaqtlari yetmay qolgach, Oyto'ldi enamning qishloqdagi har bir norasidaga mehr berishga, ko'nglini olishga, bironta bola og'rib, yotib qolganini eshitsa, pishiriqlar-u tabibchilikdan andak xabardor bo'lgan otasidan o'rgangan qaynatmalarni damlab, birpasga bo'lsa ham

o'zining jamalakdosh tengdoshlaridan, bolalik so'qmoqlarida birga o'ynab o'sgan dugonalaridan bo'lsa ham, bu uyda o'zini xuddi qaynonalarday tutar, kira solib tagiga qalin, toza ko'rpacha tashlashini namoyishkorona kutib turar, so'ng agar amakim yo erkak kishi bo'lmasa, xuddi bu uyning sohibasi va bekasiday uyning to'riga chiqib o'tirar, enam esa tik turganicha uning har bir imosiga mahtal turar, ammamning sansirab gapirishiga qaramay, "opajon" deb murojaat qilar, bu uyning xo'jasi tabiatan o'zi kabi yumshoq fe'l, yuvosh va kamgap bo'lgan amakim - tutingan otam emas, butun qishloqda o'zining tutgan yeridan kesishi, zaharli tili-yu, kim bo'lishdan qat'i nazar, odamning betiga tik qarab, shartta gapirishi, odamlarni yuzing-ko'zing deb o'tirmasligi bilan nom qozongan ammam edi. Ba'zida dadam, ammamni murosaga chaqirardi: "Huv, Bibi Oyna, kelinni bunchalik xo'rlama. U uyning o'z egasi bor. U uyga borib erlik qilma!" Shunday paytlari ammam birdan ko'ziga yosh olardi: "Og'ajon, men kuyib ketganimdan shunday qilaman. Akamning yuziga qarab, yuragim o'rtab, jigirim quvrab qoladi. Akam bechora kunma-kun emas, soat sayin cho'kib borayapti, tirnoqqa zor o'tayapti. Bu erkatoy keliningiz esa tug'ay demaydi! Akamni boshi egik ko'rgan sayin keliningizni g'ijimlab, ezig'ilab tashlagim kelaveradi!" Bu vaj dadamga ta'sir qilar, indamay qolar, lekin baribir "Xudoning ishiga aralashma", - deb qo'yardi. Bu gap ammamni yanada qo'zg'ab yuborardi: "Agar gap faqat Xudodan bo'lsa indamasdim, lekin hamma ayb Oyto'ldining o'zida. Bu qorabosgurning o'zi qisir! Agar akam boshqaga uylanganda, allaqachon bir to'da bolali bo'lib ketardi". Dadam ham boshini egib, chuqur xo'rsinardi. Mening nazarimda har qanday ish qo'lidan keladigan, yo'qni ham bor qila oladigan kuchga ega bo'lgan dadam ham shunday paytlari o'jiz va notavon qiyofaga kirar, ammamga boshqa hech narsa demasdi. Oyto'ldi enamning mana shu uyga kelin bo'lib tushgandan - ammamning tili bilan aytganda, "sichqon yilidan" buyon farzand ko'rmayotgani uyimizda deyarli har kuni shu xil gap-so'zlarga sabab bo'lar va hamisha shunday xo'rsiniqlar, ammamning hamisha tayyor turadigan ko'z yoshlari-yu piqillashlar bilan yakun topardi.

Amakim bilan bir hovlida yashardik. Ularning uylari hovlining etagida edi. Ammo butun hovlining supur-sidiridan tortib, mollarga beriladigan yem-xashakkacha Oyto'ldi enamning zimmasida edi. U o'ziga ishonib topshirilgan xonadonni tirnoqqa zor qilayotgani uchun ham shunga mahkumday edi. Buni hech kim tovush chiqarib aytmas, biroq uning boshi ishdan chiqmayotganini bilib-ko'rib tursa ham, bu yumushlarning yarmi bizning, bolalarining vazifamiz ekanini bilishsa ham na dadam, na onam bir og'iz biron narsa demasdi. Go'yo shu bilan ammamning enam haqidagi gaplarini tasdiqlashganday, qo'llashganday bo'lardi. Shunday paytlari dadam ham aslida Oyto'ldi enam haqida ammam kabi o'ylashini, faqat buni tovush chiqarib aytmasligini sezib qolardim. Men amakimning uyida bola yig'isi eshitilmayotgani sababli ham yangam o'zini bu xonadon oldida aybdor deb bilishini, aybdorligini o'ziga bo'lsa ham yengillatish, yumshatish uchun uydagi eng qora ishlarni, pana-pastqamda qo'ni-qo'shni ayollardan eshitganim "bo'rib-turgan cho'rilik"ni ham zimmasiga olganini sezardim: bu ishlardan biron marta nolimas, aksincha kuch-quvvat olayotganday, bu ishlar uning faqat ko'ngli emas, qaddini ham bukib qo'ygan dard-u an'uhini yengillatayotganday tuyulardi. Men bu ayolning qachon turib, qachon uyg'onishini shuncha yillar birga yashab hech ko'rmanman: tunning qaysi mahali bo'lishidan qat'i nazar men uxlayotganda enam hali uyg'og' bo'lardi, ertalab tong saharda turgan paytlarim ham enam o'choq boshida kuymanib yurardi: biz bolalarga xom sutning qaymog'i, keyin qaynagan sutning tagida qolgan qasnog'ini o'z vaqtida tayyor qilib qo'yar, keyin bizning uni talashib-tortishib yeyayotganimizni ko'rsa, ko'zlari quvonchdan yonib ketar va yana boshqa ishlar bilan andarmon bo'lardi. Men enamning charchaganini, birpas bo'lsa ham nafas rostlaganini deyarli ko'rmasdim. Enam hamisha harakatda, hamisha nima bilandir ovora, nima bilandir mashg'ul edi. Biroq uning hovlini yog' tushirsa yalagudek supurib-sidirganlari ham, uy-ro'zg'or uchun erta-yu kech jonini jabborga betishlari ham ammamning butun qishloqning har bir ko'chasida, har xonadonda tug'kabi hilpirab turadigan tilimi tiyolmasdi. Ammam har ikki kunning birida uning befarzandligini

eslatib turardi: "Siz tug'masni deb akamning armonda o'tishini is-tamayman, agar tug'masangiz, akamni boshqaga uylantiraman!" - derdi. Aynan ammamning undovi bilan Katta O'rada amakim va Oyto'ldi yangam bormagan avliyo-yu, aziz joylar, tabib-u folchilar qolmagandi. Lekin biron-tasidan naf bo'lmadi, chog'i. Ammamning tili tobora yechilib borar, endi bu tug' qo'shni qishloqlarda, bizni, amakimni, dadamni bilgan barcha joyda hilpirardi. Agar Oyto'ldi yangam hovli supurayotgan, biz suv sepib turganimizning ustiga kelib qolsa, shundan ham yangamni uzib oladigan sabab topardi: "Belingiz og'rib tug'magansiz-da, shunday sovuqda bolalarga suv sepdirayapsiz. Qo'ying, bola shamollab qolmasin, o'zingiz seping. Baribir shamollaydigan narsa yo'q sizda!" - derdi. Yangam bir zum titrab ketar, lekin tezda o'zini tutib olib, bir og'iz gapirmay, qo'limizdan suv idishni olib, o'zi sepinga tushardi. Biz esa yumushdan qutulganimizdan xursand bo'lib, ko'chaga yugurardik. Ammam yangamni hamma joyda, ko'chada, uyda, mehmonda, to'yda, azada bir ohangda, bir xil muomala bilan ta'qib qilar, ammo yangam biron marta ammam ustidan na dadamga, na amakimga shikoyat qilgan emasdi. U menga hamisha o'zining aybini bilgani uchun bu haqorat-u xo'rliklarga chidab yashayotganday, bizning avlod-ajdo-dimiz oldida aybdorday tuyulardi.

Aqlimni hali to'la tanib-tanimagan yoshimda dadam bir kuni meni yoniga olib, hovli etagiga, bobom kenja o'g'limga deb qurgan amakimning uyiga olib bordi. Amakim va yangamni oldiga chaqirdi-da, menga "Endi, o'g'lim, siz bu uyning farzandisiz, bularni otana deb chaqiring", - dedi sizlagancha. Dadam bolalarni "siz'ladi-mi, bo'ldi, onam ham, boshqalar ham, hammamiz buning nima ekanini bilardik. "Siz"lash dadamning "Bu masala hal bo'lgan, muhokama qilmanglar", - degani edi. Men xarxasha qildim, qanday qilib yangam menga ena bo'ladi degan, o'zimcha yig'lagan bo'lsam ham kerak. Yangamning aytishicha, mening yig'i-sig'imga dadam parvo qilmabdi. Onamga "Kiyim-kechak, lash-lushini olib kel, shu yerda yotib yursin", - deb chiqib ketibdi. Yig'lay boshlaganimda Oyto'ldi yangam, endi tutingan enam kelib, meni bag'tiga bosibdi, keyin o'zi ham qo'shilib yig'labdi. Men uyimizga qarab choptibman. Onam ushlab qolib, "Seni dadang amakimga o'g'li

qilib berdi, uch kungacha uyga borma, irimi shunday, yangam tuqqandan keyin qaytarib olib ketamiz", - debdi. Bu gap menga ota-onangdan ajralding deganday ta'sir qilib, xuddi ulardan bir umr ayrib qoladigandek dod solib yig'labman, uyni boshimga ko'taribman. Onam esa ovsiniga qarab, ko'zida yosh bilan: "Bu endi sizning o'g'lingiz, uyingizda bola yig'isi muborak bo'lsin, iloyo, o'z bolangizning yig'isi ham eshitilsin!" - debdi. Yangam, tutingan enam qand-qurs berib, meni avrashga tushibdi. Nima qilganini bilmayman, lekin Oyto'ldi enam mening ko'nglimni baribir topibdi: men uning quchog'ida piqillagancha cho'ntagim to'la qand-qurs bilan uxlab qolibman. Bularning hammasini menga keyinchalik ammam aytib bergandi. "Bu qora bosgur, o'zi tug'magan bo'lsa ham bolaning tilini biladi", - derdi ammam alam bilan. Tutingan enamning quchog'ida o'sha uxlab qolganim meni bir umr amakim, ya'ni tutingan otam va enamga bog'lab qo'ydi. O'shanda dadam bu uyda boshqa farzand tug'ilmasligini sezganmi yoki qariyalarining "Tug'mas ayol bola parvarish qilib, bolaning isini olsa, tug'ib ketadi", - degan irimi uchun meni amakimga o'g'ilib berganmi, haligacha aniq bilmayman. Ko'pincha kechalari onamni qo'msab uyg'onib ketib, "Uyga ketaman!" - deb yig'larkanman, enam meni ovutish uchun istagan narsamni olib berar, og'zimdand chiqqanini muhayyo qilarkan. Ertasiga esa kechasi qilgan xarxasham evaziga uyimizda menga va'da qilingan o'yinchoqlar, shirinliklar, konfetlar paydo bo'lib qolardi. Aynan shuning uchun ham men akalarimga va tengdoshlarimga qaraganda ertaroq, o'sha paytda bolalarning ko'ziga o'tday ko'ringan yulduz to'g'ali kamar, katta o'yinchoq mashina, keyinchalik qishloqning oldi bo'lib velosiped minganman. Taltayib ketayotganim yaqinlarimga bilingan bo'lsa kerak, ammam bu marta ham Oyto'ldi enamni malomatlarga ko'mib tashladi: "O'zingiz-ku, tug'maysiz, lekin birov tuqqan bolani buzayapsiz. Buni ko'p erkalatmang, ertaga boshingizga chiqib oladi, oldin o'zingiz tug'ing-da, keyin taltaytiring!" - dedi. Shundan keyin enam men aytgan narsalarni yashirib olib keladigan, yashirib yediradigan, yashirib o'ynatadigan bo'ldi. Men bu narsalarni ko'chaga chiqib maqtangim kelganda: "Ammangiz ko'rib qolsa, mening jonimni oladi. Ammangiz urishmasin desangiz, ko'chaga

chiqarmang, shu uyda o'ynang!" - derdi. Enamning ammamdan cho'chishlari, yurak hovuchlashlari mening ham bola xayolimga o'tirib qolgandi: uzoq yillar, toki aqlimni tanigunimcha ammamdan hamisha cho'chib, qo'rqib, qorasini ko'rsam, qochib qolib, uyga kelganda uni ko'rmalik uchun ichkariga kirib ketib, toki ammam ketmaguncha uydan chiqmay yurganman. Ba'zida to'satdan kelib qolganda, o'zimni enamning bag'riga urib, yig'lab yuborarkanman. Keyinchalik bu holatimdan, ammamning olabo'jiga ham, xayolim-dagi qo'rqinchili jonzotlarga ham hech qanday aloqasi yo'qligini anglab, o'zimning ustimdan kulib yurgan bo'lsam ham, lekin enam bir umr ammamdan qo'rqib, titrab-qaqshab, boshini egib yashadi.

Men endi amakimni "ota", yangamni "ena" deyishga ko'nikib, esimni tanib qolganimda yoz kunlaridan birida ammam dadamning oldiga yoqasi tik oq ko'ylak kiygan yigitni boshlab keldi. Ular xonaga kirib, negadir biz bolalarni ko'chaga chiqarib qo'yib, uzoq gaplashishdi. Keyin yigit ammam bilan birga qaytib chiqib, biz bilan iliq xaytlashib ketdi. Yigitning ochiqligi, shirinso'zligi, "tog'avachcha" deb murojaat qilishi, umuman, muomalasi, meni o'ziga rom qilib qo'ydi: uning iliq tabassum balqigan navqiron qiyofasi bir umr xotiramda o'rnatilib qoldi. Bu yigit ammamning ovsiniga katta o'g'il, ya'ni bizga uzoqroq qarindosh, jiyan ekanini ancha kunlardan keyin bildim. Uyimizda boshlangan mojarodan Jiyan bekorga kelmaganini tushundim. Ammamning ovsinining ay-tishicha, Jiyan Toshkentda bir mashhur do'xtirni tanir ekan, o'sha do'xtir tug'maslarni ham bir ko'rishda tug'dirarkan, hech bo'lmaganda, tug'ish-tug'masligini aytarkan. Xullas, naq avliyoning o'zi ekan. Qancha befarzandlar sabab topib, uvali-juvali bo'lib ketibdi. Do'xtir xotinlarning qadam bosishiga sinchilik qilarkan, buning uchun er-xotin birga borib, birga ko'rinishi, barcha tekshiruvlardan birga o'tishi shart ekan. Faqat shu. Boshqa hech narsa kerak emas. Bu xabarni eshitib, Oyto'ldi enam biroz dovdirdi. Biron tugal gap aytmay yana yumushlarga unnab ketdi. Ammam uni darhol chaqib oldi: "Ayb o'zidaligini biladi-da, shuning uchun gezarib ketdi. Aybi fosh bo'lib qolsa, bunday yayrab yurishiga qo'yib bo'pman! Do'xtir menga o'sha bir parcha qog'ozini bersin, bir kun ham qo'ymayman, qarindoshlariga olib borib ko'rsataman, "Mana,

Isparapka, bizga o'tkazgan matohlaring tug'mas ekan!" deyman, shunda akamni boshqaga uylantirmasam, Bibi Oyna otimni boshqa qo'yaman!" Ammam yangamning tug'masligi haqidagi shapaloq-day hujjatga ega bo'lishni, keyin shu qog'ozni ko'rsatib, amakimning pushti sog'lomligiga shubha qilyotganlarga, kerak bo'lsa, butun dunyoga ko'z-ko'z qilib chiqishni, shu yo'l bilan akajoni sha'niga nisbatan paydo bo'lgan har xil gap-so'zlarning oldini olishni va yana qishloqda obro'-e'tiborlari baland bo'lganligi sababli balki dadam ham aynan qat'iy bir xulosaga kelishi qiyin bo'layotgan yangamning yaqinlariga ko'rsatib, masalani shu birgina hujjat bilan birpasda hal qilishni juda istardi. Dadam bosiq, vazmin kishi edi. Qolaversa, yangam Tersotaning eskicha an'analariga, eskicha munosabatlarga hali ham sodiq qolgan obro'li xonadonidan edi. Dadam "Quda bobo otliqlar bilan gaplashmasdi, lekin bizni o'ziga teng bildi", - derdi ba'zida. Yangamning otasi bobom bilan nafaqat quda, balki yaqin oshna bo'lib ham qolgandi: dadam bobom tufayli yangamning barcha qarindoshlarini o'z jigariday ko'rar, ammam qanchalik og'zini to'ldirib gapirmasin, dadamning oldida ko'pam yechilib, olovlanib ketavermasdi. Dadamning aytishicha, umri egarchilik bilan o'tgan, obro'-e'tibori ham shunga yarasha kamsuqum bobom amakimning talabi bilan qarindosh bo'laylik deb, sovg'i bo'lib borganda, yangamning otasi qizimni so'rab kelibsiz, jonimni so'rasangiz ham berardim sizlarga, degan ekan. Buning sababi bizning ota-bobalarimiz bir umr egarchilik kasbidan ro'zg'or tebratib, shuning orqasidan rizq terib kelgani ekan. Quda bobo hunar egalarini, ayniqsa, hunarli sulolalarni juda hurmat qilarkan. Qanchalik obro'-e'tiborlari baland bo'lmasin, oddiy egarchi bobomni xuddi o'z jigariday ko'rgan ekan. Dadam bu voqealarni ba'zan xo'rsinib, ba'zan mehri tovlanib xotirlardi: mana bir necha yildan beri bobom tufayli o'ziga otaday bo'lib qolgan odamning tug'mas qiziga chidab kelar: go'yo bir narsa deb qo'ysa yoki yangam norozi bo'lsa, xuddi go'rda bobom bilan quda bobo shoxa ko'tarib chiqib keladiganday, bu masala qo'zg'alanda juda og'rinar, xo'rsingancha yechimni orqaga tashlardi.

Sezishimcha, keyingi paytda dadam ham bir qarorga kelib bo'lganday edi. Shu sababli shaharlik do'xtirning daragi chiqqach,

dadam amakimni shaharga borib, ko'rinib kelishga unday boshladi. Bu taklif amakimga boshdanoq xush kelmadi. Dastlab oyoq tirab turib oldi. Ammo o'jar, qaysar, akalari ichida gapni qaytmay o'rgangan ammam amakimdan ham o'tgan qaysar edi. Bir ishga ahd qildimi, oxiriga yetkazmasdan qo'ymasdi. Ammam gapni ochiqchasiga ko'ndalang qo'ydi: "Otamning go'rga kirganiga yetti yil bo'lgan oshnasi deb yetmish yil chidamaymiz. Yetar shuncha yil sabr qilganimiz. Agar shu bilan ham qo'zilamasa, bu tug'mas xotindan ajralasiz, boshqaga uylantiramiz. Nima, boshingizga yostiqliqlaringiz bu bepushtni?! Buning ko'zini o'ynatib, bir farzandli bo'ling".

Bunaqa gaplardan mutaassir bo'lib, biri mingga aylangan amakimning gung-u mulzam bo'lib, boshini egib o'tirganini ko'rganida, ammamning fig'oni mo'risidan qop-qora tutun chiqib ketardi: "Qanday odam edi-ya, akaginam! - derdi ko'zlariga yosh olib. - Qorasi ko'rinsa, iltar hurkardi, tovushini eshitsa, bo'rilar qochib qolardi, qarashidan burgut behol bo'lardi. Ot chopganda qirlar o'pirilardi. Bu tug'mas echki akamning boshini egdi-qo'ydi. Boshini ko'tarolmay, atrofga qaray olmay qoldi. Ko'nglini yarim qildi". Xullas, yig'lab-siqtab, kerakli joyda do'q urib, ammam yangam bilan amakimni o'sha do'xtirga borishga baribir ko'ndirdi. Nihoyat, yangam bilan amakim shaharga o'tlanishdi. Ularni shaharda "Talaba jivan kutib oladi, o'zining votog'idan joy gaplashgan, o'sha yerda turib, do'xtirga qatnashadi, jivan o'qishni deyarli bitirgan, diplom berishlarini kutib yuribdi, g'irt bekorchi, o'sha do'xtirga o'zi olib borib-kelib yuradi. Xullas, hech narsadan xavotir olish kerak emas. Hammasi hal bo'lgan, hamma narsa gaplashilgan, faqat do'xtirga ko'rinish qolgan, xolos". Yangam va amakim ammamning talabi bilan bo'lsa-da, shahar so'rab ketishdi, lekin bu bilan ham ammamning jag'i tinmadi: dadamning ham keyingi paytda amakimning taqdiridan qayg'urib, boshi qotayotganidan foydalanib, ichidagini baralla gapira boshladi: "Agar ayb Oyto'ldida bo'lsa, haydataman, qarindoshlari kelib, tug'mas jigalarini yig'ishtirib olib ketsin! O'sha hujjat qo'limga tegsin, hammaga ko'rsataman uni. Ana shunda ularning ori bo'lsa, kelib yig'ishtirib ketishadi!" Hamma ammamning gapini quruq po'pisa deb bildimi

yoki yangamning yaqinlari haddan tashqari sabrlimidi yoxud ammam aytganday, tug'mas ayolning ularga ham keragi yo'q-midi, ichi achir kishisi qolmaganmidi, bilmadim, har qalay, bu gaplarga "Hoy, nima deyapsan, tilingni tiy!" - deguvchi mardning o'zi chiqmadi. Qolaversa, butun qishloq yangamdan farzand kutib, toqati toq bo'lgan, shu sababli ammam nima desa, hukmi hoziq bo'lib eshitilar, ayni paytda dadam yoki ammam chiqqan har qanday qarorni baribir adolatti, deb hisoblardi. Ammam bundan yanada botirlanib, qat'iyat bilan gapira boshladi. Oxiri dadamni ham ko'ndirdi. Agar tug'masligi aniq bo'lsa, unda amakimni boshqaga uylantiradi. "Mayli, agar bobomning va oshnasining ruhi chirqillamasligi uchun, agar o'zi rozi bo'lsa, ko'chada qolmasin, akam va quyonday har yili tug'adigan xotining xizmatini qilib yuraversin. Tug'mas bo'ldimi, u shunga loyiq. Bolaning ishtonlarini yuvib, shiptir hidlab yursin. Uning jazosi shu bo'ladi".

Endi yangam tug'masligi aniq bo'lsa, o'sha do'xtir yangamning tug'masligini hujjat qilib, tasdiqlab bersa, unda amakimni boshqaga uylanishi endi butun Tersotaga ma'lum bo'lib qoldi. Imi-jimida bo'lajak nomzodlar ham tanlab bo'lingandi.

Amakim va yangam qaytib kelishganda, men maktabda edim. Uyga kelganimda dadam, ammam shu yerda, hamma xuddi bir fojia yuz berganday o'tirishar, men shuncha kunlardan beri kutganday xush-xursandchilikdan asar ham yo'q edi: Oyto'ldi yangam bir chetda xuddi ayb ustida qo'lga tushganday omonat o'tirardi. Ular uyga kirganimni ham sezishmadi. Men ham vaziyat qaltisligini, hozir yangamga kelganimni bildirishimning mavridi emasligini his qildim. Sekin pechka ortiga o'tib, yangam, tutingan enam meni ko'rib qolarmikin, deb kutib turdim: shahardan osma sumka olib kelaman degandi. Yangamning va'dasida turishini bilardim. Ammo hozir buni so'rash mavridi emasday edi. Ammamning yuzida: "Ana, men aytmadimmi?!" - degan iddao qotib qolgan, chimrilib olgan, yangam endi nima qilsalaring - ixtiyorlaring, deganday ko'zlarini ko'rpaning qurog'iga tikib jim o'tirar, amakim esa hamishagiday boshini eggan ko'yi chuqur sukutga tolgandi. Men darrov nima gapligini tushundim. Demak, amakim va yangam

ammam kutgan va bilgan, hammaga oldindan oshkora bo'lgan xabar bilan kelishgan.

Dadam xuddi quloqlariga ishonmaganday so'radi:

- O'zi, o'sha jiyani aytgan do'xtirga bordilaringmi? Boshqasi emasmi?

Amakimga so'rab-surishtirishlar malol kelayotganday edi:

- Nima, biz yosh bolamidik, boshqasiga borib. Ismi-sharifi, manzili o'sha ekan. Jiyanning o'zi olib bordi.

- Xo'sh, unda aniq shunday... Shunday dedimi?

Dadam "Bola bo'lmaydi dedimi", - deydishdan cho'chidimi, bu gapdan irim qildimi yoki amakimning ko'ngliga tegishdan qo'rqdimi, ichidagini, bor alamli savolini "shunday" degan so'zga jamlab gapirdi. Amakim dadamning nima demoqchiligini sezdi, yangamga bir qarab olgach, birpas sukutdan keyin baribir gapirdi.

- Do'xtirning o'zi menga hech narsa degani yo'q. Tekshiruv natijasini olamiz deb borsak, oldin jiyani kirib ketdi, keyin kelinimgizni chaqirishdi. Uchalasi uzoq gaplashdi. Kirsam, do'xtir yo'q, jiyanning oldida yig'lab o'tiribdi. Nima gap desam, jiyani ham biron gap aytmadi, o'zini olib qochdi. Bu esa yig'lab: "Ayb menda ekan, endi men tug'mas ekanman", - dedi. O'shandan beri yo'l bo'yi yig'lab keldi. Bor gap shu.

Dadam endi yangamga qaradi.

- Oyto'ldi, do'xtir aniq shunday dedimi?

O'zining og'ir xayoliga, ehtimol, ammam aytganining ustidan chiqsa, amakimni boshqaga uylantirsa, taqdiri nima bo'lishini tasavvur qilib, ezilib o'tirgan yangam dadamning gapidan so'ng, javobdan oldin chuqur xo'rsindi. Umuman, yangam dadamni ayri-richa hurmat qilar, hech qachon tik qaragan emasdi. Bu safar ham boshini eggancha, ming bir xijolat, aybdor ohangda javob berdi.

- Ha...

Ammam yana tutaqdi.

- Qani o'sha do'xtir bergan qog'ozlar. O'zimizning do'xtirlarga ham bir ko'rsataylik. Do'xtir tilini do'xtir biladi.

Amakim yangamga bir ko'z tashlab oldi.

Yangam esa boshini eggancha bosh irg'adi.

- Qog'oz yo'q. Jiyani... Jiyani ularni olib qoldi.

- Olib qoldi?! Jiyani qog'ozni nima qiladi?

Yangam, aftidan, har qanday jazoga tayyor turardi. Shu sababli bu safar ammamga biroz qattiqroq ohangda javob berdi.

- U kishi... boshqa do'xtirlarga ham ko'rsataman, deb olib qoldi. Balki o'sha... do'xtir yangilishgandir dedi...

Ammam birdan tutaqib ketdi.

- Yana qaysi do'xtirga ko'rsatadi? Toshkentning eng zo'r do'xtiriga ko'ringan... Yo sen... siz do'xtirning qog'ozini bizdan yashirib keldingizmi? Yashirib nima qilasiz, shundayligini do'xtir-siz ham o'zimiz bilardik.

Ammam tizzasiga urib, diydiyo qilishga tushdi.

- Shuncha umr-a.. Shuncha yil-a.. Akamning shuncha yili havoga uchib ketdi..

Yangam bu gapga biron narsa deb e'tiroz bildirmadi. Indamadi. Buni ammam o'zicha tushundi.

- Agar qog'ozlarni berib kelib, bizni yana umidvor qilib, vaqtni cho'zaman, deb niyat qilgan bo'lsangiz, adashasiz. Menga o'sha do'xtirning gapini yetadi. Ana o'zingiz aytayapsiz, do'xtir hamma ayb senda, dedi deb. Yana nimani kutaymiz, aka, o'zi bo'yniga olib o'tiribdi. Tug'maysan dedimi, bo'ldi, ayb sizda ekan. Menga qarang, aka, endi men sabr qilolmayman. Og'amning umri o'tib borayapti. Uylantiramiz, tamom-vasalom!

Dadam chuqur o'ylanib qoldi: bir qarorga kelishi qiyin bo'ldi. Keyin Oyto'ldi yangamga qarab olib, ko'zlarini boshqa yoqqa oldi. "Balki, rostdanam do'xtir adashgandir?!" - dedi ikkilanib. Bu gap ammamga tutab turgan o'choqqa tutantiriq tashlaganday ta'sir qildi: "Do'xtir adashsa, aziz-avliyolar adashsa, tabiblar adashsa, kimga ishonasiz yana?! Ana, o'zi aytayapti-ku, ayb menda ekan, do'xtir shunday dedi, bu aniq deb. Yana siz nega ikkilanayapsiz, aka? Yana nima kerak?! Bo'ldi, men Xaniyaga sovg'ini bo'lib boram! Gapim gap!" - dedi. Bu paytda Oyto'ldi yangam boshini egib turardi. Shu turishda ancha paytgacha boshini ko'tarmadi. Uning yuzidan tosh-u shag'allarga, xas-u xashaklarga, ko'chki-yu loyqalarga qo'shilib bir qir sel oqib tushayotgandek tuyuldi menga. Yangam yig'lardi. Sekin, unsiz yig'lar, yig'laganini ham bildirgisi kelmas, ammo ko'z yoshlari yuzini yuvib o'tar, qo'lidagi ro'mol-

cha ham allaqachon shilqillab ho'l bo'lib qolgandi. Yangam sekin o'rnidan turdi, birpas tik turib qoldi, ammamga qaramadi ham, taqdirga tan bergan ohangda:

— Mayli, opa, agar shuni ma'kul ko'rgan bo'lsangiz, uylantiring, men roziman, — dedi va chiqib ketdi.

O'rtaga birpas sukunat cho'kdi. Ammam shuncha qarg'ansa ham, yer bilan bitta qilsa ham, bu uyda o'rni ham, o'zi ham yo'q deb hisoblasa ham, yangamning bunchalik tez rozi bo'lishini kutmagan edi: biroz dovdirab qoldi.

Bir dadamga, bir amakimga qaradi. Yangam dadam uchun ham qaror chiqarib bo'lgandi. Dadam o'rnidan turdi. Eshikka yo'naldi. Ammam o'zini tutib turolmadi. "Nima deysiz, aka. Endi bir yoqlik qilaylik!" — dedi. Dadam ham yangam kabi bir zum tik turib qoldi. "Bilganingni qil. Ana, Oyto'ldining o'zi ham rozi bo'layapti-ku! Yana senga nima kerak?!" — dedi alam va anduh aralash. Ammamga shu gap kerak edi: endi barcha mas'uliyatni bo'yninga oldi, harakatida, yuzida qat'iyat paydo bo'ldi. "Unda mening o'zim ishni bitiraman. Kelasi oyda tushirib kelamiz. Ortiqcha xarajat, dov-doska kerak emas. Irim-sirimini qilamiz, xolos. Nikoh o'qitsak bo'ldi!" Dadam bilganingni qil deganday eshikka qarab yurdi. Ostonaga yetganda amakimning xuddi sirli g'or ichidan kelayotgan guldurakdek ovozi eshitildi. "Men boshqaga uylanmayman. Ovora bo'lmanglar!" Ammam amakimga yalt etib qaradi. Poyabzalini oyog'iga ilayotgan dadam esa ortiga burildi, amakimga ko'z tashladi. Ostonadan turib, "Xo'sh, bunga nima deysan?!" — deganday ammamga nazar qildi. "Aka, nima deyapsiz? Befarand o'taman deyapsizmi?!" Ammamning gapida murosa va madora ohangi bor edi. Amakim endi boshqa gaplarga o'rin qoldirmay dedi: "Mayli, peshonamdan ko'raman. Oyto'ldi tug'sa ham, tug'masa ham, qo'yamayman, boshqaga uylanmayman ham. Mening qo'yadigan xotinim yo'q!" Dadam bilan ammam amakimning e'tirozini kutishgan edi, ammo bunchalik qat'iy ohangdagingisini emas. Amakimning gapini faqat e'tiroz emas, hukm ham edi. Buni dadam ham, ammam ham yaxshi bilishardi. Amakim yuvosh odam bo'lgani bilan bir fikrga kelsa, uni hech kim bu yo'ldan qaytarolmasdi. Dadamning aytishicha, amakim yangamga ko'ngil qo'yib, shu qizdan boshqa-

siga uylanmayman, deb oyoq tirab turib olganda, bobom u xonadon bizning tengimiz emas, ular boobro', zotli-zurriyodli, nasl-nasabli, bizni nazarlariga olisharmikin, deb ikkilanib yurgan, bir nechta qizlarni ko'rsatishgan, amakim esa shu qizdan boshqasiga uylanmayman, deb oyoq tirab turib olgan, oqibatda bobom ming bir istihola bilan yangamning otasining oldiga sovcilikka borgan. Dadam hamisha o'shanda shundan boshqasiga uylanmayman, deb turib oldi-da, buning o'jarligi qo'zisa, o'lsa ham fikridan qaytarib bo'lmaydi, derdi. Hozir ham shunday bo'ldi. Amakim yana o'sha o'jarligiga qaytgandi. Endi muhokamaga o'rin qolmagandi. Buni dadam sezdi, sezdi-yu, qismat va bu o'jarlik oldida o'jizligini his qilib, indamay chiqib ketdi. Ammam dod-voy qildi, boshini aylantirib olgan, deya yana yangamni ayblay boshladi. Shahardan kelguncha, akamning qo'ynini puch yong'oqqa to'ldirgan, va'dalar bergan, avragan, issiq-sovuq qilib olgan, dedi. Ammo endi bu gaplarning birontasi amakimga ta'sir qilmasdi. Aftidan, amakim bundan keyingi hayotini belgilab, ahd qilib, hammasini hisob-kitob qilib, barchasiga rozi bo'lib bo'lgandi.

Shundan so'ng ammam qanchalik harakat qilmasin, amakim o'z so'zida turib oldi. Ammam o'zini o'jar, qaysar va fikridan qaytmadigan, deb hisoblard. Biroq mening tutingan otam undan ham o'jar chiqdi. Ammam yangamga, uning qarindoshlariga ko'z-ko'z qilish, amakimda ayb yo'qligini tersotaliklarga va tersotalik bo'lmaganlarga — har bir tanish-notanishga ko'rsatish niyatida jiyanda qolib ketgan tashxis qog'ozlarini olib kelish uchun ovsinikiga zir qatnab yurdi. Aksiga olganday, bu paytda jiyani ham olis viloyatga ishga yuborilgan, ovsinining aytishicha, o'g'li ko'ch-ko'roni bilan o'sha viloyatga ketgan, qog'ozlar qayerda qolganini eslay olmas emish. Ammo tezda shaharga qaytsa, o'sha do'xtirga o'zi uchrashib, qaytadan yozdirib olarmish. Oqibatda ammam odamlarga ko'z-ko'z qilib, amakimning va yangamning tilini hujjat bilan ham qisq qilish imkoniyatidan mahrum bo'lgan esa-da, amakim va yangamni ajratish uchun jon-jahdi bilan harakat qildi: endi o'sha qog'ozning o'rmini ammamning bir parcha tili bosardi, zotan ammamning tilidan o'tadigan, undan ta'sirlanib va asosliroq boshqa hujjatning o'zi yo'q edi. Amakimni fikridan hech kim, hatto ammam yalinib-yolvorib,

oraga tushishni iltimos qilgan yangamning aka-ukalari, opalari ham qaytarolmadi. Oyto'ldi yangam ham bir necha marta uyiga ketib qoldi. Oylab yolg'iz qolsa ham amakim bir o'zi, bo'ydoqday yashayverdi. Boshqaga uylanishdan bosh tortdi. Yangam ketgan kunlari ovqat ham yemay, uyga qamalib olardi. Hech kim bilan ko'rishmasdi, hech kim bilan gaplashmasdi. Oxir-oqibat dadam ammamga "Yetar, bilganini qilsin. Baribir u aytganidan qolmaydi. Peshonasida borini ko'rsin! Buyog'i Xudoning ishi. Uning karomati keng, mo'jizasi ko'p!" - dedi. Ammam yangamni uyiga jo'natib yuborishiga qanchalik jon kuydirgan bo'lsa, qaytarib kelishga yana shuncha jon kuydirishiga to'g'ri keldi. Nihoyat Oyto'ldi yangam uyimizga qaytib keldi. Ammam ham ismini o'zgartirib o'tirmadi: uning bu gaplari yillarning zalvorli qadamlari, hayotning shiddatli evrilishlari, amakim bilan yangamning mo'jiza kutib, qartayishlari orasida ko'rinmay qoldi, o'zining ham, odamlarning ham esidan chiqib ketdi.

Nima bo'lgan taqdirda ham men esimni amakimning - tutingan otamning uyida tanidim. Bu uyda qolishim ham, meni iskab-hidlab parvarish qilishlar ham foyda bermadi: bu xonadonda farzand tug'ilmadi. Amakim va enam bir-birlariga juda mehribon, bir-birlarini so'zsiz tushunishar, ularning yurish-turishlari xuddi ku-kulab don terib yurgan bir juft musichani eslatardi menga. Bu ikki musicha uzoq yillar bir-biriga dalda bo'lib, taqdir yuklarini birga ko'tarib, anduhlarga birga dosh berib, birga yengib, umr so'qmoqlaridan yelkama-yelka suyanib o'tishdi. Amakim biron ishini ham enamsiz qila olmasdi. Hatto ot egarlayotganda ham enam abzalni tortib turardi. Biron ish qilsa, yarmini enam qilardi. Ular hamisha birga, bir paytda turishar, bir paytda yotishar, bir paytda ovqatlanishar, birga dalaga chiqib ketishar, birga qaytishar, xuddi bir-birlariga ko'zga ko'rinmas arqon bilan bog'lab qo'yilganday edi. Tutingan enam o'zini aybdor va gunohkor deb bilgani uchunmi, amakimni qo'yar-ga joy topolmasdi, amakim har kuni yuvilgan, top-toza kiyimda ko'chaga chiqardi, biron marta kiyimi g'ijim yoki dog' tushgan bo'lmasdi. Amakim enamning oldida yosh bolaga o'xshab qolardi. Kiyimlari u yoqda tursin, amakimning paypog'i-yu poyabzaliga cha kiydirib qo'yardi. Onam enamning bu fazilatlarini maqtagan-da, ammam darrov uzib olardi: "Befarzand, tug'mas xotinga chi-

dab kelayotgani uchun, kerak bo'lsa, ovqatini ham yedirib qo'yishi, oyog'iga yiqilib, ta'zim qilib yurishi, har kuni tavof qilib turishi kerak!" - derdi hamma eshitadigan qilib. Nima bo'lganda ham amakim va yangamning - tutingan enamning munosabatlari xuddi Xurram baxshi aytib yuradigan dostonday tildan tilga ko'chib yurardi. Bu dostonning bosh qahramoni, shubhasiz, amakim edi. Ko'ngil qo'ygan ayoli tufayli bir umr befarzand o'tishga ham rozi bo'lgan, bilib turib, bepusht ayol bilan umrguzaronlik qilayotgan amakimga orqaravotdan tasannolar aytishar, bunday jo'mardlik hammaning qo'lidan kelmasligini ta'kidlashar, buning hammasi muhabbat tufayli deb hisoblashar, amakimning nomi endi muhabbat bog'iga kirganlardan tortib, bu bog'ni allaqachon vayron qilib, tark etganlargacha ma'lum va mashhur, ibrat va saboq edi: hatto maktablarda ham o'qituvchilarimiz Farhod-u Shirin, Layli-yu Majnun, Tohir-u Zuhra haqidagi dostonlarni yanada hayotiyroq qilib tushuntirish maqsadida, albatta, amakimni misol qilib ko'rsatishar, amakim barcha yoshlarning muhabbat uchun o'z rohat-farog'atini, farzand ko'rish, erkalash zavqini, umuman, hayotning bor ne'matlarini qurbon qilgan, muhabbatga hech narsani almashmagan o'sha kitoblardagi ma'lum va mashhur sevishtanlardan zarracha kam bo'lmagan qahramoniga aylangandi. Amakim faqat egarchi usta emas, muhabbat va ishq qahramoni sifatida ham tevarak-atrofdagi qishloqlarda shuhrat qozongandi. Dadam va amakimni taniydigan, eshitgan va hamma biladigan bu ishq dostonida havas ham, hasad ham, achinish va shafqat ham, tasanno va nadomat ham bor edi. Ammamning ta'na-yu malomatlari, amakim taqdirini o'ylab to'kkan ko'z yoshlari bu dostonning ta'sirli, yanada sirli hamda qiziqarli tus olishiga sabab bo'lardi. Tersota u yoqda tursin, butun Katta O'ra ovullarida bu dostonni va amakimni bilmaydigan, eshitmagan odamning o'zi yo'q edi.

Enam va amakim meni o'z farzandlariday katta qilishdi. Men hech narsaga zoriqmay, hech narsadan kam bo'lmay ulg'aydim. Keyinchalik o'qishga kirib, ta'til paytlarida qishloqqa borganimda, beixtiyor, dastlab o'z onamning oldiga emas, yangam - enam yashayotgan uyga kirib borardim. Bundan boshi ko'kka yetgan enam meni bag'riga bosib yig'lar, so'ng menga o'ziga ko'nikishim qan-



chalik qiyin bo'lganini, mening xarxashalarimni kulib-yayrab gapirib berardi. Enamning aytishicha, ba'zida yarim kechasi uyg'onib ketarkanman, o'z uyimni qo'msab qolarkanman, keyin yig'lagancha, bor ovoz bilan enamga ta'nalar qilarkanman: "Siz agar tug'mas bo'lmaganingizda, meni ular sizga bermasdi, hozir onamning quchog'ida yotgan bo'lardim, hammasiga siz sababchisiz! O'zingizga bola tug'ib olsangiz bo'lmaydimi, meni bunchalik qiynaguncha?" Bu gaplar enamning ko'kayini o'rtab yuborayotgan bo'lsa-da, meni quchog'iga olib, ovutishga tusharkan, ba'zan men bilan qo'shilib yig'larkan: "Gaping to'g'ri, bolajonim, hamma ayb menda, Xudo meni shunday yaratgan. Bola tug'ib, keyin o'lsam ham mayli edi... Lekin Xudo meni qisgan. Xudo meni jazolagan... Mayli, meni qar-g'a, meni ur, meni yer bilan bitta qil. Faqat yig'lama... Faqat ketib qolma. Yolg'iz yupanchim sensan! Sensiz o'lib qolaman. Biz faqat seni deb bu dunyoda umid bilan yashayapmiz".

Men ham baribir ularning joniga oro kirolmadim, maktabni bitirib, shaharga o'qishga ketdim. "Ketsang, o'lib qolaman!" - degan enam ham, tutingan otam ham negadir o'qishimga qarshilik qilishmadi. Aksincha, amakim "O'qi, bizga o'xshagan omi bo'lma! Umring dadang bilan menga o'xshab egar yasab o'tmasin!" - dedi. Yig'ib qo'ygan pullarini berdi. O'qib yurganimda har oyda men-ga pul, keyin asosan enam aytib turib yozdirda kerak, onalik mehri ufurib turgan xatlar jo'natib turishardi. O'qishim tugagach, taqdir taqozosi bilan shaharda ishlab qoldim. El-yurtida doktor degan nom qozondim. Enam va otam mening hayot yo'limga to'siq bo'lish-ni istashmadi. Bu paytda ukalarim ularning qavatiga kirib qolgan, endi tutingan enam ular bilan ovora edi. Amakim qazo qilganda, men chet elda malaka oshirardim. Ikki yillardan so'ng kelganimda Oyto'ldi enam ham, ammam ham ancha cho'kib qolishgandi. Enam: "Sizning o'rningizga ukalaringiz yig'lab borishdi. Ular amakingiz ortidan "ota" deb yig'lashdi, otangiz bu dunyodan bearmon ketdi. Endi mening tobutim izidan o'zingiz hassa tutib boring!" - dedi ko'z yoshlarini uzun yengi bilan artgancha. Men o'sha daf'a hammasini tushundim: aslida dadam meni bir kun kelib ularning tobuti izidan "Otam", - deb yig'lab borishimni istagani uchun ham ularga o'g'il

qilib bergandi. Men esa buning uddasidan chiqolmadim. Enam endi shuni eslatardi. Shuncha yillardan beri enamni birinchi marta quchib yig'ladim. Saldan so'ng ammam ko'z yosh bilan kirib keldi. U endi ancha ulg'aygan, yuz-ko'zlarida donolik aks etgan edi. Mening kel-ganimdan quvonib ketib, oshxonada kuymanib yurgan enam eshit-sin deb, ko'zyosh aralash diydiyo qilib oldi: "Enang oxiri akamning boshini yedi. Kun ko'rmay o'tdi akam sho'rlik. Shu tug'masni deb tirnoqqa zor o'tdi". Bu gaplarni enam eshitgan bo'lishi kerak, chun-ki ammam atayin baland tovush bilan nolirdi. Lekin enam saldan keyin qo'lida men yaxshi ko'radigan manti bilan quvnab-yayrab kirib keldi. Xuddi hech narsa yuz bermaganday, xuddi ammamning gaplarini eshitmaganday, ammamga alohida iltifot qildi: "Opajon, oling, mana bunisi siz yoqtirgan ko'pirtirilmagan xamirdan qilin-gan", - dedi. Lekin men enamning ko'zlari ichida mung, iztirob, anduh paydo bo'lganini, ammamning gaplarini ko'nglining tubiga o'tkazib yuborganini, o'sha tub-tubda xuddi po'rtanaday bir narsa-lar qaynab-vaqirlab, titrab yotganini ko'rdim.

\* \* \*

Men va'damda turdim. Oyto'ldi yangam - tutingan enamning tobuti izidan yig'lab bordim. Amakinga o'rganib qolgan ekanmi, enam amakimdan keyin ikki yil ham yashamadi. Ehtimol, o'zi yo'q joyda dovdirab, kalavasining uchini yo'qotib qo'yadi, deb amakimdan xavotir olgandir? Dorul baqoda ham o'zisz biron ish-ning boshini tutolmay, gangib qolishidan tashvishga tushgandir?! Nima bo'lganda ham, uni bir ichkin dard olib ketganini bildim. Har qalay, menga ilhaq turgan ekan, ammamning xatini qo'litiqlab, yetib kelishim bilan ko'zi menga tushib, kirtaygan ko'zlari porlab ketdi, keyin qo'llarini menga uzatdi, kaftimni bemajol siladi, shu silashi bilan nimadir demoqchi bo'ldi, lekin bir so'z demay jon berdi.

Ma'rakadan so'ng ammam bir to'da qog'ozlarni oldimga tashladi.

- Mana bu qog'ozlarni enamning sandig'idan topdim. Hujjat-larga o'xshaydi. Akam bechora uyni ham, topgan-tutganini ham sening nomingga o'tkazgandi. Shu qog'ozlar bo'lsa kerak. Ma,

ol. Xohlasang, ukalaringga ber. Xohlasang, o'zing kelib yasha. Bu uying chirog'ini o'chirma. Yangam bilan akam kun ko'rishmadi. Ishqilib, oxiratlar obod bo'lsin.

Men ammamga ajablanib qaradim. Ammam birinchi marta enamni - tirikligida o'zi bir umr ta'na va haqorat qilgan, izzat-naf-sini toptagan ayolni "yangam" deya yotgan edi. Vaholanki, enam toki qabrga kirguncha bir lahza ham tin oldirmadi, bir umr o'zining malomatlari bilan ta'qib qilib yurdi. Mana, endi enam sho'ri'lik, qabrga kirib tinchiydigan bo'ldi. Ammam birdan g'arib, behol ko'rindi menga: yo'q, enamga achingani tufayli emas, bir umr koyigan, tanbeh bergan, ertadan kechgacha malomat qilish uchun yashagan, malomat qilish umrining mazmuniga aylangan ayolning endi bu dunyoda yo'qligi sababli umrida ham mazmun qolmagan-day, shuning uchun ham birdan qarib qolganday tuyuldi menga.

Qog'ozlarga shunchaki ko'z tashladim. Bular uy-joy, mulk menga o'tkazilgani haqidagi vasiyatnoma va boshqa har xil hujjatlar edi. Bu hujjatlar ichida mening birinchi sinfga borganda tushgan suratlarimdan tortib, kundaliklarimgacha bor edi. Demak, enam menga taalluqli har bir hujjatni, har bir qog'ozni juda aziz narsaday avaylab-asrab yurgan. Bu holatdan mutaassir bo'ldim. Ko'nglim to'lib ketdi. Hozir o'kirib yuborsam kerak, deb o'yladim. Biroq ammamning oldida yig'lolmasdim. Hamisha ammamga enam-ga bo'lgan hissiyotlarimni ochiq namoyon qilishdan o'zimni tiy-ganman. Bo'g'zimga kelgan o'kinch, armon, yig'ini bosish uchun qog'ozlarni sinchiklab o'qishga tushdim. Birdan ko'zim bu hujjat-larga aloqasi yo'q boshqa bir qog'ozga tushdi. Doktor bo'lganim uchun bir qarashda bular tashxis qog'ozlari ekanini angladim. Bu meni battar ajablantirdi. Ammam egalik qilishni istagan va ham-maga ko'rsatib, amakimning sha'nini himoya qilmoqchi bo'lgan qog'ozlar edi bu. Jiyan olib kelib berdimikin? Unda nega ammam bu haqda hech narsa bilmagan? Agar keltirib berganda ham bu qog'ozlar yangamning emas, ovsini orqali ammamning qo'lga tushardi. Demak, qog'ozlar jiyanda qolmagan ekan-da. Shu fikr ta'sirida hamda kasbim qiziqishi bilan amakim va Oyto'ldi enam ko'rikdan o'tgan o'sha tashxis qog'ozlarini birma-bir o'qiy bosh-ladim. Va birdan bir nechta xulosalarga ko'zim tushib, qayta-qay-

ta o'qidim. Keyin yana o'qidim. Yo'q, keyinchalik ham bir necha marta nomini eshitgan, menda ham o'zgacha hurmat va ehtirom uyg'otgan, lekin tanishish imkoniga ega bo'lmasdan bu dunyodan rixlat qilgan o'sha mashhur doktor aniq qilib yozib qo'ygandi. Bu tashxisga ko'ra Oyto'ldi enam emas, amakim farzandli bo'lishi mumkin emasdi. Bu xulosa menga yashin urganday ta'sir qildi va amakimning, enamning hayoti ko'z oldimdan lipillab o'tdi. Oniy lahzalarda yorishgan xotira siniqlari ichida ammamning bir umr bigiz qilingan qo'llari, butun qishloq yangamga yog'dirgan dash-nomlar, mening "Siz tug'mas bo'lmaganingizda, men o'z uyimda yashardim", - deb qilgan xarxashalarim, tashxisdan o'tib kelishgan kuni xuddi yangamning - enamning yuzidan sel kabi oqib tushgan ko'z yoshlari - hammasi bor edi. Men endi hammasini tushungan va anglagan edim: yangam, mening tutingan enam bepusht ya-shash qismatini o'zini deb bilgan, bilgani uchun ham tashxis qog'ozlarini yashirib qo'ygan, jiyandan ham bu sirni ochmaslikni so'ragan, aynan shuning uchun jiyan biznikiga boshqa kelmay ket-gan, yangam el-yurt oldida amakimning boshi egilmasligi, erkaklik g'ururi toptalmasligi uchun bu sirni hammamizdan yashirgan, hech kimga bildirmay, barcha ta'na-yu haqoratlarni o'z yelkasiga olib, ammamning va butun qishloqning bir umrlik xo'rliklariga, malo-matlariga chidab kelgan...

Tuyqus xotiniga boqdi: "He, o'ling-e", - deya yozg'irardi nigohi. Ko'zi bilan unga po'pisa qilib, oldidagi piyolani keskin uzatdi.

- Choydan quy! - so'ng onasiga qayrildi. - O'zi tuzukmi dadam?

- Xudoga shukur, bugun xiyla tuzuk. Opang minan siyning kelishuvdi, sheyda ancha gaplashib o'tirdi. Binnarsalarni gapirib, xuddi bolaliklaringdagedek kuldirdi, - onasi dasturxon chetini beixtiyor o'ramoqlab, ko'ksi shishib, xo'rsindi. - Qalampirni ezib- ezib, bir kosa ovqat ham ichdi.

- Xayriyat, - dedi qaddini ko'tarib. - Yaxshi bo'p qopti, a?

- Opalaringni kuzatib, seni kuta-kuta hozirginada kirib ketdi.

- Ovqat ichasizmi? - so'radi xotini qo'lidagi kosa-qoshiqlarni shaqirlatgancha kuchanib o'rmdan turib.

Belini ushlagandi, qorni yanada do'impaydi.

- Yo'q! - dedi dag'al ovozda. - Qornim to'q!

Xotini tashqariga chiqib ketdi.

- Oldiga bir kirib qo'y, o'g'lim! - Onasi nabirasini quchog'iga olib, uxlatmoqchiday yonboshladi. - Baribir seni kutadi.

Shamol oynalarni yana tiqirlatdi.

U choyni tez-tez ho'plab, piyolani bo'shatdi.

- Ichganman-ku, aya?..

- Yaqinlashmayroq o'tirasan-da.

- Xo'p. Yo bismillo!.. - deya o'rmdan turdi.

Dadasi ko'rpalar qalin to'shalib, qat-qat bolishlar qo'yilgan temir karavotda shiftga termilib yotardi. Yonida - pastda choynak, piyola, ikkita kitob ustida ko'zoynak. Bosh tomonidagi tokchada ham kitoblar.

Uning sharpasini payqab, qayrildi.

- Assalom-u alaykum, dada! - enkayib, nafasini yutib ko'rishdi. - Tuzukmisiz?

Beriroqdagi to'shakka cho'kdi.

- Keldingmi, o'g'lim? Xudoga shukur, ancha tuzukman, - dadasi yotgan ko'yi qo'lini duoga ochdi. - Omin, tinchlik-xotirjamligini bersin! Ovqatingni ichdingmi?

Dadasining ko'nglini o'ylab, yolg'on gapirdi:

## NABI JALOLIDDIN

1962-yilda Andijon viloyati Izboskan tumanining Ionobod qishlog'ida tug'ilgan. Toshkent davlat universitetini (hozirgi O'zbekiston Milliy universiteti) tugatgan. "Yalpizli kecha" (1993), "Hur nido" (1996), "O'limning rangi" (1998), "Sen bilan qolmayman" (2002), "Erkagi bor uy" (2005) kabi she'riy va nasriy kitoblari nashr etilgan. "Tegirmon" roman-dilogiyasi (2019) muallifi. "Shuhrat" medali bilan taqdirlangan.

## CHUVALCHANG YOOQQAN KECHA

Eshikdan kirdi-yu, harakatlaridan o'zini hushyor ko'rsatishga urinayotgani sezildi.

- Yomg'ir yog'adi, shekilli. Shamol bo'lyapti, - dedi yomg'irdan qochib, panaga o'tganday yelkalarini siltab. - Yaxshi o'tiribsizlarmi?

Deraza oynasi basma-bas tiqirlab, tirqishidan shamol ufurganday bo'ldi.

Onasining yoniga cho'kib, bolishga yonboshladi. Xayolidan ushbu gap o'tdi: "Dadam chiqibdi, shekilli, bolish qo'yilib qolibdi". Onasining pinjiga suqilgan uch yoshlar chamasidagi o'g'lini panalaridan tutib, o'ziga tortdi. Bola ko'nmadi, buralib, buvisiga battarroq yopishdi.

- Chiroq o'chmasa go'rgaydi, - dedi xotini uning gapiga hamohang ovozda va xontaxta ustidagi chinni kosalarni yig'ishtirishga tushdi.

- Yana ichdingmi, bolam? - Onasi odatdagidek yuzini burishtirib, yiltiragan ko'zlariga qarab qo'ydi. - Dadang xafa bo'ladi-da!

- Hmm, ichdim, - yon-veriga alangladi. - Televizorni obchiqib bersam bo'larkan-a? Zerikmasdingiz. - Aslida dadasingning televizorni uncha xushlamasligini yaxshi biladi. Hozirgi gapini nima deyishni bilmaganidan beixtiyor aytib yubordi.

- Dilbuzariyni (dadasi televizorni shunday atardi) nima qilaman-a, bolam, boshimni og'ritib... Shamol bo'lyapti shekilli-a? Yomg'ir yog'adi. Bahor havosi-da, yoqqani yaxshi. Yerga foyda, - deya xo'rsindi. So'ng unga beozor tikildi. - Tag'in ichdingmi, o'g'lim?

- Ha, endi... - dadasiga birrov xijolatli nazar tashladi: xiylagina ozganini, ko'zlari mahzunlashganini ilg'adi. Mo'ylovi, jag'ining uchidagi kalta soqoli oppoq. Ozg'in qo'llarining tomirlari bo'rtgan. Oltmish beshni qoralayotgan odam qartaygandek ko'rinadi. Dadasingning ahvoli diydasini yumshatdi, dimog'ida g'imirlayotgan zardasini yutib, sarxush shuuri ozorsiz so'z qidirdi. - Ulfatlar minan o'tirdik-da, dada. Hammalari yaxshi bollar...

Dadasi yonboshlab, chap kaftini chakkasiga tiradi.

- Yaxshi bollar bo'lsa bordir, - dedi qo'pol gapirib qo'yishni istamayotganligini sezdirib. - Ammo ular biron joyda ishlab, tirikchiligini yo'lga solvolib, inmaykeyin ulfatchilik qilishayotgandir balki...

U g'ashi kelib, tebrandi, yuzi tirishib, pishilladi. Chakkalari qizib, o'zini tutolmadi.

- Yana yuzimga solyapsizmi, dada? - deya to'ng'illadi.

- Yo'q, o'g'lim! - dadasi jiddiy, lekin mehrligapirdi. - Yuzingga solganim yo'q, esingga solyapman. Sen mening yolg'iz o'g'limesan, suyanganim, ishonganimsan! - Oxirgi so'zlari yalinchoq ohangda chiqdi. - Mening safarim qarimoqda. Endi uyning erkagi sensan, o'g'lim! Ko'zim ochiqligida bir ishning boshini tutgin, deyman!

- Yo'lkiraga pul topvolay, Rossiyaga ketaman, - dedi u manamana yo'lga chiqadiganday ishonch bilan.

Dadasingning qoshlari chimirildi.

- Tag'in o'sha gapmi?! Uzoqning bug'doyidan yaqinining somoni yaxshi, bolam! O'z yurtida boy bo'lmagan...

- Bu gaplarni avval ham aytgansiz! - deya dadasingning gapini bo'ldi. - Somonniyam, o'zga yurtida boy bo'lmaslikniyam bilaman.

Oma, bundan menga nima foyda? - U ro'parasidagi odam padari ekanligini va hatto uning betobligini ham unutib borardi. - Agar o'shanda qaytarmaganizda, besh-o'n so'm pul ishlab kelgan, moshina olib, hozir hech yo'q kira qilib, tirikchiligimni o'tkazayotgan bo'larmidim!..

Otaning yuz-ko'zida nadomat balqib, turib o'tirdi. Enkayib, piyolaga choy quydi. Qaddini tiklab, bir ko'tarishda sipqordi. Piyolani to'shak ustiga tashlagandi, yonboshlab qoldi.

U dadasi bilan yana aytishib qolishdan saqlanish uchun qo'zg'aldi.

- Qo'ying, dada, men chiqib keta qolay!

- Yo'q, o'tir! - dedi dadasi yumshoqlik bilan, biroq qat'iy. - Hozir gaplashmasak, keyin kech bo'ladi. - Fikrini jamlamoqchiday soqol-mo'ylovini siladi.

U g'ashlanib, pishilladi.

Deraza oynalari qattiqroq tiqirlab, parda pufakday shishdi - shamol avjlandi, shekilli.

- Yolg'iz o'g'limizni Rossiyaga jo'natib, onang ikkovimiz beyda qanday tinch o'tiramiz, bolam?! - Dadasi biroz qizishdi. Ovozi titradi. - Opa-singillaring birovning xasmi. O'lib-netib qolsak, mahalla-ko'y ko'mib qo'yar! Ammo uyat bo'lmaydimi, o'g'lim? - Unga sinovchan tikildi. - Mana, o'zing, anovi yolg'iz o'g'lingni Rossiyaga jo'natarmiding?..

U zaharxanda irshaydi.

U hali yosh bola-yu, dada! Men uni zo'r odam qilib o'stiraman. Erta kunda tiklab qo'yaman. Hadeb aql o'rgatmayman! O'z holiga qo'yaman...

- Shunaqa degin?.. - dadasi yana chakkasini kaftiga tiradi. - Menam borki orzu-umidimni senga tikkandim, o'g'lim. Erkalatib o'stirdim. O'qitdim...

- O'qidim, kattakon domla bo'ldim, a? - kesatdi u keyingi oy-kunlardagi hamma alamlarini ovozigajamlab.

- Domlalikni nimasi yomon? Bilasan, otam, bobong-da erta o'tib ketgan. Maktabni bitirayotganimda tushimga kirgan. Ma'lim bo'laman, degan. Otam rahmatining bir og'iz gapi minan o'qituvchi bo'ldim.

U "fu-u" deganday tag'in irshaydi.

Ota hamon aytishib qolishdan saqlanar, gap-so'zlaridan ichidagini to'kib solgisi kelayotganga, jigargo shasini shashtidan qaytarishni istayotganga o'xshardi:

- Sizlarniyam bir umr o'qituvchilik qilib boqdim. O'qituvchining noni halol.

- Lekin ko'paymaydi! Shuning uchun meniyam o'qituvchi qilmoqchi bo'ldingiz.

- Ha! Universitetni bitirding - buning nimasi yomon? Ziyoli, degan noming bor. - Ota ovozi mayinlashtirdi. - Agar maktabda ishlolmagan bo'lsang, buning uchun boshqalarni ayblama!

- Shunaqa deysiz-da! - u rosmana tutoqdi. - Nima, sizningcha, o'zgina oylikka ertamandan kechgacha chuldirvaqilarning manqasini artib yurishim kerakmidi? Yana-tag'in maktabda faqat xotinalar qolgan. Xotinalarning enasi bo'lib...

Dadasi jilmayishga urindi.

- Xotinalarning enasi emas, xotinalarning erkagi bo'lib, degin. Keyin... sabr qilsang, o'zgina oylik ham yetardi. Oylik - bu naqd narsa. Baraka sabrda, bolam.

U boshini sarak-sarak qildi-yu, indamadi.

Buni dadasi o'zicha tushundi.

- Ekzyuperi degan yozuvchining "Kichkina shahzoda" degan kitobi bor. Ashi kichkina shahzoda hammaning o'z sayyorasi bor, uni tez-tez supurib-sidirib turishi kerak, deydi. Ya'ni ko'nglinda, - ota tushunyaptimi-yo'qmi qabilida tikildi. - Seniyam ko'ngling kirlagan, bolam. Uni tozalash kerak. Buning uchun kitob o'qishing, yaxshi narsalarni o'ylash kerak.

U "voy dada-ey", deganday boshini tebratib, achchiq jilmaydi.

Shu payt eshik ochilib, kelin ko'rindi.

- Choy damlab beraymi, dadajon? - deya eriga ko'z tashlab qo'ydi.

- Mayli, qizim, o'zi tugab qoldi, shekilli.

Kelin chap qo'lida belini ushlab, qiynalib choynakni oldi.

Ota o'g'liga norozi qarash qildi. Ammo u buni payqamadi. Xotini chiqib ketishi hamono yana to'ng'illadi:

- E, dada-ya, haliyam kitoblarda yashaysiz, "kitob-kitob", deysiz. Anovi Erkin aka o'qish tugul umrida biron marta kitob ushlaganmikin? Oma boy-badavlat yashaydi. Moshinalarini, qurgan uylarini qarang...

- Gaping to'g'ri, o'g'lim, - dedi ota bamaylixotir. - Lekin Erkinjon Xudodan faqat boylik so'raydi-da.

- Nima, men so'ramayapmanmi? - siltandi u.

- Yo'q, sen ikki o't orasidan, bolam! - Ota "qaniydi gaplarimni to'la tushunsang", deganday halovatsizlanib, turib o'tirdi. - Gap qizib qoldi, endi aytay: sen nima istayotganingni bilmaysan. Ichishga-ku timmay ichyapsan. Eshitishimcha, anovi choyxonaning burchagida qimor ham o'ynayotgan emishsan...

- Yolg'on! - dedi u ishonchsizroq ovozda.

- Aldama, bolam!

U boshini egdi.

- Yo'lkiraga pul topmoqchiydim, - deya g'o'ldiradi yer ostidan.

- Harom pulni yo'lkira qilib, safarga chiqmoqchimisani hali?!

Shunaqa qilib pul topmoqchimisani? - Ota birpas jim qoldi. - Bu ishning oxiri voy, bolam, ko'zingni och!..

Kelin choy olib kirdi. Choynakni erining oldiga qo'yib, so'radi:

- Boshqa hech narsa kerakmasmi, dadajon?

- Yo'q, qizim, - dedi ota erkalovchi ohangda. - Damingizni olavering.

- Xo'p, yaxshi yotib turing, dadajon! - Kelin chiqib ketdi.

U choyni bir-ikki qaytargach, piyolaga quyib, dadasining qo'li yetadigan joyga qo'ydi.

- Rossiyaga ketaman, deysan, hademay bolang ikkita bo'ladi-ku, - ota vaziyatni yumshatish uchun zo'raki po'pisa qildi. - O'z uyim - o'lan to'shagim, degan gap bor, o'g'lim, - so'ng gap paynovini boshqa yoqqa burmoqchi bo'ldi. - Oldingilar oson ko'zi yoriydi, deb, - homilador kelinini ko'rib, o'g'liga gapirayotgani uchun "oson tug'adi", deyolmadi, - og'iroyoq ayollarga kelida sholi tuydirishar ekan.

- Hamma gaplariyuz maqol, matal, eski gaplar-a, dada! - u endi xiyla yengil tortdi. - Hozir zamon boshqa. Hech qachon sizning ayt-

ganingiz bo'lmaydi, - qo'lini siltab, ko'zlarini olaytirdi. - Hozirgi ikkiqat xotinlarga sholi tuydirib ko'ring-chi! O'libla qolar!..

Ota piyoladagi choydan ho'pladi.

- Xullas, gap shu: hech qayoqqa ketmaysan! - shunday deya, choyni oxirigacha simirib, piyolani yana to'shakka tashladi. - Hajga boraman, deb pul to'playotgandim. Onangga aytasang, beradi. Ashinga yer olib, dehqonchilik qil yoki uch-to'rtta novvos boq. U yog'ini o'zing bilasan. Haj bir gap bo'lar, - dadasi birdan xomush tortdi.

U buni boshqacha tushundi. Ham dadasining keyingi gaplari ko'nglini eritib yubordi.

- Hajga o'zim jo'nataman, dada! - dedi yuzi yorishib. - Meniyam omadim keb qolar.

- Ilohi, niyatingga yet, bolam. Xudo xohlasa, omading, albatta keladi. Faqat mehnat qilish kerak, xolos, o'g'lim. - Otaning ko'zida tafakkur balqidi. - G'ashing kelsayam aytaman: tag'in bir yozuvchi vaqtini dahshatli narsa, degan. U juda beshafqat. Vaqtini boy berma, o'g'lim!

Uning ensasi qotdi: yana nasihat! Ammo o'yini tashiga chiqar madi.

- Maktab direktoriga ham aytib qo'ydim - ishga oladi. Ichishni tashlasa bo'ldi, dedi. O'zgina dars olsang, ermak-da.

- Maktabda qaytib ishlamayman! - dedi u bolalarcha qaysarlik bilan.

- Hali sizni aytganingiz hech qachon bo'lmaydi, deding, - ota bilinar-bilinmas jilmaydi, lekin ko'zlarini o'ychan edi. - Aytganimni qilsang bo'ldi-da. Endi tur! - Chalqancha yotib, shiftga tikildi. - Derazani qiya ochib qo'y-da, joyingga chiq.

U turib, pardani surdi. Ehtiyotkorlik bilan derazani ochdi. Xonaga toza havo yopirildi. Kayfi tarqab qolganidan og'rishga moyil boshiga, dimog'iga xush yoqdi. Qalay, deganday dadasiga qayrildi.

Ota chuqur nafas oldi.

- Yomg'ir boshlayapti, - dedi o'ziga gapirayotganday. - Chuvalchang yomg'ir, shekilli...

- Nima, - u tizzasiga shapatlab, piqillab kuldi, - hazillashyapsizmi, dada? Hech jahonda chuvalchang yomg'iram bo'ladimi?.. Bo'pti, yaxshi yotib turing. Voy, dadajonim-ey!.. - dedi-yu eshikka yo'naldi.

Ota mahzun jilmaygancha uning ortidan termilib qoldi.

- Bo'ladi, bolam, bo'ladi!.. - deya shivirladi lablari...

Onasi nabirasini bag'riga olib, boshini kaftiga tiragancha pinakka ketgandi. Uning sharpasini sezib, uyquli ko'zlarini xiyol ochdi.

- Aya, - dedi hazilkash ohangda, - dadam rostdanam tuzuk bo'p qopti, a? Bunaqa ko'p gapirmasdi-yu.

Onasi "hm-m", dedi-yu yana ko'zlarini yumdi.

Tashqariga chiqdi. Olam zimiston. Shamol tingan. Tanasining ochiq joylariga yakkam-dukkam tomchilar uriladi. Osmonga qarab, ko'ksini to'latib havo simirdi. Keskin chiqargach, yengil tortganday bo'ldi. Haligidan bir piyola zo'r ketardi-da hozir. Uyda yo'q, choyxonayam bekilgandir... Ro'parasida qo'shnisi Erkinning ulkan uyi ularning hovlisini bosib tushguday bo'lib qop-qop rayib ko'rindi. Qubbalari devning kallasiga o'xshaydi. Shunaqa bo'lgach, Xudodan faqat boylik so'raydi-da! Xah, dadajonim-a! Chuvalchang yog'armish!.. Qhm-m!..

Uyga kirib, pishillab uxlayotgan xotining qormini ohista siladi-da, yuzidan o'pdi: "Akashti xotini, yana o'g'il tuqqin!" Mammun xo'rsinib, uyquga yotdi...

Tush ko'ribdi. Kattakon daraxtga osilgan halinchakda o'tirgan-mish. Dadasi tinmay tebratarmish. Har itarganda halinchak yuqoriga ko'tarilib, boshi oppoq bulutlarga tegay-tegay dermish. U yuraklari hapriqib, kularkan: "Bo'ldi, dada, niyatingizga yetdingiz-ku", - deya qichqirarmish... Bir payt yelkasi siltanib ketdi. Yana, yana... "Turing! Turing!" - derdi kimdir. Shuuri tiniqlashib, ovoz egasini tanidi: xotini. Ko'zini ochdi.

- Nima deysan? - deya injiqlandi.

- Turing tezroq. Tursayiz-chi! - tag'in turtkiladi ayol.

- Ishga bormasam, nima qilaman sahar mardonda turib? Tinch qo'y meni! - U ters o'girildi.

- Turing, dadajon uzilib qoldi. Eshityapsizmi, turing! - deya piqilladi xotini.

U birdan sapchidi.

- Nima deding? Dadam?! Nega?! - Siltanib, qayoqqadir chopmoqchi bo'lgandi, xotini qo'lidan mahkam tutdi.

- Avval bet-qo'lingizni yuving, keyin kirasiz, - dedi yig'lab. - Hali qo'ni-qo'shni, qarindosh-urug'larni aytishingiz kerak!

U bo'shshib, o'tirib qoldi. Ko'z oldi qorong'ilashdi...

Havo musaffo edi. Tun bo'yi yomg'ir yoqqan shekilli, dov-daraxtu o'to'lan - hammayoq shalabbo. Dimoqqa yoqimli hid uriladi.

U mustahab qilib qaytdi. Tahorat olish uchun sahn chetiga cho'nqaydi. Farg'ara qilayotganda Erkinning uyiga ko'zi tushdi. Osmon ochiqligami, negadir kichrayib qolganday tuyuldi. Kechagi haybati yo'qolganday. Endi burniga suv olib, qoqish uchun enkaydi. Oyog'i ostida ingichka chuvalchang g'imirladi. Parvo qil-madi. Birdan toshday qotdi. Xotirasining allaqaysi puchmog'ida chuvalchang bilan bog'liq fikr jimirlaganday bo'ldi. Darvoqe, chuvalchangli yomg'ir - dadasi aytuvdi shekilli... Nigohi tentidi. Boyagi chuvalchangdan nariroqda yana bittasi kulcha bo'lib yotardi. Alangladi. O'ngida bir necha, so'lida bir necha, sahning ham-ma yerida chuvalchang. Bari ingichka, ojiz-ojiz qimirlaydi. Axir sahn asfaltlangan-ku, bular qayoqdan chiqdiykin? Asfaltni teshol-masligi aniq. Nahotki osmondan yoqqan bo'lsa? Yomg'ir bo'lib. Chuvalchangli yomg'ir! Demak, dadasi to'g'ri aytgan ekan-da, chuvalchangli yomg'ir bo'larkan-da!

U enkayib, chuvalchanglarni terib, kaftiga sola boshladi.

- Dadajon, siz to'g'ri aytibsiz! - ovozi chiyillab, ko'zlaridan yosh sizdi. - Aytganingiz bo'libdi, dada! - Ho'ngrab yig'lab yubordi. - Endi hamma aytganlaringiz bo'ladi, dadajon! Mendan rozi bo'ling! Rozi bo'ling, dada!..

Kaftidagi chuvalchanglarni yomg'irda loylangan tuproqqa olib borib tashladi.

- Endi yerda yashaysizlar! - deya shivirladi.

## ABDUQAYUM YO'LDOSH

1962-yilda Samarqand viloyatining Qo'shrabot tumanida tug'ilgan. Toshkent Politexnika institutini (hozirgi Toshkent Davlat texnika universiteti) tugatgan. "Qaro ko'zim. Shayx ur-ra'is" (1990), "Sunbulaning ilk shanbasi" (1998), "Timsohning ko'z yoshlari" (2005), "Parvoz" (2004), "Bir tun va bir umr" (2007), "Puankare" (2021) kabi kitoblari nashr etilgan. "O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan madaniyat xodimi" unvoni bilan taqdirlangan (2016).

## PUANKARE

### I

Vaqt-ta'sirini o'tkazmaydigan narsaning o'zi qolmapti. Hatto asl mol ham uning qoshida ojiz ekan.

Bundan o'ttiz besh yil burun Maskovda mana shu portfelni naq bir yuz yigirma rublga olayotganimda sotuvchi: "Toza charm. Sizga yuz yil xizmat qilib beradi. Hatto bir asrdan keyin ham yangiday turadi!" - deb rosa og'iz ko'pirtirgan, yonimda turgan o'zim qatori ahli urfonning ayrimlari esa ko'rsatkich barmoqlarini chakkalari-ga tirab aylantirishdan o'zlarini tiyisholmagan, baayni aytmogchi bo'lgandilar-ki, tentaklik ham evi bilan-da, sichqon sig'mas iniga, g'alvir bog'lar dumiga, deganlari asli shu; ammo na iloj, zorimiz bor, zo'rimiz yo'q, illo nainki liriklar, balki bizdek jiddiy riyozi-yotchilar safida ham aqli noqislar uchrab turishi ehtimollar nazari-yasiga mos va xos...

Darvoqe, oldindan aytib qo'ya qolay, kelajak ularning adash-maganligini ko'rsatdi. Ammo o'shanda... O'shanda ko'nglim port-felga sust ketgandi. Go'yo shuni olsam, ichiga qo'lyozmalarimni

solsam, o'Ichami ulkanroq tumor yanglig' mahkam bag'rimga bosib yursam bas, barcha ishlarim o'z-o'zidan yurishib ketadigan-dek. To'g'ri, Tirkash jo'ram, nihoyat, ko'p yillik orzusiga yetib urg'ochi bo'rini qopqonga tushirgan, u jon alpozda haligi joyini g'ajib tashlamasidan burun tinchitishga ulgurgan, xullas, o'tkir pichoqda kesib olingan o'sha joyini tosh ustida, kunchuvoqda erinmay tuz sepib, quritib-qovjiratgach, eski lattaga o'rab-chirmab, menga olib kelib bergan, qo'ltig'imda tumor qilib taqib yurishim kerakligini qayta-qayta maslahat bergandi. Nima emish, urg'ochi bo'rining butun qudrati jamlangan o'sha joyini qo'ynida olib yurgan odam ham balo-qazolardan asralarkan, ham ishlari juda qisqa fursatda ("Sekundda! Garrantiya!") - dedi jo'ram ishonch bilan jo'nashib ketarkan. "Ovulimizdan chiqadigan birinchi kattakon o'zing bo'ladiganga o'xshaysan, jo'ra, yana Maskovga boraman devapsan, bu lekin senga yomonam kerak bo'ladi-da!" - deb molini targ'ib-tashviq qilishni bopladi Tirkash. Albatta, bog'chadan boshlab dahriylik e'tiqodi qon-qoniga singdirilgan avlod vakili sifatida bunaqangi irim-sirimlarga ishonmadim; nima, menday oliy ma'lumotli, bo'yniga ilonning tiliday bo'yinbog' taqib olgan bo'lg'usi olim qo'yniga urg'ochi bo'rining jinsiy a'zosini solib yursinmi? O'rischasiga aytganda, gde eto vidano?.. Ammo do'lvor jo'ramni xafa qilib qo'yamay degan maqsadda bu ajabtovur "sovg'a"ni rad etishim sababini yotig'i bilan, ilmiyroq asosda tushuntirishga urindimki, xo'p, ana, o'zing uch yuz chaqirimlik yo'ldan kelding shu matohni ko'tarib, xo'sh, bunday o'ylab ko'r-chi, nima bo'ldi, qaysi ishing birdan, sekunda, garantiyasi bilan jo'nashib ketdi? Chaqirilmagan qo'nog'imni chuqur mantiqli gapim bilan bopladimov deb tursam, Tirkash kuydirgan kalladay tirjaydi: "Seni topdim-ku, jo'ra, ishimning bundan ortiq jo'nashgani bo'lama?" Bunga nima deysiz? Yo'q, aldab-suldab, "keyin borib olaman", qabilidagi yaxshi gaplar bilan jo'ramni o'sha ochilmagan tugunchadagi sharmsiz boyligi bilan qo'shib ortga qaytarib yubordim.

So'ngroq ne hodisotlar-u istilohlar, ne evrilishlar-u sinoatlar hosilasi o'laroq ong-shuur birlan tafakkurda, qalb birlan ruhoniyatda bemisl o'zgarishlar yuz berganida, ayniqsa, qismatning omdsizlik hamda bebaxtlik atalmish ikki bahaybat toshi orasida

shafqatsizlarcha ezilib-yanchilib, zulumot bag'rida "dod" deyishga ham nafasim chiqmay qolgan onlarda o'zimga o'zim pushmon aralash o'kinchli iddaolar qildimki, ey gumroh banda, o'shanda o'sha matohni cho'ntagingga solib ketaversang yoinki bo'yingga osib olsang, bir joying kemtilib qolarmidi? Nima, u sendan osh-non so'ramidi? Illo, mohiyatiga qaralsa, har qanday e'tiqod izzatga lo'yiq emasmi? Ana, Tirkash jo'ram bo'rining o'sha narsasiga ishonib kam bo'lmadi-ku! Kimsan, tog'begi! Lorsillagan, har bilagi kelisopday, ikki yuzi shirmoy nonday qip-qizil, shu holiga bir gapirib, o'n kuladigan hazilkash xotini, to'rta devday-devday o'g'li bor. Ko'pkari chopadi, solim oladi, kadi-kadi qimiz ichadi, bir o'tirishda yarimta qo'yning etini yeb, moyli qo'llarini amirkon etugining qo'njiga artadi-yu, mo'ylovini bura-ab ketaveradi. Umrida bir marta do'xtirga bormagan, bir marta parhez degan narsaning yonidan o'tmagan! (O'zining aytishicha, "Kampirminan tizzani tizzaga tekizib gurunglashib o'tirishdan ortiq huzur bormi bu dunyoda?") Odam quriganday kelib-kelib xotini bilan garov o'ynab kenjasining to'yiga Toshkentdan qirqa artist opkelgan, hammasini toqqa otda opchiqqan, orqasi shilinganidan stolda o'tirolmay dikonglab o'ynayvergan qo'shiqchi-raqqoslarning ustidan dasta-dasta pul sochgan, to'ydan keyin esa - bahs shartiga ko'ra - ustma-ust qirq kun mag'lub xotini to'y suratga olingan videoni tomosha qilishga majbur etgan, o'zi bo'lsa o'tirgan chorpyada mo'ylovini sila-ab... Bir bandaga bundan ortiq yana ne kerak, axir, yana ne kerak?..

Aytganday, gap portfeldan boshlangandi-ya, men bo'lsam qayolarga uloqib ketdim. Biroq bunga ajablanmasayam bo'ladi - matematik qonuniyat bu. Hayotning o'zi sonlardan iboratligi qanchalik rost bo'lsa, yosh bilan til eshilishining bir-biriga to'g'ri mu'tanosibligi shunchalik haqiqat. Zero, men haliga do'vur kam gapiradigan mo'ysofidni ko'rmadim...

Mana o'sha portfel. Yuz yil emish! Bir asrning uchdan birini o'tab-o'tamay, yuzimga o'xshab bujmayib, qarimsiq bo'lib qoladi; bir xil joylarning terisi ko'chgan, kal boshimni eslatadi. Mol ham egasiga o'xsharkan-da. Buyam kamday, bo'sh qopga o'xshab sira tik turmaydi, ichiga u-bu solsam, sal qaddini g'oz tutganday bo'ladi, ammo bu aldamchi taassurot, sal o'tmay yana qiyshayib-



miyshayib qoladi. Qulf degan jonivor ishdan chiqqaniga-ku, necha zamonlar bo'lgan: men yopib charchayman, u bo'lsa "shirq" etib ochilib ketishdan erinmaydi. Shunga portfelnini qo'ltiqlab yo bo'lmasa mahkam bag'rimga bosib yurishga majburman. Kam-bag'alning boyligi yonida bo'lgani ma'qul. Yo'qsa, hov bir gal-giday moshin-poshin turtib ketsa, qog'ozlarimning bari sochilib ketishi mumkin. O'shanda birdan yerdan chiqqanday boshimda paydo bo'lib qolib, tekin tomoshani huzur qilib ko'rayotgan, ayrimlari telefoniga suratga ham olayotgan lak-lak odamga shuncha tavallo qilib yalindim, Xudoning zorini qildim, hoy musulmonlar, o'rimdan turolmayapman, emaklashning ham evini qilolmayapman, sizlar, sog' bandalar, manavi yer bilan bitta bo'lib sochilib yotgan qog'ozlarimni terishga yordam beringlar, yordam beringlar, iltimos, o'tinaman, yolvoraman... Ammo qani tavalloyimni bir kas eshitsa! Bil'aks, "Miyasi chayqalgan-da, har narsani valdirayapti... Yo'q, o'zini artistlikka solyapti... Bu endi shopirni sog'ib ichadi", qabilidagi sassiq taxminlar qulog'imga chalindi, xolos. Holbuki, men artist emasdim, miyam chayqalmagandi, esankirab qolgan sho'rlik shopirni sog'ib ichish niyatim ham yo'q edi. Men qo'lyozmalarimni yo'qotib qo'yish vahimasidan shu ko'yga tushgandim. Garchand o'shal baxtsiz hodisa tufayli qatorasiga to'rt yil hassa tayanib yurishga o'tgan bo'lsam-da, meni chap oyog'imdagi boldir suyagining to'rt enlikka qisqargani emas, nogahoniy zarba bois qo'lmdan otilib ketgan portfelimdan sochilgan bitiklarimning izsiz yo'qolgani ko'proq iztirobga soldi. Kimga kerak edi ular? Har sahifadagi nari borsa sakkizta formula bilan to'rtta grafik kimniyam qiziqtirardi? Bu axir... Bu axir, agar muqoyasa joiz esa, ko'rinmas odamning ish daftarini o'g'irlab qochgan, so'ng uzun tunlari sahifalardagi o'zining mutlaqo tishi o'tmaydigan qaydlarga angrayib qarab o'tiradigan savodsiz, johil kimsaning mantiqdan butkul xoli qilg'ini eslatmayaptimi sizga?

Yo'q, yo'q, Uellsni tinch qo'yaylik. Illo, menday yer yuzida sudralib yurishga mahkum etilgan ojiz bir banda kim-u, bitiklariga "Fikrlovchilar uchun" degan hikmatli eskartmani qistirib qo'yadigan ul ulug' zot kim?.. Gap portfel haqidamidi, demak, yana unga qaytamiz. Faqat o'shandan buyon qo'lyozmalarimni portfelimda

taxlam-taxlam qilib boylab yurishimni qistirib o'tib ketsam bo'lar: sutdan og'zi kuygan qatiqni ham puflab ichadi.

Zamon o'zgarib, turli ohanjama atamalar urfga kirib qoldi. Shundoq lahjada lutf etadigan bo'lsam, ushbu portfelim qaysidir ma'noda kaminaning imidjini yaratdi: talabalar, hamkasblarim meni undan ayro holda tasavvur etmay qo'yishdi. Balki, shu sabablidir, portfelimning asta-sekin, men bilan birga qarib bora-yotganini ham tabiiy jarayon sifatida qabul qilishdi, chog'i. Chin so'zim, agar portfelimga mushtdekkina bosh bitganida edi, u ham meniki singari qaltirab turadigan bo'lib qolardi; ozginagina zabon bo'lganida edi, u ham menikiga o'xshab tutilib-tutilib qoladigan odat chiqarardi.

Biz afsonalar va o'triklarning yumshoqqina, issiqqina quchog'ida yashaymiz. Biz o'zimiz shuni istaymiz, boshqasi kerak emas, boshqasi bizga yoqmaydi, notavon ko'nglimizga o'tirishmaydi. Biz o'zimiz to'qib chiqargan rivoyatlarga-da ishonib kun kechiramiz, zarurat tug'ilib qolganda uydirmalarimizni yalov qilib ko'taramiz, "Yagona haqiqat!" atab himoya qilamiz, ular uchun jangga kiramiz, jon olib-jon beramiz, qahramonlik ko'rsatamiz. Misoli o'rmonga adashib kirib qolgan otga beaded hayrat va qo'rquv bilan termilib qolgan, so'ng, ot qarib vafot etgach, uni iloh darajasiga ko'targan, suyaklariga sig'ina boshlagan go'l aborigenlar misoli hayotimizdagi timsol va tushunchalarimizni avval o'zimiz bo'y-bastimizga moslab yaratib olamiz-da, so'ng ularning ojiz bandilariga evrilamiz.

Shaksiz, bu gap birinchi bo'lib kimdan chiqqanini endi aniqlab bo'lmaydi. Ammo institutda kaminaning xo'p g'aroyibotlarga boy qismati borasida ajabtovur talqinlar bor edi-ki, ular bora-bora, ehtimolki, o'zinning unsiz ma'qullovim-u haybarakallachiligim ortqali isbot ham talab qilib o'tirmaydigan oddiy ma'qulot, ya'nikim aksioma sifatida tilga olinadigan bo'lib qoldi. Siz birinchi kursda ta'lim olayotgan istalgan talaba yoinki tolibadan "a" plyus "b" ning kvadrati nechaga teng?" deb so'rab ko'ring, har uchtadan ikkitasi g'o'ldirab qolishiga yoki nari borsa "a" kvadrat plyus "b" kvadrat" deb bez bo'lib turaverishiga men kafil. Ammo endi o'ta jo'n, maktabning yettinchi sinf o'quvchisi ham biladigan kvadrat tenglamani

yecholmagan dumbulga bir og'izgina: "Sizlarga oliy matematikadan saboq beradigan Falonchi Pistonchiyevich haqida nima bilasiz?" – deb ko'ring-chi, hali savolingiz tugamasidan javobini yoqangizdan olib yengingizga yopishtirishiga yana o'zim balogardon. Nima emish, sho'rlik – ha-ha, aksariyat xuddi shunday deydi, har qalay, oltmish yoshga borgan, pensiya ostonasida turgan muallimning boshini orqavoratdan, ma'nan silab qo'yish ularga tasvirlab bo'lmas huzur bag'ishlasa kerak, buning ustiga, yashirib nima qilaman, inson ko'pincha boshqa birovga nisbatan sog'lom, yosh va baxtliroq ekanini his qilgan onlari yurak-yuragidan ozgina bo'lsa ham xudbinona halovat his etadi, shu boisdan beixtiyor qulog'i tomon cho'zilib ketayotgan og'zini yig'ishtirolmay armonda qoladi – xullas, o'sha sho'rlik bundan ancha yillar muqaddam nomzodlik ishini yuz foiz tayyorlab qo'yib, endi himoya qilaman deb turganida uning do'sti, tasavvur qilasizmi, eng yaqin do'sti yagona nusxadagi ilmiy ismi tag-tubi bilan o'g'irlab ketadi va, tabiiyki, tayyor ismi osonlik bilan himoya qiladi-qo'yadi. Bu qadar razillikdan larzaga tushgan Falonchi Pistonchiyevich rosa iztirob chekadi, natijada bir kechada jingalak sochi avval qorday oqaradi, keyin bosh tepasidan to'kila boshlaydi. Eng yaqin do'stidan bu qadar xiyonatni kutmagan-da bechora. Bu axir hatto orqadan kelib xoinlik qilish ham emas, balki quchoqlab turib och biqinga g'archillatib o'tkir pichoqni sanchish bilan barobar... To'xtang, to'xtang, bu hali hammasi emas. Ruhiy azob o'zining yovuz ishini qilmay qo'ymaydi: shundan keyin sho'rlik domlaning boshi tebranadigan bo'lib qoladi, til ham andak zaxa yeydi: ayniqsa, hayajonlanib ketgan chog'lari domla duduqlanadigan bo'lib qoladi. Yo'q, ma'ruza payti bu unchalik sezilmaydi, domlaning dovdirga o'xshab o'zi savol berib, o'zi javob qaytaraverishini aytmasak, tuzuk, chidasa bo'ladi...

Mana shunaqangi g'ozsiz, lekin bora-bora, hattoki hamkasblarim ham ishonib qolgan oldi-qochdi gaplar. Menga yer ostidan achinib qarayverib qancha yosh mutaxassislarining ko'zlari g'ilay bo'lib ketdi. Vaholanki...

Tap-tayyor qo'lyozmani o'g'irlab ketgan emish! Yana kim, eng yaqin do'stim!.. Laqmalik ham evi bilan-da.

To'g'ri, men ilmiy ish qilib yurgan paytlarim hali kompyuter degan mo'jiza yo'q edi. Ammo kompyuterdan ming chandon kuchliroq, tezroq, sifatliroq ishlaydigan miyam bor edi, miyam! Nahotki, shu miyamga oltmish bet mashinka matni bilan bir yuz yigirma to'qqizta formula-yu o'tiz sakkizta diagramma-grafikni joylab qo'yolmasdim! O'sha paytlari... Yarim kechasi uyg'otib so'rang edi, qo'lyozmanning istalgan sahifasidagi istalgan satr boshidan yoddan o'qib ketardim to to'xtatmagunlaricha. Formula-grafiklar-ku inchunin. U paytlari men uchun dunyo faqat o'zinning formulalarim va diagrammalarim bilan tirikday, rangliday edi. Aks holda, oxirzamon bo'lishi kerak edi, faqat oq va qora ranglardan iborat g'arib kurravi zaminda qiyomat-qoyim qo'pishi kerak edi... Bular bo'lsa meni og'zidagi tayyor oshini o'g'irlatib o'tirgan lavdur-lattachaynarga, parishonxotir laqmaga chiqarishyapti. Ana shundan keyingina larzaga tushganmishman! Sochlarim oqarib ketganmish! Boshim liqillab, duduqlanadigan bo'lib qolganmishman! To'qi-ya, to'qi... O'zingiz o'ylang, insof bilan aytgim, ishonib bo'ladimi shunaqa gaplarga? Bularning bari... Bularning bari o'sha hayotni bilmaydigan telba yozg'uvchilarning tuzsiz fantaziyasi mahsuli. Ishonavering, xuddi shunday. Aniq yodimda, o'sha mash'um voqeadan bir yilcha burun bizni fakultetdan majburlab teatrqa olib borishdi. Tomosha ko'rdik. Voqeani qarang: bir arxitektorningmi, injenerningmi chizmalarini o'rtog'i o'g'irlab ketarkan-u, o'zini qilib olarkan. Endi bu arxitektormi-injener "oh" deydi, sahnaning yog'och polini g'ijirlatib u yoqqa yuradi, "voh" deydi, sahnani g'ijirlatib bu yoqqa yuradi. Oxiri chiday olmagani bo'lg'usi olimlar o'zaro shivirlashishga tushdik: "Kallasi bormi buning? Shungayam ota go'ri – qozixonami? Qayta chiz-qo'y-da. Shuyam muammomi, galvars?.. Ammo biz bo'lg'usi olimlar tushungan oddiy haqiqatni sho'ring qurg'ur yozuvchi tushunmagan ekan deng, qahramonlarini naq bir yarim soat ovorayi sarson qildi. Ora-sira o'tli monologlar-u hayqiriqlar ham yangrab qoladi deng, baayni to'rtta vatman qog'ozidagi chizmaning emas, butun boshli mamlakatning taqdiri hal bo'layotgandek.

Xullas, havoga sovurilgan vaqtimizga achina-achina teatrmi tark etarkanmiz, bir do'stim – bu o'sha, keyinchalik meni uqubatlar-

ning tubsiz jariga irg'itgan, ustimga chiqib toptagan, xor qilgan, zor qilgan razil kas edi! - aytib qoldiki, bunisi hali holva, o'ttizinchi yillari chiqqan shunaqangi pyesada bir yot unsur bo'lgan qiz zavodni qulflab, kalitini haligi joyiga, xullas, odamning aqli bovar qilmas joyga yashirib qo'yadi. Natijada zavod ishdan to'xtaydi... Buni shuurimizga sig'dirolmay, ong-tong qolganimizni ko'rgan do'stimiz darrov aybni o'zidan soqit qilishga shoshdi: menga ishonmasalaring, Qahhor degan yozuvchining esdaliklarini o'qinglar... Ha, shunaqangi dog'uli edi u, yiqiladigan joyiga oldindan ko'tpa to'shab qo'yardi, ishigayam, so'zigayam hamisha birovlarini qalqon qilardi, o'zi qo'y og'zidan cho'p olmagan, buzoqning haqi bor deb sigirning sutini ichmaydigan faqir va hattoki jabrdiyda misoli panada qolib ketavertardi...

Vaholanki, aynan o'sha kas meni rasvoiy raddibalo qildi! Ha, u o'g'irladi, faqat qo'lyozmamni emas, u mening kelajagimni o'g'irladi, u mening orzularimni o'g'irladi, u mening odamlilik siyog'imni o'g'irladi, u mening "men"ligimni o'g'irladi, o'zimdanda o'zimni o'g'irladi! U bir lahzada meni, osmonda, bulutlar bag'rida uchib yurgan jo'rasini, shartta giribonidan tutdi va po'rsillab yorilib yotgan qattiq zaminga shunaqangi gursullatib urdiki, suyak-suyaklarimga qadar maydalanib-parchalanib, miyamning qatig'i otilib ketdi, bu zarbaning asorati hali-hanuz hayotimni zaharlab keladi: baayni "cho't" etib singan suvagingimning yorqasi asab tolarimni ayovsiz tilayotgandek chidab bo'lmaz azobda qolaman; ne makon, ne zamonda umrguzaronlik qilayotganimni anglab-anglamay, atrofga nolon boqaman; million tonnalik ulkan tosh ustimda, men esa torgina yoriqqa tiqilib qolgan odamday nafasim qaytadi, og'zimni kappa-kappa ochaman, ammo bu naf bermaydi, gursullab urayotgan yurak ko'krak qafasimni yorib chiqib ketguday katalashaveradi-kattalashaveradi, mana, mana, hozir, oniy soniyadan so'ng havo to'lg'azilayotgan sharday paqillab yoriladi...

## II

*Kimgadir yoqar lola...*

Ko'ngilga buyurib bo'larmidi. Hatto gap aniq fanlar xususida ketganida ham.

Institutni bitirish arafasida men kutilmaganda Puankare gipotezasining shaydosiga aylandim. Gipotezani jo'nroq tilda ifodalashga urinib ko'raman. Jismlarning handasaviy xususiyatlarini o'rganuvchi topologiya degan fan bor. Puankare gipotezasi esa aynan shu fanning markaziy muammosi. Yana bir muhim holat: tadqiq etilayotgan jismlar oddiy emas, balki siqilganida, buralganida, cho'zilganida o'zgaraydigan jismlardir. Biron nimani tushundingizmi? Yo'qmi? Unda yanada soddaroq yo'sinda izoh berib o'tay. Agar uch o'lchamli sirt qaysidir jihati bilan ikki o'lchamli sferaga o'xshash bo'lsa, demak, uni mana shu sferaga tekislash mumkin. Dunyo paydo bo'lishidagi murakkab jarayonlarni o'rganishda hamda olamlar shakli haqidagi savollarga javob berishda o'ta muhim ahamiyatga egaligi sababli bu gipotezani ba'zan "Koinot formulasi" ham deyishadi. Endi tushundingizmi? Yana yo'qmi? Unday bo'lsa, siz oddiy finjonning teshikkulchaga aylanishi, aslini olganda, bu ikkalasining cho'ziluvchan handasa nazariyasiga ko'ra bir narsa ekanini tasavvur etolasizmi? Bo'ldi, bas, shu jarayonni sal-pal bo'lsa-da tasavvur etarkansiz, demak, gipotezaning mazmun-mohiyatini bema'lol anglab olasiz. Vaqti kelib, albatta. Aslini olganda-ku, mutaxassis uchun 1904-yili farang matematigi Anri Puankare tomonidan ilgari surilgan gipotezaning mohiyatiga tushunish unchalik qiyin emas. Ammo uni isbotlash, yechish... Axir tog'ning tog' ekanligini ko'rasiz, uning bag'rida millionlab tonna ruda borligini bilib ham turasiz, ammo bu ko'rish-bilish sizga shartta borib tog' bag'ridan bir qop oltin yombisini ko'tarib olib chiqib ketish imkonini yaratmaydi-ku. Matematika sizga "Sim-sim, ochil!" emas... Gipoteza soddalikning buyuk timsoli edi go'yo. U mana shu jozibasi bilan ham o'ziga maftun etardi. Baayni sahar palla billur hovuzda cho'milayotgan joyida siz bir parini uchratib qoldingiz, ammo u esankiramaydi, cho'chimaydi, bil'aks, sizga andakkina hayosizlik ham aralashganday tuyuladigan noz-karashmalar, sirli imo-ishoralar qiladi, bundan jo'shib ketib, yuragingiz gupullab urgancha "Xudo berib qoldiyov", deya hovliqib-entikib yoniga chopsangiz, qiqirlab kulgancha shartta samoga ko'tariladi-ketadi. Axir u o'z nomi bilan pari-da: ko'kda yashaydi, nari borsa zerikkan chog'lari gunohkor bandalarga istig'no qilib qo'yadi, baribir bularning qo'li-

dan hech narsa kelmasligini bilib turadi, bilib turib yana shu ishini qiladi, xom sut emgan gumroh odamlarning ustidan maza qilib kuladi: unisini qari deb hurmat qilmaydi, bunisini yosh deb izzat qilmaydi. Bundoq parivashni mahkam ushlab olib to'shiga bosadigan yovqur yigit faqat cho'pchaklarda yo bo'lmasa Usmon Azim deganga o'xshash xayolparast shoirlarning shig'irlarida uchraydi. Biroq Puankare gipotezasi mana shundoq ilohiy visolni sizga naq qilib qo'yadi: mathamat, yechimni toping, isbotlang, uchib ketayotgan pari qizning silliq oyoqlariga tushov tashlang, uni asta-sekin tortib oling va qarabsizki... Sizga beaded hayrat ko'zi bilan qarayotgan, sizga sig'inayotgan pari quchog'ingizda to'lg'anib turibdi-da. Bundan ortiq baxt bormi inson uchun?! Shaksiz, bu aytishga oson. Illo necha-necha yillardan beri ne-ne bilimdonlar, fan doktorlari-yu akademiklar yeng shimarib ishga kirishishadi, ammo baribir gipotezani isbotlay olishmay, mag'lubiyatni tan olgan holda, boshlari xam, qablari to'la g'am, maydonni birin-ketin tark etishadi.

1934-yili ingliz Jon Uaytxed "gipotezani isbotladim", deya hammayoqqa jar solishga shoshdi. Ammo tez orada o'z yechimida xato borligini sezib qoldi va darhol aybini bo'yninga oldi. Keyin sahnaga amerikalik Bing chiqib keldi. Afsuski, uning topganlari gipotezaning o'zidan bir necha barobar murakkabroq edi. Navbat grek Papakiriakopoulosga yetdi. Ammo o'n yillik og'ir mehnatning samarasi kutilgan natijani bermadi. 1961-yildan beri Smeyl familiyasi bir olim bu mavzuda qattiq izlanish olib boryapti, deb o'qidim. Ammo natijadan darak yo'q. Buning ustiga, u 1976-yili Prinstdonda saraton xastaligidan vafot etganmishmiyev...

Sanab o'tganlarim, albatta, dengizdan tomchi edi. Axir birgina Parijdagi Puankare institutida ne-ne oqil va oqila zotlar bu muammo ustida necha yillardan beri tinmay bosh qotirib kelishayotgani ham bor gap-ku. Shunga qaramasdan, ko'ngil-da, men ham shu maydonga kirmoqni, kuchimni sinab ko'rmoqni ixtiyor etdim. Hali yosh edim, romantika yurakni tark etib ulgurmagandi, miyam ham butunday tuyulardi o'zimga. Men shu mavzuda kitob ketidan kitob o'qiy boshladim, kutubxonaga tanda qo'yib oldim. O'qiganim

sayin gipotezaning isboti naqadar murakkabligini tushuna bordim. Ammo bu hol mening g'ayratimni oshirardi, xolos.

Nomzodlik mavzusi sifatida Puankare gipotezasini tanlamoqchi bo'layotganimni eshitgan ilmiy rahbarim ko'zoynagi ustidan men-ga xuddi o'zga sayyoradan kelgan dushman maxluqotga qaragan-day olayib qaradi, so'ng so'radi:

- Bu sohada qancha fan doktori, akademik borligini bilasizmi? Men taxminan bilishimni aytdim.

- Unda yana bir narsani bilib qo'ying, yigitcha, - dedi rahbarim so'nggi so'zni alohida ta'kidlab. - Mana shu ilmiy potensialning kamida yarmi umri davomida hech bo'lmasa bir marta siz aytayotgan o'sha gipotezaga qo'l urib ko'rgan va oxir-oqibat uni yechim-siz masala sifatida qoldirgan.

Men o'z fikrimni bildirishga jur'at etdim:

- Lekin uning yechimi bor-ku. Yechimsiz gipoteza bo'lishi mumkin emas.

Gapga usta rahbarim bo'sh kelmadi:

- Albatta, bor. Yechim tuxumning ichida, tuxum sandiqda, sandiq yerto'lada, yerto'la esa, - rahbarim ko'kka ishora qildi, - hov anavi yoqda. Baland dorga osilib bo'yningizni sindirib yurgandan ko'ra, yigitcha, aniq amaliy ish bilan shug'ullaning. Davlat sizga sarob ortidan yugursin, deb pul berib qo'ymaydi! Uzoqdagi quyruqdan yaqindagi o'pka yaxshi. Agar shunchalik aqlingiz zo'r ekan, hech o'ylab ko'rmandingizmi, nahotki, shunaqangi absurd mavzuni ilmiy kengash sizning nomzodlik ishingiz sifatida tasdiqlab bersa? Hech qachon bunday bo'lmaydi, yigitcha, hech qachon!

Darhaqiqat, bu zalvorli dastak edi. Ilmiy kengash baribir rahbarining qosh-qovog'iga qaraydi... Noiloj bo'yin egdim:

- Qanday maslahat berasiz, ustoz?

Rahbarim o'shshayib turaverdi-turaverdi, axiyni yorildi:

- Mayli, tish kavagimda asrab yurgan bir mavzu bor edi. O'shani sizga bag'ishladim. Ilmiy kengashdan o'tkazib berish kafolati bilan. Qarabsizki, ikki yilda geometriya-topologiya mutaxassisligi bo'yicha fizika-matematika fanlari nomzodi bo'lib turib-siz-da.

O', Xudoyim, bu "bag'ishlash"lar va "kafolat"lar ortida nima turganini bilmasam ekan!.. Ammo nima qilay? Sal sarkashlik qil-sam, rahbarim to'nini teskari kiyib oladi, ana undan keyin xayr, aspirantura, xayr, ilmiy ish! Odatdagidek, yomonlikning bunday-rog'ini tanlashga to'g'ri keldi.

Rahbarim ustomonligidan tashqari ayyor ham edi. Matematik handasa sohasida o'zimizdan chiqqan mutaxassislar barmoq bi-lan sanarli ekanini yaxshi bilardi. Shu sabab Lobachevskiy, Alek-sandrov, Pogorelov, Bakelman, Verner, Kantor, Yefimov, Poznyak, Shikinning izlanishlari haqida yarim soat ma'ruza o'qigach - us-tozim sovg'a-salomni shu tariqa halolab olardi, har qalay, buyam vijdonga suv sepib qo'yishning bir vositasi bo'lsa kerak-da - aloha, menga Galiley fazosining siklik sirtlari bo'yicha tadqiqotni boshlab yuborishim mumkinligini aytdi.

Shubhasiz, bu ham juda qiziqarli mavzu edi. Ayniqsa, Dolgaryov bilan Martinesning keyingi yillarda chop etilgan bahsli maqola-larini e'tiborga olsak. Tishimni tishimga bosgancha ishga kirish-dim.

Men qattiq mehnat qilardim. Matematikaning baribir hech nar-sa bilan tenglashtirib bo'lmaydigan o'z ohanrabosi bor-da: birpasda o'ziga tortib oladi-qo'yadi. Ayniqsa, uch o'lchovli yevklid fazosida erishilgan yechimlardan so'ng yarim yevklidli fazo geometriyasi ochilmagan qo'riq bo'lib turardi o'ziyam.

Ammo baribir Puan-kare boshqacha edi-da. Bu mavzu go'yo birinchi muhabbat singari sira qalbimni tark etmas, aksincha, to-bora uning qat-qatiga chuqurroq kirib borayotganday edi. Azaldan intizomni yaxshi ko'rardim, har bir soatda nima ish qilishimni aniq belgilab olishga intilardim. Shu sababli hech chiday olmagach, uyquni teng yarmiga qisqartirdim-da, tejalgan vaqtimni gipoteza isbotini topishga bag'ishladim.

O', bu hayotimning eng yorqin, eng mazmunli, eng shodon, eng hayratlarga to'la kunlari edi. Yotoqxonada yashardim. O'lguday charchardim, gohida hatto choy damlab ichishga ham holim yet-masdi, ba'zan sutkalab tuz totmasdim, pulim bor paytlari kartosh-ka qaynatib yerdim, ishga ketayotib portfelimga ikkita qaynatilgan tuxum solib qo'yardim: shu mening tushligim bo'lardi... Biroq

baxtiyor edim. Zero, asosiy ishim millimetra-millimetr, zarra-ma-zarra oldinga siljiyotganday edi. Horigan chog'larim emaklab bo'lsa ham maqsad sari intilardim, qo'llarimdan mador ketga-nida yerni tirnoqlarim bilan kovlab bo'lsa ham ilgargiga siljirdim. Illo, illo, oldinda, olis ufq ortida bo'lsa ham, neningdir shamo-yili ko'rinish qolayotgandek, nimadir o'ziga chorlayotgandek edi. Tunlari qandaydir sirli shivir-shivirlarni eshita boshladim, tonglari sarin shabada to'lqinida nafis, shudringga cho'mgan mayin libos yuzimni silab o'tardi. Men hatto buni ovoz chiqarib aytish u yoqda tursin, o'ylashga ham qo'rqudim: nahotki, nahotki...

### III

Vaqt, vaqt, vaqt... U bunchalar tez o'tadi? Qayoqqa bunchalar shoshadi? Bu qattol shiddat inson umrini tushga, to'yoga aylanti-rib qo'yamaydimi? Uxlading-u uyg'onding. Qisqagina davom etgan tushingda esa butun umringni ko'rding.

Bunchalar shafqatsizsan, vaqt?..

Yetti farzandli xonadonning to'ng'ichi edim. Bir kuni uyga borsam, allaqachon yigirma oltiga kirib qo'yganligimni keskin-roq ohangda pisanda qilishdi. Katta singlimni-ku, turmushga uza-tgandik, ammo ukalarim g'ingshiyverib bezor qilib yuborishdi. Jon-jon deb ularga yo'l beray desam, ota-onam ko'nmaydi: nima emish, shusiz ham ovulda men haqimda "haligacha bir boshi ikkita bo'lmagan, bir balosi borov, axir bu tengilarning bolasi maktabga boryapti", qabilida gap-so'zlar yurganmish, agar bunday qilsam, o'sha mish-mishlarga pishang bergan bo'larkanman.

Darvoqe, uylanish borasida menda muammoning o'zi yo'q edi. Balki, shu sabablidir, bu masalaga unchalik ahamiyat ham bermab-man. Ya'nikim, otam ko'p yillar burun yaqin jo'rasinikiga mehmon-dorchilikka borganida, uning pildirab chopib yurgan, mendan tax-minan besh yoshlar kichik qizchasini ko'rib qoladi va: "Kel, quda bo'lavlik, shu qizingni to'ng'ichimga o'beraman", - deydi. Xullas, garchand borib qulog'ini tishlamagan bo'lsam-da, o'ziga xos be-shikkeretti. Oradan yillar o'tdi, otamning jo'rasi vafot etib ham ket-di. Ammo otam: "Lafz halol, men va'damni bajaraman, bo'Imasa

jo'ram go'rida tik turadi, u yoqqa borganimda yoqamdan oladi", deb turib oldi. Xullas, kim borib ko'rib kelsa, "sochi uzun" deb ta'riflaydigan bu qiz necha yildan beri o'sha uzun sochini o'rib, kelgan sovchilarni qaytara-qaytara, teng-to'shlari o'tirish-po'tirishlarga chaqirsa ham chiqmasdan, kaminani kutib o'tirgan edi.

O'y-xayolim Puankare bilan yarimyevkli didi fazo handasasida edi. Uchrashuvga chiqib o'tirmadim. Shuncha odam maqtayaptimi, har nechuk, uzun sochidan o'zga fazilatlar ham bisyoridir bo'lg'usi rafiqamda.

Ota-onaning farzandini uylantirishi farz deyishadi. Ammo men bu "farz"ning qanchalar azobli, asabiy tarzda kechishini o'shandada ko'rdim. To'y meni yon-atrofga real ko'z bilan, hushyorroq qarashga o'rgatdi, boshqacharoq aytadigan bo'lsam, birdaniga ulg'aytirib ham qo'ydi. Men o'shangacha rostdan ham romantik o'y-xayollar og'ushida "non"ni "nanna" deb yurganimga ishonch hosil qildim.

Institutda kichik ilmiy xodimman, maoshim yetmish rubl. To'y esa ajdaho misoli og'zini ochib turibdi: yetmish rubl nima degan gap, odamning kulgisini qistatmang, ming rubl ham urvoq bo'lmaydi... Ota-onamning, ukalarimning qarz izlab yelib-yugurishlarini ko'rib issig'im chiqib ketadi, xijolatdan o'zimni qayerga qo'yishimni bilmayman. Yana ajablanaman: shuncha tashvishlariga, pul ilinjida odamning g'ururini yer bilan bitta qilib tashlaydigan bo'yin egib turishlarga, hali to'y boshlanmasidan burun quda taraf bilan to'rt gaz mato ustida jiqqamush bo'lishlarga, halitdan u tomon vakillariga - bejiz "dushman tomon" deyishmas ekan, shekilli - olayib, "Bir amallab kelinni tushirib olaylik! Keyin kunlaringni ko'rsatamiz!" deganday o'qrayib tikilishlariga qaramasdan, baribir, ular baxtiyor edilar. Ming urinsam ham buni mantiqiy jihatdan asoslab, tushuna olmadim. Har nechuk, ukam aytganidek, shaharda ilm ortidan quvib yuraverib oyog'im yerdan uzilgani, urf-odatlarimizni unutib qo'rganim rost, shekilli. Mana shu xijolatpazilik asorati bo'lsa kerak, to'y oqshomi igna ustida o'tirgandek bezovtalanib, o'rtada yerning changini ko'targancha, astoydil o'ynayotgan xesh-urug'larim, yaqinlarimga miyasi olib tashlangan qo'ydek angrayib termilib o'tiraverdim.

Chimildiqda ko'rdim: rafiqam sarg'ishdan kelgan, novcharoq qiz ekan. Sochi, ta'riflanganidek, taqimini o'pmasada, belidan pastga tushib turardi. Men har bir insonni koinot mo'jizasi, gulto'ji deb bilaman. Inchinun, har bir inson aziz va mukarram. Mana shu aqida ta'sirida o'sganman. Bo'lg'usi umr yo'ldoshimga ham shunday munosabatda bo'ldim. Axir bu qiz uydagilarining ixtiyorini o'zi uchun qonun deb bilgan, necha yil sarg'ayib umid-ishonch bilan meni kutgan, ko'chada tengdoshlari bilan o'ynab-kulib yurmagan, bog'larda begona yigitlar bilan qo'l ushlab sayr qilmagan. Mana shu keltirgan qurbonliklari evazigayoq men unga risoladigidek er bo'lishim lozim va joiz emasmi? Illo, o'z baxti yo'lida ixtiyoriy ravishda qabul qilingan har qanday cheklov alaloqibat munosib mukofotlanishi kerak emasmi? Mana shu tuyg'ular ta'sirida bo'lsa kerak, rafiqam ko'zimga olovdek ko'rinib ketdi.

Xudo shohid, uylangunimga qadar ham, uylanganimdan keyin ham xotinimga xiyonat qilmadim, shunday imkoniyat tug'ilganida esa o'zimni olib qochdim. Ko'z ochib ko'rganim umr yo'ldoshim bo'ldi.

To'shak masalasida sal tortinchoqroqman. Bilmadim, yangalari qanday yo'l-yo'riq ko'rsatishgan, qanday saboq berishgan, xullas, qovushganimizdan so'ng ayollik ostonasini hatlab o'tgan rafiqam choyshabni ko'rsatishdan tashqari boshimdan iliq suv quyib, yuvintirib ham qo'rganida, rosti, quvonchdan ko'zlarimga yosh keldi, uyalganidan bosh egib turgan xotinimni beixtiyor quchib olib, qulog'iga hayajon bilan shivirladim: "Biz baxtli bo'lamiz, jonim..." Nazarimda, shak-shubhasiz shunday bo'ladigandek ham edi. Taassufki... Men keyinchalik so'nggi so'zni biron marta xotinimning qulog'iga shivirlab aytmadim, aytolmadim. Hatto o'zim istagan taqdirimda ham dilimdan o'chib ketgan bu so'z tilimga qayta sitilib chiqmadi.

Oradan yillar o'tdi. Men har zamon-har zamonda o'zimni chimildiqda, kelinchak yuvintirib qo'yayotgan kuyov sifatida tasavvur etishga urinaman, ammo buni eplolmayman, qaylardadir olisda qolgan g'ira-shira manzaralar yanada xiralashadi, tussizlashadi, ularning o'rmini shafqatsiz voqelik egallab oladi-qo'yadi...

O'sha tongda esa... Yetmish ikki tomir bo'shshib, og'zining tanobi qochgan holda, tabiatning nikoh, er-xotinlik atalmish til-simotlariga shukronalar ayta-ayta o'tirgan mahallim edi. Qaynonam kirib keldi xonaga. Bir amallab salom berdim. Qaynonam o'tirdi. O'zi bilan olib kelgan urchug'ini yigira boshladi. Ha, aniq esimda bor, xuddi shunday bo'lgandi.

Ikkinchi onamga nedir yaxshi gaplar aytgim keldi. Axir shunday qizni voyaga yetkazgan, avaylab-asragan, chang ham qo'ndir-masdan menga olib kelib tutqazgan. Shu sababli bo'lsa kerak, qaynonam hol-ahvol so'rash asnosida "qizim yaxshimi", deb qo'ygan mahal meni nima jin urdi, tilimni qaysi qarg'a cho'qidi, bilmay-man, rafiqamni bir maqtab qo'yay degan niyatda taltayib:

- Qizingiz yomo-on... - desam bo'ladimi!

Ha, ha, "yomon" demadim, "yomo-on" dedim, balki, bunday bo'lishini bilganimda "...zo'r" degan so'zni ham qo'shib ket-tardim.

Umuman, menimcha, ko'p hollarda so'zlarning o'zidan ko'ra ularning aytilish ohangi, ifoda muhimroq. So'z shakli bo'lsa, ohang - mohiyat. Hamma gap mohiyatda axir. Shunday emasmi? Axir shoir ham o'zining sevgilisiga qarab "eh, qani endi dunyo-da yana biron qiz seni men kabi yomon ko'rsaydi", deydi, "yaxshi ko'rsaydi" demaydi. Illo, o'sha qiz oshig'iga "yomon ko'raman", deb turib, aslida, "yaxshi ko'raman" degan gap ohangi bilan ayt-gan. Shoir buni tushungan. Ammo qaynonam tushunmadi.

O'zim ko'rdim: oltmish yoshli kampirning yuzi birdan qiy-shayib, qahrli tus oldi, ko'zlari chaqchaydi. Bir yumalab ertaklar-dagi burni uzun yalmog'iz kampirga aylangan qaynonam nafrat bilan qarg'andi:

- Qizim yomon bo'lsa, yaxshisini topib ol!

Men hali javobga, o'zimni oqlashga og'iz juftlab ulgurmasim-dan qaynonam shartta o'rindan turdi va xonadan chiqdi-ketdi. Yo'q, shunchaki chiqmadi, eshikni qarsillatib yopib chiqib ketdi.

Qovun tushirib qo'yganimni angladim. O'ng'aysiz qilg'i uchun tarsaki yegan boladay yuzim uyat va nomusdan lovullab yonardi. Nimadir qilish kerak edi. Ammo nima?

Dovdirab qolgandim. Men to mulohaza yuritib, biron qarorga kelib ulgurgunimcha esa g'isht qolipdan ko'chib bo'lgandi: qizi-ning xonasiga kirib eshikni ichkaridan qulflab olgan qaynonam yangi kelinchak bilan tushga dovur tarbiyaviy soat o'tkazdi. Va... va shu bilan hammasi tugadi.

Keksa ayol nima desa degandir, ammo xayr-ma'zurni ham nasiya qilgan onasi jo'nab ketganidan so'ng ichkaridan yulqinib, rangi bo'zarib chiqib kelgan rafiqam birov bilan urishguday vajo-hatda edi. Bu qiyofa uni ancha-muncha xunuk ko'rsatardi.

Bu dunyoda erkak kishi uchun eng og'iri - o'zini oqlash. Ayniqsa, qilmagan gunohi uchun. U paytlari xotinimning yuzi-da sal-pal hayo pardasi bor edi. Shungami, xayriyatki shang'il-lamasdan, ammo zaharli so'zlarni tishlari orasidan bitta-bittalab chiqargan ko'yi boshingga malomat toshlari yog'dirishga tushib ketdi: "Boring o'sha yaxshilaringizning oldiga! Biz endi yomon bo'lib qoldik-da, a? Ishingiz bitgandan keyin... O'zimam biluv-dim-a bir kelib xabar olmaganingizdan shaharda o'ynashlaringiz ko'pligini... Onamning gaplari to'g'ri o'zi. Siz meni o'qimagan deb mensimaysiz. Lekin o'qiganlariyam ko'ryapmiz. Bari bi-ri-biridan battar. Siz o'shanaqalarning orasida yurgansiz-da..." Na gapingni eshitadigan, na izohingga quloq tutadigan, daqiqasiga o'ttiz uch o'miga qirq besh tezlikda aylanayotgan plastinkaday tin-may javrayotgan ayol oldida o'zimni qanday ham oqlay olardim? Bir-ikki urinib ko'rdim, foydasi bo'lmadi. Xotinimning yuragim-ga nashtarday sanchilayotgan hamma gaplari bir bo'ldi-yu, "Agar men tegmaganimda.. men tegmaganimda xotinsiz qolib ketardin-giz, yuraverdingiz o'sha buzuqlaringiz bilan o'zingizam buzuq bo'lib!" degan haqorati bir bo'ldi. Yo rab! Bu nima degan gap axir? Axir bu... Mening erkaklik sha'nimni balchiqqa qorish bilan baro-bar emasmi? Nega, nega u birinchi kechadan keyinog menga umr yo'ldoshi bo'lganligini ta'na qiladi? Nima, u bo'lmasa, men bir umr bo'ydoq o'tarmidim?

Ko'zlarim namlandi. Beixtiyor kafedramizdagi ismi-jismiga mos laborant Munisani, uning hurkak nigohlarini esladim. Keyingi paytlari uni ko'rsam, yuragim dukullab uradigan, etim g'alati jimir-lashadigan bo'lib qolgandi. Shuning uchun kafedraga borishni ham

yig'ishtirgandim. Yo'q, yo'q, men buni ongli ravishda qildim, mukofot yoinki maqto'v ilinjida emas. Bu voqeani eslagim kelmaydi. Ammo qaysi gunohim uchun ta'na-dashnomlar do'li bunchalik ustimga yog'ilyapti, shuni tushunmasdim. Yana kimdan, tuni bo'yiquchog'imda bo'lgan, men o'pgan, meni o'pgan, o'zini menga baxshida aylagan, meni yuvintirib qo'ygan, men hayajon bilan "jonim" deb ataganimda yuzini uyalinqirab yashirgan ayoldan.

Ko'nglim birdan bo'm-bo'sh bo'lib, huvullab qoldi. Xotinimning ta'nalaridan ko'ra bu gaplarning nafrat va g'azabga qorishiq ohangi meni adoyi tamom qilmoqda edi. Qachon ulgurdi u menga dushman bo'lib olishga? Qachon ulgurdi u menga bu qadar tiyiqsiz alam bilan qarashga? Nima, men yeb, u quruq qoldimi? Qo'yib bersa, hozirning o'zida meni pichoqlab tashlashdan, etimni xomtalash qilishdan ham toymaydiganga o'xshaydi. Aybim onasiga aytgan bir og'iz gapimmi?.. Shumi og'iz to'ldirib aytiladigan oilaviy hayot, shumi "er-xotin - qo'sh ho'kiz" deganlari?

Yana o'zimcha yuragim terak bargiday titrab, ich-ichimdan iltijo qilaman deng: "Ey Xudo, ishqilib, bu gaplarni ota-onam yoku-singillarimdan bironyasi eshitib qolmasin-da... Sharmanda bo'lamiz-ku, sharmanda..."

Singan ko'ngilni chegalab bo'lmas ekan.

Shu oqshom biz, bir kunlik er-xotin, bir-birimizga teskari qarab yotdik. Xotinim-ku tezda pishillab uxlab qoldi, lekin men tonggacha ko'z yummay chiqdim. Bu men kutgan, ayniqsa, birinchi kechadan so'ng ajoyib bo'lishiga ishonib qolgan oilaviy hayotga o'xshamasdi...

Ertasi kuni Piskunovning "Oliy matematika" sini o'qib o'tirgandim. Xotinim boshimga kelib turdi-turdi, so'ng:

- O'ldim-kuydim kitobmi? - deb so'radi.

- Shunga o'xshashroq, - deb qo'ya qoldim.

Rafiqam cho'ntagidan o'quvchilar daftaridan yirtib olingan bir varaq qog'oz chiqarib berdi:

- Uni Toshkentingizga borganda o'qiyverasiz. Avval manavini o'qing.

Bu ro'yxat edi. Adashmasam, agar g'ij-g'ij imlo xatolarini tuzatib o'qisak, "Dushanba - xolamning tug'ilgan kuni. Seshanba -

dugonamning to'yi. Chorshanba tushga - ammamning uyida "non sindirar", kechqurun - "qiz chaqirdi" ... mazmunida edi. Bu ro'yxat sinoatini so'radim. Yosh kelin-kuyov sifatida ularning hammasiga borishimiz kerak ekan. Tabiiyki, quruq qo'l bilan so'ppayib kirib borilmas, arzirli sovg'a-salom olish shart ekan.

Rafiqam alohida ta'kidlab o'tdi:

- Yosh kelinman. Hammaning ko'zi menda bo'ladi. Uyaldirib qo'ymang. Mening uyalganim sizning yerga kirib ketganingiz bo'ladi-ya.

Buni-ku tushundim. Ammo nima uchun o'zimizning to'yimizga tushgan sovg'a-salomlardan bunaqa joylarga olib borish mumkin emasligini aslo tushunmadim. Shunaqa irim bor emish: yangi kelin-kuyovga berilgan sovg'a-salomlarga teginilsa, shu ro'zg'ordan baraka ketarkan, urish-janjalam ko'payib qolarkan. Bu men uchun oliy matematikadan ham qiyinroq masala edi.

E'tiroz bildirishga urinib ko'rdim:

- Pul masalasi sal og'irroq bo'lib turibdi-ku...

Rafiqam qovog'ini uydi:

- Bo'yningizga majburlab osilib olmagandim. Mard bo'lib uylandingizmi, endi bu yog'igayam chidab bering-da. Axir ikki barmog'imni burmimga tiqib sho'ppayib kirib borsam, uyimdagilar, qarindosh-urug'lar: "O'l bu kuningdan! Topganing shu qurum-soq bo'ldimi? O'zing pishirgan oshni endi aylanibam, o'rgilibam ichaver", - deyishmaydimi? Ustimdan kulishmaydimi? Nima, birinchi kundan meni yer bilan bitta qilmoqchimisiz?

Yana tushuntirishga urindim:

- Axir... yo'q narsani qayerdan topay? Uydagilarning ahvoli ma'lum-ku. To'y qilib berishdi...

Eshitganim ilon po'st tashlaydigan gap bo'ldi:

- To'yni pesh qilmang. Ja unaqamagtanadigan to'y bo'lgani yo'q. Onam bechora uyatlarda o'ldi... Siz menga to'yni minnat qilgandan ko'ra jonday xolamning tug'ilgan kuniga nima sovg'a qilishni o'ylang!

Bunisi endi haddan ortiq edi. Jahlim chiqqanini ko'rgan ikki kunlik kelinchak yig'lamsiradi:



- Menga ne-ne kazo-kazolardan sovchilar kelgandi. Men bo'lsa...

Endi nimadir deyish befoyda. Shu sababli ikkala qo'limni ko'tardim-u, bosh egib onamning huzuriga chiqdim.

Kunda-kunora albatta biror tadbir chiqib turadi. Haqiqatan ham shaharda yashab qishloq rasm-rusumlari, urf-odatlaridan yiroqlashib ketgan ekanman. Unaqa desam, bizning davrimizda, misol uchun, ayollar tug'ilgan kunlarini bunaqa tantanali nishonlashmasdi, shekilli. Yo bola bo'lib buni sezmagan ekanmizmi?

#### IV

Avval "kichik chilla, qorong'ida yurish mumkin emas, uzoqqa borish mumkin emas" deyishdi, keyin "katta chilla". Ishqilib, qirq kuncha qishloqda qolib ketdim.

Shundan so'ng ota-onamdan ruxsat so'rab xotinimni shaharga olib keldim. Institutning oilaviy yotoqxonasidan katalakday xona ajratib berishdi.

Mo'ljallagan ishlarimdan ancha orqada qolib ketgandim. Grafingma yetib olishim kerak. Bir tomonda nomzodlik ishi, ikkinchi tomonda Puankare menga ilhaq ko'z tikib turardi. Endi belni mahkam bog'lab tadqiqotlarimni davom ettirishga kirishmoqchi bo'lib turganimda kutilmaganda, oyoq ostidan katta bir muammo chiqib qoldi.

- Vatan kerak, - dedi xotinim.

Avvaliga bu gapning mag'zini chaqmadim. Shunda rafiqam izoh berdi:

- Uy kerak. Obshitada ham yashab bo'ladimi?

Bu talabni qulog'im tagidan o'tkazib yuborishga harakat qildim. Nega endi shuncha odam yashayotgan "obshita"da yashab bo'lmas ekan? Buning ustiga, oson bo'ptimi uy olish? Otlisqa yo'g'-u... Ana, navbatga yozilib qo'rganman, biron o'n yillarda berib qolishayam, do'ppimni osmonga otsam bo'ladi. Biroq xotinim mutaassiblarcha talabini takrorlagani-takrorlagan edi: "Vatan kerak!"

Yo'q, shaharning susti bosdimi, ikkinchi yarmim baqirib-chaqirib janjal qilmadi. Buning o'rniga dunyoning jami tashvish-g'am-

lari, vahimalari yelkasiga tushganday birdan qaddi bukhayib qoldi, so'ng noma'lum nuqtaga tikilgan ko'yi lablari titrab pichirladi: "Endi nima qilaman?.. Endi qanday yashayman?.." Baayni jami odamzod qirilib, ulkandan ulkan dunyoda yolg'iz o'zi qolgandek. Rafiqamni bu ahvolda ko'rib yuragim tuz sepilgandek achishdi, beixtiyor ko'zlarimga yosh qalqdi. Axir u sho'rlik uyim-to'zg'orim, qolaversa, meni deb shu ko'nga tushyapti-ku.

Joylashganimizga to'rt kun o'tar-o'tmas qovog'ini to'rvaday osiltirib qaynonam kirib keldi. Kampirning gaplari esa ma'lum:

- Men oyday qizimni birovning irgasida sarg'ayib yashasin, deb erga bermagandim. Yuborganlaringizning "Toshkentda saroyday hovlisi bor", degan lafziga ishongandim. Agar qizimni ikkita odam kelsa, uchinchi ko'chada kutib turadigan bu tovuq katagiga tiqib qo'yishlaringni bilganimdami....

Va hokazo, va hokazo. Bu ahvolda ishlab bo'lmasdi. Bu ahvolda yashab ham bo'lmasdi. Nima, sovchilardan birontasi bo'lg'usi kuvovto'rani targ'ib-tashviq qilayotgan mahali aytib yuborgan o'tirgi uchun men boshimni kundaga qo'yishim kerakmi? Axir tomchi toshni teshadi; jigar-bag'ringni o'yib o'tadigan gaplarga ham bir kun chidash mumkindir, ikki kun, xo'p, ana, nari borsa uch kun, ana undan keyin nima qilasan? Portlaysan-da!

Lekin men... portlamadim. Illo, menga tinchlik kerak, xotinjamlik kerak edi, mayda-chuyda g'ishavalar bilan, nimanidir isbotlashga urinib o'tkazishga sarflaydigan vaqtimning o'zi yo'q. Shusiz ham qirq kunimni osmonga sovurib kelgan edim. Meni qilinadigan bir olam ishlarim, ehtimolki, qanchalik dabdabali eshitilmasin, umuminsoniy ahamiyatga molik kashfiyotim kutib turardi. Shu bois boshimni yanada quyiroq egdim va ota-onam, uka-singillarim, haddim sig'adigan qarindosh-urug'larim, do'st-birodarlarimga qarz so'rab bordim. Kim berdi, kim bermadi. Uylanganim munosabati bilan ish joyimdan moddiy yordam, mukofot, jamoa yig'ib bergan pul deganday, ishqilib, bir oy ichida to'rt ming rublga yaqin pul to'pladim. Kooperativ uy degani bo'larkan, bir xonali kvartirasini taxminan shuncha turarkan. Shunaqa kvartira topildi ham, besh qavatli uyning beshinchi qavatida. Nima qipti, to'qqizinchi

qavatda yashaydigan bir tanishim hazillashib aytganidek, "tapa" ga yaqinroq.

Men shoshilardim. Bu o'zimming sira uquvim yo'q yumushlarni tezroq bir yoqli qilish, nomzodlik ishim bilan gipotezaga iloji boricha tezroq qaytishni istardim. Vaqt ketayotgandi, vaqt!

Yo Rab, kim aynitib yoxud o'rgatib ulgurgan, tasavvur etolmayman, ammo mutlaqo kutilmaganda, baayni yoz osmondan do'li yoqqanday, rafiqam bir xonali "vatan" dan voz kechib qoldi. Bizga ikki yoki uch xonali va iloji boricha ikkinchi yoki uchinchi qavatdagi "vatan" kerak ekan. E'tiroz uchun juftlagan og'zimni "Shu holimda beshinchi qavatga qanday chiqaman, yarim yo'lda bola tushib qoladi-ku! Sizga xotin, farzand kerakmi o'zi?" degan dastak shartta yopdi. Har qalay, ayol kishi erkakka nisbatan ro'zg'orni, oilani ko'proq va xo'proq o'ylashi rost, shekilli.

Biroq bu istakni amalga oshirishim uchun to'plaganimning yana yarmicha aqcha topishim kerak edi. Aytishga oson.

G'alati davrda yashayotgandik. Qandaydir kooperativlar, shirkatlar yomg'irdan keyingi qo'ziqorinlarday bodrab chiqayotir. Odamning suqi kirar darajada afsonaviy daromad topayotganlar, partiya vzosining o'ziga ming-ming rubllab to'layotganlar... Birovning topgani esa hamisha ko'zingga osmondan tushganday bo'lib ko'rinaveradi.

Xullas, gapdan gap chiqdi va o'sha jo'ram meni birgalikda takon biznes qilishga taklif etdi. O'zi pishib turgan ish ekan. Ya'ni pul mendan, g'oya undan, daromad o'rtada. Tikkan mablag'im bir yarim oy ichida eng kamida ikki barobar bo'lib qaytishi kafolatli ekan. Kamida. Ish yurishib qolsa, bema'lol uch, hattoki to'rt barobar ham tashlab berishi "ikki karra ikki - to'rt" singari aniq va ravshan aksioma ekan. Bu men uchun ayni muddao edi: bir yarim oy nima, "zuv" etib o'tadi-ketadi. Zato keyin... Qo'l tashlashdim. Xudo bersa quliga, chiqarib qo'yar yo'liga deganlari shu-da.

Endi o'sha kunlarimni qo'rqinchli tush kabi eslayman.

Mirzacho'lining qoq kindigidagi xo'jalikning yarim xaroba fermasi. Hovli piyozga to'lib ketgan. Hammayoq piyoz. Biz, tadbirkorlik orqali katta pul topishga jahd qilgan ikki o'rtiq va kunlik ishga yollangan o'ttiz chog'li erkak-ayol, ertalabdan qora kech-

gacha bosh ko'tarmay ishlaymiz. Ishimiz ajabtovur. Har kimning yonida elektr plitasi, plita yetmay qolganlarga dazmol yoki ichiga olov yoqilgan pechkalar berilgan. Biz piyozning orqasini pichoqda shartta kesamiz-da, shu kesilgan joyni qizib turgan plita yoki dazmolga bosamiz, so'ng xirmonga irg'itamiz. Shunday qilinsa, o'n besh-yigirma kunlik yo'lda bu sabil chirib qolmas ekan. Axir biz bu mahsulotning naq to'rt "KamAZ" ini shu zaylda Rossiyaga yuborish uchun ulgurji sotib olganmiz. U yoqda esa bir kilo ach-chiq piyozning narxi... Ehhe, eshitsang, og'zingning suvi qochadi, foydani hisoblayverib boshing aylanib ketadi...

Tasavvur qiling: kun issiq, havoda qilt etgan shabada yo'q, biz ishlayotgan to'rt tomoni berk saroyning quruq hammomdan farqi qolmagan, butun badanimizdan shuvullab ter oqadi, buyam kamday, qo'lansa piyoz isi dimog'imizga, kiyimlarimizga o'rnatib qolgan, undan qutulib bo'lmaydi. Xudo shohid, men hatto biz ajratib tashlayotgan chiqitlarni yeyavergan sigirlar sutiga ham piyoz isi o'rnatib qolganini o'shanda ko'rganman. Ertalab piyozdog' bilan yarim kosadan sut, tushlikka ozgina serpiyoz sho'rva, kechqurunga yana piyozdog'; tarashadai qotib qolgan qora buxanka. Barmoqlar achiydi, ko'zdan duvullab yosh oqadi, o'pkang yulginguday bo'lib yo'talasan, bosh aylanadi... E, "dod" deb yuborgisi keladi odamning!

Ikki hafta mana shu jahannam azobida o'tdi. Axiyri ishni tugatdik. "KamAZ" lar karvoni jo'ram boshchiligida "Qaydasan, Novosibir?" deya yo'lga tushdi. Yengil nafas oldim. Shu qadar zarda bo'lganimdan piyoz degan narsaga boshqa umuman qaramayman, ovqatgayam ishlatmayman, hatto kabobning ustigayam septirmayman, deya o'zimga o'zim ont ichgan ko'yi shaharga qaytdim.

Katta operatsiyani qoyillatib qo'ygan biznesmen sifatida bir oydan ko'proq jon-jahdim bilan o'zim sog'inib qolgan ishimni davom ettirdim, menga ora-sira ishonqiramay qarab-qarab qo'yayotgan xotinim ham "miq" etib og'iz ochmadi. Bu eng samarali, saodatli kunlarim edi. Nomzodlik ishimni bitirdim hisob. Yangi g'ayrat bilan Puanzare gipotezasi atalmish "totli toshyong'oq" ni chaqishga o'tdim. Illo, matematikada ham danagidan mag'zi shirin, mag'zi...

Ko'ngil-da, hali uylanmagan chog'larim orzu qilardimki, erta bir kun boshim ikkita bo'lsa, meni tushunadigan munis bir ayol -

yo'q, yo'q, men laborantkamizni nazarda tutganim yo'q, aslo! - yos-tiqdoshimga aylansa, yumushdan horib qaytgan chog'larim uyga yaqinlashganimni savqi tabiiysi bilan sezsa, dik etib o'rnidan tursa, oshiqib eshik yoniga kelib tursa, tabassumlarga ko'milgan ko'yi: "Charchamay keldingizmi, dadajonisi?" - deya kutib olsa, ohista quchsa, issiq yuzini yuzimga bossa, yonog'ini o'pich uchun tutsa, portfelimni qo'limdan olganidan so'ng esa yana bir bor quchoqlab qo'ysa... Dasturxon ustida yelkasini yelkamga tegizib o'tirsa, mening o'z yumushim borasidagi bosh-keti yo'q gap-so'zlarimni ko'zlarimga hayrat ila termilib eshitsa, men bilan ich-ichidan faxrlansa, g'ururlansa, mendan mo'jiza kutsa, menga ishonib-topinib yashasa...

Men aniq fan vakiliman. Dunyoning o'zi raqamlardan iborat. Buni mendan oldin aytib ketishgan. Mendan keyin ham aytishadi. Umuman olganda, matematikani bilmaydigan odam boshqa fanni-yam tushunmaydi. Ayniqsa, bunaqa odam o'zining johilligini bil-may, unga davo izlamay o'tib ketishi yomon. Yo'q, bu gapni men aytmaganman. Yetti yuz yil burun Bekon degan donishmand aytib o'tib ketgan. Gapning po'stkallasiyam shu-da. Inchinun, kim aytadi matematiklarga lirika yot deb? Bu sira maqtanish bo'lib tuyulmasin, ammo ora-sira shunday odamni entiktirib-to'liqtirib, telba yurakni hapriqtirib yuboradigan orzularga umidvor asir bo'lgan mahallaring ismsiz allaqanday tuyg'ularni uyqashroq misralarda yozib qo'yging kelib ketadimi-yey. Deylik, shundoq eshikni ochsam-u... "Meni ko'rgan mahali ko'zlari chaqnab ketsa, naqsh olmaday lovullab, yuz-lari yashnab ketsa..." Nainki uch-to'rt kun, hattoki bir kunga qish-loqqa ketgan bo'lsa ham, u yoqdan seni sog'inib, uchib yetib kelsa, o'zini bag'ringga tashlasa, tunlar quchog'ingda entikib, "faqat sizni-kiman..." deya shivirlasa, tuyg'ular po'rtanasiga dosh bera olmay ho'ngrab yig'lab yuborsa... Idealda esa, haligi o'ris shig'irchi xotin yozganiday, bir lahzaga xayrlashayotgan bo'lsa ham xuddi asrlar-ga ajrashayotganday senga sog'inch bilan to'yamay termilsa, qo'lla-ringni ko'kragiga bosib mahkam siqsa... Voqelikda ideal bo'lmaydi deysizmi? Bekor gap. Aslida, hayotimizning o'zi ideallikdan, hayra-tomuz mukammallik qonuniyatlaridan iborat. Aks holda, dunyo al-laqachon chok-chokidan so'kilib ketgan bo'lardi. Misol izlab uzoq-

qa ham borib o'tirmang, maktab davrida fizika darsida yodlagan gaz qonularingizni eslang. Xo'sh, bu qonularning bari nimaga tathiq etiladi? Ha, balli, ideal gazlarga. Aslida, Puanzare ham tathiq etilayotgan geometrik jismini ideal deb biladi...

Yetar-a? Gapni orzumdag ayoldan boshlab, yana gipotezaga olib kelib taqaganimni qarang. Qip-qizil bachkanalik, to'g'rimi? Xayol baribir o'z nomi bilan xayol-da. Zero, men aksariyat omad-siz hamjinslarim bir umr kamina singari mana shunday ilinjlar al-dovida o'tib ketishlarini yoinki uydan topmaganini ko'chadan qidirishlarini keyinroq tushunib yetdim.

... Ko'chadan hovliqib kelgan xotimim jo'ramni shaharda ko'rib qolganini aytdi. Ishonmadim. Ammo rafiqam o'zinikini ma'qullab turib oldi. Shunday ishdan chalg'itishganidan ko'nglim og'rigan bo'lsa-da, noiloj kiyinib jo'ramnikiga yo'l oldim. Eshikni uning rangi siniq xotini ochdi. Ko'nglim bir nimani sezganday "shuv" etib ketdi. Ichkariga kirib boshini bog'lab yotgan jo'ramning rang-ro'yiga bir qarashdan oq nedir kulfat, baxtsizlik sodir bo'lganini angladim. Piyoz yo'lda irib, suv bo'lib oqib ketibdi... "Menga ishonmasangiz, shopirlardan so'rang, barisining manzil-yam, telefoniyam bor. Lekin o'zimni ularga ro'baro' qilmang. Hali yo'l pulini berganim yo'q, ko'risha meni tiriklay yeb qo'yishadi, shuning uchun uyda biqinib o'tiribman... To'rt "KamAZ" dagi piyozam oqdi, xuddi mening achchiq ko'z yoshimga o'xshab oqdi", - dedi jo'ram sho'rqiilab.

Men tamom bo'ldim...

## V

Men tamom bo'ldim.

Baxtsizlik nomard ovchiday panada poylab turarkan: o'qi nishonga bir tegdimi, yovvoyi shavq bilan og'uli paykonlarini ketma-ket yo'llayverarkan.

Shu paytgacha qanday chidab yurishgan ekan, hayronman, ammo birdaniga ikkita ukam zudlikda uylanadigan bo'lib qolishibdi. Qo'shaloq to'y, qarzarlar... Bu yoqda alamdan kuyib, qorayib ketgan rafiqam ko'z ochirmaydi, meni bo'shangdan olib lattaga sola-

di, menga tegizib-tegizib yomon qarq'anadi, orada yig'lab-siqtab oladi, so'ng xezlanib jo'ramning manzilini aytishimni talab qiladi, "hay-hay" demasam, borib u bechoraniyam yulib keladiganday. Qayoqdan xabar topgan, ertasiyoq dog'uli qaynonam kirib keldi tuxumidan ayrilgan tovuqday hurpayib. Ona-bola mening bittayam so'zimga ishonishmadi...

Peshonamga bitilgan eng sho'r, eng qora kunlarim edi u kunlar... Odam o'zini oqlay-oqlay axiри charcharkan. Ammo yashash kerak edi. O'sha la'nati to'rt ming rublni joyiga qo'yish kerak edi. Ukalarimning to'yiga tuzukroq to'yona oborishim kerak edi. Eng og'iri - menga chirqirab yopishayotgan xotinim bilan qaynonamning asablarimni ayovsiz egovlayotgan, ko'zimga dunyoni qorong'i qilib ko'rsatayotgan ovozlarni o'chirishim kerak edi. Bir ko'ngil: "Kostumni yelkanga il-da, chiq-ke-t. Hammasiga tupur. Dunyo keng", - dedi. Boshqa ko'ngil: "Sen erkakmisan yo hajiqiz? Tug'ilajak zuryodingda nima ayb? Otalik mas'uliyati bormi senda o'zi? O'zing tirik bo'la turib xotiningni yesir, bolangni sag'ir qilmoqchimisani?" - dedi. Axir, mana, ahvolimni ko'rib rafigam chidab turolmadi: shu holida bir amallab bog'chaga ishga kirdi sho'rlik. Endi yuribdi bolalarning ishtonini yuvib. Ro'zg'or uchun fidoyilik bo'lsa shunchalik bo'lar-da...

Men boshimni yanada quyiroq egdim...

Shundan so'ng nima bo'ldi, nima qo'ydi - g'ira-shira eslayman. Go'yoki shundan keyingi o'tgan yillar ichida men yashamagandayman, oynavand qatas ichidagi olmaxon misoli tinim bilmay, o'pkam bo'g'zimga tiqilganicha harsillab chopaverganman chopaverganman.

Yodimda qolgani shartta betimni sidirib tashlash-u, tanish-begonalar oldiga qarz so'rab borish bo'ldi. Nechtasining uyidan, ishxonasidan orqamdan o'xshatib tepki yeganday muztar ahvolda chiqib keldim, sanab sanog'iga yetolmayman. Men hatto, yo Rab, nigohlari hurkakkina laborantka qizimiz Munisaga ham yukunib bordim. Bilib-sezib turardim, bundan ortiq pastkashlik yo'q edi, ammo... Rangi paxtaday oqarib ketgan, menga xavotirlanib qarab-qarab qo'yayotgan Munisa ertasi kuniyoq ikki yuz rubl bilan tilla uzugini olib kelib berdi. Darvoqe, men keyinchalik bu qarzni qa-

ytarolmadim: tez orada Munisa ishdan bo'shab boshqa joyga o'tib ketdi. Aynan qayerga o'tganini hech kim bilmadi, o'zim surishtirib yurishga esa na fursat topdim, na hafsala qildim. Jo'ramdan umid qilib turgandim, hech bo'lmasa yarmini ko'tarar, deb. Ammo u kuiltmaganda boshqa joyga ko'chib ketib qoldi. Bir-ikki qidirdim, topolmadim. Oradan uch oylar o'tib uni go'yoki yap-yangi "jiguli" mashinasini uchirib ketayotgan holda ko'rib qolgan rafigam qildi janjal, qildi janjal. Qorni qappayib qolgan, bu qorinda o'zingning pushti kamarindan bo'lgan zuryodni ko'tarib yurgan ayolning ichki nafrat, irg'anish to'la ta'na-dashnomlarini eshitishdan og'irroq uqubat bormi bu dunyoda?! Bu azobga chiday olmagan asablarim darz ketdi, muzlagan idishga qaynoq suv quyilganday chatnadi: bir kechada sochim qorday oqardi, boshim ora-sira prujinkasi chiqib ketgan qo'g'irchoqning kallasiday qiltillaydigan bo'lib qoldi, hayajonlangan mahallarim duduqlanishdek bema'ni qiliq paydo bo'ldi. Vaholanki, men talabalarga ma'ruza o'qirdim. Mana o'g'irlangan qo'lyozma-yu uning asoratlari xususidagi afsona qachon paydo bo'lgandi! Eng yaqin do'stim qo'lyozmani o'g'irlarmish-da, darrov himoya ham qilib qo'ya qolarmish! Ilmiy kengash menga tasdiqlab bergan mavzuni-ya?..

Qolgan xotiralarim ayqash-uyqash. Men bu yillar ichida murvati burab qo'yilgan, abadiy ishga mo'ljallangan qo'g'irchoqday tinmay ishladim. Avval ikki joyda, keyin uch joyda. Ertalabdan portfelimni qo'ltiqlab ma'ruza o'qishga chopaman, tushdan keyin qurilishda, kechasi qorovulchilik; shanba-yakshanba kunlari mardikorlik... Ish, ish va yana ish. Pul, pul va yana pul tashvishi. Har safar biron qarzimdan qutularkanman, yelkamdan shafqatsizlarcha bosib turgan navbatdagi zalvorli yukdan qutulganday yengil tortardim, ozgina qoldi-ku, o'shalar bilan ham hisob-kitobni tugatib olay, keyin yotib olib ilm bilan shug'ullanaman deb yupatardim o'zinni o'zim. Mavzu meniki, uni hech kim tortib ololmaydi, buning ustiga, u to'qson to'qqiz foizga bitgan. Puankare esa... shuncha yil kutgan, yana ozroq kutib tursa hech nima qilmaydi. Ulguraman. Albatta ulguraman. Axir atay o'zinni orqaga tashlamayapman-ku. Hozircha majburman. Ammo oz qoldi, juda oz qoldi, yana bir zo'ri bersam bo'ldi...

Bu orada "vatan"li ham bo'ldik. Rafiqam orzu qilganidek, ikkinchi qavatda, faqat ikki xonali. Bir xona qarz bo'lib qoldim.

Bu orada, ming shukr, bir o'g'il, bir qizning otasi bo'ldim.

Bu orada badqovoq qaynonam rahmatli bo'lib ketdi.

Bu orada Kembrijdagi Kley matematika instituti uchinchi ming yillik uchun matematikaning yetti eng muhim masalasi ro'yxatini e'lon qildi. Har bir masalani yechgan kishiga bir million dollardan mukofot va'da qilindi. Puankare gipotezasi ham bu ro'yxatda bor edi...

Bu orada men bilan bir paytda ish boshlagan Saidov yigirma yetti yoshida fan nomzodi, o'tuz yoshida fan doktori bo'ldi. Men esa oltmish yoshimda hamon katta o'qituvchi bo'lib, bir so'zni to'tiqushday ikki martadan takrorlab, talabalarga o'zim savol berib, javobini ham o'zim aytib yuribman... Darvoqe, yaqinda bir tanishimning nomzodlik ishi himoyasi sabab Saidov rahbarlik qilayotgan institutga bordim. Prezidiumda o'tiribdi qilichday bo'lib, Po'rim. Ko'zlar chaqnagan. Sira qarimaganday. Agar yonma-yon turib qolsak, bizni ota-bola deyiylari ehtimoldan xoli emas... Saidov men tomonga bir-ikki marta ko'z tashladi, ammo tanimadi, shekilli. Qayoqdanam tanisin? Indamay o'nimdan turib zaldan chiqib ketdim. Saidov mening iyig'i chiqib ketgan portfelimga qarab qolganini his qildim. Balki, nimanidir eslaganday bo'lgandir...

Biroq o'sha kuni mening boshimga tushgan sho'rishlar shu bilimlangina tugab qolmadi. Institutning gilam to'shalgan yo'lagida ketarkanman, devordagi zarhal harflar bilan "Bizning faxrimiz" deb yozilgan doskaga ko'zim tushib qoldi. Institutning faxri bo'lgan olimlarga shunchaki ko'z tashlab o'tayotib nogoh tok urganday joyimda qotib qoldim. Yanglshishim mumkin emas edi. Uchinchi qatorning boshida Munisa turardi. Hamon o'shanday munisa, ma'suma, o'shanday tortinchoq, hurkak nigohli... Go'yo yillar unga ta'sir qilmaganday. Dir-dir titrab, arang o'qiy oldim: "Munisa Falonchiyeva. Fizika-matematika fanlari doktori. Falon-falon yil-lari Tennesi universitetida ma'ruza o'qigan..."

Institut binosidan qanday chiqdim, eslay olmayman...

Tabiatda bo'shliq bo'lmaydi. U albatta nima bilandir to'ldiriladi. Qanchalik tan olmaslikka urinmayin, qanchalik qarshilik ko'rsat-

mayin, jon-jahdim bilan inkor etmayin, biroq baribir tabiat qonunlari qoshida o'zligimni g'ira-shira bo'lsa-da idrok etib turardim: ong-shuur, tafakkurni birdaniga ikki tomonga yo'naltirib bo'lmaydi, ikki kemaga osilgan g'arq bo'ladi. Inchunin, yo'lim, yo' moddiyat! Unisidan ellik, bunisidan ellik foiz olib yashab bo'lmaydi. Buning samarasi chala tug'ilgan bolaga o'xshab qolishi haqiqatga yaqinroq. Inchunin, tirikchilik g'uboriga to'lgan miyani yarqiratib tozalab tashlamoq, uning yo'nalishini oldingi o'zanga qaytarmoq imkonimdan xorijdagi ish emasmi?..

Tan olay, bolalarimdan umid qilgandim. Har nechuk, olma o'z daraxtidan uzoqqa tushmas. Biroq rafiqam tomonidan sarkash o'jarlik va qat'iyat aralash ishonch bilan yaratilgan "bo'shang, hech ishni eplolmaydigan, umri chaqa sanab o'tayotgan, boshqalarga o'xshab bunday yaxshi yashashni ham bilmaydigan" uquvsiz ota obrazini bilan farzandlarim o'rtasiga o'tib bo'lmas xitoy devorini o'rnatdi. Shunda ham ancha urinib ko'rdim. Ammo "iks"ning kubidan oddiy hosila ololmaydigan, logarifm bilan integralning farqini bilmaydigan bolalardan buyuk matematik chiqmasligini mendek uquvsiz katta o'qituvchi ham bilib-tushunib turardi...

## VI

Baribir, inson umid bilan, umid daraxti so'lganida esa ilinij niholi bilan tirik deyishadi.

Men har safar yangi o'quv yilida yangi talabalarga ma'ruza o'qishni boshlarkanman, dars oxirida bitta savolni o'rtaqa tashlayman. Odatda, bu saigina murakkab so'roq bo'ladi. Ya'ni men bilishga urinaman: shu auditoriyada o'tirgan qora ko'zlar orasida hech bo'lmasa bittagina favqulodda salohiyatlisi uchrab qolarmikan? Bu xatti-harakatim lakmus qog'ozini sinab ko'rishday gap, albatta: qani, auditoriyaning ishqorlilik, ya'ni ilm darajasi qanchalik? Ko'ngil tub-tubida esa ilinij: zora, shunaqa iqtidor chiqib qol-sa-yu... qolib ketgan ishimni, hech bo'lmasa, gipotezani yechishga urinib ko'rishni birgalikda davom ettirsak. Ehtimol, yoshlik g'ayrati va keksalik tajribasi qo'shilgan joyda chinakam mo'jiza yuz berar. Axir qatig to'kilgani bilan kadida yuqi qoladi-ku.

Yaqinda, nihoyat, fursat topib qo'lyozmalarimni diqqat bilan o'qib chiqdim. Nimadir bordek, qalbni qoplagan kul orasida esa cho'g'lar miltirab qolayotgandek...

Afsuski, sinovdan har safar hafsalam pir bo'lavergach, oxiri bu benaf mashg'ulotni tugatsammikan degan o'ylarga ham bora boshladim.

Aniq esimda bor - men axir matematikman, raqamlar mening ko'zir qartam - yangi o'quv yilining birinchi ma'ruzasini ikkinchi kurs talabalariga o'qidim. Hali aytganimday, matematikaning o'z ohanrabosi bor-da. Dunyoning matematik asosdagi bu qadar izchilligi, aql bovar qilmas mukammalligi meni hamisha hayratga soladi. Balki, shu sabablidir, ma'ruzam yakunlangan sayin titrab, hayajonga tusha boshlayman, ammo buning oqibatida duduqlanib qolishdan cho'chib, o'zimni o'zim nazorat qilib turishga ham urinaman. O'sha kuni ham ma'ruzam xotimasida doskadagi formulalarga ishora qilarkanman, beixtiyor jo'shqinlik bilan:

- Agar Gaussning manfiy chizig'i yuzaning egarga o'xshashligi bilan bog'langan bo'lsa, masala butunlay boshqacha tus oladi. E'tibor beringlar-a, butunlay boshqacha! Bu naqadar qiziqarli! - deb yubordim.

Oldingi partada o'tirgan talaba yonidagi sherigining qulog'iga shipshidi:

- Xuddi sigiri egiz tuqqanday quvonishini!

Aniq eshitgan bo'lsam-da, ayni damda bunaqangi luqmalarga e'tibor berib o'tiradigan ahvolda emasdim. Meni masalaning sino-ati o'ziga maftun etib bo'lgandi:

- Bu yerda endi hatto Lobachevskiy nazariyasi ham yordam berolmay qoladi. Bu nima degani? Bu endi handasa ilmida yangi kashfiyotlar yaratila boshlandi de-degani...

Duduqlana boshladim. Bu yomon alomat edi. Sal o'zimni bosib oldim-u, auditoriyaga qaradim. Ammo bironta chaqnagan, men bilan qo'shilishib hayratga tushayotgan nigohni uchratmadim. Hushyor tortdim. Ko'nglim chopmay, hech narsaga ishonmay turgan bo'lsam-da, soatimga qarab qo'ng'iroq chalinishiga uch daqiq qolganini ko'rdim va doskadagi formulalarga ishora qildim:

- Mana endi lemma 2.1.1.ga e'tibor qarating-a. Ma'lumki, Gauss egri chizig'ining bir qismi birlamchi - kvadrat shakl koef-fitsienti bilan aniqlanmaydi. Demak, biz "b"ni konstant deb olsak, unda lemma bir narsani ochiq-oydin nima qilyapti? Ha, ko'rsat-yapti. Ya'ni yuzadagi "b" - konstant bo'lsa, 0.1-formuladagi "D" o'z-o'zidan nimaga teng bo'lib qoladi? Xo'sh?

Bu mening lakmus qog'ozim, ya'ni talabalarimning ilm darajasini aniqlash yuzasidan berayotgan nazorat savolim edi. Odatdagiday, talabalar jim. Men qarasam, ko'zlarini olib qochganlari qancha!

Ajablanganimni yashirib o'tirmadim:

- Axir bu shundaygina ko'rinish turibdi-ku. Bolalar, sal diqqat qilinglar. Menga emas, formulaga qaranglar-a, formulaga. Naqadar oson bu yechim. O'zgina mantiqiy fikrlash kerak, xolos. Axir biz hech qo'rqmasdan, mana, "b" = cons" deb belgilab qo'ydik. Xo'sh, bu holda 0.1-formuladagi "D" o'z-o'zidan nimaga teng bo'lib qoladi?

Talabalar og'izlariga suv solib olganday yana miq etishmadi. Men xuddi shunday bo'lishini bilganday, qovog'imni uygancha o'zim sira foydalanmaydigan ma'ruza matnini qaytarib portfe-limga sola boshladim. Shu payt o'rtaroqda o'tirgan bir talabaning qo'l ko'targanini ko'rib qoldim. "Boshlandi. Hozir butunlay bosh-qa mavzuda savol beradi, odamni mayna qilishga urinadi. So'tak!" degan o'йда g'ijimbroq bosh iring'adim:

- Xo'sh?

Shunda yigitcha nima dedi deng:

- Agar "b"ni konstanta deb olsak, 0.1-formuladagi "D" nolga teng bo'ladi.

O'z quloqlaringa ishonmadim. Yo'q, "D" nolga teng bo'lishi to'g'ri edi. Ammo buni bu bola qayoqdan bildi? Nahotki, taxmin qilgan bo'lsa?

- O'rtaga chiqib shuni ko'rsatib bersangiz, yigitcha.

Talaba doska yoniga keldi va bir yarim daqiqa ichida hamma-sini isbotlab tashladi. Men angrayib qoldim. Qo'ng'iroq jiringladi. Mening ahvolimni ko'rgan talabalar joylarida jimgina o'tirishardi. Arang so'ray oldim:

- Davom etolasizmi? Endi biz yuzada hosilasi nolga teng bo'la-digan egri chizikli koordinatlarni nima qilishimiz kerak?

Yigitcha ikkilanmay javob qaytardi:

- Aniqlashimiz kerak. Buning uchun biz 0.2-formulani keltirib o'tamiz.

Talaba kerakli formulani doskaga yoza boshladi.

Xudo bor! Men izlaganimni topgan edim! Nihoyat! Umidim deryarli uzilib bo'lganida-ya!

Darsdan keyin talabani kafedraga chaqirdim. Gaplashib ko'rdim. Balo ekan. Tug'ma matematik!

Men qachondir bir umr yerga qarab nimanidir izlab yurgan odam tilla tanga topib olganida ishonmasdan topildig'ini tashlab yuborgan ekan deb eshitgandim. Shu ahvolga tushib qolmaslik uchun ehtiyotkorlik bilan ish tutdim. Avvaliga "Matematika bo'yicha talabalar orasida o'tkaziladigan olimpiadaga qatnashasiz", degan sababni ro'kach qilib uni kutubxonaga olib bordim va uch-to'rtta kerakli adabiyotni olib berdim. Mana shu kitoblarni diqqat bilan o'qib chiqish va uqishni tayinladim. Yigitcha odobli mullavachadek bir og'iz "xo'p bo'ladi" dedi va kitoblarni olib ketdi.

Keyingi hafta talabani imtihon qilib ko'rdim. Nima ham derdim, bola men bergan asarlarni o'zim talab qilganday ham o'qib, ham uqib kelgandi. Quvonchdan shaytonlab qolishimga sal qoldi. Talabada men izlagan ilm ham, salohiyat ham bor edi.

Kafedrada o'tgan uchinchi saboqdan keyin men gapni asta-sekinlik bilan o'z maqsadim tomon burdim: bir asrdan beri yechimini topolmay kelayotgan Puankare gipotezasi haqida so'zladim. Qiziqishi kuchaysin degan maqsadda oxiri dunyo matematiklari shu boshqotirman yechgan olimga bir million dollar mukofot va'da qilishganini ham qistirib o'tib ketdim.

Kutganimday, pul miqdorini eshitgan talabaning qoshlari kerilib ketdi, ko'zlari chaqnadi. Men to'g'ri yo'ldan borayotganimga ishonch hosil qildim. "Shu pul egasini kutib yotibdi. Ehtimol, u bizniki bo'lar", - dedim.

Tabiiyki, talaba ishonqiramay bosh chayqadi:

- Shuncha olim turganda...

O'zimum shu javobni kutgandim. Darrov tayyorlab kelgan gaplarimni to'kib soldim:

- Boshqa olimlar ham xuddi shunday o'ylashadi. Bu, aslida, o'zi yo'q voqealarning quruq vahimasi, sharpadan qo'rqish, arqonga osib qo'yilgan, shamolda hilpirayotgan ko'ylak ichida birov bor deb cho'chish. Shuning uchun hech kim bu gipotezani yechishga astoydil kirishmayapti. Ochig'i, yigitcha, men bu sohada u-bu ish qilib qo'rganman.

Talaba yana menga ishonqiramay qaradi:

- Siz-a? - so'ng savolining o'rinsiz ekanligini o'zi ham payqadi, shekilli, duv qizarib ketdi. - Kechirasiz.

- Hechqisi yo'q, - dedim darhol. So'ng gapni hazilga burdim. - Nima, meni osmondan mana shunday, katta o'qituvchi holida portfelini qo'ltiqlagancha to'g'ri auditoriyaga tushib ma'ruza o'qishni boshlab yuborgan deb o'ylaysizmi? Men ham yosh bo'lganman, o'zimga yarasha orzularim bo'lgan.

Har qancha yashirishga urinsa-da, yigitcha baribir gaplarimga unchalik ishonmayotganligi sezilib turardi. To'g'ri-da, Puankare qayoqda-yu, qarshisida g'ijim kostum-shimda, iyig'i chiqib ketgan bo'yinbog'da o'tirgan manavi qorindor, sochi to'kilgan, buning ustiga, salga boshi qaltirab, o'zi duduqlanib qoladigan, yana bir paytlar yosh bo'lganligini da'vo qilayotgan domla qayoqda?!

Men portfelimdan qo'lyozmalarimni oldim. Avval gipoteza xususida uzoq ma'ruza o'qidim. Hech qanaqangi gap bo'lishi mumkin emas, talaba o'ta zehnli, o'ta farosatli, analitik fikrlashga moyil edi. U aytmoqchi bo'layotgan fikrlarimni juda tez ilg'ab olar, ba'zan duduqlanib qolgan kezzalarim hatto ko'maklashib ham yuborardi. Shunday bo'lsa-da, uchinchi soat oxiriga boribgina yigitcha mening niyatimni bir qadar ravshanroq tushuna boshladi.

Menga shuning o'zi yetarli edi. Bizning fanda kalavaning uchini topib olsangiz bas, qolgani o'z-o'zidan chiqib kelaveradi, oddiy mantiq shuni talab qiladi. Yigitchaning ham mavzuga qiziqib qolganligi joyida tinch o'tirolmay qolganligidan, lablari qattiq qimtilganidan sezilib turardi.

Ertasi kuni yana uchrashishga kelishib xayrlashdik.

Men masrur edim. Shu qadar masrur edimki, keyingi yillar ichida birinchi marta "progul" qilib ikkinchi ish joyimga bormadim. Uchinchisiga ham. Xotinimning "...nima qilaman? ...qanday

yashayman?" qabilidagi iztirobli nolishlarini eshitmaslik uchun quloqlarimga paxta tiqdim-u, xonamda kitob o'qib yotaverdim.

Men yana ilmga qaytmoqda edim. Tirikchilik tashvishlariga o'ttiz yillik umrimni qurbon qildim, yetar axir. Men ham insonman. O'zimga ham ozgina yashay, o'zimning yoshlik orzu-niyatlarim uchun ozginagina ishlay. Armon bilan o'tib ketmay bu dunyodan! Ko'zim ochiq ketmasin. Uch joyda emas, sakkiz joyda ishlagan taqdirimda ham bu ro'zg'or atalmish kundalik g'orning ehtiyojlarini qondirib bo'lmas ekan-ku. Mana, uyimiz besh xonali, ammo bizga endi hovli kerak. O'g'il bo'y yetib turibdi, uni uylantirish kerak. Kollejni bitirayotgan qizimizga ham sovchilar kelayotganimishmiye. Demak, tayyorgarlik ko'rib qo'yish kerak. Axir bir yutum havo ham o'tmaydigan darajada zich muammolar halqasi borlig'imni o'rab-chirmab olganiga necha zamonlar bo'ldi. Chiqay hech bo'lmasa ozginagina muddat erkinlikka, parchalay kishanlarni! Menga bir yutum havo beringlar axir, bir yutumgina! Keyin mayli...

Dilimning qay qorong'i, hammaning, hatto o'zimning ham nigohimdan pinhon puchmoqlarida bir telbavor o'y kezardiki, mabodo Xudo, "Ol, qulim", - desa-yu, talaba ikkalamiz gipotezani yechsak, men... men mukofot pulidan voz kechaman. Mayli, talaba olsin, unga kerakdir. Ammo men o'zimga tegishli besh yuz ming dollardan voz kechaman. To'laligicha! Illo... illo, men bir asrdan beri jumboq bo'lib kelayotgan gipotezani isbotlab kashfiyotga erishgan mahallim his qilgan shodligim, baxtimni yarim million dollardan qimmat deb hisoblagan bo'lardim. Tushuntirib berolmadimmi? Buni tushunish uchun odam haqiqiy matematik bo'lishi kerak. To'g'ri, puldan voz kechganimni eshitgan xotinim meni tiriklay g'ajiydi, bolalarim nafrat bilan qarashadi, tanish-bilishlarim telbaga chiqarishadi. Ammo men baribir shunday yo'l tutaman. Nazarimda, talaba ham shunday qiladiganday. Axir uning tomirlarida asl matematikning qoni oqmoqda...

Tuni bilan qo'lyozmalarimni titib chiqdim. Men yana hov o'shal davrdagi g'alaba isini tuya boshlagan tadqiqotchiga aylanib bormoqdaydim...

Ertasi kuni universitetga xuddi bayramga borayotganday ko'tarinki kayfiyatda, uchta noyob kitobni portfelimga solgan ko'yi

g'o'dayib yo'l oldim. Yigitcha kelishilgan paytda kafedraga kirib keldi. Buyam meni xursand qildi: aniqlik - matematikning birinchi fazilati. Mana shu kayfiyat ta'sirida bo'lsa kerak, talabani maqtab qo'yishdan o'zinni tiyib turolmadim:

- Yigitcha. Nigohingiz o'tkir, shuuringiz tiniq. Ochig'ini aytaman, shuncha yil dars berib bu gipoteza mohiyatini tushungan, uni yechishga jazm qilgan talabani nima qilmagandim? Uchratmagandim. To'g'ri, bu gipoteza yechimini topishga ancha vaqtimizni nima qilamiz? To'ppa-to'g'ri, sarflaymiz. Lekin ishonavering, bu arziydigan ish bo'ladi. Nafaqat arziydigan, balki fan olamida katta shov-shuv yasaydigan ish bo'ladi. Yechimni topolsak, butun O'zbekiston matematiklari bizga nima qiladi? Ha, havas qiladi. Men nima deyapman? Nafaqat yurtimiz, hattoki dunyoning manaman degan olimlarimam...

Jo'shib gapirayotgan mahallim qarasam, talabaning shashti pastroq. O'ziyam jur'atsizlik bilan:

- Domla, - deb qo'ydi.

Odam ba'zan kelayotgan xavfni oldindan sezadi deyishadi. Yuragim uvishib, sergak tortdim, yigitchaga dalda berishga urindim: - Cho'chiyapsizmi? Aslo cho'chimang. Yoshsiz, g'ayratingiz, kuchingiz, bilimingiz bor. Bu ish ikkalamizning qo'limizdan nima qiladi? Keladi. Albatta keladi.

Mana shunda... mana shunda talaba cho'ntagidan zarhal taklif-noma olib uzatdi va:

- Shunaqa bo'p qoldi, ustoz, - dedi bir og'iz. - Oilada to'ng'ich o'g'ilman...

Bu ikki kundan keyin bo'ladigan to'yga taklifnoma edi. Bo'shshib qoldim. Tilak bildirgan bo'ldim:

- Tabriklayman. Vaqt arifmetik progressiyada o'sgani sayin baxtingiz geometrik progressiyada ko'paya borsin.

Kayfiyatim tushib ketganini sezdi, shekilli, yigitcha nimagadir shosha-pisha o'zini oqalay boshladi:

- Lekin bu gipoteza bilan, ustoz, albatta shug'ullanaman. To'y o'tib olsin.

Parishon ahvolda uning gapini ma'qulladim:

- Albatta, albatta. Avval to'y o'tib olsin.



Bunga sayin talaba meni ishontirishga zo'ir berardi:

- To'ydan keyin xotirjam bo'lib olib bema'lol ilm bilan shug'ullanaveraman. Mana ko'rasiz. Tushuning, ustoz...

Nima derdim?

- Albatta. Albatta, tushunaman, - dedim.

Yigitcha yana o'zini oqladi:

- Ochig'i, tez to'y qilmasak, baxtimdan ajralib qolaman.

Xayolim boshqa yoqqa ketgandi. Ammo navbatchi jumalalarni bir amallab tilga oldim:

- Albatta, albatta. Shaxsiy baxt muhim.

Yana qisir va'da yangradi:

- To'ydan keyin o'zing ilimga astoydil kirishaman...

Kuyov yigitning bo'yniga hech qachon amalga oshmaydigan majburiyatni yuklab qo'yishdan o'zimni tiydim:

- Albatta. Faqat hech bo'lmasa kichik chillangiz o'tib olsin-da, yigitcha.

Talaba jonlanib qoldi:

- So'rab bilib oldim. Kichik chilla yigirma kunda tugarkan. O'shangacha uyda bo'lishim kerak ekan. Lekin ana undan keyin ko'rasiz, ustoz, astoydil kirishaman. O'zi juda qiziq gipoteza ekan.

Beixtiyor tan oldim:

- Qiziq ham gapmi, hikmatning koni.

Talaba to'yga yana bir bor taklif qilishni unutmadi:

- Albatta keling, domla. Kutamiz. Kichik chilla o'tib olsin, keyin yeng shimarib olib ishga kirashamiz. Ungacha gipoteza kutib turadi.

Beixtiyor talabaga "yalt" etib qaradim. U beg'ubor ko'zlarini menga tikib turardi. Aftidan, aytayotgan gaplari rostligiga o'zi ishonardi. Bu safar ko'nglimdagini aytmaslikning ilojini qilolmadim:

- Tarixning takrorlanishini qarang. Har qalay, taraqqiyot spiral-simon shaklda ekanligi rost, shekilli. Bilasizmi, baribir taraqqiyot bor. Xuddi shu gaplarni men o'ttiz yil burun to'yim oldidan o'zimga aytgandim, o'zim o'zinni ishontirgandim. Siz bo'lsa menga ovoz chiqarib aptyapsiz. O'shanda menam Puankare kutib turadi degandim. Puankare kutib turdi, albatta, rosa kutdi, sabr-toqat bilan o'ttiz yil kutdi. Lekin men...

Qarasam, bola bechoraning ko'zlari alang-jalang bo'lyapti. Darrov o'zimni tutib oldim, ovozimdagi titroqni ham yashirishga muvaffaq bo'ldim:

- Baxtli bo'ling. To'yingizga esa, oldindan ochiq aytib qo'yay, borolmayman. Buning uchun uzr. Ochig'i, bugun sizga yana uch-ta kitob berib turmoqchiydim. O'qishga va uqishga. Lekin to'y tashvishlari bilan ekansiz. Albatta, yoqimli tashvishlar. Shuning uchun - men portfelimdand o'tgan kuni ikkinchi ish joyimdan olgan maoshimni chiqardim - hozircha kitoblarni qo'yib turaylik-da... Bu sizga. Oz bo'lsayam ko'p o'rinda nima qilasiz? Ko'rasiz. To'yona deganday.

Xursand bo'lib ketgan yigitcha pulni hatto nomiga bo'lsa ham bir marta qaytarib berishga urinmaganidan sezdimki, bu borada muammolari yetarli. Bir kunlik shogirdim qayta-qayta rahmat aytgan ko'yi chiqib ketdi. Dilimda yomon bir og'riq qoldi: nazarimda, pulni ko'rib minnatdorchilik bildirayotgan payti yigitcha boshini sal pastga eggandek bo'ldi. Yana kim biladi deysiz. Balki, menga shunday tuyulgandir. O'zidan hadigi bor birovgacha shubhalanib qarashi rost-da.

Men joyimga behol o'tirib qoldim. O'tirdim, o'tirdim. Nogahon... ho'ngrab yig'lab yubordim va ko'z yoshim aralash Yaratganiga iltijo qilavardim, qilavardim:

- Xudoyim! Meni o'ttiz yil orqaga qaytar, Xudoyim... Xudoyim, meni o'ttiz yil orqaga qaytar...

## VII

Menda nimadir o'zgarish yuz bergan edi.

Rafiqamning shuncha tavallolari, yig'i-sig'ilariga, hattoki "Shu yurishingiz bo'lsa, bir oydan keyin och qolamiz! Unda to'yni bitimizni sotib o'tkazamizmi?" qabilidagi vahimalariga qaramasdan qolgan ikki ish joyimga "adashgan xodimning qaytishi" qiyofasida bosh egib bormadim: o'zimni kasalga soldim va ko'rpa-to'shak qilib yotib oldim.

Men... men uydagilardan yashirib ishlardim. Ko'nglim nimanidir sezardi: gipoteza yechimi yaqinday, juda yaqinday. Men bu sirli qasrga olib kiradigan darvoza yonida bir shoda kalit ko'tarib turardim go'yo. Endi qulfga mos kalitni topib olsam bas edi. Men

yana bir narsani sezardim: menga yosh aql, tiyrak tafakkurli birgina yordamchi kerak edi. Albatta, "kichik chilla... katta chilla" deb yurgan talabdan hozir, balki, keyin ham umid yo'q hisobi. Ehtimollar nazariyasiga ko'ra, qo'limdagi kalitlarning hammasida ham qulfni ochish imkoniyati mavjud. Ammo bunga juda ko'p fursat ketardi. Menda esa bu fursatning o'zi yo'q. Oradan bir hafta o'tar, ko'pi bilan o'n kun o'tar, so'ng men to'shagimdan turish va boshimni yanada quyiroq egib qo'shimcha yumush izlashga tushishga majbur edim. Busiz mumkin emas. Busiz bo'lmaydi. Shusiz ham vahima morlari miyasini yeb bo'lgan, bo'lg'usi to'y xarajatlaridan boshqa narsa ko'ziga ko'rinmayotgan raftiqam bundan ortig'iga dosh berolmaydi.

Hash-pash deguncha o'n kun o'tdi-ketdi. Men hamon eshik yonida, kalitlarni bir-bir qulfga solib ko'rardim go'yo. Menga vaqt kerak edi. Hech bo'lmasa yana o'n kungina. Hech bo'lmasa yana bir haftagina. Ammo bu vaqtni qaydan olaman?..

Ishga chiqdim. Universitetda omonat edim. Yoshim oltmishga borib qoldi. Tez orada pensiyaga chiqaman. Ilmiy unvonim esa yo'q. Demak, avval yarim shtatga tushirishadi, keyin yumshoqlik bilan "o'z xohishimga ko'ra" ishdan bo'shashni taklif etishadi. Rozi bo'lsam, ehtimol, "uzoq yillik samarali mehnatim uchun" faxriy yorliq bilan taqdirlashib, zar chopon ham kiydirishar...

Qo'shimcha ish ham topdim. Uyga yarim kechasi, har qancha horib-charchab qaytsam-da, jilla qursa, bir-ikki soat gipoteza bilan shug'ullanishga o'zimdagi kuch topishga harakat qilardim. Ammo bu oson emasdi. E voh, men endi yosh emasdim, qudratli vaqt o'z ta'sirini o'tkazmoqda edi. Ko'pincha qo'lyozmalarimga bosh qo'ygancha uxlab qolardim-u, ertalab umr yo'ldoshimning umidsiz xasta misoli vahimaga to'la zorillashidan seskanib uyg'onib ketardim: "... nima qilaman? ...qanday yashayman?"

Ayyorlik qilmoqchi bo'ldim: xotimimga yo'llanma olib biron dam olish uyida hordiq chiqarib kelishni taklif etdim. Ko'pi bilan o'n ikki kunga. Ham sog'liqqa foydali, buning ustiga, shuncha yil yashab biron marta sayr-sayohatga chiqmading, chet elga bormading, hatto shundoqqina biqinimizdagi Chorvoq dengiziga ham bir marta qadam ranjida qilmading-a... Raftiqam menga av-

val ajablanib-shubhalanib, so'ng baayni dovdir odamga qaragan-day masxaralab qaradi va aytdiki... Xullas, agar sal yumshoqroq iboralarda ifodalaydigan bo'lsak, shu paytgacha dam olmagan fidoyi xotinim bundan keyin ham dam olishni xayoliga keltirmas ekan, chunki uning uchun - mendek tepsa tebranmas, loqayd, dangasa erdan farqli ravishda - bolalarning baxti to'kis bo'lishi muhim ekan, bu to'kislik esa el qatori o'tkazilgan to'yda namoyon bo'larkan, shu sababli har bir so'm hisobda bo'lgan shu kunlar-da ikkinchi marta bunday taklif bilan chiqishga jur'at etmasligim, undan ko'ra ko'proq pul topishni o'ylashim kerak ekan, zero, oila a'zolarini ta'minlab qo'yish, bolalarning to'yini o'tkazib berish ering birinchi vazifasi ekan va hokazo, va hokazo (ha, bu xotin dam olish-pam olishga bormaydi, mabodo sanatoriya-panatoriyaga oborib bog'lab qo'yib qaytsam, arqonlarni tishlab-uzib, uzolmagan taqdirda esa hakkalab bo'lsa ham mendan burun uyga yetib keladi). Keyin esa yana eski plastinka aylana boshladi: "Agar sizga men tegmaganimda yo o'zingizga o'xshagan dovdir xotin yo'liqib qolganida, ana o'shanda ko'radingiz nima bo'lishini! Haliyam rahmat deng, men shu oilani bir amallab eplab turibman. Agar boshqa xotin bo'lganidami... agar boshqa xotin bo'lganidami..."

Yuragim simillab og'rib ketdi: darhaqiqat, boshqa xotin bo'lganida nima bo'lardi? Aytaylik... Yo'q, yo'q... Men bu o'yni haydab solishga shoshdim... Balodan nari...

Hayot shu zaylda davom etardi. Men tegib-qochib hamon gipoteza isboti ustida ishlardim. Ish tizimga qo'yilmaganidan keyin odam chalg'irkan. Ustiga-ustak, allaqachon katta chilla muddati tugaganiga qaramasdan, ziyrak talabdan darak yo'q edi. Guruh rahbaridan surishtirdim: kuyovto'ra allaqanday bosh-oxiri yo'q maro-simlar-u tadbirlardan bo'shamayapti ekan. Ammo vaqt topgandan chopib kelishga va'da berib yuboribdi. Shunday bo'lishini bilib turgan bo'lsam-da, behad charchaganim sabablimi, o'zimni bosib tutolmay baribir jahlim chiqdi, qattiqroq gapirib ham yubordim: "Va'dasini bir joyiga bossin..." Gap nimadalinini tushunmay turgan bo'lsa-da, tili zahargina rahbar ham qarz bo'lib qolmadi, meni o'xshatib tuzladi: "Alam qilsa, orqangizga qalampir qo'ying..."

Shunday kunlarning birida...

Shunday kunlarning birida... internetga qaradim-u... ko'zlarimga ishonmadim... dardi dunyoyim qorong'i bo'lib ketdi. Sankt-Peterburg shahrida yashaydigan, institutda katta ilmiy xodim bo'lib ishlayotgan 41 yoshli Grigoriy Perelman degan matematik Puankarening gipotezasini to'la-to'kis nima qilibdi? Ha, isbotlab beribdi-qo'yibdi... "Science" jurnalida Puankare teoremasi isbotini "yil kashfiyoti" deb e'lon qilibdi. O'zimizning Silviya - Zulfiya Nazar isbot muallifini ko'klarga ko'targan maqolasini chop etish-gayam ulguribdi. Perelman bizning sohada nufuziga ko'ra Nobel mukofotiga teng hisoblanadigan xalqaro "Fields" medali bilan taqdirlanibdi...

Shoirilar aldaydilar. Nima emish, qandaydir bir mavzuni yozmoqchi bo'lib yursang-u, uni sendan oldin kimdir qog'ozga tushirib qo'yisa, bundan xursand bo'lishing kerak ekan. Bekor gap! Ehtimol, adabiyotda shundaydir, ammo aniq fanlarda emas. Men unaqangi bag'rikeng odam ham emasman. Men ichiqora odamman. Xudo shohid, bu olamshumul yangilikni o'qiganimda butun vujudimni hasad va alam fasodi to'ldirdi. Men o'z zimni tishlab tashlagunday ahvolga tushdim: "Nega u? Nega u? Nega men emas?.."

Hayot men uchun o'z ma'nosini yo'qotdi.

Ammo bu hali holvasi ekan. Tez orada saytda Perelmanning gipoteza yechimi ifodalangan maqolalarini e'lon qilishdi. E Xudo, bu nima degan gap? Menga yana qanday jazoying bor? Qachongacha ustimdan kulasan? Axir... axir bu to'qson to'qqiz butun-u yuzdan to'qson to'qqiz foiz mening yechimim-ku!!! Axir men to'g'ri yo'ldan borgan ekanman-ku. So'nggi nol butun yuzdan bir foiz ish qolgan ekan-ku! Bir oygina, yo'q, yo'q, ko'pi bilan bir haftagina qimiramay o'tirib ilm qilganimdami, gipotezani o'zim isbotlagan bo'lardim. Agar zukko talaba ham yonimga qo'shilganida, ehtimol, birgalashib bu ishni yanada tezroq nihoyasiga yetkazardik... Axir o'zgina qolgan ekan-ku... O'zginagina qolgan ekan-ku...

Menga ko'rsatgan shuncha jabring kammidi, Yaratganim? Nega meni shunday imkoniyatdan mahrum etding? Nega og'zimdagi oshimni oldirishimga yo'l qo'yding?.. Nega? Nega axir? Garchand bilaman, bu sening aybing emas, biroq nima qilay, o'zim o'z zimni

ayblaymi? O'zim o'z zimni jazolaymi? Bu bilimim menga azob-iztirobdan o'zga nima olib keladi, nima?..

Xudoyim! Meni o'ttiz yil orqaga qaytar, Xudoyim... Xudoyim, meni o'ttiz yil orqaga qaytar...

## VIII

Qo'lyozma shu yerda tugagandi.

Talaba bir dasta qog'ozni stol ustiga qo'ydi, qarshisida o'ziga diqqat bilan tikilib turgan shifokorga qarab taraddudlandi, noiloligini bildirayotganday yelka qisib qo'ydi:

- Ochig'i, aniq bir narsa deyolmayman.

Shifokor bosh irg'adi:

- Tushunaman, tushunaman.

Talaba ehtiyotkorlik bilan so'radi:

- O'zi... o'zi yaxshimi?

Shifokor achinganini bildirayotganday xo'rsinib qo'ydi:

- Bir soqolli odamning rasmiga qaragani-qaragan.

Talaba sumkasidan bir surat olib ko'rsatdi:

- Shumi?

Shifokor bosh irg'ab tasdiqladi:

- Xuddi o'zi.

Talaba izoh berdi:

- Bu o'sha Grigoriy Perelman. Puankare gipotezasini isbotlab bergan.

Shifokor jonlanib qoldi:

- Eshitgandim. Aytganday, uning o'ziga beriladigan million dollar mukofotdan voz kechgani rostmi?

- Rost.

Shifokor ko'rsatkich barmog'ini chakkasiga olib borib aylan-tirdi:

- Bizning mijoz ekan-da.

Talaba bezovtalandi:

- Yo'g'-e. To'g'ri, u torgina ikki xonali uyda, onasi bilan kambag'algina yashaydi. Bitta maoshga. Lekin...

Shifokor ishonch bilan barmoq silkidi:

- To'ppa-to'g'ri. U bizning mijoz. Axir bu zamonda qaysi sog' odam million dollardan voz kechadi? Shizofreniyaning shunaqa formasi. Unga maniya velichiya qo'shilgan bo'lishi mumkin, - so'ng ichkariga ishora qildi. - Xuddi ustozingiz kabi.

Talaba nimagadir tobora o'ng'aysizlanib borardi.

- Yo'g'-e.

- Bunaqalarni ko'raverib ko'zim pishib ketgan, uka, menga ishonavering. Tashxisimga kallam bilan javob beraman.

- Lekin Perelman dunyodagi tirik daholar ro'yxatining to'qqizinchi qatorida turibdi-da!

Shifokor hayron bo'ldi:

- To'qqizinchi? Nega birinchi emas?

- Bilmadim.

- Umuman olganda, bu ham mening tashxisimni tasdiqlayapti. Chunki daholik bilan telbalikning orasi bir qadam, bularning orasida chittakka o'xshab u shoxdan bu shoxga sakrab yurganlari qancha!.. Aytganday, men baribir tushunmadim, o'sha telba nega bir milliondan voz kechganligining sababini bunday odamga o'xshab aytganmi?

- Aytgan. "Men endi koinotni boshqarishni bilaman, shu holimda million dollarning orqasidan chopib yuramanmi?!" - degan.

Shifokor ishonch bilan bosh iring'adi:

- Super shizik.

Talaba shoshayotganini bildirmoqchiday bir qo'zg'alib qo'ydi.

Shifokor qog'ozlarga ishora qildi:

- Bularni nima qilamiz?

Talaba ikkilanib qoldi:

- Bilmasam.

Shifokor qog'oz taxlamining bir chekkasini ruchkasining uchida ko'tarib ko'rdi.

- Biron joyga ishlatib yuboraylik desak, qog'ozni qattiq. Buning ustiga, orqasiga ham bir balalar ruchkada yozib-chizib tashlangan ekan.

Talaba eng yuqorida turgan qog'ozni olib orqasiga qaradi:

- Ha, bu o'sha, domlaning Puankare gipotezasi isboti bo'yicha qilgan ishlari.

Shifokor ta'kidlab so'radi:

- Endi bular biron ahamiyatga egami?

Javob qisqa bo'ldi:

- Yo'q.

Shifokor pixillab kuldi:

- Tushunaman, tushunaman. Poyezd ketib bo'lgan deng... To'ydan keyin xinani qayerga qo'yish kerakligini esa muhtaram ustozingiz juda yaxshi biladi, juda yaxshi. To'g'rirog'i, bilardi... Xo'p, kelishdik, bu qo'lyozmani tanish bir makulaturachiga topshirib yuboramiz. Har qalay, jamiyatga ozroq bo'lsa ham foydasi tegadi-ku. Hi-hi-hi. Tualalet qog'ozni sifatida bo'lsa ham.

Talaba qizarinqirab yerga qaradi.

Shifokor ishchan ohangga o'tdi:

- Xo'sh, uchrashisizmi ustozingiz bilan?

Talaba ikkilanib qoldi:

- To'g'risi, sal shoshib turgandim. Kelingizning...

Shifokor ko'rsatkich barmog'ini ko'tarib yigitchani gapdan to'xtatdi:

- Buning menga ahamiyati yo'q. Aytganday, qovunning yaxshisi kimga nasib qilishini eshitgan chiqarsiz? Ustozingiz ham xotinga yolchigan ekan lekin. Shukur qili-ib, boriga qanoat qili-ib yashayvermaydimi?! Bechora ayol ko'zidan yoshi daryoday oqib har kuni ikki marta xabar olib ketyapti. Tushgacha bir marta, tushdan keyin bir marta. Sadoqatni qarang! Ammo ustozingiz sizni so'ragani-so'ragan. Aytishiga qaraganda... - u yana pixillab kulib yubordi, - aytishiga qaraganda, olamshumul kashfiyot arafasida emish. Bu masalada unga faqat siz yordam bera olarmishsiz. O'ziyam sizni naq yigirma marta so'radi.

Talaba soatiga ko'z tashlab qo'ydi:

- Mayli, o'n daqiqacha vaqtim bor.

- Xavfsizlik masalasi yuzasidan xavotirlanayotgan bo'lsangiz sira tashvishga tushmang. Bu borada hamma chora-tadbirlar oldindan hisobga olib qo'yilgan.

Shifokor bejiz xavfsizlik masalasiga alohida e'tibor qaratmagan ekan. Bemor uchrashuv xonasiga bir emas, ikki baquvvat sanitar hamrohligida kirib keldi. Ammo domlani bu sira tashvishlantir-mayotganga o'xshardi. U shogirdini ko'rgan zahoti yashnab ket-di, ko'krigiga bosib olgan, iyig'i chiqib ketgan portfelidan mayda harflarda nimalardir yozilgan bir varaq qog'oz chiqargancha en-tikib-hovliqib gapira ketdi:

- Yigitcha. Siz hozir orzu qilish yohidasiz. Sizda matematika ga iste'dod bor. Shu iste'dodning so'nib qolishiga nima qilmang? Ha, yo'l qo'ymang. Agar ilm qilaman desangiz, qo'limdan kelgan-cha ko'maklashaman, keyin matematika institutiga olib boraman, u yerda zo'r-zo'r kallalar bor.

- Domla...

- Lekin sizga aytmoqchi bo'lgan asosiy gapim bu emas. Asosiy gapim shuki... - domla qo'lidagi qog'ozni yalov misoli baland ko'tarib unga ishora qilgan ko'yi jo'shqin ohangda xitob qildi. - Biz birgalikda mana buni yechamiz! Bu gipoteza Perelmanning tushiga ham nima qilmagan? Kirmagan. Bu sizga Puankare emas! Bu butunlay boshqa masala. Buni Sharq deb qo'yibdilar...

Talaba jur'atsizroq tarzda e'tiroz bildirishga urindi:

- Domla...

Ammo ko'zlari ilohiy ilhomdan chaqnayotgan, yonoqlari lovul-layotgan, vujudi dir-dir titrayotgan domla uni gapirgani qo'ymadi: - Ishonavering, bu fan olamida katta shov-shuv yasaydigan ish bo'ladi. Yechimni topsak, kerak bo'lsa, Perelmanning o'zi bizga nima qiladi? Ha, havas qiladi. Men nima deyapman? Perelman kim bo'libdi, hattoki...

Soatiga zimdan ko'z tashlab olgan yigitcha battar toqatsizlandi va bu gal sal keskinroq ohangda gapirib yubordi:

- Domla, uzr, lekin men sal shoshib turgandim. Tashqarida ke-lingiz kutib turibdi. Biz u bilan...

Domla ustidan sovuq suv quyilgandek birdan hovuridan tushib, sergak tortdi, so'ng qo'lidagi qog'ozni uzatarkan, shogirdiga qan-daydir cho'chibroq, ehtiyotkorlik bilan murojaat qildi:

- Bu dastlabki bosqichning natijalari, yigitcha. Kerakli adabi-yotlarni yozib qo'rganman. Ularni topib kelsangiz, bimalol ik-kinchi bosqichni boshlab yuboraveramiz.

Talaba shoshib o'rmiidan tura boshladi:

- Xo'p, xo'p.

Domla nogahon shogirdi tomon engashdi, shoshib, birov eshitib qolishini istamagandek qizg'inlik bilan shivirladi:

- Hammasi, hammasi o'zimizga bog'liq. Bahona qidirmang, sababni mahkam ushlang, orzuga intilishdan cho'chimang. Mate-matika va faqat matematika. Boshqa hammasi bekor...

Tashqaridan qaraganda bemor qaytib joyiga o'tirib qolgan tala-ba ustiga yotib olayotganday edi. Har qalay, nafaqat yigitcha, balki qo'llarini chalkashirib turgan hushyor sanitarlar ham shunday gu-monga borishdi, shekilli, birdan bemorga yopishishdi va uni oson-lik bilan ko'tarib olishgancha ichkariga sudrab keta boshlashdi. Bir amallab qo'lidagi qog'ozni vahimadan afti qiyshayib ketgan talaba tomon otishga ulgurgan, so'ng, bu manzarani ko'rmaslik uchunmi, nigohini oppoq shifga tikkan domla quyilib kelayotgan ko'z yosh-lari aralash yurakni o'rtab yuboradigan darajada iztirob bilan iltijo qildi:

- Xudoyim! Meni o'ttiz yil orqaga qaytar, Xudoyim... Xudoyim, meni o'ttiz yil orqaga qaytar...

Talaba ust-boshini qoqqan bo'lib o'rmiidan turdi. Og'ir uf tor-tib soatiga qararkan, seskanib ketdi. U rostdan ham kechikayotgan edi. Ildam yurib eshik yoniga borgan yigitcha nogoh to'xtab ortiga o'girildi. Domla qoldirgan, chumoli izidek mayda harflarda turli formulalar yozilgan, grafik-diagrammalar chizilgan qog'oz yerda yotardi. Oniy soniya davom etgan mulohazadan so'ng talaba yo'li-dan qolmaslikka qator qildi va uchrashuv xonasidan chiqdi-ketdi.

Uzun yo'lak oxiridagi qalin eshik taraqlab ochildi, bemorni ichkariga olib kirib ketishdi. Domlanning iztirobli nidosi kimsasiz uchrashuv xonasidan tobora uzoqlashaverdi:

- Xudoyim, meni o'ttiz yil orqaga qaytar... qaytar, Xudoyim... Axiyri sas o'chdi...

## **SOBIR O'NAR**

*1964-yilda Samarqand viloyatining Qo'shrobot tumanida tug'ilgan. Toshkent davlat universitetini (hozirgi O'zbekiston Milliy universiteti) tugatgan. "Orzuga to'la qishloq" nomli ilk kitobi 1989-yilda nashr qilingan. Shundan so'ng yozuvchining "Ovloq adirlar bag'rida" (1990), "Chashma" (1991) hikoyalar to'plam-lari nashr etilgan. "Dunyo shundoq tururmu?", "Chambilbelning oydatasi" (2006), "Bibisora" (2011) qissalari muallifi.*

## **INTIZOR**

Yo tavba, odam odamni shunchalik ham qo'msaydimi? Shunchalik ham zoriqadimi, axir, ikki yil, ha, ikki yildan oshib ketgan ko'rishmaganimizga. Darvoqe, u meni hatto tanimasligi ham mumkin-ku, biroq shunchalik ham tip-tiniq xotirlaydimi kishini? Mana, hozir ko'rib qolaman uni: ham istayapman, ham ishonyapman. Shuurim tiniqlashib, xotirim yorqin tortib borayotir: qiziq, u qanaqa yig'larkin-a, axir gazetadagi maqolani o'qib, kechgacha yig'ladam, degandi-ku. Eri tutoqib urishib berganida ham u to'xtamagan-ku. Yo'-o'-o'-q, ehtimol, yig'lamagandir, juda mag'rur-ku u. Mabodo yig'lasa ham odam zotiga o'xshab yig'lama-sa kerakdeyman, biroq ovutib to'xtata olmaydigan holga tushib yig'lasa kerak. Nechukdir shunaqa tasavvur qilaman: ko'pchilik qizlarday ho'ngrab yig'lashini ko'z oldimga keltira olmayman: tishini tishiga bosib, biror narsaga ko'zlarini o'qdek qadab, shu holicha yoshi sho'rg'alab yig'lasa kerak.

Ammo men u nega yig'laydi, nima sababdan unday yig'laydi, deb savol berolmasdim o'zimga. Bilasizmi, ayni mahalda chindan ham ishonardim uning ro'paramdan duch kelib qolishiga. Ishonardim. Men ovsar, balki behudadir, mana shu ishonchni

yo'qotib qo'ymaslikka zo'r berib tirishardim. E'tibor berganmisiz, aksar hollarda o'ta qattiq intilgan rejangiz amalga oshmaydi yoki chappasidan keladi. Shu lahzada, ishonasizmi, shu narsalarni ham o'yladim; biroq baribir uni alang-jalang izlardim. Moviy ko'ylak kiygan bir juvon yonginamdan o'tib ketdi. U ko'ppak yetaklab olgan bo'lsa-da, shoshib qolib, o'sha deb o'ylab, metrogacha er-gashib bordim. So'ng u itining bo'ynidan ushlagancha metroga kirib ketdi. Yo'q, deymen o'zimga, men bunchalik hovliqmasligim kerak, o'zi shundoq tabiiy vaziyatda uchrab qoladi. Hozir alla-qayerlardan lop etib paydo bo'ladi (ortimdan kelib ko'zimni berkit-sa-ya, yo'q, bu mumkin emas - uning fe'liga to'g'ri kelmaydigan qiliq), men esa uni quchib, o'pib olaman. Uradi. Lekin, axir, nega uradi, masalan, siz agar orzuingiz ushlab ko'rish mumkin bo'lgan moddiy narsadan iborat bo'lganda edi, imonim komil: kechgacha o'pgan bo'lardingiz u ayolni. Ayolni metroda ko'rishim mumkin, men hozir birinchi marta shunday holatga tushib qoldim: yo'lim keng yalangday, hech kim menga xalal bermaydiganday, xohlasam, shu yalang uzra uchadigandek. Sizda ham bo'lsa kerak shunday tuyg'ular, menga hozir, hamma ishdan qaytayotib, metro bekatida odamlar qumursqadek uymalashib ketsa-da, to'sqinlik qilishmas edi. Barcha menga xayrixohdek edi, shunday lahzalardagina ham-ma narsani, hatto dushmaningni ham birdaniga seva olasan kishi. Boyagi ayol begona bo'lib chiqqanidan hafsalam pir bo'ldi. Va shu zahoti ikki yil burungi...

Haftalik gazetaning, garchi boshqalar havas qiladigan adabiyot bo'limida ishlash-da jonimga tekkan, eshik taqillatib kirgan har qanday kishi ham ko'zimga baloday ko'rinardi. Juma kuni bo'lgani uchun ish vaqti tugamasdan burun juftakni rostlab qolishga shay-lanib turgandim. Eshikni qiya ochib qo'ydim: bosh muharrirning o'lganini ko'rsam bas, men ham g'oyib bo'laman; shu chog' eshik-ning yopiq tabaqasiga bir qiz kelib suyandi. Sochi juda kalta qilib kesilgan, quloqlari usti ovrupachasiga ochib qirqilgan, ko'zlari ko'kish, bo'ychan, rusgayam, o'zbekkayam o'xshardi, duragay ekan-da, deb xayol qildim. O'zbekchalab, juda burro tilda salom berdi. Alik olganimdan so'ng:

- Tohir aka sizmi? - deb so'radi.

- Ha, men.

- "Kuntug'mishning orzusi" ni siz yozgansiz-a?

Nimagadir tilim aylanmay qoldi. Biror janjalkash muallifdir yoki bo'lmamas ulardan biri jo'natgan chiqar, degan xayolga bor-dim, janjalning qizig'ini boshlab yubormasa-ku, deb nafas yutib turaverdim.

U esa yerga qaradi. Qizardi. Men yengil tin oldim. Ammo ik-kimiz ham miq etmadik.

- Yaqinda gazetangizda parcha chiqdi-ku? - dedi u va menga yalt etib bir qaradi-yu, so'ng derazaga tikildi. Men ham derazaga tikildim.

- Ha, ha, to'g'ri.

- Demak, sizniki?

- Ha, darvoqe, men yozganman o'sha qissani. Kechirasiz, sa-volingiz esimdan chiqibdi. E, kirmaysizmi ichkariga, ostonada tur-mang, yomon bo'ladi.

- Dinga ishonasizmi? - deb so'radi u, sekin ichkariga kirarkan.

- Buning dinga aloqasi yo'q, momomning ostonada turmanglar, degan tanbehi esimda bor, nimasi yomonligini o'zim ham bilmay-man rosti.

- Men ham ishonmayman. Lekin... o'sha qissangiz zo'r ekan.

Bu muomala menga yoqmadi. Xushomadgo'ya o'xshab ket-dimi-ey. Kutganimday u menga bir hikoya berdi. Qirq sakkiz sa-hifali daftarga yashil siyohli ruchkada yozilgan, deyarli to'la edi. Hikoyada sevgisiga yetisholmagan qizning hijronlari bayon etil-gan, yigit aybdor qilib ko'rsatilgan, qoralangan edi. Rostini aytсам, xuddi shunaqa asarlarni o'qisam, tepa sochim tikka bo'lib ketar-di. Tavba, kelishib olishganday qizlarning hammasi shu mavzuda yozishadi-ya. Biroq asarning husnixati shu qadar bejirim va chiroy-li ediki, ko'rgan ko'z qamashar edi. Boz ustiga menga o'xshagan "harfo'r" ham birorta imloviy xato topolmaydi. Aftimning buj-mayganini ko'rib qiz seskandi.

- Axir hammasi bo'lgan voqealar, men ismlarni o'zgartirdim, xolos, - derti u.

- Tushunmayapman, - deyman men ham. - E'tiroz bildirayot-ganim yo'q-ku.

O'qib chiqqach, xo'rsindim.

- Nahotki qizlarning hammasini faqat shu narsa o'rtasa?!

- Qanday ekan? - dedi qiz xotirjam ohangda.

- Bayonchilik ekan, fikrlashingiz jo'nroq.

- O'ninchi sinfni bitirganman, xolos.

- O'qishga kirmaganmisiz?

- Endi kirmoqchiman.

- Jurnalistikagami?

- Ha, juda qiziqaman.

Men uni ko'proq gapga tutgim kelaverdi, qiyofasida soddalik aralash joziba bor edi. Birdan u:

- Siz menga qanday yozish kerakligini o'rgating, - deb qoldi.

- Mayli, - dedim men, garchi bu va'dam bema'ni bo'lsa-da.

U menga ancha jiddiy tikildi. Chamasi, ishonadi.

- Juda yaxshi bo'lar edi, shu kunlarda har kuni kelib tursam maylimi?

- Bemalol, bu yerga emas faqat, biznikiga borsangiz birgalashib yozishimiz ham mumkin.

- Yo'g'-e, vaqtim bo'lmaydi mening. Hozir ham juda shoshib turibman.

- Iye, shoshgan qizni o'zingiz bilasiz-ku.

U duv qizarib ketdi.

- Mening erim bor, - dedi u nihoyat. - Siz boshqa narsani xa-yolingizga keltirmasligingizni iltimos qilaman.

- Rostdanmi? - men chindan ham taajjubda edim. - Xuddi qizchaga o'xshaysiz-a.

- Rahmat erkalatganingiz uchun. Bunaqa gaplarni eshitish qan-doq priyatniy. Uf-f, lekin o'n bir yil bo'lgan erga chiqqaninga.

Yopiray, yo qudratingdan! Bunday mo'jizalarning ham bormi-di! Axir men uning maktabni tugatganiga shubha qilib o'tirsam-a. Nahotki! U endi nechundir menga emas, devorda osig'liq turgan Xemingueyning serviqor suratiga tikilib o'tirardi. Mening haya-jonimga u deyarli parvo qilmadi. Yoki sezdimadi. To'g'risi, uning erga tekkaniga o'n bir yil bo'lganiga shubham bor edi.

- Ha, ishongim kelmayapti, - dedim.





U shoshma-shoshai emas, aksincha, ohista gapirar, biroq odamlar bilan kam muloqotda bo'lgani boismi, sodda fikrlardi.

- Kechirasiz, siz qattansiz o'zi?
- Surxondaryolik. O'xshayapmanmi?
- Bilmadim. Ochig'i, men hech joyini ko'rmaganman, hatto o'zim tug'ilib o'sgan Toshkentni ham durust bilmayman. Ishonmayapsiz? Yo' o', seryozniy, men aldamayapman.

Dunyoda birovni aldash qo'lidan kelmaydigan insonlar bo'ladi. Ular bilan bir zum suhbatlashsangiz bo'ldi, ko'ngli ochildasturxonday bilinib turadi. Ba'zan odamyovvoyi, qishloqi qizlar, ayniqsa, tog'liklar haqida birovga so'zlab bersangiz, suhbatdoshingiz, albat, o'sha qizning qoloqligiga, biroq baribir o'ta iffatligiga qoyil qolib o'tiradi. Qarshimda o'tirgan juvonning esa ulardan farqi - shaharda yashaganligi edi, xolos. U hamma narsaga bolaning ko'zi bilan qarar, bolaning dili bilan hayratlanib qolardi. Ammo u o'zini ataydan mag'zur va katta olar, ehtimol, atrofdagilar kulmasliklari uchun shunday qilardi. Unga tegishish uchun:

- Sizni Surxondaryoga olib ketaman, - dedim.
- Juvon esa bu gapni juda jiddiy qabul qildi.
- Qiziq gapirasiz-a, qanday qilib boraman? - dedi.
- Darhol gapni burdim:
- Bu qadar sodda bo'lmang. O'zingizga qiyin bo'ladi.

Menga shunday tuyuldi, garchi u sochini qirqirib, o'zicha modaga moslab kiyingan bo'lsa-da, zohiran mag'zur ko'rinsa-da, anchayin odamovi juvon. Uning birinchi marta uyidan so'ramay chiqqaniga ham imonim komil edi. Juvonning - uni hech shunday atagim kelmaydi, ko'ngil izhori va menga yozib kelgan boyagi hikoyasining soddaligi shundan dalolat berar edi. Men endi faqat tog'-dashlardagina emas, oramizda yurgan, biz ko'rib-ko'rmay, ko'rsak-da, ko'pincha e'tibor qilmaydiganimiz - suluv va go'zal qalbli qizlar haqida birinchi marta o'yladim. "Naqadar go'lmiz, - dedim o'zimcha, - ko'ngil jozibasi haqida suhbatlashsak yoki o'ylasak, faqat o'zimizcha tasavvur qilgan qishloq qizlari to'g'risida gapiramiz yoki yozamiz". Juvonga nisbatan allanechuk havasmi, rashkmi, ish qilib bir tuyg'u bilan dil izhor qilib qo'ygim keldi. Darvoqe, shunda

u mendan yoshimni so'radi. Aytдим. To'rt yosh kichik ekansiz, deb kuldi. Yoshim undan katta ko'ringani uchun xijolat chekdim.

Ayol ketmoqchi bo'lib o'midan turayotganida, bir gap bexosdan og'zimdand chiqib ketdi:

- O'zi men doim shunaqa: juvonlarni yaxshi ko'rib yuraman.
- Iye, uylanmaganmisiz? - deya ajablanib qoldi u.
- Ha, uylanmaganman, ideal qiz yo'q. Borlari nasib qilmaydiganlar - sizga o'xshagan.
- Uning endi biroz jahli chiqdi.
- Kechirasiz, - dedim. - "Oqshom"ga yozib turing.
- Kechirasiz, - dedi u ham shoshib. - Endi baribir bu yil kirolmasam kerak. Vaqt juda oz qoldi-ku.
- Ko'nglingizni tushirmang-da lekin.
- Rahmat.

His-hayajonsiz, bosiq, juda tabiiy chiqdi bu so'zlar uning og'zidan.

Ketdi. Shundan so'ng biron marta qorasini ko'rsatmadi.

Mana, nihoyat ikki yildan so'ng men - endi uylanib, bir bolaning otasi bo'lsam-da, hamon o'zimni yolg'izdek his qiladigan bir havaskor banda butun borlig'im bilan o'sha juvonni uchratishga jo'n-dildan ishonib turibman. Uchrataman, bu - aniq. Bu yerda bo'lmasa, sal narida yoxud undan ham naritroqda, albatta, uchraydi. Savqi tabiiy bir tuyg'u butun shuurimni qoplab olib, o'zimni tushda kechgan hodisalar hozirning o'zidayoq ko'z o'ngimda ro'y berishiga ishonirib turibdi. Ha, u o'sha havorang ko'ylagida tovlanib, ehtimol, anhor bo'yida kutib turgan bo'ladi. U peshvoz chiqadi, lablarini biroz qimtib, ko'kimtir ko'zlarini xiyol suzib, jilmayib, bo'ychan qomati yarashgandan yarashib, ohista qadamlar bilan, jindek gunohkordek... uyalib...

Kaminani yolg'onchiga chiqarmasligingiz uchun payti kelgan-da aytib ham qo'yay: oradan ancha-muncha vaqt o'tib u menga telefon qilgandi; ovozidan tanigandim, adashmasam, o'sha edi - qizlarni dini islomga da'vat etuvchi maqola yozgani, shu mavzuda yozilgan narsani chiqarib bo'ladimi yo yo'qligini so'rab; mendan hadeb o'sha juvonmisiz, degan mazmundagi tergovnamo savollar olavergach, jimgina go'shakni bosib qo'ygandi, o'shandan beri bir

ulug' jimlik hukm surayotgandek. Qolaversa, menday gunohlarga botib, hayotning turli so'qmoqlariga boshini suqib chiqqan esa-da, izlagan xazinayi davlatini topolmagan kimsa. Yurak urib, birovg'a - tushunguvchi, jillaqursa, bosh egib eshitguvchi, farishtamisol ojiza qoshida emranib bi-ir yorilsam ham deymen.

...Ohista qadamlar bilan kela boshladi - xuddi hind filmlaridagi nozanin kabi - bu ertakka ishonmayin dedim, lekin bo'shshib, harsillab, o'zimni yo'qotar alfozga tushdim. Tushga o'xshash muhmal bir holat. Tuyqus qo'lim qo'lga tegdi - azbaroyi hapiqqan nimbdan, xuddi uyquda toshning ustidan tushib ketdim. Yuragim orqaga yopishib urmay qoldi go'yo. Biroq tomdan ag'anagan kishi yerga tushadi-ku. Men o'zimga kelib nash'a qila boshladim, shu haqda ungayam so'zladim, lekin o'zim sezmadim, tavba, nimalarni so'zladim, so'zlarimga quloq tutgim keldi, uchib borayotgan so'zlarni tutib olib eshitdim bir-ikkitasini: "Layli emasmisiz, Layli emasmisiz, siz, men..." Mening so'zlarim uning yuziga urildi, qizil lablari tag'inda qizardi, yuzi ham qon tusini ola jo'nadi. O'sha lablarning orasidan egiz chaqaloqlardek bir-ikki jondor so'z chiqqa keldi. Ularni olib ko'ksimga qo'ydim. So'ng o'sha tanish lablar qoya atrofida qayga qo'nishini bilmay yurgan musiccha kabi qaynoq nafas urib talvasalandilar. Vujudimning titroq buyrug'i ila men musicha-yu jondor so'zlarning egasini birdan qo'llarim ila quchdim. Engashdim. Xira tuman kabi parda tortildi-yu, shu parda ortidagi ega to'liqlik suvdagi aks misol chayqaldi. Beldagi qo'llarim issiq suvni quchganday bo'ldilar. Yo'q, axiyri bilsam, u suv ham emas, nimadir xiyonat yuz berdi shu yerda. Havo - oddiy bo'shliq qoldi, xolos. Qizning yorqin chehrasi balqib turgan bir surat havoda chayqaldi. Suratga qo'l cho'zsam, u ham yo'qoldi-da, hang-u mang bo'lib qotib qoldim. Yonimda sollarib oqayotgan anhorning yuzini-da hijob yanglig' bir parda qoplab yotardi. Uyatdan yuzim cho'g'day qizib ketdi...

## LUQMON BO'RIXON

1965-yilda Qashqadaryo viloyatining G'uzor tumanidagi Yangiobod qishlog'ida tug'ilgan. Toshkent davlat universitetini (hozirgi O'zbekiston Milliy universiteti) tugatgan. Birinchi kitobi - "Yalangoyoq" (1991). Turli yillarda "Sirti muallim" (2006), "Tun qa'ridagi shu'la" (2002), "Xizr ko'rgan yigit" (2007), "Quyosh hali botmagan" (2016) kabi nasriy to'plamlari nashr etilgan. "Jaziramadagi odamlar" (2005), "Temiryo'l" (2009), "Imom Moturudiy" (2022) romanlari muallifi. "O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan madaniyat xodimi" unvoni bilan taqdirlangan (2012).

## LONG

- Qadim-qadimdan udum shu, elga biror dard dorisa, oti aytilmaydi, long oraladi, deb qo'yishadi. Chunki u otini eshitsa, battar kuchayar ekan.

Uch kun avval xotini aytgan shu gap Safarmurod oqsoqolning tuyqus xayolidan kechdi.

"Juda topib gapirdi-da, - deb o'yladi u miyig'ida kulib, - aytganlari chin".

Toshbibi checha horg'in va ezgin ahvolda eshikdan kirib kelgan, bir paytlar dovrugli chavandoz bo'lgani bo'yi-bastidan, lapanglab qadam tashlashlaridan bilinib turgan eriga peshvoz yurdi.

- Ko'p yuguryapsiz, charchayapsiz, bovasi, - dedi u bezovtalanib.

Oqsoqol xuddi o'ziga o'zi gapirganday ming'irladi.

- Long kuchayib borayapti. Bugundan hamma qatnovlar to'xtatildi. Hech kim hech yoqqa chiqmaydi. Long yomon, momosi, long yomon.

- Zarurat bo'lganki, shunday chora qo'llashgan.

- Nochor oilalar bor, ular qanday kun ko'radi endi?  
 - Davlat qarashar-da.  
 - Qarashadi, - dedi Safarmurod ishtahasiz non chaynarkan, - lekin qishlog'ingga qachon son tegadi, Xudo biladi. Bu yog'i, hokimiyatdan bizga yordam qani, deb so'ray olmayman, to o'zlaridan biror gap chiqqunicha. Chunki, ko'rib turibsan, ahvol ancha og'ir, bunday paytda hukumatni bezovta qilishga ham betim chidamaydi. Lekin nochor ro'zg'orlarning holiga beparvo qarashga ham haqqim yo'q. Eh, long yomon, momosi, long yomon.  
 - Nima qilmoqchisiz unda?  
 - Bilmadim, boshim qotib qoldi.  
 - Qishloqdagi jonliroq odamlarni himmatga chaqirsangiz-chi.  
 - Buning uchun avval o'zim ibrat ko'rsatishim kerak, - dedi Safarmurod ovqatdan bo'shagan kosani nari surib. - Keyin birov-yarimni himmatga chaqirsam bo'ladi.  
 - Sizing qo'lingiz kaltalik qiladi.  
 - Men... bir xayolga borib turippan.  
 Toshbibi checha sergaklandi.  
 - Xay, gapiring-chi.  
 - Kenjaning to'yiga deb yig'ib qo'yganimizdan oz-moz ehson qilsak, - dedi Safarmurod ming bir istihola bilan, - baribir endi kuzgacha kelin ololmaysan.  
 Toshbibi checha dasturxon popugini xayolchan o'ynaganicha ming'irladi.  
 - Yig'laganga qo'shilib yig'lashingiz hech qolmadi-da, bovasi. Uch-to'rt chaqangiz qanchaga ham yetardi.  
 - E-e, - dadil qo'l siltadi er, xotini osongina bo'shaganidan quvonib, - hammasiga emas, eng nochor bir-ikki xonadonga yordam berib turamiz. Eh, long yomon, momosi, long yomon.  
 Oqsoqol xotini yana aynib qolishidan qo'rqqanday shosha-pisho o'rnidan turdi.

\* \* \*

Bir qop un, bir idish yog', tag'in allaqancha mayda-chuyda mahsulotlar tashlab ketganini ko'rgan domla Xurramovich o'g'ri mushukday poylab mulla Mirzaning hovlisiga kirdi.

- Assalo'o'm, yaxshilar!  
 Keltirilgan narsalarni mamnun ko'zdan kechirayotgan jikkakina chol bo'sag'ada temir tishlarini ko'rsatib irjayib turgan, butun tumanu viloyatda arizabozligi bilan nom qozongan qo'shnisini ko'rib ensasi qotdi.  
 - Keling, hamsoya.  
 - Vaqtincha qo'l berib ko'rishmaymiz, hozir tartib-qoida shunday, - dedi domla o'zining intizomli fuqaro ekanini ta'kidlamochiday, - xafa bo'maysiz, mulla buva.  
 - Yaxshi qilasisiz, esam, yana qo'l yuvishim kerak bo'ladi, - dedi qariya ham bo'sh kelmay.  
 Domla Xurramovich mahsulotlarga ishora qildi.  
 - Bular nima-ey...?  
 - Nochorlarga yordam ekan, baraka topsin, Sapparboy tashlab ketdi, tuvrisi, sal qiynalib turgandik o'zi.  
 - Buni qayoqdan olibdi oqsoqol?  
 - Bilmadim, surishtirmadim, yurtboshimizning, xalqning haqiga duo qilib qo'ying, balolar tezroq arisin dedi.  
 - Demak, bu davlatning yordami, - deya Xurramovich o'zicha mulohaza yuritdi. - Hukumat tang paytda nochorlar uchun katta mablag'ajratgan, kecha hokimiyat joylarga tarqatgan, Sapparboy ham ulush olgan.  
 - Hay, bo'lsa bordir, yurtboshimizga, hukumatimizga ming rahmat!  
 Domla Xurramovich pixillab kuldi.  
 - Juda go'lsiz-da, mulla buva, go'lsiz. Sizni laqillatib ketibdi-yu, Sapparboy.  
 - Bu nima deganingiz?  
 - Sizga bundan uch karra ko'p narsa berishi kerak edi. Aldabdi. Hammaga shunchagidan tarqatib chiqib, qolganini o'zi o'zlash-tirmoqchi u. Mulla Mirza go'ng pashshani haydaganday qo'l siltadi.  
 - Qo'ying bu gaplarni, sizga yarashmaydi, hamsoya. Berganiga, yetkazganiga shukur!  
 - Hay, o'zingiz bilasisiz, lekin biz bu masala bilan shug'ullanamiz, haqiqatni joyiga qo'yamiz.  
 Domla Xurramovich dimog'ida pishqirgan ko'yi chiqib ketdi.

\* \* \*

Kechga yaqin uyiga qaytgan oqsoqolni Toshbibi checha andak zarda bilan kutib oldi.

- Ashir bilan Saypiga ham aytganingizday qilib berib yubordim, - dedi u dahlizga ko'rpacha to'shar ekan.

Oqsoqol o'zini oqlay boshladi.

- Lop etib ikkovi oldimdan chiqib qoldi, noiloj jo'natdim.

- Nega noiloj bo'lasiz? Otangizdan qolgan xazina bormi bu yerda, - deya battar tutoqdi ayol. - Mulla Mirzaga o'zim ehson qildim, deb tuvtisini aytangiz bo'lmasmidi?

- Tuvrasini aytam, ehson riyoga aylanib qoladi, deb qo'rqdim. Keyin, baribir ular gapimga ishonishmasdi, rahbarlarga arz qili-shardi.

- Arz qilsa, qilaverishsin, rahbarlar ham to'g'ri tushunar.

- Momosi, - Safarmurod xotiniga iltijoli tikildi, - hozir hukumatni har xil shikoyatlar bilan chalg'itmaslik kerak, qo'ldan kelganicha og'ir vaziyatni yengil qilaylik, long yomon, momosi, long yomon.

Toshbibi chechani baribir chehrasi yorishmadi.

- O'zingizdan ko'ring, endi qutula olmaysiz bulardan, to'p-to'p bo'lib kelishaveradi. Qolqonip muallimga, Ergash akaga deb atab qo'yganlaringizni anovilarga berib yubordim. Endi bu yog'iga nima qilasisiz, o'zingiz bilasisiz.

Xuddi shu gapni kutib turganday darvoza yonida domla Xurramovich ko'rindi.

- Assalo' o' o'm, yaxshilar! Kim bor?

Safarmurod istar-istamas unga peshvoz chiqdi.

- Nima gap, domilla, uyda o'tirmay, nima qilib yuribsisiz? Long yomon.

Xurramovich og'iz-burniga tutgan niqobni iyagiga tushirib qo'ydi.

- Men ham ulush olgani keldim. Jo'jabirday jonmiz.

- Sizga ulush yo'q.

- Nega?

- Bir qo'ra molingiz bor, katta tomorqangiz bor, uyalmaisizmi, ko'mak so'rashga?

- Rais, - deya xezlandi domla, - men sizdan biror nima tilanib kelganim yo'q, hukumatimizning qonuniy yordamini so'rayapman.

- Kimga nima bergan bo'lsam, o'z hisobimdan chiqim qildim, - deb dangaliga ko'chib qo'ya qoldi oqsoqol.

Xurramovich unga bir zum sinovchan - savolchan qarab turdi.

- Tushunarli, demak, hukumat mablag'lariga ham egasisiz, yaxshi, buni bir surishtirib ko'ramiz.

- Domilla, uyingizga boring, bu yerda ko'p turmang, long yomon.

Xurramovich nopisand tirjayib tashqariga chiqib ketdi.

Safarmurod uning ortidan xomush qarab qolarkan, qorachiqlari bir zum xira tortganini, yuragida, orqa kuragi ostlarida qandaydir sanchiq turganini sezdi. Shu og'riq, behollik kechki taom payti ham, keyin televizorga parishon tikilib o'tirgan chog'i ham tark etmadi.

- Momosi, bugun sal ertaroq cho'zilay, - dedi u ichkari xona tomon jo'narkan.

Shu payt qo'l telefoni jiringlab qoldi. Oqsoqol istar-istamas telefon ekraniga ko'z tashladi. Tashladi-yu, tuman hokimi o'rinbosarining ism-sharifiga ko'zi tushib shosha-pisha qulog'iga tutdi.

- Alyo, assalomu...

Safarmurodning salomi ham og'zida qoldi.

- Ey rais, qanaqa odamsiz o'zi, - nogoh qahr-u g'azab sochiladi narigi tarafdin, - nega xalq orasida vahima qo'zg'ab yuribsisiz?! Tafsilotlarni saharlab borib aniqlash tiraman! Lekin siz egallab turgan joyingizga noloyiqsiz.

- Men haligi...

Safarmurod gapirishga ulgurmadi. Aloqa uzildi. Dahliz o'rtasida qaqqayib turgan oqsoqolning qo'lidan telefon apparati tushib ketdi. O'zi ko'ksini changallagan ko'yi devorga arang suyanib qoldi. So'ng sirg'alganicha ko'rpacha ustiga quladi.

\* \* \*

U g'ira-shira hushiga keldi. Yumshoq to'shak ustida yotganini, qo'lga tomchi dori moslamasi ulanganini sezdi. Ammo qaboqlari shu qadar og'ir ediki, harchand urinsa ham ko'zlarini ocholmadi. Qulog'iga elas-elas tovushlar eshitildi.

“Oqsoqolning tobi qochib qolganini aytdim, tushuntirdim”. Bu ovoz ayoliniki edi.

“Bo’ldi, qishloqqa ajratilgan yordamni o’zimga opkelaman”. Bu uchastka militsiya nozirining tovushi edi.

Yana ayolning shikasta sasi eshitildi:

“Anovi darvoza ortida turgan hamqishloqlarni uy-uyiga jo’natib yuboring, iltimos, kasal ko’ramiz, deb ertadan beri turishibdi, mening gapimga ko’nishmayapti”.

“Bo’ldi, hozir hal qilaman”.

Qadam tovushlariga qaraganda uchastkavoy chiqib ketdi.

Safarmurod bilagiga qadalgan ignani kimdir sug’urib olganini sezdi. Bir amallab qovoqlarini ko’tardi. Oq qalpoq, oq libos kiygan shifokorni g’ira-shira ilg’adi. Shifokor ham bemorning ko’z ochganini payqadi.

– E-e, rais buva, – dedi u jilmayib, – shunday qiling-ey, juda qo’rqitib yubordingiz odamni.

Toshbibi checha ilkis intilib erining tepasiga engashdi. Ko’zlarida g’ilt-g’ilt yosh aylanardi.

– Bovasi... – dedi arang.

– Qayerdaman, – pichirladi Safarmurod quruqshoq lablarini yalab.

– Uydasis, bovasi, uydasis. Markazdan do’xtir kelgan, Normurod do’xtir. Kechadan beri boshingizda dori berib o’tiribdi.

– Men ham anovi... longga chalindimmi?

– E-e, Xudo saqlasin, – dedi Normurod do’xtir bemorning boshiga engashib. – Kun-u tun tinmaysiz, biroz toliqibsiz, insultni oyoqda o’tkazib yuboribsiz.

– Insult deysizmi?

Toshbibi checha shosha-pisha shifokorni qo’llab-quvvatladi:

– Ha, shunday, bovasi, oyoqda o’tkazib yuboribsiz, dam oling, desak gapga kirmaysiz.

– Insult bo’lsa, yaxshi, Xudoga shukur, – mamnun pichirladi Safarmurod oqsoqol. – Long yomon, momosi, long yomon.

Uning yuzlariga rang, lablariga tabassum yugurganday bo’ldi.

## ZULFIYA QUROLBOY QIZI

1966-yilda Jizzax viloyatining Jizzax tumanida tug’ilgan. Jizzax pedagogika institutining o’zbek filologiyasi fakultetini tugatgan. “Turmush” (2003), “Yovuzlik farishtasi” (2005), “O’lim hech narsa emas” (2010) kabi kitoblari nashr etilgan. “Armon asirasi”, “Mashaqqatlar girdobi” romanlari muallifi. “Shuhrat” medali bilan taqdirlangan (2019).

## AYOL

Devorlari oppoq xona.

Deraza oynasidan to’kilayotgan oppoq nur ayolning yuzida jilva qildi, yumuq qovoqlarini qizartirdi, barmoqlaridagi uzukning olmos ko’zchalarida aks etdi.

Ayol ko’zlarini ochdi. Shu’la endi uning qorachiqilarida akslandi.

“Qanday yoqimli... Tiriklikning yana bir tongi otdi, – ayol ko’zlarini yumib, quyosh nurlarini simirdi, keyin yana ohista pichirladi: – Seni qanchalik yaxshi ko’raman, quyosh!..”

Quyosh nurlarini mo’l-ko’l to’kdi. Ayol oftob nuriga butkul g’arq bo’ldi...

\* \* \*

Keyingi hafta surunkasiga Nazokatning harorati ko’tarilib, tushib turdi...

Davolovchi shifokor Shavkatni xonasiga chaqirdi.

– Nazokatning ahvoli yaxshi emas. Hozirligingizni ko’ravering.

Shavkat boshini changallab qoldi.

– Og’ir bo’ling. Hali u ko’p azob tortishi mumkin, – shifokor jimib qoldi.

Shavkat ilkis boshini ko’tardi.

- Nahotki... Shuncha qiynalgani yetmaydimi?..

- Ko'p azob turibdi oldinda, - dedi shifokor mahzunlik bilan. Shavkat kasalxona hovlisida ancha vaqt aylanib yurib keyin palataga kirdi. Nazokat uxlab yotardi. U juda ozib ketgandi. Qovoqlari ichga botib, yonoq suyaklari turtib chiqqan, chekka tomirlari ko'm-ko'k bo'lib bo'rtib turardi.

Dunyodagi barcha kasalliklarga la'nat o'qidi Shavkat. Nazokat tikilib turgan nigohlarni his etdi shekilli, asta ko'zini ochdi.

- Yaxshimisan?..

- Tuzuk, - o'rindan qo'zg'aldi Nazokat, - hovliga chiqib kel-sammii, devdim.

Shavkat unga qo'lini uzatdi.

- Hali kuchim bor, o'zim yura olaman, - dedi Nazokat g'alati qarab.

Shavkat beixtiyor chuqur xo'rsindi.

Ular hovliga chiqishdi.

- Do'xtir sizga bir balolarni vaysagan shekilli, - dedi Nazokat tashqariga chiqqanlaridan keyin erining qovoqlari salqigan, kayfiyatsiz yuziga zimdan tikilganicha. - Lekin ular yangilishyaptilar. Aft-angorimga qarang, yaxshilab qarang, men yaqin-o'rtada o'ladigan odamga o'xshaymanmi? O'zimni har qachongidan yaxshiroq his etyapman. Yashash uchun bundan ortiq yana nima bo'lishi kerak? - Ayol yurishdan to'xtadi. Havo sovugan, osmonda uvada bulutlar kezinar, quyosh xiragina nur sochar, qorning hidi kelardi. - Men oynaga boqib, qayta-qayta tikildim o'zimga, o'ladigan odamning yuzi bunaqa bo'lmaydi. Siz ham eshitganmisiz shu gapni?

- Ha, eshitganman, - dedi Shavkat shubhaga o'rin qoldirmaydigan ohangda.

- Ana, ko'rdingizmi, - Nazokatning allaqanday ichki nurdan yuzi yorishdi. U nariroq borib kungay yerda turdi, ayolning qora-chiqlarida olov akslandi. - Haliyam havo bulut, - dedi u, - yorug'lik tiniq emas. Bu havo odamning rangini ochmaydi, bo'g'ib qo'yadi!

Haqiqatan ham ochiq havoda uning yuzida kasallik nuqsi sezilmas, egniga to'kilgan upa g'ubori, havoga taralayotgan yoqimli hid uning o'ziga oro berganini bildirib turardi.

Birdan kutilmagan hol yuz berdi. Nazokat yugurib kelib Shavkatning quchog'iga o'zini otdi. Avvallari hech ham bunday qilmasdi.

- Biz faqat er-xotin emas, undan ham yaqinroq bo'lib ketganmiz, a, dadasi? - dedi u erining ko'ksiga yuzini bosib.

Shavkat kuchli haroratni va ko'z yoshlarni tuydi. U qimir etolmay qoldi, nimadir deyishni, xotining ko'nglini ko'tarishni istadi, ammo tili aylanmadi. Ko'ksidan beixtiyor yana og'ir xo'rsiniq otilib chiqdi.

Nazokat erining yuzidan o'pdi, avaylab, nazokat bilan o'pdi. Shavkatning tanasiga titroq kirdi. Xotining qovjiragan lablari is-siq edi. Yuzi issiq edi. Nafasi issiq edi. Yuziga tegib turgan sochlari-dan-da hovur sachrayotgandek edi.

- Senga nima bo'ldi?.. - deya oldi Shavkat.

Nazokat jilmaydi. Bir vaqtlardagiday... Ammo bu kulgu emas, og'riq, armon to'la shodmonlik edi.

Shavkat uni bag'riga bosdi, nigohlarini yashirdi. Nazokatning yuziga qarashga ortiq bardoshi yetmadi.

- Mana ko'rasiz, ikki-uch kun o'tsin, yana avvalgiday bo'lib ketaman. Shunday bo'lishini ko'nglim sezib turibdi, - shivirladi Nazokat.

Shavkatning ko'ziga dunyo qorong'u bo'lib ketdi.

\* \* \*

Kechasi Nazokatning yana issig'i ko'tarildi. Alahsiradi. Bolalarini so'radi.

Shavkat navbatchi vrachni chaqirdi. Ukoldan keyin Nazokat tinchlanib uxlab qoldi.

Ertalab odatdagiday vaqtli uyg'ondi.

- Qattiq uxlab qopman-a? - deb so'radi u allanarsadan hadiksiragandek bo'lib.

- Charchagansan, - dedi Shavkat.

- Radioni nimaga o'chirib qo'ydingiz?

- Senga tinchlik kerak. Do'xtir aytdi.

- Men atay radioni yoqib qo'ygandim. G'ing'illab tursa qattiq uxlab qolmayman...

- Bugun ham havo juda yaxshi, hovliga chiqasanmi? Yozga ham, kuzga ham o'xshamaydi sira, - dedi Shavkat.

- Chiqaman, albatta. Ertalabki toza havoni yaxshi ko'raman.

Nazokat adyolni ustidan olib tashlab, oyoqlarini karavotdan pastga tushirdi. Birdan oyoqlariga ko'zi tushgan ayolning yuzi o'zgarib ketdi. Ikkala oyog'i ham shishib, po'rsillab turardi. Bir kechada-ya...

- Keyinroq chiqarman... - Nazokat bo'shshagancha o'ringa cho'zildi. Oyoqlari ustiga adyolni tashladi.

- Nonushtani shu yerga olib kela qolay. Ikkalamiz o'tirib choy ichamiz, keyin bolalardan, ishdan xabar olaman, - dedi Shavkat xotunining birdan avzoyi o'zgarganidan taajjublanganini sezdirmay. - Mayli...

Shavkat g'ildirakli stolda nonushta olib keldi. Nazokat oyoqlarini adyol bilan o'rab o'tirib choy ichdi...

Kechga borib Nazokat boldirlari ham shishib, ko'pchib turganini ko'rdi. Uning hafsalasi pir bo'lib ketdi. Kechasi yana isitma tutdi.

Ertasiga sahar uyg'onganida qorin qismida allaqanday g'ashni keltiruvchi og'irlikni tuydi. Qoqsuyak qo'lini qorni ustiga qo'ydi-yu, shu zahoti tortib oldi. Shish endi qoringa o'tgan, u oshgan xamirday ko'pchib turardi.

- Do'xtir! - qichqirib yubordi Nazokat. Lekin buni o'zi sezmedi. Salobatli kekse do'xtir, uning ketidan ozg'in hamshira ichkari-ga kirishdi.

- Qalaysiz, qizim, isitma bezovta qilmayaptimi endi? - taburet-kaga o'tirdi shifokor.

Nazokat mahzun jilmaydi, ko'zlarining ostida ajin g'ujumi paydo bo'ldi.

- Yaxshiman.

- Haroratini o'lchang, - dedi vrach hamshiraga qarab. Keyin yana Nazokatga yuzlandi. - Menda gapingiz bor ekan. Eshitaman, qizim.

- Shish masalasida... - Nazokat gapirolmay qoldi.

- Xo'sh.

- Qornimda yana suv to'plangan, shekilli? Qarang... Shu suyuqlikning hammasini birdan oldirsam, shish qaytadimi?... - Nazokatning ko'zlari g'illilladi.

- Shish qaytadi, - dedi shifokor vazminlik bilan. - Lekin menimcha... Sizga do'xtir sifatida emas, oddiy bir odam, otangiz qatori bir odam sifatida aytadigan bo'lsam... buni maslahat bermayman. - Nega?

- Endi... shunisi ma'qul... - U nigohlarini qayerga yashirishni bilmasdi.

- Bu gal judayam qiyin bo'lsa kerak-a? Qattiq azob tortsam kerak. Qaysidir palatada bir ayol kechadan beri chinqirib yotibdi-yu, shunga o'xshab. Lekin buni qarang, qornim soat sayin kattalashib ketyapti. Hademay do'mbiraday bo'lib qolsa kerak. Men bunday xunuk alfozda... - Nazokat yuzini devor tomonga burdi. Yostiq nam tortdi.

Tog'day shifokor birdan kichrayib qolgandek his etdi o'zini.

- Tushunib turibman... - dedi bir ozdan keyin ovozi xirillab. - Biz keragini oldik suyuqlikning... Ammo ortiqcha azobning nima keragi bor?

- Mayli, men chidayman... - dedi Nazokat ters qarab yotgan ko'yi. - Hammasiga chidayman.

Shifokor o'rmdan turdi. Nazokat jon holatda uning qo'lidan ushladi.

- Bilaman, oz qolganini bilaman. Lekin bunday xunuk alfozda o'lishni istamayman. Istamayman!..

Shifokor qo'lini avaylab tortib olib, xonadan chiqdi...

\* \* \*

Tun.

Shavkat tezda uxlab qoldi. Ammo Nazokat yota olmadi. U oyoqlariga ilashgan yengil ko'rpani nari surib, qiyinchilik bilan tiz-zalarini quchoqlagancha to'shak ustida o'tirmoqchi bo'ldi, ammo bu noqulay edi. To'g'rironi juda o'ng'aysiz edi. Xipcha belida osilib turgan yoqimsiz og'irlik o'tirishga xalaqit berardi. Ayol o'rmdan turib deraza oldiga keldi. Uning uyqusi o'chgan, butun olamni nigohlari bilan qamrab, unga joylab olmoqchidek, ochiq derazadan

unsiz osmonga tikilar, hayratomuz manzardan dong qotardi. Zero bu vaqtda had-hududsiz osmon nurafshon, tillarang yog'duga g'arq bo'lib yotardi. Ufq tepasida osilib turgan oy, jimir-jimir qilayotgan yulduzlar yaqinlashib kelayotgan tongga o'rin bermaslikka, asta-sekin xira tortib, so'nib yo'q bo'lib ketmaslikka tirishayotgan-day yanada yorqinroq jilva qilishardi.

Tun va tong o'rtasida keskin kurash ketayotgan bir vaqtda borliqda teran sukunat hukm surardi. Ayol butun jism-u joni quloqqa aylanib, allaqanday eshitilmas tovushlarga, sirli ohanglarga g'arq bo'ldi, oy nurida yaltirayotgan yaproqlarning sehrli titrog'ini his etdi... Keyin chuqur nafas olib o'pkasini toza havo bilan to'ldirdi. Lablarini qattiq qimtib, nafas chiqarmay turdi.

Asta-sekin borliqqa kumushrang nur oqimi yoyildi. Qushlar chah-chahlab yubordi...

Nazokat chuqur xo'rsindi. Ko'zlari yoshlandi.

Shavkat bezovtalanib, qimirlab qo'ydi.

Nazokat o'ringa cho'zildi. Boshini ko'rpa bilan burkab oldi. Zum o'tmay adyol silkina boshladi.

Ayol yig'lardi, unsiz yig'lardi...

\* \* \*

Kechga borib Nazokatning nafasi qisa boshladi. Boshi yostiqqa tegishi hamon havo yetishmay qolgandek bo'lardi. Qorni yana biroz kattalashgandek edi.

Shifokor Nazokatga yostiqqa suyanib o'tirgan ko'yi uxlashni tavsiya qildi. Yotgan paytida qorin bo'shlig'ida paydo bo'lgan suyuqlik o'pkani siqib qo'yardi, shuning uchun Nazokat nafas olishga qiynalayotgan edi...

Palataga hamshira kirdi.

- Erim kelsa, ichkariga kiritmang, iltimos, - dedi Nazokat unga.

- Nega? Do'xtir kechasi yoningizda odam bo'lishini tayinlagan, - dedi hamshira.

- Vaqtincha kiritmay turing, iltimos.

- Lekin u xavotirlanadi...

- Biror bahona o'ylab toparsiz! - Nazokat hamshiraning cho'ntagiga pul soldi.

Hamshira ikkilangancha chiqib ketdi.

Nazokat derazaga tikildi. Uning ko'z oldida o'g'illari paydo bo'ldi.

Ayol o'kirib yubormaslik uchun labini qattiq tishladi...

Shavkat ishdan keyin to'g'ri kasalxonaga keldi. Lekin uni palataga kiritishmadi.

- Mumkin emas! - dedi hamshira darchaga engashib.

- Ahvoli og'irlashib qoldimi?! - dahshat ichida so'radi Shavkat. Birdan uning yuzi ko'karib ketdi.

- Ahvoli yomonmas, lekin...

- Vrach bilan gaplashsam bo'ladimi?

- Vrach kechki obxodda!

Shavkatning yuragi xavotiri uvishdi. Nazarida atay vrachlar uni ichkariga kiritishmayotganday tuyuldi. Allaqanday qora xayollar birdan bostirib keldi va u o'zini bosa olmay qoldi.

- Eshikni oching! Oching, deyapman! - deya qichqirdi u eshikni mushtlab. - Vrach bilan gaplashshim kerak! Xotinimni ko'rishim kerak!

Ichkaridan javob bo'lmadi.

Shavkatning xavotiri kuchaydi. Dunyo ko'ziga qorong'i bo'lib ketdi.

- Eshikni oching! Oching! - deya qichqirdi u joni bo'g'ziga tiqilguday bo'lib. Keyin bir-ikki tepdi ham.

- Nima gap, tinchlikmi? Nega to'polon qilyapsiz? - dedi bir mahal keksa navbatchi vrach eshik oldida paydo bo'lib.

- Do'xtir, xotinimni ko'rishim kerak... Ko'rishim kerak... Lekin ular meni ichkariga kiritishmayapti! - dedi Shavkat hovliqib.

Eshik ochildi.

- Ortimdan yuring, - dedi keksa do'xtir.

Shavkat unga ergashdi.

Vrach uni Nazokat yotgan palataga boshlab bordi. Lekin ichkariga kirishga ruxsat bermadi.

- Ana, xotiningiz uxlayapti, endi ko'nglingiz tinchidimi?

Shavkat qiya ochilgan eshikdan ichkariga bosh suqdi. Ha, haqiqatan ham deraza ostidagi karavotda Nazokat uxlab yotardi. Quyuuq qora sochlari oppoq yostiq ustida parishon sochilgan... Ko'rpadan



biroz chiqib turgan yelkasida oy nuri jilva qilardi. Shavkat sal xotirjam tortdi. Ammo dilidagi g'ashlik va qo'rquv tarqamadi.

– Nega meni ichkariga qo'ymaysiz? – deb so'radi u kekshaifokordan. – Axir o'zingiz aytgandingiz-ku, kechasi oldida odam bo'lishi kerak, deb.

– To'g'ri, o'zim shunday degandim. Lekin bu bemorga yoqmayapti. U tinchlikni istayapti chog'i. Mayli, ko'ngliga qaraymiz.

– Men nima qilay unda?

– Siz? Ihtasangiz uyingizga borib, bolalaringizdan xabar olib keling. Darvoqe, ularni ertaga olib kelsangiz ham bo'ladi. Faqat deraza ortidan gaplashishadi, xo'pmi?

– Xo'p...

Shavkat kasalxonada hovlisida ancha vaqt turib qoldi. Uning ketgisi kelmayotgandi. Birdan uning xayoliga deraza tomondan bor-sam-chi, degan o'y keldi. Keyin kasalxonani aylanib o'tib, Nazokat yotgan palata derazasi tagiga keldi. Ammo ichkarini ko'rib bo'lmasdi. Deraza oynalari yarmigacha to'sib qo'yilgandi.

Shavkat yerga cho'k tushdi. Keyin bu yerdan bir qadam ham jilmadi...

Azob edi...

Yota olmasdi. O'tirish ham ancha noqulay. Ikki-uch qadam yurmasdan harsillab qolardi. Holdan toygan vujudi ortiqcha yukni ko'tarolmay qiynalardi.

Kechga borib Nazokatni hiqichoq tutdi. Ikki-uch marta "hiq-hiq" etdi-yu, birdan ichidan qandaydir suyuqlik otilib chiqdi...

– Hamshira! – xirqiroq ovozda qichqirdi Nazokat.

Zum o'tmay vrach yetib keldi.

– Endi suvni olmaslikning iloji yo'q, a? – dedi Nazokat unga qarab. Shofikor javob bermadi.

– Do'xtir... – Nazokat barmog'idagi tilla uzugini vrachning cho'ntagiga soldi. – Suvni oling, iltimos. Faqat oxirigacha!

Vrach yana javob bermadi. Hatto qarab ham qo'ymadi. Ayolning qo'li cho'ntagiga kirib chiqqanidan keyin ham yuziga qaramadi.

Biroq:

– Hamshira! – deya chaqirdi yo'lakka qarab. Nazokat jilmaydi. Keyin yostig'i ostidan upa-elikni oldi...

\* \* \*

Tun chekindi.

Deraza oynasiga kumushrang yog'du yopirildi.

Keyin ufq qizarib, asta quyosh bosh ko'tardi. Quyosh nurlari xira va kuchsiz edi, ammo u tez ko'tarildi. Har yer-har yerda uni uvada pardalardek kulrang bulutlar to'sdi, lekin quyosh yurishini to'xtatmadi va birdan ko'zni qamashtiradigan darajada oppoq bo'lib porlab, bepoyon osmonni yoritdi, so'ng yurishini sekinlatib, kasalxonaga tepasiga kelganida bor shu'lasini derazasi ochiq xonaga tushirdi, shu'la shu lahza karavotda yotgan xushbichim va go'zal ayol yuzida jilva qildi, qovoqlarini qizartirmoqchi bo'ldi, lekin tosh qotgan qovoqlar qilt etmadi, shu'la o'ziga qadrdon qorachiqlarda akslanmoqni istadi, ammo ularni topa olmadi, u faqat ayolning barmog'larida paydo bo'lib qolgan uzukning olmos ko'zchalaridagina aks eta oldi.

Bu kun quyosh qanchalar porloq va nurafshon bo'lmasin, unga hech kim muhabbat izhor qilmadi, muloyim nurlarini simirmadi...

Ba'ribir quyoshning bu yerdan uzoqlashgisi kelmadi, u saxiylik bilan nurlarini mo'l-ko'l to'kdi, jimgina yotgan ayol vujudi ko'zni qamashtirib, yarqirayotgan oppoq nurlarga omuxta bo'lib ketdi...

Bilasan, birmuncha vaqt avval u kishi bilan bir vajdan bahs etib qolgan edik.

Ali Qushchi ustozining keyingi soʻzlarini kutib sukut saqladi. Chunki Mirzo Ulugʻbek biron bahstalab mavzu haqida soʻz ketganda, oʻz-oʻzi bilan mushohada yuritayotgan kabi yarim ovozda soʻzlar, Ali Qushchi uning shu odatini yaxshi koʻrardi.

– Mavlono Ardistoniy raml ilmidagi sohibi kamol erurlar, – deya soʻzini davom ettirdi Ulugʻbek, – ammo men u kishi taqdiri azal borasida biroz mubolagʻa qilurlar, deb oʻylamoqdamen. Olloh oʻz bandalari ruhiga jism bagʻishlar ekan, dorilfanodagi umri uchun oʻlchov hamda vazifa ham ato etgay. Bu barhaq rost. Ammo hamma hodisot faqat taqdiri azalga bitilgan boʻlsa, insonga nechun zakovat va idrok, shuur va iqtidor berilmish? Alloh insonni shu qadar suyib, unga iqtidor va isteʼdod berar ekan, uni taqdir oldida oʻjiz etib qoʻymogʻi mumkin emas! Men inson dunyoga bejiz kelmas va beiz ketmas deb bilurmen.

Ulugʻbek uchunchi oshyonaga olib chiquvchi pillapoya adogʻida toʻxtab, ortidan kelayotgan shogirdiga qaradi:

– Nechun indamaysen, mavlono?

Ali Qushchi kulimsiradi:

– Ustod, oʻzingiz aytar edingizkim, farazning mubolagʻa emasligini isbotlamoq uchun sinov lozimdur. Ammo mavlononing soʻzlari borasida ilmi sinov ilojsiz. Shundoq ekan...

Ulugʻbek qoʻlini koʻtarib, shogirdining kiftiga qoqdi:

– Balli, Alouddin!

Keyin kulib yubordi:

– Ilmi sinov ilojsiz, degin? Ammo ilojsiz nimarsaning oʻzi yoʻqdur!

Ali Qushchi ustozni nima sababdan kulganini tushuna olmadi. Ulugʻbek esa miyasiga kelgan fikrdan lazzatlanagan misol yana bir bor kuldi. Soʻng yosh mudarrisni ortidan kelishga ishora qilib, ich-kari kirdi.

– Oʻn kunlardan keyin asad kirur, – dedi Ulugʻbek, – bu yil Dubbi Akbar ayni asad paytida egilma avj boʻylab koʻrinur. Yangi usturlobning tagligi kechikib qolmaydimu?

## RISOLAT HAYDAROVA

1966-yilda Toshkent shahrida tugʻilgan. Toshkent davlat universitetini (hozirgi Oʻzbekiston Milliy universiteti) tugatgan. “Magʻtura” (2007), “Karantin” (2021) qissalari, “Javzo” (2011) tarixiy romani, “Gʻurgʻ urtepada saraton” (2021) hikoyalar turkumi, “Sebzor” (2022) nasriy toʻplami chop etilgan. “Shuhrat” medali bilan taqdirlangan (2021).

## UCHINCHI BASHORAT

Movarounnahrda saraton issiqlari aviga chiqqan payt. Sahargi salqinlik koʻp oʻtmay kunduzgi jazirama bilan almashadi. Quyosh goʻyo odamzod, nabotot va hayvonot olamini oʻz qudratiga yana bir bor ishonitirishga qasd qilganday... Butun borliq, hatto shamol ham nafas olmay qotgan kabi.

Uch oshyonalik muazzam rasadxona ichi salqin. Yaqinda qurilishi yakunlangani bois bino ichida ganch va boʻyoq hidi anqiydi. Xonalarning aksariyati hali boʻsh, oyoq bosgan sari qadamlar aks-sado beradi.

Rasadxonaning zinalaridan oppoq ipak yaktak ustidan keng, yengil shohi chakmon kiygan oʻttiz yoshlardagi yigit yuqorilaydi. Yigitning egnidagi kiyimlarning yoqa oʻyiq-lari hamda yelkalari-da nozik chokli bezaklar koʻrinadi. Boshiga oʻralgan ixcham oq dastorida yongʻoq kattaligidagi shaffof tosh yariqiraydi. Bu yigit Eron va Turon hoqoni, temuriyzoda Shohruh Mirzoning toʻngʻich oʻgʻli hamda uning ishonchli noibi, Movarounnahr va Turkiston hukmdori Mirzo Ulugʻbek edi. Ulugʻbeking ortidan shogirdi Ali Qushchi ergashadi.

– Alouddin Ali, – dedi Mirzo Ulugʻbek, – ertan oqshomga mavlono Muhammad Ardistoniyini rasadxonaga taklif etdim.

- Ustad, faqir usta Muhammadquli ila so'zlashdum. Taglikni uch kunlar ichida bitiraman, deb aytdi. Nuqson chiqmasligi uchun uning ko'zi oldida parkor bilan qayta boshdan hisoblatib ko'rsatdum.

- Balli!

Ulug'bek yo'lak bo'ylab yurarkan, rasadxona devorlariga yuzinchi martadir, suqlanib qaradi. Uchinchi oshyonaning qoq o'rtasida, supacha ustida bo'z matoga avaylab o'ralgan nimadir ko'rindi. Supacha pastida ikki yosh yigit - duradgorlar qo'llarida qirrası yarqiragan tasha, suvoqchilarning kichkina havozasini pastga yotqizgancha bo'laklashar edi. Ulug'bek ortiga qaytdi. Ali Qushchi yana unga ergashdi.

Hovli sahnida kun qizig'iga qaramay odam ko'p edi. Sahn o'rtasiga ulkan supa yasalgan, atroflarda yana o'nlarcha kichik supachalar ko'zga tashlanar edi. Meshkobchilar supalar ustiga ko'loblatib suv sepadilar, bozordan olib kelingan mardikor xizmatchilar rasadxona darvozasidan bo'yralar, gilamlar ko'tarib kiradilar. Sahn yuzasida uch qavat belbog'ini aylantirib bog'lagan devqomat ishboshi xizmatlar to'g'ri ado etilishini nazorat qilib boradi. Ora-sira uning qisqa buyruqlari eshitiladi. Hovliga olib chiquvchi eshik yonida turgan posbonlar chiqib kelayotgan hukmdorni ko'rishlari bilan g'imirlab qolishdi. Yasovullardan biri hukmdorning otini yetaklab keldi. Ikkinchisi uni otga mindirishga chog'lantirdi. Hovlidagi xizmatchilar ta'zimga egilishdi. Ulug'bek esa odamlarning shoshib qolganiga bee'tibor, yasovul yordamida otga mindi. Va posbonlar qurshovida darvozadan chiqdi.

Bino hovlisidan tashqaridagi keng maydonga o'choqlar qazilib, doshqozonlar o'rnatilgan, bo'z matodan tortilgan ulkan soyabon tagiga, tekis yerga tashlangan bo'yralar ustiga kigizlar to'shalgan, ularda ellikka yaqin kishi o'tirib sabzi to'g'rar edi. Katta davra o'rtasidagi dasturxonda sap-sariq sabzi uyumi. Doshqozonlardan narida yenglarini shımarib olgan chayır qassob o'rik daraxtiga osilgan tanachaning terisini shilish bilan ovora. Mirzo Ulug'bek rasadxona qurilib bitgani sharafiga elga osh berishga qaror qilgan, rasadxona hovlisi, keng maydondagi harakat - hammasi ertasi nahorga yoziladigan dasturxon uchun edi.

Ali Qushchi o'tliqlar uzoqlab ketguncha qarab turdi. Keyin Muhammad Ardistoniy bilan bo'lajak suhbat, balki munozarani o'ylagancha ichkari kirdi.

\* \* \*

Mirzo Ulug'bek xaloyiqni odatdagi qilar ishidan chalg'itmaslik maqsadida doimo Samarqand ko'chalaridan iloji boricha tezroq va dabdabasiz o'tib ketishga harakat qilardi. Chunki ba'zi a'yonlar hukmdorning har bir ko'chaga chiqishini as'asaga aylantirish, shu bahona o'zlarining Mirzo Ulug'bek yaqinida ketayotganlarini olomonga ko'rsatib olishga intilishar, bu esa Ulug'bekning g'ashini keltirar edi. Shu sabab bugun ham u shitob yurib Ko'ksaroyga keldi. Salomxonaga kirmay, binoning o'ng tomonidagi salqin xonalardan biriga o'tdi. Bu xona devorlaridagi chizma naqshlarning havo rang jimjimallari orasida mayda oq g'unchalar tasviri ko'rinadi, shiftda osmon va beg'ubor bulutlar rangi uyg'un, darichalarda oppoq darpadalar, yozning jazirama kunlarida bu xonada go'yo salqin havo hukmronday tuyuladi. Mirzo Ulug'bek ko'pincha shu yerda orom olishni, yangi risolalari haqida mushohada yuritishni, chigal masalalar ustida bosh qotirishni yaxshi ko'rardi. Shu sabab saroy a'yonlari bu xonani o'zaro "go'shayi mushohada" deb atashar edi.

Ulug'bek egnidagi chakmonini yechib, eshik yonidagi devorga o'rnatilgan naqshdor qoziqqa ildi. Keyin daricha ro'baro'siga tashlangan ipak ko'rpachaga cho'zildi. Va beixtiyor Ali Qushchining so'zlarini o'ylab ketdi. "Mavlono Ardistoniyning farazlari borasida ilmi sinov ilojsizdur..."

Darhaqiqat, zamindagi hayot silsilasi yulduzlarga bog'liq. Yaratganning amri beshak-shubhadur. Ammo inson hayotida ne mazmun mavjud? Taqdiri azal bormi? Bor bo'lsa, u holda insonning sa'yi-harakatlari boisi ne? Nahot odam bir umr yashab, nelargadur intilib, kurashib, mehnat qilib, jang qilib topgani faqat taqdiri azal bo'lsa?

Agar mavlono Ardistoniy bilan bo'lgan o'sha suhbat-u, o'zining hazil iltimosi bo'Imasa, Ulug'bek balki bu haqda o'ylamagan ham bo'lardi. Mana, oradan besh yil o'tibdi, u esa hamon o'sha voqealarni unutmaydi.

O'shanda ilk bahor, qish izg'irinlari iliq shabadalarga o'rin bera boshlagan payt edi. Madrasaning issiqqina kutubxonasidagi saboq nihoyasiga yetgan, odatda hukmdor dars o'tgandan keyin mullavachcha va mudarrislar uchun beriladigan ziyofat tugagan, Ali Qushchi ustoz va mavlono Muhammad Ardistoniy o'rtasida boshlangan subhatga beixtiyor quloq solib pastroqdagi ko'rpacha ustida sukut saqlab o'tirar, vaqt-vaqti bilan sodda naqshlar ila ziyonatlangan piyolalarga ko'zachadan iliqqina olma sharbati quyib, suhbatdoshlarga uzatar edi.

- Hazratim, bashorat rost keluviga bir necha sabablar bo'lur, - deyardi mavlono, - birlamchi, inson atrofidagi hayot silsilasi va muhit bashorat o'ngdan kelmog'iga sharoit yaratur. Iktilamchi, hodisotlar uzviyligi borkim, bu ham bashoratni o'ng keltirur.

- Davom eting, mavlono, - jilmaydi Mirzo Ulug'bek, - bunda bashorat egasining ishtiroki bo'lmasmi?

Mavlono iljaydi:

- Ishtiroki bevosita va... bilvosita bo'lur.

- Ya'ni?

- Ya'ni... insonning o'zi yuz berajak hodisotlarga bevosita sabab bo'lur. Ba'zan esa odam sodir bo'lajak voqiyotni o'zi yaratadur!

- Voajab! - Ulug'bek qo'lidagi piyolani qisimlab o'yga toldi. Keyin esa kulimsirab so'radi:

- Mavlono, menim uchun fol ochib ko'rmasizmi?

Ardistoniy soqolini tutamlab o'yga toldi. Keyin botinmaygina dedi:

- Hukmdorlar hayotidan fol ko'rmoq saltanat taqdiridan bashorat qilmoq ila tengdur, ko'ragon.

- Yo'q, siz menim saltanat ila bog'lanmagan ishlarimdin fol ko'ringiz!

Ardistoniy kulib qo'ydi. Keyin Ali Qushchiga qaradi.

- Ko'rolmasman, bunda uchinchi kishi bor!

Ulug'bek qo'l siltadi:

- Mavlono, Alouddin Ali menim uchun chet kishi emas! Aytaveringiz!

Ardistoniy tasbehini qo'lga oldi. Shivirlab duo o'qidi va kissasidan yupqa daftar chiqardi.

Ulug'bek yuragi gursullab, mavlononing mosh-guruch soqoliga, qovoqlari usti va ko'z tagini qoplagan mayda ajinlarga, peshonaning yarmigacha tushib kelgan qaymoqrang dastoriga, shivirlayotgan qonsiz lablariga tikildi.

- Yaqin kunlarda ko'ragon hayotida ikkita noxushlik yuz bergay, - dedi nihoyat mavlono, - ko'z ochib ko'rganidim ayrilgay, sevganidim ajralgay. Birinchi voqea ikkinchisiga sabab bo'lib, oqibatda ko'ragon yolg'iz qoladur.

Ulug'bek bu kutilmagan bashoratdan gangib qoldi. Chunki u ikki yil oldin o'lgan o'g'li Ibodulla Mirzo o'miga o'g'il tug'ilishi kabi bashoratni kutgan, hatto mana shu kabi so'zlarni eshitsa, mavlonoga qanday taqdirlov berish to'g'risida o'ylab o'tirgan edi.

Ardistoniy Ulug'bekning sukutidan xavotirga tushib qoldi.

- Magar ko'ragon bilvosita sababkor bo'lmasalar, balkim, ikkinchi bashorat amalga oshmas! - dedi sekin.

- Ammo birinchisi beshak amalga oshadur?

- Shundoq!

O'rtaga sukut cho'kdi. Nihoyat, Ulug'bek:

- Mayli, o'lmagan qul barini ko'radur, - deb shivirladi.

Shu kuni Ali Qushchi:

- Ustod, mavlononing so'zlaridan bu qadar mutaassir bo'ldingiz. Balkim ushbu bashoratlar to'g'ri chiqmas? - dedi.

- Alouddin Ali, men bunga ishonganim yo'q. Kishi o'z ko'ngli ila ajrasha oladurmi? Bu ishni oson deb bilasenmi? Yo'q! Ikkinchi bashorat rost kelmog'i uchun menim dilimni larzaga keltiruvchi va ko'nglimni ajrashuvga da'vat etuvchi bir kuch lozim. Bundoq kuch mavjud bo'lishini aqlimga sig'dirolmasman! Axir bu da'vatga kim jur'at eta olur?

Ammo ajab, shundoq kuch bor ekan!

\* \* \*

Malika O'gi begi Xonim xastalanib qoldi. Saroy tabibi aytgan tashxis bir qarashda xavotirli emas edi. Malika bahorning aldamchi quyoshiga ishonib shamollagan edi. Ammo xastalikning uchinchi

kuni kutilmaganda uni isitma tutdi. To'rtinchi kuni esa kekxa tabib hukmdor huzurida qaltiraganxa bosh egdi:

– Mahdi ulyoning sihatlari xavotirlik, olampanoh. Poytaxtdagi ma'ruf tabiblarni chorlab, mashvarat etib ko'rduk. Gumonimizcha, Mahdi ulyoning dardi zotiljamdur.

– Taqsir, zotiljamning davosi mushkulmi? – so'radi Mirzo Ulug'bek.

– Olampanoh, zotiljamni davolab bo'lur. Ammo faqirlarning-iz qo'rqamizkim, Mahdi ulyoning eski dardi – bod o'z hukmini o'tkazmoqda...

Mirzo Ulug'bek shu kuni O'gi begi Xonimni ko'rgani haramga kirdi. Malika yigirma bir yoshga to'lgan bo'lsa-da, o'z yoshidan kattaroq ko'rinardi. Yosh ayolning rangi xastalik bois siniqqan, ko'zlari ostida ko'kish xaltacha osilgan, lablari isitma zo'ridan porsillab yorilgan, ikkala qoshi o'rtasida ko'ndalang tushgan ikkita chuqur chiziq ko'rinadi, qorachiqlarida hasrat yonadi, ko'rpa ustiga behol tashlangan qo'llarida titroq seziladi. Ulug'bek bemorni ko'rib boq yuragi ezilib ketdi. To'shak yoniga o'tirib, malikaning ko'm-ko'k tomirlar bo'rtgan ozg'in bilagiga qo'lini qo'ydi.

– Alloh shifo berar, xonim, – dedi, – tabiblar dardingizga davobor, demoqdalar.

O'gi begi Xonim holsizgina jilmaydi:

– Tabiblar albatta, taskin berarlar...

– Nechun undoq deysiz? Kishi hamisha umid ila yashamog'i lozimdur. Bu xastalik bedavo emasdur, xonim. Qizalog'imiz Habiba Sultonni ham o'ylangiz.

Ayol ich-ichidan toshib kelayotgan xo'rsiniqni bosmoqchi bo'lgandek qo'llarini ko'kraklari o'rtasiga bosdi. Ko'zlarida yosh yaltilladi. Keyin hukmdorning qo'llarini botinmaygina siladi.

Mirzo Ulug'bek shu kuni malikaning ko'nglini yozishga ahd qildi: yangi qurilayotgan xonaqohi haqida so'zladi, o'zi ko'rgan va boshqalardan eshitgan qiziq voqealarni aytib berdi. O'gi begi Xonim jon qulog'i bilan tingladi. Kechga yaqin Ulug'bek o'rimdan qo'zg'aldi.

Malika ko'zlarida tabassum bilan:

– Ruhimda ajib yengillik, – dedi, – so'zingiz rost, hazratim, menim dardimga davobordur. Habiba Sultonni ham o'ylamog'im dardor.

Ammo ertasi malikaning ahvoli keskin yomonlashdi. Ikki kundand keyin esa uzildi.

...Qabrga tuproq tashlanayotgan choq Ulug'bek birdaniga mavlono Muhammad Ardistoniy aytgan bashoratni esladi. "Ajab, – o'yladi u, – birinchi bashorat rost keldi. Ammo uning o'ng keluviga nelar sabab bo'lmish? Muhitmi, hodisotlar uzviyligimi va yoxud kishilarning bevosita yo bilvosita ishtirokimi? Nahot mavlono haq? Endi ikkinchi bashorat ne bo'lur?"

Beixtiyor yuragi muzlab ketdi. Hukmdorning rangi bo'zarib ketganini ko'rgan amirlardan biri uning qo'ltug'idan oldi.

\* \* \*

O'gi begi Xonim Ulug'bekning ko'z ochib ko'rgan xotini edi. Bobosi sohibqiron Amir Temur Shom-u Rum yurishidan keyin Konigilda katta to'y berib, nabiralari Iyjol, Saydi Ahmad, Pirmuhammad va Boyqaro Mirzolari uylantirib, o'n bir yoshli Ulug'bek va Ibrohim Sultonlarni unashrtirgan edi. Shahzoda yetti yoshlardagi, old tishi tushgan, soch o'rimlari dikkaygan, ozg'ingina qizchani ko'rganda, kulib yuboray degani esida. Ukasi Ibrohim Sulton uning yengidan tortilgani ham kechagidek yodida turibdi.

– Kelinchaklarimiz xunuk ekan! – degandi u, – qarang, mening ikkita tishi yo'q.

– Yetti yoshda o'zimizning ham tishlarimiz tushgan edi-ku, yodingda yo'qmi? – dedi Ulug'bek.

– Qizlarning ham tishi tushadimi? – deya astoydil hayron bo'ldi Ibrohim.

Ulug'bek o'zini tutolmay xaxolab yubordi.

...Oradan olti yilga yaqin fursat o'tgandan keyin Ulug'bek to'y-tomosh bilan O'gi Begi Xonimni nikohiga oldi. To'y oqshomi kelinchakka atalgan ko'shknning marmar zinalaridan ko'tarilar ekan, bir vaqtlar Konigilda Ibrohim Sulton aytgan so'zlarni eslatdi: "Kelinchaklarimiz xunuk ekan. Tishlari ham yo'q..." Va o'zicha kulib qo'ydi.

Ko'shkning chog'roq xonasida, oppoq ipak parda panasida turgan kelinga yaqinlashar ekan, negadir yuragi gursullay boshladi. Ulug'bek o'tgan yillar ichida qallig'i o'zgarganini aqlan tushunsa-da, lekin uning qanday qiz bo'lib yetishganini tasavvur qila olmas, yodida hamon o'sha tishi kemshik, sochi dikkeygan, o'zg'ingina qizaloq yashar edi.

Yodida: kelinchak yuzidagi oppoq harir burqa'ni ko'tardi. Ulug'bek ro'parasida nozik qad, yumaloq yuzlarida nafis qizilik o'ynagan, bodomqovoq, yoqimtoy bir qizni ko'rdi. Kelinchak kuyovning dovdirab qolganini ko'rib bilinar-bilinmas jilmaydi va shu zahotiyoy yuzini chetga burdi. Ulug'bek birdaniga kelinning bilagidan ushladi.

- Chehrangizni o'girmang, - dedi shoshib, - faqirdan tabas-sumingizni darig' tutmang!

Kelinchak iymanib boshini quyi soldi va eshitilar-eshitilmas:

- Nechun o'zingizni faqir deysiz, hazratim? - deya shivirladi.

- Axir sizdan birgina tabassumni ham o'tinib so'rasam, faqir bo'lmay kim bo'lurman?

O'gi Begi hayron bo'lganidan ko'zlarini katta ochib qaradi:

- Nechun sizga tabassum bu qadar darkor bo'lib qolmish?

Ulug'bek dastavval ne deyarini bilmay qoldi. Keyin bir xo'r-sindi-da:

- Men... tishlaringizni ko'rmoqchiman, - dedi.

O'gi Begi bu g'alati istakni eshitib xandon urib kuldi. Shunda qizning ikki qator sadafdek oq tishlari ko'rindi-yu, Ulug'bek yengil tortdi...

\* \* \*

O'gi Begi olti yoshida otadan yetim qolgandi. U Amir Temurning to'ng'ich o'g'li Jahongir Mirzoning nevarasi bo'lganidanmi, sohbi-qiron bu qizchani kichkina Muhammad Tarag'ay - Ulug'bekka munosib ko'rgan, sevimli evarasi va nevarasini nikoh iplari bilan bog'lab, balki yosh ketgan farzandi Jahongir Mirzo, ajal komiga bevaqt tortilgan nevarasi Muhammad Sultonlar sababli diliga tushgan jarohatga malham bosmoqchi, shu jajigina yetim qizaloq bagalog'atga yetganda yot oilaga kelin bo'lsa o'ksib qolmasin degandir?

- 440 -

Kim bilsin? Sohibqironning dilidagini yolg'iz o'zi-yu, yaratgan biladi...

Har holda Ulug'bekning boshidan o'tgan ilk iliq tuyg'ular mana shu ayol bilan bog'liq edi. Otalik tuyg'usini birinchi marta hadya qilgan ham O'gi Begi edi. Mana endi qizchasi yetim qoldi...

Ulug'bek taxtda o'tirgancha g'amli o'ylarga berildi.

\* \* \*

- Nechun g'ambodasiz, hazratim? - Oq Sulton Xon Og'o hukmdorning ikkala kiftini nozik oppoq qo'llari bilan silay boshladi.

Mirzo Ulug'bek boshini ko'tarib qaradi. Malika egnidagi oppoq ipak ko'ylak ustidan kiygan kumushrang zarbof munsagi, kumush iplar bilan ziynatlangan durrasi, quloqlaridagi katta olmos ko'zli baldoqlari bilan go'yo tun avjida nurlarini yoygan to'lin oy kabi edi.

- Nechun g'amnok bo'lmay, go'zalim? - hukmdor xo'rsindi, - inson umri go'yoki yaproqqa qo'ngan shabnam emish. Yalt etarmish-u, o'charmish.

- Shundoq ekan, g'am chekmoqdan ne foyda? - malika shirin jilmaydi; - yokim O'gi begi siz uchun suyuqli edimi?

- Xonim, axir Habiba Sulton yetim qoldi!

- Hech bokisi yo'q. O'gi Begimning qizi Gavharshodbegim huzurida. Onasi bor-yo'g'ini sezmagay ham.

Mirzo Ulug'bek xotining uyatsizlarcha aytgan so'zlaridan lol, jim bo'lib qoldi. Oq Sulton Xon Og'o chiroyli qayrilma qoshlarini chimirib yuzini noz ila chetga burdi.

- Go'zalim, sevgilim deysiz-u, kundoshim uchun g'am chekasiz! - dedi arazlagannamo.

- Men bir ona bevaqt ko'z yumgani uchun qayg'urmoqdaman, bir go'dak yetim qolgani uchun g'am chekmoqdaman. Bunda kundoshlik haqida ne so'z bo'lishi mumkin, xonim? - dedi Mirzo Ulug'bek bo'g'ilib.

- Men esa malikangiz suymaydigan bir xotin uchun g'am chekishingizdan norizo bo'lmoqdamen, - Oq Sulton Xon Og'o "ajab bo'ldi" degandek ters burilib oldi. Va uni erkalab quchishlarini, shi-

- 441 -

rin so'zlar aytishlarini kutib jim qoldi. Chunki avvalgi paytlari ikki o'rtada biron arazchilik bo'lsa, Oq Sulton ters burilib olar, Mirzo Ulug'bek kula-kula bir-ikkita shirin so'zlarni aytar, malika birozgina saqlagan bo'lib turardi-da, keyin ko'ngli erigan kabi jilmayar, va nihoyat, yarashib olishardi. Lekin bu safar hukmdorning ko'ngliga go'zal malikaning arazi ham, karashmasi ham sig'madi. Malika esa bundan rostmana achchiqlandi.

Mirzo Ulug'bek shu kuni ikki o'rtada bo'lgan so'zlarni eslasa, hali-hamon yuragi zirillaydi. Oq Sulton Xon Og'o - Ulug'bek sevgan Xon qizi kundoshi o'limidan shodligini behayolarcha izhor etib, hatto hukmdorga shu qadar kinoyali so'zlar ayttdiki, Ulug'bek chiday olmay qoldi. O'rmdan dast turdi-da, eshikni tepib chiqib ketdi.

Shu kuni u g'azabini bosish uchun Ko'ksaroy ortidagi bog' yo'lklarida uzoq tentiradi.

...Mirzo Ulug'bek Oq Sulton Xon Og'oga bir ko'rishdayoq maftun bo'lgandi. Bu qiz sutga chayilgandek yuzlari, keskin qayrilma qoshlari, qop-qora, qiyg'och ko'zlari, yelkalariga shalola yanglig' to'kilgan quyuq qora sochlari bilan ertaklarda ta'riflangan parilarni eslatardi. Oq Sultonning parilardan faqat bittagina farqi bor edi. U ham bo'lsa, yurganida qadamidan gul unmas, so'zlaganda og'zidan gavhar to'kilmas edi. Va u Qo'hiqofdan kelmagan, balki bir vaqtlar sohibqiron nomigagina xon qilib ko'tarilgan mo'g'il Sulton Mahmudxonning qizi edi. Ulug'bek shu qizga uylangandan keyin "ko'ragon" unvoniga sazovor bo'lgan, saroy ahli yangi malikani o'zaro Xon qizi deb atay boshlagan edi. Oq Sultonning O'gi Begini yomon ko'rishga ham hech bir asosi yo'q edi. Axir Ulug'bek unga uylangandan keyin O'gi Begini oylar bo'yi eslamagandi! Endi o'ylab qarasa, u so'nggi paytlar o'z ishqidan ko'zi qamashib, bir munglig' ayolga hatto marhamat ham ko'rsatmagan ekan! O'gi Begi - uning ko'z ochib ko'rgani oylar bo'yi undan mehr kutib yashabdur, mehrsizligi uchun iddao ham qilmabdur, Ulug'bek esa oyog'i ostidagi xokisor sevgini sezmay o'tribdur...

...Mirzo Ulug'bek sevimli xotini bilan ortiq birga qola olmasligini aqlan idrok etsa-da, uning xayolidan mavlono Ardistoniy

aytgan so'zlar ketmas edi: "...Magar ko'ragon bilvosita sababkor bo'lmasalar, balkim, ikkinchi bashorat amalga oshmas..."

Mana, birinchi bashorat rost keldi. Ikkinchi bashoratning amalga oshish yoki oshmasligi esa o'z qo'lida. Lekin hayhot, ikkinchi bashorat rost kelmasligi uchun malikaning ta'nalariga chidash, uning behayolarcha aytgan so'zlarini unutish kerak! Mirzo Ulug'bek bunga qodirmi?

...Nihoyat, kun botib, bahorning iliq kuni izg'iriga o'rin bo'shatdi. Hukmdor bir qarorga keldi. Yo'q, birgina bashorat rost keluvidan cho'chib, ikkilanish uning sha'niga to'g'ri kelmaydur!

Saroyga qaytib, huzuriga shayxulislom Isomiddin va qozikalon Xoja Miskin janoblarini chorladi. Ular yetib kelganda hukmdorning qarori yanada qat'iylashgan edi. Lekin so'z boshlaganda tovushi o'ziga bo'ysunmay, tomog'i bo'g'ilib qoldi. Shayxulislom va qozikalon janoblari to'satdan chorlanishlari sababini anglashga tirishib, hukmdorning og'ziga tikildilar.

- Menim siz shariatpanoh janoblarni chorlamog'imdin murod,- dedi Ulug'bek ich-ichidan toshib kelayotgan titroqni bosishga tirishib, - shar'iy mankuham, mo'g'il xoni Sulton Mahmudxonning qizi bo'lmish Oq Sulton Xon Og'oni haramdin ehroj etmoq niyatimni bildirmoq va ushbu ish yuzasidan sizlardan fatvo so'ramoqdur. Shariat peshvolari hukmdor o'z qarorini izohlashini kutib sukut saqladilar. Lekin Mirzo Ulug'bek faqat:

- Men qarorim qat'iy ekaniga aminman, - deb qo'ya qoldi.

Nihoyat, qozikalon Xoja Miskin janoblari tilga kirdi:

- Davlatpanoh o'z qarorlariga nelar sabab bo'lganini bildiradiladilarmi? Sabablarni bilsak, balki ixtilofni bartaraf etmoq iloji topilar va taloqqa hojat qolmas?

- Bartaraf etmoq ilojisiz, janoblar, - dedi Ulug'bek qat'iy, - men Oq Sulton Xon Og'oni taloq qilmoq qarorida sobitmen.

- As-salotin zillallohu fil-arz! Sultonlar Allohning zamindagi ko'lankasidur. Demak, alarning amri vojibdur! - dedi shayxulislom.

Shu onda Ulug'bek yuragidan toshib kelayotgan xo'rsiniq aralash: "Mana, mavlono yana haq bo'lib chiqmish, - deb o'yladi, - bu safar o'zim bilvosita sababkor bo'ldum..."

Mirzo Ulug'bek bu qizni birinchi marta Oq Sulton Xon Og'oning xizmatida ko'rgan va beixtiyor kulib yuboray degandi. O'rta bo'y, do'imboqqina bu qizning yuzlarida go'daklaracha tabassum zohir, ko'k ko'zlarida bolalaracha soflik, o'rimga bo'y bermagan jingalak sochlari go'yo jajji qizchalarning kokillari kabi dikkaygan, xullas, butun vujudidan bolalikning samimiy nafasi ufurib turar edi.

Yodida: qiz kirib kelgan Mirzo Ulug'bekni ko'rib shoshib qoldi va hukmdor huzurida so'zsiz ta'zim etish odatini unutilib qo'yib, salom berdi.

- Vaalaykum assalom, - dedi Ulug'bek.

Qiz "duv" qizardi.

- Isming nima? - deb so'radi Mirzo Ulug'bek qizning uyatchanligi nash'a qilib jilmayarkan.

- Ismim Ruqiya, - dedi qiz titroq ovozda.

- Ruqiya? Bundoq chiroyli ismni senga kim bergan, qizaloq?

Qiz soddadillik bilan yelkasini qisdi. Ulug'bek kulib yubordi.

- Men malika Oq Sulton Xon Og'oning yangi xos kanizimen, - deya shosha izoh berdi Ruqiya.

- Ha, durust, - dedi hukmdor kula-kula va xobgohiga kirib ketdi...

Mirzo Ulug'bek Ruqiyani keyin ham ko'p marta ko'rdi. Qiz uni ko'rishi bilan qizarib, ko'zlarini yerga tikar, bu esa Ulug'bekka go'yo shoshqaloq bolaning shirin qilg'iday nash'a qilib, kulgisi kelardi. Ba'zan qizning samimiy so'zlarini eshitgisi kelib uni gapga tutmoqchi bo'lar, lekin kaniz savollarga aksar qisqa javob berib, tezroq qochish payidan bo'lardi. Mirzo Ulug'bek esa o'zicha: "Bu qiz buncha uyatchan, alhol bola", - deya beparvovgina kulib qo'yardi.

Shayxulislom va qozikalonni o'z qaroridan xabardor qilgan kunning ertasiga Ulug'bek haramda Ruqiyani ko'rdi. Qiz o'jar ko'killarini qizil shol ro'mol bilan tang'ib bog'lagan, qo'lida kichikroq quti, boshi egik edi.

Dili zimiston Ulug'bek bu soddadil qizni ko'rgach beixtiyor ko'ngli yorishib, salom eshitmagan bo'lsa-da:

- Vaalaykum assalom, - dedi.

Ruqiya cho'chib ketdi va boshini ko'tarmay oq ta'zimga shoshildi.

Mirzo Ulug'bek kulib yubordi:

- Ha, Ruqiya qiz, assalomni yeb qo'yibsiz-da!

Shu asno kanizning ko'zleri qizarib shishganini ko'rdi.

- Ne bo'ldi, qizaloq? Seni kim yig'latdi?

- Hazratim, men ham Oq Sulton Xon Og'o ila haramdin ketamenmi? - so'radi qiz titrab, - axir men uning kaniziman-ku!

- Sen ketishni istamaysanmi? - dedi Ulug'bek hayron bo'lib. - Istamaymen!

- Nechun?

Qiz go'yo o'limni bo'yniga olgan kishidek ko'zlarini chirt yumdi va tezgina:

- Magar ketsam... sizni ko'tolmasmen! - dedi-yu, qochib ketdi.

\* \* \*

"Ruqiya qiz buncha uyatchan desam, sababi bor erkan-da! - o'yladi Mirzo Ulug'bek, - E, qizgina-ya! Ulug'bekka shaydo bo'lgan soddadil qizaloq... Bu dunyoda sevilmoq oson, ammo sevmok oson emas..."

Tong otguncha o'tgan fursat yillar kabi uzaydi. Yo'ajab, o'zganing muhabbati ham ko'zga uyqu bermas ekan! Izhor sabab titroqqa tushmoq uchun sevmok ham shart emas ekan... Soddadil qiz o'zining oddiygina so'zleri bilan Mirzo Ulug'bek niyatida qanday o'zgarishlar yasaganini xayoliga ham keltirmagandi. Mirzo Ulug'bek ko'nglida uyg'ongan qaysar bir his bilan mavlono Ardistoniy bashoratlari ro'st keltirmaslikka ahd qilgan edi. Yo'q, dunyoda uni sevgan qiz bor ekanmi, hukmdor yolg'iz qolmagay!

Ertalab saroy ahliga hukmdorning qarori ma'lum qilindi. "Movarounnahr va Turkiston hukmdori, Muhammad Tarag'ay ibni Shohruh Ulug'bek Mirzo xos kanizlari Ruqiyani o'z muborak nikohlariga kiritmoqni ixtiyor etdilar! Ushbu munosabat ila endi u karima Ruqiya Sulton Xotun nomini olgay!"

Bir haftalardan keyin esa Hirotdan chopar keldi. Onasi Gavharshodbegim yozar edi:



“Oq Sulton Xon Og‘o sabab dilingizni xufton etmangiz. Xohishingiz yo‘lida tanlaganingiz Ruqiya Sulton Xotun bizning uchun sizning jufti halolingizdur va sizga rafiqangiz muborak bo‘lgay. Ammo Movarounnahrda temuriy malika lozim bo‘lib, kekinlikka Xalil Sulton Mirzoning qizi Husn Nigor Xon Og‘oni munosib ko‘rduk. Padari buzrukvoringiz hoqoni said Shohruh Mirzo hazratlari to‘yni Hirotda o‘tkazmoqni lozim topdilar va zulqa‘da oyining yigirma uchiga qadar Xurosonga yetib kelmog‘ingizni amr qildilar”.

Mirzo Ulug‘bek maktubni o‘qib kulib yubordi: “Yo‘q, mavlono, bashoratingiz rost kelmadi. Hukmdorni yolg‘iz qo‘ymadilar”.

\* \* \*

Quyosh hali bosh ko‘tarmay turib Samarqandni kamay va sur-nay sadolari tutdi. Xalq Ko‘hak tepaligi tomon oqar edi. O‘ttizdan ortiq doshqozonlardan taralgan islar misli ko‘rilmagan bir tantanavorlik daragidek taassurot berardi. Tepalik atrofida qator yozilgan uzundan uzun oppoq dasturxonlar, qo‘llarida laganlar bilan qatorlar oralab yugurib xizmat qilayotgan mulozimlar, tepalikda savlat bilan qad rostlagan muazzam aylana bino darvozasi atrofida yulmalashgan odamlar, shodon g‘ala-g‘ovur – bularning bariga Mirzo Ulug‘bek dorussaltanatda bunyod etgan bemisl rasadxona sababchi edi. Xalq o‘z hukmdorining bunyodkorligiga allaqachon ko‘nikib ulgurgan, dorussaltanatdagi har bir qurilish odatiy voqea bo‘lib, odamlar binokor ustalar shaharning hali u, hali bu yerida g‘ivirlab qolishidan ko‘p ham ajablanishmas edi. Ammo rasadxona katta shov-shuvga aylandi. Olomon hali qurilish poyoniga yetmasdan oq binoni tomosha qilib ketadigan bo‘ldi. Bugungi ehsonga xalq oqib kelishining yana bir boisi qiziquvchanlik, yangi binoni bor mahobati bilan yana bir bor tomosha qilish istagi edi.

Mirzo Ulug‘bek rasadxonaning uchinchi oshyonasiga ko‘tarilib, atrofga razm soldi. Tepalik tomon oqib kelayotgan odamlarni ko‘rib, ko‘ngli iftixor bilan to‘ldi. Mana, uning ijtihodlari nishona bera boshladi. Bu rasadxona hali misli ko‘rilmagan izlanish va kashfiyot maskani bo‘lur!

— 446 —

– Alouddin Ali, – dedi Mirzo Ulug‘bek, – rasadxona ortida katta bog‘ barpo ettiramen. Mana shunda kishi uchinchi oshyonadan turib boqqanda, ko‘ngli go‘yo yashil ummon ichra suzib ketayotgandek lazzat oladur! Sen ne deysan?

– Ustod, yaratilajak bog‘ rasadxonaga muvofiq ravishli bo‘lur, deb umid qilurmen.

– Menga yana nedir demoqchimisan?

– Shundoq.

– So‘zla!

– Ustod, faqir mavlono Ardistoniy xususida bir so‘z eshitdum.

U kishi raml ilmidan etak silkkan emish!

– Nechun?

– Bilolmadum.

– Demak, mavlono bukun oqshom rasadxonaga kelmas ekan-da! – dedi Mirzo Ulug‘bek o‘ychan, – men u kishi birlan yana bir suhbat qurmoqchi edim. Attang!

\* \* \*

Mirzo Ulug‘bek mavlono Muhammad Ardistoniy ochgan fol sabab inson umri va ijtimoiyot to‘g‘risida ko‘p mulohaza yuritadigan bo‘lib qolgan, hatto bu mavzuda risola yozishni ham ko‘ngliga tukkan edi. U ijtimoiyotning inson taqdiridagi o‘rni hamda hodosotlar silsilasi inson hayotida qanday o‘zgarishlar yasashi, yoxud inson ijtihodi uning o‘z qismatiga, qolaversa, ijtimoiyot taqdiriga qay tarzda ta‘sir etmog‘i borasida hamon ziddiyatli o‘ylar surar, javob izlar edi.

Mirzo Ulug‘bek Ali Qushchining “raml ilmida sinov ojidur”, – degan so‘zi sabab miyasiga kelgan fikr ta‘siridan hamon qutula olmas edi. Axir nima uchun sinovning iloji yo‘q? Axir mavlono Ardistoniy bundan besh yil avval aytgan bashorat va undan keyingi hodisalar sinov o‘rniga o‘tmasmi?

Mavlonoing birinchi bashorati rost keldi. Ikkinchi bashoratini Ulug‘bekning o‘zi bila turib rost keltirdi. Yana bir so‘zining rost keluviga esa yo‘l bermadi. Mana, yaratganga shukur, Ruqiya Sulton Xotun unga ikki qiz tug‘ib berdi. Husn Nigor Xon Og‘o Ulug‘bekning hurmatini baland tutib keladi. O‘g‘illari Abdullo

— 447 —

Mirzo va Abdurahmon Mirzolar uning dilini umidlarga to'ldirib ulg'aymoqdalar. Mana, yaqinda u yana bir o'g'illik bo'ldi. Va unga Abdullahif degan ism berdi. Bularning bari inson taqdir oldida o'jiz emasligini ko'rsatmaydimi? Yo'q, Alloh insonga zakovat va iqtidorni bejiz bermagan!

\* \* \*

Mavlono Muhammad Ardistoniy fol ko'rmoqdan etak silkanini keksaygani bilan izohlardi. Ammo asl sababi uning dilida pinhon edi.

Mavlono ikkala bashorati rost kelgach, yashirincha yana bir bor, bu safar Ulug'bekning taqdiridan raml ochdi. Va... O, bu naqadar qo'rqinch!

Mavlononing ko'z oldida ochilgan bashorat shundoq edi:

- Hukmdorni suyukli o'g'li malomatga qoldirar, shoir o'g'li qatl ettirar! Padarkush o'limidan o'n besh yil o'tib, Mirzo Ulug'bek avlodidan nishon qolmas!

Mavlononing qo'lidagi tasbehi tushib ketdi. U sajdaga bosh qo'yar ekan, ko'z yoshlarini to'xtata olmas edi:

- O'zing rahm qil, parvardigor!

## BAHODIR QOBUL

*1966-yilda Jizzax viloyati Baxmal tumani O'smat qishlog'ida tug'ilgan. Alisher Navoiy nomidagi Samarqand davlat universitetining o'zbek va tojik tili filologiyasi, shuningdek mazkur universitetning huquqshunoslik fakultetlarida tahsil olgan. Birinchi qissasi - "O'spirinlik" 2007-yilda chp etilgan. "Oq dala", "Ena shamol", "Ota chiroq" nomli kitoblari chop etilgan.*

## OQ KAMAR

Boshlab, hushtagini chalib shamol keldi. Besaranjom to'zon keyin ko'tarildi. Jar ko'chani u boshidan bu boshiga hammani hang-u mang qilgancha izg'idi. Har bir daraxtni qo'ltiqlab, siltab-siltab ko'rdi. Har bir g'ovni g'iyqillatib ochib-yopib, har bir darvozani dang'illatib urib ko'rdi. O'zini qayerga qo'yishni, qayerga urishini bilmay Enaning dordagi yoyiqlik kirlari bilan o'ynashdi. Birini bayroq qilib pirpiratdi, birini uchirib borib shamoldan cho'chib, pusib yotgan Olaparning boshiga yopdi. It qo'rqanidan sakrab o'midan turdi. Boshiga o'ralib qolgan lattadan qutilish ilojini topolmadi. O'zini to'g'ri kelgan tomonga urdi. Shamol boshiga latta o'ralgan itning ahvoliga bir maydon kulimsirab qarab turdi-yu, baribir ko'ngli to'lmadi. Qunishib turgan tovuqlarni qo'noqdan ag'dardi. Tovular bir-biridan o'tariga qishloqni boshiga ko'tarib qaqag'lashga tushdi. Qani endi tinsa.

Shamolning qishloqda kirmagan teshigi-yu, ushlamagan beshigi qolmadi. Barini bir qur, qadimgidek ko'rib chiqdi. Shuv tark etgan Turkariq yelkasidagi tegirmonni ham bir yurgizmoqchi bo'ldi-yu, shashtidan qaytdi. Odamlar nima deydi? Tentak shamol ekan, deyдилar. Beqiliqlik obro' keltirmagan.

Guli-gulshan hidlarini avval o'zi yaxshilab quchoqlab, to'yib olgach, choshlab-choshlab qishloq ko'chalariga socharkan, bar-chaning dimog'ini chog' qildi. To'qson kun qishda joyida qimir-lamay ana ketdi-mana ketdi bo'lib yotgan chollar hassaga suyanib ko'chaga chiqdilar.

Mushuklar tomga chiqib movlashib qoldi.

Yosh-yalanglar hayhotdek Taypoqsoyga sig'may, o'zini qo'yar-ga joy topolmadi. Shamol ko'ngillarga quvvat, dillarga shavq, ko'kayga g'urur, diydalarga g'ayrat, aqllarga ishonch bag'ishla-gancha etagini kalta yig'ishtirib, Oyqor tog' tomon parillagancha o'rladi. Oyqorning asriy muzliklariga to'shini urib-urib hovuridan tushganday bo'ldi. Archalarni bir-bir sanadi. Oxirida Otamozorga kelib tindi. Mozorotning biri biriga o'xshamaydigan qayroq tosh-laridagi yozuvlarni o'qidi. Shamol tilida o'qidi. O'qiganini odam tushunmasa-da, shamollar tushunishdi. Uxlab yotgan joylaridan uvullashib bosh ko'tarishdi. Bir to'pi ota makon - Afrosiyobdan, bir to'pi Biynaymandan, bir to'pi Badbaxtdala, bir to'pi Ustyurt, bir tutami Axsikent, bir bog'lami Shohruhiya, bir qatimi Dobusiya, bir bog'i Mizdomkand, bir qopi Yerqo'rg'on, bir uchi Enasoy, bir to'pi Qalmoqsoydan izillagancha yetib kelishdi. Qirq shamol qirq joydan kelib, bir bo'ldi. Uchrashgan joylari Otamozor bo'ldi. Otamozor boshida gir aylanib uvvos solishdi. Bo'y yetgan sanoqli sakkizta terak avvaliga nima bo'layotganini anglamay serraydilar. Tushunishgach, chapak chaldilar. Ikki ko'zli buloqdan uyqusirab oqayotgan suv ham hayajoni zo'ridan bir to'xtab oldi. Keyin nafa-sini o'nglab parqillab, qaynagan qumg'ondek vaqillab olamni bu-zib, to'rt tegirmon suvni oldiga solgancha g'ayrat bilan Kattasoyga haydadi...

\* \* \*

Samarqanddagi Xo'jayi Xizr masjidi ayvonidan kun chiqarga qarasangiz, Otamozor ko'rinadi. Ko'zi borgan albatta. Katta oq salla o'ragan tog' - Oyqor. Oyqorning qori Samarqandga oshiqligidan bir to'lib, bir kuyib turadi deyishadi. Samarqand Kattatog'ning su-vidan ichadi. Otamozor Oyqorning shunday ko'zi ostidagi kamar. Kamar deb uch tomoni qir bilan o'ralgan, bir tomoni ochiq joy-

ga aytiladi. Kamarning ochiq qismini og'zi deyishadi. Og'zi Samarqandga qaragan. U yerda ikkita mozor, ikki ko'zli buloq, bit-ta kattadan katta, qurib qolay-qurib qolay degan, lekin shoxlarining uchidagina sanoqli to'rtta bargi tirikligini bildirib turadigan yakka terak, sakkizta bo'y yetgan terak va ular atrofida bir yuz o'n to'rtta terakchalar bor. O'zim sanab chiqqanman. Buni sal keyinroq aytib beraman.

Mozoratlar usti qayroq toshlar bilan ko'tarilgan. Ko'k, oq, qora, qizil, yashil... dunyoda necha rang bo'lsa shuncha tusdagi tosh bor. Birov bittasini joyidan qo'zg'atishni xayoliga ham keltirmay-di. Ko'tarolmaydiyam. Haromning moli toshib, o'g'ining o'roni o'rmlagan vaqtlarda qarochidan battar bittasi tuman rahbariga: "Shu joyda shunday toshlar bor, shundan idoraning oldiga chiroyli narsa qilsak, sizdan yaxshi ot qolardi", degan. Rahbar darrov o'sha odamni bosh, qurilish tashkilotini yonbosh, to'rtta moshinani ular-ga qo'shib, bir to'da odam bilan o'sha yoqqa jo'natgan. Odamlar Otamozor ortidagi Oqtoshdan tosh tarakanmiz, deb tushunishgan. Bilishsaki... niyat bo'lak. Kattalar chiqqan UAZik Otamozor to-mon burilganini ko'rib, o'zlarini usti ochiq moshindan tashlab, kel-gan tomonlariga qaytishgan. Ikkita tosh tashigich moshina shopir-lari "Moshina buzildi", bahonasi bilan yo'ldayoq, kapotni ochib, motorni sochib tashlashgan.

Palakat poyiga ilashib, tekin tomoshadan quruq qolishni ista-maydiganlar esa borgan. Ikki o'ris shopir bilib-bilmay moshinlarini Otamozorning og'ziga tiragan. Qani endi toshlarni birov ko'tar-sa-yu, moshinga ortsa. U davrlar qo'l telefon yo'q. Kattalarga birovni yomon ko'rsatib, yaxshi ko'rinadiganlardan bittasi UAZikka o'tirib, hozir buldozer olib kelaman, deb O'smatga en-gan. Shu engandan moshin-poshini bilan Quruqsoyning qirrasidan uchgan. Bir shopir tirik qolgan. Uyam yetti oy deganda tili zo'rg'a aylanib, ko'rgan-bilganini birovga aytishga qo'rqib, ovqatni og'zi-ga yeyayotganiga xursand bo'lganicha, ishini yig'ishtirgan.

Aytishlaricha, ziyoratgohning biri shijoatli otalar, shavkatli va g'ayratli bobolardan birining so'nggi maskani, biri uning yovqur-otining go'ri emish. Samarqandda uzoq davom etgan qirg'inbarot-dan keyin yovman deganni qiyratib, o'ziyam, otiyam horib, yara-

dor bo'lib, shu yerda to'xtagan, odamlar xabar topib ortidan yetib kelguncha, yer ularni bag'riga olgan. Ikkita go'r paydo bo'lgan. Bulutlar yuvib, Oyqortog' qorlari kafanlikka o'tgan, deyishadi. Keyin, odamlar har biri bittadan tosh qo'yishgan deyishadi. Birov Otamozor deydi, birov Otaliq mozor, birov Otmozor. Lekin, men uni Oq kamar deb atagim keladi. Bu yerdagi buloq keyin chiqqan. Teraklar keyin ekilgan. Har bir qavm bittadan terak ekkan, deyishadi. Barlos, orlot, nayman, mang'it, kenagas... Terak bo'y yetsa, kesiladi. Lekin, bu yerdagi terakni birov kesmagan. Kesolmagan ham. Vaqti kelib o'zi yiqiladi. Selu selova dala-yu dashtga olib ketadi. Teraklar shunda talosh bo'ladi. Birgina teragini tomiga bossa, bu uyga balo kelmasligini birovi-birovga aytmasa ham, hamma biladi. Selning g'avg'osiyu shovqinidan qo'rqmay, hech bo'lmasa bitta shox olib qolish uchun jonini ayamaydi. Qo'li tegsa, ushlasa bo'ldi, o'shaniki bo'ladi. Birov ega chiqolmaydi.

Oq kamarga bir vaqtlar yolg'izoyoq yo'ldan, tikka jar oralab, tubi ko'rinmas chag'at yoqalab boradigan yo'l bor edi, xolos. Unga ot-ulov boradigan yo'lni o'rmon xo'jaligiga O'ng'or otlitq insofli, diyonatli odam bosh bo'lganda solgan. Qirning biqinini yorib yo'l ochgan. Ikki tarafga bodom ektirgan. Bodomlar ham qiziq ekan. Bir qarasang, yillab qurib qolgan o'tinday so'rrayib turadi, bir qarasang tirjayib gullagancha, boshiga asalarilarni to'plab, dunyoni buzadi. Oq kamar o'rmonchilari bir yaxshilik, bir yomonlik ko'rgan. Yaxshiligini aytdim. Yomonligi ekkandan yiqitgani ko'p, otasini yam tanimaydigan bittasi direktor bo'lganda, ziyoratgohni chiroyli qilaman degan bahonada ilingan terakni kesib ketgan. Shu-shu rangi chiqmaydi. Tergovini biri tugasa, boshqasiga qatmaydi. Aytishlaricha, necha dona terak kesgan bo'lsa, shuncha marta so'roqqa tortilguncha bo'lmasmish. Ishqilib o'zining umri yetsin emish. Bo'lmasa, bolalari qatnarmish. Bu gapni eshitgan borki, yoqasini tutadi.

Oq kamarni menga otam tanishtirganlar. Eng esimda qolgani, Oq kamarda terak qolmay qolgan zamonlarda katta otalari jo'ralari bilan bittadan terak ekkan ekanlar. U teraklar ham yo'qolib ketgan. Izidan terakchalar chiqqan. Kamarning bag'rini, chala bo'lsa-da, to'ldirib turgan dov-daraxtlar shundan qolgan. Faqat katta otalari ekkan terakkina qurib-qaqshab bo'lsa-da hanuz turganini, huv boya

hikoyamning boshida aytganim, qurigandek ko'ringan, biroq, uchki shoxlarida bir tutamgina yaproqlari ilimibgina, pir-pirabgina turgan yolg'iz terak o'sha ekanligini titroq ovoq bilan tushuntirganlar. Oq kamar teraksiz qolmasligi kerak, qilich tebranib turarkan, dushman tebranolmaydi, qalam ham, dedilar gap oxirida.

Ikkinchi marta katta enam olib borgan. Men ena deb chaqiraman. Katta ena desam, uzoqlashib ketgandek bo'ladilar.

Oqtosh avliyo mozorati ostidan Kattatog'ning ming yillik qorlari, dard-quvonchlarini bo'lib sizib chiqayotgan buloq boshida enam bilan birga bo'laman. Enam zo'rg'a yursalar ham, bor jonlarini yig'ib, yo'l yaqin bo'lishi uchun to'g'ri qabriston oralab buloq bo'yiga tushadilar. Yo'lma-yo'l har bir mozor bilan salomlashib, gaplashib keladilar. Katta otamni boshiga kelib, qabr atrofini astoydil tozalagan bo'ladilar. Katta otam qaytgan, qo'yilgan 1937-yil bilan bugunning orasini, bugunda qo'yiladigan joy oralig'ini qabristondagi mozorlar bilan hisoblagan bo'ladilar. "Ancha o'tibdi-da. Shuncha mehmon keb-ketibdi-da", - deydilar o'zlariga o'zlari. Ko'zlari o'tmasa-da, bir Oyqortoqqa, bir katta otamning mozoriga, bir Dunyotepaga qaraydilar. Hech birini ko'zlari ilg'amaydi. Shunda men qo'litiqlariga kiraman. Enamning quvvati oshadi. Oyqortog' ham Dunyotepayam ko'ngillaridan ko'tariladi. Eng aziz narsalarini topgandek ko'zlari quvnab ketadi. Ikki tomchi yosh qarolari gardishida g'itillagancha aylanadi. Men ko'rmaganga olaman. Enam meni qo'ynilariga olib, boshimni hidlab-hidlab kuch yig'ib oladilar. Otamozor deganda Kattatog'ni nazarda tutadilar.

Oq kamarga uchinchi marta qanday borib qolganimni bilmayman. Ertalabki choyni odatdagidek enam ikkimiz qildik. Enam aziz mehmonlar kelganda ochiladigan sandig'idan bor-budini olib das-turxonga to'kdilar. Mehmon kelsa kerak, deb o'ylagandim, hech kim kelmadi. Menga turshaklardan ko'proq yeyishimni, yuragim baquvvat bo'lishini tayinladilar. Bittasini olib o'zlariyam shimindilar. Shunda Oq kamarga borgim kep ketaverdi.

"Boring, bolajon, boring. Man qarab turaman", - dedilar enam. O'zim yolg'iz ketdim. Turqishloqni teng ikkiga bo'lib taltayib yotadigan Jarko'chadan o'tarkanman, oyoq tovushlarim jarning ikki qirg'og'iga urilib, aks-sado bergani o'zimga eshitildi. Qanotlarida

katta-katta ko'zlari bor kapalakni quvgancha, u bilan o'ynagancha Jarko'chadan chiqib, Mushukjardan o'tib, Kamar og'ziga kelib qolgandik. Kamar esnagancha og'zini ochdi-yu, qayta yopilmadi. Esidan chiqib ketdi. Avval qadim terakning eng tepadagi ko'zlari kuldi. Xursand bo'lganini bildirib, ko'zlarini qisib-qisib qo'ydi. Men ham. Cho'ltiq qo'llaridan uyalib yashirmoqchi bo'lgandi, eplolmadi. Kapalak yo'l boshlardi. Unga darrov ot qo'ydim. Ko'z kapalak. Kapalak men bilan kurash tushdi. Bilmay qoldim, shamol ikkovi birlashib ko'tarib urdi. Tuproq bilan teng bo'lib yiqildim. Osmo ostimizda qoldi. Keyin burnimga bir qo'nib, yana qochdi. Kapalak hidini bilib qoldim. Kapalak gullardan gullarga qo'nib qochdi. Gullar shamolga qo'shilib tog'-toshga salom berdilar. Xonqizi tizzamga bosh urdi. Qo'limga olib "Otang cho'lda, Enang qirda", devdim o'tancha barmog'im uchiga pildirab kelgancha qanotlarini bir maydon ochib turdi-da, uchdi-da ketdi. Keyin, opam yoz bo'yi sariyog' yig'adigan qo'yni qorniday keladigan katta, oppoq tosh ustiga kelib qo'ndi. Toshni dast ko'tardim. Hu-hulab boshim uzra aylantirdim. Shunda Oyqor ortidan tizgindagi qo'shindek qorayib bulut bostirib kela boshladi. Kelishi dunyoni buzgudek, qor-yomg'ir aralash kelardi. Qo'rqmadim. Toshni avaylab joyiga qo'ydim. Bulut bulutday tarqab ketdi.

Kapalak terakni aylanib qochdi. Men quvdim. Terakka qo'limni tegizib, terakni quchoqlab, terakni himo qilib quvdim. Gir aylanib quvdim. Terakning uchlardagi barglar deb noto'g'ri aytgan ekanman, ular osmonga yetgan, osmonga qo'shilib ketgan barglar ekan. Shunda kapalak kapalak emasligini bildim. Shu payt terakning boshi aylanib ketdi. Avval qarsillagan ovoz chiqdi. Keyin to'rtga bo'linib, birin-ketin osmondan tushib kelishdi. To'g'ri terakchalar tugagan maydondagi, adog'dagi soyga kelib tushdi. Shunda shamolning qo'llarini ko'rib qoldim. Shamol ularni to'rtga bo'lib, birma-bir soyga taxladi. Birorta terakka zarar yetmadi. Ularni qir ustidan kuzatib turdim. Meni qir ustiga shamolmi yo kapalak chiqarib qo'yuvdi-yov.

Bulutlar orasidan yerga quyosh nuri tushdi. Oppoq yo'lak ochildi. Zinasi bo'lmasa-da, yo'lakdan osmonga chiqib ketgudek edi. Yo'lak Jarko'chani boshigacha kuzatib keldi. Qorayib kelayotgan bulutdan qo'rqmasin, dedi shekilli. Birov ko'rmasin, deb ko'cha

boshida lip-lip etib xayrlashdi-da, zum o'tmay Oyqordan oshib ketdi. Otamozor - Oq kamardan qaytar ekanman, enam g'ov oldida hassalariga tayangancha tik oyoqda turardilar. Hayron bo'ldim. Kimni kutib turgan ekanlar.

- Ha, otajon, yaxshi keldingizmi, - dedilar qarsilarining uchi bilan ko'z yoshlarini qayta-qayta artarkanlar. - Sizni kutib turuvdim.

Shu kecha tush ko'rdim. Oq kamar g'ij-g'ij terakchalarga to'linganmish. Terakchalarning bittasi men emishman. Shamol kelib qulog'imizdan tortib-tortib qo'yarmish. Biqinimizni qitqlab-qitqlab, yumshoq joyimizdan chimchib-chimchib qo'yarmish. Bir-biringga qarab, bir-biringni suyab o'ssang, odam bo'lasan, bir-biringga soya tashlasang, ko'karmaysan, go'ram bo'lmayсан, qadim teraklar yo'l berdilar, dermish...

Betinni shosha-pisha yuvib, enamga salom beraman. Keyin ko'chadan yugurib kelaman-da, bir irg'ib molxona tomiga chiqaman. Undan uy tomiga. Tushim o'ngidan keldimi, deb Oq kamar-ga qarayman. Tomlar usti endi yetib kelgan qaldirg'ochlarday chug'urlashgan bolalarga, kamar teraklarga to'la bo'ladi. Har biri bir qirday ko'rinadi. Har biri qilichday tebranadi. Osmonga nayzadek intilgan bo'ladi. Hech kimdan kam emasligini past-u balandga ko'z-ko'z qiladi. Bu tush bo'lmaydi.

Tanish shamol hurillab keladi. Joy qurigandek, sholvorimni qaqragan joyidan kirib ninalarini sanchib-sanchib o'ynashadi. Shamolni so'kmaydilar. Qattiq ham gapirmaydilar. Qizlarning qirq kokiliga qirq shamol osilgan bo'larmish. Shamol ketganlarning ohi, kellarlarning nafasi emish. Enam shunday degan. Bu haqda boshqa safar aytib beraman.

Terakchalardan biri ichikkan go'dakdek, biri otalarining gunohini bo'yniga olgandek ma'yus, biri do'stga zordek giryon, biri do'stidan kuygandek garang, biri hiylagar do'st ko'zidek yaldirab, biri murdadi o'rtog'dek sovuqdan sovuq, biri jonbotin jo'radek botin, biri tomoshatalab yo'lovchidek merovlanab, biri qilich ko'targan askardek ziyrak, biri shu joyda ko'karganidan ko'ksi baland, shu makon uchun jonfidoligi yuz-ko'zidan bilinadigan ko'ngillardek sokin, ming-ming elning og'ir-yengilini yelkasiga olishga

tayyor jo'marddek mag'rur, biri yer bilan osmonni yoqasini bir qilib tutamlab uradigan bahodirdek g'ayratli, biri barchani hisob-kitobini qilib kuzatayotgan qattiqqo'l oqsoqoldek ko'rinardi...

Shamollar ekib ketgan son-sanoqsiz teraklar boshida ne-ne xayollar, ne-ne niyatlar bor edi. Shular ichidan birini yoqtirib qolaman va mening teragim deb tanlayman. Xuddi oqshomlari jo'ralar bilan Dunyotepaga chiqib yulduz tanlagandek.

Terak qo'lini silkib, salom beradi. Qadim jo'ramni topgandek quvonaman. Yosh bolayam xursand bo'lsa, ko'zidan yosh chiqib ketarkan. Birov ko'rmasin, deb darrov artdim.

## ISAJON SULTON

1967-yilda Farg'ona viloyati Rishton tumanining Avazboy qishlog'ida tug'ilgan. Toshkent davlat universitetini (hozirgi O'zbekiston Milliy universiteti) tugatgan. "Munajat" (1990), "Oydinbuloq" (1995), "Boqiy darbadar" (2011), "Ozod" (2013), "Bog'i Eram" (2015), "Alisher Navoiy" (2021), "Ma'suma" (2022) kabi kitoblari nashr etilgan. "O'zbekiston xalq yozuvchisi" unvoni bilan taqdirlangan (2021).

## TABG'ACHLAR

- Sen kimsan? Kimning o'g'lisani?

Tangritog'ning sarsar shamoli ot ustida borayotgan, taqimiga xurjun bostirib olgan askardan shuni so'raydi.

- Kimni bolasi? Otangni ismi ne?

Askar bu savolga javob bermaydi. Shamol uning uzun kokilini g'azabga to'lib tortilaydi:

- Aytasang-chi! Otang kim?

Kokilli askarlar javob o'miga otga qamchi bosishadi. Jonivorlar titrab, qo'ng'ir tuproqlar ustida siyrak butalar oralab tasir-tusur chopa ketishadi.

Olam bo'ylab kezib yuruvchi shamol zabti ostida bu cherik isi yoyiqqa taralib, olistardagi bo'ri galasigacha yetib boradi. Dashning beozor jonzoatlari inlariga kirib yashirinishadi. Vahshiyalar o'zlarini ovloqqa olishadi. Ko'kni kuz bulutlari egallaydi. Momaqaldiraq gumburlab, chaqmoq chaqib, yomg'ir quyib yuboradi. Kokilli askarlarning ust-boshi, otlari ho'l bo'ladi. Shamol ular ortidan qolmaydi, goh to'nlardan, goh kokillaridan tortqilab, so'rayveradi. Kokilli askarlar shamolga qarshi hech nima qilisholmay, ot yoliga egilib, quloqlarini qo'llari bilan bekitib ketib borishadi:

- Ayt, kimsan? Kimning ustiga bosqin qilding? Xurjundagi bosh kimmiki?

Janubi-sharqdagi turk uluslari kuchga to'lib, Chin xoqonligining kun ko'rishini qiyinlashtirib qoldi. Turkiylarning otlari uchqur, o'zlari dovvyurak edilar. Biror joyda chopqin bo'lsa, ular qarshisida Chin qo'shini mushukboladay bo'lib qolardi. Ayniqsa, xoqonlikning g'arbidagi xunlar yovqur edilar. Ulardan quyiroqda ko'kturklar, sharqda qitanlar, janubda O'n o'q, Yetti jig'a ulusi birlasholmay turardi. Agar bular birlashib olishsa, Chin xoqonligining kuli ko'kka sovurilishi muqarrar edi.

Ha, xavf kuchli, yov davlatni yo'q qilib yuborishi mumkin. Shu sababli, Chin xoqoni o'z bilgichlarini yig'ib, bunga qarshi nimalar qilsa bo'lishini so'radi.

– Turkiy uluslarning erlari dovvyurak, chidamli. Ular go'yo ot us-tida tug'ilishadi. Ot choptirib ketayotib yonga yoki ortga o'girilib, o'q uzib mo'ljalga aniq urishadi. Bizning cherik unday qilolmaydi, ulovlarimiz ham ularnikiday tezchopar emas. Ular bilan yoyiqda jang qilish to'g'ri bo'lmaydi. Chunki cherigimiz yayov jang qilishga o'rgangan, agar urushadigan bo'lsak, ularni avrab, o'rmonga olib kirish kerak, – dedi dongdor Chin bahodirlaridan biri.

Bular deyarli har yig'inda aytiladigan behuda so'zlar edi. Chin xoqoni g'azablanib, bilgichlarga kelajakda turkiylarni yengish uchun bir hiyla o'ylab topishlarini buyurdi. Ularni ayri-ayri uylar-ga qamab qo'yishdi, har kuni kechqurun barchasi bir joyga yig'ishib, o'ylaganlarini bahslashishardi. Yetarlicha osh-ozziq ham berilmadi, chunki Ko'k o'g'li och odam to'q odamdan ko'ra yaxshiroq o'ylashini bilardi.

Yetti kundan keyin bilgichlarni xoqon huzuriga olib kirishdi.

Ko'k O'g'li xoqon ularni par yostiqlar ustida yonboshlab kutib oldi.

– Xo'sh, qanday yechim bilan keldingiz? – deb so'radi u. – Agar o'ylagan o'yingiz bo'lmag'ur esa, ko'shkdan haydalasiz, changal-zorga surgun qilinasiz. So'zlang!

– Ey dovruqli Ko'k O'g'li xoqon, – dedi bilgichlarning oqsoqoli yetti bukiilib. – Bizlar qo'shinimizni turkiylarday urushishga o'rgata olmaymiz, chunki unday mohir otliqlarimiz yo'q. Sizning botirlaringiz orasidan otni yaxshi mina oladiganlarini tanlab, o'q

otish, qilich urish hunarini o'rgatadigan bo'lsak, bunga bir qancha yil ketadi. O'rgata olsak ham, chopqinda anchasi o'lib, sanog'i yana ozayib qoladi. Bizning oliga otuvchi katta yoylarimiz bor, lekin unday yoylar "ot minuvchilar"ning yoyilib oquvchi qo'shini qarshisida ish bermaydi, buning ustiga, bir yoini tortish uchun uch-to'rt kishi kerak bo'ladi. Shuning uchun, agar jonimizni bag'ishlasangiz, uzoqni ko'zlagan bir hiyla o'yladik. Uni ado etishga ko'p yil ketadi, ammo so'ngida siz istagan ish sodir bo'ladi. Ruxsat bering, o'ylaganlarimizni bayon qilaylik.

Ko'k O'g'li xoqon bosh iring'adi. Bilgich davom etdi:

– Dovruqli Ko'k O'g'li xoqonning boyliklari mo'l, kishisi sanoqsiz. Shuning uchun, kunchiqardagi turkiylar bilan yolg'ondakam ittifoq tuzsak, ularga oltin-kumush, mis hadyalar yuborib, o'zimizni do'st qilib ko'rsatsak. Chegara yerlarimizdan katta bir qismini ajratib, yigitlariga qizlarimizni xotin qilib bersak. Shunda ular turkiylarday shijoatli, bizlarday aqli bolalar tug'ilishadi. Chin qizlari esa ularni Ko'k O'g'li xoqon uchun o'tga-yu suvga kiradigan qilib o'stirishadi... Oradan o'n besh-yigirma yil o'tib, siz istagan qo'shin ulg'ayganidan so'ng, ularga davlat tuzishda yordam beramiz, shu yo'l bilan turkiylarga qarshi katta kuchga ega bo'lamiz.

Ko'k O'g'li o'ylanib qoldi. So'ng iljayib, ko'zlari yiltillab o'midan qo'zg'aldi. Lapanglab kelib, bilgichni quchoqlab oldi.

– Endi turk ulusining tugab bitishi aniq bo'ldi! – dedi suyunib.

Bu ish 240-yilda sodir bo'ldi. O'sha yiliyoq Ko'k o'g'li xoqon turk uluslariga so'zchi yuborib, o'rtoqlik va qarindoshlik istagida ekanini bildirdi. Bo'liq yer-suv, ot, sigir, qo'ylar berilishini aytdi. Turk buduni bu ishning ortida hiyla yashiringanini payqamasdan, Chin xoqoni bizning ko'nglimizni ovlamog'chi, degan o'yda rozi bo'ldi. Shunday qilib, janubi-sharqiy hududlarning dashtli-o'rmonli yerlari ularga yurt qilib berildi. Bir necha yuz er betashvish hayot ilinjida yangi joylarga borib o'rnanishdi.

Har kuni o'nlab arava yegulik-ichkulik, kiyim-kechak, ashyo, oltin-kumush, suruv-suruv mol-qo'y o'sha yoqqa yo'l olardi. Chin amaldorlari turkiy ulus yigitlarining aytganlarini to'la ado etishardi. Turk erlari esa ularni nazar-pisand qilmas, xizmatkorlarimiz,

deb atashardi. Tez orada Irshon daryosi sohilida shaharcha barpo bo'ldi, tegrasiga aylana devor olindi.

Turk erlari qaysar edilar. Chin amaldorlariga ish buyurishar, ota yurtidan temirchilarni chorlashgar, temirchilar allaqachon uch qirrali va yapasqi, uzun va qisqa o'qlarni, to'g'ri va egri qilich-qalqonlarni yasab ulgurishgan edi. Ular atrofni kezib, qush-jonliq urib kelishni odat qilib olishdi. Biroq jonliqlarning bolalariga yoki qush polaponlariga sira tegishmasdi. Jangovarligi bilan dong taratgan turk erlarining mehribonligi chin kishilarini hayratga solardi, chunki ular yangi tug'ilgan jonliqni eng lazzatli yemishlardan biri, deb hisoblashardi. Turk erlari o'ljani keltirib xotinlar oldiga tashlashar, chin qizlari esa uni nima qilishni bilishmasdi. Biroq bu dovruqli ulus o'z avlodlarini yeru ko'kka ishonmay ardoqlashidan barcha xabardor edi: erlar xotinlariga o'ljani bo'g'izlashni, bo'laklashni, pishirishni, hatto ov qilishni ham o'rgatishdi, shu bilan bu yerda hayot gurkiradi.

Oradan bir qancha yil o'tgach, chin qizlari ikki-uchtadan bola tug'ishdi. Turk erlari o'z o'g'lonlarini "otam" deb alqar, ot minish, o'q otish, qilich urish kabi hunarlarini bola yoshidanoq o'rgatar, ovga o'zlarini bilan olib ketishardi. Bu mahalga kelib Ko'k O'g'li xoqon olamdan o'tdi, taxtga uning o'g'li o'tirdi. Otasining rejalari unga to'la ma'lum edi.

Chin xotinlari turk erlarini aytilganidek qilib avrashdi. Dov-yuraklikda erlaridan qolishmaydigan, qoruvli, yovga botirlarday tippa-tik tashlanadigan qaysar ota ulus qizlari qarshisida chuchuk tilli, bo'ysunuvchan chin qizlari ko'zlariga yaxshi ko'rinardi. Otalar buncha hasham, boylik, yer-suv qarshisida xotinlariga bir so'z deya olishmasdi. Ularning to'g'riligi o'zlariga qarshi keldi: axir, xotinlar rostini so'zlashmoqda-ku! Buncha hasham, jonliq, boylik haqiqatan ham Ko'k O'g'li xoqonning tuhfasiku? Ko'kturklar o'g'lonlarini o'zlariday dovyurak, botir qilib o'stirishdi. Chin xotinlari esa erta bir kun alp bo'lib ulg'ayadigan o'g'lonlarga Chin xoqonini maqtashni kanda qilishmasdi. Haqiqatan ham, qo'pol, qo'rs, bir yumushga qo'li urmaydigan otalar qayda-yu nazokatli, aqlli, har narsani eplaydigan chin botirlari qayda? O'z avlod-ajdodlarining aldoqchiligini ham oshirib-toshirib maqtashardi. Axir, hiylakor-

lik - aqllilikdan darak, zukko kishi hech qachon hiylaga laqqa tushmaydi!

Vaqt kelib, sodda otalar dunyodan o'tishdi, keyingi olaquroq avlod ulg'ayib, bir-biriga quda bo'ldi. Yangi avlod ham chin xoqonidan muttasil kelib turadigan mo'l-ko'l yemish, ichku, oltin-kumush, mo'yna-yu barqutlar evaziga shohona yashashda davom etdi. Ular chegaralarni kezishar, goho chegara orti turk aymoqlariga bosqinlar ham qilishardi. Hatto ota o'g'itlari orasida elas-elas esda qolgan Ko'k Tangrini unutib, chinlarning tosh haykallariga topinishni odat qilib olishdi. Bularning o'zgalardan ajralib turadigan jihati - boshining orqa tarafidan bitta uzun kokil qo'yishlari edi. Shunday kishilar duch kelib qolishsa, bir-birlarini kokildan tanib olishardi.

- Sen kimsan? Onang kim?

Tabg'achlar otasining kimligini aytishmasdi.

Lekin tomirlarda oqayotgan aralash qon baribiram o'zini ko'rsatdi: bular ozchilik bo'lgan paytida qo'rqoqlarga aylanishar, ko'pchilik ekanida esa g'animga shoqolday tashlanishardi. Shuningdek, hasham va bezakka nihoyatda o'ch edilar. Bo'larni bo'lmasga qimmatbaho pos'tinlarga o'ranib, mo'yna-bo'rk kiyib, oltin-kumushlarni taqib yurishni yoqtirishardi.

Oradan bir necha yil o'tib, ular Chin xoqonining ko'magi bilan Tabg'ach davlatini tuzishdi. Bu davlatda barcha chin tilida so'zlashar, chin urflari qilinardi. Keyingi davrda esa ularning sanog'i yanada ortdi. Nihoyat, ota qavmi ustiga yurish qilib, bosh kent O'tukenni yoqib yuborishdi. Ota avlodning qattiq o'g'illarini qul, suluvi qizlarini cho'ri qilib olib ketishdi. Turk budun ularga qarshi ayovsiz urushdi, biroq yengildi. Budun erlarining so'ngagi dala-dashtda tog'day uyilib yotdi. Tabg'ach shu tariqa ota qavmini qullikka soldi...

Turk qavmlari qonni otaga bog'lashadi, nasabni otadan boboga o'ta-o'ta, Nuh payg'ambarning yuksak axloqli o'g'li Yofasgacha taqab borishadi. Tabg'ach esa o'z qonidan tonadi. Kuchliroq, boyroq qavmga taassub qilib, o'zini ularning nomi bilan nomlaydi, o'shalar orasiga singib yo'q bo'lib ketgisi keladi va ota qavmini sira tiliga olmaydi. O'z ota sulolasini tahqirlab, past ko'rgan tabg'ach qavmi mana shunday paydo bo'ldi.



- Sen kimsan? Kimning o'g'lisani?

Tabg'ach yana ikki qo'li bilan qulog'ini berkitadi.

- Ayt, xurjuningdagi bosh kimniki?

Xurjundagi bosh - Ko'kyol Ota bo'ringning boshi! Tabg'ach urushda yengdi, ota yurtga o't qo'yib qaytishayotganida, tutab yotgan xarobalar orasida yollari ko'kimtir katta bir bo'rini ko'rib qolishdi. "Turkiylarning Ko'kyol Ota bo'rini shu ekanmi? - deb hayron bo'lishdi. - Qaranglar, joni ilvirab, o'ladigan bo'lib qolib-di-ku?" Uni uzun o'q bilan urib olishdi, boshini kesib, xurjunga solishdi. Qaytishda qattiq shamol esdi, bulturgi xas-cho'plar-u xazonlarni ko'tarib to'pdagilar boshi uzra chunon sochdi, yomg'ir ayamay savaladi, momaqaldiroq otlarni hurkitdi. Shu tarz, asosiy cherikdan ayni shu to'p ajralib qoldi.

"Shamol kuchli bo'ldi, adashib ketdik chog'i, - deyishdi ular. - Lekin yo'lni bilamiz, kechikib bo'lsa-da, g'alaba marosimiga yetib boramiz. Xurjunimizda Ko'kyol Ota bo'ringning boshi yotibdi. Undan may kosasi yasaymiz, bayramda sharob sipqoramiz!"

Ko'gman suvidan o'tilganida oqshom qo'ndi. Yomg'ir-u shamol tina boshladi. Bulutlar tarqab, oy ko'rindi. Tabg'achlar pilch-pilch loy uzra borishardi.

Shunda kutilmagan hodisa yuz berdi. Sokinlashayotgan tabiatning turfa saslari aro to'satdan dahshatli uvullash yangrab ketdi!

Bu shunchalik hazin, uzun va bitmas-tuganmas uvullash ediki! Otlar ko'zlari olayib, hayiqib sapchidi, tabg'achlarning rangi bo'zarib, serrayib qolishdi. Ho'l butalar, tina boshlagan yomg'ir, loy tevarak aro ro'parada keng to'shidagi va bo'ynidagi yoli ko'm-ko'k yetakchi bo'ri, ortida yana boshqalari, bari boshini ko'kka cho'zib, etni jurjiktirib uvullardi.

Faqat bu - bo'rilar zerikkan mahalida oyga qarab zorlanib, Ko'k Tangridan afv so'raydigan uvullash emas edi. Tabg'ach qavmi qarshisida o'lim-qolim jangiga kirish oldidagi jangovar uvullash yangramoqda edi.

Balki tasodifdir, biroq to'pdan ayrilib qolgan tabg'achlar "Bu jonzotlar Ko'kyol Ota bo'ri uchun o'ch olishga keldi", - degan o'yda, qo'rquvdan dag'dag' qaltirab turishardi.

Shundan so'ng oy bulutlar ostiga kirib ketdi, nimalar yuz bergani bilinmay qoldi. Bo'rilar tabg'achlarga tashlandi, shekilli, kimdir qo'rquv ichra baqirdi, kimdir dodlab qochdi... O'z qarorgohiga yetib borgan boshqa tabg'achlar bir to'p erining dashtda yo'qolib qolganini bilishsa-da, izlagani chiqishmadi. To'g'ri-da, nima zaril bayram shodiyonasini buzib? Tirik qolishgan bo'lsa yetib kelishardi, mabodo yer tishlagan bo'lsa, u holda, izlashdan ne naf?

Shu tariqa, turk budun tabg'achga qaram bo'ldi. Tabg'achlar uni qullikka soldi.

...Endi oradan ellik yil o'tadi. Ellik yil o'tgach, tabg'ach elida unib-o'sgan bir erming tomirida ota qoni uyg'onadi. Ota-onasi kimligini bilmaydigan bu yigit tevaragidagi kishilarning tutumlariga, qiliqlariga, maqtanishlariga qarab, o'ziga-o'zi "Men kimman? Otam kim?" degan savolni beradi. Surishtira-surishtira bir amallab otasi kimligini bilib olgach, tabg'achlardan ayrilib, yer bag'irlab yotgan tarqoq ulusini izlab boradi. O'layoqzan ulus unga donoligi uchun Bilga To'nyuquq deb nom beradi. Bilga To'nyuquq dostoni dovyuraklik, jasurlik va elparvarlikdan, er kishi uchun eng yaxshi o'lim - el uchun o'lish ekanidan so'zlaydi, ammo u - butunlay boshqa bir dostondir.

\* \* \*

Qaydam... bu juda olis tarix. Tabg'achlar yer-suvlaridan ayrilib, olamga yoyilib ketishdi, ularni hech kim yo'q qila olmadi. Juda joni qattiq, o'lmaydigan qavm ekan, deyishadi bilgichlar.

Shamol esa yer yuzi bo'ylab yeladi. Tog' etaklarida qahqaha uradi, tabg'achlar yerining to'zonlarini ko'taradi, turkiy ellar tuproqlarini mayin-mayin silaydi, dengiz sohillarida sokin yellarga aylanadi va xuddi qiyomat oldidan tuproq ostidan chiqib keladigan yer maxluqi kabi, kishilardan so'raydi:

- Sen kimsan? Otang kim?

Horg'in kuz kunlarining birida, mabodo sizning ham yuzingizni silagan chog'i qulog'ingizga shunday savol urilsa, hech ajablanmang. Chunki siz-u bizning javobimiz aniq, imonimiz but:

- O'zbeklarmiz. Turkning bosh bo'g'inimiz!

da ismi odam bilan gaplashmaydi. Kunduzlari soyani itga bermaydi. Kechalari esa kiprik qoqmaydi.

O'g'li keldi. O'tindi...

Kelini keldi. Yolvordii...

Qizi keldi. Yig'ladi...

Bozorgan chol o'zini misli ko'lvor chog'ladi. Mezon quyoshida toblanib, shamoliga ko'krak kermaqchi bo'ldi.

Uyiga qaytmadi...

Ko'klamdan mezonning adog'igacha paykal-u qishloq orasida shu jinqarcha sarson, Maydaqadam sarson.

Cholning aytarga bahonasi bor — piyoz mezonni yemasa, shuncha toat-ibodat bir pul. Chirib ketadi. Gap piyozda ham, mezon shamolida ham emas, o'g'lining zuvalasi bo'shligiyu ke-  
linning biroz uquvsizligida!.. Bo'lmasa qush cho'qimaydigan, jonliqqa et bitirmaydigan achchiq piyozning boshida nima bor, bu "itkasal"ga!

O'tgan qishda Bozorgan chol nevarasiga to'y berish taraddudida edi. Og'zidagi tishiday siyraklashib qolgan uzangidoshlarini bozorda ko'radimi, mozorda ko'radimi, do'q urib: "Nevaramga to'y beraman! Ko'pkarisi katta bo'ladi! O'tga qarashing!..." der, bu gaplariga ko'ngli to'lmay: "Ullarni ham olib keling! Ota qadrdonlarni topishirib ketaylik! Til topishsa, og'a-ini bo'lib qolar. Topishmasa, ukasining qorniga!" deya qo'shimcha qilardi. Uning bu gaplarini qayta-qayta eshitib bezor bo'lgan chollarning ayrimi o'zini garanglikka solib qolgandi.

Chavandoz bir safar o'zini garanglikka olgan Tashman tuyaning qulog'iga:

— Bozorgan o'zi bitta to'y beradi, katta, — deya qichqirdi.

— Ho', bodi. Qulog'imni teshding-ku! Sen nevaramga to'y beraman deganingda, mening tishim chiqqani yo'q edi, — deb milkini ko'rsatdi Tuva.

— Yukim yerda qoldi-ku, oshna! Shu yil qor tushsin, to'yni boshlayman, — dedi Bozorgan oshnasidan ranjib.

Cholning yuragini hapriqtirib kelgan qishning avvalida kam-piri uning tongdayu shomda, kundayu tunda tayinlab kelgan kalimasini kanda qildi. Qo'zigul Bozorgan mahram bo'lib, aytganini

## NURILLA CHORI

*1983-yilda Qashqadaryo viloyatida tug'ilgan. O'zbekiston Milliy universitetini bitirgan. Dastlabki hikoyalari to'plami 2015-yilda O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasining "Birinchi kitobim" loyihasi doirasida chop etilgan. 2019-yilda "Tashvishi yo'q odamlar" nomli kitobi chop etildi.*

## TASHVISHI YO'Q ODAMLAR

Bozorgan chavandoz dog'da qoldi...

Qizg'aldoqning adog'idan ko'ndalangiga Tagsaroy oqadi. Tagsaroyning kungay beti qari lalmi (el shunday ataydi), qiblasi suvut — tayoq suqsang barg yozadi. Zamoni charxifalak bo'lib ketgan bu kunda qozi ham, mirshab ham, do'xtir ham tish-tirmog'i bilan yerga tarmashgan. yerga yetmaganlari moliniyam, joniniyam bozorga urgan. Bozorga bor — baxtingni ko'r. Baxtini nimaning evaziga ko'radi, bunisini o'zlari bilishmasa — biz bilmaymiz!

Maydaqadam modaning ustida o'z maylida tebranib borayotgan mana bu jinqarcha Bozorgan cholning nevarasi. Huv-v, ana u chayla esa Bozorgan, to'g'ririg'i, uning kenjasi — Eshboy eshchiga tovin. Eshchining esh changallab kosasi oqarmagan chog'i ro'zg'orga tomchi deb piyoz ekan. Ekkanda ham sidirg'i ekmagan, "Achchiq bo'lsa, xaridorini o'zi topadi", deb damiga osh pishadigan lolpon xumga urug' septirgan. Achchiq bo'lishini bilmadig-u ammo urug'ning yarmi kuyib ketgan chiqadi. Siyrakkina ko'kladbi. Siyrakligi Eshchining umidini yanada jonlantirdi: "Hali ko'rasiz, chumchuqning kallasidek emas, mushtday-mushtday piyoz bo'ladi!"

Ostonasi muborak oshyonidan sudralib chiqqan chavandoz shu chaylani o'ziga vatan tutgan. Necha vaqtdirki, nevarani aytmagan-

bajarmagan bo'lsa, shu bo'lar, yana bilmadik. "Ortimda qolasan", deganiga qaramay, jonini Jabborga topshirdi-qo'ydi.

Nevaraning to'yi qolishga qoldi. Ammo ko'p o'tmay elda: "Bozirgan chol uylanarmish", degan gap oraladi. Ulus chavandozning boshini ikki qilishga ko'pam shoshmagan, go'yo Qo'zigul kampirning ko'karishini sabr bilan kutgan, ko'klamga ilhaq bo'lgandek ko'rinadi. Kun qizigan sari gap-so'zlar urchib ketdi...

Chavandoz uylansa uylanibdi-da, shunga nima: osmon uzilib yerga tusharmidi?! Kampiri o'lib uylanganlar Qizg'aldoqda kammi?! Birgina Hayit langi uchinchi xotini ham juvonmarg ketganidan keyin uylanmagan, uylanolmagan. Negakim, og'ziga kuchi yetmagan ikki-uch kampir janozada o'tirib, yomon bir matal to'qigan. Iziga o'zlari to'qigan mataldan cho'chib: "Langida xotin turtmaydi", deb lab tishlagan. Kampirlar lab tishlagandan so'ng qaysi ayol yurak betlab Langining o'ngiridan tutsin. Uyi singan ayol bordir, ammo jondan to'ygani, jonidan to'ygani yo'q!

Yana Haldav poson uylanganidan so'ng soqolini anbarlab arilga talangani-yu, Orol karga o'g'illari qolib, qizi xotin topgani ham bor gap. Yana...

...Yana Esonboy oqsoqol ikki o'lib, uch uylangan. Esonboy oqsoqolning "o'lib-tirilishlari" va uylanishi Bozirgan cholning kechmishiga soya solmaydigan mahshar qadar guring. Undan ko'ra xotining forig'lik muddatini ham o'tkazmay uylangan Tolmas morboz el ichra mashhur, muzofotda dongdor.

Tolmas morboz cho'girma telpak kiyganicha bor ekan. El og'ziga elak tutdi. Dangkalini aytsak, "Misqol devday yigitning umrini o'g'irladi-ya!", "Misqol tumsa", deganlarning og'ziga cho'girmasi bilan urdi. Misqol o'g'illi bo'lib, chilla tutdi. Qolaversa, Morbozning qulog'i tom bitganida, og'alaridan ko'ra Avazning: "To'rt kunlik mehmonim otam! Mehmon bo'lib to'ymagan, dunyo-yu qo'tirda hech vaqoni ko'rmagan, armonlari bag'rin tig'lagan... otam-ov, otam!" deganlari elning esidan chiqqanicha yo'q.

Go'yandalarning guring berishicha, Avaz qo'shig'ini ko'ngil uchun aytmagan. Har "otam-ov, otam!", deganida sabzi tishla-

gan. Bilingki, otasini yo'qlayotgan Avazning urtida sabzi bo'lgan. Undan ranjigan akaning ko'kayiga shu gaplar keldi: "O'v-v enasi qisir! Enam otamning qo'ynida yo'q edi. Men otamning esida yo'q edim. Nega buncha zor qaqshaysan?! Misqol makrzaning arzandasi! Otam o'lgan bo'lsayam, sening boshingni silaydigan Makrzan bor-ku! Enamning qora bosib o'lganini bilsang, yuraging yorilib o'lar ekansan! Ey, sadqavi ena ket!..."

Ammo tiliga ko'kayi emas, kibri ko'chib, tomoq qirib, ukasiga yuzlangancha:

— Ho'-v, Avaz! Otamiz-ku yoshini yashab, oshini oshab o'tdi. Bu yoshda ko'chganniki to'y! — dedi.

— Sizlarga to'y bo'lsa, to'ydir. Bizga aza, — deya Morbozdek bosib tikildi Avaz.

— Avazboy, mayli, senga aza bo'lsa, azadir! Lekin: "Armonlari bag'rin tig'lagan..." deb bo'zlaganing nimasi! Otamizni dog'da qoldi, deb kim aytdi sen tirmizakka! — deb to'riqdi aka.

— Er yetgan kishiga birov aytishi shartmi! Otam har oqshom arg'amchiqopini tomorqaning etagiga qoqardi. Keyin menga nay chaldirib, tevarakka mordek tikilardi. Men nay chalardim. Otam esa "Men oyoq uzatar bo'lsam, sening holing nima kechadi, Xunxorning sultoni!" derdi, — deb yer tepdi Avaz.

— Xo'p, mayliga, sen sari boraylik, Avazboy inim, sulton inim! Ochdan o'ldingmi! Bizni nomusga qo'yma... Yo sabzi ye, yo otam de! — dedi aka qahrlanib.

— Sabzimniyam jiyaberaman, otam-ov, otam, deyaberaman! — deya akasiga tizzingladi Avaz.

Bolaning betgachoparligidan g'azablangan aka quloq-chakkasiga qo'yib yubormoqchi bo'lib qo'l cho'zdi-yu, titrab ketdi. Akaga tikilib turgan ko'zlar ukaniki emasdi...

Qo'rqanidan mayit yotgan uyga yuzlandi. Daf'atan qulog'ida otaning xesh-aqrabalariga aytgan so'nggi gapi yangradi: "Avazqulning burmini qonatmanglar!".

"Armonlari bag'rin tig'lagan!" deb bo'zlashda davom etdi Avaz. Akaning mehri iyib, ukaning boshini silay-silay, "Otam-ov, otam!" deb jo'r bo'ldi. Ich-ichidan titrab, ko'zlaridan tirqirab yosh

Kelin o'zini eshikka urdi. Chol uning ortidan: "Yana bozor borsang, bil, qani, Boziringning xuniga qancha moy berar ekan", deb qoldi.

Kelinidan ranjiganidami yo boshqa bir sababdanmi, negadir xayoliga rahmatli kampir keldi. Mushtdek momo edi. O'zini o'tga-cho'qqa urib pildirabgina yurardi...

Qo'zigul kampirning ajoyib odatlari bor edi. Bunday odatlar... Faqat unga, faqat shu kampirga yarashardi. Chavandoz birov-yarimdan dihi xufton bo'lsa, bas, tilini yutib qo'yadi — hech kimga lab juftlamaydi. Oxiri bir kuni ichi pishib, zavjasiga yoriladi. Agarki u dilozor mardum xesh-aqrablaridan bo'lsa, albatta ke-lib Boziringning ko'nglini olardi. Yot bo'lsa-chi? Yot bo'lsa ham, kampirning javobi tayin edi. Cholni "quturgan tuya qopganda" ham shunday bo'lgandi.

O'shanda chol azbaroyi guzarga Maydaqadamga arqon olgani borgandi. Nimaga borgani ham yodidan ko'tarilib, uyiga qaytdi. Maydaqadamdan tushay desa, arqon yo'q! Modani ostonagacha niqtab borib:

— Gunafsha, — dedi chol.

Otaning ovozini eshitib tashqariga chiqqan o'g'il xuddi boshidan musht yegandek gangib qoldi:

— Padaringga la'nat, makimiya! Sen uyda kurk yot. Meni quturgan tuya qopsin, — dedi ota.

Eshchi ham anoyi emas. Maydaqadamni minib ko'zdan pannaqqa ketmoqchi edi, ammo chol ko'nmadi, ustamonlik qildi. O'g'lini taqimiga bosib so'kkisi keldi:

— Enang yigirgan kalavadan olib chiq, — dedi battar tutaqib.

Maydaqadamni nevara minib turdi. Kampir, o'g'il va kelin ip pishitdi. Chol pishib kelayotgan ipni eshdi. Agarda kampir: "Aqrabning muddaosi nish urmoq, xoh do'st ko'ksiga, xoh dushman orqasiga", demaganida, ip pishigunga qadar Tashman tuyani ham, unga qo'shib o'g'lini ham so'ka-so'ka Boziringning o'pkasi pishardi.

Chol kampirning gapidan so'ng yumshadi, nafas rostladi. Avval arqonni qulochladi. Keyin ikki-uch hatlab, oyog'i bilan bosib tortib ko'rdi. Pishiqliq arqonni mahsinining qo'njiga urib:

otildi. Choponining o'ngiri bilan ulusdan yuzini yashirdi va Avazga dedi: "Nima desang ham senga mojina, Xunxorning sultoni!"

Cholni uylantirish Qizg'aldoqning esida ham yo'q paytda jinjaklilik: "Boziringan chavandoz soqolini bog'lab non yoparmish", deb aytgan ekan.

— Cholning soqolini bog'lab non yopganini birinchi qizi eshitgan. Kelib kelinini qarg'agan, so'ng o'g'li eshitib hayron bo'lgan. Boziringning o'zi eshitib, "Shunday deyshibdimi-ya, qistaloqlar", deb qah-qah otib kulgan va indamay uch-to'rt kun o'g'lining og'ziga qaragan. O'g'li tish yormagach, chol to'nini teskari kiyib olgan, — dedi bilgichlar.

Chavandozning non yopgan-yopmaganini o'g'liyam, qiziyam bilmaydi. Gapning rostini qaynota-kelin hech kimga aytmadi.

Boziringning nazarida, atrofidagilarga bir balo bo'lgan. Xuddi u sag'ir qolgandek, achinib qarashadi. Yupatish uchun mialarnidir o'ylab topadi. O'g'li ishdan kech qaytsa ham, uning oldiga kiradi, nimalarnidir gapirgan bo'ladi. Hech gap topmasa: "Ekologiya yomon, iqlim o'zgarib ketdi, hozirgi kelinlar nozik", deb diydiyo boshlaydi. U tug'ilganda onasi azob tortmagandek. Go'yo otasiga shular qiziqdek.

Avvallari salomini to'g'ri bera olmaydigan kelini ham endi unga matal aytadi. Hay-hay demasa, bozorga borgani-yu bodini ko'rganidan boshlaydi. Bir gal shunday ham bo'lgandi:

— Ertaga is kuni, — deydi kelin qaynota o'tirgan sandalning bir kunjagiga o'zini urib.

— Shundaymikan? — deydi chol sanoqdan adashgandek.

— Bozorga borgandim. Moy oldim, — deydi kelin qoyil qilgandek sandalga chuqurroq kirib.

— Yaxshi-da, yaxshi-da, — deydi chol kumush qoshlarini silab.

— Bozor kuyib ketibdi, — deydi kelin bamaylixotir, — moy odamning xuniga teng!

Qaynota chuqur uh tortdi. Tishni tishga bosgisi keldi. Bundan so'ng yana shu taxlit subbatlarga chiday olmasligiga ko'zi yetdi. Sandaldan chiqib o'tirdi.

— Bozorda senga balo bormi?! Eshchi moy olib kelmay nonma'qulning nonini yeydimi? — deb tovushini balandlatdi qaynota.

— Bir to'y beraylik, ko'pkarining zavqiga nortuyalar ham mast bo'lsin! — dedi.

Kelin cholning bu itfe'lini bugun ko'rgandek, lab burib nari ketdi. Qirq yildan beri otaning so'kishini eshitadigan o'g'ilga negadir shu tobda alam qildi.

— Soqoliga oq oralab ham shu odatini hech tashlamadi-da, momoy?! — dedi onasiga.

— Endi, eski dard-da, bolam, nima ham qilay...

— Mazasi yo'qmi?!

— Itkasal-da.

— ...

Arqonning bir uchini o'g'liga berib, tortsa ham bo'lardi. Ammo bunday qilmaydi. Negaki, o'g'liga ishonmaydi. To'yu katta-a ko'pkari berishning sababi ham asl shu ishonmasligida! Ko'nglida bir "attang" i borligida! Chol kampirini o'ziga qanchalik yaqin tutmasin, bu "attang" ni unga bildirmaydi. Biroq... biroq bu "attang" ko'p yillardan beri ich-etini yeydi; ichiga ham sig'maydi, bo'zlatadi! Keksargan sari avjiga oladi.

Bir gal oshnasi Esonboyga (ha, aytgancha, unda oqsoqol — oqsoqol bo'lmagan, el qatori Esonboy edi): "Zotimdan ko'krak kerib davraga kiradigan chiqarmikan?" degan. Oshna o'zini eshitmaganga olgan. "Chiqmaydi", deb Boziringning yana o'zi tirtg'algan. Esonboy esa boz ustiga tish yormagan. Chavandozning marsingisi, yigitlik davrini eslab maqtangisi kelgan, chog'i, bor gapni o'zi aytgan.

— Bo'z yigitligimda "chavandoz" deb nom ko'tardim. Elning oldidan o'tdim. Ko'p suluv qizlarning ko'ngliga g'ulu soldim.

— Ha, shunday bo'lganmidi, — deydi oshnasining guppayganidan zavqlangan Esonboy.

— Keksalar: "Tulpor — biyadan, alp — enadan! Polvon, kelinning durkunginasidan oling", desa, o'yin bilibman! Qo'zisinga, Qo'ziguliga oshiq bo'libman, — degan viqor bilan Boziringan.

— Otiyam Qo'zigulmidi? — deydi oshnasining battar zavq kelib.

— Shunday. Har zamonada zot-u palagimni o'ylaganda oti esimga kelmasa, yodimdan ham ko'tarila yozgan.

— Nega?

— Shu qalliq o'yinga borganimda ermaklamochi bo'lib otini so'ragandim, "Gunafsha" dedi ko'zlarini javdirab. Oldinlari har Gunafsha deganimda shu ko'zlarini ko'rgim kelardi. Keyin o'rganib qoldim.

— Ilgari bir podshoning arzandasi ham baqaning ko'ziga oshiq bo'lgan ekan, — deb o'zini tutolmay kuladi Esonboy.

— Bas, bo'ldi qil! — deydi kulgiga chiday olmay Boziringan.

— Bo'lmasa, nega shalviraysan! Oyparchasini olganingda yozig'ing boshqacha bo'lib qolarmidi? Devnikidek gavdangga, meshdek qorningga Qo'zining erkalgigi sig'mabdi. Oyparchaning erkalgigiga ulog'ib o'lar ekansan, chavandoz, — dedi oshna.

Shundan buyon Boziringan oshnasi Esonboy (yo'q, endi el tanigan Esonboy oqsoqol) bor davralarda yelkasini qisib o'tiradi. Bu gurning olis zamonda qolib ketganiga ishonmaydi. Oqsoqol gapirganda og'ziga termilib turadi. Xuddi uning qalliq o'yinga borganidan aytib qoladigandek tuyuladi. Kulganida-ku, ming o'lib-tiriladi. Bo'lmasa, oqsoqol og'ziga mahkam odam. Gurning bergani ko'rgan-kechirgani ham ko'p. Baribir, baribir chavandoz oshnasidan "aytib qo'yasmikan" deb cho'chiydi-qo'rqadi. Qo'rqayki, "Hayit langi haqidagi mataldek tus olsa nima bo'ladi", deb o'ylaydi-da!... Langi haqidagi matalni shu birgina Langi bilmasligiga farosati yetmaydi.

Kampirni chiqargan kuni yomg'ir aralash qor yog'di. Azada qari-qartangning ko'pi qatnashmadi. Qish o'z oti bilan qishda. Bir kun qor yog'sa, ikki kun qovoq soladi. Kun yilt etsa, Boziringandan ko'ngil so'rovchilar kelib-ketib turishadi.

Chavandoz o'zini shu paytgacha qirq yigitning biri chog'lab, keksalikni bo'yniga olmay kelardi. Mana, kampiri qaytish qilganidan beri ancha sezilib qoldi. Gardanini cho'zib gapirgandi. Qish o'chog'i tor keldi. Burniga suv kirib, maishati tang bo'lib qoldi. Tahorat olay desa, suv yo'q. O'zining aytishicha, "Ollo demoq oson bo'lmayapti". Bir kuni achchiq ustiga yax suvdan ishlatgandi. Tish og'rig'ini topdi. Sandalning bir kunjagida "Ixlos" ni zikr etib yotgandi, kun yumshagan ekan, jag'ini bog'lab hovliga chiqdi. Qarasa, obtova tarnovdan tushayotgan suv bilan to'lib

turibdi. Tovani olib, o'choq boshi tomon bordi. O'choqqa o't qalanmagan. Ammo tandirda o'chayozgan cho'g' — issiq kul bor ekan. "Obtobani qo'ysam, asrga tayyor bo'ladi", deb o'yladi. Tovani joylashtirguncha, tandirda bir kulchaning singa bo'lib pishib turganini ko'rdi. "Olamani", degandi, kulcha kulga tushdi. Keyin bag'rini tandirga bosib uzaldi, kulchani oldi. "Puf-puf" qilib kuldan tozalayotgandi, uning qilayotgan ishiga "hang-mang" bo'lib qarab turgan ikki kampirga ko'zi tushdi. Ularning tikilib turganidan xijolat bo'ldi. Nima qilarini bilmay, kulchani tandir ustida qoldirdi. Katta-katta qadam bosib tillaxonaga qarab yurdi. Kelini chiqib, kampilarga egalik qilmaguncha ko'zga ko'rinmadi.

Uyga kirdi. "Shu kunda kampilarga zarurmikan", dedi o'ziga o'zi. Xesh-aqablari orasida bunday qizargani yo'q. Qudalarining ichidan izladi, topmadi. Birini tanimadi, birini esladi. Jinjakkidan, Tashman oshnasining, shu o'zimiz bilgan Tashman tuyaning singlisi. Durkun qiz edi. Moyadek kampir bo'libdi.

Maydaqadam qorni chizgandek, gupillagan tuproqni chizib, changitib chaylaga yaqinlagan sari, tobora qishloqdan uzoqlashadi. Nevara olisdan chaylaga termilib keladi. Bobo ko'rinmaydi. Bola bunday payt o'z bilganicha o'yin qiladi. Eshakka teskari minib savalaydi. Choptirgisi keladi. Maydaqadam laqabiga munosib qolaveradi. Bola modaning ustida tik turadi. Qo'llarini langar qiladi. Bu ishidan ham ko'ngli to'lmay, qo'shiq xirgoyi qiladi: "Mingan oting bo'z bo'lsa..."

Bobo buning barini bilib yotadi. Har kuni uning kelishini intiq kutadi. Qo'shig'ini eshitish uchun to chaylaga yetguncha bosh ko'tarmaydi. Bolaning kelib bajaradigan birinchi ishi boboga "uzum" beradi. Keyin uyida asal bormi-yo'qmi, hisobga olmay, asal yeganidan gapiradi. Boboyam bo'sh kelmaydi. Tarvuz yo'qovun so'yib beradi. Doimgi gapini takrorlab qo'yadi: "Uzum"dan Eshchiga ham uzat, tili yorilsin!"

Chavandozning "Eshboyga til bitsa! Ota, uylanisizmi? deb so'rsa", deya o'ylab o'g'lining yo'lga tikilganida saraton tunlari uzun, tonglari olis bo'ldi. O'g'lini kuta-kuta ota qushuyqu bo'lib qoldi. Mana, ko'z yumsa uxlaydi, yutinsa uyg'onadi. Uxlaydi-uyg'onadi — uyg'onadi-uxlaydi...

Qani, endi unga til bitsa! Boziringning uylanish chog'i ham yo'q. Ammo shu odamlarning gap-so'zi bosilarmidi?! Gap-so'zi bosilmasayam mayliga! Shu momoqiz jussasidan domangir bo'lib ketmasmidi? Hech bo'lmasa, "Ostonam sovchi ko'rgan", deb o'zini ovutarmidi. Qani, endi Eshboy eshchi tish yorsa! Bu gapni dam'irdalik qilmay, chavandoz aytisa ham bo'ladi. Ammo Eshchini "Yurak betlab borolmaydi", deya xavotirlanadi. Gap uning o'zidan chiqsa, borishi mumkin. Chumchuq bo'lsa ham nari-ku!

Qani, Eshchiga til bitsa!

Bola kechagi, oldingi kungi, yo'q, avvalgi kungi bobo o'rgatgan: "Bedananing yotar joyi xas bo'lar, mezon kirsam, targ'il morlar mast bo'lar" qo'shig'ini aytmadi. Bobo: "Chol o'lsa, qozon-qozon osh bo'lar, kampir o'lsa, baland tog'lar past bo'lar", deb davom ettira olmay qoldi.

Nevaraning qo'shig'i bugun o'zgacha edi:

"... o'ng jilovi soz bo'lsa!". Bobo qo'shiqni davom ettira olmadi. Ammo olis yillar yodiga tushdi.

...Bola edi. Bobosining bo'z oti bo'lardi. Uni bobosi ana shu bo'z otga mindirib yetaklab yurardi. Boziringning otdan hech tushgisi kelmasdi. O'zi tushmaguncha bobo ham tushirmasdi... Boziringan chol bola edi...

— Buva, — dedi Maydaqadamdan tushmay bola.

Bobo jim yotaverdi. Takror-takror chaqirdi. Daf'atan, onasining: "Mezon o'tdi. Shu yotishi bo'lsa, itkasal buvang chaylada o'lib qoladi", deganini esladi. Chinqirib yig'lab yubordi. O'zini cholning ustiga tashladi.

— Buva-a-a!

## ULUG'BEK HAMDAM

1968-yilda Andijon viloyatida tug'ilgan. Toshkent davlat universiteti (hozirgi O'zMU) o'zbek filologiyasi fakultetini bitirgan. "Tangriga eltguvchi isyon" (2002), "Atirgul" (2006), "Seni kutdim" (2007) she'riy hamda "Yolg'izlik" (2000), "Muvozanat" (2003), "Isyon va itoat" (2004), "Sabo va Samandar", "Uzoqdagi Dilnura" (2010) nasriy asarlari nashr etilgan.

## BIR PIYOLA SUV

Menga vazifa yuklatilgan edi. Biroq nima uchun aynan men-ga? — bilmayman. Kim va qanday vaziyatda topshiriq berdi? — buni ham negadir eslay olmayman. Yodimda qolgani — nimadir ortilgan, ikkita ot qo'shilgan aravani shom tushgunga qadar manzilga eltishim zarur. Nega endi shomga qadar? Bu savolning javo-bi ham menga qorong'i... Yana "yo'lda chalg'imasang bas, yukni manzilga o'z vaqtida eson-omon eltasan", deyilgani hammasidan oshib tushdi: jumboqimsan jumboq!

Tavba, o'zimga ham qiziq bu ish. Shuncha zamonaviy ulov turganda, almisoqdan qolgan aravaga nima bor? Unga ortilgan yuk-chi? Nima u o'zi? Ustiga allaqanday matolar tashlangan, o'ralgan, chirmalgan. Ammo bori — shu. Ortig'ini istasam ham sizga aytolmayman.

Endi bosh ko'targan boboquyosh navqiron tanimga iliq nurlar-ini sochadi. Otlar bir maromda yo'rtib bormoqda. Ahyon-ahyonda jilovni qimirlatib qo'yaman, shuning o'zi farosatli hayvonlarga ki-foya — imillash yo'q. Namuncha esli bo'lmasa bular? — deymen o'zimga o'zim. — Xuddi vazifadan boxabardek! Tavba...

Avvaliga ovozimni baland qo'yib qo'shiq aytaman. Kuch-quvvatni tejash zarurligini payqabmi, beixtiyor xirgoyiga o'taman, bilgan-bilmagan qo'shiqlarimdan zamzama qilaman. Keyin

g'ing'illashga ora berib atrofga alanglayman, shu ko'yi yosh di-limni ovutishga chog'lanaman. Ufq'larga tutash kengliklar his-larimni junbishga keltiradi. Ichim to'la hayot, kuchim tanamga sig'may tevarakni titratib hayqiraman — "Uuu-luuu-uuu'!!" Sal o'tmay atrofdan aks sado qaytadi: "G'uuu-luuu-uuu-uuu'!!" Ilkis cho'chib tushaman, ichim muzlab ketadi. Saratonning issig'ida peshonandan sovuqdan sovuq ter quyiladi. Najot istab ko'zla-rimni yana atrofga olaman. Boshqa hayqirgim kelmaydi... Bir pas yurgach esa javonibdagi bir xil yo'l manzarasi-yu osudalikdan ze-rika boshlayman...

Bu orada kun yoyilib, olamni o'z og'ushiga ola boradi. Bir mahal ichimga o'rmlab kirgan chanoqni his qilaman. Tadbirga bosh uraman: yo'lning ikki betiga ko'z yugurtirib chashmami-bu-loqmi qidiraman. Lekin savil ha deganda topila qolmaydi. "Yo'l yuraman, yo'l yursam ham mo'l yuraman" — har holda men-ga shunday tuyuladi. Hammasiga bois chanoq'ildir, ehtimol. Aslida unchalik ko'p yo'l yurmagandirman. E-e, nima bo'lsayam mayli. Hozir buning muhokamasi emas, suv muhim, uni topishga qaratilgan o'y muhim. Qani endi bu qaqragan cho'l aro bir zilol-suvli quduqqa duch kelsam-u undan qonib-qonib ichib tashna-ligimni qondirsam. Aqalli bir piyola suv bo'lsayam roziydim. Bir piyola suv...

Quyoshning qiyomga kelishiga hali ancha bor — olazarak qa-rab-qarab qo'yaman. Faqat ko'k yuzida parcha-parcha bulutlar su-zib yuribdi. Sarsor solsam, otlarning yurishiga hamohangdek. Ya'ni ularning ustiga soya tashlab borayotgandek. Sal oldinda ikki-uch qush ham ajabtovur chug'urlashgancha uchib borishyapti. Esladim: ular safarimizning ibtidosidanoq hamrohimiz bo'lgan chiqdi. Ajabo!.. Bir pasda iyib-jo'shib ketdim. Axir butun borliq: yerda yo'l, o'rkach-o'rkach qumtepaliklar, ko'kda esa bulut va qushlar... hamma-hammasi menga ko'makdosh ekan, hech shubha yo'qki, uhdamdagi vazifani bekam-u ko'st bajargumdir! Aqlimga kelgan bu fikrdan olamni to'ldirib yana bir hayqirgim keldi-yu qo'rqdim: istagim boyagidek teskariga aylanib ketmasin tag'in...

Yoz emasmi, halitdan qizdirgani qizdirgan. Tashnalik jon-jonimdan o'tganda yo'l uzog'i chayqalib-jimirlab, halqob-halqob

suvg'a aylanadi: "saro-o-o-ob" deyman-u iztirob bilan tamshalanaman. "Shunchalar nodon bo'lamanni, — koyiyman o'zimni o'zim, — nega bittagina ko'zada suv olvolmadim? Axir yo'lga chiqayotganimni bilardim, boz ustiga jaziramada!"

Ichimga behuzurlik kirib najotni atrofdan izlay boshlashim bilan negadir aravamning maromiga ham putur yetdi: otlar sezilarli darajada sekinlashdi. Endi jilovni siltashni bas qilaman — boshust-larida bulutlardan shamsiya bo'lsa-da, issiqda boyaqish jonivorlar-ga ham jabr, deyman. O'zlari xohlaganicha tortib borishaversinchi, bir gap bo'lar — o'ylanaman. Ammo vaqt o'tgani sayin aravaga ortilgan yuk zalvor bosayotganini, ulovning g'ichirlab borayotgan g'ildiraklari tobora yovosh aylanayotganini ich-ichimdan sezaman. Bu yog'i necha pulga tushdi? — deb qo'yaman peshonamga toshib chiqqan reza-reza terni qo'limga oppoq durra bilan sirib artarkan.

Manzill... Eh-he, u hali juda olisda, ufqlarga yondosh sarhad-larga esh go'yo. Ammo menga bir tekisda harakatlansang, qosh qorayguncha mazgilga doriysan, shu yo'lning o'zi u yerga el-tadi, deb uqtirishgan. Men ham shunga ishonganman, chanqoqni aytmaganda, ishonchim hali-hamon bus-butun. Biroq chanqoq ham borgan sari zabtiga olar, ichimga anavi o'rkach-o'rkach qay-noq qumliklar ko'chib o'tayotganga o'xshardi.

Bir mahal uzoqdan sardobamonand nimadir ko'zga chalin-di. Boshda ko'pda umidlanmadim, zero sarobdan yurak oldirib qo'ygandim-da. Biroq yovuqlasham hamki, sardobaning qorasi o'chavermadi. Qaytaga tobora tiniq tortib, ko'z o'ngimda butun ma-hobati bilan yuksalib, qad ko'tardi. U — yo'l chetidagi kattakon karvonsaroy bo'lib chiqdi. Quvonganimdan otlarni qanday to'xtatib, aravadan qanday tushganimni-yu ko'z ochib yumguncha tabaqalari lang ochiq darvoza qarshisida qanday paydo bo'lganimni bilmay-man. Oh! Shu tobda menga hayot go'yo qaytib berilgandek edi..

Bo'sag'ada meni sarvqomat, ko'zlari ohunikini eslatadigan jonon qiz qirmizi dudoqlarida nim tabassum ila kutib oldi. Og'iz ochishga ulgurmasimdan nariroqda shildirab oqib turgan chash-maga ishora qildi. Chopib o'sha yerga o'zimni urdim. Qulog'i-ga — olib ketilmasligi uchun bo'lsa kerak, — ingichka zanjir

bog'langan munaqqash mis piyolani to'latib ichdim. Yutoqib-yutoqib simirdim. To'rt-besh piyola sipqoraman, deb o'ylagan-dim, yanglishgan ekanman, bir piyola kifoya qildi. Ajablандим. Baquvvat, yag'rindor yigit bo'lsam, yozning chillasida, qu-yoshning tig'ida subhi sodiqdan beri yo'l yurib obdan chanqagan esam-u qayoqdagi munchoqdek bir piyola suv bilan tashna-ligim tamoman qonsa?.. Hay mayli, bu gaplarni ham qo'yaylik. Muhimi, azoblarim barham topib, ko'zlarim yaraqlab ochildi. Vujudim orom olib, yo'l yurishga o'zimni yana tayyor sezdim. Keyin yuz-qo'l'imni yuvdim. Va, bas!..

Endi olg'a intilishim kerak! Bu yerda va umuman hech qa-yerda havallashim mumkin emas, og'ishmay manzil tomon yo'l yurishim shart! Menga shunday jiddiy bir vazifa tayinlangan, men ham sidqidildan qabul aylagan edim. Qabul aylamaganim-da safarga chiqmasdim, buniyam bilardim. Fursatni boy bermay yonimni kavlab aqcha chiqardim. Lekin mutavoze' qiz uni ol-may, qo'l ishorasi bilan ichkariga yo'lladi. Ya'ni u yoqqa borib to'lang, demoqchi bo'ldi. Men beixtiyor ichkariga odimladim. Eh-he! Qayerga kelib qoldim o'zi! Namuncha serhasham va mo'l-ko'l bo'lmasa biyobonning qoq o'rtasidagi bu go'sha! Odamni aytmay'sizmi, qaynaydi-ya qaynaydi! Chor tomondagi qo'shqavat-li imorat-u hovli sahni qaldirg'ochdek tizilib o'tirgan xo'randalar bilan to'la. Ularning nash'ali yuzlariga boqarkanman, havaslan-dim. Agar... agar mas'uliyatli vazifam bo'lmaganida men ham shu yerda qolardim, ulardek maishatga tolardim, deb suqlandim. Agar vazifam bo'lmaganida...

Bir zum kalovlanib qoldim: qayerga borib, kimga to'layman suv haqini?..

Ko'zim etakdagi, umumiy manzaradan panarodagi odamlarga tushdi: ular saf tortib turishardi. Ammo yuzlarida negadir shodlik alomatini ko'rmadim. Tavba-a-a, dedim tong qolib. Chunki tund qiyofalar bu yerdagi salobatga, dabdabaga, yeb-ichib, kayf-safo qilib o'tirgan kishilarning yalpi ko'tarinki kayfiyatiga uyg'un kel-masdi-da! Beixtiyor o'sha yoqqa yurdim: haq to'lanadigan tuynuk deganlari shu tomonda bo'lsa kerak — chamaladim. Xushxon va maston davralarni aylanib o'tarkanman, og'zimning suvi qochdi...



Voqean, menga kerakli bo'lgan joy shu yer chiqdi. Navbatga turishga turdim-u ichimga g'ulg'ula tushdi: nahotki, bir piyola suv haqini to'layman deb shuncha odamni poylasam, oltindek vaqtimni ko'klarga sovuksam? Axir mening vazifam bor edi, vazifam!.. Alanglab xizmat qilib yurgan laganbardorlarga, ko'rinishlaridan ma'muriyat xodimlariga o'xshagan olifta kishilarga umid bilan qaradim, hatto ikki-uchtasining oldigayam bordim, ne yoziqki, ular dardimni eshitishniyam xohlashmadi: hammasi sovuq bir tarzda tuynuk tarafni, u yerda qator turgan odamlarni ko'rsatishdi. Shundagina xo'randalarning holini, zabun kayfiyatlarini tushundim. Boyagi anglashilmovchilik tumandek tarqab ketdi. Indamay borib, quyruqqa tiqidim.

...Agar bilganimda, bir piyola suvni deb shuncha vaqt oyoqda tik turib kutishimni, vaqtimni suvlarga oqizishimni, vazifamni o'ylab vijdon azobida qolishimni oldindan sezganimda bu yerga kirarmidim? Aytishga oson, xolos. Aslida, toqatim toq bo'ldi. Qismatdoshlarim bilan dardlashaman, deya og'iz ochaman-u javob ololmayman. Hammasining og'zida talqoni bormi? — o'ylanaman. Yo bari soqovmi?..

Qoqilgan qoziqdek tik turaverish jonga tegadi. Oyoqlarga bir zum dam berish uchun cho'kkalayman, ko'p o'tmay esa tizzalarim uyushib chor-nochor qo'zg'alaman. Endi mening ham gaplashishga na hushim-u na kuchim qoladi... Shunda men ham safda turganlarning bittasiga aylanganimni alam bilan his qilaman: soqov va gung bo'lib olaman... Shu ko'yi sahnada o'tirganlar-u navbatda tik turganlarga azmoyish-la qarayman: hayhot! — bu yerga kirayotganda hammaning ko'zlarida umid va quvonch charaqlardiyu, chiqayotganda esa o'kinch va malol yolqinlardi. Qatorda turarkan, sahna va qo'shqavatda yastanib olgancha ko'ngilxushlik qilayotganlarga endi achinish bilan boqaman. Qaniydi bir pasdan keyingi hollarini ko'ra-bilsaydilar, deyman... ichimda...

Vaqt aylandi, men atrofni kuzatishdan ham charchadim. Cho'kka tushgan ko'yi ko'zlarimni yumdim. Lahza o'tmay vujudimda yana tanish tashmalik o'rmlay boshladi — yarq etib ko'zlarimni ochdim! Vo darig', bu nimasi? Men chanqog'imni boshish uchun bir piyola suv sipqordim-u, uning haqini to'lash uchun

sirada turarkan, tag'in suvsadimmi?!.. Tushib qolgan holimga maymunlar yig'laydigan edi. Lekin navbatni tark etib, yana o'sha chashmaning boshiga borib suv ichishga botinmasdim: axir, siram qo'ldan ketadi. Axir, navbatda turgan odamlar izdihomining na boshi, na oxiri ko'rinadi!.. Shu yerda ham o'z o'ringga ega bo'lishing kerakligi meni jinni qilayozdi... Shunday ekan, navbatdan chiqishga kimning ham yuragi dov berardi? Tishimni tishimga bosib kutishda davom etdim...

G'oyat imillab oldinga harakatlanayotgan safda ba'zan xud, ba'zan bexud edim. Goh hushimga kelib, oldindagi safdoshimni turtib yurishga undasam, goh issiq va tashnalikdan, zo'riqish va diqqinafaslikdan ne ko'ylarga tushganimni bilmay alahsaganimda, izimdan kelayotgan sho'rlik meni nuqib harakatlanishga undardi... Shu tarzda qancha fursat kechdi? — bilmayman. Yelkamdan biroq qattiq itardi, o'zimga kelib ko'zimni ochib qarasam, tuyenkning shundoq ro'parasidaman! Oh, deb yubordim beixtiyor. Azza-bazza kissamdan pul chiqarib g'aznachiga uzatdim-da, shoshib u yerdan uzoqlashdim...

Odim otarkanman, negadir vujudimda lohaslik, charchoq sezardim. Qadamlarim ham negadir bu yerga ilk kirganimdagidek dadil emas, allaqanday og'ir, kuchsiz va hafsalasiz... lekin nega? Yo shunchalar uzoq vaqt qolib ketdimmi bu yerda: toliqdimmi, ezildimmi?..

Ammo, bular nima degan gap? Axir navbatdan qutuldim-ku! Tashqariga eson-omon chiqib olganimdan sevinchim ichimga sig'masdi, hadeb ko'kka sakragim kelardi. Shu mahal allaqanday g'ayrishiuriy zavq ila sezib qoldimki, vujudim bu ishga qodir emas! Hayron bo'lib qo'l-oyoqlarimga qaradim: yo Parvardigor! Bu nimasi!? Qanday joduga uchradim men? Kirganimda yoshlik shijoati ufurib, tiyiqsiz kuch-quvvatga to'lgan tanim tirishib, eti ustixoniga yopishib qolgan, suyaklar teridan bo'rtib chiqib turar, juda-juda mo'rt va quvvatsiz tuyulardi. Angrayib, og'zim ochilgancha atrofga ko'mak ilinjida boqdim va... va ko'zlarim yana o'sha eshikbon qizga tushdi! Tushdi-yu, lol-u hayronligim ming chandon ortdi: qiz men kirayotganda qanday zirillama yosh va loabar bo'lgan bo'lsa, hozir ham o'shandog'icha turar, qirmizi

lablaridagi nimitabassum bilan tashnalarni ichkariga tinmay chorlar, tashrifchilarning bo'lsa keti uzilmasdi... Darvoqe, nazarimda bironta arava ham karvonsaroyini chetlab o'tib ketmayotgandek, aksincha, bari-barchasi to'xtab, ulardan sakrab tushayotgan aravakashlar o'laman sattor deyarчасiga o'zlarini yosh qiz ko'rsatayotgan o'sha chashmaga, uning bir piyolagina suviga urayotgan-dek edi...

Boshim aylanib, gandraklab yuztuban yiqildim. Ko'zimga, og'zimga tuproq kirdi. Negadir u iliq edi. Lablarim yorildi, shekilli, achisha boshladi. Yotgan ko'yi surindim, paypaslandim. Ittifoqo, barmoqlarim tayoqni his qildi: mahkam tutib, suyanib dol qaddimni rostlashga urindim. Yuz-ko'zlarimni artib, qoboqlarimni ochdim: qarshimda arava turardi. Lop etib hammasi yodimga tushdi. Axir... axir mening vazifam bormasmidi, juda muhim topshiriq bilan yo'lga tushmaganmidim! Keyin... keyin to'satdan qosh qorayganini payqab, dahshatdan kesakday qotdim: hammasi sob bo'ldimi?! O'z zimmamga yuklatilgan muqaddas vazifani udalalayolmay dog'da qoldimmi?!.. deya baqirmoqchi bo'ldim... lekin ovozim chiqmadi, ammo hayqiriq miyamda portlaganini aniq his qildim...

Hassaga tayana-tayana, bir-bir bosib aravaga yaqinlashib, hasrat-la unga suyandim. Shunda o'mganim, yonboshim jiqqa ho'l bo'lganini sezib, tislendim-da ko'zlarimni yirib aravaga qaradim: undan yerga suv sizar-u tuproq betida kichik bir ko'lmakcha hosil qilgan edi. Ajablandim, bor madorimni to'plab, arava ustiga yopilgan matoni qaltiroq, ramaqijon qo'llarim bilan tirmalab ochdim... Evoh, shu choqqacha boshimga tushgan ajabtovur voqealar bir yon-u bunisi bir yon bo'ldi: ne ko'z bilan ko'rayki, aravaning ichida suv to'la ko'zalar qator tizilishib turar, ulardan bittasi yiqilib singan-u suvi quyiga — asriy tashna qumliklarga chak-chak tovardi...

## QO'CHQOR NORQOBIL

1968-yilda Surxondaryo viloyatining Oltinsoy tumanidagi Mo'minko'l qishlog'ida tug'ilgan. Toshkent davlat universitetini tugatgan. "Daryo ortidagi yig'i" (1994), "O'n sakkizga kirmagan men bor" (2002), "Kulib tur, azim" (2005), "Quyoshni kim uyg'otadi?" singari nasriy hamda "Xosiyatli dunyo" (1992), "Kaftimdagi qizg'aldoq" (1993) she'riy to'plamlari nashr etilgan. 2001-yilda "O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan jurnalist" unvoni berilgan.

## OQIBAT DARAXTI

Chol tushimga kirdi. Yelkasiga xurjun ilgan o'sha chol. Sira tushimga kirmacdi, tavba. Ko'nglim g'ashlandi, bezovta bo'lib uyg'ondim.

Nonushta payti kichik qizim tunov kun bergan va'damni yodimga soldi:

- Dadajon, bugun shanba-ya? Ishga bormaysiz, to'g'rimi... Esingizdami?

- Esimda.

- Chimyonga boramizmi?

- Yo'q. Chimyondanam chiroyli, ajoyib joy bor. O'sha yoqqa boramiz.

Mashina chaqirdim. Xotinim va ikki qizimni olib yo'lga tushdim.

- Dovonga hayda, Azamat, - dedim haydovchimga.

Katta qizim chapak chalib yubordi:

- Yashasin, dadajonim! Buvimnikiga borarkanmiz.

- Dovon etagidan qaytamiz.

Qizlarim bir-biriga ajabsinib qarashdi. Xotinim angraydi:

- Dovon etagida nima qilamiz?

O'rinli, ayni damda bemavrid savoldan ensam qotdi, ammo sezdirmadim.

- Bormasak bo'lmaydi.

Bolarim nafasini ichga yutishdi.

Tog'ning qoq belida tasmaday tortilgan yo'ldan cho'qqiga qo'nib turgan quyoshga qarab o'rmaymiz. Pastda, tog' yon bag'rida barq urgan sariq, ko'k, och pushti, xullas, turli-tuman gullar, lolaqizg'aldoqlar ustini qoplagan bulutlarning harir libosini hali tong shamoli sidirib olib tashlamagan. Manzarani ko'ring-ey. Hissiyotning tiliga so'z malol keladi. Hissiyotning tili - zavql! Mo'jizani agar faqat Yaratganga nisbat berib aytsak, Xudoyimning mo'jizasi - shu!

Orqa o'rindiqqa o'girilib qaradim. Ahli oilam chehrasiga ham quyoshning tabassumi ingan.

Mashina nishablikdan enib, yo'lning shundoq o'ng tomonidagi yalanglikda to'xtadi. Ichimda og'riq turdi, yuragim uvushganday bo'ldi. Vujudim titrab, gandiriklagan ko'yi yalanglik chetiga qaradim.

- Yetib keldik, tushamiz.

Tog' biqinidagi yalanglikda tizza bo'yi qulf urgan o'to'lanlar o'tkir, dimoqni yorar darajada bo'y taratadi. Yalanglik girdida, jar yoqasida novdalari falakka qo'l tashlab bir tup tol o'sayapti. Uning orqa tomonida hilpirayotgan yashil bayroqlarday tizilgan tol ko'chatlari bir chaqirim masofada saf tortishgan.

Tol tagiga keldim. Tizzalab o'tirdim. Bo'z bolaning beliday keladigan tol tanasini siypaladim. Borlig'imni titroq chulg'adi. Ammo ko'p o'tmay o'zimni yengil his etdim, ichimdagi bor gardag'ubor tarqab ketgandek, ko'nglim taskin topa boshladi. Ruhim bahor havosiday yengil tortdi. Mashina yonida chehrasida hayrat-u hasrat alomati zohir xotinim bilan xijolatli alpozda qo'lida to'shasma tutgan Azamat kelishga botinolmay tik qotgan. Qizlar qiy-chuv qilib, chopqillab gul-chechak terishmoqda.

Hali novdalari yashillikka burkanib ulgurmagan tol tagiga to'shak to'shaldi.

- Dadasi, nega bu yerga keldik?

- Sayr-u sayohat bu, sayr-u sayohat! Atrofga qara, qanday chiroyli, tog' havosi, gul-u chamanzor. Suratga tushinglar. Bolalar bilan mazza qilib aylaninglar. Birozdan so'ng qaytamiz.

- G'alati qiliqlaringiz bor-a? - xotinim Azamatning oldida o'ng'aysiz ahvolda qolganini yashirmadi. Azamat nigohi bilan yer chizdi, o'laning kunidan iljaygandek bo'ldi, lekin uning ko'nglidan o'tganini ham sezib turibman...

- Azamat, mana endi, manavi toldan ketmondasta uchun bilakday-bilakday qilib ikkita novdasini kesib ol.

Azamat bir qalqib tushdi:

- Yo'g'-ey, qo'y-ing-e, kerakmas.

Xotin yana bir bor g'alati qarash qildi-da, qizlarim tomon yurdi.

- Aytganimni qil. Yukxonaga arra ham solganman. Bor, opke!

Kapaday bo'lib bo'y cho'zgan sershox, sernovda tol tagida uzatla tushdim. Ninachiqanot och-yashil nishurdilar bo'rtib chiqqan egik xivchinlar shabadada sollanib roz aytayotganga o'xshaydi. Men tolning qo'shig'ini tinglayman, tol meni sog'inganini, meni kutganini his qilaman.

\* \* \*

... Bundan ancha yillar oldin... Tahririyatga bosh rahbar bo'lib tayinlanganman. O'zimcha ko'p ishlar, ko'p yangiliklar qilgim, o'zimni ko'rsatgim keladi. Mustaqil yurtimiz oyoqqa turib, endi o'zini o'nglab olayotgan damlar. Fidoyi zamondoshlar, mehnati be-minnat kamtarin xalqimiz hayoti haqida turkum ocherklar yozishni niyat qildim. Ana shunday muddaoga esh safarlarning biri vodiya bo'ldi.

Bugungiday erta tongdan yo'lga tushdim. Dovon yo'li hozirgiday obod emasdi. "Yo'l azobi - go'r azobi" degani shu. Dovonning baland nuqtasidan pastlayotib mana shu yalanglikning qoq o'rtasida eshakka ortilgan xurjuni tushirolmay kuymalanayotgan cholga ko'zim tushdi: chol, harchand urinmasin, ikki ko'zi allambaloga liq to'la xurjuni tushirolmay ovora edi.

- Mashinani to'xtat! Orqaga ol, - dedim haydovchiga.

Ulovdan tushdik. Azamat ortimdan ergashdi.

- Assalomu alaykum, ota! Hormang, yordamlashib yuboraylikmi?

Tang-u tajangroq bo'p turgan chol bosh irg'adi.

- Bolam, kuch-quvvat ketsa, shunday bo'larkan, - dedi siniq jilmayib.

- Otaxon, bu nima?

- Nima bo'lardi, bolam, qalamcha, tol qalamchalari. Jar yoqasiga ekmoqchiman.

Atrof tog'-u tosh. Uy-puy ko'rinmaydi. Chol bu yerga qayerdan keldi, degan o'y o'tdi xayolimdan.

- Ota, shu atrofda yashaysizmi?

- Huv anavi tog' ortidan keldim, bolam. Yo'l cheti quruq turmasin, deb manavilarni qadamoqchiman. Baraka topinglar, endi xurjunni chetga olib borib beringlar.

Azamat ikkimiz zil-zambil xurjunning ikki ko'zidan zo'rg'a ko'tarib yalanglik cheti - jar yoqasiga eltdik. Chol eshak jabdug'iga qistirilgan bilakday keladigan bitta tol novda hamda belkurakni olib keldi. Eni-chuqurligi ikki qarich keladigan chuqurcha qazib, novdani ko'mdi.

- Ota, shu ildiz oladi, tol bo'ladi, deysizmi?

- Oladi bolam, oladi, tol degani beor narsa. U tugul manovi qalamchalar ham ikki-uch yilda odam bo'yi bo'ladi. Tog'da qishin-yozin namgarchilik. Tez iladi.

- So'raganning aybi yo'q. Necha yoshga kirdingiz? Farzandlar, o'g'il-qizlar deganday...

- Xudoga shukur, to'rt kam saksondaman. Uch o'g'il, bir qiz, nevara-chevaralar ham shunga yarasha...

Chol jilmaydi. Savolim tagidagi savolni angladi choli tushmagur:

- O'g'illarim sizga nima zaril, deb urishadi, uyda tinch o'tirsin deyshadi-da, meni avaylagan bo'lishadi. Ularga bildirmay kelaman. Huv tepalikka bultur yong'oq, o'rik, gilos ekdim. O'tgan yili yo'l boshiga tog' olma, tut ko'chati ekdim.

- Ota, men siz haqingizda, Xudo xohlasa, yaxshi bir ocherk yozaman. Sizing bu xayrli ishlaringiz biz yoshlar uchun bir umrlik ibrat, - dedim.

Cholning chehrasida allaqanday joziba zohir edi, ayniqsa, ajinlari yoyilib jilmayganda, kishini o'ziga rom etib, qalbda iliq bir mehr tovlanardi.

- Endi, otaxon, Xudo xohlasa, bu qalamchalar bir kun kelib ancha-muncha pul bo'ladida-a?!

Azamatning manglaydan urganday qilib aytgan gapidan hushim uchdi. Hang-u-mang bo'ldim. Yer yorilmadi-yu, yerga kirib ketmadim.

- Bunisini bilmadim, bolam. Bunisini o'ylamadim, - chol yana jilmaydi.

Azamatga o'qrayib qaradim. Chol bilan xayrlashib, o'zimni mashina o'rindig'iga tashladim: "Ey, farosatingga o't tushgur... Nodon! Har kallada har fikr..."

Bir mahal Azamat kelib mashinaning yukxonasini ochayapti. Qo'lida haligi odam bo'yi keladigan tol novdasi. Jon-ponim chiqib ketdi:

- Hay, tentak! Buni nega opkelding. Kallang bormi?

Azamat dovdirab qoldi:

- Choldan so'rab oldim. Dachangizdagi bog'bon ketmondasta so'rayotuvdi.

- Hey... Seni... Obor, joyiga ekib qo'y!

O'shanda e'tiborsizlik qilib, cholning ismini ham, qaysi qishloqdan ekanini ham so'ramabman. Cholga yolg'onchi bo'lganim ham, u haqida ocherk tugul tuzukroq maqola, to'rt qator xabar ham yozolmaganim chin.

Shunaqa gaplar... Bu gaplarga o'n yillar bo'ldi. Dovondan o'tgan-qaytganda ba'zida yalanglik chetida gurkirab o'sayotgan o'sha bir tup sershox tol va ko'kka bo'y cho'zib shovullagan yosh tollar safiga ko'zim tushadi. Goho nimalargadir chalg'ib, xayol bilan beparvo o'tib ketaman. To'g'risi, keyingi yillarda yalanglikdagi yashil soqchilar ham, chol ham xayolimdan ko'tarilib ketgan ekan. Ammo yozig'imga bitilgan bir voqea sabab bu manzil men uchun chindan aziz joyga aylanib qoldi.

Shu yil qahraton qishda, tushdan so'ng vodiya qarab yo'lga tushdik. Yaqin do'stim to'y qilayapti. Bormaslikning iloji yo'q. Baxtga qarshi qor bo'ralab urayapti, deng. Izallagan izg'irin. Yo'lning tog' soya solgan nishab joylari yaxmalak, muz qotgan. To'yning avj paytida yetib borishni mo'ljalladim. "Nima bo'lsa bo'ldi, bos, yetamiz", - dedim haydovchiga. Dovonga o'rlayotgan chog'imizda qor yanada tezlashdi. Oynasupurgi old oynaga urilayotgan qorni tozalab ulgurilmaydi. Mashina chiroqlari nuri bo'ron to'zg'itgan qor zar-

ralarini zo'rg'a kesib o'tadi, yo'l ko'rinmaydi, borliq qor quyuni ichra g'arq bo'lgan go'yo. Nishablikdan shitob bilan tushib borayapmiz. Qor bo'roni avjiga olgan olaquyun-oqtoyoq ichida tuyqus ro'paramizda xira yog'du sochgan bir juft chiroq ko'rindi. Qarshimizdagi qanaqa ulov ekanini bilmadim, chetga chiqib bizga yo'l beray demaydi. Unga borib urilishimizga bir bahya qoldi, haydovchi shart tormoz bosib, mashinani chetga burdi. Yo'l nishablik, buning ustiga toyg'inchoq emasmi, mashina turgan joyida yelparrakday chirpirak bo'lib aylandi, to'xtamaydi, jon-ponim chiqib ketdi. "Tamom, yo'ldan chiqib jarlikka qulab, yo'q bo'lib ketamiz", - degan o'y bir soniyada xayolimni chaqmoqday tilib o'tdi. Qancha payt chirillab aylandik, bilmayman, mashina yoni bilan nimagadir urilib taqqa to'xtadi. Mashina ichidan otilib chiqdim. A'zoyi-badanim qalt-qalt titrab, tanamda jon qolmadi. Qor ko'z ochirmay urayapti. Izg'irin. Haydovchi qo'rquvdan karaxt, mashina chamberagiga yopishgan ko'yi tosh bo'lib qotib turibdi, qilt etmaydi. Old eshikni ochib, uni tushirib oldim. Yuziga qor ishqab o'ziga keltirdim. Mashina tubsiz jarlik yoqasida o'sgan daraxtga yoni bilan taqalib turar, tubsiz o'pdon zulmatidan bizni mana shu daraxt asrab qolgandi. Uvullagan qorquyun qo'ynida qo'lchiroqni yoqib atrofga nazar tashladim. Qorbo'ronda chayqalib turgan qator tollarga ko'zim tushdi. So'ng... so'ng chiroqni yana mashinaga qaratdim. A'zoyi badanim qaltirab, bo'g'zimga nimadir tiqildi. Oyog'imdan darmon ketib yerga o'tirib qoldim. Dimog'im achishib, ko'zimdan yosh sizdi.

- Azamat, - dedim o'tirgan ko'yi, - Azamat, - dedim behol pichirlab. - Azamat, qayerdaligimizni bilayapsanmi, Azamat?

- Bildim, xo'jayin, bildim, - dedi Azamat ham xirillagan ohangda. - Biz, esingdami, haligi chol ekanan tollarning qarshisida turibmiz. - Esimda...

- Bilgan bo'lsang, bizni shu bir tup tol o'limdan saqlab qoldi. Buniyam bildingmi, Azamat? Sen ketmondasta qilaman, deb sug'urib oluvding. Buniyam eslaysanmi, Azamat.

- Eslayman, xo'jayin, eslayman...

- Azamat, ke, yonimga o'tir, duo qilaylik. Biz cholga duch kelganda u saksonni qoralab qolgandi. Otiniyam, manzil-makoniniyam bilmaymiz. Tirik bo'lsa, qatordan xato bo'lmasin, o'tgan bo'lsa, oxirati obod bo'lsin...

Men bu gaplarni aytayotgan mahalda Azamat ham yonimga kelib cho'kkaladi. Sovuqdanmi yo'qo'rquv asoratimi, qalt-qalt titrayapti, yelkasi uchib-uchib tushayapti, yo'q, yig'layapti.

\* \* \*

... Xayolga berilibman. Ha, shu voqealar ko'rgan tushim sabab bir-bir xayolimdan o'tdi. O'zim o'zim bilan bo'lib, tepamda arra ko'tarib turgan Azamatga e'tibor ham bermabman.

- Nega qaqqayib turibsan, Azamat?

- Nima qilay, mana, arra? - talmovsiradi u.

- Nima qilarding, anavi toldan to'g'ri o'sgan ikkita novdani topib kes. Kesaver. Ketmondasta qilamiz, - deya kesatdim.

Azamat taysallanib turdi.

Qizlarim yalanglikda qiy-chuv ko'tarib tog' gullarini terishyapti. Gohida kapalak yoki tillaqo'ng'iz ortidan quvlab qolishadi.

Azamat tol novdalarini mashina yukxonasiga joyladi. Men tol tagida uzala tushib biroz mizg'imoqchi bo'ldim. Yonimga kelib o'tirgan xotinning ajabsingan chehrasiga parvo qilmadim. U yuzimga sinchiklab tikildi.

- Erinmagan odamsiz-a? Sizni tushunish qiyin. Lekin, baribir toqqa chiqqanimiz yaxshi bo'ldi. Qizlaringiz mazza qilishayapti. Qachon qaytamiz?

Xotinim yalanglikni boshiga ko'tarib qiyqirib chopqillayotgan qizaloqlarga mehr bilan qarab turibdi.

- Birpas mizg'ib olay, so'ngra qaytamiz.

Oftob qiyalagan mahal yo'lga tushdik. Xotinimning hamon menga xavotiru hadik bilan qarab-qarab qo'yayotganini sezdim. Mashina oynasidan tepamizdagi cho'qqiga nazar tashladim. Bulutlarga san-chilgan cho'qqidan atrofga nur taralardi. Oniy holatda cho'qqi yonida harir oq libosli bir chol ko'ringanday bo'ldi. Cholning jilmayib turgan nurli chehrasini aniq-tiniq ko'rdim. Bu o'sha, menga bundan o'n yil avval uchragan nuroniy chol edi. Men bu hol-u hodisani sharhu izoh etib berolmayman. Vujudim jimirlab, ruhim yorishib ketganini his qildim. So'ng ko'zlarimni yumib oldim.

... Uyga kelib, bog' hovli eshigi yoniga Azamat kesib olgan tol novdalarni qadadim.

da qishloq oralab, itlarga yem bo'ldi. Boyoqishlarning mo'ynasi odamlarning boshiga telpak, egniga po'stin bo'ldi.

Qari tulki bir muddat sukut saqlab, gaplari qavmiga qanday ta'sir qilganini bilmogchidek zimdan ularga nazar soldi. Semiz tulkilar xo'rsinib, ori q tulkilar chiyilladi.

- Ko'z tegmasin, hozir hayotimiz farovon. Odamlar tovuqqa qanoat qilmay, uyida quyon, bedana va yana allaqanday parrandalarni boqaypti. Kecha nabiram qishloqdan qafasga solingan g'alati qushni ko'tarib kelibdi. Yuzi ukkinikiday taypoq, ko'zlari chaqchaygan, ora-sira yoqimsiz sayrab qo'yadi. Nimaligini bilolmadik, lekin qurg'urning go'shti shirin ekan.

Davrada kulgi yangradi. Keksa tulki birdan jiddiy tortdi. O'lja isini olgandek irkit tumshug'ini oldinga cho'zib, junlari hurpaydi. Uning vajohatini ko'rib tulkilarning nafasi ichiga tushib ketdi.

- To'g'ri, qornimiz to'q, g'amimiz yo'q. Lekin biz qachongacha faqat qursoq tashvishi bilan yashaymiz? Hammadan aqlimiz deb kerilamiz-u, izzat-nafsimiz haqida o'ylashni unutib qo'ydik!

Mashvarat ahli bunday jumboqli malomatning mag'zini chaqolmay angrayib qoldi.

- Mana, o'n ikki yillik muchal hisobida to'ng'iz, maymun, ilon, chayon, sigir, quyon va hatto anavi tovuqmiya tuxumbosarlarga ham joy berilgan, lekin oliynasab tulkilarga o'rin ajratilmagan. Birontangiz shu haqda o'ylab ko'rdingizmi?

Qarang, bunday ko'z ko'rib, quloq eshitmagan adolatsizlik shu choqqacha hech bir Tulkining xayoliga kelmagan ekan. Yag'ir tulkining aqliga tasanno!

Avvaliga davraga suv quygandek sukunat cho'kdi, so'ng kuchli g'ala-g'ovur qo'pdi. Ulkan emanning shoxida mudrab o'tirgan qarag'aning o'takasi yorilib, qag'illagancha osmonga uchdi.

Junbishga kelgan tulkilar alam bilan bir-biriga gap uqtirardi:

- Nega tulki yili yo'q?

- Sho'rimiz qursin, xarob bo'pmiz!

- Tovuqcha qadrimiz yo'qmi?

- La'nati tuxumbosarlarni bitta qo'yamay yeb bitirish kerak!

- Quyonlarni ham...

## G'AFUR SHERMUHAMMAD

1973-yilda Qashqadaryo viloyatining Chiroqchi tumani, Uymovut qishlog'ida tug'ilgan. Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universitetini tugatgan. "Saman toy" (2012), "Langartog' yo'lida" (2016) kabi nasriy to'plamlari chop etilgan. "Quduq tubidagi faryod" (1999), "Pariqishloq afsonasi", "Ko'zlarida xoli bor" (2005) kabi sahna asarlari respublikamiz teatrlarida sahnalashtirilgan. "Chavandoz" (2008), "Arosat" (2009), "Ta'ziyadagi to'y" (2010), "Quduq" (2014), "Barakasini bersin" (2015) kabi badiiy filmlar ssenariy muallifi. "Shuhrat" medali bilan taqdirlangan (2021).

## ARSLON YILI

Bu voqea tovuq yili arafasida allaqaysi o'rmonda yuz berdi. Kutilmaganda kekxa tulki barcha qavmdoshlarini ulkan eman ostiga mashvaratga chorladi.

Tungi ovdan so'ng issiqqina inida beg'am-betashvish yalpayib yotgan tulkilar istar-istamas aytilgan manzilga yo'l oldi. Bir zumda emanning atrofida tumonat tulki yig'ildi.

Yaqinda qor yog'ib o'tgan, kun juda sovuq edi. Katta-kichik, ori q-semiz, kulrang-malla tulkilar hech narsaga tushunolmay, no-rozi qiyofada shumshayib turardi.

Qarib, qo'tir po'stakkdan farqi qolmagan kulrang Tulkining o'z qavmi orasida hurmati baland edi. U hassasini sudrab davraga chiqardi-da, shilpiq ko'zlarini osmonga qadagan ko'yi palag'da tovushda gap boshladi:

- Men shu yoshga kirguncha hayotda ko'p qiyinchiliklarni ko'rdim. Ochdan o'lmaslik uchun qo'ng'iz, chigirtka yegan paytlarimiz bo'ldi. Ne-ne g'aybar tulkilar bola-chaqa boqish ilinj-

Qiziqqonroq tulkilar g'ussali ohangda cho'zib-cho'zib akilladi. Bittasi hatto alamiga chidolmay paxmoq dumini g'archillatib tishlab ham oldi.

Keksa tulki qo'lidagi asoni baland ko'targach, ehtiroslar biroz bosilganday bo'ldi.

– Keyingi paytlarda o'rmon qonunlari butkul o'zgarib ketdi. Hamma hayvonlar bizga taqlid qilayapti. Sichqondan tortib, filgacha bir-birini aldashga tirishadi. Tulkilikni eplagani yaxshi yashayapti, eplolmaganining sho'riga sho'rva to'kilayapti.

– To'g'ri, o'rmonda tulkitabiat maxluqlar ko'payib ketdi, – deya luqma tashladi kimdir.

– Baribir hech kim mug'ombirlikda bizga teng kelolmaydi... – Donishmand tulki ko'ksoddek uzoq yo'taldi-da, gapini uzilib qolgan joyidan davom ettirdi. – Tulki yilida tug'ilganlar tabiatan ustomon, abjir bo'ladi. Bunday xislatga ega jonivorlar qancha ko'pay-sa, shuncha yaxshi. Gapning qisqasi, biz o'zimizning huquqimizni talab qilishimiz kerak.

Ulkan eman ostidagi g'aroyib yig'in ancha vaqt davom etdi. Quyosh botib, kechki ayoz zabtiga ola boshlagach, tulkilar bir qatorga kelib, in-imiga tarqaldi.

Shundan so'ng tez orada o'rmondagi oliymaqom mahkamaga muchal hisobini butunlay o'zgartirish va undagi tovuq yilini tulkilarga bo'shatib berish haqida qat'iy talabnoma kelib tushdi.

Aslida yuqori idoralarda bunday asossiz da'volarni inobatsiz qoldirsa ham bo'laveradi. Biroq mazkur o'rmonda barcha hayvonlar teng huquqlidir, degan adolatli tartib-qoida o'rnatilgan edi. Shuning uchun tulkilarning arznomasi qaysidir rasmiyatchi to'ra-ning g'aladonida chang bosib qolib ketgani yo'q.

O'rmon qonunlarining rioyasiga mas'ul bo'lgan Ayiq va Bo'ri ko'p yillik namunali faoliyati davomida bunaqa bemaiza talabga duch kelmagan edi. Ular tulkilarning surbetligidan juda xafa bo'lishdi. Ancha davom etgan mulohazalardan so'ng kekxa tulkinining yaxshilab aqlini kiritib qo'yish kerak degan to'xtamga kelishdi.

Ertasi kuni Keksa tulki mahakamada hozir-u nozir bo'ldi. Mavjud qonunlarimiz muchal hisobini o'zgartirish huquqini bermaydi, – dedi Bo'ri unga sovuq tikilib. – Hayotda qonundan

baland turadigan qadriyatlar bor. Ularni buzishga hech kimning haqqi yo'q!

– Men har qanday yangilikka qarshiman, – dedi mahkamaning moliya noziri Yo'lbars. – Chunki bu ortiqcha sarf-xarajatlarga sabab bo'ladi.

– Shu yoshingizda sizga shu ishlar yarashadimi, oqsoqol, – dedi Ayiq ulkan boshini sarak-sarak qilib. – Undan ko'ra, yoshlarga o'git-nasihat qilib, to'g'ri yo'lga boshlasangiz yaxshi bo'lardi.

Mahkama xodimlari biri olib, biri qo'yib kekxa tulkinining rosa po'stagini qoqishdi. Anchadan so'ng ular fitnakor qariyani tavbasiga tayantirdik, degan xayolda jim bo'lishdi.

– Xo'sh, o'zingiz nima deysiz, oqsoqol? – so'radi Ayiq kelgandan beri mum tishlab o'tirgan kekxa tulkidan. U hassasiga tayanib o'rmondan turdi.

– Gaplaringiz juda bama'ni. Sizlarning sharofatingiz bilan ba'zi xatolarimni tushunib yetdim, – dedi kekxa tulki. Mahkama xodimlari bir-biriga zimdan mamnun qarab qo'yishdi. – Lekin mendek qarib, miyasi suyilib qolgan qariyaga bitta savol hech tinchlik bermaydi. Shunga ham javob topib bersangiz, sizlardan minnatdor bo'lar edim.

– Qanaqa savol ekan? – dedi Bo'ri tumshug'iga qo'ndirilgan ko'zoynagi ustidan unga mensimagandek qarab qo'yib.

– O'rmonimiz hukmdori Arslon janobi oliylarini hammangiz hurmat qilasiz, to'g'rimi?

– U kishini hurmat qilmagan jonzotning bu o'rmonda yashashga haqqi yo'q! – dedi davraning to'rida savlat to'kib o'tirgan Yo'lbars “shuyam savol bo'ldimi?” degandek ensasi qotib. – Agar kimdir hukmdorimizga osiylik qilsa, qarshisida meni ko'radi!

– Barakalla, – dedi Keksa tulki. – Lekin nima uchun yo'l bosh-chimiz Arslonning muborak nomi muchal hisobiga kiritilmagan?

Mahkama ulug'lari bunday savolni kutmagan edi, shuning uchun hammasining nafasi ichiga tushib ketdi.

– Muchal hisobida Yo'lbars yili bor, lekin Arslon yili yo'q! – Keksa tulki tahdidli ohangda Yo'lbarsni sensirashga o'tdi. – Qani, xo'sh? Shumi sening hukmdorga sadoqating?

Boyagi vajohatidan ayrilib, suvga tushgan mushukday shalpa-yib qolgan Yo'lbars bu gapdan so'ng qo'rquvdan dag'-dag' qaltirashga tushdi.

Keksa tulki bo'riga yuzlandi.

- Sichqon, to'ng'iz kabi tuban maxluqlarni izzatlash qachondan beri qadriyat bo'lib qoldi? Kallang bormi sening!

Bo'ri nimadir demoqchi bo'ldi, biroq jag'lari bir-biriga yopishib qolgandek tili kalimaga kelmadi.

- Ho'kizday gavgang bo'lgani bilan tovuqnika aqling yo'q! - dedi u Ayiqqa. - Yoshlarni emas, o'zingni tarbiyalash kerak.

Ayiqdan sado chiqmadi.

- Sizlarning holingiz shu bo'lsa, hukmdorimizning oldiga kirishga majburman, - deb keksa tulki hassasini do'qqillatgancha mahkamadan chiqib ketdi...

Keyin nima bo'пти, deysizmi? Nima bo'lardi, uch og'a-ini ertasi kunioyq kekxa tulkining kulbasiga yugurib borib, undan kechirim so'rashibdi.

Shu kunlarda kekxa tulki boshchiligida muchal hisobi tanqidiy ruhda qayta ko'rib chiqilayotgan ekan. Birinchi galda tovuq, quyon, maymun, sichqon, sigir, it, baliq, ot, to'ng'iz, qo'y kabi zoti past o'txo'r va kemiruvchilarning kavushi to'g'rilanibdi. Yangi muchal o'n yillik qilib tuzilsa, ixcham va qulay bo'ladi, degan aqlli qarorga kelishibdi.

Arslon, Yo'lbars, Ayiq, Bo'ri, Tulki, Qoplon, Sirtlon, Chayon, Ilon, Quzg'un singari oliynasab jonivorlar yangi muchaldan joy olarmish. Eng muhimi, bu ezgu ish paysalga solinmasdan, eshik qoqib turgan yilning ilk kunidan amalga kiritilarmish.

Xullas, Arslon yilida ko'rishguncha omon bo'ling, azizlar!

## UYG'UN RO'ZIYEV

1974-yilda Samarqand viloyati Qo'shrabot tumanidagi Jo'shqishlog'ida tug'ilgan. Samarqand davlat universitetining o'zbek filologiyasi fakultetini tugatgan. Birinchi kitobi - "Umringizga umr qo'shilsin" (1993). "Atirgul" romani (1999), "Qadr kechasi" (2004), "Tog'lar iskanjasi" (2006), "Oq cho'qqining bolasi" (2006) qissalari, "Tongda qaytgan kaptar" (2001) hikoyalar to'plami chop etilgan. "Shuhrat" medali bilan taqdirlangan.

## OQ YOMG'IRLAR

Osmonda chaqmoq chaqib, momaqalibroq gumburladi. Haligina yomg'ir tomchilab turgan edi, birdaniga no'xatdek-no'xatdek do'l yog'ib, ortidan ayovsiz yomg'ir quyib berdi. Soy tarafdan eshitilgan bolalarning qichqirig'i momaqalibroqning vahimasidan ham oshib tushdi. "Odam oqib ketyapti, odam!" - deya qichqirishardi ular. Quturib oqayotgan selning shovullashi bolalarning qichqirig'iga qorishib battar vahima solar, bunday shovqin-suron-da yomg'irning shitirlashi sezilmay ketdi. Odamlar selni ko'rish uchun ikki tarafdan soyning qirg'og'iga yugurib kela boshladilar. Sel tobora qo'rqinchli tus olib oqar, jingalak sochli o'spirin yigitning goh ko'rinib, goh ko'rinmay oqib ketayotganini ko'rgan odamlar sarosima ichida soyning ikki qirg'og'idagi hovlilar osha yugurib qichqirishardi. Yigitning kimligini, qayoqdan oqib ketayotganini bilolmay, bir-birlaridan so'rashar, uning suv yuziga qalqib chiqqanida qo'llari bilan tipirchilab harakat qilganiga ko'ra hali tirikligini tasmollashar, kimdir undan oldinda bir buzoqning ham oqib ketayotganini ko'rganini aytisa, yana kimdir o'sha bola qandaydir daraxt shoxinimi, arqonnimi mahkam ushlab olganligini ko'rganini shoshib-pishib tushuntirardi. Nima bo'lganda ham



ular yigitning qir etagida yashaydigan doya kampir Zulayhoning o'g'li Xudoyberdi ekanligini bilishmadi. Yigit esa soynning ikki qirg'og'idagi odamlarni ko'rdi, ularni tanidi.

O'spirin yoz jaziramasi boshlangan shu kunda yomg'ir yog'ishi-yu, tog'dan dahshatli sel kelishini kutmagan edi; nainki u, hech kimning xayoliga ham kelmagan edi. Bunday badqovoq bulutlar odatda aprel osmonidan suzib o'tguvchi edi. Hatto iliq may kunlarida ham ular dahshat solib o'tib qolsa, odamlar ajablanishmasdi. Ammo ayni iyunning jazirama kunlari boshlangan bir paytda ko'kda quyuv ko'lankaning paydo bo'lishi hech kimning xayoliga ham kelmaydi. Qishloq chekkasidagi qir etagini kesib o'tgan chuqurlikda o'zining sevimli Baxmalchasini o'tlatib o'tirgan o'spirin bulut bostirib kelganini sezmay qoldi. Bu kiprik qoqqudek bir lahzada yuz berdi. Avvaliga g'arb tomondan shamol esdi, keyin quyosh yuzini bulut to'sib, yomg'ir isi keldi. Qoratosh cho'qqisi ustida qora bulut ko'rindi. U dastlab qoyalarga, biroz vaqt o'tib adirlarga ham soya tashlab, asta-sekin qishloq ustiga suzib kela boshladi. Tog' bir zunda quyuv tuman ichiga sho'ng'igandek ko'rinmay qoldi. Ketma-ket chaqmoq chaqnadi - bu tog'da kuchli jala quya boshlaganidan darak edi. Lekin yigitcha o'z xayollariga g'arq bo'lib, bunga e'tibor bermadi. Baxmalcha bamaylixotir o'tlar, yigitcha o't-o'tanlar ustiga yotib, yuziga qalpog'ini yopgancha uning o't yeyishini tinglardi.

Quyuv ko'lanka qishloq ustiga ham yopirilib kelib, asta-sekin yomg'ir tomchilay boshladi. Yomg'ir isi qalpoq ostiga mo'ralab kirib, yigitga huzur bag'ishladi. Yigitcha bulutlar bilan bekinmashoq o'ynayotgandek, qalpog'ini yuzidan olmadi. Go'yoki hozir uning tepasiga bir parcha oppoq bulut kelgan-u, undan oq yomg'irlar tomchilayotganini xayolidan o'tkazdi. Biroq sho'x-sho'x tomchilar do'lga aylanib, do'ppiiga urilib "tik-tik" tovush chiqardi. Kutilmaganda eshitilgan dahshatli shovullash esa shunday huzurning beliga tepdi. Yigitcha qalpoqni yuzidan olib, ajdarday o'kirib kelayotgan selni ko'rdi-yu, yuragi taka-puka bo'lib ketdi va sakrab o'rmdan turdi. Buzoq ham selni ko'rishi bilan jon haybatida qochishga urindi, ammo qoziqqa bog'langan uzun arqon uni to'xtatib qoldi. U tipirchilab o'zini har yoqqa urar, lekin

chuqurdan qochib chiqishning iloji yo'q edi. Yigitcha bir hamlada qoziqni yerdan sug'urib oldi-yu... Tamom. Qolganiga ulgurmadi. Yo'lida uchragan narsa borki domiga tortib kelayotgan beshafqat sel ularni ham yutib ketdi. Qanday hodisa ro'y berganini yigit deyarli ilg'amay qoldi. Bir zunda dunyo chirpirak aylanib ketgandek bo'ldi. Yorug'lik zulmatga aylandi, quloqlari shang'illadi. Sel o'kirib-pishqirib yugurayotgan tirik ajdarhoga o'xshardi. U ilonizi chuqurlik bo'ylab shiddat bilan olg'a intilardi. Domiga tortilganlar ham u bilan birga jarliklarga urilib-urilib, yumalab-yumalab oqib borishardi. Yigitcha daraxtlarning shox-shabbalari-yu tuyaday xarsang toshlar ham suv tubida koptokdek yumalab kelayotganini payqadi. U tipirchilab yuqoriga talpindi. Nihoyat yorug'likka chiqdi. Nafas olishga chog'langanida avval og'zidan bo'tana suv otilib chiqdi, keyin o'pkasini to'ldirib nafas oldi-yu, sel yana uni pastga tortib ketdi. Yigitcha yana boyagiday qo'rqinchli zulmatqa'riga g'arq bo'ldi. Lekin u endi qanday olishuv bo'layotganligini, bir zum harakatdan to'xtasa tilka-pora bo'lib ketishini, intilisa, yuqorida yorug'lik borligini va to'yib nafas olishi mumkinligini angladi. U kaftini qiyib ketay deb turgan arqonni hamon ushlab turganini-sezdi-yu, Baxmalcha ham shu selda oqib ketayotganini tushundi va endi jon-jahdi bilan yuqoriga intildi. Suv yuziga chiqib, yana o'qchidi. Qo'lansa bo'tanadan xalos bo'lib, to'yib nafas oldi. Oldinda Baxmalchaning boshi ko'rindi. U ham hirqirab bir nafas oldi-da, yon-veriga alangladi. Ikkovlon ulkan ajdahoning izmiga bo'ysinib oqishar, ularni tutashirib turgan arqon esa uzilib ketgudek tarang tortilib borardi.

... Baxmalcha uning eng yaxshi ovunchog'i va sirdoshi, do'stiga ham aylangandi. Yirtiq koptokning ichiga uvada tiqib adirda o'ynab yurgan bolalarga Xudoyberdining qo'shilgisi kelmasdi. Ular qo'poldan qo'pol hazillar qilishadi. Shermat degan zo'ravon: "Xudoyberdi, onang qayerdaligini bilasanmi, sendan xabar olgani keladimi?" - deb ataylab g'ashiga tegaveradi. Bolalarning xiring-lashlaridan Xudoyberdi mulzam bo'ladi.

Bir kuni u Zulayhodan so'radi:

- Ena, mening ota-onam kimlar, ular qayerda?

Kampiring yuragi uvishdi. Bolakayning ma'yus ko'zlaridan ko'ngli bir narsani sezganday bo'ldi.

- Otang rahmatli vafot etganida, sen go'dak eding. Onang esa menman-ku, jon bolam, - dedi lablari qaltirab.

- Bolalar Zulayho momo sening onang emas, seni unga tashlab ketishgan, deyishyapti.

- Bekorchi bolalar har narsani vaysayverishadi. Ularga quloq solma.

Kampiring vujudi titradi. Odamlarning beshafqatligidan ko'ngli o'ksidi. Biroq bosiqlik bilan jilmayib, bolaning boshini siladi.

- Sening otang Oq bulut, onang esa Oq yomg'ir, - dedi xo'rsinib. - Mening yakka-yolg'iz o'g'lim bor edi. U yaratgan egamning menga bergan ehsoni edi. Lekin peshonamga sig'madi. Undan ayrilganimdan keyin tun-u kun egamga yolvordim. Menga o'g'limni qaytarib ber, dedim. O'zing yuborgan ehsonni o'zing bemavrid qaytarib olasanmi, dedim. Ohlarim yetdi shekilli, bir kuni kechasi osmonni quyuq bulut qopladi. Momoqaldiroq gumburlab, chaqmoqlar chaqnadi. Sharros yomg'ir quydi. Yomg'irlardan ham, chaqmoqlardan ham qo'rqmay tashqariga chiqib, yana egamga yolvoravordim. Shunda mo'jiza yuz berdi: bulutlarning o'rtasida boshqa bir oppoq bulut paydo bo'ldi va oq bulutdan oppoq yomg'irlar yog'a boshladi. Oq bulut pastlab keldi-da, oq yomg'irlar osmonga uzalgan qo'llarimga oppoqqina yo'rgakdagi bir chaqaloqni tutqazib ketdi. Bu sen eding, bolajonim. Marhamatidan benasib qilmagani uchun yaratgandan umrbod roziman. Qo'llarim duoga ochiq, boshim sajdada. Farishta momolar ham shod bo'lsin, deb bo'g'ir-soqlar pishirib, qo'ni-qo'shnilarga tarqatib turaman. Axir, o'g'limni xudo menga qaytarib berdi. Sen mening qaytib kelgan Ehsonimsan.

Bolaning ko'nglidagi og'riq bir zumda tumanday tarqab ketdi. Zulayho uni quchoqlab peshonasidan o'pganida, bolakay o'zini go'yo oq bulutning bag'rida nafas olayotganday sezdi.

Bahor kelib, o'to'lanlar nish urib qolgach, Xudoyberdi har kuni maktabdan kela solib apil-tapil nonushta qilganidan so'ng Baxmalchani arqonidan yetaklab, adirda o'ynayotgan bolalardan uzoqroqqa, qishloq chekkasidagi qir etaklariga borib uni o'tlatib ke-

ladigan bo'ldi. Uning quvnoq kayfiyatini ko'rgan kampir ich-ichidan shodlanib, o'g'liga ovunchoq bo'lgan Baxmalchaga mehri ortgandan ortdi. Zotan, kampiring ulardan boshqa biror suyanchi ham, hasratdoshi-yu qarindoshi ham yo'q. Erining Langartog'da qarindoshlari borligini bilardi. Ammo ular ham allaqachon begonaday bo'lib ketishgan, erining tirikligida qarindoshlik rusmlarini bajarolmagan bu odamlar bilan endi uning vafotidan keyin rish-ta bog'lashga urinish befoyyda. Zulayho bu qishloqqa kelin bo'lib kelganida, odamlar bechorahol yashayotgan bo'lsalar ham, lekin yoshlik zavqi bilan uning ko'ziga hayot behad go'zal ko'rinar. Eri xo'jalikka ishga kirdi, uni esa qishloq ahli hashar yo'li bilan qurgan kasalxonaga ishga olishdi. Tug'ilish ko'p edi. Shu paytgacha ularida qanday azoblar bilan tug'ib yurgan ayollar endi shifoxonada Zulayho doyaning ko'magi bilan osongina ko'z yoradigan bo'lishdi. Qanchalab ayollarga onalik quvonchini ulashgan Zulayhoning o'zi yetti yil deganda farzandli bo'ldi.

Eri endi xo'jalikning ishi bilan birga otalik mas'uliyatini ham yaxshi his qila boshladi. U har kuni albatta vaqt topib uyga kelar, ro'zg'orning kam-ko'stini to'ldirar, beshikdagi o'g'ilchasi Ehsonni biroz erkalib dam olardi. Ehson endigina emaklay boshlaganda, ona-bola bir paytda qattiq shamollab qolishdi. Yozmachilarning "sharfati" bilan xo'jalikda tekshir-tekshirlar avj olib, Zulayhoning eri bosh qashishga ham vaqt topolmay qiynaldi. Ammo u shunday tig'iz vaziyatda ham har kuni qosh qorayganda uyga birrov kelib, xotini bilan o'g'lining ahvolidan xabar olishni kanda qilmadi. U yo'l-yo'lakay fermaga kirib, sut sog'uvchi kampirdan iltimos qilib bir kosa sut olib uyga kelar, ona-bolaga shifo bo'lsin, deb uni qaynatib ichishni Zulayhoga tayinlab ketardi. U ikki kun sut olib keldi. Uchinchi kun esa fermadan qo'lida sut bilan chiqayotganida ushlab, militsiya idorasiga olib ketishdi. Shu kundan uni uyiga qaytarishmadi. Xo'jalik rahbarlarini kamomadda, uni esa umumxalq mulkini o'g'irlaganlikda, binobarin, davlatga xiyonat qilganlikda ayblab, qamab yuborishdi. Ana shunda Zulayhoning boshiga malomatlar yog'ilgandan yog'ildi. U yolg'izlanib qoldi.

Eri qamoqdan xastalik orttirib qaytdi. Ishlashga kuch topa olmadi. Ba'zan ko'ksini changallab qattiq yo'talib qolar, og'riq-

ning zo'ridan yuzi ko'kimtir tusga kirib, laxta-laxta qon tuflardi. Zulayho qanday malham bo'lsa, barini topib kelib, uni davolashga urindi. Lekin erining uch-to'rt yillik umri qolgan ekan, undan narisiga o'tolmadi. Xayriyatki, Ehsanning bo'yi cho'zilib qolgan edi. Zulayho unga suyanib taskin topdi. Ehsan maktabni bitirib, bir-ikki oy xo'jalik dalasida ishlab yurdi. Keyin uni armiyaga chaqirishdi. Zulayho har lahza xavotir olib, undan maktub kutdi. Ehsan "harbiy xizmatni Mo'g'ulistonda o'tayapman", deb xat yozib turgan edi-yu, lekin "qoraxat" kelganidan keyin uning Afg'onistonda xizmat qilganligi oshkor bo'ldi. Zulayhoni yolg'izlik qaritdi. U halizamon eri bir kosa sut ko'tarib kelib qoladiganday yoxud alp qomatiga harbiy kiyimlari yarashgan Ehsan ro'parasida paydo bo'ladiganday, "tiq" etgan tovushga quloq tutib yashayverdi.

Yomg'irli kunlarning birida ko'cha eshigi qattiq taqilladi. Kampir ming bir xavotir bilan eshik tomon shoshildi. Tashqarida yomg'irdan ust-boshi shalabbo bo'lgan bir yoshgina juvon yo'rgaklangan chaqalog'ini bag'riga bosib, diydirab turgan edi. Juvon kam-pirdan ichkariga kirishga izn so'radi. Zulayho shosha-pisha ularni uyga olib kirdi. Kampir chiroq yorug'ida ayolning yuz-ko'ziga razm solib, uning bu qishloqqa begona ekanligini bildi. Uning kiyimlarini quritib olishiga, chaqalog'ini boshqatdan quruq mato bilan yo'rgaklashiga ko'maklashdi. Shiringina chaqalog'iga havasi keldi, uni qo'lga olib erkaladi. Keyin choy ichib, allamahalgacha suhbattashib o'tirdilar. Ayol, o'zining aytishicha, uzoq tog' qishlog'idan ekan. Shaharda institutda o'qirgan. Avtobusga ulgur olmay, yo'lovchi mashinaga chiqibdi. Mashina mana shu qishloqqa cha kelgan, nariyog'iga esa boshqa ulov topilmagan. Kech bo'lib qolgani uchun bir kecha tunab qolishga joy qidiribdi. Odamlardan so'rab, doya ayolning yolg'iz yashayotganligini, unikida tunab qol-sa hech kimga malol kelmasligini bilibdi.

Tongga yaqin chaqaloq bezovtalanib yig'lay boshladi. Zulayho, onasi emizib tinchantirar, deb birpas quloq solib yotdi. Lekin bola battar yig'layverdi. Kampir o'girilib qarasa, ayol o'rni-da yo'q. U go'dakni qo'lga olib allaladi. Qancha kutmasin, haligi ayoldan darak bo'laver-madi. U yig'layotgan chaqaloqni adyolga o'rab, hovliga ko'tarib chiqdi. Ko'cha eshik ochiq qolganini ko'rib, Zulayho

nimanidir anglaganday bo'ldi, biroq bu yoqimsiz fikrni xayolidan quvishga urindi. Ammo norasida go'dakda nima ayb? Zulayho bu bolani tangrining inoyatiga yo'ydi. "Ehtimol Ehsanim shu go'dak shamoyilida uyimga qaytib kelgandir", deb o'yladi. "Uni men-ga xudoyimning o'zi qaytarib berdi", deya quvonib, chaqaloqqa Xudoyberdi, deb ism qo'ydi. Xudoyberdi ulg'aygani sari qaysidir jihatlari goh erini, goh Ehsanni eslatardi. Ehsanni ayni yigit bo'lib yetilganida "tinch mamlakat"ning "begona" urushlari hayotdan yulib ketdi. Hozir esa hayot boshqacha. Tekshir-tekshir, qama-qama, urho-ur zamonlari ortda qoldi. Endi yurt tinch. Odamlar hayotlarini o'zlari istaganday quradilar. Zulayho Xudoyberdining bo'y-bastiga qarab shularni o'ylarkan, xotirjam jilmayib qo'yardi.

Lekin kutilmaganda bir dilxiralik uning xotirjamligini buzdi. Ko'cha-ko'yda bolalarning, hatto ayrim tiyiqsiz kattalarning ham Xudoyberdini "tashlandiq", "yetimcha", deb masxara qilishlarini, bundan Xudoyberdining dili o'ksib, kunjak-kunjaklarda Zulayhoga ko'rsatmay yig'lab-yig'lab olishini payqab qoldi. Shunda uning vujudi olov bo'lib lovulladi, og'ziga egalik qilolmagan odamlardan ko'ngli qoldi.

\* \* \*

Sel shiddatini oshirgandan oshirib, qishloqni qoq ikkiga bo'lib turgan soyga kelib quyildi. Bu soyga atrofdagi qir-adirlardan, ko'cha va hovlilardan oqqan yomg'ir suvlari ham quyiladi va ular bari jamlanib, soyda go'yo to'fon ko'tarilgan dengiz manzarasi-ni hosil qiladi. U qishloq o'rtasidagi soydan ko'pirib-toshib oqib o'tarkan, yanada dahshatli pishqirar, yanada vahimali o'kirardi. Bunga javoban yigitcha ham qattiq kurashga kirishdi. Faqat arqon chap qo'lini qiyib, qontalash qilib yuborgani uni azoblay boshladi.

Yigitcha ikki qirg'oqda kimki ko'ringan bo'lsa, hammasini tani-di. Qirg'oq yoqalab chopayotgan bolalarni ham, Shermat zo'ra-von-ni ham ko'rdi. Ular qanchalik yugurishmasin, baribir ortda qolib ketaverdilar, chunki sel ulardan ham chaqqonroq ekanligini ko'rsat-tar, shiddatining zo'rligidan ko'pirib-pishqirardi. Xudoyberdi sel bilan o'chakishgani sayin sel ham o'zining qanchalar qudratga ega ekanligini unga namoyish qilaverdi. Arqon tobora taranglashib,

yigitning qon sizayotgan qo'lidan kuch ketayotgan edi. Baxmalcha esa qachonlardan beri suv yuzida ko'rinmay qoldi. Mana, nihoyat bir burihga yetganda Baxmalcha sel to'lqinlariga qo'shilib bir ko'tarildi-yu, yana suv ostiga sho'ng'ib ketdi. Yigitcha buzoq-da tiriklik nishonalari ko'rmadi. Kaftini qiygan argon qo'li-dan sirg'alib chiqib ketdi va u Baxmalcha undan yashin tezligida uzoqlashib borayotganini sezdi. U oxirgi kuchini jamlab, sel bilan kurashishni davom ettirmoqchi bo'ldi. Lekin bunday katta qudrat-ga qarshi yolg'iz o'zi hech narsa qilolmasligini tushundi. Selning shashi hali-beri susayay demas, qishloq tobora ortda qolayotgan, oldinda esa bepoyon kengliklar boshlanayotgan edi. Yigitchaning boshi bir narsaga qattiq urildi-yu, uning ko'z oldi yorishib ketdi. Biroq keyin yana bir zumda ko'zlarini zulmat qoplatdi va u endi o'zini yengilgina his qila boshladi. U endi qo'l-oyoqlarini harakat-lantirmay, o'zini oqim ixtiyoriga qo'yib berdi. Shunda yonginasida kimdir unga gapirayotganini payqab qoldi. O'sha "kimdir" hayqi-rib unga nimalarnidir gapirar, uning gaplarini sel shovqinida tezda anglash mushkul edi. Yigitcha yon-veriga alangladi, lekin hech kim ko'rinmadi.

- Kim u? - dedi u hayaionlanib.

- Bu menman, - dedi kimdir yonginasida.

- Siz kimsiz?

- Men selman.

- Sel?!

- Ha, selman. Qachondan beri senga gapirib kelayapman, ammo sen javob qaytarishni istamayapsan. Uning o'rniga men bilan olishib kelayapsan. Mana, nihoyat meni yengolmasligingga fahming yetdi.

- Siz mening g'aflatda qolganimdan va yolg'izligimdan foy-dalandingiz. Sizing haybatingiz oldida bir o'zim ojizlik qildim. Siz esa shuncha qudratingizni men bilan Baxmalchamga ko'rsatib qo'yishdan uyalmadingiz. Aytgancha, siz ham yovuzlarning birisiz, buni loyqaligingizdan ham bilsa bo'ladi.

- Yanglishasan, bolakay. Biz, sellar aslida tiniq va pokizamiz. Ko'zingga ko'rinib turgan mana bu bo'tana bizning aslimiz emas, balki, yo'limizda uchragan g'uborlar bizning qiyofamizga shunday

tus berib qo'rgan. Biz yo'limizdagi hamma narsani oqizib keta-miz. Nimalar tashlanmagan deysan bu soylarga, o'yinqaroq sham-ollar nimalarni supurib kelmagan deysan bu o'zanlarga. Lekin bar-cha g'uborlar mana shu chuqurliklarda deb o'ylaysanmi? Ikkala qirg'oqqa qarab nimalarni ko'rding: qo'l qovushtirib tomosha qilayotgan loqaydlar, ko'z-ko'zga tushganda bir-biriga qahrini so-chayotgan johillar, o'zlarini cheksiz qudrat sohibi, deb sanasa-da, suv shashtidan vahimaga tushgan kimsalar...

- Biz hech kimga yomonlik qilmaganmiz. Siz bo'lsangiz...

- Sen mendan ranjima, bolakay, men seni qiynamadim, aksin-cha, yordam berdim, qo'limdan kelgani ham shu. Ehtimol hech kim senga bunday muruvvat qilolmasdi ham. Seni ko'p ranjitish-gan, ko'p o'ksitishgan. Bularni hasrat qilmasang ham bilaman, akalaring aytishgan. Mendan avval bu yo'llardan akalaring o'tish-gan. Sen o'shanda ham qirg'oqda o'tirib, akalaringa termilgancha yum-yum yig'lagansan. Boyagi chuqurlikda hech kimga ko'rsat-may ko'p marta yig'laganingni ham bilaman. Qumlarga singgan ko'z yoshlaringni akalaring yuvib o'tganlar. Ular yo'llarida nimani ko'rgan bo'lsalar bizga aytishgan.

- Demak, o'kirishlaringiz, pishqirishlaringiz bejizga emas ekan-da?

- Ha, biz shunday gaplashamiz. Biz o'kiramiz, pishqiramiz, ba'zan o'zanlarga sig'may qirg'oqlardan toshib chiqamiz. Shunda odamlar bizning bunday harakatimizni ofatga yo'yishadi. Lekin odamlar paydo qilayotgan ofatlar oldida bizniki hech narsa emas. Ular ko'pdan ko'p shafqatsizliklar qiladilar.

Sel boshqa hech narsa demadi. Ehtimol shiddatiga erk berib, qilib qo'rgan shoshqaloqliigidan afsus chekayotgandir. Uning shashti ham pasaydi va uni yutoqib kutib turgan bepoyon qumliklar bo'yab yoyilib ketdi.

Xudoyberdi suvga bo'kkan qumlar ustida uzoq yotdi. Bir payt yuzini kimdir silaganday bo'ldi. Dimog'iga seldan qolgan qo'lansa hidlar emas, gullar ifori urilganday, yengil nafas oldi. Ko'zlarini ohista ocharkan, keng osmon ko'rindi. Yomg'ir-u momoqaldi-roqlari bilan shovqin solib kelgan qora bulutlar yiroqlab ketgan, faqat uning shundoqqina ustida bir to'p oppoq bulut suzib yurar-

di. Yigitcha ana shu bulutga termilib yotdi. Boyagina yaqinroqda ko'ringan oq bulut tobora uzoqlashib ketaverdi. U qontalash bo'lib ketgan kaftlarini qumga tirab, zo'rg'a o'midan qo'zg'aldi. Nimalar ro'y berganini xotirjam eslashga urindi. Baxmalcha esiga kelib, uni qidirib atrofga alangladi. Biroq qumga yarmi ko'milib qolgan xar-sang toshlar, katta-kichik shox-shabbalar, suvga qongan butalardan boshqa hech narsani ko'rmaganidan xo'rliqi keldi. O'zining aft-an-goriga esa qarab bo'lmasdi. "Shunday abgor ahvolda uyga kirib borsam, enam yana qo'rqib ketsa kerak", deb o'yladi. U og'rinib o'rnidan turdi-da, boshini xam qilganicha qishloqqa, yana o'sha odamlar orasida hasratlarini yashirib yashayotgan mushtipar ayol-ning yoniga qaytish uchun horg'in qadam tashladi.

Uzoqlarda qolib ketgan qishloqning bir ko'rimsiz uyida esa mana bu mashmashalardan mutlaqo bexabar mushtipar kam-pir mazali bo'g'irsoqlar pishirdi va halizamon daladan buzog'ini yetaklab kelib qoladigan o'g'li uchun qora qozonga ovqat solib, so'ngra uning kir bo'lib ketgan ko'ylaklarini yuvib qo'yish tarad-dudida eski tog'ora turgan ayvon tomonga ketdi.

## BAXTIYOR ABDUG'AFUR

1980-yilda Namangan viloyati Uychi tumani Yorqo'rg'on qishlog'ida tug'ilgan. "Oltinchi yo'lak", "O'lamlar kurashi. Malikaning mash'um bitigi" (2010), "Kibr minorasi" (2016), "Qonli gullar vodiysi" (2017), "Uzbechka yoxud snayper qiz haqi-da qissa" (2019) nomli kitoblari chop etilgan. "Sulton Jaloliddin Manguberdi" roman-dilogiyasi (2021) muallifi.

## YONARGUL

Bu rastada dunyoning eng anvoyi gullari yig'ilganmi, deysiz. Oppoq nilufarlardan tortib, turfa rangdagi atirgullargacha, chinni-gullar-u lolalar, barglariga barmoq tekkizsangiz, yumilib oladigan uyatchangullargacha barq urib turibdi. Eh-he, sanayman desangiz, sanoqdan adashasiz. Ahli rastaning o'zi ham nozik did, shirinsu-xan. Kelgan xaridorni shundoq qo'yib yubormaydi. Erinmay tu-shuntirib, gullarining ta'rif-dostonini keltiradi. Xullas, shahri azim-da bu rasta alohida bir olam.

Ammo rastaning mashhurligi bu bilan emas. Faqat shu yerda bir ajib gul sotiladi. Nomi - Qora afsun. Ko'rinishi nozik, endigina ochilgan atirgul kabi. Qizig'i, gul yaproqlariga tushgan suv tom-chilarini qo'yib yubormaganidan quyosh nurlarida betakror tovla-nayotgandek tuyuladi! Bu gulning yana bir xislati bor - o'ta injiq, o'stirish qiyyin. Ekilgan yuzta qalamchadan bittasi gul ocharmish.

Bugun azonda, hali rastada xaridor va gulsevarlar ko'rinmas-dan bir yigit paydo bo'ldi. U gullarni tomosha qilib, qora afsunlar terilgan peshtaxta yoniga keldi. Sotuvchi - ellikdan hatlab o'tgan, qora afsun yetishtirish bo'yicha mutaxassis Qamar gulchi yigitni xushhol qarshiladi.

- Salom, Qamar aka sizmisiz? - so'radi yigit.

- Ha, menman.

Yigit qora afsunlarni uzoq ko'zdan kechirib, Qamar gulchiga qaradi.

- Bu gulingizga ta'rif yo'q, ammo mendagisini ko'rganingizda, hayratdan yoqangizni ushildingiz.

Qamar gulchi jilmaydi.

- Qanday gul ekan? Ko'rsak bo'ladimi?

Yigit qo'lidagi yukxaltasini ochib, kimyogarlarning tajribaxonalaridagina bo'ladigan uzun shisha idishni oldi. Uning ichida qora afsunga o'xshash gul bor edi. Qamar gulchi yaxshilab razm solib, o'zining gulini taniganidan taajjubga botdi. - "O'zinning gulim..."

- Gulni qachon sotib olgandingiz? - Qamar aka bu yigitga qachon gul sotganini esloimadi.

Endi yigit jilmaydi.

- Buni sizdan sotib olmaganman, o'zim yetishtirganman.

Yigitning javobi Qamar gulchiga surbetlikdek ko'rinib ketdi.

Bir vaqtlar olimlik zahmatini chekkan Qamar gulchi bundan yigirma yillar oldin o'zini gulchilikka urdi-yu, taqdirini shunga bog'ladi. Qora afsun uning ko'p yillik zahmatlari mevasi edi. Minglab gullarni chatishtirib, omadsiz, natijasiz tajribalardan so'ng shu gulni o'stirishga muvaffaq bo'lgan, gulning bor sir-sinoati bit-ta Yaratgan-u undan o'zgaga ma'lum emasdi. Shuning uchun na faqat bu shahri azimda, balki kurrayi zaminda qora afsun Qamar gulchining issiqxonasida o'sardi. Olimlar gulni ko'p o'rganishgan, DNKsi-yu irsiyatining tit-pitini chiqarib tashlashgan, ammo gul o'z sirini hanuz ochmasdi.

- Balki do'koningizga kirarmiz, - taklif qildi yigit.

Ertalabdan ta'bi buzilayotganidan Qamar gulchi asabiylashdi. Bu yigit uni mazax qilayotgan bo'lmasin. Ko'rinishi ham g'alati. O'zi anaqaroqmikin? Ammo uning jiddiy tikilib turgan ko'zlaridan bo'shshib, Qamar gulchi uni do'koniga taklif qildi. Eshikdan kira solib, chiroqni yoqmoqchi bo'lganida yigit shoshib:

- Keragi yo'q! Aslo keragi yo'q! - dedi.

Qamar gulchi taajjubga botdi. Shunda uning ko'zlari zaif yorug'likni sezib qoldi. Xuddi do'konning olis bir burchida sham

yoqib qoldirilgandek tuyulardi. Qamar gulchi hayron bo'lib, u yoq-bu yoqqa alangladi. Yo'q, topolmadi. Kutilmaganda uning ko'zlari yigitning qo'lidagi shisha idishga tushdi-yu, hayratdan og'zi lang ochilib qoldi. Idish ichidagi gul zaif shu'la tarayotgan, shisha esa uni xiyla yorqinlashtirib berayotgan edi! Qamar gulchi nafas olishni ham unutib, gulga baqrayib qoldi. Yo, alhazar! Tushimi yoki o'ngi? Hech zamonda gul ham shu'la taratadimi? Shunda Qamar gulchini kallasiga o'y keldi: "Sun'iy gul-ku!"

U bo'shshib, yengil nafas ola boshladi.

- Odamni rosa qo'rqitdingiz. Gulingizning sun'iy ekani xayolingma ham kelmadibi.

- Sun'iy emas, tabiiy.

- Tabiiy?! Bo'lishi mumkinmas!

Notanish kishi shishani ko'tarib, gulni Qamar gulchiga tutqizdi. U xuddi cho'g'ushlayotgandek qo'rquv va hadik bilan gulbandidan asta tutdi. Bir muddat jur'ati yetmay turgach, qo'rqa-pisa gul kosachasini avval ushlab, so'ng ezib ko'rdi. Ezilgan joydan suv chiqsa-da, u ishonish-ishonmasligini bilolmay qoldi. Gul tabiiy, rostakam edi.

- Sizga bir taklifim bor, - deb qoldi dabdurdustdan g'alati notanish.

- Qulog'im sizda, - hayajonini bazo'r bosishga urinardi Qamar gulchi.

- Gulchilikda benazirsiz, keyin, - garchi o'zlari bo'lsalar-da suhbatga maxfiylik tusini bergandek ovozini pasaytirdi, - siz ancha ishonchli odamsiz. Sizdaqalarni kunduzi chiroq yoqib topib bo'lmaydi.

Qamar gulchi yana hayajonlanayotgani, buning ustiga asabiylashayotganini sezdi. Uning peshonasida yiriklashayotgan ter tomchilari gulning endi xiyla kuchaygan yog'dusida yiltiray boshladi.

- Qanday taklif edi?

- Shu gullarni, - yigit qo'lidagi shisha idishga ishora qildi, - o'zingiz ekib, ko'paytirasiz...

- O'zim?!

- Ha.

- Uyimda-ya?!

- Albatta.

Qamar gulchi yengining orti bilan peshonasidagi termi sidirib tashladi. Endi tekis nafas olib, o'zini ancha bosib olganidan miyasi ravon ishlardi. Gulni eksa, bozori yanada chaqqon bo'ladi. Xaridorlar faqat undan gul xarid qiladilar. Bu yog'i endi oddiy arifmetika... U entikdi.

- Qanday kelishamiz? - so'radi Qamar gulchi.

- Ellikka ellik! Ma'qulmi?

- Ma'qul! Haligi... sarf-xarajati... - chaynaladi Qamar gulchi. - Qora afsunni yetishtirishning o'zi bo'ladi! Har xil dorilari, har soatda suv purkab turgani odam yollash...

- Buyog'idan xotiringiz jam bo'lsin. Bu gulni yetishtirish oson. Ajriqdan ham bardoshi, hamma yerda o'saveradi.

- Yo'g'-e! - Qamar gulchi ishonqiramagandek quyosh ko'tarilib qolganidan yog'dusi so'ngandek ko'rinayotgan gulga qarab oldi. - Ja unaqamasdir...

- Avval ekib ko'ring! Keyin gaplashamiz. Kelisha olamizmi?

Yigit xuddi ketib qolib, boshqa gulchilar bilan kelishib oladigandek Qamar gulchi shoshib qoldi.

- Mayli, mayli, men rozi! Kelishdik.

Yigit yukxaltasidan qog'oz quti olib, Qamar gulchiga uzatdi.

- Bunda gulning piyoz tugunaklari. Shulardan ko'paytirasiz.

Qamar gulchi qutini qo'shqo'llab oldi. Yigit xayrlasharkan:

- O'zim sizdan xabar olib turaman, - dedi.

- Xo'p bo'ladi, - xuddi boshlig'i qarshisidagi laganbardor xodimdek tavozelandi Qamar gulchi.

Qamar gulchi bugungi ishlarini ham unutdi. Do'kondagi shogirdlariga hamma yumushlarni tashlab, qutini qo'tig'iga qisganicha uyiga shoshdi.

Qamar gulchi uyiga kela solib, issiqxonasiga kirib ketdi.

Issiqxonaning katta qismida qora afsun o'stirilganidan ertalab suv purkab chiqilgan gullar ancha ko'tarilib qolgan kuz quyoshida olmosdek jilvalanib, ko'zni quvnatadi. Osmon toqiga yetguncha necha-necha og'ish burchaklarini zabt etayotgan quyosh nurlarida

gulyaproy ustidagi birgina tomchi turfa jilolanadi. Aql bovar qilmaydi!

Qamar gulchi, odatdagidek, gullari jozibas va anvoyi husnidan zavq olishni unutib, qutidagi tugunaklarni ekishga joy qidira ketdi. Ma'qul yerni topgach, hammasini tuproqqa ko'mdi. So'nggi tugunakni ekkach, negadir qo'lsoatiga qaradi...

Ertasi ertalab, ne ko'z bilan ko'rsinki, tugunaklarning bari mish urgan. Eng qizig'i, ayrimlarida chinbarglari ham bor. Qamar gulchi ko'zlariga ishonolmasdi. Axir, bu gulning unib chiqishiga uch kun, nozikkina barg chiqarishi ikki haftalarsiz bo'lmasdi. Ham qiziq, ham g'alati... Lekin bu hali hammasi emasdi. Qora afsun bir oyda zo'rg'a bir qarich bo'lsa, bunisi uch kunda shuncha bo'lib turibdi. Bir hafta deganda rosmana gul butasini berdi. Qamar gulchi endi o'zgacha intiqlik bilan gulning ochilishini, uning shu'lalalarnishini kutardi. U do'koniga bormay qo'rgan, uzzukun issiqxonasida edi.

Nihoyat, o'n uch kun deganda gulning g'unchasi ochildi. Qizig'i, gul kunduzi, quyoshni ko'rganida emas, tunda, oy ko'kda suzib yurgan mahalda ochilgandi. O'sha tuni, negadir Qamar gulchining uyqusi kelavermadi. Tashqariga chiqqisi keldi. Chiqdi-yu hayrat'va qo'rquvdan taxta bo'lib qoldi. Issiqxona oynalaridan zaif yorug'lik tashqariga sizib turardi. Ko'zlari baqrayib, o'lik tusiga kirgan Qamar gulchining yarim ochiq qotgan lablaridan birgina, uzuq-yuluq so'z chiqdi:

- G-g-gullabdi...

Ikki daqiqalar harakatsiz qotgan Qamar gulchining oyoqlariga jon qaytgandek, xasta odamdek issiqxona tomon asta qadamladi. Qo'rqa-pisa issiqxona eshigini ochib, ichkariga kirdi.

Ichkarida, bir necha qator paykallardagi gullar... "yonmoqda" edi! Xiyla o'ziga kelib qolgan Qamar gulchi asta yurib, yonidagi gulga hadik bilan qo'l tekkizib ko'rdi. Gul asta tebranib qo'ydi.

- Aldamabdi! - dedi u yengil so'lish olib.

Qatorlashib, jivir-jivir shu'la taratayotgan gullarni nazardan qayta-qayta o'tkazarkan, u pichirladi: "Menga yetadigani yo'q!..."

Rastada yangi gul paydo bo'ldi. Odamlar hayratda edi - yo alhazar, shunaqasi ham bo'larkanmi?! G'alati gulni ko'rishga ish-

tiyoqmandlar ko'p, Qamar gulchining do'konidan endi odamlar-ning oyog'i uzilmay qolgandi.

Birinchi kungi daromaddan Qamar gulchi entikayozdi. Qancha gul yetishtirayotganini anovi nusxa qayerdan ham bilardi! O'zi gulning tugunaklarini ko'paytiradi, o'stiradi. Issiqxonasidagi bar-cha "qora afsun"larni sug'urib, yangisini ekadi... Xullas, Qamar gulchi miyasida turfa o'y-xayollar o'ynar, rejalar tuzilardi.

Issiqxonada ham ishlar ancha yurishib qoldi. Uch oy deganda gullaydigan qora afsunning o'rni qarama-qarshi Qamar gulchi o'n uch kunda yetiladigan "yonargul"ni ekib, yaxshigina daromad qila boshladi. "Qora afsun"lar tez-tez avlod almashayotgan "yonargul"lar yonida ojiz, ko'rimsiz ko'rinardi.

Oradan bir oy o'tib, yigit gul rastasiga kelib, Qamar gulchi-ning do'koniga kirdi. Qamar gulchi uni ko'rib, noxushlandi, ammo ko'nglidagini sirtiga chiqarmaslik uchun zo'rma-zo'raki, jilmaydi.

- Keling... keling...

- Keldim. Sizni bir ko'rib ketay degandim.

- Juda yaxshi qilibsiz-da, - hojati bo'lmasa-da Qamar gulchi yelkasidagi oq sochiq bilan peshonasini artib oldi.

- Tirikchilik o'tib turibdimi, aka?

- O'tib turibdi, - Qamar gulchining yuragiga negadir g'ulg'ula tushdi.

- Aka, kelishuvdik, esingizda bo'lsa...

- Esimda, esimda, hammasini taxt qilib qo'yganman, - Qamar gulchi o'zi o'tiradigan joydan yelim xaltaga o'ralgan narsani dar-rov topib, yigitga uzatdi.

- Mana, daromadning yarmi.

Yigit qo'lida yelim xaltadagi narsani salmoqlab ko'rdi.

- Kam emasmi, aka? - kulimsiradi u.

Qamar gulchi rosmana terlab ketganidan peshonasini og'rit-gudek artirdi.

- H-hammasi...

Yigit yana salmoqlab olgach, yelim xaltani Qamar gulchining qo'lga tutqizdi.

- O'zingizga buyursin, aka, hali meni ko'p eslaysiz! - Yigit mi-yig'ida kulib qo'ydi.

- Siz meni tushunmadingiz, uka...

Yigit bee'tibor ostona hatlab do'konidan chiqib ketdi.

Negadir Qamar gulchining yuragi g'ashlandi. U do'konidagi hamma yumushlarni tashlab, uyiga shoshdi. Kelib, issiqxonaga kirib ketdi. Oradan bir oy o'tibdi, ammo "yonargul"lardan olgan birorta ham tugunak o'sib chiqmadi. Axir, anavi yigit bergan tugunaklarning bari uningdiki. Nega uniki o'smaydi? Shunda yigit-ning do'konidan ketish oldidan aytgan gaplari yodiga tushdi: "Hali meni ko'p eslaysiz".

Qamar gulchi seskanib ketdi. U bu g'alati bashoratimiz so'zlar-da o'zi uchun noxush narsalarni ang'lay boshlagandi.

Qamar gulchi bu tun juda g'alati tush ko'ribdi. Tushida "yonar-gul"lar "qora afsun"larni shafqatsizlarcha g'ajib, yutib yuborayot-ganmish. Keyin, "yonargul"lar kattalashib, shunaqa shu'la taratish-ni boshlashibdi, ko'zlar ko'rmay qolarmish...

Qamar gulchi uyg'onib ketganida a'zoyi badani jiqqa terga bot-gandi. Notinch ko'ngli uni negadir issiqxonaga boshlardi. U dar-rov o'rmiyan turdi-yu, chala-chulpa kiyinib, issiqxonasiga shoshdi. Ketarkan, g'alati narsani sezib qoldi. Hovlisi ancha yorishgandek edi. U osmonga qaradi. Oy yo'q, zim-zimiston tun. Birdan Qamar gulchining yuragi orqaga tortib ketib, jonholatda issiqxona tomon-ga qaradi-yu, oyoqlari holsizlandi. Yorug'lik issiqxonadan kelardi. Qamar gulchi jonholatda issiqxona eshigini ochdi-yu, qo'rquv va hayratdan qotib qoldi. Bu safar yonargullar emas, ularning yonida-gi ikki jo'yakdagi qora afsunlar shu'la taratardi! Qamar gulchi og'ir yutunib, ichkariga kirarkan, ko'rayotganlari ro'yo yoxud chin ekanligini bilmasdi. Bu qanaqasi?! O'zining gullariga nima jin urdi? Ular nega yog'du taratyapti? Qamar gulchi shu'lalanib tur-gan qora afsunlarning birini qo'rqa-pisa ushlab ko'rdi. Gul tebran-di. Nazarida, issiqxona yanada yorishib ketgandek bo'ldi.

Issiqxonasidagi sinoatga Qamar gulchining aqli yetmasdi. Qanday qilib qora afsunlari yog'du taratadigan bo'lib qoldi?! Ularga nima jin urdi? Negadir Qamar gulchining ko'ngli juda xira, notinch edi bu tun.

Joyiga ming mashaqqat va ming turlik o'y-xayollar bilan qaytgan Qamar gulchining tonggacha uyqusi kelmadi. U yoqqa



O'16 O'zbek Zamonaviy nasri antologiyasi [Matn]: nasr/to'plovchi va nashrga tayyorlovchi Ma'ruf Toshpo'latov. – Toshkent: "O'zbekiston nashriyoti", 2022. – 512 b.  
ISBN 978-9943-8570-0-1

UO'K 821.512.133.09-3  
KBK 83.3(50')



## O'ZBEK ZAMONAVIY NASRI ANTOLOGIYASI

33-jild

Adabiy-badiiy nashr

Muharrir *Sunnat Xo'jaahmedov*  
Badiiy muharrir *Shuhrat Mirfayozov*  
Dizayner *Bobur Tuxtarov*  
Texnik muharrir *Yelena Tolochko*  
Kichik muharrir *Zilola Mahkamova*  
Musahhah *Sadoqat Beshimova*  
Sahifalovchilar: *Shahlo Buriyeva,*  
*Islom Azamatov*

Tasdiqнома raqami № 4642. 22.07.2020-y.  
Bosishga 18-oktabr 2022-yilda ruxsat etildi. Bichimi 60x90 1/16.  
Ofset qog'oz. "PT Astra Serif" garniturasida ofset usulida bosildi.  
Shartli bosma tabog'i 32,0. Nashriyot-hisob tabog'i 29,78.  
Adadi 1 185 nusxa. Shartnoma № 101-1/22 Buyurtma raqami № 22 - 316

Original maket O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligining

"O'zbekiston" nashriyotida tayyorlandi.  
100011, Toshkent, Navoiy ko'chasi, 30.  
Telefon: (71) 244-34-58, (71) 244-24-91.

"O'zbekiston" NMIU MCHJ bosmaxonasida chop etildi.  
Bosmaxona manzili: 100011, Toshkent, Navoiy ko'chasi, 30.